



TA'LIM FIDOYILARI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

2021-YEAR



WWW.TALIMFIDOYILARI.UZ

Google Yandex

VIRTUAL JOURNAL



SCAN ME

«TA'LIM FIDOYILARI» ilmiy-uslubiy jurnali



«INTELLECT EDUCATION OFFICIAL»
NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI

«TA'LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

5 – SON, 1 – JILD MAY – 2021 yil

1 - QISM

Google

@mail

Яндекс



WWW.TALIMFIDOYILARI.UZ

TAHRIRIYAT

Editor in chief

Abdurahmonov Abdushokir Abdukarimovich

Bosh muharrir

Abdurahmonov Abdushokir Abdukarimovich

Preparing for publishing

Hakimova Aziza Xaydaraliyevna

Nashrga tayyorlovchi

Hakimova Aziza Xaydaraliyevna

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Vahob Rahmonov

O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Qobil Kubayev Umarovich

Guliston davlat universiteti, dotsent

Jo'rayev Hamza Hamroqulovich

**Mirzo Ulugbek nomidagi Samarqand davlat
arxitektura-qurilish instituti, dotsenti**

Asqarova O'g'ilxon Mamashokirovna

**Namangan davlat universiteti "Pedagogika va
psixologiya"
kafedrasi mudiri, dotsent**

To'xtaboyev Moxirjon Raximjonovich

**Namangan MOK ilmiy-axborot tatqiqotlar bo'limi
boshlig'i**

Qambarov Ma'ruf Abduhakimovich

Sirdaryo viloyati XTB metodika bo'limi rahbari

Tashpo'latov G'ofurjon G'ulomovich

Filologiya fanlari nomzodi

Usmonova Umida Aybekovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Xurramov Sanjar Ravshanovich

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasi mustaqil tadqiqotchi**



TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MA'NAVIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Qundizaliyeva Safiya Xolmirza qizi

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish

*metodikasi (ma'naviyat asoslari)
yo'nalishi*

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida ma'naviyatni rivojlantirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, ma'naviyat sohasida pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi va ushbu jarayonning samarali tashkil etilishida bir nechta muhim omillar qay darajada ahamiyat kasb etishi va istiqboldagi samarali jihatlar haqida ilmiy fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiya, ilg'or pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, raqamli texnologiya, metod, virtual- stend, internet, xalqaro tajriba, kredit-modul tizimi.

Ma'lumki dunyodagi mavjud barcha jamiyatning kelajagi, taraqqiyoti ta'lim

tizimining qay darajada taraqqiy etgani bilan belgilanadi. Shu boisdan ham, hozirda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan davlatimizning uzluksiz talimni isloh qilish va takomilashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham sir emas. Ta'lim-tarbiya jarayoni murakkab jarayon hisonlanadi. Uning murakkabligi shundaki, modernizatsiya sharoitida ta'limning samaradorligiga erishishdir, samaradorlikka erishish esa ko'plab omillar, xususiyat va tendensiyalar bo'lishini talab etadi. Birinchi navbatda, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchida motiv shakllanganligi, ularning orasida o'zaro munosabat faollik nuqtai nazaridan bog'langanligi, ta'lim oluvchi yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakatda bo'lishi, ta'lim beruvchi esa darsni tashkil etishda uning mukammalligiga, to'g'ri tashkil etilishiga, metodika esa talabga javob beradigan darajada tuzilganligi kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning joriy holati qoniqarli deb bo'lmaydi. Ya'ni bizning targ'ibot-tashviqot ishlarimiz ko'pincha tor doirada qolib ketayotganligi,



hayotning keng qatlamlariga kirib borolmayotganligi, tajribasiz ayrim yoshlarning ongiga yetib bormayotganligining naqadar xavfli ekanligiga maxsus to'xtalish mumkin. Buning uchun milliy tarbiyani yuksaltirishda ham davlat bosh islohotchi bo'lishini e'tirof etib, maktablar, litsey va o'quvchi yoshlar birlashmalari kollejlarda bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutasaddi mutaxassislar lavozimlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish, barcha ta'lim muassasalarida bolalarimizni ongini yuksaltiruvchi, ulami ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli tashkilot va to'garaklar tuzish lozimdir.

Ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun ijtimoiy gumanitar fanlar hamkorligida pedagogika va psixologiya fanlarig'a: oila mafkurasi va uni shakllantirish mexanizimini ishlab chiqish, o'quvchi yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning kompleks dasturini ishlab chiqish, milliy dasturga ma'naviy-mafkuraviy tarbiya yuzasidan qo'shimchalar kiritish, o'quvchi yoshlarni milliy g'oya, mafkura, o'z-o'zini anglash, qadriyatlar ruhida shakllantiruvchi milliy tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish, milliy mafkuraviy kurashning ilmiy-amaliy tizimlarini yaratish, xalqimizning barcha

qatlamlari xususiyatlarini aks ettiruvchi va qamrab oluvchi targ'ibot-tashviqot mexanizmlarini ishlab chiqish, milliy ma'naviy g'oyaning yangi ilmiy falsafiy ta'limini yaratish, kengashlar faoliyatini uslubiy ta'minlashlari kerak bo'ladi. Milliy tarbiyaning nazariyasi, uslubiyati tizimini, ma'naviyat bilan shug'ullanuvchi mutasaddi lavozim professiogrammalarni, o'quvchi yoshlar uyushmalari hamda ularning tizimi va faoliyati mazmunining shakllarini ishlab chiqish kabi dolzarb amaliy vazifalarning yechimini topishni yuklaydi.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda diniy aqidaparstlikning tarixiy ildizlari, zamonaviy holati va unga qarshi kurashning nazariy asoslariga ham ko'p bog'liqdir. Odamlarimiz tafakkurida og'ir kurash kechayotganidan ogoh bo'lish lozimligi, vaziyat - tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash va bu orqali barcha ma'rifiy mamlakatlarda bo'lganidek, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashishning falsafiy, tarixiy asoslarini yaratishni, inson huquqlari milliy harakat dasturini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bu esa falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiolo-giya va boshqa fanlarda yangi dunyo qarash va yangi tafakkur shakllanish xususiyatlarini o'rganib, natijalarini hayotga tezroq



tatbiq etish zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyati shundan iboratki, u mavjud texnologiyalari bilan bir safda turadi, buning sababi har bir texnologiya o'zining metodi, shakli, uslubi va qo'llanish doirasiga egaligidir. Ammo ta'kidlab o'tilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tubdan farq qilib, ular murakkab va tushunish ancha chigal bo'lgan kompleks tushuncha yoki pedagogikaga xos bo'lgan bilimlar sohasini aniq va tushunarli ifoda eta olishi bilan mavjud texnologiyalardan farq qiladi. Bizning fikrimizcha ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida ma'naviyatni rivojlantirish bo'yicha quydagi chora tadbirlarni ko'rish zarur:

— ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishning strukturaviy usullarini yaratish;

— ma'naviy-axloqiy tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borishni amalga oshirish usullarini ta'riflash;

— ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuksaklikligini ta'minlash;

— ma'naviy meros haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish;

— ma'naviy inson qiyofasini shakllantirish, el orasida ibratli xulq-atvoriga ega bo'lish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR
RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni PF5538 son. 05.09.2018 yil.

2. N.Muslimov, Z.Raximov, X.Qodirov "Ta'lim texnologiyalari" darslik. Toshkent-2017. 11-bet.

3. M.F. Hakimova, N.X. Xo'jayev, D.Q. Axmedov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.— T.:TDIU nashr., 2006y, 52-53-betlar.

4. Лесохина Л.Н. Нравственное развитие учащихся в процессе изучения литературы.- Сб. Искусство анализа художественного произведения. М.: Просвещение, 1971, с. 124.

5. Богданова О. Ю., Леонов С. А., Чертов В. Ф. Методика преподавания литературы. Под редакцией О.Ю. Богдановой. Учебник для студентов пед. вузов. М.: Издательский центр «Академия», 2-е издание, стереотипное, 2002, - с.136.



АБМК НИНГ ПК-1520 ДА ЖОЙЛАШГАН УЧЛИК СУВ ТАКСИМЛАШ ИНШООТИДАН ФОЙАЛАНИШНИ ЯХШИЛАШ БУЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР ИШЛАБ ЧИКИШ

*Oripov Imomnazar O'ktamovich,
Ergashev Xurshid Erkin O'g'li
Irigatsiya instituti magistrlar i*

Аннотация: Ушбу мақолада Аму-бухоро машина канали олдида лойка чукишни олдини олиш оркали унинг фойдали иш кофитсентини ошириш ва Аму Бухоро Машинали Каналининг иш фаолиятига таъсирини урганамиз. Хозирги кунда сувга бўлган талаб ошиб бормоқда, лекин сув ресурслари чекланганлиги сабабли, аҳоли бошига тўғри келадиган сув ресурси йилдан-йилга камайиб бормоқда. Тахлиллар шуни кўрсатиб турибдики йиллар ўтиши билан сувга бўлган эҳтиёж ортмоқда, шу сабабли ҳам бир томчи сувнинг кадрига етиб оқилонга фойдаланишимиз

Калит сўзлар: Лойка окизиклар чукиндилар земснарядлар Сув, сувга бўлган эҳтиёж, канал, вегетация, сув сарфи, пикет, гидротехник иншоот, гидроузел.

Аннотация: В этой статье благосостояние населения в стране

улучшается беспрецедентными темпами, и его количество растет из года в год. Однако из-за органических водных ресурсов водные ресурсы на душу населения сокращаются из года в год. Анализ показывает, что спрос на воду с годами растет, поэтому нам нужно использовать каплю воды с умом, а система капельного орошения отвечает требованиям полива под давлением, чтобы своевременно доставлять такое же количество воды в корневой слой.

Ключевые слова: Вода, орошение, растения, потребность в воде, норма орошения, растительность, потребление воды.

Annotation: In this article, the well-being of the population in the country is improving at an unprecedented rate, and its number is growing from year to year. However, due to limited water resources, water resources per capita are decreasing from year to year. The analysis shows that the demand for water has been increasing over the years, so we need to use a drop of water wisely, and the drip irrigation system meets the requirements of pressure irrigation in order to deliver the same amount of water to the root layer in a timely manner.



Key words: water, irrigation, drip irrigation, plants, water demand, irrigation rate, vegetation, water consumption.

“Учлик” сув иншооти ПК 1520 да жойлашган. Сув ўтказиш қобилияти $Q=270$ м³/с. булиб, Кую-мазор канали, Тудакул ташлама канали ва Кизилтепа каналларига сувни тақсимлаш учун хизмат килади. Аму-Бухоро машина каналининг Учлик гидроузели келадиган сувни қуйидагича тақсимлайди

-Куюмозор канали сув утказиш қобилияти $Q=80$ м³/с.

-Кизилтепа канали сув утказиш қобилияти $Q=150$ м³/с.

-Тудакул ташлама канали сув утказиш қобилияти $Q=100$ м³/с.

АБК-1 канали 1975-1977 йилларда ПК-1520 гача реконструкция қилиниб, сув утказиш қобилияти $Q=70.0$ м³/с.га оширилган.

Ушбу гидроузелнинг иш фаолиятини яхшилаш учун ҳозирги замонавий технологиялардан фойдаланган зарур. Гидроузелни бошқаришда автоматлаштириш мақсадга мувофиқ булиб тезкор маълумотлар олишга ва олинган маълумотларга таяниб тезкор ҳуласоалар чиқарган ҳолда,

фойдаланиш ва иш унумдорлигини ошириб, ундаги узғаришларни аниқ тахлил қилиш имкониятини беради. Шу билан биргаликда ҳар қандай маълумотларни керакли вақтда электрон ҳолатда тезда олиш ва бошқарув марказига юбориш имкониятини яратади.

Аму-Бухоро машина канали Бухоро ва Навои вилоятларини сугориладиган ерларини сув билан таъминловчи тармок ҳисобланади. Аму-Бухоро машина канали асосан 3 этапда қурилиб ишга туширилган:

1) 1962 йилда – Аму-Қаракул канали.

2) 1965 йилда - Аму-Бухоро машина канали 1-навбати.

3) 1975 йилда - Аму-Бухоро машина канали 2-навбати.

АБК 1-навбати 1965 йилда «Хамза-1» ва «Қуйи-Мозор» насос станциялари қурилиб ишга туширилган.



Фойдаланилган адабиётлар

1. АБМК архив маълумотлари.
2. Ҳамидов М.Ҳ., Шукурлаев Х.И., Маматалиев А.Б. “Қишлоқ хўжалиги гидротехника мелиорацияси”. Шарқ., Тошкент-2008.
3. Қишлоқ хўжалигида сувдан фойдаланиш М.Ҳамидов Тошкент-2006
4. COOPERATION .UZ



ТЎДАКЎЛ СУВ ОМБОРИНИ ЮҚОРИ БЪЕФЛАРИДА МУАЛЛАҚ ОҚИЗИҚЛАРНИНГ ЧЎКИШИ ВА ЎЗАН ТУБИ ОҚИЗИҚЛАРИНИНГ ТЎПЛАНИШИГА ҚАРШИ ЧОРА ТАДБИРЛАР.

*Орипов Имомназар Уктамович
Эргашев Х.Э.-ТИҚХММИ
магистрантлари*

Аннотация. Ушбу мақолада Тўдакўл сув омборида олиб борилган дала тадқиқотлари асосида унинг техник ҳолати ҳамда юқорибъефларида муаллақ оқизикларнинг чўкиши, ўзан туби оқизикларининг тўпланишига қарши ва бу жараёнларни огоҳлантириш (олдини олиш) тадбирлари ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: сув омбори, паст текислик, лойқа босиши, юқори бьеф, оқизик.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг 1999-йилдаги "Гидротехника иншоотлари хавфсизлиги" тўғрисидаги қонундан келиб чиққан ҳолда, Республикадаги мавжуд эксплуатация қилинаётган гидротехника иншоотларини ишлаш

шароитларини ўрганиш, уларни реконструкция қилиш, замонавий талаблардан келиб чиқиб эксплуатация қилиш зарурдир. Шу сабабли, сув омборлари ва улардаги мавжуд иншоотларнинг ҳолатини ўрганиш ва уларнинг ишлаш шароитларини яхшилаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш долзарб масалалардан биридир.[1]

Асосий қисм. Сув омборларини лойқа босиши ва оқизиклар тўпланишини кузатишнинг асосий мақсади сув омбори косаси ҳажмининг вақт оралиғида ўзгаришини аниқлашдир. Пасттекислик дарёларида асосий эътибор сув омборларининг муаллақ оқизиклар билан тўлиши бўлса, тоғ дарёларида эса, муаллақ оқизиклар билан бир қаторда, ўзаноқизиклари ҳам муҳим ўринни эгаллайди.

Маълумки, паст текислик дарёларидаги сув омборлари тоғ дарёлари бирига нисбатан анча узун бўлади. Аммо сув омборларини лойқа босиши ва тўпланишини ҳисоблашнинг барча усуллари сув омбори узунлиги L с.о. ва сув омборидаги ҳисоблий ирикликдаги муаллақ оқизиклар заррачаларининг йўл босиш узунлиги L_3 ўртасидаги муносабатни аниқлашга асосланган.



Маълумки, агар $L_3 \ll L$ с.о. бўлса, ҳисоблашлар усулини анча соддалаштиради, чунки сув омбори фойдаланиш йилларида барча муаллақ оқизиклар ва ўзан туби оқизиклари унинг тубига чўқади ва уларнинг куйи бьефга кўчиши кейинги йиллардагина содир бўлади. Айрим усулларни баён қилиш ва таҳлил қилишдан олдин, сув омборларининг лойқа босиш ва тўпланиш жараёни билан танишамиз. Бу жараён кўпроқ лаборатория шароитида текис масалада яққол кўринади. Тўпланиш жараёни ўзан туби оқизикларининг сувнинг димланиши бошланиш минтақасида фаол ётқизилиши билан бошланади, бунда тўпланишнинг призмаси шаклланади. Унинг бош қисми оқизиклар кўпайиши (кўшилиши) билан сув омбори тўғони томон йўналиши кўча бошлайди, дум қисми эса, димланиш таъсирида оқим ҳаракати бўйича юқорилаб кўчади.[2]

Муаллақ оқизиклар эса, тўпланиш призмаси устидан тўхтамасдан (транзит) ўтади ва сув омбори косасида чўқади. Бунда чўккан муаллақ оқизикларнинг йириклигига мос равишда сараланиши кузатилади. Муаллақ оқизиклар унча катта бўлмаган жойларда ва сув омбори тубининг катта нишабли жойларда

ётқизикларнинг йиғилиши натижасида ўзан ости ариқчалар ҳосил бўлади ва улар тўғон томонга йўналади. Димланиш бьефлари, одатда димланиш қийматлари кам ўзгарадиган унча каттаҳажмдаги ҳавзалардан ташкил топган. Уларда сув сарфларининг кунлик ростланиши бўлиши мумкин. Сув омборидаги ётқизикларнинг унинг сувли кесим майдонини анчагина амайтиради. Бу ҳолат сув омборидагисувнинг оқиш тезлигини кўпайтиради, ва натижада унинг косасида йиғиладиган оқизиклар миқдорини камайтиради.

Сув омборида йиғиладиган оқизиклар миқдори димланиш миқдори билан узвий боғланган. Сув омборида оқизикларнинг чўкиш жараёни учун унинг сув сатҳи режими муҳимаҳамиятга эгадир. Сув омборларида оқизикларни чўкиш жараёни сув омборидаги фойдали ҳажмини камайишига олиб келади. Оқизикларни сув ҳажмига ва сув сатҳига таъсирини. Тўдакўл сув омбори мусолида кўриб чиқдим. Шу нарса малум бўлдики сув омборини фойдали ҳажмига ҳозирги кунга келиб 56 млн м³ га камайган, бу эса сув омборини фойдали иш коэффициентини 9,3 % камайтиришга олиб келмоқда. Бу ҳолат Тўдакўл сув омборидаги



гидравлик режими ўзгаришга олиб келди. 1-расмда Тўдакўл сув омборини лойҳавий ва ҳозирги кундаги сув омбор ҳажмлари, шу ҳажимда эгаллаган майдони, сув омбори сатҳи билан боғланиш графиги келтирилган. Бу графикдан кўришиб турибдики лойқа оқизиклар таъсирида сув омборларини керакли сув ҳажмларида тўплаш, сув омборин майдоннинг ошишига сабаб бўлади. Ҳозирги кунга келиб сув омборининг фойдасиз ҳажми тўлганлиги, сув омборини лойқа ва оқизиклардан тозалаш шартлиги яқол намаён бўлган. Ҳозирда сув омборининг сув чиқариш иншоотида пастки бёфга лойқа ва оқизиклар ўтиши кузатилмоқда. Бу олиб кетиш каналини ҳам лойқа ва оқизиклар билан тўлишига олиб келади. Бу жараёнларни ўз вақтида олдини олиш лозим. [3]

1-расм. Тўдакўл сув омборининг сув ҳажми ва эгаллаган майдонини сув омбори отметкасига боғланиш графиги.

Тўдакўл сув омборида асосан балиқчилик йўлга қўйилган бўлиб, фойдали сув ҳажмини камийиш балиқ йетиштириш учун ноқулайликлар яратади. Тўдакўл сув омборига сув

ташловчи АБМК нинг лойқалиги жуда юқори ҳисобланади. Сув омборини лойқа босиши ва лойқага тўлиш жараёнлари фойдали ҳажимнинг камайишига ўт босган майдонни ошишига, дарё ва каналларни деформацияга учрашига ва лбатта сув омбори эксплуатациясига таъсир кўрсатади. Сув омборини лойқа босиши ва уни олдини олиш чора тадбирларини ишлаб чиқиш бўйича тавсиялар халигача охириги етказилмаган, чунки сув омборлари учун кўп маблағталаб қилувчи гидромеханизация ишларини амалга ошириш қийин ҳисобланади. Сув омборларидан самарали фойдаланишни тўғон олдидаги сув сатҳини сувли даврда пасайтириш орқали ошириш мумкин. Бу эса лойқа оқизикларни паски бёф орқали ўтқазиб юбориш мумкинлигини кўрсатиш лозим. Тўдакўл сув омборини лойқа босишини олдини олиш учун қуйидаги тадбирларини ишлаб чиқиш лозим.

1. Сув омборини шундай қулай режимда ишлашини таъминлаш керакки, кираётган

лойқа оқим кўпроқ чиқиб кетсин.

2. Сув омборини қирғоқларини кўп қисми табиий ўзанлардан ташкил



топгани учун уларни емирилиши ва эрозияга учрашни олдини олиш мақсадида қирғоқларни мустахкамлаш ва мелиоратив ишларни амалга ошириш лозим.

3. Лойқаликни механизмлар ёрдамида тозалашни доимий равишда йўлга қўйиш.

4. Сув омборини лойқадан ювишни таъминлаш.

5. Сув омборига сув ташловчи насос станциясининг тиндиргичларини самарали ишлашини ташкиллаштириш лозим.

Сув омбори орқали лойқа оқизикларни чиқариш унинг юқори бьефида сувни камайтиришдир. Шунинг учун сув омборига кириб келаётган қаттиқ оқим даврида, уни минимал сатхта ишлашига олиб келиш лозим. Лекин бу тадбир сув истеъмолчиларга таъсир кўрсатмасдан олиб борилиши лозим. Энг кўп лойқа оқизиклар миқдори асосан кўп сувли даврда содир бўлади. Сув омборид кўп сувли давр бошланиши билан иложи борича минимал сув сатхигача бўшатиб кейин тўлдириш лозим. Сув омборида қирғоқларни мустахкамлаш ва мелиоратив тадбирларга қуйидагилар киради.

1. Сув омбори сув йиғиш майдонида, айниқса тоғ олдиларида ўрмон ва ўсимлик қопламини сақлаб қолиш.

2. Кучли оқим натижасида содир бўлаётган эрозия жараёнларини камайтириш.

3. Сел оқимлар содир бўлганда, қирғоқларни мустахкамлаш чораларини кўриш.

4. Сув омборида сезиларли даражада лойқа босиш бўлганда механик усулда (земснарядлар, земчерпалкалар) ва гидравлик усулда лойқани камайтириш.

Механик усулни асосан кичик сув омборларида қўллаш иқтисодий жihatдан тўғри келади. [4]

Хулоса: Ҳозирги кунда Тўдакўл сув омборини фойдали хажмини ошириш бўйича тадбирларни амалга ошириш лозимлиги яқол кўзга ташланмоқда унда йиғиладиган сув миқдори камайганлиги, сув сатҳи режими ўзгаришига олиб келган. Бу эса тўғонлардаги фильтрацияни лойҳавий диспрессия эгри чизиғидан ошганлигини ҳам кузатиш мумкин. Сув омборини фойдаланиш ҳолатини яхшилаш учун керакли чора тадбирларни ўтказиш лозим. Юқорида келтирилган чора тадбирлар ўз



вақтида амалга оширилса сув
омборининг хавфсиз ҳамда ишончли
ишлашига эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўз. Рес.” Гидротехника иншоотлар
хавфсизлиги “ конуни 1999 йил, 826-
1-сон.
2. Бакиев М.Р. Мажидов И.У.
Хўжакулов Р. Гидротехника
иншоотлари. Т.: 2008. – 1,2 жилд(198-
200бет).
3. . Бакиев М.Р. Кавешников Н.Т.
Турсунов Т.Н. Гидротехника
иншоотларидан фойдаланиш. Т: 2008
(200бет).
4. “Давсувхўжаликназорат”
инспекциянинг Навоий вилоят
инспекцияси Теник холатни
инспекторлик текширувдан ўтказиш
ДАЛОЛАТНОМАСИ 2014.



ТЎДАКЎЛ СУВ ОМБОРИНИНГ ЭКСПЛУАТАЦИЯСINI ЯХШИЛАШ МАҚСАДИДА ЧОРА- ТАДБИРЛАР ИШЛАБ ЧИҚИШ

*Орипов Имомназар Уктамович
Эргашев Х.Э.-ТИҚХММИ
магистрантлари*

Аннотация. Мақолада Тўдакўл сув омборида олиб борилган дала тадқиқотлари асосида унинг техник ҳолати ҳамда конструктив параметрларига таъсир қилувчи салбий омиллар ёритиб берилган. Бу жараёнларни огоҳлантириш (олдини олиш) тадбирлари ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: сув омбори, тўғон дамбаси, лойқа босиши, эксплуатация, хавфсизлик.

Кириш. Бугунги кунда келиб ер шарида сув ресурсларига бўлган талаб тобора ортиб бормоқда, шу биргаликда мавжуд сув ресурсларидан ҳам оқилона фойдаланиш зарур ва муҳимдир. Республикамиздаги захира сувларни йиғиш ҳамда қишлоқ хўжалигига сув ресурсларини хавфсиз етказиб бериш асосий масалалардан биридир. Ҳозирги пайтда, Ўзбекистонда 4,3 млн.га дан ортиқ

суғориладиган ер майдони мавжуд. Амалда барча қишлоқ хўжалиги экинларининг ҳосили сунъий суғориб етиштирилади. Бу ерларни суғориш учун 300 га яқин йирик гидротехника иншоотлари, шу жумладан 20 млрд. м³ сув сиғдирадиган 56 та сув омбори, 65 тага яқин йирик гидроузеллар, минглаб кичик гидротехника иншоотлари билан 27 минг км узунликдаги 60 та магистрал ва хўжаликлараро каналлар ишлатилади. Мавжуд ер майдонининг қарийиб ярими умумий сув сарфи 6,4 млн. м³/сек бўлган 1,5 мингдан ортиқ, шу жумладан 24 та йирик насос станциялари ёрдамида суғорилади.[1]

Асосий қисм. Сув хўжалигида сув ресурсларни тўплаш, бошқариш ва истеъмолчиларга узатишда сув омборларини ўрни катта. Ўзбекистон Республикасидаги сув омборларнинг хавфсизлик даражасини белгилаш ва улардаги нуқсон, бузилишларни кўрсатиб, тегишли тавсиялар ишлаб чиқиш, ҳамда иншоотларнинг эксплуатациясини яхшилаш мақсадида “Давсувхўжаликназорат” инспекцияси ташкил этилган. Ҳозирда инспекция томонидан олиб борилаётган ишлар натижалари асосида тегишли муассасаларга топшириқлар берилади ва уларнинг



бажарилиши назоратга олади.
“Гидротехника иншоотларининг хавфсизлиги тўғрисида” ги Қонунга асосан, фойдаланувчи ташкилот “ гидротехника иншооти хавфсизлигининг пасайиши сабабларини мунтазам таҳлил қилиб бориш ва гидротехника иншоотини техник жиҳатдан соз бўлишини ва унинг хавфсизлигини таъминлашга, шунингдек эксплуатациясини яхшилаш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқишга ва уларни ўз вақтида амалга оширишга” мажбурийлиги кўрсатилган.[2]

Жумладан Бухоро вилоятида жойлашган Тўдакўл сув ташламаси 1970 йилларда ташкил топган бўлиб, асосан Зарафшон дарёсининг сувлари Хархўр гидроузелидан, юқори Бухоро сув ташламаси орқали коллектор ҳамда оқова сувларидан, шу бирга сувга бўлган талабнинг ошиши билан 1979 йиллардан сув омбори сифатида фойдаланиш бошланган. “АмуБухоро машина канали” нинг ПК 1520 дан Тудакўлни тўлдириш учун сув ташлаш бошланган. Умумий майдони 22,0 минг.га ни, дамбанинг узунлиги 4,2 км ни ташкил этади, баландлиги 11 м, сув омбори Бухоро паст текислигида маҳаллий гунтлардан барпо етилган. Хозирги кунда келиб

сув омборини тўлдириш шакли насос станциялар ва сувли йилларда Хархўр гидроузели орқали Зарафшон дарёси сувларидан ташкил топади. Сув омбори эксплуатациясини яхшилаш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиш муҳимлиги шундан иборатки, сув омборлардан фойдаланишдаги кўзга кўринарли ютуқларга қарамай, охириги йилларда дунёда сув омборлари ишдан чиқиш суръати ошиб бориши, хатто авария ҳолатлари кузатилмоқда шунингдек, сув омборининг эксплуатация жараёни давомида техник носозликлар алоҳида хавотирга сабаб бўлмоқда. Шунинг учун йирик иншоотларнинг хавфсиз эксплуатациясини таъминлаш, сув омбори эксплуатациясини яхшилаш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиш зарурий талаблардан биридир. Тўдакўл сув омбори эксплуатациясини яхшилаш бўйича хизматини ташкил этиш, сув омборининг иш режимини ўрганиш, фавқулодда ҳолатларда сув омборидан фойдаланиш тартибини ишлаб чиқиш, эксплуатация қоидалари ва йўриқномаларида фойдаланиш жараёнига тегишли хавфсизликни нормалари ва қоидаларини киритиш, ишончлилиги ва хавфсизлигини белгиловчи тавсиялар ишлаб чиқиш муҳимдир.



Сув омбори тўғонининг бузулишидан кўриладиган зарар гидротехник иншоотнинг баланс қийматидан бир неча марта катта бўлиши мумкин . Сув омборининг Конгресс қарорига кўра бу тўғоннинг хавфсизлик даражаси зилзила бардошдиги 8 балл ни ташкил этиб қуйидаги параметрларга ега.

Сув омборининг параметрлари ва белгилари:

НПУ – 222.64 метр (сув омборининг меъёридаги димланиш сатҳи);

УМО – 219.90 метр (Сув омбори ўлик хажми).

Сув омбори хажми:

Тўлик – 1200 млн.м³;

НПУда фойдали – 600 млн.м³;

Ўлик (фойдасиз) – 600 млн.м³.

Сув омбори чуқурлиги НПУда:

Максимал – 12метр;

Ўрта – 6 метр.

Сув омборида мавжуд сув сатҳи майдони:

НПУ – 213.19 км²

УМО – 121.23км².

Тўдакўл сув омборининг хавфсизлиги камида 4 та асосий шартга боғлиқ:

1. Сувнинг тўғон ўрқачидан ошиб ўтмаслиги;

2. Тўғон танаси ва асосини сув сизишига чидамлилигини сақлаш;

3. Тўғон қияликларининг чидамлилигини таъминланишига боғлиқ.

4. Сув омборидан сизиб ўтаётган филтрация сувларини камайтириш. [4]

Тўғон ўрқачидан сувнинг кўтарилиш хавфи қуйидаги ҳолатларда вужудга келиши мумкин.

- Тўғон ўрқачининг режадаги баландлиги табиий шароитдаги ҳолга тўғри келмай қолишидан;
- Шамол таъсирида кўтариладиган тўлқинларнинг сув омбори деворларига таъсирдан;
- Сув омборининг
- Ер силкинишларининг таъсирида ҳосил бўладиган тўлқинлар оқибатида рўй бериши мумкин.[3]



Хулоса: Юқоридагиларни ҳисобга олиб, Тўдакўл сув омбори эксплуатациясини яхшилаш бўйича хизматини ташкил этиш, сув омборининг иш режимини ўрганиш, фавқулодда ҳолатларда сув омборидан фойдаланиш тартибини ишлаб чиқиш, эксплуатация қоидалари ва йўриқномаларида фойдаланиш жараёнига тегишли хавфсизликни нормалари ва қоидаларини киритиш, ишончилиги ва хавфсизлигини белгиловчи тавсиялар ишлаб чиқиш режалаштирилмоқда.

инспекторлик текширувдан ўтказиш
ДАЛОЛАТНОМАСИ 2014. (62бет)

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бакиев М.Р. Кавешников Н.Т. Турсунов Т.Н. Гидротехника иншоотларидан фойдаланиш. Т: 2008 (6бет).
2. Ўз. Рес.” Гидротехника иншоотлар хавфсизлиги “ қонуни 1999 йил, 826-1-сон.
3. Бакиев М.Р. Мажидов И.У. Хўжакулов Р. Гидротехника иншоотлари. Т.: 2008. – 1,2 жилд (198-200бет).
4. “Давсувхўжаликназорат” инспекциянинг Навоий вилоят инспекцияси Теник ҳолатни



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
BOSHQARMASI

*Nukus shahar xalq ta'limi bo'limiga
qarashli*

*27-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi*

o'zbek tili fani o'qituvchisi

ZIOLA MADAMINOVning

BIR SOATLIK

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: o'quvchilarga sifat so'z turkumi, uning ma'no turlari, rang-tus bildiruvchi sifatlar haqida ma'lumot berish, sifatning ma'no turlarini farqlay olish ko'nikmalarini hosil qilish;

b) tarbiyaviy: keltirilgan misollar, rasmlar, bajarilgan mashqlar orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, olijanoblik kabi fazilatlarni shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat hislarni mustahkamlash, hamkorlikda ishlash orqali o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash, kasb tanlash ko'nikmasini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mustaqil fikrlash va mushohada yuritish, o'z fikrini himoya qilish va asoslash, mantiqiy xulosa chiqarish olish xislatlarini rivojlantirish, mustaqil kasb tanlash va uni izohlash ko'nikmasini rivojlantirish

Darsning usuli: savol-javob, guruhlarda ishlash, mashqlar bilan ishlash, "Tushunchalar tahlili", "Biz bularni bilamiz" ta'limiy –metodik o'yinlar.

5-sinf

O'zbek tili

Darsning shiori: Til bilgan el biladi.
Maqol.

Darsning mavzusi: ONAJONLAR BAYRAMI. ((Sifat so'z turkumi. Rang-tus bildiruvchi sifatning qo'llanishi))

Darsning jihozi:

ko'rgazmalar, tarqatmalar, testlar, rasmlar, slyayd, darslik, guruhlar uchun vatman qog'oz, turli rangdagi markerlar.



Texnik vositalar: kompyuter,
ekran, videoprojektor.

Darsning texnologik xaritasi:

1.	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2.	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
3.	Yangi mavzuni tushuntirish	15 daqiqa
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5.	Oquvchilarni baholash	3 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa



“*yaxshi*”- ko'k rangli o'yinchoq;



Baholash mezonlari: Ushbu dars taqvimiy reja bo'yicha fevral oyida- qish faslida o'tiladi. Shuning uchun guruhlarini baholashda faslga hamohang archa o'yinchoqlaridan foydalanish mumkin:

“*a'lo*”- qizil rangli hikmatli so'z
yozilgan archa o'yinchog'i;

“*qoniqarli*” – sariq rangli o'yinchoq.



Har bir guruh uchun arhamaket tayyorlab qo'yiladi, o'quvchilar yaproqlar bilan daraxtni bezaydilar. Dars yakunida o'yinchoqlarlar soniga qarab g'olib guruh aniqlanadi.

Sinf xonasining jihozlanishi:

Yozuv taxtasi oldida katta ekran barcha guruh o'quvchilarga ko'rinadigan tarzda ilib qo'yiladi. Kompyuterda slayd orqali dars uchun kerakli manbalar yoritib boriladi. Mavzuga oid ko'rgazmalar ilib qo'yiladi.

Darsning borishi:

O'quvchilar bilan salomlashib, yo'qlama qilinadi. Xonadagi partalar 3 guruh uchun moslab joylashtiriladi.

I. DARSNI TASHKIL ETISH:



”Mozaika”(“Siniq shakllar”) o'yini orqali o'quvchilar 2 guruhga bo'linadilar. O'qituvchi stolidan 2 xil rangdagi (qizil, zangori) shakllarni tanlab olgan o'quvchilar 2 guruhni tashkil qiladilar. Ular qo'llaridagi rangli qog'ozlarni yozuv taxtasida ma'lum tartibda joylashtirsalar, kvadrat (matematika faniga bog'lanadi), barg



(biologiya faniga bog'lanadi), xarita (geografiya faniga bog'lanadi) paydo bo'ladi. Bu shakllar yordamida sana, yil nomini hosil qilish mumkin.

Masalan: 21- oktabr-Ozbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun.

2021-yil- Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili

5- bizning sinf raqami

Bu jarayonda o'quvchilarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi-

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish ko'nikmalari shakllanadi.

Chiqish kelishigidagi so'z qaysi so'z turkumiga bog'lanadi?

Chiqish kelishigi qo'shimchasi qaysi so'zlarga

O'zbek tilida qanday kelishiklar bor?

Chiqish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda qavsi

II. O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH

Mustahkamlash quyidagi topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

I topshiriq. "Savol-javob".

Guruhlarga 3 tadan savollar kartochka shaklida beriladi. Savollar kompyuterda ham ko'rsatiladi.

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi, ularga javoblariga mos yaproqchalar beriladi. Darsning bu bosqichida o'quvchilardagi **kommunikativ kompetensiya**- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Chiqish



II topshiriq. "Tushunchalar tahlili". Guruhlarga jadval beriladi. Guruhlar jadvaldagi lug'at so'zning ma'nosini topishlari kerak.

1-guruhga

1.	monand	
2.	payvand	
3.	Ziyod	
4.	Yagona	
5.	Oraz	
6.	Asr	

2-guruhga

1.	masjid	
2.	Obida	
3.	shakllanmoq	
4.	majmua	
5.	Bezak	
6.	maqbara	

Guruhlarning javoblari tahlil qilinadi. Rag'bat berib boriladi.

Yangi mavzuni yozuv taxtasiga yozadi:

III. YANGI MAVZU BAYONI:

1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring. Tuzgan gaplaringizda oq, pushti, sariq rang-tus bildiruvchi sifatlar ishtirok etsin. Har bir guruhdan bittadan a'zo mashq shartiga ko'ra o'zaro suhbat uyushtiradi. Suhbatni davom ettira olmagan o'quvchi yutqazgan hisoblanadi.



– *Atrof juda chiroyli-ya? Men bahorni yaxshi ko'raman.*

– *Men ham yaxshi ko'raman. Yomg'irdan keyin osmon ko'm-ko'k bo'lib, yam-yashil barglar yanada kattalashib qolganga o'xshaydi-ya?*

– *Voy, turnalar uchib kelyapti, qara!*



– Ha, bir, ikki..., yigirma, juda ko'p ekan-ku! Uzoqlashgan sari qora nuqtaga aylanib qolyapti.

Ko'ryapsanmi?

– Ha, ko'ryapman. Bugun maktab bog'ida hashar ekan. Eshitdingmi?

– Ha, eshitdim. Hasharga kechikmaslik uchun uyga tezroq borish kerak.

– Unda yugurdik. Kim birinchi?

– Bir, ikki, uch, uchdan qolgan puch.

BILIB OLING

Predmetning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlaridan biriga javob bo'

IV. YANGI MAVZUNI MUSTAHKAMLASH:

1. "Biz bularni bilamiz" o'yini.
Darsning bu bosqichida darslikdagi mashqlar daftarga va doskada bajaririladi.

Mashq guruh a'zolari doskada bajaradi v rag'bat beriladi.

1- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

Bahor keldi. Daraxtlar ... libosga burkandi. Dalada ish Polizlarda ... ishlari boshlab yuborildi. Dalada dehqonlarga hasharchilar yordam Traktorning gurullagan ... eshityapti. Dehqonlar hosil mo'l bo'lishi uchun tinmay

Foydalanish uchun so'zlar: boshlandi, ovozi, yam-yashil, berishmoqda, ekin-tikin, mehnat qilyaptilar.

2- topshiriq. Savollarga og'zaki javob bering. Har bir guruhga 2 tadan savol beriladi, javobiga ko'ra rag'bat berib boriladi.

1-guruhga:

1. Bahor kelishi bilan tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

2-guruhga:

2. Dala va polizlarda qanday ishlar boshlanadi?

1-guruhga:

3. Dehqonlar qanday mehnat qiladilar?

2-guruhga:

4. Bahor faslida siz ham obodonlashtirish ishlarida qatnashasizmi?



ESDA SAQLANG

MUSTAQIL ISH

O'qituvchingiz yordamida bahor yomg'iridan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalak ranglarini sanang.


LUG'AT

o'zgarish	Изменение
poliz	Бахча
dehqon	деҳканин
obodonlashtirish	Благоустройство

2- mashq. Sifat qatnashgan gaplarni ko'chiring.

Guruh a'zolari doskada mashqni bajaradi, to'g'ri bajargan o'quvchilarga rag'bat beriladi.

1. Mart, aprel, may – bahor oylari. 2. Mart oyining o'rtalarida atrof yam-yashil tusga kiradi. 3. Bodom, o'rik daraxtlari och pushti rangli gullari bilan tabiatni bezatadi. 4. Qir va adirlar qip-qizil lola bilan qoplanadi. 5. Oppoq qor baland tog'larning cho'qqisidagina qoladi.



VI.Darsni yakunlash:

a) o'quvchilarni baholash:

Guruhlar olgan rag'batlar hisoblanadi, g'olib guruh

aniqlanadi. g'olib guruhning barcha a'zolari, mag'lub guruhning faol a'zolari baholanadi.



O'qituvchi g'olib guruhni tabriklab,
darsni quyidagi she'riy satrlar bilan
yakunlaydi.

*Dilga jo etib ilm
ziyosin,*

*Yetuklik sari intil,
o'quvchim.*

*Ustozlikning haqiqiy
kiyib libosin,*

*Sarf qilgayman senga
istedod-u, bor kuchim.*

- b) uyga vazifa :** Rang-tus
bildiruvchi sifatlar ishtirokida 4
ta gap tuzing.



7– sinf

Kimyo.

Kompetensiyalar:

**Mavzu: MODDALARNING
AGREGAT HOLATLARI.**

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga berilgan mavzu yuzasidan ilmiy asoslangan, Davlat Ta'lim Standarti talablariga javob beradigan bilimlar berib, ularda amaliy ko'nikmakarni hosil qilib, tegishli malakalarini shakllantirish.

2. Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni Vatanga, tarixiy va madaniy merosimizga, O'zbek xalqining buyuk siymolariga, Ota-onaga muhabbat va milliy iftihar tuygusi ruhida tarbiyalash. Ularda ekologok madaniyatni shakllantirish va tarbiyalash.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: Ilmni amaliyotga tatbiq etish. O'quvchilarning bilim va tafakkurini, kitobxonlik malakasini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, kimyo fani va shu sohadagi kasblarga qiziqishlarini shakllantirish. O'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish.

1. Kimyoviy jarayon, hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

2. Element va formulalarni kimyoviy tilda ifodalash kompetensiyasi:

3. Kimyoviy tajribalar o'tkazish va amaliyotda qo'llash kompetensiyasi:

4. Kommunikativ kompetensiya:

5. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

6. O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

7. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

8. Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

Dars shiori: Kimki bilsa kimyoni, qo'lga olar dunyoni.

Darsning jihozlari: Plakatlar, texnik vositalar, darslik, davriy jadval, mavzuga doir tarqatmalar, slaydlar, bor, doska.



Darsda qo'llaniladigan metod: Aralash, interfaol metodlar, aqliy hujum, klaster, moddalarni ajrating.

Uyga vazifani tekshirish: Konspektni tekshirish, savol-javob tariqasida o'tilgan mavzuni so'rash.

Mashg'ulot bosqichlari:

“Moddalarni ajrating”

№	Bosqichlar	Vaqt	
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa	1.Oddiy moddalarni ajrating. C, NaCl, O ₂ , PH ₃ , Fe, N ₂ , CaCO ₃ , O ₃ <i>Javob:C, O₂, Fe, N₂, O₃</i>
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	7 daqiqa	2.Murakkab moddalarni ajrating. C, NaCl, O ₂ , PH ₃ , Fe, N ₂ , CaCO ₃ , O ₃ <i>Javob:NaCl, PH₃, CaCO₃</i>
3	Yangi mavzuni bayoni	15 daqiqa	3.Allotropiyasi bor elementlarni ajrating. C, Fe, P, S, Cl, N, H, Br <i>Javob:C, P, S</i>
4	Mustahkamlash	15 daqiqa	4.Qaysi elementlar oddiy modda holatida yonida ikkisi bilan yoziladi? <i>Javob:H₂, N₂, O₂, F₂, Cl₂, Br₂, J₂</i>
5	O'quvchilarni baholash	3 daqiqa	5.Allotropiya nima? <i>Javob: Bir elementning bir necha xil oddiy modda hosil qilishi – allotropiya deyiladi.</i>
6	Mashg'ulot yakuni. Uyga vazifa berish	2 daqiqa	6.Analiz va sintezni farqlab bering. <i>Javob:Moddaning tarkibini tekshirish uchun amalga oshiriladigan parchalash jarayoni analiz deb ataladi.</i>
7	J A M I :	45 daqiqa	

Darsning borishi: Tashkiliy qism:

1. O'quvchilar bilan salomlashish.
2. O'quvchilar davomadini aniqlash.
3. Darsga tayyorgarlik ko'rish.



Moddani hosil qilish jarayoni sintez deb ataladi.

beramiz. Moddalarning 3 xil agreagat holati mavjud.

Yangi mavzuni bayoni:



Biz oldingi darslarimizda havo, kislorod, azot, vodorod — gazsimon moddalar; suv, spirt, sulfat kislota — suyuq moddalar; uglerod, grafit, oltingugurt, temir, alyuminiy — qattiq moddalar haqida ba'zi ma'lumotlarni o'rgandik.

Lekin ularni qanday shaklda mavjudligi haqida alohida to'xtalmadik. Gaz, suyuqlik, qattiq holatlar nima va ular qanday xususiyatlarga ega degan savollarga ushbu mavzuda javob



T/r	Nomi	strukturas i	xossalari	Namuna			o'sha idish shaklini oladi.	
1	Modd aning gaz holati		<p>Gaz aniq bir hajmiy o'lcham va shaklga ega emas. Uni qanday idishga solinsa, o'sha idish hajmini egallaydi va shaklini oladi</p>		Modd aning qattiq holati		<p>Qattiq modda gaz va suyuqlikdan farq qilib, mexanik mustahkamlikka, aniq hajmiy o'lcham va shaklga ega.</p>	
2	Modd aning suyuq holati		<p>Suyuqlik o'z shakliga ega emas; uni qanday idishga solinsa,</p>				<p>Gaz aniq bir hajmiy o'lcham va shaklga ega emas. Uni qanday idishga solinsa, o'sha idish hajmini egallaydi va shaklini oladi</p> <p>. Kichik idishga solish uchun gazni siqiladi, katta idishda esa gaz kengayib, shu idishning butun hajmini egallaydi. Gazlarda molekula va atomlar orasidagi masofa suyuqlik va qattiq moddalardagiga nisbatan ancha katta bo'ladi. Masalan:</p>	



Qattiq modda gaz va suyuqlikdan farq qilib, mexanik mustahkamlikka, aniq hajmiy o'lcham va shaklga ega. Masalan:

Suyuqlik o'z shakliga ega emas; uni qanday idishga solinsa, o'sha idish shaklini oladi, idishni butun hajmini egallash uchun suyuqlik gazlar kabi kengaymaydi. Suyuqlik aniq hajmiy o'lchamga ega bo'ladi. Uni siqish amalda qiyin. Masalan:





Temir
Ohaktosh


Osh tuzi

misol bo'ldi. Bunda yangi modda hosil bo'lmaydi; namuna tarkibida o'zgarish kuzatilmaydi.

Suyuq va qattiq moddalarda atom va molekulalar orasidagi masofa gazlardagiga nisbatan ancha yaqin bo'ldi.

Gazlar kabi oquvchan, shaklni oson o'zgartirish xususiyatiga hamda qattiq moddalar kabi shakl hamda qiyin siqiluvchan suyuqlik holati gazlar va qattiq moddalarga nisbatan oraliq holatni egallaydi.

- Gaz, suyuq, qattqlik — moddaning agregat holatlaridir.



Odatda moddalarga harorat va bosim kabi omillar ta'sir qilganda gaz ↔ suyuqlik ↔ qattiq holat ketma-ketligi kuzatiladi.

Moddaning holati harorat va bosimga bog'liq. Suv 100°C dan yuqorida gazsimon (bug'simon) holatda, 0°C dan 100°C gacha suyuq, 0°C dan quyi haroratda qattiq (muz) holatida bo'ldi.

Ammo ayrim moddalar oraliq holat — suyuqlik holatini egallamasdan to'g'ridan-to'g'ri gaz ↔ qattiq holat sxemasiga amal qiladi. Masalan, «quruq muz» — karbonat angidrid, yod, naftalin shunday hususiyatga ega.

Holatning o'zgarishi, masalan, muzning suvga aylanishi fizikaviy o'zgarishga



Yodning sublimatlanishi.

Sublimatlanish — qattiq holatdan to'g'ridan-to'g'ri gaz holatiga o'tish hodisasidir.

Yangi mavzuni mustahkamlash:
O'quvchilar bilan savol-javob qilish.

1. Quyidagilardan gaz moddalarni ajrating. Havo, spirt, temir, kislorod, suv, alyuminiy, vodorod, sulfat kislota, oltingugurt

Javob: Havo, Kislorod, vodorod

2. Quyidagilardan suyuq moddalarni ajrating. Havo, spirt, temir, kislorod, suv, alyuminiy, vodorod, sulfat kislota, oltingugurt

Javob: Spirt, suv, sulfat kislota

3. Quyidagilardan qattiq moddalarni ajrating. Havo, spirt, temir, kislorod, suv,

alyuminiy, vodorod, sulfat kislota, oltingugurt

Javob: Temir, Alyuminiy, Oltingugurt

4. Sublimatlanish nima?

Javob: qattiq holatdan tog'ridan to'g'ri gaz holatiga o'tish hodisasi.

5. Qanday moddalar sublimatlanish xossasiga ega?

Javob: Karbonat angidrid – "Quruq muz", yod, naftalin.

O'quvchilarni baholash:

O'quvchilarning darsdagi ishtirokiga qarab

Uyga vazifa: O'tilgan mavzuni o'qish va kerakli ma'lumotlarni yod olish. Mavzuga oid testlarni ishlash. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.



OILADA PEDAGOGIK MULOQOT.

Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlangich ta'lim fakulteti

1-kurs talabasi

Abaeva Intizor

ANNOTASIYA

Oila bu tarbiya maskani. Bolaning kamolati uchun ma'sul shaxslar. Oila va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar. Ma'naviyatli oila –jamiyat tayanchi. Birinchi pedagogik ta'lim oiladan boshlanadi. Ota-ona farzandi bilan to'g'ri muloqotda bo'lish yo'llarini izlab topishi kerak. Shundagina bola bilan til topishlari mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyatli oila, jamiyat faravonligi, Vatan, qarindoshlik, pedagogika, maktab, oilaviy munosabatlar, bola tarbiyasi, xulq, ahloq.

Oila-mustahkam qo'rg'on, muqaddas go'sha, muhabbat oshiyoni kabi tavsiflar bilan ta'riflanadi. Zero, oila Vatan ichidagi kichik bir Vatan., „Oila“ deb nom olgan mo'jaz maskan umrimizga mazmun, hayotimizga fayz beribgina qolmay, jamiyat ravnaqi, yurt taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. Farzandlar shu aziz maskanda birinchi ta'limni oladi. Oiladagi

tarbiyaviy jarayon o'ziga xos xususiyatga ega. Uning oxiri va avvali yo'q. Bola tug'ulgan kundan boshlab tarbiya olib boshlaydi. Bola ota-onasining xatti-harakatlarini taqlid qilish orqali o'rganadi, ular aytgan so'zlarini takrorlaydi. Demak ota-ona bola shaxsi shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo'lishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon avvalo bola bilan ota-ona ortasidagi doimiy muloqotdir. Bolaning tarbiyasi yaxshi bo'lishi uchun uni sevish kerak. Bola bilan muloqotga necha minut vaqt ajratamiz? Shuni o'ylab ko'rish kerak. Ko'p emas 1 soat vaqt ajratsak, bu yaxshi. Taqdiqotlarning ko'rsatishicha, ota-ona va bola ortasidagi muloqot muloqot bir sutkada 1,8 soatni tashqil qilar ekan. Ona 35 minut muloqotda bo'lar ekan: <<qorning ochmi? nima yeysan?>> kabilar tarzida. Bola savol bersa ayrim ota-onalar javob bergisi kelmaydi. Ona ovqat tayyorlash, idish yuvish, uy supirish bilan ovora, ota gazeta o'qish, ish bilan. Turli yoshdagi farzandlarda u yoki bu muammo bo'lishi mumkin, unga ota-ona yetarlicha vaqt ajratishi kerak. Bolaning qalbiga quloq sola bilish muhim. Ota-ona o'rtasidagi nizolar bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nima uchun ota-onalar hamkasblari, do'stlari bilan qancha muloqotda bo'lsa ham qoniqmaydilar, lekin farzandlari bilan



kam muloqotda bo'ladi. Ota-onaning e'tibori oilada hissiyot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Yosh avlodni har tamonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek ma'sulyatli vazifa ota-ona yelkasida.

Darhaqiqat, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Hususan bolada iroda, odatlar, fe'l-atvor, xulq, atrofga munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Ana shulardan kelib chiqib, turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ahloqiy, ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shunday savol tug'iladi: Nima uchun o'smirlar jinoyatchilik ko'chasiga kirib qolayapti? Masalan, o'smirlar keksa kishini kaltaklashyapti. Demak, kattalar farzandlariga e'tiborliroq bo'la olmayapmiz. Ularning ko'ngliga quloq solmayaptilar. Ularda boshqalar g'amiga hamdard bo'lish tuyg'usini shakllantira olmayaptilar. Yoshlar bilan moda haqida gaplashsangiz ular siz bilan bilan ko'ngildan muloqotda bo'ladilar. Shu

tariqa ularning ko'ngliga qo'l solish mumkin. Jumladan, band bo'lish <<to'siq'i>>-ota-onalar doimo band bo'lishadi, bolaga e'tibor berolmaydilar, chunki ularning uy yumushlari ko'p. Ikkinchi to'siq-yoshga bog'liq bo'lib, bunga kattalarning yoshi ulug' bo'lgani uchun bolani tushunmaydilar. Kattalar uchun arzimaydigan narsalar bola uchun muhim bo'lishi mumkin. Ota-onalar farzandlarining yoshi ancha ulg'ayib qolganligini bilishmaydi. Farzand ulg'ayib borgan sari ota-onasining u bilan hisoblashishlarini istaydi. Shuning uchun ular o'rtasida ko'p kelishmovchiliklar, nizolar tug'iladi. Ota-onalar farzandlarining ularni doimo tinglashlarini xohlaydi, ularga bo'ysinishlarini istaydilar. Ularning mustaqqil fikrlarini eshitishga erinadilar. Demak, kattalar bolaga nisbatan eski qarashlarini yo'qotishlari lozim. Shunda o'rtadagi to'siq yo'qoladi.

Oila qanchalik tartibli, uning o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oiladagi farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a'zosi bo'lib qolishi kerak. O'qituvchi va sinf rahbari ham o'z o'quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'ymog'i



lozim. Shuning bilan oila va maktab o'rtasidagi pedagogik muloqot yo'lga qo'yiladi. Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizning ravnaq topishida poydevor bo'lgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash nafaqat kelajakda bizning va yurtimizda yashovchi har bir insonning muqaddas burchidir!.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Maxsudova „Muloqot psixologiyasi“ Toshkent <<Turon-Iqbol>> 2006
2. Internet ma'nbalari. Ma'naviyat.uz. Kutubxona.adu.uz.



YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH – MASOFAVIY O‘QITISH TIZIMIDAGI ASOSIY MUAMMO

*Abduraimov Sherali, Abdullayeva
Shabona*

Andijon viloyati Buloqboshi tumani

*23 - umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘qituvchilari*

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida “Covid-19” pandemiyasi ta’sirida yuzaga kelgan psixologik o‘zgarishlar va salbiy holatlar haqida fikr yuritilgan. Ularni bartaraf etishga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar

Axborot madaniyati, masofaviy o‘qitish tizimi, ta’lim, tarbiya, tahdidlar, ilm, bilim, psixologiyasik xolatlar, korreksiya

Mamlakatni taraqqiyot sari olib boruvchi yagona va ishonchli yo‘l – ta’lim-tarbiya tiimini to‘g‘ri tashkil etishdir. Bu jarayon yurtimizda azaldan o‘zaro uzviy bog‘liq holda amalga oshirilgan. Bugungi globallashuv va axborot

texnologiyalari davrida ta’lim va tarbiya jarayonini shiddat bilan taraqqiy etishi bilan birga ko‘plab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammolar butun mamlakatimiz ravnaqi yo‘liga to‘siqlarni olib tashlashga halal bermoqda. Mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya va ilmsizlik kabi xatarlarni yo‘q qilishga imkon topilmayapti.

2020-yil butun dunyo davlatlarini qamrab olgan “Covid-19” pandemiyasi O‘zbekiston uchun ta’lim-tarbiya jarayonidagi ko‘plab muammolarga qarshi kurashayotgan bir paytda qo‘shimcha sinov sifatida mamlakatimiz ta’lim tizimiga zarba berdi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya asosi sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bu salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Davlatimiz tomonidan olib borilgan chora-tadbirlar, fidokor ustozlar mehnati tufayli qisman bo‘lsada ta’lim ishlari davom ettirildi. Jumladan, qisqa muddat ichida mamlakatimizda “onlayn maktab” loyihasi joriy etilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun masofaviy o‘qitish tizimi tashkil etildi. Bu jarayonga qamrab olishda ko‘plab muammolarga duch kelindi. Jumladan, o‘quvchilar uchun masofaviy o‘qitish tizimi tashkil etish uchun texnik vositalar mavjud emasligi, aloqa



tizimining sifatsizligi va internet trafigining qimmatligi, ta'lim oluvchilar tugul, hattoki ko'plab o'qituvchilarda ham axborot kompyuter savodxonligi darajasi yetarli emasligi hamda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllanmaganligi kabi muammolar.

Yoshlarimiz internet vositalar orqali olgan rang-barang axborot va ma'lumotlarni barchasi ham foydali emasligi, hammasi ham rost emasligi, qisqa qilib aytganda, ularda axborot madaniyati shakllanmaganligi ko'zga tashlandi. Shu o'rinda mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Karimovning "Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddalarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz."- degan fikrlarida ham nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini bilib oldik. [Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –

engilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2011. - 176 b. 114-bet].

Ustozlar yoshlarga uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish imkoniga ham ega bo'lmadi. Katta mas'uliyat ota-ona zimmasiga yuklatildi. Oilada o'zi bo'larchilikka yo'l qo'yilgan, nazoratsizlik va e'tiborsizlik ko'plab yoshlar ongida bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib keldi. Televizor va internetdan olingan mislsiz saviyasiz filmlar, kliplar qahramonlariga, sport va san'at yulduzlariga taqlid qilishlar paydo bo'ldi. Yoshlar psixologiyasida salbiy o'zgarishlar: loqaydlik, parishonlik, uquvsizlik, tajanglik, isyonkorlik kabi illatlar kuchaydi. Endilikda esa yoshlardagi ushbu salbiy illatlarni yo'qotish qiyin kechmoqda. Bunday yoshlar bilan maktab psixologlari sohaning yetuk mutaxassislari bilan kerakli "muolajalar" qilishi, ularning korreksiya qilishi, boshqalarni ham o'z domiga tortib sherik sifatida yetaklashiga yo'l qo'ymasliklari kerak. Bu jarayonda barcha pedagoglar psixolog sifatida faoliyat olib borishi va mahoratini ishga solishi talab etiladi. O'quvchi-yoshlar bilan ko'proq suhbatlar olib borishi, tinglashi kerak. Boshqacha qilib aytganda, tarbiya jarayoniga ko'proq e'tibor qaratish hayotiy zaruriyatga aylandi. Tarbiya jarayoni ta'limning bir



qismi sifatida ajralmas bo‘lak ekanligini bilgan holda aytish mumkinki, ilmi insonlargina jamiyatga, davlatga foyda keltira oladi. Biz ilmi insonlar sonini ko‘paytirsak, mamlakat taraqqiyotiga halal berayotgan to‘siqlarni olib tashlay olamiz. Ilmi insonlar sonini oshirishda yurtboshimizning pedagoglarga ishonchi katta kuch beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabrda “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” nomli ma’ruzasida ta’kidlaganidek, “...Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”. [O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.2020-yil 30-sentabr. Toshkent shahri.]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo

etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.2020-yil 30-sentabr. Toshkent shahri.

2.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. - T.: “Ma’naviyat” , 2011. - 176 b.



O'zbekiston Respublikasi

Xalq ta'limi vazirligi

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani

27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

huquq fani o'qituvchisi

**Nazirov Akmal Xurramovichning 9-
sinf "Konstitutsiyaviy huquq asoslari"
fanidan "Siyosiy partiyalar faoliyati"
mavzusida bir soatlik**

Dars ishlanmasi



Sana:

Sinf: 9

Fan: Konstitutsiyaviy huquq asoslari

Mavzu: 16-Dars. Siyosiy partiyalar .

Darsning maqsadi: O'quvchilarni siyosiy bilimlarini ashirish, huquqiy madaniyatni va savodhonligini oshirish, O'zbekiston qonunlariga itoat qilishni va davlat hayotida ishtirok etishni o'rgatish.

a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga siyosiy partiyalar haqida ma'lumot berish. demokratik huquqiy davlatda siyosiy partiyalar faoliyatining ahamiyatini ko'rsatib berish.

Bilim: siyosiy birlashmalar tuzishni, O'zbekistonda mavjud siyosiy partiyalar, "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi qonun haqida bilishi va partiyaga a'zo bo'lish tartibi haqida bilish.

Ko'nikma: siyosiy partiyalar nomlarini ajrata olish va ularni maqsadlari haqida ma'lumot bera olish.

Malaka: mavzu yuzasidan bahslarda ishtirok eta olish va referatlar tayyorlay olish.



b) Tarbiyaviy maqsad:

bo'lish kompetensiyasi:Fuqarolik

T/r	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash.	12 daqiqa
3	Yangi mavzuni tushuntirish	12 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	13 daqiqa
5	O'quvchilarni baholash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa berish	2 daqiqa

burch
lari
va
majbu
riyatl
arni
angla
ydi,
ularga
rioya
qiladi

o'quvchilarni qonun ustuvorligi ruhida, qonunlarni biluvchi va bajaruvchi etib tarbiyalash, mamlakatda demokratiyani mustahkamlashda siyosiy partiyalarning roli haqida hikoya qilib berish;

Dars turi: Yangi materiyallarni o'rganuvchi dars

Dars uslubi: „Blits-so'rov“ , „bingo“, maruza, bahs-munozara, miyaga hamla, tets, Ijodiy faoliyat

s) Rivojlantiruvchi maqsad:

o'quvchilarning to'g'ri va mustaqil fikrlashini

rivojlantirish.

TAYANCH KOMPETENSIYA:Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

FANGA OID

KOMPETENSIYA:Huquqiy ongga ega

Dars jihozi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, jadvallar, Kompyuter vositasi, proektor, ekran, slayd, rag'bat kartochkalari.

Dars shiori: *Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas*

Qo'lingdan kelguncha tera olsang bas.
(Abu Abdullo Rudakiy)


Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.



- a) salomlashish.
- b) davomatni aniqlash.
- s) o'quv qurollarni nazorat qilish va o'quvchilarni fikrini darsga jalb qilish.
- v) darsning rejasi bilan o'quvshilarni tanishtirish va kun yangiliklari

O'quvchilarni quyidagi sxema yordamida guruhlarga bo'lib olishimiz mumkin.



II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Darsning bu bosqichini "Blits-so'rov" uslubi yordamida amalga oshiraman

namunaviy savollar:

1-savol.Ommaviy axborot vositalarida senzura ga yo'l qo'yiladimi?

2-savol.Qanday partiyalarni tuzish taqiqlangan?

3-savol.Ommaviy axborot vositalarining maqsadi nima?

4-savol.Ommaviy axborot vositalari ro'yxatdan o'tishi majburiymi?

5-savol.Ommaviy axborot vositalariga nimalar kiradi?

6-savol.Jamoat birlashmalari shakllarini sanab bering.

7-savol.Jamoat birlashmalari qaysi prinsiplar asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi?

8-savol.Budjet sozining manosini ayting?

9-savol.Senzura mima

10-savol.OAVga nimalar kiradi?

"Bingo" o'yini

1995 yil 1 aprel

2004 yil 3 dekabr

1992 yil 8 dekabr

1993 yil

29 dekabr

1991 yil 18 noyabr

2002 yil 13 dekabr

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun



2. "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida"gi qonun
3. O'zbekiston Respublikasi UNESCO ga qabul qilindi
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi kuchga kiritilgan
5. "Fuqarolarning murojatlari to'g'risida"gi qonun
6. "O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun

III. Yangi mavzuning bayoni.

Reja:

1. Siyosiy partiya tushunchasi
2. O'zbekistonda Respublikasida siyosiy partiyalar
3. "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi qonun haqida

SIYOSIY PARTIYA (lotincha «pars», «partis» — qism, guruh; eski o'zbekchasi arabchadan «firqa» — guruh, to'da) — umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi turg'un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalardan biri, hozirgi zamon huququy demokratik davlati hayotining zaruriy omillaridan biri.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida siyosiy partiyalar saylov tizimi vositasida markazdagi yoki joylardagi hokimiyatni qo'lga kiritish yoxud undagi lavozimlarni saylovda olgan ulushlariga qarab mutanosib ravishda taqsimlab olishga harakat qiladilar.

Markaziy Osiyoda siyosiy partiyalar tuzish uchun tarixiy-ijtimoiy talab XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida yuzaga kela boshladi. Birinchi, eng ibtidoiy va kamsonli siyosiy partiyalar XVII—XVIII asrlar inqiloblari davrida shakllana boshladilar. XIX asr oxiriga kelib, demokratik tartiblar kengayib, saylovlar tizimi, parlamentlardagi joylar uchun kurash keskinlashgani sari, siyosiy partiyalar hayoti va faoliyati yangi pog'onaga ko'tarildi. Siyosiy kurash sahnasiga ishchilar sinfining chiqishi esa siyosiy partiyalar masalasini jamiyat siyosiy hayotidagi eng jiddiy va muxim omillardan biriga aylantirdi. XIX asr oxiri — XX asrning birinchi yarmida siyosiy partiyalarning faoliyati eng yuksak nuqtaga chikdi. Hozirgi zamon siyosiy partiyalari faoliyatida «umum milliy», «umumdavlat» va «umuminsoniy» shior va shu kunning eng dolzarb muammolarini o'rtaga tashlash, aholini o'z atrofida uyushtirish masalalarida ustuvorlik kasb eta boshladilar. Kishilar hayotida turli-tuman



muammolar mavjuddir. Ana shu muammolardan ayrimini odam bolasi bir o'zi, boshqalarini esa faqatgina o'zgalari bilan uyushib, tadbirkorlikni rivojlantirish bilan ahamiyati bog'liq bo'lgan muammolarni, tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish, kredit olish, soliqqa tortish, tashqi bozorga chiqish masalalarini hal qilishi mumkin. Tadbirkorlar uyushmasi ham aynan ana shu maqsadlarda tuziladi.¹

2. O'zbekistonda Respublikasida siyosiy partiyalar

”Miyaga hamla”.

60-modda.

Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

[61-modda.

Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi.

62-modda.

Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.

56-modda.

O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.³

3. “Siyosiy partiyalar to'g'risida” gi qonun haqida

Yozing.

O'zbekiston Respublikasining qonuni siyosiy partiyalar to'g'risida 26.12.1996 yilda qabul qilingan. N 337-I

3-modda. Siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatish prinsiplari

Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish,



qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi:

- konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi;
- O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;
- urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi;
- xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi;
- milliy va diniy ruhdagi partiyalar.

4-modda. Siyosiy partiyalarga a'zolik

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir paytning o'zida faqat bitta siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi mumkin.

Partiyaga mansubligiga ko'ra fuqaroning huquqlarini har qanday cheklash, xuddi shuningdek unga imtiyozlar yoki ustunliklar berish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika barcha fuqarolarining huquq va erkinliklariga rioya qilinishining kafili sifatida prezidentlik vakolatlarini bajarish

muddati davomida siyosiy partiyaga a'zolikni yoki unda ishtirok etishni to'xtatib turishi yoxud butunlay to'xtatishi shart.

Quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar:

- sudyalari;
- prokurorlar va prokuratura tergovchilari;
- ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari;
- harbiy xizmatchilar;
- xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Siyosiy partiyalarga a'zolik yakka tartibda qayd etiladi.

6-modda. Siyosiy partiyani tuzish

Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy sub'ektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi. (O'zR 12.12.2003 y. 568-II-son Qonuni tahriridagi qism)

Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash,



a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'xis s'ezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo'yicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim.

Tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab yetti kunlik muddatdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta'xis s'ezdi yoki konferensiyasi chaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim.

Tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'i bilan uch oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir.

Siyosiy partiya ta'xis s'ezdida yoki konferensiyasida tuziladi.

Ta'xis s'ezdi yoki konferensiyasi partiya ustavi va dasturini qabul qiladi, uning saylab qo'yiladigan organlarini tuzadi.⁴

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Test

1. Kimlar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydi ?

A. ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari;

B. sudyalari;

S. prokurorlar va prokuratura tergovchilari;

D. barcha javoblar to'g'ri

2. Adolat sotsial demokratik partiyasi qachon tashkil topgan?

A. 1991-yil 1-noyabr

B. 1995-yil 18-fevral

S. 2003-yil 3-dekabr

D. 2008-yil 11-avgust

3. Siyosiy partiyalar to'grisidagi qonun qachon qabul qilingan?

A. 1991-yil 1-noyabr

B. 1992-yil 26-noyabr

S. 1995-yil 26-dekabr

D. 1996-yil 26-dekabr

4. Siyosiy partiya tuzish uchun necha nafar fuqaroning imzosi talab etiladi.

A. 5 ming

B. 10 ming

S. 15 ming

D. 20 ming

5. Siyosiy partiyalar qaysi davlat organi ro'yxatga oladi?

A. Oliy Majlis

B. Vazirlar Mahkamasi

S. Oliy sud



Partiyalar nomi	Ro'yhatdan o'tgan sanasi	Maqsadi	Nashr organi

4.
"O'zbekiston Respublikasining

D. Adliya vazirligi

qonuni siyosiy partiyalar to'g'risida"
qonun 26.12.1996 yil. N 337-I

Ijodiy faoliyat

Darsning bu qismida o'quvchilar o'z daftariga partiya o'zlarining pariyasini tuzadilar, uning maqsadini izohlab beradilar.

V. Baholash

O'quvchilar bilimini rag'bat kartochkalar orqali baholayman

Savol	1	2	3	4	5
Javob	D	B	D	D	D

VI. Uyga vazifa berish.

Mavzuva oid savol-topshiriqlarni bajarish

Foydalanilgan adabiyotlar

1."MUSTAQILLIK" izohli ilmiy – ommabop lug'at "Sharq" nashiriyot-matbaa konserni .

Toshkent - 2000. 193 - bet

2."Konstitutsiyaviy huquq asoslari" 9-sinf darslik. "Sharq" nashiriyot-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi bosh nashiriyoti. Toshkent - 2014. 95- bet

3. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi.



ALISHER NAVOIY IJODIDA TARBIYA MASALASI TARG'IBI

Ibragimova Marg'uba

*Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani
24-umumta'lim maktab ona tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqolada so'z mulkinging sultoni bo'lmish – Hazrat Alisher Navoiy o'z ijodida tarbiya masalasiga qay darajada e'tibor bergani qalamga olinadi.

Kalit so'zlar: adabiyot, turkiy va forsiy til, turkiy adabiyot, tarbiya

Alisher Navoiy so'z san'atkori, fikr sultoni, buyuk shoirdir. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n -u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. “Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi mutafakkir desak,

mutafakkirlarning mutafakkiri, [shoir desak](#), shoirlarning sultoni”¹.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni

¹ Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat,2008.



axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi:

“Axloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir”.

Shoir insonga xos qusurlar va xislatlar haqidagi fikrini quyidagi bayt bilan yanada oydinlashtiradi va qissadan hissa chiqaradi:

Yaxshiliq tuxmin sochg'ilkim budur dehqong'a so'z,

Har nekim ekding bugun borin hamon tut oning ko'z.

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga undaydi. Mutafakkir ilm o'rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o'rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o'z xalqining manfaati hamda

mamlakatining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borishlariga ishonadi.

Mazkur o'rinda Mirzo Ulug'bekni ana shunday xislatga ega bo'lgan kishilardan biri bo'lganligiga urg'u beradi hamda uning nomi tarix sahifalarida abadiy saqlanib qoladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmi bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta'riflash uchun unda, yana shuningdek, [sabr-qanoat](#), saxiylik, himmat, to'grilik, rostgo'ylik, tavoze, adab, vafo va hokazo sifatlarning ham mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: “Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi”.

Alisher Navoiyning asarlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Dilorom, Qays, Shopur kabi ijobiy qahramonlar umuminsoniy tarbiya asosida tarbiyalanganlar,



kamtarin, odobli, or-nomusli insonlardir. Bu qahramonlar orqali yoshlarni ulardan ibrat olishga chorlaydi.

Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o'z asarlarida har bir so'zdan unumli va o'rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo'ladi. Ulug' shoir o'zining ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo'shdi, umuminsoniy fazilatlar to'g'risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir.

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, [davlat va boshqalar emas](#), balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy asarlari orqali hayotda uchrashi mumkin bo'lgan ijtimoiy masalalarga

mohirona yondoshgan tarbiya, ta'lim masalasidagi yetakchi muammolardan biri bu millatlararo hamjihatlik masalasi ekanligini yaxshi bilgan. O'rta asrlarda mahorat va odillik bilan qayd etib o'tilgan mazkur muammo, bugungi kunda yetakchilik qilmoqda. Alisher Navoiy turli xalq va millat vakillarini samimiyat bilan sevadi, ularni hurmat qiladi. Uning qaysi bir asarini olmang, turli xalq vakillari obraziga duch kelasiz, unda ularning do'stlik, birodarlik g'oyalari jo'shqin ifoda etilganligini ko'rasiz:

Ko'ngulni olsa malohat bila tafovut yo'q,

Xitoy o'lsinu yo armani va yo hindu...

Men tilab husn, vale shoh tilab aslu
nasab

Menga lo'li bila hindu, anga qo'ng'irotu
qiyot

kabi misralarda u xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, tengma-teng qo'yuvchi belgilarga e'tiborni jalb etadi hamda insonni irqi, elati, etiqodiga qarab, unga turlicha munosabatda bo'lish kabi yomon illatlarga qarshi kurashadi. Bugun dunyoda ba'zi xalqlar, davlatlar va millatlar orasida bo'layotgan turli mojarolar, birodarkushlik urushlarining oldini olish, xalqlarni do'stlikka chorlash



g'oyalarini shoir oldindan bashorat qilgandek tuyuladi.

**FOYDALANILGAN
ADABIYOTLAR:**

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.

Alisher Navoiy “Hikmatlar”.
O'zbekiston. – T. 2011.

Ibrohim Haqqul “Navoiyga qaytish”.
Fan. – T. 2007.



OILAVIY MUAMMOLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI VA ULARNI ECHISH USULLARI

Allanazarova Nurjamal Ziuaddin qızı

Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika psixologiya yo'nalishi

1- kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Inson o'ziga hos xususiatlari uning mehnatga, ma'naviy, g'oyaviy va madaniy boyliklarga munosabatining asoslari oilada shakllanadi. Jamiyat mustahkam, ma'naviy va ahloqiy jihatdan sog'lom oila bo'lishidan manfaatdordir. Shu sababli jumhuriyatimiz oilani mustahkamlashni, bolalar tarbiyasi, shuningdek, ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashda yordam berishni davlat ahamiyatiga molik ish deb biladi. Keyingi yillarda respublikamiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va yo'l-yo'riqlarda xalqimizning ijtimoiy-madaniy yuksalishini ta'minlovchi fikrlar, tavsiyalar berildiki, bular respublikamizning asosi – oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynamoqda. Chunki

oilalarning har tomonlama yuksalishi, ta'bir joiz bo'lsa, jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma'noda 1yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti muhim masaladir. Ikkinchi tomondan, jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi ham kun sayin ortib bormoqda. Zotan, ota-onalarning bolalar tarbiyasi yuzasidan ma'suliyatini kuchaytirish, tarbiyalashga oid layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Kalit so'zlar: Ota-ona, oila, bola, tarbiya, muammo, yechim.

Sayyoramizdagi tinchlik uydan, oiladan boshlanadi. Insoniyatni komil inson qilib, ularni baxtli etgan, yuksaklikka yetaklagan bu - yaxshi tarbiyadir. Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, xalqning boy milliy-ma'naviy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga iamda unutilmas qadriyatlariga asoslanib tashkiliy ijtimoiy – psixologik shakldagi vositalarni ishlab chiqish va uni amalda joriy etish borasida soha mutahassislaridan yanada mas'uliyat talab etadi. Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi, uning



tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va boshqalar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlash katta ahamiyatga ega. Tarbiya kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan boshlandi va rivojlanib bordi.

Bola tug'ilishi bilanoq ota-onasining parvarishi orqali atrof-muhit bilan tanishadi. Insonning shakllanishiga **salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan ya'ni ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandalik va boshqa illatlardan** himoya qilish esa nihoyatda murakkab jarayon. O'zbek halqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odat va an'analari, tarbiya g'oyalari va hayotiy tajribasi yillar davomida mukammallashib keldi. Hali tarbiya muassasalari bo'lmagan davridayoq, qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlik, jangovorlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr – shafqatlilik, insonparvarlik xislatlarini shakllantirish va o'stirish sohasidagi aql – idroki va usullari o'sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida ijtimoiy

hayotga bog'liq holda shakllandi va rivojlandi. Bola, asosan, oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tergagi, ya'ni tayanchi hisoblanadi. Har bir bolani shunday tarbiyalash lozimki, u, avvalo, yaxshi o'qishi va so'ngra esa, yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin. Ma'lumki, sharqning buyuk allomalari ta'lim va tarbiya masalalariga alohida e'tibor berishgan.

Abu Ali Ibn Sino ham mazkur ustuvor masalalarga doir bir qancha asarlar, o'zidan boy ilmiy meros qoldirgan. Ibn Sino bolani maktabda o'qitish oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanishi, u tarbiya o'chog'i sifatida shaxsning shakllanishida muttasil ishtirok etadi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini ta'minlanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, sub'ektlarning kamolot darajasi belgilaydi. Agar rollar, status va o'zaro hamjihatlik inqirozga yuz tutgan holatda oiladagi psixologik muhitni tasavvur qilishni o'zi murakkabdir. Oilada shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Albatta, bu holatni asoslovchi omillarni tadqiq qilishda quyidagicha yo'l tutishni lozim topdik: Hozirgi zamon oilalarida inqiroz



shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritish. Oilada shaxslararo munosabatlarda tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari (fenomenlari)ni ochib berish. Zamonaviy oilalardagi ijtimoiy psixologik muhit, u bilan jamiyatning o'zaro uyg'unligi, sub'ektlarning maqsad va maslaklarining birligi, qadriyatlar darajasining saqlanayotganligi, etnik va madaniy muhitning undagi munosabatlarda saqlanishi, avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlargabarham berish, ijtimoiy kutishlar, rollar taqsimoti so'zsiz inqirozlarni oldini olishga puxta zamin hozirlaydi.

Bugungi kunda oila muammosiga aloqador masala uning barqarorligini ta'minlash, undagi inqirozli holatlarni bartaraf etish choratadbirlarini ishlab chiqishga davat etadi. Oilada bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida, mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmog'i uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamog'i kerak. Ana o'shanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqati borligi namoyon bo'ladi. fiziologik va psixologiya fanining ko'rsatilishicha inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatni ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potensial imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini

ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi. Tug'ma layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u «mudroq» holatda bo'lib, uning uyg'onishi rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib, rivojlanishi, aksincha bu bo'lmasa yo'q bo'lib, ketishi mumkin. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammosi insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biridir. U o'zida jismonan sog'lom, aqlan barkamol yangi avlodni voyaga yetkazishni, kishilarning mehnat qilishi, dam olishini va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishini to'g'ri tashkil etishni, oqilona hayot kechirishi mujassamlashtiradi. Shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-gigienik, ma'naviy jihatlarni har tomonlama o'rganish, vujudga kelgan haqiqiy ahvolni hisobga olib tadqiq etish davr talabidir. O'zbekiston aholisining hayot tarzini oiladan tashqarida tasavvur qila olmaymiz, shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirish bevosita oilaga, oilaviy hayot tarziga, «**oilatabiati-jamiyat-inson**» tizimiga bog'liqdir. Zero, sog'lom turmush tarzi va oilaning farovonligi iqtisodiy va ma'naviy omillar bilan belgilanganda edi, u vaqtda aholining moddiy farovonligi oshgan sayin, sog'liqni



saqlash, uy-joy bilan ta'minlash masalasi to'la hal etilganda sog'lom turmush tarzining barqarorligini belgilovchi barcha o'z-o'zidan hal bo'lgan vajamiyat uchun nomaqbul bo'lgan hodisalar ham yo'q bo'lib ketgan bo'lar edi. Mustaqillik sharoitida oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish oilalarning ma'naviy-ruhiy tiklanishi va poklanishi muammolariga ham alohida ahamiyat berishni taqozo etadi. Chunki ma'naviyatning yuksakligi oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishda umuminsoniy va milliy tajribalardan foydalanib madaniy hayot kechirishni, bu sohada me'yorga rioya etishni talab qiladi. Shuningdek, sog'lom turmush tarzining shakllanishiga sho'rolar davridagi oila-nikoh munosabatlari, ekologik, demografik, ruhiy oqibatlar vash u kabilar o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Jumladan, sho'rolar davrida o'zga mafkura ta'sirida kirib kelgan giyohvandlik, ichkilikbozlik, ota-onalarning ahloqiy-ma'naviy buzuqligi natijasida nosog'lom hayot kechirayotgan oilalar hozir ham topiladi. Bunday oilada tarbiyalanayotgan farzandlarning kelajagi qanday bo'ladi degan savol sog'lom fikrli jamoani tashvishlantirmay qo'ymaydi. Oilada sog'lom muhit-turmush tarzini barqarorlashtirish, farzandlarni barkamol etib tarbiyalash, oilaning tarbiyaviy va

ijtimoiy rolini bajarishda fuqaroliy ma'suliyatini oshirish lozim.

Oilani, onalar va bolalarni muhofaza etishning kuchli ijtimoiy tizimini yaratish va amalga oshirish zarur.

1 Oilada sog'lom farzandlarni voyaga yetkazishda oila byudjetini to'g'ri taqsimlash va oiladagi bolalarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish kata ahmiyatga ega. Oilaning moddiy farovonligi bolalar sog'lig'i va ularning sog'lom turmush tarzida o'z aksini topadi.

2. Ovqatlanish sog'lom turmush tarzini shakllantirishning muhim omilidir. Ovqatlanish bizning hududimiz sharoitida g'oyat kata o'rin tutadi. Chunki vitaminlar yetishmaydigan, kimyoviy tarkibi past, sifatsiz ovqatlarni iste'mol qilish, ularning miqdori jihatidan ham nomunosibliigi aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish kishilarni, ayniqsa yosh avlodni sog'lom barkamol bo'lib vohga yetishiga, salomatligini mustahkam, ruhiyatini yaxshilashga olib kelishidan tashqari, kishilardahayotda to'laroq va faolroq ishtirok etishga, o'zlarining bo'sh vaqtdan unumli, yaxshi foylana bilishiga ham imkon beradi, ijtimoiy faollikning



boshqa shakllari rivojlanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday psixoterapiya erta bolalik davridagi tahlili, shuningdek, o'zaro munosabatlarning o'sishi va rivojlanishi jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni taklif etadi. Bularning barchasi oila, shuning uchun muayyan ma'noda oilaviy bo'lmagan psixoterapiya mavjud emas.

20-asrning ikkinchi yarmida ko'plab psixoterapevtchilar oilaning tarixiy o'tmishini tahlil qilish yoki yaqinlarining yaqinlari haqidagi mijozlarning hikoyalarini o'rganish orqali oilaviy munosabatlarni o'rganish samarasiz, degan xulosaga kelishdi, chunki ma'lumotlar allaqachon buzilgan va hissiy jihatdan ranglangan. Ko'plab noma'lum kishilarning vazifasi edi va qarindoshlari bilan gaplashish, birinchi og'izdan hamma narsani o'rganish yanada oqilona edi. Ko'pgina psixoterapevtlar mijozning oila a'zolaridan so'rov o'tkaza boshladilar. Birgalikda psixoterapiya imkoniyatlari asta-sekin muhokama qilindi.

Oilaviy psixoterapiya ildizida amerika psixologi Virjiniya Satir bor. U 1916 yilda AQShda tug'ilgan. Birinchi kasbi - o'qituvchi. Bu ikki muhim narsani tushunishga yordam bergan maktab ishi edi. Birinchisi: har bir insonning dunyosi

oilada boshlanadi. Ikkinchisi: "oilada muammolarga" yordam berish uchun siz o'qituvchi emas, balki psixolog bo'lishingiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahliddinov R. «O'zbek oilasi fazilatlarini» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent 1998 y. 1-son, 51-56 b.
2. Inomova O. «Farzand-nihol, ota-ona bog'bon» Toshkent, «O'qituvchi» 1994 y
3. Inomova O. «Oila tarbiyasida milliy xususiyatlarni hisobga olish» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 2004 y, 5-son, 56-58 b.
4. . [http: www.lib.psixology.msu.ru](http://www.lib.psixology.msu.ru)



BOLALAR NUTQINI O`STIRISHDA XALQ OG`ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Abduraxmonova Noila Nasim qizi

Guliston davlat universiteti o`qituvchisi

Artikova Nozima Muxitdin qizi

*Guliston davlat universiteti 2-bosqich
magistranti*

Ummatqulova Sayyora

*Guliston davlat universiteti 2-bosqich
magistranti*

Annontatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish, nutqni rivojlantirishdagi xalq og'zaki ijodining ahamiyati va roli. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqidagi kamchiliklarini bartaraf etishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rinli foydalanish kabi dolzarb muammolarga doir manbalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nutq, qobiliyat, maqol, ijod, namuna, qobiliyat, rivojlantirish, muammo.

Jahonda maktab yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi, ularning fikrlash jarayonini rivojlantirishga, nutqini o`stirishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Janubiy Korea, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, tafakkur erkinligi, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, o`z fikrini ravon bayon etishiga jiddiy yondashadilar.

Jahonda bolalarni nutqini o`stirishga ularning yoshiga xos bo`lgan psixologik va pedagogik xususiyatlarning nazariy-metadologik jihatlarini tadqiq qilish, maktab yoshidagi bolalarni nutqini o`stirishda umumta'lim muassasalari, ota-onalar bilan oqituvchilarning o`zaro hamkorlik ko`lamini kengaytirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish kabi yo`nalishlar bo`yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tilganidek, boshlang'ich ta'lim bu ko'p tomonlamali, maqsadga yo'naltirilgan, bolani ta'limning keyingi bosqichi - maktab ta'limiga tayyorlovchi, jismoniy, ruxiy, individual va yoshga doir rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim va tarbiya jarayonidir.



“Boshlang’ich ta’lim Konsepsiyasi”da boshlang’ich ta’lim masalasi alohida yoritib o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda respublikamizda boshlang’ich ta’limni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari o‘z aksini topgan².

Badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodiyotiga oid asarlar shu jumladan kichik folklor janorlari (maqollar, matallar, topishmoqlar tez aytishlar sanoq sherlar) bolalar nutqining ifodaliligini rivojlantirishning eng muxim namunalari deyilgan. „Xalq og‘zaki manbalari hisoblanadi

Badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodiyoti – bu inson hayotining birinchi yilidan boshlab unga hamroh bo‘ladigan sanat turlaridir.

Folklorning tarbiyaviy, bilish va estetik ahamiyati juda katta, zero u bolaning atrofdagi borliq haqidagi tasavvurlanini kengaytirgan holda ona tilining badiiy shakli, musiqasi va ritmini chuqur his qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bolani kichik folklor shakllari bilan tanishtirish badiiy adabiyotda ifoda vositalarining (taqqoslash, kinoya, epitet) rolini tushunishni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimiy shakllaridan biri sanaladi. Negaki, badiiy asarlar dastlab og‘zaki shaklda paydo bo‘lgan, og‘izdan og‘izga ko‘chib yurgan. Hech qanday vositalarsiz xalqning xotirasi tufayli davrlar osha avlodlarga yetib kelgani hamda kim tomonidan yaratilgani noma’lum bo‘lgani uchun ham bunday asarlarga xalq og‘zaki ijodi ham bunday asarlarga xalq og‘zaki ijodi ijodi” birikmasi o‘rnida „folklore” atamasini ham ishlatish mumkin. „Folklor” inglizcha „folk” (xalq) va „lore” (donolik) so‘zlaridan yasalgan. O‘zbek xalq ijodi namunalari dostonlar, lirik she’rlar, qo‘shiqlar, afsona, maqol, masal, topishmoqlar kiradi. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi zamonlarga oid ayrim og‘zaki adabiyot yodgorliklari ba’zi bir manbalar orqali bizga qadar saqlanib qolgan. Bu manbalar tarix kitoblari, ilmiy asarlar, yozma yodgorliklar va boshqalardan iborat. Boshlang’ich sinf o‘qish darsliklarida maqollarning berilishi,

² Кадырова Ф.Р., Кадырова Р.М., Вахобова Ф.Н. Концепция дошкольного образования Республики Узбекистан. – Т.: “Fan va texnologiyalar”, 2011. — С.4. amaliy ishlar olib borish, bu boradagi



ishlarni keng hamda nazari-amaliy tahlil qilish, o'qitish tizimiga tavsiyalar berish shu kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bolalar yozuvchisi soda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi lozim. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni tabiatni sevishtirishga, halol yashashga, ilm-fan cho'qqilarini egallashga, xalq uchun foydali yangi kashfiyotlar qilishga o'rgatadi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr tuyg'ularini o'stiradi. Maktab yoshidagi bolalarkitobxonligi avvalgisidan farq qiladi. Bu farq bolalarning yoshi, bilimi, saviyasi bilan bog'liq.

Boshlang'ich sinfda shoir, yozuvchilarning o'z tilidan o'qigan asarlari yoki ular haqida boshqalar aytgan fikrlari magnit tasmasidan eshittirilsa yoki video tasmadan ko'rsatilib, unga o'qituvchi hikoyasi qo'shilsa, darsning samaradorligi yanada oshadi. Masalan, 4-sinf O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi aytilgach,

A. Oripovning o'zi aytgan „O'zbekiston“ she'ri qo'yib eshittirilishi mumkin.

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertaklardir.

Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto, turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi.

Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi. O'tmishda yaratilgan ertaklardan xalqchilik kurashi o'zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir. Xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'labasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan.

Xalq ertaklari o'z xususiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi: hayotiy



ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli-afsonaviy ertaklar, ijtimoiy maishiy ertaklar.

Xalq ertaklarida el-yurtni o'z qarog'iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug'lanadi, ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi, uzoq masofalar yaqin qilinadi, kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchilik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g'oyalari ulug'lanadi.

Ertak bolalar hayotiga qat'iy kirib keldi. O'z mohiyatiga ko'ra, u kichkina bolaning tabiatiga to'liq mos keladi, uning fikrlashiga, vakilligiga yaqin. Ertaklar bolalarga yaxshi va yomonni tushunishga, yaxshilik bilan yomonni ajratishga yordam beradi. Ertakdan bolalar jamiyatning axloqiy asoslari va madaniy qadriyatlarini to'g'risida ma'lumot olishadi. Ular ufqlarini kengaytiradi, nutq, xayol, tasavvurni rivojlantiradi. Ertaklar bolalarda axloqiy fazilatlarini, mehr-oqibatni, saxovatni, mehnatsevarlikni, rostgo'ylikni rivojlantiradi.

Ertakni go'zallikdan ajratib bo'lmaydi, u estetik tuyg'ularni rivojlanishiga hissa qo'shadi, bu holda qalbning olijanoblighi, odamlarning baxtsizligi, qayg'usi va azob-uqubatiga samimiy ta'sirchanligi

aqlga sig'maydi. Ertak tufayli bola dunyoni nafaqat aqli bilan, balki qalbi bilan ham o'rganadi. Ertak - bu Vatanga, ona zaminga bo'lgan muhabbatni tarbiyalashning mehribon va almashtirib bo'lmaydigan manbai, chunki ertak xalqning yaratuvchisi bo'lib, u bola qalbiga ta'sir qiladi. Ertakda tug'ma tabiat, odamlarning xarakterlari va axloqiy xususiyatlari, kundalik hayoti tasvirlari bolaning aqliy nigohi oldida paydo bo'ladi; bu bolalardan ona tilining yorqin namunalarini oladilar. Ertak - bu xalq madaniyatining ma'naviy boyligi, bu bola o'z qalbidan o'z xalqini o'rganishini biladi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A.,
Pardaev A. Ta'limda innovatsion
texnologiyalar. T.: Iste'dod,2008.- 180 b.

2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A.
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni
amaliyotga joriy qilish. T.,«Fan va
texnologiya»,2008,132 bet.

3. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M.
Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy
asoslari (o'quv qo'llanma). T.: «Fan»
nashriyoti, 2006.

4. G'afforova T., Nurullaeva Sh.,
Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun
ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.
–Toshkent: Ilm ziyo, 2004. –80 b.



BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA TELEDASTUR VOSITALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

QarDU o'qituvchisi S.B.Ashirova

Annotatsiya: Dunyoqarash, teledastur, televideniya, aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, jismoniy, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rukun, axborot, televizor, mobil aloqa.

Аннотация: Мироззрение, телевидение, телевидение, ментальное, нравственное, эстетическое, экологическое, физическое, патриотическое, трудолюбивое, руку, информационное, телевидение, мобильное.

Annotation: Worldview, television, television, mental, ethical, aesthetic, environmental, physical, patriotic, hardworking, rukun, information, television, mobile.

Buguni davr bolalarining dunyoqarashini o'qitishda ommaviy axborot vositalaridan biri hisoblanmish televideniyaning o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. U orqali bolalarning ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy ongi yuksaladi, dunyo yangiliklaridan, fan va texnika yutuqlari,

milliy qadriyatlarimizdan xabardor bo'lib boradi. O'z navbatida televideniye mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yosh avlod dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston milliy televideniyesi bu masalaga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Bolalarning aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, jismoniy, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi tarbiya turlarini shakllantirish borasida yangidan-yangi teledasturlar yaratib, bolalar e'tiboriga namoyish etib kelmoqda.

Eng muhimi yangidan tashkil etilgan bolalar teledasturlari o'zida milliylik va zamonaviylikni o'yg'unlashtirgan, bolalar e'tiborini jalb etishga qaratilgan rang-baranglikka egadir. Unda nafaqat o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, balki boshqa millat vakillarining qadriyatlari ham aks etib boriladi. Ayniqsa, multi ko'rinishdagi dasturlarni bolalar zo'r qiziqish bilan tomosha qiladilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida televideniye haqida shunday deyiladi: "Harakatdagi yoki harakatsiz boyektlarning tasvirini tovush bilan birga radioelektron vositalar yordamida muayyan masofaga uzatish va qabul qilish; uzoqdan ko'rish; axborot vositalaridan biri".



Demak, televideniyeining ushbu ta'rifiga ko'ra u muhim axborot vositalaridan biridir. Axborot oqimi shiddat bilan tarqalayotgan hozirgi davrda insonlararo muloqotning turi sifatida televideniye o'rni beqiyosdir. Zero, faqat televideniye orqaligina qisqa muddatda har qanday ma'lumot, yangilik, voqea-hodisalar haqida xabardor bo'lish imkoniyati mavjud.

Televideniye imkoniyatlarini tahlil qilar ekanmiz, u haqida turli fikrlarning mavjudligiga amin bo'ldik. Bir guruh olimlar e'tirofiga ko'ra televideniye fan-texnikaning ajoyib mo'jizasidir. Ayrim tadqiqotchilar esa, uni aksincha ta'riflaydilar. Ya'ni uni shaxs dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida tilga olishadi. Har ikkala yondoshuvning ham o'ziga xos jihatlari mavjudki, ularni aslo inkor etib bo'lmaydi. Ammo nima bo'lganda ham bugungi hayotimizni televideniyesiz tasavvur eta olmaymiz. U kishilar ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Televideniye dan nafaqat oila davrasida, balki barcha muassasa va tashkilot, transport va boshqalarda foydalanamiz. Tadqiq etayotgan muammoning mavjud holatini o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldikki, yoshi katta kishilar televizorni oila davrasida ko'rishni yoqtirishadi, unga dam olish

vositasi sifatida qaraydilar. Televizorda berilayotgan ayrim ko'rsatuv va kinofilmlarga e'tirozlari bo'lsada, baribir uni ko'ngilochar, siyosiy qarashlarini boyituvchi, axloqiy va aqliy tarbiyalovchi, dunyo voqealari va ilm-fan yangiliklaridan xabardor qiluvchi sifatida tilga olishdi. Taqiqotchi olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalarga ko'ra, bolalarning 100 % televideniye dan foydalanishlarini e'tirof etganlar. Bundan ham ko'rishimiz mumkinki, televideniye ning mavqei juda yuqoriligidir. Axborotni qabul qilishda, televideniye ning afzalligi shundaki, u audio vizual vositadir, ya'ni ovozli nutq va ovozli ko'rsatuvdir.

Televideniye o'zining aniq maqsad va vazifalariga ega bo'lgan muhim ijtimoiy mexanizmdir.

Eng quvonarli holat shuki, bir necha yildan buyon bolalar uchun alohida "Bolajon" teledasturi o'z ishini olib bormoqda. Ushbu kanal faqat bolalarga mo'ljallangan bo'lib, u ertalab 7.00 da boshlanadi va kechki 10 da yakunlanadi.

Uning asosiy ruknlari quyidagilardan iborat: "Multiponaramma" Bolalar dunyoqarashini shakllantirishga, ularda odob-axloq va yaxshi fazilatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan milliy va xorijiy multfilmlar namoyishiga



bag`ishlangan teledastur. “Katta tanaffus”-bolalar va o`smirlarning intellektual imkoniyatlarini va bilim doirasini kengaytirishga qaratilgan teleo`yin shaklidagi ko`rsatuv. “Bolajon ustaxonasi” -kichkintoy bolajonlarning qog`ozdan, plastilindan hayvonlar, jonivorlarni yasab, ularning hayvonot olami haqidagi tasavvurlarini boyitish hamda dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan teledastur. “Quvnoq alifbo”-bolalarga ingliz tilidan saboq berib, ularning savodxonligini muttasil yaxshilab borish, imlosini va nutq madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan teleo`yin. “ABC kids”-Maktabgacha ta`lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari hamda boshlang`ich sinf o`quvchilariga ingliz tili grammatikasi, so`zlashuv qoidalari haqida mufassal va mukamal tushuncha berishga yo`naltirilgan teledastur. “Bolajon mehmonxonasi”-taniqli aktyorlar, aktrisalar va teleboshlovchilar bilan suhbat asnosida bolalar uchun foydali maslahatlar va tavsiyalar berishga yo`naltirilgan teleko`rsatuv. “Do-mi-sol”-bolalarda dastlabki musiqiy bilim va ko`nikmalarni shakllantirishga hamda kichkintoylarda san`atga bo`lgan muhabbatni tarbiyalashga qaratilgan teledastur. “Ertakchi bolajon”-o`zbek milliy ertaklari, rivoyatlari va masallari

vositasida bolalarda ezgulik, kamolotga intilish, Vatanga muhabbat va sadoqat kabi fazilatlarini tarbiyalashga qaratilgan teledastur. “Bolajon ustaxonasi”-kichkintoylarga oshxona anjomlari, oshovqat masallig`lari haqida hikoya qilishga mo`ljallangan hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan teleko`rsatuv. “Tabiatga sayohat”-tolajonlarga ingliz tilidan saboq berishga yo`naltirilgan teledastur. Teatr aktyorlari ishtiroki va ijrosida sahnalashtirilgan tomoshalar orqali kichkintoylarning ingliz tilida so`zlashish qobiliyatlarini o`stirib, rag`batlantirib boriladi. “Landi-landi”-qadim-qadimdan bugungi kungacha etib kelgan o`zbek xalq milliy o`yinlarini keng targ`ib qilishga yo`naltirilgan teledastur. “Bravo ingliz”-bolalarga ingliz tilidan saboq berib, xorijiy tilni o`rganish ko`nikmalarini shakllantirishga ko`maklashadigan teleko`rsatuv. “Sirli o`rmoncha” -bolalarning ona tabiat unda kechadigan hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarini shakllantirish bilan bir qatorda jonzotlarga mehr uyg`otishga qaratilgan teleo`yin shaklidagi dastur. “Bolajon gimnastikasi”-bolalarning yoshligidanoq sog`lom va barkamol bo`lib voyaga etishlari yo`lida ertalab bajariladigan gimnastik mashqlardan iborat salomatlik dasturi. “Balojonlar sahnasi”-maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyalanuvchilari hamda



yosh tomoshabinlar teatri aktyorlari jamoasi ishtirokida sahnalashtirilgan ertaklarni namoyish etib borish orqali kichkintoy tomoshabinlarning qalbida ezgulik va yaxshilik hislatlarini shakllantirib hamda tarbiyalab borishga yo'naltirilgan teledastur va boshqalar.

Ushbu ruknlar juda qiziqarli olib borilmoqda. U qisqa vaqt ichida bolalarning sevimli kanaliga aylanib ulgurdi. Telekanalda bolalarni har tomonlama: ham jismonan, ham ma'nan tarbiyalashga harakat qilinadi. Shuningdek, uning ruknlari bolaning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "ABC kids", "Bravo ingliz" dasturlari orqali bolalar ingliz tilini o'rganadilar. Bunda bolalar turli-tuman o'yinlar, rang-barang vositalar yordamida tilni o'zlashtiradilar. Shu bois bolalar bu ko'rsatuvni bajonidil tomosha qiladilar. Ingliz tiliga oid atamalarni yod oladilar va talaffuz qilishga o'rganadilar.

"Katta tanaffus"-dasturida bolajonlarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Ushbu dasturlar bolalarning o'zlari tomonidan olib boriladi va unda bolalar muammoli vaziyatlarni yechadilar, turli savollarga javob topadilar, aqliy harakatda bo'ladilar.

Bolalarni jismoniy rivojlantirish va ular o'rtasida sog'lomlashtirish ishlarini targ'ib qilish maqsadida "Bolajon gimnastikasi" dasturi ham juda qiziqarli tarzda tashkil etilgan. Shuningdek, bolalar ushbu dasturlar orqali sportga oid yangidan-yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib boradilar. Masalan, sport o'yinlari, turlarining qachon va qayerda paydo bo'lganligi, sport anjomlarini bilib oladilar.

"Bolajon oshxonasi" ko'rsatuvini alohida tilga olishimiz joizki, uni bolalar sevib tomosha qiladilar. Uning bosh qahramoni "Qozonoy opa" bolalarga sabzavot va mevalarning foydali xususiyatlarini, ularni qanday qilib saqlashni va ovqat, salat, pishiriq tayyorlashni o'rgatib boradi.

"Ertakchi bolajonlar", "Bolajonlar sahnasi" ko'rsatuvlarida bolajonlar o'zbekona qadriyatimiz bo'lmish odob-axloq qoidalarini o'zlashtiradilar va o'zlariga kerakli xulosani chiqarib

oladilar. "Bolajon" telekanalida eng ko'p vaqt ajratilgan ko'rsatuv bu "Multipanarama"dir. Bunda bolalar turli multifilmlarni tomosha qiladilar. Multifilmlar turli mavzularda bo'lishi bilan birgalikda, turli xalqlar turmushidan olinganligi bilan ajralib



turadi. Hatto chet el multfilmlari ham berib boriladi. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, multafilmlarga ovoz juda mahorat ila berilgan. Ovozlar bolalarni bezdirmaydi. Aksincha, ular bolalarda barcha ijobiy sifatlar, dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Multifimlardagi badiiy bezak, ranglarning uyg'unligi, yorqinlik bolalarni o'ziga jalb etmay qolmaydi. Albatta bolalar multfilm qahramonlarining xatti-harakati, muomalasidan o'zlariga kerakli xulosani chiqarib oladilar. Yovuzlik ustidan yaxshilikni g'olib kelishini tushunib yetadilar.

“Bolajon ustaxonasi” ko'rsatuvida bolalar mehnat qilishga o'rganadilar, mehnat insonni ulug'lashini anglab yetadilar.

Umuman olganda “Bolajon” teledasturi bolalarning sevimli dasturidir. Dastur ruknlari orasidagi vaqt qisqaligi bilan ajralib turadi. Bunda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olingan. Negaki, uzoq muddatli ko'rsatuvlar bolalarning ko'rsatuvdan zerikishiga olib keladi.

Kuzatishlarga ko'ra bugungi bolalar fan-texnikaning eng yangi yutuqlaridan ham samarali foydalana oladilar. Ayniqsa, televizor ko'rish va mobil telefonidan foydalanish ularning sevimli

mashg'ulotlaridan biribir. Aslini olganda televidiye ma'lum talablarga javob beradi, ammo uning ham bola dunyoqarashi va jismoniy tarbiyasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri mavjud. Internet, mobil telefoni esa umuman boshqa masala, ya'ni ulardan kelayotgan axborotlarni cheklab, chegaralab bo'lmaydi. Ochig'ini aytganda ushbu vositalar orqali kirib kelayotgan axborotlarning barchasi ham foydali emas.

Umuman, televidiniye va boshqa vositalarning salbiy jihatining birinchi ko'rinishi – bu bolalarni tobelikka olib kelishidir. Mana shu jihat bugungi kun har bir oila, qolaversa butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan masaladir. Tobelikning salbiy oqibati esa bola tomonidan vaqtni unutish, o'z vaqtida ovqatlanmaslik, mehnat qilishdan qochish, jismoniy va ruhiy zo'riqish, tajanglik, mustaqil fikrlashning shakllanmasligi, xullas bolalarni voqelikdan uzoqlashishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.S.K.

Ganiyev, M.M. Karimov, K.A. Tashev “Axborot xavsizligi” Oliy o'quv yurtlari uchun darslik T.:2017.

2. H.Nigmatov, X.N. Tursunov “Axborot xavsizligi” O'quv qo'llanma T.: 2018.



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

[Google](#) [Яндекс](#) [@mail](#)

3.I.M.Karimov “Axborot xavsizligi
asoslari” Ma’ruzalar kursi T.: 2013.



RANG TASVIR XUSUSIYATLARI

Avezova Latofat Djumanazarovna

Xorazm viloyati Urganch tumani 1-sonli maktabning Tasviriy san'at fani o'qituvchisi Avezova Latofat Djumanazarovna.

Annotatsiya: Ushbu "Rangtasvir xususiyatlarini o'rgatishda (kartinani badiiy idrok etish asosida) suxbat metodlaridan foydalanish mavzusini o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ranglarning xayotimizdagi o'rnini, ranglarning insonlar ruhiyatiga ta'siri, ranglarning nomlanishi, tushuntirib berishga bag'ishlangan. Unda "Rangtasvir xususiyatlari" mashg'ulotini o'qitish usullari mazmuni mohiyati va o'quvchilarni o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, va malakalar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Asosiy ranglar, qo'shimcha (xosila) ranglar, Iliq ranglar, U. Tansiqboevning "Tog' yo'li" asari, "oldinga intiluvchi" va "orqaga intiluvchi" ranglar, Gyotening "Ranglar nazariyasi" asari.

Tasviriy san'atda, ayniqsa rangtasvirda rangning ro'li benihoyat kattadir. U asarlarning mazmunini va ematsionalligini kuchaytirishga, shuningdek kampazitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Rangtasvir mashg'ulotlarida bo'yoqlar bilan ishlash murakkab jarayonlardan hisoblanadi. Faqat ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, ko'rgazmali vositalar va metodik uslublardan samarali hamda o'rinli foydalanish natijasidagina rangshunoslik bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirilishiga erishish mumkin.

Ranglar haqida fikr yuritish va bo'yoqlar bilan ishlashdan avval ularning nomlari, tushlari, etalonlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Rang orqali rassom borliq yoki xayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligi, moddiylikini hajm va faqturasini ko'rsatishi, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'y xayollarni aks ettirishi mumkin. Ma'lumki mutaxassislar ranglarni ikki turga bo'lishadi. **1. Asosiy ranglar. 2. Qoshimcha (xosila) ranglar.** Asosiy ranglarga **qizil, sariq, zangori** ranglar kiradi. Qo'shimcha ranglar ana shu asosiy ranglarning bir-birlari bilan



aralastirish orqali olinadi. Masalan, qizilkuchliroq ko'inishiga yordam beradilar. sariq rangdan zarg'aldoq, sariq va zangori rangdan yashil, qizil va zangori rangdan binafsha ranglar olinadi. Bu olingan ranglarni ikkinchi bor aralastirish orqali yanada yangi ranglarni xosil qilish mumkin. Yangi ranglarni xosil qilishda oq va qora ranglar ham ishterok etishlari mumkin.

Rang doirasi, odatda, ikki qismga bo'linadi – iliq va sovuq ranglar. **Iliq ranglarga**, qizil, sariq, zarg'aldoq, sabza, pushti, sadaf, malla, qirmizi, lolaro'y, gulgun, zafaron kabi ranglarni kiritishadi. Bular quyoshga, olovga o'xshab, tabiatda yorqinligi uning yorqinligi tusi. Iliqlikni ko'rsatuvchi ranglar hisoblanadi.

Sovuq ranglarga ko'k, havorang, yashil, ko'k-binafsha, ko'k- yashil, va ularning aralashmasidan xosil bo'lgan ranglar kiradi. Sovuq ranglar tasavvurimizda sovuq narsalar – muz, qor, suv, oy nuri kabi va hakazolar. Iliqlik ham sovuqlik ham kayfiyat uyg'otmaydigan ranglar bo'ladi. Masalan, kulrang, jigarrang, nilgun, siybob shular jumlasidandir.

Ranglar nazaryasida ranglar qarama-qarshiligiv(kontrast ranglar) atamasi ham ishlatiladi. Ranglarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular bir-birlarining yonlarida turganlarida alohida turganidan ko'ra boshqacha ko'rinadi. Ular bir-birlarini tuslarini aniqroq,

Ularning bu xususiyatlaridan rassomlar o'rinli foydalanib asardagi asosiy obrazni ajratib ko'rsatish maqsadida qarama-qarshi rang xodisasidan foydalanadilar. Masalan, asosiy obrazni och rangda tasvirlasalar uning atrofini yoki fonini to'q rangda oladilar va aksincha. Ranglar qarama-qarshiligi quyidagi ko'inishlarda ishlatilishi mumkin. Ranglar qarama-qarshiligi qoidasi suratdagi asosiy obraz bilan fon, asosiy obraz bilan muxit o'rtasida qo'llaniladi.

Ranglarning asosiy xususiyatlari uning

Rang tusi deganda esa asosan uning tozaligi, sof xoldagi rangi tushiniladi. U ikki xil ma'noda ishlatiladi. Masalan qizil, sariq, zangori, yashilva boshqa ranglarni tus jihatdan bir-biridan ajralishini bildiradi. Ikkinchi ma'nosida bir rangning turlicha ko'inishlari ham rang tusi hisoblanadi. Masalan qirmizi, shafaq, lolaro'y, kabi ranglar qizil rangning tuslari hisoblanadi.

To'yingan ranglarga sof xoldagi xromatik ranglar kiradi. To'yinmagan ranglar tarkibida oq rang yoki kulrang ko'proq bo'ladi. Har qanday predmetning hajmi, shakli, materiali va ularning joylashuvini biz faqat yorug'-soya jihatdangina emas, rang jihatdan ham



idrok etamiz. Hajm va materialni idrok etish predmetlar yuzasida joylashgan yorug' - soya va ranglarga bog'liq bo'ladi. Birinchi va ikkinchi plandagi predmetlarning ranglari bir-biridan o'z to'yinganliklari bilan keskin farq qiladilar. Shuning uchun ham biz narsalar shaklining tabiiy emas, perspektiv ko'rinishini tasvirlaganimizdek predmetlar ranglarini ham tabiiy emas, perspektivada ko'rinayotganidek shartli tasvirlashimiz kerak bo'ladi.

Kuzatuvchiga nisbatan turli xil uzoqlikda joylashgan va bir xil yashil rangga ega bo'lgan daraxtlar turli tusda, o'rmon esa uzoqdan deyarli och ko'kimtir kulrang ko'rinadi. Chunki, kuzatuvchidan ob'ektgacha bo'lgan masofadagi havo qatlami ma'lum zichlikga ega bo'lganligi sababli rang nurlarini ma'lum miqdorda ushlab qoladi. Natijada predmetlarning ko'rinayotgan ranglari o'z to'yinganligini yuqotadi. Bunday holni U.Tansiqboevning "Tog' yo'li" nomli asarida yaqqol ko'rish mumkin.

Kuzatuvchi bilan ob'ekt o'rtasidagi masofaning uzoq-yaqinligi faqat ranglarning tuslarigina emas, balki ularning yorinligini ham o'zgartiradi. Uzoqda joylashgan narsalar ko'proq havo rang tusda ko'rinadilar. Chunki, osmondagi zangori va havorang nurlar

fazoga tarqalib, unga havo rang tus beradi. Atmosferadagi namlik va chang zarrachalarining soni va o'lchoviga qarab yorug'likning tarqalish darajasi, xarakteri o'zgaradi. Agar havo namlik bilan to'yingan bo'lsa, yirik zarrachalar yorug'likni ko'p tarqatadi va u ko'proq oqish ko'rinadi.

Kompozitsiyada ranglarning bir nechtasi yig'ilib, chiroyli birikmalarni hosil qilishi ranglar garmoniyasi deb ataladi. Agar ranglar yoqimsiz birikmani hosil qilsa uni disgarmoniya deb yuritiladi. Rang guruxlarning garmonik birikmalarini ba'zan gamma deb ham yuritiladi.

Ba'zan to'yingan rang guruhlarning to'yinmagan ranglar bilan qo'shilishi ham garmonik birikmalarni hosil qilishi mumkin. Biroq, ayrim xollarda birgina rasmda to'yingan va to'yinmagan birikmalarning aks etishi disgarmoniyaning xosil bo'lishiga olib keladi.

Rangtasvirchini ana shu jihatlarga rioya qilgan xolda ish olib borishi tasvirning ta'sirchanligini oshirish imkonini beradi. Rang doirasi deganda asosiy hisoblangan qizil, sariq, zangori ranglarni o'zaro aralashtirish orqali olinadigan 12 yoki 24 rangni doira bo'ylab, yonma-yon quyilishiga aytiladi.



Obraz yaratishda "oldinga intiluvchi" va "orkaga intiluvchi" ranglarning xususiyatlarini bilgan xolda ish olib borish ham yaxshi natijalar beradi. "Oldinga intiluvchi" ranglarga ko'prok iliq ranglar kiradi va ular o'zlarining xaqiqiy o'rnidan oldinroqda ko'rinadilar. "Oldinga intiluvchi" ranglar qatoriga yorqin to'yingan ranglar hamda materialning fakturasiga alohida e'tibor berilib ishlangan rasm ranglari ham kiradi.

Kompozitsiyada yorug'lik (och-to'qlik) ham undagi obrazlarning ta'sirchanligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Buni axromatik ranglar bilan ishlangan illyustativ rasmlarda ko'rish mumkin. Kompozitsiyada yorug'likning roli shundan iboratki, bunda bo'rttirib ko'rsatilishi lozim bo'lgan obrazlarni tasvirlashda kontrastlik qonunidan foydalaniladi, ya'ni asosiy obraz to'q tasvirlansa, uning atrofdagilar och ranglar bilan ishlanadi va aksincha suratdagi asosiy obraz och rang bilan ishlansa, boshqalari esa to'q ranglar bilan tasvirlanadi.

Rang bilan ishlashga, bolalarni ranglarning tuslarini farqlay bilishga va ulardan rasmning mazmuniga qarab foydalana olishga o'rgatib borish kerak.

Bo'yoq bilan ishlash jaryonida bo'yoq va rang haqida ma'lumotlar berish bolalar rasmlari hamda rassomlar asarlarining reproduksiyalarini taxlil qilish bilan amalga oshiriladi. Ranglarning yuqorida qayd qilingan xususiyatlari bilan bolalarni tanishtirishdan avval ularga asosiy va xosila ranglar, xromatik va axromatik ranglar, iliq va sovuq ranglar, kontrast ranglar, og'ir va engil ranglar haqida tushunchalar berilishi lozim.

Ranglarni kishilar ruhiyatiga ta'siri haqida ma'lumotlarning berilishi rasm ishlaganda ranglardan o'rinli foydalanish imkonini beradi. Xususan, ranglarni kishilarning ruxiy xolatiga ta'siri haqida to'xtalganda e'tiborni quyidagi jihatlarga qaratish lozim. Ranglar yordamida kishilar narsalarni, voqealarni idrok etishlari, tanishlari, bilib olishlari mumkin. Ular yordamida odamlar o'z hayoti va mehnatini engillashtirishga, xattoki sog'liqlarini ma'lum miqdorda yaxshilashga erishadilar.

Ranglarni insonlar hayotidagi ahamiyatini tushungan xolda bir qator olimlar maxsus tadqiqotlar olib borganlar. Shu maqsadda Tokioda dunyoda yakkayu-yagona rang instituti tashkil etilgan bo'lib, unda ranglarning turli soxalarda qo'llanishi, ularning



samaralarini o'rganiladi, tajribalar o'tkaziladi. Ranglarning kishi ruxiyatiga ta'siri haqida mashhur nemis olimi va shoiri rangshunos Gyote, rus ruhshunosi V.Bexterovlarning fikrlari diqqatga sazovordir. Gyote o'zining "Ranglar nazariyasi" nomli mashhur asarida shunday deb yozgai edi: "Sariq rang ko'zni quvontirib, yurakni kengaytiradi, ruhingiz tetik bo'ladi va biz darhol iliqlikni his etamiz". Uning fikricha, zangori rang sovuq xissiyotni uyg'otsa, qizil rang aksincha, qo'rqitish, yashil rang ezgulik, xotirjamlik xislarini paydo qiladi. Yashil rangni Gyote ko'zni va ko'ngilni tinchlantiruvchi qobiliyatga ega deb hisoblaydi. Qizil rang qo'zg'atuvchi, xayajonlantiruvchi, isituvchi xususiyatlarga ega bo'lsa, sariq rang iliqlik, tetiklashtiruvchi, quvnoq, hushchaqchaq hususiyatlarga ega. Yashil rang tinchlantiruvchi hisoblanib, kishida yoqimli kayfiyat hosil qiladi. Uning tuslariturli hissiyotlarni uyg'otuvchi, zangori rang xotirjamlik, jiddiylik, g'amguzorlik, ma'yuslik keltiruvchisi binafsha rang kishilar e'tiborini o'ziga tortuvchi, shu bilan birga o'zidan itarish xususiyatlariga ega bo'lib, kishilarda g'amginlik va qayg'ulik uyg'otadi.

Rangning kishilarga ta'siri xususida fransiyalik texnika estetikasi bo'yicha

mutaxassis Jak Vinonning fikrlari diqqatga sazovordir. U rangni har narsaga qodir, u xotirjamlik va xayajonni hosil qilishi, xattoki odamlarni larzaga solgani, falokatga olib kelish mumkinligi haqida yozgan edi.

Xorijiy mamlakatlarda ranglarni kishilar ruxiyatiga ta'sirini bilgan rassomlar savdo ishlarini yaxshilash maqsadida restoranlarni, savdo uylarini, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni kishi e'tiborini o'ziga tortadigan ranglar bilan bo'yashga harakat qiladilar. Ayrim ishlab chiqarish korxonalarida ish joylarini ishchilar charchamasligi uchun ish unumini oshirishga xizmat qiladigan ranglar bilan bo'yash orqali samaradorlikka erishganlar.

Ba'zi bir psixoterapevt, nevroptologlar ham shu yunalishdagi kasallarni davolashda ranglardan foydalanmoqdalar. Bunda ular ko'proq tinchlantiruvchi - yashil, zangori ranglarning turli tuslaridan kasallar xonasini bo'yash, yashil chiroqli svetomusiqqa yordamida kasallarga ta'sir ko'rsatib, ijobiy natijalarga erishmoqdalar.

Rangning foydasini tushungan ayrim kishilar, ayniqsa ayollar boshqalarning e'tiborini o'ziga tortish maqsadida qizil, sariq, zarg'aldoq iliq



rangdagi kiyimlar kiyishadi. Bunday kiyinish ayrim ayol o'qituvchilarga ham xos bo'lib, ular bu bilan darsda bolalar e'tiborini ko'proq o'zlariga qaratishga harakat qiladilar.

Xalqimiz ranglarning kishilarga ta'sirini tushungan xolda qadimdan yoshiga yarasha madaniyat bilan kiyinib kelgan. Xususan, bolalar, o'rta yoshlilar, qariyalarning shuningdek, ayol va erkaklarning kiyim ranglari bir-birlaridan keskin farq qilgan. Erkaklar kiyimlarning ranglari jiddiy va vazmin, ayollarniki sho'x, engil, serjilva bo'lgan. Qariyalarning kiyimlari esa sodda va vazmin, kishi e'tiborini tortmaydigan ranglarda tayyorlangan. Kiyimlarning ranglari kishilarning harakteriga ham bog'liq bo'ladi.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin.

Ranglar tabiatan ikki xil xususiyatli: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq zarg'aldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan raglar kiradi. Shuningdek axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kul rang va qora ranglar axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kul rang, qora, qoraroq, juda qora va h.k. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi ya'ni - qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va xokazo, och-to'qligi ya'ni - och qizil, to'q sari, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi.

Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar kontrast ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega. Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash



ancha murakkab jarayon bo'lib, chizuvchidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, o'quvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqazo etadi.

Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, perspektivasi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi kro'inishi va tasvirdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki, narsaning rangi bizdan uzoq- yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muxitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o'rinlidir.

Akvarel buyog'ida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg'ulotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya emas. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Hasanov Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Darslik Toshkent fan 2004 yil.
2. Apuxtin O. Tasviriy san'at asoslari. T. 1978 yil.
3. Amanullayev. A. Xomaki tasvirlar. Nam. 1992 yil.
4. 5-sinf uchun darslik. T.Kuziyev, S.Abdirasilov, O.Nurta yev, A.Sulaymonov.-Toshkent "O'zbekiston", 2015 yil.
5. Beda. V. Rangtasvir. M. 1968 yil.
6. R.Hasanov Tasviriy san'at asoslari. 2009 yil.



UMAVIYLAR XALIFALIGIGA BARHAM BERGAN SARKARDA

Azamat Fayzullayev,

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 747-749-yillarda Umaviylar xalifaligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon va uning rahbari Abu Muslim haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ushbu qo'zg'olonning sabablari, maqsadlari hamda natijalari tahlil qilinadi. Abu Muslim shaxsiga tarixiy yondashilib u amalga oshirgan ishlarga xolisona baho berishga harakat qilinadi. Bu ilmiy izlanishda rus, ingliz, nemis, amerika olimlarining ilmiy izlanishlariga tayaniladi.

Kalit so'zlar: "Xulafoi roshidin", islom dini, sunniylik, shialik, Abu Muslim al-Xurosoniy, Kufa, Marv, Isfahon, xalifa Marvon II, Abul Abbos as-Saffoh, Abu Ja'far al-Mansur, umaviylar, abbosiylar, "Qora kiyimlilar qo'zg'oloni".

VII asrda islom dinining tarqalishi bilan tarqoq arab qabilalari yagona hokimiyat atrofida birlasha boshladilar va

davlatchilikka asos soldilar. Arablar 632-732-yillar mobaynida Arabiston yarimoroli, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Pireney yarimoroli, Markaziy Osiyo, Eron, Shimoli-sharqiy Hindiston, Kavkazorti, Kichik Osiyoning bir qismini o'z ichiga olgan katta imperiyani barpo etdilar. Arablarning Yevropadagi yurishlari Bordo shahrigacha, Osiyodagi yurishlari esa Talas vodiysigacha davom etdi. Bu davlatda dastlab "Xulafoi roshidin" ("To'g'ri yo'ldagi xalifalar") hukmronlik qildilar. Ular Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon hamda Ali ibn Abu Tolib edilar. Ular hukm surgan davrda mamlakatda islom dinining asosiy arkonlari sof holda saqlandi, egallangan mamlakatlarda islom dini keng yoyildi, yangi davlatchilik asoslari barpo etildi, moliyaviy va ma'muriy ishlar tartibga solindi, yangi masjidlar bunyod etildi, Qur'oni Karim yagona kitob holda jamlandi. Biroq "Xulafoi roshidin" davrining oxirlaridan boshlab arab hukmron doiralari orasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar va ig'volar natijasida davlatda siyosiy inqiroz yuz berdi. Bu esa Arab xalifaligi siyosiy jihatdan hali uncha mustahkamlikka erisha olmaganligini namoyon etdi. Fitnalar natijasida 661-yilda oxirgi sahih xalifa



Ali ibn Abu Tolib o'ldirildi³ va uning o'rniga Umaviylar sulolasi asoschisi Muoviya ibn Abu Sufyon mamlakatni idora eta boshladi. Umaviylar davrida ko'plab hududlar istilo etildi va islom dini muzaffar din sifatida zabt etilgan o'lkalarga tarqala boshladi. Doimiy olib borilgan bosqinchilik urushlari, xalq isyonlarining tinimsiz yuz berib turishi, shuningdek, Sharqiy Rim imperiyasi poytaxti Konstantinopolga qilingan ikkita yirik muvaffaqiyatsiz hujumlar (674-678; 717-718-yillarda) davlat iqtisodiy holatining og'irlashuviga olib kelgan.

Shunday bir sharoitda Umaviylarni Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning avlodlarini qirib tashlashda ayblayotgan zodagonlar ular hokimiyatini ag'darib tashlashga qaror qildilar. Bu maqsadda ular yirik isyonga tayyorlana boshladilar. VIII asrning 40-yillaridan Arab xalifaligida boshlangan bunday siyosiy boshboshdoqlik va Umaviylar hokimiyatining zaiflashuvi mahalliy aholidan chiqqan zodagonlar, dehqonlar, hunarmandlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Ular ham xalifalarning moliyaviy islohotlari hamda xalqqa solinayotgan soliq va majburiyatlarning ko'pligidan norozi edilar. Shu maqsadda ular ham arab

zodagonlari boshlamoqchi bo'lgan isyonni qo'llab-quvvatlaganlar. Bu qo'zg'olon ko'hna tarix zarvaraqlariga "Qora kiyimlilar qo'zg'oloni", uning tashkilotchisi va rahbari esa Abu Muslim nomi bilan kirgan. Abu Muslim aslida kim edi va qanday qilib isyon boshladi, degan savollar tug'ilishi tabiiy. Bu savollarga quyidagi ma'lumotlar yordamida javob topamiz.

Abu Muslimning asl ismi Abdurahmon ibn Muslim al-Xurosoniy bo'lgan. U kishining tug'ilgan yili aniq emas. Rus olimlari yozgan ilmiy adabiyotlarga ko'ra Abu Muslim 700-yilda tavallud topgan. "Eron ensiklopediyasi"da Abu Muslimning tavallud topgan yili 718-719-yillar deb qayd etiladi. Ba'zi bir manbalarda esa 723 yoki 727-yil degan taxminlar ham mavjud. Abu Muslimning tavallud topgan joyi to'g'risida ham turli taxminlar mavjud. Turli manbalarda Abu Muslimning Isfahonda (sovet olimi Oleg Bolshakov tuzgan "Islom ensiklopediyasi"da)⁴, Marvda ("Eron ensiklopediyasi"da)⁵ yoki Kufada tug'ilgani ko'rsatilgan. Nemis olimi Florian Illerxaus tadqiqotlariga ko'ra,

³ Veccia Vaglieri, Laura. "Alī b. Abī Ṭālib.". Encyclopædia of Islam, Second Edition. Brill Online.

⁴ Большаков О. Г. Абу Муслим // Ислам: энциклопедический словарь / Отв. ред. С. М. Прозоров. — М. : Наука, ГРВЛ, 1991. — С. 10.

⁵ Yūsofī, Ğ. Ğ. (1983). "ABŪ MOSLEM ƘORĀSĀNĪ". In Yarshater, Ehsan (ed.). Encyclopædia Iranica, Volume I/4: Abū Manšūr Heravī—Adat. London and New York: Routledge & Kegan Paul. pp. 341–344.



Abu Muslim hozirgi Afg'onistonning Saripul viloyatida tojiklar oilasida tug'ilgan bo'lishi ham mumkin.⁶ Abu Muslimning asli kelib chiqishi forslardan bo'lgan.⁷ Abu Muslimni Eronning donishmand vaziri Buzurjmehr Buxteqoning avlodi deb ham hisoblashadi. Abu Muslimning forscha ismi ham bo'lib, Eron manbalarida bu ism Behzodan, otasining ismi esa Vendod Xurmuzd deb beriladi. Abu Muslimning yoshlik yillari Iroqning Kufa shahrida o'tgan.⁸ U yoshligida qul qilingan hamda boy zodagonlarga sotilgan. Qullik paytida Abu Muslim egar yasash hunarini ham o'rgangan va Banu Ijil qabilasi orasida egarsoz usta bo'lib ham tanilgan.⁹ Kufada Abu Muslim shialar bilan yaqin aloqada bo'lgan. Ba'zi, manbalarga ko'ra, abbosiylarning Kufadagi targ'ibotchilaridan Iso as-Sarrojning quli bo'lgan, boshqa bir manbalarga qaraganda, Isfahon viloyatida yashovchi yirik yer egasining quli bo'lib, 738-yili

xo'jayini Kufa qamoqxonasiga tashlangan paytda Abu Muslim uning xizmatida bo'la turib as-Sarroj bilan tanishgan va uning topshiriqlarini bajara boshlagan. Keyinchalik abbosiylarning Xurosondagi targ'ibotchilari rahbari Abu Salamaga sotilgan (yoxud berilgan). 744-yil boshida u bilan birga Xurosonga kelgan. Keyinchalik Abu Muslim alaviylardan Ibrohim ibn Muhammadga ma'qul kelgani tufayli unga tuhfa qilingan. Ibrohim uni ozod qilib, Abdurahmon deb ism qo'ygan va uni o'ziga yaqin tutgan.

Kufa shahri bu davrda Umaviylar hokimiyatiga qarshi yashirin kyrash va norozilik markazlaridan biri edi. Bu yerdagi shialar Umaviylarni islom arkonlarini buzishda va Payg'ambar alayhissalom avlodlarini nohaq qatl etishda ayblaganlar. Buning ustiga, Umaviy xalifalarining hashamatli turmush tarzi hamda hazrat Ali tarafdorlari avlodlarining ta'qib etishlari ham katta noroziliklarga sabab bo'lgan. Shialar Umaviylarni ag'darib, Qur'on va sunnatga amal qiladigan yangi islomiy hukumat tuizshga qaror qilganlar.

737-yilda mavjud hukumatga qarshi targ'ibotlari uchun Mug'ira ibn Said ismli g'oliy (hozirgi til bilan aytganda "ekstremist") zindonga tashlanadi. 741-742-yillarda Mug'ira ibn Said abbosiylar

⁶ Florian Illerhaus: "Haschimitische Propaganda. Bedingungen für den Erfolg der abbasidischen Revolution" (German). Munich, 2011.

⁷ Moscati, S. (1960). "Abū Muslim". In Gibb, H. A. R.; Kramers, J. H.; Lévi-Provençal, E.; Schacht, J.; Lewis, B. & Pellat, Ch. (eds.). The Encyclopaedia of Islam, New Edition, Volume I: A–B. Leiden: E. J. Brill. p. 141.

⁸ Yūsofī, Ğ. Ğ. (1983). "ABŪ MOSLEM KORĀSĀNĪ". In Yarshater, Ehsan (ed.). Encyclopædia Iranica, Volume 1/4: Abū Manšūr Heravī–Ādat. London and New York: Routledge & Kegan Paul.

⁹ Ṭabarī 1989, p. 67.



tomonidan Makkaga haj qilish yo'lida ozod etiladi. Bu kishi abbosiylar yetakchisi Ibrohim ibn Muhammad tomonidan 745-746-yillarda Xurosonga mavjud hukumatga qarshi targ'ibot qilish uchun yuboriladi.¹⁰ Abbosiylar targ'ibotlari uchun Eron va Xuroson juda yaxshi tanlangan mintaqada edi.

Birinchidan, bu yerlar xalifalik markazi bo'lgan Shom (Suriya) dan ancha uzoqda joylashgan edi va bu yerda xalifaga qarshi zimdan ish ko'rish birmuncha osonroq edi. Ikkinchi tomondan, bu yerlarda ko'plab ko'chmanchi arab qabilalari ham yashar edilar. Ular mahalliy forsiy va turkiy zodagonlar bilan o'zaro nikoh orqali qarindoshchilik munosabatlarini o'rnatgan edilar.¹¹

Uchinchidan, chegara viloyati sifatida katta bosqinlarga duchor bo'lgan Movarounnahr va Xuroson viloyatlarida yashovchi mahalliy aholi harbiy tajribaga ega edi va ular ham Umaviylar solayotgan og'ir soliqlardan bezor edilar. Shu tufayli ham ular abbosiylarga yordam berishga shay edilar. Butun xalifalikni Shomdan turib boshqarish ancha mushkul ish edi, xalifaning noiblari ham asli kelib chiqishi shomlik

edi va ular mahalliy sharoitni yaxshi bilmas edilar, ko'pchiligi mahalliy xalqqa zulm qilar edilar. Dastlab abbosiylar 718-719-yillarda Xurosonga 12 nafar naqib yuborganlar. 740-yilda Xurosonda hazrat Alining evarasi Zayd ibn Alining xalifalikka qarshi qaratilgan isyoni muvaffaqiyatsiz tugagach, abbosiylar bu yerga katta bir targ'ibotchi guruh yuborishga qaror qildilar. 745-yilda Ibrohim ibn Muhammad Umaviylarga qarshi targ'ibot ishlari uchun xurosonlik Qahtoba ibn Shabib at-Ta'ini g'arbiy viloyatlarga, 747-yil martda esa Abu Muslimni Xurosonga yuboradi.¹² Abu Muslim Xurosonga kelganida bu yerda yaman va qays degan arab qabilalari o'rtasida kurash ketardi. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor (738-748) bu kurashlardan ustalik bilan foydalanib o'z qarorgohini mustahkamlash yo'lidan bordi. Marvda joylashgan xalifa noibining qarorgohi mahalliy xalqqa zulmning asosiy markazi edi. Umaviylarga qarshi harakatni kuchaytirish maqsadida Abu Muslim Marv yaqinidagi Safizanj, Moxuvon (Mahon) va Shavvol qishloqlarini qarorgohga aylantirib, xalifalikka qarshi tashviqot olib boradi. Abu Muslim soliqlarni qisqartirish va majburiy hashar

¹⁰ Moscati, S. (1960). "Abū Muslim". In Gibb, H. A. R.; Kramers, J. H.; Lévi-Provençal, E.; Schacht, J.; Lewis, B. & Pellat, Ch. (eds.). The Encyclopaedia of Islam, New Edition, Volume I: A–B. Leiden: E. J. Brill. p.

¹¹ Kennedy, Hugh (2004). The Prophet and the Age of the Caliphates: The Islamic Near East from the 6th to the 11th Century (Second ed.). Harlow: Longman.

¹² Kennedy, Hugh (2004). The Prophet and the Age of the Caliphates: The Islamic Near East from the 6th to the 11th Century (Second ed.). Harlow: Longman.



ishlarini bekor qilishga va'da beradi. Shu sababli harakat ayrim joylarda mulkdorlarga qarshi keskin tus oladi. 747-yil 15-iyunda Abu Muslim Umaviylar xalifasi Marvon II ibn Muhammad (744-750) ga qarshi ochiqdan-ochiq isyon ko'targan. Dinovariy bergan ma'lumotlarga qaraganda Abu Muslim kuchlari safi va geografik doirasi tobora kengayib bordi. Uning qal'asi atrofida Hirot, Bushang, Marvirud, Talikon, Marv, Niso, Obivard, Tus, Nishopur, Saraxs, Balx, Chag'oniyon, Toxariston, Xuttalon, Kesh, Nasaf va boshqa viloyatlardan 100 mingdan ortiq lashkar to'plangan edi. Yetarli miqdorda kuch to'plaganligiga ishonch hosil qilgan Abu Muslim 747-yilda o'zining qora rangli libos kiygan qo'shinlarini umaviylarga qarshi ochiq kurashga da'vat etdi.



Abu Muslim Marvda zarb ettirgan kumush dirham (hijriy132/milodiy 749-750-yillar)



Abu Muslim qo'zg'olonidan oldin Umaviylar xalifaligi hududlari (740-yillar).

Abu Muslim tarafdorlari qora kiyimda bo'lganligi sababli bu qo'zg'olonni "Qora kiyimlilar qo'zg'oloni" deb ham ataladi. Isyonchilarning qora libosda bo'lishlariga sabab, ularning nohaq qatl etilgan Payg'ambar alayhissalom avlodlariga motam tutganligi edi. Ikkinchidan, qora kiyim isyonchilarni Umaviylar harbiylaridan ajratib turar edi. 747-yilning qishida Abu Muslim qo'shini Marvni zabt etdi, 748-yilda Tus va Nishopur egallanadi. Xalifaning noibi Nasr ibn Sayyor isyonchilar ta'qibidan



qochib 748-yil 9-dekabrda Erondagi Sava shaharchasida 85 yoshida vafot etadi. Shu tariqa, umaviylarning Xuroson va Movarounnahrda hokimiyati ag'darildi. 748-yilda xalifalikning poytaxti Damashqqa yurish qiladi, 749-yilda Nahovand yaqinida umaviylarni tor-mor etadi.

750-yil 25-yanvarda hozirgi Iroq hududidagi Katta Zab daryosi (Dajla daryosining shimolidagi irmoq) bo'yida umaviylar xalifasi Marvon II va abbosiylar yetakchisi Abul Abbas Saffoh qo'shinlari o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Umaviylarning qo'shini 30 000, abbosiylarniki esa 20 000 kishini tashkil etardi. Jangda abbosiylarning qo'li baland keladi, umaviylarning barcha oila a'zolari (300 ga yaqin kishi) jangda halok bo'ladi. Xalifa Marvon II Damashqqa qochadi, undan Iordan daryosi tomonga, keyin Misrga ketadi. Misrda qo'lga olingan xalifa 750-yil 6-avgustida qatl etiladi va umaviylar hukmronligiga xotima beriladi.

750-yilda xalifalik taxtiga o'tirgan Abul Abbas Saffoh ibn Muhammad Abu Muslimni Xurosonga noib etib tayinlaydi. Abu Muslim Xurosonning siyosiy va madaniy markazi hisoblangan Marvda ko'pgina qurilish ishlarini olib borgan, ilk bor xutbani o'tirib emas, balki minbarda turib

o'qigan. Abu Muslimning hukmronlik davri notinch bo'lgan: 750-yilda umaviylar o'rniga kelgan abbosiylar sulolasidan norozi bo'lgan Buxoro arablari Sharik ibn Shayx al-Mahriy boshchiligida qo'zg'olon ko'tarishgan va Movarounnahrning ko'pgina hokimlari xalifalikdan ajrab chiqishgan. Abu Muslimning janglardagi harbiy mahorati va shialik, sunniylik, yahudiylilik, zardushtiylik, xristianlikka e'tiqod qiladigan aholi orasidagi kelishmovchilklarni bartaraf etishga intiishi uning shuhratini oshirgan. Abu Muslim Samarqandgacha borib, uning istehkomlarini yangilagan va Movarounnahrda egalik qilish uchun kurash boshlagan. 751-yil iyulda uning sarkardasi Ziyod ibn Solih Taroz yonida Xitoy qo'shinini tor-mor keltirgan va bu bilan abbosiylarning Sirdaryo ortidagi hududlariga egalik qilishlarini ta'minlagan. 752-yil boshida Abu Muslim Marvga qaytib kelgan, biroq oz fursatdan so'ng Movarounnahr noibi etib tayinlangan Ziyod isyon ko'targan va Abu Muslimga yana Amudaryoni kechib o'tishiga to'g'ri kelgan. Abu Muslim qudratining oshib borayotgani abbosiylarni xavotirga solgan va ular uni yo'qotish payiga tushishgan. 754-yil may-iyunda Abu Muslim hajga borish uchun Xurosonni tark etgan va 500 kishilik karvon tarkibida Iroqqa yo'l



olgan. Shu paytda abbosiylar xalifasi as-Saffoh vafot etib, xalifalik taxtiga as-Saffohning ukasi Abu Ja'far al-Mansur o'tiradi. Al-Mansur hokimiyatini amakisi, Vizantiyaga yurish qilgan qo'shin qo'mondoni Abdulloh ibn Ali tan olmagan. Abu Muslim isyonchi Abdulloh ibn Alining qo'shinini tor-mor keltirgan (754-yil noyabr) va katta o'ljani qo'lga tushirgan. Mansur o'ljani talab qiladi, bundan g'azablangan Abu Muslim Xurosonga qaytgan. Biroq xalifa uni yo'ldan qoldirib Madoyin shahriga muzokaraga chaqirtirib keltirishga erishgan. Abu Muslim shu yerda 755-yil 12-fevral (yoxud 27-yanvar) da xalifa qabulida bo'lgan chogida o'ldirilgan. Xalifaning 5 nafar soqchisi qurolsiz kelgan Abu Muslimni chopib tashlashgan va jasadni Dajla daryosiga uloqtirishgan. Bu qotillikni tan olishlari uchun Abu Muslimning sarkardalariga katta miqdorda pora berilgan.

Abu Muslimning vahshiyona tarzda o'ldirishi Eron va Xurosonda xalifa al-Mansurga qarshi norozilikni keltirib chiqaradi.¹³ Eron zaminida Abu Muslimning o'lmaganligi va qaytib kelishi haqida turli rivoyatlar tarqaldi. 755-yilda Nishopurda Abu Muslimning sheriklaridan biri Is'hoq at-Turk va

¹³ Goldschmidt, Arthur (2002), A concise history of the Middle East, Boulder, Colorado: Westview Press, pp. 76-77.

Rayda zardushtiylik kohini Sunbod Abu Muslimning o'zaro tenglik haqidagi g'oyalariga asoslanib isyon ko'tardilar. Biroq bu isyonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. 769-783-yillarda Movarounnahrda yuz bergan Muqanna qo'zg'oloni va 815-838-yillarda Ozarbayjonda yuz bergan Bobak isyoni negizida ham Abu Muslim g'oyalari yotgan, degan qarshlar mavjud.

Sakkiz yillik faol diniy-siyosiy faoliyati davrida Abu Muslim "ashaddiy" shialar ta'limotiga yoki imomatlikka yaqinlashmagan bo'lsa ham uning o'limi zamonaviy mazdakiylar, shialarning bir qancha qo'zg'olonlarini keltirib chiqargan. "Ashaddiy" shialarning ayrim firqalari uni imom deb e'lon qilgan, abumuslimiya firqasi paydo bo'lgan. Bularning so'nggi aks-sadosi Muqanna qo'zg'oloni hisoblanadi. Abu Muslim haqida Marvda udum bo'lgan rivoyat, afsonalar keyinchalik fors tilida (uning turkiycha varianti ham bor) yozilgan xalq romani – "Qissai Abu Muslim" (o'zbekcha "Abu Muslim jangnomasi") ga asos bo'lgan. Abu Muslim haqida Muhammad ibn Imron Marzuboniy "Akbar shuaro ash-Shia", Muhammad ibn Hasan, Abu Tohir Tarsusiylar "Abu Muslimnoma", arab yozuvchisi Jo'rjiy Zaydon "Abu Muslim al-Xurosoniy" asarlarini yozishgan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Большаков О. Г. Абу Муслим // Ислам: энциклопедический словарь / Отв. ред. С. М. Прозоров. — М. : Наука, ГРВЛ, 1991. — С. 10.
2. Moscati, S. (1960). "Abū Muslim". In Gibb, H. A. R.; Kramers, J. H.; Lévi-Provençal, E.; Schacht, J.; Lewis, B. & Pellat, Ch. (eds.). The Encyclopaedia of Islam, New Edition, Volume I: A–B. Leiden: E. J. Brill.
3. Kennedy, Hugh (2004). The Prophet and the Age of the Caliphates: The Islamic Near East from the 6th to the 11th Century (Second ed.). Harlow: Longman.
4. Yūsofī, Ġ. Ħ. (1983). "ABŪ MOSLEM ƘORĀSĀNĪ". In Yarshater, Ehsan (ed.). Encyclopædia Iranica, Volume I/4: Abū Manṣūr Heravī–Adat. London and New York: Routledge & Kegan Paul.
5. Moscati, S. (1960). "Abū Muslim". In Gibb, H. A. R.; Kramers, J. H.; Lévi-Provençal, E.; Schacht, J.; Lewis, B. & Pellat, Ch. (eds.). The Encyclopaedia of Islam, New Edition, Volume I: A–B. Leiden: E. J. Brill.
6. Florian Illerhaus: "Haschimitische Propaganda. Bedingungen für den Erfolg der abbasidischen Revolution" (German). Munich, 2011.
7. Veccia Vaglieri, Laura. "'Alī b. Abī Ṭālib.". Encyclopædia of Islam, Second Edition. Brill Online.
8. Goldschmidt, Arthur (2002), A concise history of the Middle East, Boulder, Colorado: Westview Press, pp. 76–77.
9. Маликов А. М. Культ Абу Муслима и его сподвижников в Центральной Азии: варианты мифологизации // Этнографическое обозрение, № 3, 2020.



SAHRODAGI LUVR

Bektursinova Gulmira O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Sahrodagi Luvr" deb atalmish g'arbda tillarda doston Savitskiy muzeyi va undagi qariyb 90 ming bebaho asarlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Savitskiy, muzey, rang-tasvir, haykaltaroshlik, kutubxona, rassomlar va qoraqalpoq xalqi

Yevropaliklar orasida "Sahrodagi Luvr" nomi bilan mashhur bo'lgan Savitskiy muzeyi va undagi qariyb 90 ming bebaho asar Qoraqalpog'iston va O'zbekiston xalqi mulkidir. Uni ko'zkorachig'imizdek asrab-avaylash har birimizning burchimizdir. I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi - respublikadagi yirik muzeylardan; Nukus shahrida 1966 yilda tashkil topgan, 1984 yildan N.V.Savitskiy nomi bilan ataladi. Muzeyga I.Savitskiyning sa'y-harakati va

u to'plagan qoraqalpoq xalq amaliy san'ati asarlari negizida asos solingan. Muzeyning umumiy maydoni 6,9 ming kv.m. Muzey xalq amaliy san'ati, qadimiy va o'rta asrlar Xorazm san'ati, 1920-30-yillar o'zbek va rus tasviriy san'ati, qoraqalpoq zamonaviy rang-tasviri va haykaltaroshligi, ilmiy-ma'rifiy bo'limlar, kutubxona (10 ming dona asar), fond hamda ta'mirlash ustaxonasiga ega. Fondida 85 mingdan ortiq eksponat mavjud.

Muzey fondida 1920-30-yillarda avangard rassomlar yaratgan asarlar to'plangan. Qoraqalpoq xalq ustalari tomonidan yaratilgan zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kashtado'zlik, to'qimachilik (ayniqsa, o'tov jihozlari) va boshqa asarlar amaliy san'at bo'limida jamlangan.

Muzey tarixi haqida gapiradigan bo'lsak, 1917-yildagi qizil inqilobdan keyin qoraqalpoq yerlarga ishlash uchun yuborilgan Savitskiy mahalliy aholi madaniyati va san'atiga oshiq bo'lib qoladi. Rossiyaga qaytmaslikka ahd qiladi. U qutqarib qolgan 40 ming asar orasida rus avangardi, sotsialist realizm namunalari bo'lib, kattaligi jihatidan Sankt-Peterburgdagi kolleksiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Savitskiy va u asos solgan muzey haqida 2010-yilda [hujjatli film \(Desert of Forbidden](#)



Art) ishlangan. Amerika kino ustalari Amanda Poup va Chavdar Georgiyev dunyo ahlini O'zbekiston sahrosida yashiringan javohirotni haqida ogoh qildi yu sayyohlar yog'ilib kela boshladi.

“Savitskiy qoraqalpoq madaniyatining ixlosmandi edi. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi doirasida Qoraqalpog'istonga ilk bor 1950-yilda safar qilgan. Oradan yetti yil o'tib, mintaqaga bir necha ekspeditsiyada qatnashib, Moskvadagi hayotidan kechgan va shu yerda muqim qolgan. Buni eshitgan odamlar bunga hayron qoladi. Muzey, to'plamlarga boy Moskvani chekka, qoloq bir yerga alishish mumkimi, deya taajjublanadi ular. Lekin Savitskiy qoraqalpoq xalqi, madaniyatiga oshiq edi. Bunaqangi go'zallikni avval uchratmagan edi. To'g'ri, olis manzilda, birovning ko'rsatma va buyrug'isiz, tinchgina ishlash imkonini izlagandi. Mana shu o'lkaga, dashtiga, Xorazm me'morchiligiga ishq tushgan edi uning. U paytlarda qoraqalpoq yurti haqida ko'pam bilmasdi dunyo. Mahalliy xalq Savitskiyni hurmat qilar edi. Chunki rassom bu elatga o'z san'ati, tarixini ochib berdi. Savitskiy ko'pincha oilalarga “Sizga shuncha pul qarzdorman. Igor Savitskiy” deya tilxat yozib qoldirar, rulon-rulon rasmlarni qo'ltiq lab ketar edi. “1984-yilda, umri

oxirida, uning qarzi 1,5 million rublni tashkil etgan va yana uzoq yillar muzey xodimlari ana shuni uzib yurgan. O'sha damlarda bu rasmlar bilan hech kimning ishi yo'q edi va Savitskiy ularni xarid qilib aslida oilalarga yordam berayotgandi. Birgina muammo – qarz qismlab uzildi, ancha yillar ketdi bunga. To'g'ri, bugun Rossiyadan ko'plar kelib, egalik qilmoqchi bo'ladi, lekin qo'lidan biror ish kelishi gumon. Chunki bari endi O'zbekiston mulki. G'arblik mehmonlar nazarida Savitskiy muzeyi mamlakatda eng zamonaviylaridan. Xodimlari g'oyat malakali, buyumlarni saqlash uchun qulay sharoit bor, kafe va sovg'a-salom do'koni ishlab turibdi.

“Bugun sahroning o'rtasida shunday javohirotni saqlash yaramaydi, katta shaharga, hatto Yevropaga ko'chirish kerak uni, deydiganlar topiladi. Biroq men bu fikrga mutlaqo qo'shilmayman. Savitskiy muzeyini birovga berib qo'yadigan ahmoq yo'q”.

“Chunki sayyohlar kelib, mamlakat ahli muzeyning ahamiyatini qanchalik angelaydi, deb tez-tez so'raydi. Bu jihatdan hukumatdan va xorijdan madad olamiz, chekka joylarga borib, ko'chma ko'z gazmalar tashkil qilamiz, toki odamlar bilsin naqadar merosi bebaho ekanini. Internet, televideniye, boshqa aloqa cheklangan qishloqlarga borib,



jahon san'atidan so'zlaymiz, bolalarga bilim ulashamiz”, - deydi muzey rahbari klubi faoliyat olib boradi, ko'rgazmalar uyushtiradi. Muzey Xalqaro muzeylar qo'mitasi(IKOM) a'zosi.

Qadimiy Xorazm san'ati bo'limi muzeyning arxeologik guruhlaridan tomonidan qo'lga kiritilgan topilmalar hisobiga yanada boyimoqda. Tasviriy san'at bo'limi to'plami, ayniqsa, serqirra to'plamni qoraqalpoq rassomlari (I.Savitskiy, K.Soipov, J. Quttimurodov, D.To'raniyozov va b.), O'rta Osiyo rassomligining keksa avlodi A.Volkov, M.Qurzin, A.Nikolayev (Us to Mo'min), N.Karaxan, O'.Tansiqboyev va boshqaning katta ahamiyatga ega asarlari tashkil etadi. Shuningdek, 1920-30-yillarda faol ijod etgan rus rassomlari A.Shevchenko, R.Falk, V.Muxina, I.Grabar asarlari bilan bir qatorda ijodi deyarli o'rganilmagan.R.Mazel, K.Redko, A.Safronov va boshqaning asarlari ham qo'yilgan.

Muzey 1968-69 yillarda Moskvadagi Sharq muzeyida Qoraqalpoq to'plamini ilk bor namoyish etdi. 1970 yildan respublika va xorijiy mamlakatlar (AQSH, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Rossiya) dagi ko'rgazmalarda ishtirok etmoqda.

Adabiyotlar:

- 1.Uzbekistan.travel**
- 2.Meros.uz**
- 3.odam.uz
- 4.Vikepideya.org

Muzey eksponatlari monografiya (etyud, chizgidan tortib to yetuk asarlar) tartibida to'plangani bilan ham qimmatlidir. Yana muzeyning o'ziga xosligi eksponatlarning zich joylanishi, ekspozitsiyalarda to'plamni to'laqonli namoyishiga erishganidadir. Muzey san'at asarlarini to'plash, targ'ib etish, kataloglar chop etish, ko'rgazmalar tashkil qilish bilan shug'ullanadi. Muzey qoshida gilamchilik ustaxonasi ishlab turibdi; «Nukus muzeyining do'stlari»



INSON KAPITALINING YOSHLAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

*Bobur Ubaydullayev O'zbekiston Davlat
san'at va madaniyat instituti 2-kurs
magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va jahonda inson kapitalining rivojlanish bosqichlari, jamiyat va yoshlar hayotida tutgan o'rni haqida bir qancha tahliliy va daliliy hujjatlar keltirilgan.

Kalit so'zlar:
inson, kapital, jamiyat, yoshlar, resurslar va yalpi ichki mahsulot.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan islohotlar insonni rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev alohida ta'kidlab o'tganidek, bizning o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz - **“barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari**

so'zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish” dir.

O'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari insonning jamiyatdagi o'rni, uning ulkan salohiyatiga yuqori baho berganlar, inson har taraflama kamol topishining ahamiyatini uqtirganlar. Jumladan, Alisher Navoiy inson o'z tafakkuri bilan har qanday vazifani hal eta olishini ta'kidlagan:

Abu Ali ibn Sino: *“inson boshqalarning ehtiyojlarini qondirishi sababligina inson bo'ladi, boshqalar ham shunday yo'l tutadi. Birov ekin ekadi, boshqa odam non yopadi, uchinchi kiyim tikadi, to'rtinchi igna yasaydi va hamma bir-birining ehtiyojini qondirish uchun to'planadi”* deb ko'rsatgan.

Uzoq vaqt davomida iqtisodiy taffakur moddiy boylik ortirish sohasida ro'y berayotgan jarayonlar ta'sirida edi. Moddiy omillarga universal va hal qiluvchi vosita sifatida qaralardi.

Iqtisodiy o'sish mamlakat umumiy boyligini ko'paytirishga, davlatning qashshoqlik, ochlik, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Huddi shuning uchun iqtisodiy o'sishning yuqori



darajasi jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo'lib, bu bosqichda iqtisodiy o'sish omillarining roli va o'rni o'zgarib bormoqda. An'anaviy hisoblab kelingan uch: mehnat, yer, kapital omillariga fan-texnika taraqqiyoti omili ham qo'shildi, axborot va bilimlar esa eng muhim resurslarga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot bevosita ana shu asosda shakllanib, ushbu iqtisodiyotda inson va uning salohiyati hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Moddiy boylik jamiyatda va inson hayotida ulkan rol o'ynaydi. Daromadlar ortishiga moddiy va ma'naviy qoniqish hosil qilinadigan nufuzli ishda band bo'lish kabi inson imkoniyatlarini kengaytiradigan asosiy vosita sifatida qaralishi mumkin. Bundan tashqari daromad soliqlar va boshqa tushumlar manbai bo'lib, ular aholining nochor qatlamlari ijtimoiy muhofaza qilinishini kafolatlash, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, ya'ni moddiy ne'matlarni qayta taqsimlashni amalga oshirish uchun zarurdir.

Resurslarni adolatli ravishda taqsimlash jamiyat barcha azolari uchun ne'matlarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek turmush sifatini oshirish negizini yaratadi. Daromadlar va inson turmushi o'rtasidagi bog'liqlik soliq-byudjet va ijtimoiy siyosat choralari qamrab oladigan davlat strategiyasi yordamida shakllantirilishi kerak.

Jahon amaliyotidan faqat YAIM ortishining o'zi ta'lim darajasi yuksalishi, odamlar salomatligi mustahkamlanishi, inson huquq va erkinliklari ta'minlanishiga olib kelmasligiga doir ko'plab misollar keltirish mumkin. Hatto daromadlarining o'rtacha ko'rsatkichlari deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda turmush sifati ko'rsatkichlari bir-biridan jiddiy ravishda farq qilishi mumkin.

Insonni rivojlantirish konsepsiyasida an'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, shu jumladan YAIM hajmi va jon boshiga o'rtacha daromad ijtimoiy resurslarni taqsimlashda yoki mamlakatlarni rivojlantirish darajasi bo'yicha tasniflashda universal mezon vazifasini o'ta olmaydi. Tobora ko'proq miqdorda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish turmush darajasini oshirish hamda boshqa umummilliy vazifalarni eng oqilona hal etish vositasi ekanligi to'g'risidagi tasavvurlar muayyan darajada bir yoqlama



yondashuvdir. Bunday qarashlar noiqtsodiy xisoblangan ko'pgina boshqa rivojlantirish mezonlariga yetarli darajada baho bermaslikka sabab bo'ladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari rasmiy jihatdan yuqori bo'lganda ham odamlarning turmush darajasi nisbatan past bo'lishi mumkin. Buning aksi – iqtisodiy o'sishdagi natijalar salmoqli bo'lmaganda ham turmush darjasining nisbatan yuqoriligi ham kuzatiladi.

Jamiyatda sanoat rivojlanishi bosqichidan avval iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqichida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, sanoat rivojlanishidan keyingi hozirgi bosqichda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi – bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar va venchur biznesi iqtisodiyotini shakllantirishga olib keldi.

Innovatsion iqtisodiyotning asosini hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastavval

insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko'p bo'lmagan, tarbiya, ta'lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtai nazaridan tarraqiy etishning ijtimoiy, ya'ni chiqimli omili sifatida qaralardi. Tarbiya, ta'limga investitsiyalar noishlab chiqarish xarajatlari hisoblanardi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab inson kapitali va ta'limga nisbatan munosabat asta-sekin tubdan o'zgarib boshladi.

Ijtimoiy rivojlanishda insonga faqat ma'naviy sohadagina emas, balki takror hosil qilish aloqalarida ham markaziy o'rin ajratila boshlandi. Zero, bevosita inson avloddan avlodga meros bo'lib qoladigan bilimlarni egallash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga egadir. "Inson kapitali" iqtisodiy kategoriyasida o'z ifodasini topgan bu g'oya jahon BMT ekspertlari tomonidan inson salohiyatining insonni rivojlantirish dinamikasiga ta'sirini aniqlaydigan modellar yordamida ishlab chiqilgan yangi "Insoniyatni barqaror rivojlantirish" nazariyalari, "Milliy boylik konsepsiyasi" kabi ijtimoiy tafakkur negizini tashkil etadi.

Inson kapitalini rivojlantirish ustuvorligi rivojlangan va rivojlanayotgan



mamlakatlar uchun ham, barqaror iqtisodiyotlar va modernizatsiyani amalga oshirayotgan tizimlar uchun ham universal xususiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Bu jahonning yetakchi olimlari va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan juda ko'p tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan.

Insonni rivojlantirish – odamlarning uzoq va sog'lom, munosib turmush kechirishlari, ma'lumotli bo'lishlari uchun zarur vositalardan foydalanishlari imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ammo bu imkoniyatlarni odamlarning o'zlari tanlaydilar. Rivojlantirish jarayoni insonga uning ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq ravishda o'zini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi kerak.

Insonni rivojlantirish tushunchasi uning qobiliyati va imkoniyatlarini shunchaki shakllantirishga qaraganda ancha kengroqdir. U, shuningdek, bu imkoniyatlardan mehnat jarayonida, dam olish va ijtimoiy faoliyatda foydalanishni ham nazarda tutadi. Imkoniyatlarni shakllantirish va ularni ishga solish o'rtasida mutanosiblik bo'lmas ekan, inson salohiyatidan foydalanilmay qolinadi.

Insonni rivojlantirishning asosiy mezonlari umr ko'rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyatini ifoda etadigan Insonni rivojlantirish indeksidir. Davlatning farovonligi faqat daromad darajasiga emas, balki bu daromaddan qanday foydalanilishiga ham bog'liqdir. Daromadlar mo'may bo'lishining o'zi insonni rivojlantirishni kafolatlamaydi. Shunday ekan, insonni rivojlantirishning ikki xususiyati – imkoniyatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishni farqlash kerak. Insonni barqaror rivojlantirish faqat iqtisodiy o'sishni ta'minlabgina qolmasdan, uning natijalarini adolatli taqsimlashni ham nazarda tutadi. Bunday rivojlanish aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalariga birinchi darajali ahamiyat berilishini, ular imkoniyatlarini kengaytirishni, ularning o'z turmushlariga ta'sir ko'rsatadigan qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishlarini ta'minlashni nazarda tutadi. Bunday rivojlanish insonlar manfaatini ko'zlaydi, ular uchun ish joylarni ko'paytirishga, jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab taraqqiy etgan davlatlarda insonga va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasiga xarajatlar moddiy jamg'armalar



miqdoriga qaraganda yuqoriroq bo'lmoqda. Ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritish qanchalik muhim bo'lmasin, insonni rivojlantirishga sarmoyalarga tobora ko'proq ustuvorlik berilmoqda. YA'ni mazkur mamlakatlarda takror hosil qilish jarayonidagi eng jiddiy o'zgarishlar moddiy ishlab chiqarish sohasidan tashqarida sodir bo'lmoqda.

Insonni rivojlantirish konsepsiyasi nihoyatda ko'p qirrali, uning inson va jamiyat hayotining turli tomonlarida qo'llanilishi imkoniyatlari keng. BMT Rivojlanish dasturining har yilgi insonni rivojlantirish to'g'risidagi ma'ruzalari va turli mamlakatlarning milliy ma'ruzalari huddi shundan dalolat beradi.

BMT Rivojlanish dasturining 1990 yildagi bunday birinchi ma'ruzasida insonni rivojlantirish nazariyasi va uni o'lchash indikatorlari chuqur ishlab chiqilishi bilan bir qatorda urbanizatsiya muammolariga bag'ishlangan qism ham mavjud edi. Ana shundan keyingi ma'ruzalar mavzulari hayotiy extiyojlar, odamlar xavfsizligining turli mezonlari, harbiy xarajatlarni qisqartirish hisobiga ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari, hamkorlikning yangi yo'nalishlari, qashshoqlik bilan kurash, ish biland bandlikka globallashuvning ta'siri, iste'mol modellari, insonni rivojlantirish

bilan barqaror ekologik rivojlanish mezonlari o'rtasidagi bog'liqlik kabi ko'pgina masalalarni qamrab olgan.

Shu tariqa ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi insonni fakat ijtimoiy hayotning an'anaviy ma'naviy sohasidagina emas, takror hosil qilish jarayonlarida ham insonga markaziy o'rinni ajratadi. Bunda inson ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning birlamchi va pirovard maqsadi ekanligi e'tirof etiladi. Ya'ni rivojlantirishning insoniy yoki ijtimoiy mezoni dominantaga bo'lib, moddiy-ashyoviy salohiyat esa bu rivojlanishning sharti deb belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgach, xalqaro hamjamiyatga qo'shilishidan kelib chiqadigan majburiyatlarni zimmasiga oldi. Mamlakatimiz insonni rivojlantirish konsepsiyasini BMTning boshqa a'zolari ham shunday qilganliklari uchunгина emas, balki mazkur konsepsiyaning g'oyalari va qoidalari o'zbek xalqining ko'p asrlik hayotiy maqsadlariga mos ekanligi uchun qabul qildi.

XX asrning 90-yillari birinchi yarmida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ma'lumotlar ham BMTning Rivojlanish dasturi tomonidan tuzuladigan jahon



(global) va mintaqaviy ma'ruzalariga kiritila boshlandi. O'zbekistonning insonni rivojlantirishi to'g'risidagi birinchi ma'ruzasi esa 1995 yilda tayyorlangan edi. Bu bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning u yoki bu ustuvor sohasidagi masalalar xalqaro va milliy ekspertlar tomonidan taxlil qilinishi va baholanishiga, shuningdek bu ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga asos solindi.

O'zbekistonda insonni rivojlantirish sohasida erishilgan tarraqiyot aniq-ravshandir. Ayniqsa iqtisodiy sohada yuqori natijalarga erishildi. Milliy ma'ruzalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda so'nggi 10 yillikda aholi jon boshga to'g'ri keladigan YAIMning o'sishi insonni rivojlantirish umumiy indeksi o'sishidan uch baravar yuqori bo'ldi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 3,5, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 baravar o'sdi, o'rtacha ish haqi 14 baravar oshdi. Davlatning ijtimoiy soha va ijtimoiy muhofaza uchun sarf-xarajatlari 5 baravardan ziyodroq ko'paydi. Har yili davlat byudjetining 50 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmokda.

Bugungi kunda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 82,5, tabiiy gaz **Adabiyotlar:** bilan ta'minlash 83,5 foizga yetdi,

sog'liqni saklash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, o'ta og'ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat'iy choralar ko'rildi. Onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalar o'limi 3 baravar kamaydi. Ushbu davrda, ya'ni qariyb 20 yil mobaynida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi. Bugun mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan aholining 48 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

O'zbekistonda ta'limga xarajatlar YAIMning 10,0-12,0 % ni tashkil etadi, holbuki jaxon amaliyotida bu ko'rsatkich 3,0-5,0% dan ortmaydi. Mamlakatda noyob Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur amalga oshirilmoqda, 2017 yildan e'tiboran 11 yillik majburiy ta'lim joriy etildi.

Insonni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar iqtisodiyot va ijtimoiy sohani isloh etishning to'g'ri tanlangan va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan "Harakatlar strategiyasi"ning samarasi ekanligi shubhasizdir.



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

Google Яндекс @ mail

1. www.Uza.uz
2. www.lex.uz
3. www.gov.uz
4. www.ziyonet.uz



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH

*Navoiy viloyat Konimex tumani XTB
qarashli ta'lim qozoq tilida olib
boriladigan 28-sonli umumiy o'rta
ta'lim maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi*

Jumabayeva Nazira Davlatiyarovna

Annotatsiya: Boshlang'ich sinfda matematika fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish.

Kalit so'zlar: matematika fanini o'qitish, mustaqil ishlash, raqamlar, o'yinlar, "Arqon tortish", "Poyga", mustaqil izlanish, topqirlik.

Ta'lim berish tizimidagi asosiy vazifalarning biri – yosh avlodni bilimini va fikrlash doirasini rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Chunki mustaqillikka erishgandan so'ng zamon talablariga mos ravishda milliy qadriyatlarni o'sib kelayotgan yosh avlod shaxsida shakllantirish – bugungi kun vazifalaridan biridir.

O'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli etib tarbiyalashning ahamiyati katta.

Ayniqsa, bu yerda boshlang'ich ta'limga katta vazifa yuklataladi. Chunki bilim va tarbiyaning ilk qadami boshlang'ich sinfda qo'yiladi. Bolaning shax sifatidagi xarakter-xususiyatlari, insonparvarligi, faolligi maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasalarida va boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim – o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishining poydevori, ilm asoslariga qadam qo'yiladigan davr.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berishda matematika fanini o'qitishning ahamiyati katta. Chunki matematika o'quvchilarning bilimini, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini shakllantiradi, rivojlantiradi. Shu sababli turli matematik mashqlar, topshiriqlar orqali o'quvchilarning matematika faniga qiziqishlarini orttirib, sifatli ta'lim berishning ahamiyati katta.

Matematika fanini o'qitish matematik bilim berish usuli hisoblanadi. U o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi ish-harakatlari doirasida yuzaga keladi. Birinchidan, o'qituvchi o'quvchilarga matematika fanidan bilib berib, ularda bilim va ko'nikmalar shakllantiradi, ikkinchidan o'quvchining ta'limiy vazifalarini tushungan holda, matematik bilim, ko'nikmalarni



o'zlashtiradi va ularni hayotda qo'llay oladi.

Matematika darslarini o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning ish-harakatlarini tashkil etishni, ya'ni o'quvchilar bilan ishlash turalarini tashkil etish muhim vazifa. Tashkiliy ishlarning asosiy turlariga sinf ishi, sinfdan tashqari ishlar va uy vazifalari kiradi. Tashkiliy ishlarning qo'shimcha turlariga: jamoaviy ishlar, guruhlardagi ishlar, juftlikda bajariladigan vazifalar, mustaqil ishlar, amaliy ishlar va nazorat ishlari kiradi.

Ayniqsa, mustaqil ishlarni olish va tekshirish (o'zaro tekshirish, o'z-o'zini tekshirish, ildam tekshirish va boshq.) ishlariga alohida e'tibor beriladi.

Dars paytida eng avvalo, o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarni o'zi mustaqil olishiga yordam beradigan, o'zini ko'rsata olishiga sabab bo'ladigan hozirgi ilg'or o'qitish usullaridan foydalanish kerak. Shu bilan birga kichik yoshdagi o'quvchilarning zehni 5-7 daqiqagina doimiy bo'lishini e'tiborga olib, ularni zeriktirib olmaslik uchun ish-harakat turlarini almashtirib borishni rejalashtirish; yangi mavzuni bayon qilish usullarini bilish: uni tushuntirish, darslik bilan ishlar olib borish, qaysi mashqlar og'zaki, qaysi biri yozma

bajarilishini oldin ola rejalashtirib qo'yish lozim.

Bosma va yozma shakllardagi raqamlar bilan tanishtirish uchun o'rganiladigan raqamlarni eng avvalo, boshma shaklda belgilab olib, ularni mos raqamlarning yoniga ko'rsatib qo'yish kerak.

O'qituvchi tushuntiradi: 3 quyon, 3 olma deyish mumkin, shu bilan birga uch sonini raqam bilan ham yozish mumkin. O'quvchilar 3 raqamini topib ko'rsatishadi. Mustahkamlash uchun raqam bilan sonning belgilanishini yodda saqlashga mashqlar beriladi: "Bu raqamning qanday sonni bildirishini tayoqchalardan foydalanib ko'rsatingiz", "Nechta olma ko'rsatib turganligimni bildiradigan raqamni toping" va shunga o'xshash misollar.

Yozma raqam bilan tasnishtirganda, o'qituvchi raqamning yozilishini doskaga yozib ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchi qo'lining yo'nalishini ko'rib, raqamning yozilishini soladi, yoki o'qituvchining daftarga yozib bergan namunasini bostirib yozib, bilib oladi.

Matematik o'yin deganimiz o'quvchi fikrini rivojlantiradigan, uning hayoliga qanot bag'ishlaydigan ajoyib narsadir. Pedagogika sohasida foydalanidigan o'yinlar – didaktik o'yinlar deyiladi.



Didaktik o'yinlar o'quvchining zehnini darsga qaratib, qiziqishini oshiradi, bilimlarni tez o'zlashtirishga yordam beradi, darsga emotsional bo'yoq beradi.

Didaktik o'yinlarning maqsadi:

O'quvchining fanga qiziqishini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni shakllantirish, mustahkamlash, o'zlashtirilgan bilimlarini tekshirish, o'quvchilar faolligini oshirish.

Vazifalar: 1) **Ta'limiy:** o'quvchining bilish, izlanishga bo'lgan harakatlarini rivojlantirish. 2) **Tarbiyaviy:** atrofdegilar bilan munosabatlarini, zarur holatlarda insonparvarlik xususiyatlarini shakllantirish.

Didaktik o'yinlarni tashkil etish quyidagilarga soslanadi:

- 1) O'quvchining ish-harakati va o'yin turlari bilan o'qitishni bog'liq holda olib borish, qiziqarli yengil o'yinlardan boshlab, o'yin topshiriqlar orqali ta'limiy-tarbiyaviy shakllariga o'tish.
- 2) O'yinlarning vazifa va topshiriqlarini murakkablashtirib borish.
- 3) berilgan topshiriqlarni bajarishda o'quvchining aqliy faoliyatining ortib borishi.
- 4) Ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarning birgalikda olib borilishi.

Didaktik o'yinlarning sifati o'yinlarning darsning har bir bosqichidagi o'rni va vazifasiga, maqsadini to'g'ri aniqlash, uni qo'llash nazariyasi va amaliyotini o'qituvchi mukammal bilishiga, mohirlik ko'rsatishi, o'yin materiallarini oldindan tayyorlab qo'yishiga va o'quvchilarning faol ishtirokiga bog'liq bo'ladi.

Matematika fanini o'qitishda o'yinlarni qo'llashda 2 tomonlama didaktika ko'rinadi:

- 1) O'ynash uchun bilish, o'rganish zarurligi.
- 2) O'yin borishida o'zi mustaqil bilim olishi, hayotiy tajribalarni o'zlashtirib borishi.

Didaktik o'yinlarga masalan, mo'jizalar maydoni, breyn-ring, matematik musobaqalar, lider, loto, "farqini top" matematik estafetalar, viktorinalar, boshqotirmalar, rebuslar va boshq. Shu bilan birga milliy o'yinlardan o'quvchilarning og'zaki savodxonligini orttirish va ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalansa bo'ladi. Milliy o'yinlar "Kim oladi-yo", "Arqon tortish" kabi o'yinlarni guruh bo'lib bellashganda foydalansa bo'ladi. Bu o'yinlar o'quvchilarni topqirlikka va epchil bo'lishga o'rgatadi. Masalan, "Arqon tortish" o'yinida 2 guruh o'zaro bellashadi. Qalinligi 2 cm bo'lgan arqon-



ip doskaning yuqorisiga 2 joyga osib qo'yiladi va uchlari teng bo'lib turadi. Ikkita guruhdan bir birdan o'quvchilar doskaga chiqib, bir vaqtda masala yechishga kirishadi. Qaysi guruh o'quvchisi masalani tez yechsa ip uchini o'ziga qarata tortadi. Hatijada qaysi guruh ko'proq siljisa, shu guruh g'olib bo'ladi. Bu o'yindan ko'paytirish mavzularini o'tganda foydalansa boladi.

“Poyga” o'yinida eng bilagon va eng topqirlar bellashadilar. Bu o'yinni “XXI asr lideri” kabi musobaqa darslarda foydalanish kerak. Bu darslarda “Buyuk matematiklar” nomli qiziqarli viktorina savollaridan foydalasa ham bo'ladi. O'yinlar asosan 3 xil rivojlanish bosqichlaridan iborat: kasbiy o'yinlar, qiziqishini oshiruvchi va ta'limiy o'yinlar.

Xulosa qilib aytganda, matematika fanini oqitishda didaktik o'yinlar o'quvchilarni mustaqil ishlashga odatlantiradi, ularning fikrlash qobiliyatlarini, izlanuvchanligini orttiradi, nutqini boyitadi va ushbu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, mavzularni o'zlashtirishga yordam beradi.

O'quvchilar o'yin bosqichlarida o'zlarini erkin his qiladi, mustaqil izlanish va topqirlik xususiyatlari rivojlanadi. Sezish, qabul qilish, o'ylash va fikrlash,

zehnli bo'lish orqali turli psixologik sezish harakatlariga asoslanadi. O'yin borishida o'quvchilar muvaffaqiyatga erishishda quvonch va mag'lubiyatni his qilishni sezishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Qozog'iston muallimi” jurnali, 2012 - 2015 yy.
2. “Boshlang'ich maktab” (“Bastauish mektep”) jurnali 2017 yil, Olmati.



BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Nilufar Ma'murova Ismonjonovna

*Namangan viloyati Chortoq tuman xalq
ta'limi bo'limiga qarashli 10-sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda dars jarayonlarini tashkillashtirishda didaktik o'yinlardan foydalanish mavzusi yoritilgan. Shuningdek maqolada didaktik o'yinlarning bir nechtasidan misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, didaktik o'yinlar.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan

ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga kura ikki xil tasnif qilamiz:

1. Mazmuniga ko'ra.
2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.

Mazmuniga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: tinch o'yinlar; harakatli o'yinlar; aralash turdagi o'yinlar.

Shakliga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: musobaqa o'yinlari; sahna o'yinlari. Tinch o'yinlarga quyidagilarni kiritish mumkin: "O'zim tekshiraman", "Hikoya", «U kim, bu nima?", "Topag'on", "Noto'g'ri jumla", "Bo'lishi mumkin emas", "Harflarni top", "O'qib ko'r-chi", "Davom ettir", "Safar", "Sirli so'z", "Zanjir", "O'yin – topishmoq", "Bu meniki", "Tez javob", "Rebus", "Krossvord».

Pedagogik amaliyot jarayonida qo'llanilgan ushbu o'yinlarning ayrimlaridan misollar keltiramiz.

"Hikoya" o'yinida, o'qituvchi doskaga bir nechta so'z yozib qo'yadi.

O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning



lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O'quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

“U kim, bu nima?” o'yinida, stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi. O'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin o'quvchilarda, ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

“Davom ettir” o'yinida, o'qituvchi hikoyani boshlab beradi. O'quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon

yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish malakasi rivojlanadi va so'z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, o'z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

“U nima qilyapti” o'yinida, o'quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib harakat qiladi. O'quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o'yin o'qish va ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o'tkaziladi.

“Quruvchi” o'yini o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, darsda o'tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan “g'ishtchalar” yasaydi va bu “g'ishtchalarga” savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi. “g'ishtchalar” soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak, guruhlarga “minora” yoki “devor” qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va “g'ishtcha” ni olib savolni o'qiydi. Agar savolga bolalar to'g'ri javob topsalar o'zlarining “maydoncha” lariga “g'isht” ni teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar, o'qituvchi “g'ishtcha” ni olib qo'yadi. O'yin shu



tahlidda barcha o'quvchilar bittadan "gishtcha" olib bo'lgunlarga qadar davom etadi. "Qurilish maydonchasi" da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib hisoblanadi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi, o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jayev N.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adolat, 2006.
2. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. Xalq ta'limi jurnali, 2006
3. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlardan foydalanish. Toshkent: Musiq, 2009.
4. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. "Pedagogik texnologiya asoslari", - T., "O'qituvchi", 2004-yil.
5. Hasanboeva O, Ne'matova A., Ibragimova G Odobnoma 4-sinf O'zbek milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti - T.:2007.
6. Ne'matov X., G'ulomov A, Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. – T.1996 y.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Qudratova Gulchehra Toxirovna

*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 10-
umumiy o'rta ta'lim*

maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada bosbhang'ich ta'limda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, o'quv mashg'ulotlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga

tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.



O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini jihatlarini quyidagilar: tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: **“Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va**

iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik”¹⁴, - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

Boshlang'ich ta'limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilmfan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak, u har bir o'quv soatiga puxta tayyorlanib yangilik bilan kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o'quvchini darsga va fanga qiziqishini susaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi. Axborot texnologiyalarining o'qituvchi va o'quvchi uchun ahamiyatli

— o'quvchining diqqatini jamlash;

¹⁴ Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O'zbekiston», 2009, 15-bet.



- ma'lumot to'g'risidagi tasavvurni kengaytirish;
 - izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishish;
 - o'z-o'zini baholash;
 - o'qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holdagi darslarning o'rni quyidagilarda aks etadi:
 - vaqtni to'g'ri taqsimlash;
 - o'quv materialini mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlash;
 - berilayotgan axborot ko'lamini oshirish;
 - o'quv topshirig'ining turlarini kengaytirish;
 - sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
 - kasbiy malakani muntazam oshirib boorish.
- fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-3931-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
4. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

[Google](#) [Яндекс](#) [@mail](#)

amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va
texnologiya, 2008.



DEONTOLOGIK MADANIYAT MOHIYATI, PEDAGOGIK AHAMIYATI

Boyyigitova Saodat

NIZOMI nomidagi TDPU

*Pedagogika nazariyasi va tarixi
yònalishi*

1 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada deontologik madaniyat mohiyati va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, pedadodik sohasida deontologik bilimlarni o'rnini haqida to'xtalib o'tilgan. Qolaversa, deontologik madaniyat mohiyati va pedagogic o'rnini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Tayanch so'zlar: Deontologiya, deontologiya prinsiplari, pedagogik etika, pedagogik kompetentlik, professional kompetentlik, kasbiy etika.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida

pedagoglarning deontologik darajasi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

"Deontologiya" atamasi ingliz faylasufi, iqtisodchisi va huquqshunosi I. Bentem (Jeremy Bentham, 1748-1832) tomonidan axloq nazariyasiga murojaat qilish uchun kiritilgan. Aslini olganda, bu inson xatti-harakatlarining bir-biriga va jamiyatga, insonning axloqiy normativ va tartibga soluvchi harakatlariga, hayotning barcha sohalarida, shu jumladan mehnat, hayot va atrof-muhitga munosabati bilan bog'liqligi tamoyillari va me'yorlari to'plamini belgilaydigan nazariya. Kasbiy faoliyat sohasida ushbu tamoyillar va me'yorlar har kuni mutaxassisning maqsadi, ijtimoiy mavqei va roli tufayli namoyon bo'ladi. Adabiyotlarda deontologiya (yunoncha Vazifa - d; Ontos - tufayli + logos - o'qitish) burch va burch muammolarini o'rganadigan axloqiy qism deb tushuniladi; axloqiy-axloqiy me'yorlar va tibbiy xodimning bemorga nisbatan xulq-



atvor tamoyillari to'g'risida o'qitish. Burch vazifa bilan bir xil - vijdon motivlaridan kelib chiqqan holda insonning axloqiy burchlarini ochib beradigan axloqiy kategoriya. Belgilangan muddat - kasbiy tayinlash uchun mutaxassisning belgilangan axloqiy majburiyatlari. Aslida deontologiya mutaxassis (tibbiyot xodimi, o'qituvchi va boshqalar) ning jamiyat va davlat oldidagi axloqiy burchi (axloqiy majburiyatlari) to'g'risidagi ta'limotdir. Pedagogikada deontologiya mohiyatini o'rganish bo'yicha tadqiqotchi biri G.M.Kertaeva o'zining tadqiqotlarida o'qituvchining deontologik tayyorgarligini ajratib ko'rsatdi, bu «o'qituvchining ongi, uning bilim, ko'nikma va malakalarini kasbiy burch talablariga muvofiq ravishda ta'lim, tarbiyaviy ishlarini bajarishga tayyorligi holati. Bu uning kasbiy ongining rivojlanish darajasini, kasbiy faoliyatda nima qilish kerakligini anglashini aks ettiruvchi uning umumiy tayyorgarligining ajralmas qismidir» deydi. Deontologik tayyorgarlikning asoslari universitetda qo'yiladi, o'qituvchining kundalik amaliy faoliyati tomonidan tasdiqlanadi va ular quydagi yo'nalishlarda qo'llab quvvatlanadi:

- pedagogik deontologiya

- o'qituvchining kasbiy burchiga muvofiq xulq-atvori haqidagi fan;

- tibbiy deontologiya, bu xatti-harakatlar tamoyillari to'plamini, unga murojaat qilgan shifokor va sog'lom yoki kasal odam o'rtasidagi aloqaning professional usullarini anglatadi (A.F.Bilibin, B.E. Votchal, F.P. Gaaz, A.A. Grando, N. N. Pirogov, I. S. Suk, N. V. Elshtein va boshqalar);

- - ijtimoiy deontologiya ishchining xulq-atvori va faoliyatining professional va axloqiy me'yorlari va tamoyillarini o'rganadigan fan.

Yuqorida aytilganlarni xulosa qilib aytganda, deontologiyani "shaxs-shaxs" tizimidagi mutaxassislarning kasbiy burchiga muvofiq xulq-atvori haqidagi fan deb bilamiz. Bir qator mualliflar G.M.Kertaeva, G.M.Kodjaspirova, L.E.Kuderina, K.M.Levitan pedagogik deontologiyaning nazariy asoslarini kasbiy burch talablariga muvofiq o'qituvchi xatti-harakatlari orqali sharhlaydilar. Shu bilan birga, pedagogik deontologiya talablari o'qituvchining kasbiy ongini talaba (ta'lim munosabatlarining boshqa ishtirokchilari) taqdiriga aralashishga, ishonch, hamdardlik va adolat tamoyillariga rioya qilishga yo'naltiradi.

Tanlangan printsiplar asosida pedagogik faoliyatning deontologik jihati nuqtai



nazaridan o'qituvchiga qo'yiladigan ustuvor talablar quyidagilardan iborat:

-o'qituvchi shaxsining insonparvarlik yo'nalishi, uning doirasida pedagogik harakatlarni tushunish va shaxslararo munosabatni, axloqiy ko'rsatmalarni mustahkamlash;

-o'qituvchiga pedagogik faoliyatni amalga oshirishga va kasbiy burchiga muvofiq barqaror xatti-harakatni ta'minlashga imkon beradigan mutaxassislik va shaxsiy deontologik fazilatlarning mavjudligi;

-o'qituvchining deontologik pozitsiyasi kasbiy faoliyatning axloqiy yo'nalishi, ijtimoiy ahamiyatli xulq-atvorida namoyon bo'lgan, o'qituvchining kasbiy va pedagogik burchini anglashi, bu sohada, o'ziga va talabalarga ta'lim jarayonining faol sub'ektlari sifatida tushunishi asosida ta'limga bo'lgan munosabatining integratsiyasini ta'minlash.

V.S.Bezrukova pedagogik deontologiya printsiplarning amaliy ahamiyatini yoritib, ularning asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatadi:

- printsiplar orqali ta'lim maqsadlari batafsil va mazmunli ochib beriladi;
- pedagogik jarayonni tashkil etish uchun quyidagi printsiplardan foydalaniladi,

ya'ni uning mazmuni, usullari, vositalari, shakllari va ular orasidagi aloqalarni tanlash, maqsad va unga erishish vositalarini bog'lash;

- printsiplar doimiy ravishda olib boriladigan ta'lim aloqalarining samaradorligi mezonlari sifatida ishlatiladi, ularning sub'ektlari rivojlanishini ta'minlaydi;

- printsiplarning o'zi pedagogik jarayonning rivojlanish mezonlari sifatida ishlatilishi mumkin.

Ta'limning innovatsionligi tamoyili ta'lim mazmuni va texnologik yangilanishining maqsadga muvofiq davomiyligini, uning yagona axborot makonini yaratish asosida ijtimoiy-madaniy va kasbiy muhitni rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydi, kasbiy faoliyatda sub'ektning o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi anglashiga yordam beradi. Innovatsion tamoyili amaliyotni yaxshilaydigan maqsadli o'zgarishlarni, yangiliklarni tarqatishni, ularni rivojlantirish jarayonini nazarda tutadi, bu esa ularni ijodiy anglash va foydalanish usullarini o'zlashtirishni nazarda tutadi. Ikkinchi guruh tamoyillari

- bu deontologik tayyorgarlik jarayonini tashkil etish qonuniyatlariga mos keladigan maxsus o'qituvchilarning deontologik tayyorgarligini tashkil



etishning umumiy tamoyillari: tabiatga muvofiqlik tamoyili, izchillik tamoyili, kasbiy davrlashtirish tamoyili.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi –mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar, turli ilmiy va adabiy tahlillar manbalar o'zgaras tarkibiy qismlarni ajratishga imkon berdi. Ko'pincha pedagogik deontologiya quyidagicha talqin qilingan:

- 1) O'qituvchining kasbiy xulq-atvori haqidagi fan o'z sohasidagi o'qituvchilarning xatti-harakatlari qoidalari va normalarini ishlab chiqadi. Mehnat faoliyati; o'qituvchini o'zlashtirish jarayoni haqidagi fan. Imkon beradigan tartibga soluvchi professional talablar unga pedagogik haqiqatni yetarlicha qabul qiladi, unda harakat qilish, professional darajada oqilona strategiya va taktikalarni, vazifalar va rejalarni ishlab chiqish, kasbiy faoliyat, bila turib ularni tartibga soladi.
- 2) munosabatlarni kafolatlash uchun professional axloq qoidalari, professional

va pedagogik ishtirokchilar o'rtasidagi ishonch va aloqa; tartibga soluvchi talablarni o'z ichiga oladi.

Har bir maxsus deontologik intizom ikkita tarkibiy qismdan iborat: birinchisi kasbiy faoliyat va xulq-atvorning me'yoriy hujjatlariga taalluqli, ikkinchisi fanlararo rang-baranglikka ega.

Shaxsiyatni shakllantirishda o'qituvchi muhim rol o'ynaydi, shuning uchun rivojlanish zarurati pedagogik deontologiya tarixiy zarurat va ijtimoiy tartib orqali rivojlanadi. Pedagogik deontologiya muammolarini ikki tarmoqqa ajratish mumkin: tipik va situatsion. Odatda, bu axloqiy kasb talablariga javob berish qobiliyatidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'qituvchining deontologik me'yoriy-huquqiy jihati mazmunini tahlil qilib, yangi qonunchilik ta'limi tashabbuslari o'qituvchining kasbiy faoliyatining axloqiy va insonparvarlik tarkibiy qismiga e'tiborni qaratayotganiga e'tibor qaratish zarur. Deontologikyani o'rganishning xulq-atvor va regulyativ tomoni o'qituvchining xulq-atvorining ekologik salbiy omillar ta'siriga individual barqarorligini ta'minlash, kasbiy faoliyatda psixologik va xulq-atvor barqarorligini saqlash g'oyalariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'll. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. -159 b.
2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. -T.: BROK CLASS SERVIS, 2016. – 84 b.
3. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'llanma. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 320 b.
4. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. O'quv qo'll.-T.: TIB-KITOB, 2009. -183 b.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kopetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
6. Muslimov N.A. va boshqalar. Professionalnaya kompetentnost budущego uchitelya: teoriya i texnologiya obucheniya Uchebnoe posobie . -T.: TDPU, 2014



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Artikova Muhayyo Botiraliyevna

*ADU, Maktabgacha pedagogika
kafedrasi dotsenti p.f.d*

*Boynazarova Maftunaxon Mannonjon
qizi*

*ADU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (maktabgacha ta'lim)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Maktabgacha ta'lim tizimida bugungi kunga kelib yangilangan dasturiy-metodik ta'minotning eng muhim yutug'i maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga kompetensiyaviy yondoshuvning joriy etilganligidadir. Ma'lumki, ma'naviy barkamol shaxs tarbiyasida kompetensiya va kompetentlik dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish ta'lim sohasidagi

davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan ekanligi "Ta'lim to'g'risidagi qonunning 3-moddasida belgilab qo'yilgan. Shunga muvofiq, bo'lajak mutaxassislariga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar berish bilan birga ularni kasb-hunarga yo'naltirishda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, tabiat va insonga mehr-shafqatli, muruvvatli, saxovatli bo'lish, odamlarning shaxsiy fikrlari va his-tuyg'ularini hurmat qilishni o'rgatishdan iborat. Zero, bo'lajak mutaxassisni bunday kasbiy kompetensiyalar va shaxsiy sifatlar uyg'unligi asosida tarbiyalab borish bo'lajak maktab o'quvchilarini to'g'ri va ongli ravishda kasb-hunarga yo'naltirishda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Mana shu holatda ijtimoiy va kasbiy burchni anglagan holda kasb tanlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy motiv hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida xorijiy davlatlar tajribasida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan kompetensiyaviy yondoshuv keng tatbiq qilinmoqda. 2018 yildan O'zbekiston Respublikasida kompetensiyaviy yondoshuv maktabgacha ta'lim tizimida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat



talablari va Ilk qadam o'quv dasturi asosida amaliyotga joriy etila boshlandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kompetensiyaviy yondoshuv asosida ta'lim-tarbiya berishda o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, turli hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish qobiliyati, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyati va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Kompetensiya – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan.

Shu sababli kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda shaxsning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan

foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik, erishganlik, loyqlik, mos kelmoqlikni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va Ilk qadam o'quv dasturi asosida tarbiyalanuvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar ikkita asosiy guruhga ajratib ko'rsatiladi va ular quyidagicha aks etgan:

1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi;

O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-ta'limiy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati;



Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalana olish jarayonlari kiradi.

2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari:

- “Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: yirik motorika, mayda motorika, sensomotorika va sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik);

- “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: ijtimoiy rivojlanishda ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot, hissiy rivojlanishda hissiyot va ularni boshqarish va “Men” konsepsiyasini anglashi);

- “Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari:

nutq va til, o'qish malakalari va qo'l barmoqlari mayda motorikasi);

- “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: intellektual bilish malakalari, elementar matematik malakalar, tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat);

- “Ijodiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari (kichik sohalari: dunyoni badiiy tasavvur etish, badiiy-ijodiy qobiliyatlar).

Yuqorida keltirilgan kompetensiyalar maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishiga individual yondoshuv, jamoaviy hamkorlikka undash, bola shaxsini hurmat qilish, uning noyoblighi va takrorlanmasligini his etish, ularning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'z-o'zini ko'rsata olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish asosida shakllantirilib boriladi. Kompetensiyalarni bola maktabgacha yosh davrida egallab borishini tarbiyachi-pedagoglar kuzatib, nazorat qilib boradilar.

Shu orqali bolaning maktabga tayyorlik darajasi belgilanadi. Ya'ni bola maktabgacha ta'lim tashkilotida har tomonlama maktabga tayyorlanadi. Maktabga tayyorlik deganda bolada umumiy muhim kompetensiyalarni va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanganligi tushuniladi.

Shuningdek, rivojlanish markazlaridagi bolalarning erkin faoliyati ham ularning sohalari bo'yicha kompetensiyalarini rivojlanishini



ta'minlaydi. Ya'ni quyidagi rivojlanish markazlari orqali bolalarga kompetensiyaviy yondashish juda qulay hisoblanadi.

- Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;
- Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi;
- Til va nutq markazi;
- Ilm-fan va tabiat markazi;
- San'at markazi;
- Musiqa va ritmika markazi.

Ushbu rivojlanish markazlarida bolalarning mustaqil ta'limiy faoliyati tashkil etiladi va tarbiyachi tomonidan kuzatib borilib, ularning rivojlanish sohalari bo'yicha kompetentligi shakllantirilib boriladi.

Markazlardagi bolalarning berilgan mavzu yuzasidan o'z holicha bajargan faoliyati nazorat qilinib, belgilab boriladi. Shu asosda ularda kompetensiyaviy ijodiy yondoshuv jarayoni rivojlanadi. Rivojlanish markazlarida bolalarda eng avvalo kommunikativ kompetentlik va o'yinga bo'lgan ishtiyoq shakllana boradi. Bolalar maktabgacha yosh davridanoq muloqotga ehtiyoj sezishi hamda o'yin

orqali mustaqil faoliyatini tez namoyon qila oladi.

Shu sababli, o'quv-ta'limiy jarayonni rejalashtirish bilan bir qatorda, bolada yuqorida belgilangan kompetensiyalarni, uning rivojlanishini kuzatib borish tarbiyachi-pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik kuzatuvlar asosida samarali ta'limiy faoliyat rejalashtiriladi va takomillashtirilib boriladi.

Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimi inson kamolotidagi poydevor, muhim bosqich, asosiy yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi, umumiy muhim kompetensiyalar ham, rivojlanish sohalari kompetensiyalari ham aynan shu bosqichda shakllanib, sayqallashib, taraqqiy etadi. Zero, bugungi pedagog-tarbiyachilar zamonaviy pedagogik tafakkurga ega bo'lishi, ta'limiy jarayonga mas'uliyat bilan yondoshib, AKT vositalari, interfaol metodlar, didaktik o'yinlardan mahorat bilan foydalanib, dasturiy talablarni muvaffaqiyatli hal etishi davr talabidir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. –T., 2018.



2. Ilk qadam o'quv dasturi. –T., 2018.
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova,
N.Qayumova, M.A'zamova.
Maktabgacha pedagogika. –T.: Tafakkur
nashriyoti, 2019.



BUYUK PYOTRNING HARBIY ISLOHOTLARI

*SamDU tarix fakulteti Ilmiy rahbar:
dots. B. To'raqulov Magistrant: N.
Nurmatov*

Annotatsiya: Pyotr tomonidan amalga oshirilgan harbiy islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib berish. Harbiy islohotlarning Rossiya tarixidagi ahamiyati va o'рни.

Kalit so'zlar: Pyotr, "Plesburg shahri", Avtomon Mixaylovich Golovin, Preobrajenskiy va Semenovskiy, G'arbiy Yevropa modeli, Arxangelsk, "Harbiy artikul", P.P. Epifanov.

Pyotr I ning muntazam qo'shinni yaratish yo'lidagi ilk qadami poteshniy polklarini tashkil etishdan boshlangan edi.

1682-yilda malika Sofiya hukmronligi boshlandi. O'n yoshli Pyotr onasi Natalya Kirillovna Narishkina bilan birga Sofiyaning g'azabiga uchradi va Kremldan Moskva yaqinidagi qishloqlardan biri Preobrajenskoyega ko'chib o'tishga majbur bo'ldi.

O'qchilar qo'zg'olonidan qo'rqish (1682) Pyotrning o'zini himoya qilishi va haqorat qilish uchun qasos tuyg'ularini yanada kuchaytirdi. O'qchilar qo'shini juda ishonchsiz bo'lib qoldi: Sofiya hukmronligi davrida podshohning qo'llab-quvvatlashidan (Ivan Dahshatli davrida) ular o'zlarining irodalarini podshohga ko'rsatishga qodir bo'lgan mustaqil "mulk" ga aylanishdi.

Kreml qurol palatasidan Preobrajenskoyega turli xil harbiy buyumlar – qurol, ramzlar, porox, qo'rg'oshin, xullas, Kreml qurol-yarog'i asta-sekin Preobrajenskoyega ko'chib o'tdi.

Eski odatga ko'ra, shahzoda 5 yoshga kirganida, saroy zodagonlaridan uning "zotli tengdoshlari" bo'lgan xizmatkorlari, dasturxonchilar va mahramlari tayinlangan. Harbiy ishdan zavqlangan Pyotr, spalniklar, saroy otboqarlari, lochinlar, shunqorlardan yosh yigitlarni o'z xizmatiga chorladi. Ulardan 1683-yil noyabrda 2 ta rota (jami 50 ga yaqin kishi) tuzildi, ular barcha "ixtiyoriy havaskorlarni" (ham dvoryanlar, ham qaram dehqonlarni) yollash orqali 2 ta batalyonga ko'paydilar, ularning har biri 300 kishidan iborat edi. Aynan shu qo'shin poteshniy nomini oldi. Shuni ta'kidlash kerakki, "podshoh askarlari ichida harbiy



o'yinlarda o'ynagan o'rtoqlari, o'yinida xizmat qilgan va poteshniy xizmati uchun tanlangan haqiqiy xizmatchilar ish haqi olgan". Asta-sekin o'yin haqiqatga tobora yaqinlashdi: poteshniy askarlari harbiy kiyimda kiyinib (G'arb namunasida, streletskiy libosida emas!), to'liq haqiqiy askar qurollarini oldi; shtab-ofitserlar, ober-ofitserlar va unter-ofitserlar tayinlangan; Preobrajenskiyda doimiy ravishda og'ir qurollangan askarlar malakasini oshirish davom etdi.

Askarlarga qamal qilish va qal'alarni bosib olishni o'rgatish uchun 1685-yilda Yauza daryosida "kulgili qal'a" - "Plesburg shahri" (yoki Presburx) qurildi. Qal'a mortirlar va harbiy qamal san'atining barcha usullari bilan o'rab olingan. Bu yerda Pyotr o'zining ilmi ozligi uchun shug'ullana olmadi va nemis slobodasi bilan yaqindan tanishishni boshladi. 1684-yilda chet ellik usta Zommer Pyotrga granata otishni ko'rsatdi.

1687-yilda knyaz Yakov Dolgorukiy shaxzodaga Fransiyadan astrolyabani sovg'a sifatida olib keldi. 15 yoshli Pyotrning o'zi buni o'zlashtira olmadi, u "bilimdon odam" - gollandiyalik Frans Timmermanni chaqirdi. U yuqori ma'lumotli odam bo'lib, Pyotrga arifmetika, geometriya, artilleriya va fortifikatsiyani o'rgatishga qodir edi.

Shundan so'ng, Pyotr nihoyat G'arb madaniyati tomonidan zabt etildi va 1690-yillarning boshlarida, poteshniylar orasidagi deyarli barcha ofitser lavozimlari chet elliklar tomonidan band qilindi (lekin ikkala poteshniy polkining asosiy qo'mondoni rus edi - Avtomon Mixaylovich Golovin, Pyotr stolnigi, "u juda ahmoq odam edi, lekin askarning mashg'ulotlarini bilardi"). Bu yerda Platonovning so'zlarini keltirish o'rinli bo'ladi: "Pyotr ularga (chet elliklarga) ishonib, ularni birinchi o'ringa qo'ymadi: ularning yuqorisidagi hamma joyda rus odami turardi, garchi u bu ishni chet ellikdan kam bilsa ham" (Yagona istisno: Shotlandiyalik Yakob Bryus - Manufaktura va Berg-kollegiya prezidenti bo'lgan).

1691-yilda poteshniy otryadlardan 2 ta polk - Preobrajenskiy va Semenovskiylar tuzildi. Ushbu polklar kelajakda Pyotrning muntazam armiyasi uchun ahamiyati juda yuqori bo'ldi. Deyarli barcha kelajakdagi yuqori martabali ofitserlar va amaldorlar ushbu polklar orasidan chiqdi. Ushbu polklar rus armiyasi ofitser kadrlari uchun haqiqiy tarbiyalash maktabiga aylanadi.

Bundan tashqari, yana ikkita saylanadigan Moskva polklari - Butirskiy (komandir - Gordon) va Lefortovskiy (komandir - Lefort) tuzildi. Bu yerda chet



elliklarning Rossiya armiyasidagi alohidayaratish sanoatni rivojlantirishni, xizmatlarini ham ta'kidlab o'tish lozim.

1692-yilgi mashqlar piyoda askarlarini kemalarda harakat qilishga o'rgatish maqsadida o'tkazildi. Biroq, manevrlar sodir bo'lgan Pereyaslavl ko'li, hatto daryo floti uchun ham juda tor edi (ko'lning o'lchamlari atigi 8 x 6 verst bo'lgan). Shuning uchun, Pyotrda Oq dengizda - flot qurish zarurati tug'ildi. Shu maqsadda podsho 1693-1694-yillarda Rossiyaning yagona yirik porti bo'lgan Arxangelskka tashrif buyuradi. Lekin Arxangelsk dengizchilik uchun qulay emas edi, chunki u uzoq vaqt davomida muz bilan qoplanar edi. Ammo boshqa iloj bo'lmagan. Arxangelskda Pyotr I birinchi marta haqiqiy ulkan xorijiy savdo kemalarini ko'rdi va rivojlangan dengiz savdosisiz Rossiyaning qanchalik orqada qolganini tushundi. Pyotr darhol Arxangelsk gubernatori Fyodor Matveyevich Apraksinga (bo'lajak general-admiral) shahar yaqinida, Solombala orolida kemasozlik zavodini qurishni buyurdi. Rossiyaning harbiy-dengiz floti shu tarzda vujudga keldi.

Shvetsiya bilan urushga tayyorgarlik (1700-1721-yillardagi Shimoliy urush) va uning muvaffaqiyatsiz boshlanishi islohotlarni tezlashtirish uchun muhim turtki bo'ldi. Muntazam armiya va flotni

qo'shinlar bilan ta'minlanishni tashkil qilishni, ofitserlar va harbiy mutaxassislar tayyorlashni talab qildi.

XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida Rossiya qurolli kuchlari tub o'zgarishlarga duch keldi. Endilikda armiyaning eski tuzilishi davlat mudofaasi va tashqi siyosat talablariga javob bermas edi. Shuning uchun XVII asrning 90-yillarida Pyotr I harbiy islohotlarni boshladi. Bu islohotlarning asosiy qismi 1709-yilda yakunlandi. Islohotni 3 bosqichga bo'lish mumkin :

1. Harbiy islohotlarni tayyorlash bosqichi (1690-1699). Bu vaqtda Preobrajenskiy va Semenovskiy polklari "ermak" otryadlaridan, eng jangovar kamonchilardan - P. Gordon va F. Lefortning ikkita "tanlangan" Moskva polklari tuzildi. Shu bilan birga, yosh podshoh Pyotr I hukumati katta Azov flotini yaratishni boshladi.

2. Muntazam armiyaga o'tish bosqichi (1699-1705). 1699-yilda "har qanday erkin odamlar", so'ngra "datochniy odamlar" ni askar va dragun polklariga kirish to'g'risida podshohlik farmonlari chiqarildi. Natijada, 29 piyoda va 2 dragun polklari tuzildi. Biroq, garnizon strelestlari polklari va dvoryan otliqlari saqlanib qolindi. U 1700-yil 19-



noyabrda Narva yaqinidagi rus va shved qo'shinlarining muvaffaqiyatsiz jangidan so'ng tarqatib yuborildi. Dragun tipidagi otliqlar ko'ngilli dvoryan otliq qo'shinining o'rnini egalladilar. Boltiq floti uchun birinchi kemalarning qurilishi boshlandi. 1703-yilda Svir daryosi bo'yidagi Lodeynopolskiy verfi tomonidan 6 ta fregat suvga tushirildi. 1704-yilda Sankt-Peterburgda Admiraltey verfiga asos solindi. U Rossiyada kema qurish markaziga aylandi.

3. Islohotning yakuniy bosqichi (1705-1709). 1705-yilda Rossiyada armiya va dengiz flotini boshqarishning yangi birlashgan tizimi – rekrutlik majburiyati joriy etildi. Mamlakatning barcha viloyatlarida askarlar va matroslarni jalb qilish bilan shug'ullanadigan rekrutlikka qabul qilish punktlari, ya'ni maxsus "stantsiyalar" tashkil etildi. Qoida tariqasida, 500 kishidan, kamdan-kam hollarda 300 kishidan, istisno holatlarda esa 100 erkakdan 1 nafar rekrutlikka yangi olingan askar jalb qilindi. Boltiq floti kuchaytirildi. Pyotr I hukmronligining oxiriga kelib u 48 ta liniya kemasi, 787 ta galer va 28 ming ekipajga ega bo'lgan boshqa kichik kemalardan iborat edi.

Yangi muntazam armiya va harbiy-dengiz floti G'arbiy Yevropa modeli

bo'yicha tuzildi. Piyoda askarlar bagetli silliq stvolli miltiqlar bilan qurollanishgan, 1706-1708- yillarda ular uchburchak qirrali nayzali miltiqlar bilan almashtirildi. Pyotr davridagi piyoda askarlar fuzeylar va mushketlardan tashqari shpaga, ofitserlar - protazan va unter-ofitserlar - alebardalar bilan qurollangan. Dragunlarga karabinlar (yengil qurollar), olstraxda qilich va pistoletlar berildi. 1708-yilda rus armiyasida katta olov kuchiga ega bo'lgan grenader polklari yaratildi. Grenaderlar qurollardan tashqari granatalardan, ba'zilar esa qo'l mortiralari bilan qurollangan. Har bir grenader polkida 12 ta to'p, o'sha vaqtda piyoda polkida esa atigi 2 ta yengil to'p va 4 ta mortira bor edi.

Rus artilleriyasi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Kalibrlarning xilma-xilligi va artilleriya qurollarining turlari yo'q qilindi. Dala artilleriyasida to'p, gaubitsa va mortiralarga bo'linish saqlanib qolgan. Bu yerda peredok(tirkama)lar, zaryadlovchi qutilar va kartuzalar - xolstli (kanopli) sumkalarda poroxlar bor edi, ulardan foydalanish qurollarni yuklashni osonlashtirdi. Furshtadt qurollarini tashish uchun doimiy guruhlar tashkil etildi. 1701-yilda Rossiya armiyasida birinchi artilleriya polki tashkil etildi.



1712-yilgi shtat ma'lumotlariga ko'ra, u 6 jinoyatlarga, qotillikka, xudojo'ylikka, ta rotadan (1 ta bombardimonchi, 4 ta kanonir-to'pchi, 1 ta minachi), muhandislik va ponton guruhlaridan iborat edi.

1715-yil 25-aprelda "Harbiy artikul" nashr etildi. U Rossiyada birinchi harbiy jinoyat va protsessual kodeks hisoblanadi. 24 bob va 209 artikul(modda)dan iborat. Barcha kodeks 2 bo'limga bo'lingan. Birinchisi harbiy jinoyatlar va jazolar to'g'risidagi qarorlarni, ikkinchisida - jinoyat protsessual normalarni o'z ichiga olgan. Keyinchalik, 1716-yilda Pyotr I Harbiy Nizomiga (hujjatning 2 va 3 bo'limlari) o'zgartirish kiritilgan. Ushbu moddalar harbiy xizmatchilarning intizomni kuchaytirishga qaratilgan, jinoyatlar uchun juda qattiq jazolar nazarda tutilgan. Harbiy sudlarning idorasiga "armiya bilan bog'liq"shaxslar ham kiritilgan. Jazolar orasiga quyidagilar: qamchi, novda, xivichlar bilan urish, temirga bog'lash, tamg'alash, og'ir mehnatga jalb qilish, o'lim jazosi, bular 74 artikulda va yana 27 artikulda boshqa jazolar bilan birga ko'rsatilgan. O'lim jazosi 2 xil edi: ixtisosli - to'rtga bo'lish, charxpalakka tortib o'ldirish, tomoqni metall bilan to'ldirish, yoqish va oddiy - otish ("arkebuzirovanie"), osish, boshini kesish orqali ijro etilgan. U siyosiy

qorovullikda uxlashga va hokazolarga mumkin bo'lgan. Qotillik uchun jazoni belgilaydigan 154-artikulda Rossiya qonunchiligi tarixida birinchi bo'lib sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish zarurati belgilab qo'yilgan .

Ba'zi rus olimlari (N.D Sergeyevskiy, N.S. Tagansev) Artikullarning asl xarakterini inkor etib, uning matni faqat harbiy jinoyatlar to'g'risidagi chet el kodeksining tarjimasini deb hisoblashgan. Ammo Pyotr I harbiy islohotlari tadqiqotchisi, tarixchi P.P Epifanovning ta'kidlashicha, ushbu huquqiy hujjatni ishlab chiquvchilar Shvetsiya qiroli Karl IX ning harbiy qonunlaridan namuna sifatida foydalanishiga qaramay, Harbiy artikul o'sha vaqtgacha Rossiya armiyasida xizmatni huquqiy tartibga solishning haqiqiy holatlaridan maksimal darajada foydalanadigan mustaqil hujjat bo'lib, Shvetsiyaga qarshi harbiy harakatlarga qadar deyarli 15 yillik tajribaga ega edi.

1880-yilda harbiy huquq tarixchisi P. O. Bobrovskiy Bosh Shtab arxividan Pyotr I ning 200 dan ko'proq o'z qo'lyozmalari bilan Nizomning haqiqiy qora qo'lyozmasini topdi. 1945-yilda P.P. Epifanovning "Pyotr I ning harbiy nizomlari" maqolasi, 1716-yilgi Harbiy Nizomning I kitobi ("Generallar mavpei



to'g'risida") va III kitobi ("Harbiy mashqlar to'g'risida") ning rus tilidagi asl nusxasini aks ettiruvchi yangi arxiv materiallaridan foydalangan holda, nihoyat Pyotr I Nizomining kelib chiqishi haqidagi nemislarning afsonasi rad etildi .

Harbiy artikul urush paytida qo'shinlar uchun 1812-yilga qadar Dala jinoiy nizomi chiqarilishigacha va tinch davrda – 1839-yilda Harbiy-jinoyat ustavi nashr etilgunga qadar amal qildi.

1716-yilgi Nizomga ko'ra jang paytida harbiy qoidani buzganlik uchun shafqatsiz jazolash talab qilingan, ammo shu bilan birga jangovar artikullar (usullar) ni bilmaganligi uchun askarlarni kaltaklash taqiqlangan. Pyotr xatolarni kaltaklash bilan emas, balki ko'rgazmali misol bilan tuzatishni buyurdi. "Agar askarlardan biri xato qilsa, serjant uni tuzatadigan, o'rgatadigan kapralni yuboradi" .

Ofitserlarga yuqori talablar qo'yildi. Nizomga binoan, ofitser harbiy sharaf sohibi bo'lgan. Shaxsiy jasorat ofitser uchun zarur bo'lishi kerak edi. Shu bilan birga, u "yurish paytida nima bo'lganini bilib, sezib turishi" shart edi. Harbiy ishlarni muntazam o'rganish bilan jangovar tajribani oshirish kerak edi. Piyoda ofitseri nafaqat stroevoy□

xizmatini, balki artilleriya va fortifikatsiyani ham bilishi kerak edi.

1721-yil fevraldagi farmonida Pyotr I shunday yozgan edi: «Ofitserlar muhandislikni to'liq bilmasa ham, hech bo'lmaganda bir qismini bilishlari kerak" .

Pyotr harbiy fanlarni bilish muhimligini tushundi va har doim harbiy ma'lumotga ega bo'lganlarga ustunlik berdi. Shuning uchun armiya bilan birgalikda ofitserlar tayyorlaydigan birinchi harbiy maktablar yaratildi.

1700-yilda Preobrajenskiy polking bombardimonchi rotasida birinchi harbiy maktab tashkil etildi. Kelajakdagi artilleriya ofitserlari asosan matematika, artilleriya, o'q otish qoidalari, fortifikatsiya bo'yicha o'qitildi (bundan tashqari, otish nazariyasi amaliy mashg'ulotlar bilan to'ldirildi).

Preobrajenskiy va Semyonovski gvardiya polklari armiya ofitserlarini tayyorlash maktabi bo'lgan. Harbiy mutaxassislar artilleriya maktablari (1698-yilda ochilgan Bombardier maktabi; Moskva dala to'pchilar maktabi va boshqalar), Matematik va navigatsiya fanlari maktabi, Azovdagi dengiz maktabi, Muhandislik maktabi (Moskva to'pchilar maktabining yuqori sinfidan ajratilgan), Sankt-Peterburgdagi



Dengizchilik akademiyasi tomonidan tayyorlandi. O'zidagi professional qo'mondonlarning yetishmasligi chet ellik mutaxassislarni yollash bilan qoplandi. Ammo 1714-yilda chet el ofitserlari uchun imtihon tashkil etildi. Undan o'ta olmaganlar xizmatdan chetlashtirildi.

1701-yil yanvarda Moskvada "matematik va navigatsiya fanlari" maktabi tashkil etildi, Pyotrning so'zlariga ko'ra, u "nafaqat dengiz ishlari uchun, balki artilleriya va muhandislik uchun ham zarurdir". 1712-yilda birinchi rus harbiy muhandislik maktabi va 1715-yilda Sankt-Peterburgda Dengizchilik harbiy akademiyasi ochildi.

1722-yilda Pyotr "Harbiy Nizomga" tuzatishlar kiritdi. O'sha davrdagi ko'plab Yevropa qo'shinlarining shablonli ko'rsatmalaridan farqli o'laroq, Nizomning asosiy g'oyasini Pyotr I quyidagicha ifodalagan edi: "ustavlar tartib bilan yozilgan, ammo vaqtlar va holatlar mavjud emas, shuning uchun ustavlarga juda kuchli rioya qiling. " Pyotr qo'shinlarga tashabbus ko'rsatishga va vaziyatga qarab mustaqil harakat qilishga ruxsat berdi.

1. Бушуев С.В. История Государства Российского. М., 1994.
2. Волков В. А. История России. Конец XVII – начало XX вв. — «Прометей», 2019.
3. Ключевский В.О. Исторические портреты. М., 1989.
4. Масловский Д.Ф. Северная война. СПб., 1892.
5. Павленко Н.И. Петр Первый. М., 1991.
6. Платонов С.Ф. Полный курс лекций по русской истории. М., 1999.

Nurmatov Nurali O'tkir o'g'li - Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti 2-kurs magistranti, tel: +998975771309. E-mail: nurmatovnurali07@gmail.com

Adabiyotlar



CHO'LPON SHE'RIYATI – MILLIY UYG'ONISH DAVRI MAHSULI

Arapova Dilnoza

*Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani
24- umumta'lim maktabi*

ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada erk kuychisi bo'lmish Cho'lpon ijodi haqida bayon qilinadi. Uning she'rlari milliy uyg'onish davri mahsuli ekanligi bir nechta she'rlari misolida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon ijodi, she'riyat, mafkura, mustamlakachilik, ramziy timsollar, adabiyot.

Cho'lpon ko'proq she'riyatda ijod qildi va bu borada o'zbek she'riyatining qaddi-bastini yanada yuksaklikka ko'targan, unga yangicha shakl va mazmun, yangicha ohang hamda libos kiydirgan shoir sifatida mashhur bo'ldi. Cho'lponning birinchi she'rlar to'plami "Uyg'onish" 1922- yilda bosilgan. Shundan so'ng birin-ketin "Buloqlar", "Tong sirlari", "Soz" kabi to'plamlari

e'lon qilindi. "Jo'r" deb atalgan she'riy kitobi qamalishi munosabati bilan dunyo yuzini ko'rmadi, iza yo'qoldi.

Cho'lponning "Xalq", "Go'zal", "Ko'ngil", "Kuz", "Binafsha", "Buzilgan o'lkaga", "Men va boshqalar", "Qo'zg'olish", "Aldanish", "Erkinlik istagi" singari o'nlab she'rlarida erk tuyg'usi, istiqloq umidi yorqin ifodalangan. Bular orasida ayniqsa, "Aldanish" va "Erk istagi" she'rlari g'oyat ibratlidir. 1922-yilda yozilgan har ikkala she'rning sarlavhasidan ham ayon bo'lib turibdiki, shoir mafkura tuzog'ida besh yil joni qiynalganligini angladi, uning barcha orzulari sarob bo'lib chiqdi:

Men uni xayoliy, totli bir sevish,

*Ilohiy bir muhabbat, ishq bilan
sevdim.*

*Besh yil, shuning uchun besh yil
anglayish,*

Yonish, kuyishlarim... oh, endi bildim.

Shoir ona yurtining begona qo'l tegmagan momiqdek bo'yniga istibdod zanjiri yanada qattiqroq tortilganligini anglab yetdi. Endi:

Erkin ko'nglim chiday olmas bu siqiq,

Bu bog'langan, bu "egalik" turmushda



deya hayqiradi Cho'lpon va bu "tor qafasdan o'zini qutqargali" urinayotgan, intilayotgan xalqini mustamlaka kishanlarini parchalab tashlash uchun qo'zg'olishga chaqiradi. Endi erkinlik istagidan o'lsa ham qaytmaydi:

Ey! Sen meni haqir ko'rgan, tuban degan afandi!

Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzilur.

Yigirmanchi yillarda yaratgan she'rlarida Cho'lpon mustamlakachilik timsoli sifatida "kishan" obraziga ko'p murojaat qiladi. Uning zang bosgan halqalaridan azob chekayotgan xalqini qo'zg'olishga chaqiradi. San'atkorning barcha she'rlari, hikoya va maqolalari, roman hamda dramalari o'quvchiga ozodlik tuyg'ularini singdirishga boy ozuqa bera oladigan asarlardir. Ularni o'rganish, tahlil etish jarayonida yosh avlod ongida mustaqil Vatanga cheksiz muhabbat uyg'otish mumkin. Ular mazmunan bir-birini to'ldiradi, boyitadi, istiqloq dardi biridan ikkinchisiga kuchayib boradi, ozodlik to'lqini po'rtnaga aylana boradi. Ko'rinadiki, she'rda qo'llanilgan har bitta badiiy unsur katta ijtimoiy ma'no tashiydi. Undagi har bir bayt tugal bir manzaradir. Tabiatning rangin lavhalari o'quvchi ko'z o'ngida quyuqlashib, hayotning aniq suratiga aylanadi va bu

manzara uni dahshatga soladi, qalbida ichki bir tug'yon paydo qiladi. Kuzning o'ziga xos belgilari, ranglari, ko'rinishi haqida o'quvchilar va talabalar bilan suhbat jarayonida aniq tasavvur hosil qilingandan keyin Sharq, G'arb, Bo'ron, Yoz, Kuz, Qarg'a, Qish kabi talay ramziy timsollarning ijtimoiy ma'nosini tushunish xiyla osonlashadi. She'rning so'nggi ikki misrasi juda katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shoir:

Butun borliq chog'i o'chish oldida,

Sovuq... qora qishga ko'chish oldida...

der ekan, istibdod iskanjasida so'nggi nafasini olayotgan Turkiston Sharqining ertasidan dahshatga tushadi va bu qismatdan o'quvchini ham ogohlantiradi.

Axir, bundayin dilrabo, bundayin bebaho, yulduz tushida ko'rib oshig'u shaydo bo'lgan, shamol bir marta ko'riboq aqlu hushini yo'qotib, "tog'u toshlar ichra istab" yuradigan, quyosh esa o'ngida ko'rib ishqida kuygan "Oydan-da go'zal, kundan-da go'zal" ("Go'zal" musaddasi) Vatanni yer sharining qaysi nuqtasidan topib bo'ladi?! Shuning uchun ham uni asrab qolish sharToshkent Xalq bunga qodirdir, faqat uni o'z kuch-qudratiga ishontira bilish darkor. Chunki:



Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o'chdir. ("Xalq")

Ammo uning qudratini so'ndirmoqdalar, oloviga suv purkamoqdalar, qullikka, mutelikka o'rgatmoqdalar, taqdirga tan berishga majbur qilmoqdalar. Natijada bu xalq kishan bilan oshno tutinishga ko'nikyapti, isyonkorlik ruhi tobora so'nib boryapti, faryodni unutmoqda. Shoir uni xushyorlikka chaqirib hayqiradi:

Ko'ngil, sen bunchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding?

Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen muncha sustlashding? («Ko'ngil»)

Ayniqsa, ushbu she'rning oxirgi bandiga alohida urg'u berish lozim bo'ladi. Bir vaqtlar ingliz mustamlakachilariga qarshi istiqlol bayrog'ini ko'tarib chiqqan Bengal shoiri Nazrul Islom mazlum xalqiga «Tug'ilgansan ozod, mangu ozod bo'lib qol!» deb murojaat qilgan edi. Bu daovatni qalbiga jo qilib kurashga otlangan hind xalqi oxir oqibat yurtini bosqinchilardan xalos etdi. Cho'lpon

ham xalq istagi o'lkani ozod qilish ekanligini anglab, unga:

Tiriksan, o'lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsan.

Kishan kiyma, bo'yin egma

Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!

deya murojaat qiladi. Shoirning "Buzilgan o'lkaga" (1921 yil, Andijon) she'ri o'sha davrda ham, keyin ham katta shov-shuvlarga sababchi bo'ldi. Cho'lponning boshiga ko'p qora kunlar ham aynan mana shu she'r tufayli tushdi. Chunki unda shoir o'zbek tuprog'ida ro'y berayotgan fojiali voqealarni ro'y-rost tasvirladi. O'lkada amalga oshirilayotgan nohaqliklar, adolatsizliklar, zo'ravonliklar Cho'lponning yangi hukumatdan kutgan umidlarini puchga chiqardi. Haqsizlikka qarshi ko'tarilgan xalq farzandlari ayovsiz jazolandi, boscachilikka qarshi kurash bahonasida mehnatkash omma boshiga ne-ne qora kunlar solindi. Shoirning "Buzilgan o'lkaga" deb atalgan she'ri sarlavhasidan tortib oxirgi misrasigacha mustamlakachilarning qabih siyosatini buyuk bir jasorat bilan fosh etib tashlaydi.

1927-yili tuzum mafkurasilarning hujumidan Cho'lponni himoya qilishga urungan tirishqoq va bilimli bir so'z



bilan aytganda hassos shoir Muso Toshmuhamedov Oybek quyidagi fikrlarni bildirgan edi. “Cho’lpon yangi adabiyotda yangi narsalarni yaratdi. Muvashshah adabiyoti o’rniga bu kunning badiiy zavqiga yarasha yoqimli go’zal she’rlarni o’rtaga chiqardi. Bugungi yosh uning sodda tilni totli uslubini texnikasini ko’p sevadi. Undan ko’p go’zalliklar oladi”¹⁵.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliyev A. Ma’naviyat qadriyat va badiyat. T.: “Akademiya”, 2000, 476-bet.
2. Aymatov A. Abdulhamid Cho,,lpon – qatag,,on davri qurboni // Falsafa va huquq. – Toshkent, 2009.
3. Aymatov A. Cho,,lpon - estetik g,,oyalar mutafakkiri // O,,zMU xabarlari. – Toshkent, 2009.

¹⁵ Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiyat. T.: “Akademiya”, 2000, 476-bet.



BOSHLANG'ICH SINIF SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH - MUSTAQIL FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Dadabolayeva Oqilaxon Saydalievna,

*Kasimova Dildoraxon Bóriboyevna,
Andijon viloyati Xo`jaobod tuman 31-
maktab boshlang`ich sinf o`qituvchilari*

Annatotsiya: Maqolada o`quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi pedagoglar tomonidan maxsus turdagi topshiriqlar, mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali ro`yobga chiqarilishi va ularning samaradorligi muayyan mezonlar yordami bilan amalga oshirilishi, maktablarda o`quvchilar darsliklarda berilayotgan ma`lumotlarni yodlashlari kerak emas, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishimiz kerakligi yoritilgan.

Kalit so`zlar: mustaqil fikrlovchi, axborot texnologiyalari bozori, iqtidor.

Hozirgi kunning talabi barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash bo`lib, ta`lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, o`quvchilar bilan ishlashning yangi yo`nalishlarini ishlab chiqish va noan`anaviylikka

intilishni taqazo etadi. Shunga ko`ra, kichik yoshdagi o`quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maqsad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta`lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo`lishini talab etadi. Ana shunday yangi texnologiyalardan biri o`quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishdir.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida tanqidiy fikrlash orqali, mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, o`z g`oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga, mantiqiy tafakkur qilaolish salohiyati, dunyoqarashi, o`z-o`zini anglash, kommunikativ savodxonligi, go`zallik va nafosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan sog`lom bo`lish, milliy urf-odatlarini o`ziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari rivojlantiriladi. Bu o`z navbatida kichik yoshdagi o`quvchilarning bilimlarni chuqur o`zlashtirish va amalda to`g`ri qo`llay olishlarini ta`minlaydi. Shunga ko`ra, boshlang`ich sinf o`quvchilarini tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun darsning maqsadini aniq, pedagogik texnologiya asosida loyihalab olish muhim ahamiyatga ega.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining muayyan jihatlari quyidagi asoslarga tayanadi:

o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;

o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;

ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish;

o'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;

amaliyot orqali o'rganish;

ikki tomonlama fikr-mulohazalar almashinuvini tashkil qilish;

o'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish; o'quv jarayonini baholash;

O'quvchilarning amaliy, ijodiy, mustaqil ishlari, imkon qadar individual bo'lishi uchun sharoit yaratish talab etiladi.

Bunda ish turlarini muntazam o'zgartirib turishga qulay vaziyat vujudga keltiriladi.

O'quvchi faoliyatining har xil turlarini uyg'unlashtirish zaruriyati, hamda barcha faoliyat turlarining muvofiqlashtirilishi ularda rang-barang tipdagi talablarning hosil bo'lishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. Shu bilan birga o'z-o'ziga talabchanlik va mas'uliyat hissini tarbiyalaydi.

O'quv-biluv jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi ko'pqirrali faoliyatni vujudga keltirib, bir turdagi faoliyatning ikkinchi turdagi faoliyatga o'tib turishi jarayonida har bir o'quvchida o'zining shaxsiy, aniq maqsadini belgilab olish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayni shu maqsad o'quvchilarda mustaqil, ijodiy faoliyatga kirishish uchun zamin yaratadi va ularda qat'iy harakat dasturini ishlab chiqishga asos bo'ladi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi pedagoglar tomonidan maxsus turdagi topshiriqlar, mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali ro'yobga chiqariladi va ularning samaradorligi muayyan mezonlar yordami bilan amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayoni to'laqonli tarzda o'quvchiga yo'naltirilsa, uning ehtiyoj va imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidorini hisobga olgan holda muayyan tamoyillar asosida tashkil etilsa, bunday ta'lim natijalari, birinchi navbatda, o'quvchi shaxsining o'zini, shu bilan bir qatorda, davlat, jamiyat hamda fan va ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi omil darajasiga ko'tariladi. Ta'lim jarayoni o'quvchilar tomonidan tanlangan turli yo'llarga moslashtirilib, takomillashtirilib borilgandagina ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga zamin yaratiladi. Ta'lim jarayoni o'quvchilarda



tanqidiy fikrlashni shakllantirishga zamin Temp va ritm. Olamda hayot mavjud yaratish uchun ko'proq o'qish darslari va ekan "hayot bor joyda harakat bor, unda ikki haftada bir o'tiladigan sinfdan harakat bor joyda- qimirlash, qimirlash tashqari o'qish darslarining roli benihoya bor joyda ritm bor". Demak, hayot va kattadir. mehnatni ma'lum temp va ritmsiz tasavvur etish mumkin emas. Mehnat ma'lum bir me'yor da takrorlansa, inson aslo charchamaydi. Shuning uchun ham mehnat jarayonida tovushlar ohangi ish-harakatga hamohang bo'ladi.

Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi – o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalashdir. Maktablarda 1959 yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari o'qish darslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarning tasavvur va tafak kurlarini, og'zaki va yozma nutqi, ifodali o'qish malakalari, lug'at boyligi rivojlantiriladi. O'quvchi har bir yangi asar bilan tanishish jarayonida, uni mazmun-mohiyatini tushunishi uchun nutqi ravon bo'lishi, ifodali o'qishi, nutq texnikasini egallagan bo'lishi zarur.

Intonatsiya. Ma'lumki, nutq tafakkur ma'sulidir. Kishi fikri yoki maqsadini ikkinchi bir kishiga so'zlar vositasida yetkazib, o'zaro fikr almashadi, kayfiyatini ifodalaydi. Fikr tuyg'ular, maqsad-intilishlar, his-xayajonlar boshqalarga ovoz tovlani shi orqali yetib boradi. Shuning uchun ham ifodali o'qish jarayonida intonatsiyaning ahamiyati katta.

Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qishda dars beruvchi har bir o'qituvchi ana shu nazariy bilimlar yordamida bolalarni ifodali o'qishga o'rgatadi. Qo'yilgan maqsadni to'la-to'kis amalga oshirish uchun o'quvchilarni o'qish malakalarini oshirish, darslikka qo'shimcha o'qishlarini ta'minlash uchun sinfdan tashqari bolalar adabiyotlaridan unumli foydalanish, shuningdek, "G'uncha", "Gulxan" jurnallari hamda "Tong yulduzi", "Klass" gazeta materiallarini o'qish, so'ng, tahlil qilish: suhbat, mushoira, baxs-munozara, kichik sahna asosida bilimlarni namoyish qilib, quvonish, faxrlanish his-tuyg'ularini oshirish, mustahkamlash ishlari 2-3-4-sinflarda doimiy ravishda o'tkaziladi. 1-sinfdan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning Ona Vatan istiqlol, milliy qadriyatlar haqida tasavvur-tushunchalari kengaytiriladi.



Bolalarbop kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchi o'qib, tanishtiradi va o'quvchilar bilan tahlil qilish orqali ularda badiiy asarlarga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradilar. O'quvchilarga o'qitish orqali o'qish malakalarini mustahkamlaydilar. 1-sinfda bolalarning o'qish malakasini takomillashtirish bilan birga badiiy kitoblardan unumli foydalanish, mustaqil o'qish ko'nikmasini hosil qiladilar. Ya'ni, bolalar badiiy adabiyoti bilan ishlash, tanish kitoblarning nomini, muallifini aytish, o'zlari qiziqqan kitoblarni tanlab, ular ichidan o'qish uchun matn ajratish. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar tanlash, ular orasidagi bog'lanishni so'zlab berish. Asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab, idojiy rasm ishlash. Fikrni yakunlash va ularni tanqid ostiga olish uchun mos maqollar topish va yod olish. O'qish jarayonida o'quvchilarning adabiy talaffuz normalariga rioya qilishlari talab qilinadi. 1-sinfda o'quvchilarni o'qishga o'rgatishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich o'qish malakalarini takomillashtirish;

bolalarning o'qigan asarlarining adabiy estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularda tasvirlangan voqea-hodisalar mag'zini chaqish, muayyan xulosalar

chiqarishga tayyorlash; o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish;

Bu vazifalar dasturda berilgan badiiy, ilmiy-ommabob asarlar, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida amalga oshiriladi. 2-sinf o'quvchilari kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining topshirig'i va yordami asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. O'quvchilar badiiy asarlar bilan tanishish orqali o'qish texnikalari shakllan tiriladi va adabiyotga bo'lgan qiziqishlari orttiriladi. Bundan tashqari, o'quvchilarga turli bolalar uchun nashr qilinayotgan "G'uncha", "Bilag'on", kabi gazeta va jurnallar bilan tanishtirish va ularda chop etilgan krossvord, matn, she'r va boshqa turdagi qiziqarli topshiriqlarni o'qib, echittirish, ularda berilgan qiziqarli hangomalar asosida sahna ko'rinishlar uyushtirish orqali ularning intellektlari oshiriladi. 3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommaviy asarlar tavsiya etiladi. Bu sinflarda o'quvchilar nutq texnikasini deyarli to'liq egallab bo'lgan bo'ladilar. Shunga ko'ra, tanlanayotgan asarlar ham, matbuot nashrlari, ya'ni gazeta va jutrallar ko'lami, turlari o'quvchilarni



yoshi, malakalariga ko'ra tanlanadi. 3-4-sinflarga kelib, o'quvchilar o'zbek va jahon bolalar adabiyotlaridan asarlar tanlab, "Tong yulduzi" kabi gazeta va "Gulxan", "Dono", "Boychechak", "Bilimdon" kabi jurnallardan foydalanib, ularda berilgan materiallar bilan mustaqil o'qish, sinfda jamoa bo'lib tani shish va muhokama qilish, ular asosida sahna ko'rinishlar uyushtirish, shu gazeta va jurnallarda o'zlarining ijodlari bilan qatnashishlarini uyushtirish orqali o'quvchilar tashqi olam, o'z tengdoshlarining ijodlari bilan yaqindan tani shibgina qolmay, ijodiy malakalarini ham oshiradilar. O'quvchilarni ijodkorligini va adabiyotga, kitob o'qish va uni to'g'ri tanlashni o'rgatish bilan savodli kitobxonni, ya'ni kitobni sevuvchi va uni o'qishga intiluvchi shaxslar tarbiyalanadi. Sinf dan tashqari o'qish darslari orqali o'quvchilar tashqi hayot, hayvonot olami, tabiat hodisalari, yurtimizning tarixiy va zamonaviy ko'rinishi, xalqi mizning hayot tarzi, milliy qadriyatlar va milliy urf-odatlar kabi tushunchalar haqidagi to'liqroq ma'lumotlarni ham ana shu darsda egallaydilar. O'quvchilarni kasbga, ijodga yo'naltirish va ular iqtidorlarini ochish, mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlash kabi murakkab vazifalarni yechishda ham, ushbu darslarning ahamiyati juda katta. Shu bilan birga eng

avvalo, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarni badiiy adabiyotlarni tanlash, o'qish, ularni saqlash va asar ustida ishlash kabi malakalari rivojlantiriladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondoshish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib boril sagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllan tirishga xizmat qiladi.

Jamiyatimiz buyuk o'zgarishlar tomon yuz tutgan bugungi davrda erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsini tarbiyalash uchun ta'lim — tarbiya jarayonini o'zgartirish muammosini qo'ydi. Bu biz o'qituvchilardan o'qitish emas, o'qishga o'rgatish tizimiga o'tib, yangicha malaka, ijodiy faoliyat tajribalari ma'lum tizim doirasida kechadigan pedagogik jarayon mahsuli bo'lgani uchun ham bugungi kunda ijodkorlik, bilish faoliyatini ilmiy asosda boshqarish, shaxs psixologiyasini e'tiborga olgan holda o'zini-o'zi boshqarish tizimiga o'tish, qisqasi yakuniy natijaning samaradoiligiga erishish, bugungi kunning dolzarb



muammosidir. O'qituvchining o'z amaliy faoliyatida ijodiy ishlaganda ba'zi bir muammolarni yechishga noan'anaviy yondashadi. O'qituvchining yangi usuli, yo'l vositalarini qo'llaydi, yoki, boy tajribalaridan ijodiy foydalanadi. Amaliy faoliyatidagi ijodkorlikning yuqori darajasi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning yangi, yuqori va samara majmuasini yaratishdir. O'z faoliyatida dars o'tishning turli usullaridan foydalanib, zamonaviy darslarni tashkil etadi. Barkamol avlodni voyaga etkazish, ular ma'naviyatini kamol toptirish maqsadida ta'lim sohasidagi olib borilayotgan o'zgarishlar, yangi texnologiyalar, interfaol metodlar boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda ham o'z aksini topyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Safarova va b., Savod o'rgatish darslari, Toshkent, Ma'naviyat, 2003.
2. Abdullayeva Q, Nazarov K, Savod o'rgatish metodikasi, - T.: O'qituvchi, 1996.
3. Abdullayeva Q. va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" - T.: O'qituvchi. 1996-yil, 18-bet.

4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- T.: O'qituvchi. 2006-yil, 103-bet.
5. Nishonova Z. O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiya. O'quv qo'llanma - T.: Sharq, 2003. 39-bet.



OILADA FARZAND TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Danabayeva Kamila

Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika psixologiya yo'nalishi

1- kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Barkamol inson haqida, uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti haqida g'amxo'rlik jumxuriyatimizning asosiy maqsadidir. Inson o'ziga hos xususiatlari uning mehnatga, ma'naviy, g'oyaviy va madaniy boyliklarga munosabatining asoslari oilada shakllanadi. Jamiyat mustahkam, ma'naviy va ahloqiy jihatdan sog'lom oila bo'lishidan manfaatdordir. Shu sababli jumxuriyatimiz oilani mustahkamlashni, bolalar tarbiyasi, shuningdek, ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashda yordam berishni davlat ahamiyatiga molik ish deb biladi. Keyingi yillarda respublikamiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va yo'l-yo'riqlarda xalqimizning ijtimoiy-madaniy yuksalishini ta'minlovchi fikrlar, tavsiyalar berildiki, bular

respublikamizning asosi – oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynamoqda. Chunki oilalarning har tomonlama yuksalishi, ta'bir joiz bo'lsa, jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma'noda 1yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti muhim masaladir. Ikkinchi tomondan, jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi ham kun sayin ortib bormoqda. Zotan, ota-onalarning bolalar tarbiyasi yuzasidan ma'suliyatini kuchaytirish, tarbiyalashga oid layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Kalit so'zlar: Ota-ona, bola, tarbiya, muammo, yechim.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan iste'dodli olimlar, muhandis-tirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste'dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo'l bilan berilgan barcha imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi uchun harkanday sharoit maydonga kelganligini dalili bo'la oladi. Insoniyatni komil inson qilib, ularni baxtli etgan, yuksaklikka yetaklagan bu - yaxshi tarbiyadir. Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy-



axloqiy tarbiyalashda, xalqning boy milliy-ma'na viy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga iamdada unutilmas qadriyatlariga asoslanib tashkiliy ijtimoiy mehnatsevarlik, jangovorlik, axloq-odob, – psixologik shakldagi vositalarni ishlab nafosat, do'stlik, mehr – shafqatlilik, chiqish va uni amalda joriy etish borasidainsonparvarlik xislatlarini shakllantirish soha mutahasisslridan yanada va o'stirish sohasidagi aql – idroki va mas'uliyat talab etadi. Inson shaxsining usullari o'sha davrdagi hayotiy kamol topishi juda murakkab va uzluksiz tajribaning mevasi sifatida ijtimoiy jarayon davomida shakllanadi, uning hayotga bog'liq holda shakllandi va tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, rivojlandi. Bola, asosan, oila muhitida do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. muhit, ommaviy axborot vositalari, Tarbiya esa hayotning eng muhim san'at, adabiyot, tabiat va boshqalar tergagi, ya'ni tayanchi hisoblanadi. Har bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi bir bolani shunday tarbiyalash lozimki, u, barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga avvalo, yaxshi o'qishi va so'ngra esa, keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir yozishni o'rganishi bilan eng yuksak doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va pog'onaga ko'tarilsin. Ma'lumki, tarbiyaning birligini ta'minlash katta sharqning buyuk allomalari ta'lim va ahamiyatga ega. Tarbiya kishilik jamiyati tarbiya masalalariga alohida e'tibor paydo bo'lishi bilan boshlandi va berishgan. Abu Ali Ibn Sino ham mazkur rivojlanib bordi. Bola tug'ilishi bilan ustuvor masalalarga doir bir qancha ota-onasining parvarishi orqali atrof asarlar, o'zidan boy ilmiy meros muhit bilan tanishadi. Insonning shakllan qoldirgan. Ibn Sino bolani maktabda ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan o'qitish oila jamiyatning asosiy instituti muhitdan ya'ni ichkilikbozlik, hisoblanishi, u tarbiya o'chog'i sifatida giyohvandlik, kashandalik va boshqa shaxsning shakllanishida muttasil illatlardan himoya qilish esa nihoyatda ishtirok etadi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini murakkab jarayon. O'zbek halqining ta'minlanishida undagi ijtimoiy yosh avlodni hayotga tayyorlashda psixologik muhit, shaxslararo qo'llagan usul va vositalari, tadbir munosabatlar, sub'ektlarning kamolot shakllari, o'ziga xos urf-odati va darajasi belgilaydi. Agar rollar, status va an'analari, tarbiya g'oyalari va hayotiy o'zaro hamjihatlik inqirozga yuz tutgan tajribasi yillar davomida



holatda oiladagi psixologik muhitni tasavvur qilishni o'zi murakkabdir. Oilada shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Albatta, bu holatni asoslovchi omillarni tadqiq qilishda quyidagicha yo'l tutishni lozim topdik: Hozirgi zamon oilalarida inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritish. Oilada shaxslararo munosabatlarda tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari (fenomenlari)ni ochib berish. Zamonaviy oilalardagi ijtimoiy psixologik muhit, u bilan jamiyatning o'zaro uyg'unligi, sub'ektlarning maqsad va maslaklarining birligi, qadriyatlar darajasining saqlanayotganligi, etnik va madaniy muhitning undagi munosabatlarda saqlanishi, avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlarga barham berish, ijtimoiy kutishlar, rollar taqsimoti so'zsiz inqirozlarni oldini olishga puxta zamin hozirlaydi. Bugungi kunda oila muammosiga aloqador masala uning barqarorligini ta'minlash, undagi inqirozli holatlarni bartaraf etish choratadbirlarini ishlab chiqishga davat etadi. Oilada bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida, mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmog'i uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamog'i kerak. Ana o'shanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqati borligi namoyon bo'ladi. fiziologik va psixologiya fanining ko'rsatilishicha inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatni ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potensial imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi. Tug'ma layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u «mudroq» holatda bo'lib, uning uyg'onishi rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib, rivojlanishi, aksincha bu bo'lmasa yo'q bo'lib, ketishi mumkin. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammosi insoniyat oldida turgan eng muhim muammollardan biridir. U o'zida jismonan sog'lom, aqlan barkamol yangi avlodni voyaga yetkazishni, kishilarning mehnat qilishi, dam olishini va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishini to'g'ri tashkil etishni, oqilona hayot kechirishi mujassamlashtiradi. Shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-gigienik, ma'naviy jihatlarni har tomonlama o'rganish, vujudga kelgan haqiqiy ahvolni hisobga olib tadqiq etish davr talabidir. O'zbekiston aholisining hayot tarzini oiladan tashqarida tasavvur qila olmaymiz, shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirish bevosita



oilaga, oilaviy hayot tarziga, «oila-tabiati-farzandlarning kelajagi qanday bo'ladi jamiyat-inson» tizimiga bog'liqdir. Zero, degan savol sog'lom fikrli jamoani sog'lom turmush tarzi va oilaning tashvishlantirmay qo'ymaydi. Oilada farovonligi iqtisodiy va ma'naviy sog'lom muhit-turmush tarzini omillar bilan belgilanganda edi, u vaqtda barqarorlashtirish, farzandlarni barkamol aholining moddiy farovonligi oshgan etib tarbiyalash, oilaning tarbiyaviy va sayin, sog'liqni saqlash, uy-joy bilan ijtimoiy rolini bajarishda fuqaroliy ta'minlash masalasi to'la hal etilganda ma'suliyatini oshirish lozim. Oilani, sog'lom turmush tarzining barqarorligini onalar va bolalarni muhofaza etishning belgilovchi barcha o'z-o'zidan hal kuchli ijtimoiy tizimini yaratish va bo'lgan vajamiyat uchun nomaqbul amalga oshirish zarur. 1 Oilada sog'lom bo'lgan hodisalar ham yo'q bo'lib ketgan farzandlarni voyaga yetkazishda oila bo'lar edi. Mustaqillik sharoitida oilada byudjetini to'g'ri taqsimlash va oiladagi sog'lom turmush tarzini shakllantirish bolalarning moddiy va ma'naviy oilalarning ma'naviy-ruhiy tiklanishi va ehtiyojlarini qondirish kata ahmiyatga poklanishi muammolariga ham alohida ega. Oilaning moddiy farovonligi bolalar ahamiyat berishni taqozo etadi. Chunki sog'lig'i va ularning sog'lom turmush ma'naviyatning yuksakligi oilada tarzida o'z aksini topadi. 2. Ovqatlanish sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning muhim omilidir. uminsoniy va milliy tajribalardan Ovqatlanish bizning hududimiz foydalanib madaniy hayot kechirishni, bu sharoitida g'oyat kata o'rin tutadi. sohada me'yorga rioya etishni talab Chunki vitaminlar yetishmaydigan, qiladi. Shuningdek, sog'lom turmush kimyoviy tarkibi past, sifatsiz ovqatlarni tarzining shakllanishiga sho'rolar iste'mol qilish, ularning miqdori davridagi oila-nikoh munosabatlari, jihatidan ham nomunosibliigi aholi ekologik, demografik, ruhiy oqibatlar vash u kabilar o'z ta'sirini ko'rsatmasdan salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 3. qolmaydi. Jumladan, sho'rolar davrida Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish o'zga mafkura ta'sirida kirib kelgan kishilarni, ayniqsa yosh avlodni sog'lom barkamol bo'lib vochga yetishiga, giyohvandlik, ichkilikbozlik, ota-onalarning ahloqiy-ma'naviy buzuvchiligi salomatligini mustahkam, ruhiyatini natijasida nosog'lom hayot yaxshilashga olib kelishidan tashqari, kechirayotgan oilalar hozir ham topiladi. kishilardahayotda to'laroq va faolroq Bunday oilada tarbiyalanayotgan ishtirok etishga, o'zlarining bo'sh



vaqtidan unumli, yaxshi foylana bilishiga ham imkon beradi, ijtimoiy faollikning boshqa shakllari rivojlanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahliddinov R. «O'zbek oilasi fazilatlari» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent 1998 y. 1-son, 51-56 b.
2. Inomova O. «Farzand-nihol, ota-ona bog'bon» Toshkent, «O'qituvchi» 1994 y
3. Inomova O. «Oila tarbiyasida milliy xususiyatlarni hisobga olish» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 2004 y, 5-son, 56-58 b.
4. . [http: www.lib.psichology.msu.ru](http://www.lib.psichology.msu.ru)



YAPON ADABIYOTIDA XVII ASR SHAHAR ADABIYOTINING VUJUDGA KELISH TAMOYILLARI.

Egamova Kamola Akmal qizi

*TDSHU yapon adabiyoti yo'nalishi 2-
kurs magistranti*

Annotatsiya: XVII asr shahar madaniyati ulkan yo'lni bosib o'tdi. Barcha san'at asarlarining katta qismi tobora yangi auditoriya- shahar aholisi uchun mo'ljallana boshladi. Asarlar ularning hayoti, qiziqishlari, tashvishlari, xohish-istaklari tasvriga bag'ishlanar edi. Shahar hayoti, unda istiqomat qiluvchi va o'z tashvishlariga bilan band bo'lgan insonlar san'at predmetiga aylandilar. Mazkur maqolada shahar adabiyotining vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalq savodxonligi, Genroku davri, gumanizm, ukiyo-e suratlari, ukiyo-zoshi adabiyoti

Yaponiya hayotida XVII asr murakkab davr bo'lib, o'rta asrlardan yangi davrga o'tishdagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Boshqa Uzoq Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi, Yaponiyada ham bu davr ijtimoiy-madaniy hayotda yuz bergan bir qator yangi hodisalar, adabiyot sohasida

kuzatilgan jiddiy siljishlar bilan izohlanadi.

XVII asr boshida kuchli markaziy hokimiyat o'rnatilgach, Yaponiyada yuz yildan ortiq davom etgan o'rta asrlar hokimiyat uchun ichki kurashlar davriga barham berildi. Mamlakatda tinchlik o'rnatilgach Yaponiyada shahar

sivilizatsiyasi tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Ijtimoiy hayot maydoniga shahar aholisi- hunarmand va savdogarlar keldi.

Feodal qonunlarga ko'ra tabaqalashtirish zinapoyasiyasining eng quyi pog'onasida turuvchi bu qatlam endilikda tobora mamlakat hayotida sezilarli rol o'ynay boshladi.

XVII asrga kelib yapon madaniyati sezilarli darajada demokratlashdi. Mamlakat tarixida ilk bor keng shahar aholisi qatlamiga ham madaniyat va maorif sohasiga kirishga ruhsat berildi.

Xalq savodxonligining oshishi kitoblarga bo'lgan ehtiyojning ham ko'tarilishiga olib keldi. Bu davrga qadar necha asrlar davomida kitob chop etish buddizm dini vakillari qo'lida bo'ldi. Kitob chiqarish ko'p mehnat va mablag' talab etardi, shu sababli esa bu ish bilan faqatgina katta ibodatxonalar shug'ullana olar edi. Bu albatta chop etilayotgan adabiyotlar tarkibiga katta ta'sir o'tkazar, asosan,



buddizm matnlari va ularga sharxlar chop etilardi. XIV asrdan boshlab esa kitob chop etish ibodatxonalarning monopol hukmronligidan chetlashib asta zodagonlar qo'liga o'tdi. XIV-XVI asrlarda kitobga bo'lgan talab shu darajada ortdiki, ksilografik usulda yuzlab nusxalarda chop etishga to'g'ri keldi. XVI asr oxirida esa ksilografik usul o'rnini harakatlanuvchi shrift egalladi va kitob bosmasi bir necha barobar ko'paydi.¹⁶

XVII asr shahar madaniyatining eng rivojlangan pallasi Genroku davriga (1688- 1704, yoki XVII asr oxirgi choragi - XVIII asr birinchi choragi) to'g'ri keladi. Ana shu yorqin va takrorlanmas bir davrda bir-birlariga ilhom bag'ishlab Yaponiyaning buyuk iqtidor egalari ijod qildilar. Bular: nosir Ixara Saykaku, dramaturg Chikamatsu Monzaemon, shoir Matsuo Basho, yog'ochga gravyura ishlash ustasi Xishikava Moronobu, rassom Ogata Korin, xaykaltarosh Enku.

Genroku davriga "yapon Uyg'onish davri" sifatida qarash an'anasi mavjud. N. I. Konrad XVII-XVIII- asrlarni

"yapon ma'orif davri" deya ataydi¹⁷. V. Markova va I. Lyvova "Genroku davridagi yapon madaniyati o'zida kechki Uyg'onish davri va maorif davri elementlarini jamlagan" deya hisoblaydilar.¹⁸

T. P. Grigoryeva Genroku davri haqida so'z yuritar ekan, unga "yarim yo'lda to'xtagan Uyg'onish davri" deya baho beradi. Uning fikriga ko'ra, obyektiv shart-sharoitlar uchinchi qatlam vakillari madaniyati rivojlanishiga yo'l ochib, Yaponiyada Uyg'onish davri gullab yashnashiga imkon paydo qildi, ammo bu imkon haqiqatga aylanmadi. Faqatgina bunga zamin yaratish bilan kifoyalaniildi: shaharlar rivojlandi, uchinchi qatlam vakillari uyg'ondi, millat ta'lim darajasi ko'tarildi. Ammo to'laqonli Uyg'onish davri yuz berishi uchun boshqa kerakli unsurlar yetishmas edi. Bular shaxsiy erkinlik, Uyg'onish davri gumanizmiga o'xshash madaniy harakat yuz berishiga imkon beruvchi davlat boshqaruv shakli kabilar edi.¹⁹

¹⁶ Китай. Япония. История и филология. Статья В.С. Гривнин. Начало книгопечатания в Японии.— М.:Опубликована в Проблемы периодизации истории Изд-во восточной литературы, 1961. — 333 с.(316,литератур народов Востоке – М.: Наука, 1968, с. 182. 320стр)

¹⁷ Н. И. Конрад «История современной японской литературы», М., 1961, стр. 340,344,349

¹⁸Маркова В., Львова И. Мондзаэмон Тикамацу. Драммы. М., 1963., стр. 24

¹⁹ Т. П. Григорьева. Возрождение остановившееся на полпути (О периоде Гэнроку в Японии)) Статья. Проблемы периодизации истории



O'rta qatlam uchun mo'ljallangan adabiyotning tobora rivojlanishi boshlanishiga bir qancha omillar sabab bo'ldi. Avvalo zodagonlar adabiyotining juda cheklangani sababli uning quyi qatlam vakillariga yetib bormasligi bu ishchi qatlam uchun o'z adabiyotlarini yaratishlari uchun ehtiyoj paydo qildi. Albatta Xeyan davrida rivolanishning eng yuqori cho'qqisiga chiqqan va dunyo adabiyoti xazinasiga bebaho asarlar hadya qilgan zodagonlar adabiyotining asta so'nib borishi achinarli hol bo'lsada, aynan shu vaziyat yangi g'oyalar va adabiy shakllar yaralishi uchun zamin yaratdi.

Genroku davri yozuvchilari iqtidorli va o'z ishining mohir ustalari bo'lsalarda, zodagonlar tamoyillari bo'yicha ta'lim ko'rmagan bo'lib, o'z kitobxonlaridan alohida guruhga mansublik bilan ajralib ham turmas edi. E'tiborli jihatlardan biri shuki, bu davr san'at ustalari turlicha qarashlarga ega bo'lsalarda, ularning ijodida bir umumiylik kuzatiladi. Bu ijodda yangi his-tuyg'u va o'y-hayollarni tasvirlashga intilishdir.

Darhaqiqat, XVII asr shahar madaniyati ulkan yo'lni bosib o'tdi. Barcha san'at asarlarining katta qismi tobora yangi auditoriya- shahar aholisi uchun mo'ljallanar edi. Asarlar ularning hayoti, qiziqishlari, tashvishlari, xohish-istaklari

tasvriga bag'ishlanar edi. Shahar hayoti, unda istiqomat qiluvchi va o'z tashvishlariga bilan band bo'lgan insonlar san'at predmetiga aylandilar.

XVII asr shahar adabiy muhitni va ayniqsa Genroku davrida gullab yashnagan adabiyotni o'rganar ekanmiz, o'sha davr iqtisodiyotiga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Bu davr iqtisodiy hayotining asosiy va muhim belgisi bu o'rta qatlam, asosan, savdogarlar qatlamining kuchayishi hisoblanadi. Bu davrga qadar Yaponiya siyosiy- ijtimoiy jihatdan feodal tuzilmaga ega edi.

Feodal knyazlar- daymyolar va ularning vassallari- samuraylar katta imtiyozlarga ega harbiylar qatlamini tashkil etar va davlatni boshqarar edilar. XVII asr davomida esa savdogar, tijoratchilardan iborat yangi qatlam paydo bo'ldi. Asosan Nara, Kioto va Osakada jamlangan bu qatlam kamigata deb nomlangan. Ular ishbilarmon, tejamkor, omadli bo'lib tez orada katta kuchga aylandilar. Zero, feodal amaldorlar savdo ishlariga qiziqishmas, bu sohaga uquvlari ham yo'q edi.

Shu o'rinda Jorj Sensoning qaydlarini keltirib o'tamiz. "Shaharliklar madaniyati gullayotgan burjuaziya madaniyati bo'lib, asosan, o'yin-kulgiga



moyil edi. Ular tomonidan yaratilgan san'at o'sha davr og'zaki tilida "ukiyo-e" ya'ni "o'tkinchi hayot rasmlari" deb nomlanuvchi yo'nalish atrofida vujudga kelgan.

Bu o'tkinchi hoy-u havaslar, teatrlar, mayxonalar, tomoshaxonalar olami bo'lib, ulaning doimiy mijozlari esa aktyorlar, raqqosalar, ashulachilar, hikoyachi-yu qiziqchilar, boy savdogarlarning erkatoiy o'g'illari, kurtizankalar, sayohatchi savdogarlar, samuraylar edi".²⁰

Ana shu "quvnoq kvartallar" va ularning mijozlari hayoti ukiyo-zoshi va ukiyo-e (o'tkinchi dunyo haqidagi qaydlar va suratlar) deb nomlanuvchi ommabop roman va suratlarda aks ettirilgan. Teatr va unga yondosh sahna san'ati turlari ham ana shu quvnoq jamiyat talab va istaklariga monand ravishda rivojlanib bordi.

Shahar adabiyoti o'rnatilgan an'analar zanjirini uza boshladi. Avvallari, samuraylar tabaqasi nufuzi ortgan davrda oddiy shaharlik inson taqdiri, uning o'y-kechinmalari, ma'naviy dunyosi ahamiyatga olinmas, badiiy asar obyekt sifatida tasvirlashga noloyiq deya sanalardi. Endi esa tobora kuchayib

borayotgan uchinchi tabaqa vakillari adabiyotdan o'zlariga nisbatan e'tibor talab qila boshladilar. O'tgan asrlar harbiy-feodal eposlarida hikoya qilinuvchi samuraylar janglaridagi g'alaba va mag'lubiyatlar emas, savdosotiq ishlaridagi omad va inqirozlar; No teatri obrazlari o'ziga jo qilgan mavhum tuyg'ular emas, oddiy shaharlik inson taqdiri va his-tuyg'ulari badiiy asar syujetiga aylandi.

Genroku davri yozuvchilari o'zgarishlar davrini ochib berish maqsadida "odob-axloq masalalaridan holi" usulini tanlaydilar, kanazoshi asarlariga xos didaktik ta'limga biroz qarshi turadilar. Bu yangi dunyoqarash umumqabul qilingan qarashlardan farq qilardi.

Yuqorida qayd etganimizdek, yapon adabiyoti XVII asr davomida o'ziga xos o'zgarishlarga duch keldi. Nasriy bayonchilikda mavjud bo'lgan an'anaviy badiiy uslublar orasida tasvir obyektiga nisbatan yangicha yondashuv kurtaklari ko'rına boshlandi. Endilikda ijodkorlar e'tiborini nafaqat qahramonlarning jangovar qahramonliklari, balki ular hayotining berk, "norasmiy" tomonlari ham o'ziga jalb eta boshladi.

O'sha davrda rivojlangan yana ikki janr – mo'jizalar haqidagi novella va ishqiy qissalar poetikasida ham ko'zga

²⁰ Sansom G. B. Japan: short cultural history. L., 1932. p 466-467



tashlanuvchi siljishlar yuz berdi. Hayratga soladigan voqealarni yaratuvchituyg'u va kechinmalari, g'am-yozuvchilar XVII asr shaharlarining haqiqiy kundalik hayoti tasvirlariga ko'proq e'tibor qarata boshladilar. Hatto ba'zida kundalik hayotning mayda detallarigacha tasvirlash mo'jizaviy voqealar bayonidan ham ko'proq o'rinni egallay boshladi.

Tokugava sulolasi o'rnatgan siyosat tufayli yapon adabiyotida burjua rivojlanish yo'liga Yaponiyadan ancha oldin qadam qo'ygan va ilg'orlab ketgan mamlakatlar bilan madaniy almashuvlar ta'siri sezilmadi. Shunday sharoitda ham dunyoga yangicha ko'z bilan boqib insonlar o'rtasidagi munosabatlarga o'zgartirish kiritish lozim ekaligini anglab yetgan shaxslarning o'rni yanada qadrli va e'tiborga molikdir. Ana shunday insonlar qatorida faylasuflar Arai Hakuseki va Ando Shoeki, dramaturg Chikamatsu Mondzaemon, shoir Matsuo Basho va albatta yozuvchi Ixara Saykakuni ko'rsatmoq lozim.²¹

Xulosa sifatida aytish joizki, XVII asrga kelib yapon adabiyotida katta siljish va o'zgarishlar yuz berdi. Bu davr adabiyoti oddiy shaharlik insonlarning asar markaziga qo'yilishi bilan

xarakterlanadi. Ularning hayot tarzi, his-tashvishlari esa badiiy asar obyektiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н. И. Конрад «История современной японской литературы», М., 1961
2. Маркова В., Львова И. Мондзаэмон Тикамацу. Драммы. М., 1963.
3. Т. П. Григорьева. Возрождение остановившееся на полпути (О периоде Гэнроку в Японии)) Статья. Опубликована в Проблемы периодизации истории литератур народов Востоке – М.: Наука, 1968
4. Sansom G. B. Japan: short cultural history. L., 1932.
5. Китай. Япония. История и филология. Статья В.С. Гривнин. Начало книгопечатания в Японии.— М.: Изд-во восточной литературы, 1961.
6. Е. М. Пинус, Городская литература в Японии XVIII века и вопросы развития литературного метода. «Вестник Ленинградского университета. Серия истории языка и литературы», № 14, Л., 1960

²¹ Пинус Е. М. Предисловие. — И х а р а Сайкаку. Избранное. М., 1974. с 3



7. Кирквуд К. Ренессанс в Японии.
Культурный обзор семнадцатого
столетия М.: Главная редакция
восточной литературы издательства
«Наука», 1988.



**“ANIQ INTEGRAL YORDAMIDA
YUZA VA HAJMLARNI
HISOBLASH. AYLANMA JISM
HAJMI.”**

(Dars ishlanmasi)

**O'. Karimova. U.Eshmetova– TATU
Urganch filiali akademik litseyi
“Aniq fanlar” kafedrası matematika
fani o'qituvchisi.**

*Mazkur maqola akademik litsey va kasb-
hunar kollejarida matematika fani
o'qitish samaradorligini oshirish
masalalariga qaratilgan holda 2 soatlik
dars ishlanmasi keltirilgan.*

*В данной статье рассматривается
вопросы совершенствования
преподавания учебной дисциплины
математики в академ лицеях и
колледжах. В статье приводиться
разработка урока по этой
дисциплине.*

*In this article is examined the questions
of teacher training, academic discipline,
mathematics in academic lyceums and
colleges.*

Kalit so'zlar: *integral, egri chiziqli
trapetsiya yuzi, aylanma jism
hajmi, hosila, funksiya, kvadrat funksiya,*

Ключевые слова: *интеграл, площадь
криволинейной трапеция, объем тело
вращения, производная, функция,
квадратная функция.*

Key words: *integral, area of the
curvilinear trapezoid, volume body
rotations, differential, function, square
function.*

3-bosqich “MATEMATIKA”

Mavzu: *Aniq integral yordamida yuza
va hajmlarni hisoblash. Aylanma jism
hajmi.*

Dars jihozi: *Darsliklar, tarqatma
materiallar, texnik elektron vositalar,
doska, bor.*

Dars turi: *noan`anaviy*

Dars usuli: *piramida*

Dasrning maqsadlari:

• **Ta'limiy maqsadi:** *Aniq integral
yordamida yuza va hajmlarni, aylanma
jism hajmlarini hisoblashga oid nazariy
bilimlarni egallash va amaliyotga joriy
etishga oid ko`nikmalarni, malakalarni
shakllantirish.*

• **Tarbiyaviy maqsadi:** *mustaqil
fikrlash, keng dunyoqarashni
shakllantirish bilan dunyo
hamjamiyatiga bilimli zukko yoshlarni
tarbiyalab berish.*



• **Rivojlantiruvchi maqsad:** Ijodiy tomonidan tanlangan tartib raqamlari qobilyatni rivojlantirish, fan sohasiga oid bo'yicha olib borildi. Har bir to'g'ri javob egallagan bilimlarni kengaytirishga oid uchun talaba 1 ball bilan baholanadi. qiziqish va ehtiyojni shakllantirish, o'qitishning yangi avlod vositalariga oid bilimlarni rivojlantirish.

1-variant

1. $Y=x^2+4x+11$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping. a) 7 b) 11 d) $\frac{7}{11}$ e) $\frac{11}{7}$

2. Quyidagi funksiyalardan qaysi biri $f(x)=\sin 2x \cdot \cos x$ funksiya boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishi.

a) $-\frac{1}{2}\cos 2x \cdot \sin x + c$ b) $-\frac{1}{2}\cos x - \frac{1}{6}\cos 3x + c$
d) $\cos 2x \sin x$ e) 1

Bir lahza dilim ilmdan mahrum emas,

Dunyoning biror siri menga mavhum emas.

Naq etmish ikki yil tunu kun o'y surdim,

Ma'lum bo'ldi : hech nima ma'lum emas. a) b) 1,5 d) 2 e) 3

Umar Xayyom.

Darsning borishi:

Darsning I –bosqichi.

I.1. O'tilgan mavzu guruh talabalaridan test sinovi asosida takrorlanadi. Bu jarayon quyidagi tartibda olib boriladi. Har bir talabaga alohida test savollari kiritilgan o'quv qo'llanmalari, tartib raqam tarqatiladi va slayd yordamida ekranda namoyish qilib boriladi. Testlarga javob berish talabalar

3) $Y=4-x^2, Y=-4x+8$ chiziqlar va OY o'qi bilan chegaralangan shaklni yuzini toping.

2-variant

1. $Y=3x^2-12x-16$ funksiyaning $[3;8]$ kesmadagi eng kichik qiymatini toping.

a) -24 b) -25 d) 20 e) $\frac{11}{7}$

2. Quyidagi funksiyalardan qaysi biri $f(x)=2\cos^2 x$ funksiya boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishi.



a) $\frac{1}{2}\sin x + c$ b) $-\frac{1}{2}\cos x - \frac{1}{6}\cos 3x + c$ a) $\operatorname{tg} x - c$ b) $-\frac{1}{2}\operatorname{ctg} x - \frac{1}{6}\operatorname{tg} x + c$
d) $x + \frac{1}{2}\sin 2x + c$ e) 1 d) $\cos 2x \sin x$ e) 1

3) $Y=0, Y=\sqrt{x}$ va $x=4$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

a) $16/3$ b) 1,5 d) 2 e) 3

3-variant

1. Soddalashtiring.

$$\frac{\sin 2\alpha + 2\sin \alpha \cdot \cos 2\alpha}{1 + \cos \alpha + \cos 2\alpha + \cos 3\alpha}$$

a) $2\sin \alpha$ b) $4\operatorname{tg} \alpha$ d) $\operatorname{tg} \alpha$ e) 3

2. $Y=x^2(x-6)$ funksiyaning $[-1;3]$ dagi eng kichik va eng katta qiymatini toping.

a) 2; -4 b) 0; -27 d) 0; -32 e) 6; -21

3. Integralni hisoblang: $\int_0^6 |x-3| dx$

a) 18 b) -1 d) 12
e) 9

4-variant

1. $Y=3x^2-4x-4$ funksiyaning $[0;3]$ oraliqdagi eng katta qiymatini toping.

a) 7 b) 11 d) 20 e) 10

2. Quyidagi funksiyalardan qaysi biri $f(x)=(\operatorname{tg} x + \operatorname{ctg} x)^2$ funksiya boshlang'ich funksiyasining umumiy ko'rinishi.

3) $Y=2x^2, Y=0$ va $x=3$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

a) 18 b) 27 d) 54 e) 36

I.2. Guruh talabarlari bilan tezkor savol-javob o'tkaziladi. Har bir guruh talabasiga 2 tadan savol beriladi va berilgan javoblarga qarab rangli kartochkalar bilan rag'batlantirib boriladi.

Savollar.

1. Integral so'zining ma'nosi?

Tiklash degan ma'noni bildiradi. (lotincha integrare so'zidan olingan.)

2. $y=\sin x$ trigonometrik funksiyaning aniqlanish va qiymatlar sohasini

ayting.

Aniqlanish sohasi barcha haqiqiy sonlar to'plami,

Qiymatlar sohasi $[-1;1]$ gacha.

3. Parabola uchining koordinatasi hosila yordamida qanday topiladi?

Kvadrat funksiyadan hosila olinadi va nolga tenglab tenglama yechiladi.



Topilgan x parabola uchining absissasi funksiya ikkinchi funksiya hosilasiga, funksiyaning shu nuqtadagi qiymati uning ordinatasi bo'ladi. ko'paytiriladi va ular qo'shiladi.

4. Berilgan funksiya berilgan x_0 nuqtadan o'tkazilgan urinma tenglamasining formulasini ayting?

$$y - y(x_0) = y'(x_0)(x - x_0)$$

5. Kvadrat funksiyaning aniqlanish va qiymatlar sohasini ayting?

Aniqlanish sohasi : barcha haqiqiy sonlar to'plami.

Qiymatlar sohasi : $(-\infty; y_0]$ yoki $[y_0; +\infty)$

6. $y = a^x$ ko'rsatkichli funksiyaning aniqlanish va qiymatlar sohasini ayting?

Aniqlanish sohasi : barcha haqiqiy sonlar to'plami.

Qiymatlar sohasi: Barcha musbat haqiqiy sonlar to'plami.

7. Berilgan funksiyaning o'sish oralig'i qanday topiladi?

Funksiya hosilasining musbat qiymat qabul qiladigan oralig'i uning o'sish oralig'i bo'ladi.

8. Ikkita funksiya ko'paytmasining hosilasi qanday topiladi?

Birinchi funksiya hosilasi ikkinchi funksiya ko'paytiriladi va birinchi

9. Integralni hisoblash deganda nimani tushunasiz?

Funksiyani boshlang'ich funksiya topishni.

10. Integral hisobni hayotdagi o'rni qayerlarda ko'ramiz?

Integral hisob tabiatshunoslik va matematikaning juda ko'p masalalarni o'rganish natijasida paydo bo'ldi. Jismlarni hajmlarini topishda, yuzalarni hisoblashda, fizikadagi ayrim masalalarni yechishda, astronomiyaga oid ayrim masalalarda, ekstrimumga oid geometrik masalalarda.

11. Integralni qanday turlari mavjud?

Aniq integral va aniqmas integral.

12. Integral belgisini kim birinchi bo'lib fanga kiritgan?

Matematikada integral atamasini shveysariyalik matematik Iogann Bernulli kiritgan va shogirdi Leonard Eyler integrallashni $\int f dx$ kabi belgilashni kiritgan. Hozirgi zamon belgilanishini esa fransuz matematigi J Furrye kiritgan.

13. Leybnits haqida ma'lumot bering.



14. Integrallash deb nimaga aytiladi?

Differensiallasga teskari amal integrallash deyiladi.

15. Differensiallas deb nimaga aytiladi?

Berilgan funksiyadan hosila topish amali shu funksiyani differensiallas deyiladi.

16. Sinusdan olingan hosila nimaga teng?

Kosinusga.

17. Agar jismning o'zgarish tezlanish qonuniyati berilgan bo'lsa harakatlanish qonuni qanday topiladi?

Ikki marta integrallanadi.

18. Qachon funksiya differensiallanuvchi deyiladi?

Birorta oraliqning har bir nuqtasida hosilaga ega bo'lgan funksiya shu oraliqda differensiallanuvchi deyiladi.

19. Berilgan funksiyaning kamayish oralig'i qanday topiladi?

Funksiya hosilasining manfiy qiymat qabul qiladigan oralig'i uning kamayish oralig'i bo'ladi.

20. Funksiyaning ekstremumlari qanday topiladi?

Funksiya hosilasining nolga aylanadigan nuqtalari topiladi, bu funksiyaning kritik nuqtalari atrofining ishoralari tekshiriladi, ishora + dan - ga o'tsa bu nuqtada funksiya maksimumga, aks holda minimumga erishadi.

Darsning II –bosqichi.

Yangi mavzuning bayoni. Bu jarayonda har bir talabaga alohida o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan axborotli kichik ma'ruzalar tarqatiladi. O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilishida talabalar ushbu qo'llanmadan foydalanishadi. Yngi mavzu quyidagi reja asosida bayon qilinadi.

1. Aniq integral yordamida yuza jismlarning sirtlarini yuzalarini hisoblash.

2. Aniq integral yordamida aylanish jismlarining hajmlarini hisoblash.

3. Mavzuga doir misollar yechish.

$y=f(x)$ yassi egri chiziq AB yoyining OX o'q atrofida aylanishidan aylanish sirti hosil bo'ladi.

Shu sirt yuzining ds differensial asosining radiuslari y va y+dy va yasovchi dl bo'lgan doiraviy kesik konusning yon sirti yuziga teng.

$$ds = 2\pi y dl$$



(dy qo'shiluvchini hisobga olmaymiz, chunki u $2y$ ga qaraganda kichik)

AB yoyning aylanishidan hosil bo'lgan sirtning yuzi ushbu formula bo'yicha topiladi:

(1) $S = \int_a^b ds = 2\pi \int_a^b y dl = 2\pi \int_a^b y \sqrt{1 + \left(\frac{dy}{dx}\right)^2} dx$ bunda a va b erkli o'zgaruvchi x ning A va B nuqtalardagi qiymati.

AB yoyining OY o'q atrofida aylanishidan quyidagiga ega bo'lamiz: bundan

$S = 2\pi \int_a^b x dl = 2\pi \int_a^b x \sqrt{1 + \left(\frac{dx}{dy}\right)^2} dy$ bunda a va b erkli o'zgaruvchi y ning A va B nuqtalardagi qiymatlari.


1398. $x^2 + y^2 = r^2$ aylananing OX o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'lgan shar sirtini yuzini toping.

Yechilishi: Aylananing $x^2 + y^2 = r^2$ tenglamasini differensiallab, $2x + 2y \frac{dy}{dx} = 0$, $\frac{dy}{dx} = -\frac{x}{y}$ ni hosil qilamiz.

Yoyning differensialini topamiz:

$$dl = \sqrt{1 + \left(\frac{dy}{dx}\right)^2} dx = \sqrt{1 + \left(-\frac{x}{y}\right)^2} dx = \sqrt{\frac{y^2 + x^2}{y^2}} dx = \frac{r dx}{y}$$

Shu sirt yuzni (1) formulaga asosan :



$$S = 2\pi \int_{-r}^r y \frac{r dx}{y} = 2\pi r \int_{-r}^r dx = 2\pi r x \Big|_{-r}^r = 4\pi r^2$$

1404. $y^2 = 4x$ parabolaning O(0;0) va A(3;2√3) nuqtalar bilan chegaralangan yoyning OX atrofida aylanishidan hosil bo'lgan sirtni yuzini toping.

Yechilishi: $y^2 = 4x$ tenglamadan: $y = 2x^{\frac{1}{2}}$. Differensiallab topamiz:

$$\frac{dy}{dx} = x^{-\frac{1}{2}}$$

(1) formula bo'yicha hisoblab

$$S = 2\pi \int_0^3 2x^{\frac{1}{2}} \sqrt{1 + \left(x^{-\frac{1}{2}}\right)^2} dx.$$


$x^{\frac{1}{2}}$ ni ildiz ostiga

kiritamiz: $S = 4\pi \int_0^3 \sqrt{x+1} dx$, $x+1=z$ deb olamiz, u holda $dx=dz$, $z_1=1$, $z_2=4$

$$S = 4\pi \int_1^4 z^{\frac{1}{2}} dz = 4\pi \cdot \frac{2}{3} z^{\frac{3}{2}} \Big|_1^4 = \frac{56\pi}{3} (\text{kv.birlik})$$



Aylanish jismining hajmi.



Aylanish jismining hajmi $v = \pi \int_a^b y^2 dx$ formula bo'yicha hisoblanadi, bunda $y=f(x)$ -fracigi OX o'q atrofida aylanuvchi va izlanayotgan jismning sirtini hosil etuvchi egri chiziq (to'g'ri chiziq) bo'lgan funksiyadir; a va b - integrallash chegaralari.

Agar y funksiya x orqali oshkor ifodalanmagan bo'lsa, u holda y ni egri chiziqning tenglamasidan topish mumkin.

Agar jism OY o'q atrofida aylantirilsa, u holda $v = \pi \int_a^b x^2 dy$

Bunda $x=\varphi(y)$ grafigi OY o'q atrofida aylanuvchi va izlanayotgan aylanish jismining sirtini hosil etuvchi egri chiziq (to'g'ri chiziq) bo'lgan funksiya, a va b - integrallash chegaralari.

Darsning III –bosqichi. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun talabalarga misol beriladi.

Quyidagi ko'rsatilgan chiziqlar bilan chegaralangan yuzalarning OX o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'lgan jismlarning hajmlarini toping.

1370. $y^2=4x, y=0$ va $x=4$

1371. $y^2=x, y=0, x=1$ va $x=2$

1372. $y=x^2-9, y=0$

1375. $y=x^2-1$ va $y=0$

1374. $x-2y+6=0, y=0, x=2$

Darsning IV-bosqichi. Yakuniy qism.
Dars yakunida uyga vazifa e'lon qilinadi.

Uyga vazifa:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.Abduhamedov, N.Nasimov. Algebra va matematik analiz asoslari. II-qism.
2. N.V.Bogomolov. Oliy matematikadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent. 1976. "O'qituvchi"
3. N.S.Piskunov. Diffensial va integral hisob. Toshkent. 1972. "O'qituvchi"



4. Yosh matematik komusiy lug'at.

5. N.V.Bogomolov. Matematikadan
amaliy mashg'ulotlar. Toshkent. 1984.
“O'qituvchi”

Umida Baxtiyarovna Eshmatova –
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Urganch filiali akademik
litseyining matematika fani o'qituvchisi.
Tel: (+998999687214)



O'ZBEKISTON EKOLOGIYASI, MUAMMOLARI VA EKOLOGIK VAZIYATNI YAXSHILASH YO'LLARI

Eshmurodov Oybek Jumaqulovich

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

*56-umumiy o'rta ta'lim maktabining
geografiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolad

O'zbekiston ekologiyasi, muammolari va ekologik vaziyatni yaxshilash yo'llari yoritilgan. Shuningdek, ekologik muammolar va ularni iqtisodiyot va inson salomatligiga ta'siri ko'rsatilgan. Qolaversa, O'zbekiston ekologiyasi, muammolari va ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik vaziyat, inson salomatligi, ekologik barqarorlik, tabiiy resurslar, ekologik harakat, ekologik tanazzul.

Yurtimizda boshqa sohalar qatori ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va

samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olishva ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Prezidentimizning 2017 yil 12 iyuldagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O'zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida hokimiyat vakillik organlari hamda siyosiy partiyalar va Ekologik harakatning o'tgan davrdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil etilib, islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, Ekologik harakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlik guruhining istiqboldagi vazifalari aniq ko'rsatib o'tildi. O'zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma'lum bo'lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak. Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta'sirda yoki munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar juda



avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq. Inson sivilizasiyasining rivojlanishi va uning tabiat bag'riga tobora chuqurroq kirib borish oqibatida ahvol tubdan o'zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qirildi, katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'tlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o'rmon yoginlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba'zi bir misollarni keltirib o'tamiz:

1. "Atmosferaning dimiqishi" hodisasi.
2. "Ozon qatlamining siyraklanishi" hodisasi.
3. "Chuchuk suv" muammosi .
4. "Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi" muammosi.
5. "Pestisetlardan foydalanish" muammosi.

Yer yuzasining muayan mintaqasi o'ziga xos tabiiy iqlim, ijtimoiy – ekologik, etnografik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari harakterini belgilab beradi.

Bugungi kunda mustaqil o'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaq bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashina sozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya'ni Angren-Olmaliq Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ilonda, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatini buzulishiga olib kelmoqda.
2. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.



3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.

4. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

- Aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, biosferaviy muvozanatni saqlash;
- O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish;
- regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma – xiligini saqlash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar zudlik bilan tabiatda vujudga kelayotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va butun mavjudodning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko'z qorachig'iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g'amxo'rlik qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yu.Sh.Shodimetov Sog'lom turmush tarzi: ijtimoiy-gigiyenik va ekologik muammolar. - T.: Ibn Sino, 1991 b.31
2. B.Ziyomammedov Ekologiya va ma'naviyat. - T.: Mehnat, 1997 b. 43
3. Sh.T.Otaboyev Inson va biosfera. - T.: O'qituvchi, 1995 b 135
4. A.S.To'xtayev Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. - Toshkent: O'qituvchi, 1994 b 27-28



FUNKSIYALAR, ULARNING ANIQLANISH VA QIYMATLAR SOHALARI,

FUNKSIYANING JUFT-TOQLIGI, TESKARI FUNKSIYA MAVZULARIGA OID MISOLLAR YECHISH

Kuramboyeva Gulbahor- Al Xorazmiy

*nomidagi TATU Urganch filiali
akademik*

*litseyi matematika fani yetakchi
o`qituvchisi.*

Annotatsiya : Ushbu maqolada funksiyalar va ular ustida amallar, funksiyalar bilan ishlashning maqbul yo`llari haqida fikr yuritilgan. Akademik litsey talabalarini matematik amallarini bajarishga qiziqtirish tajribasi bayon etilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются функции и действия над ними, оптимальные способы работы с функциями. Описан опыт мотивации учащихся академических лицеев к выполнению математических операций.

Annotation: This article discusses functions and actions on them, optimal ways to work with functions. The experience of motivating academic lyceum students to perform mathematical operations is described

Kalit so`zlar: Funksiyalar, aniqlanish soha, qiymatlar sohasi, funksiyaning juft-toqligi, teskari funksiya.

Ключевые слова: функции, область определения, область значений, двойственность функций, обратная функция.

Keywords: Functions, domain of definition, domain of values, duality of functions, inverse function.

1. Ta'limiy maqsadi: O'tilgan mavzuni amaliy mashqlar yechib mustahkamlash o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish:

2. Tarbiyaviy maqsadi: Yoshlarda matematika faniga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek fanlararo bog'lanishni o'quvchilar amaliyotida qo'llab ishonch hosil qilishga erishish:

3. Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning matematik tassavurini yanada mujassamlashtirish, ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish va umumiy dunyoqarashini o'zgartirish.



O'qituvchi:

- Assalomu alaykum ahli musulmon xalqi, qalbmida iymon, dilida Qur'on bo'lgan bilimga chanqoq talabalar va hurmatli domlajonlar. Barchamizga yaratganning salomlari bo'lsin. Har bir inson tongni qanday kayfiyatda qarshi olsa, kun davomida shunday kayfiya hamroh bo'lar ekan. Shu sababdan sizning dilingizga hushnudlik ulashish maqsadida, bugun yana siz bilan birgamiz aziz tengdoshlarim bugungi yosh matematiklar bellashuvi kechasiga xush kelibsiz.

Bugungi bellashuvimizda aniq fanlar yo'nalishi 203-guruh talabalari qatnashishadi. Bu jamoalar 1-Xorazmiy izdoshlari. 2-Tafakkur. 3-Abiturientlar. 4-Zukkolar jamoalari o'zaro belashish uchun yig'ilishgan. Bugungi tadbirimizni ochib berish uchun so'zni _____

__beramiz.

O'qituvchi:

Raxmat tilak va istaklaringiz uchun. Belashuvimizning hakamlar hayati 6kishidan iborat.

Boshlovchi:

Hurmatli talabalar endi shartlarni bajarish uchun jamoalarni sahnaga taklif

qilamiz. Jamoalar bilan sizlarni tanishtirib o'tsam:

1-jamoa "Xorazmiy izdoshlari" jamoasi. (jamoalar 8 kishidan iborat)

2-jamoa: "Tafakkur" jamoasi. (jamoalar 8 kishidan iborat)

3-jamoa: "Abiturientlar" jamoasi: (jamoalar 8 kishidan iborat)

4-jamoa: "Zukkolar" jamoasi: (jamoalar 8 kishidan iborat)

Boshlovchi:

Mana jamoalar bilan ham tanishib oldik. Endi sizlarni shartlar bilan tanishtirib o'tsam.

aylab,

saylab.

bering,

saylab.

Barcha jamoalarga omad.

1-shart. Kirish. Bu shartda jamoalar o'z chiqishlari bilan shery tarzda kelgan mehmonlar bilan salomlashadilar, va shu bilan birga jamoa nomiga qisqacha ta'rif berib o'tadilar.

Sizga so'zim bayon

Matematika sahifani

Boshlamoqqa izim

Shartlarimiz qator



Boshlovchi: Kayfiyatni tushurmagan holda. 2-shartga ya'ni kimning guli chiroyli shartiga navbatni bersak. Har bir jamoa a'zolari gulning barglarida yozilgan funksiyalarga doir misollarni ishlab gulaga yopishtirishlari zarur. Shartda gulning sifatiga va misollarning to'g'ri aniq yechilganligiga etibor beriladi. Shartni bajarib bo'lgan jamoalar o'z gullarini hakamlar hayatiga taqdim qiladilar. Hakamlar hayati jamoalarni qilgan ishlariga bahlarni qo'yib boradilar. Marhamat jamoalar shartni bajarib boshlashlaringiz mumkin.

1-guruh

1. Ushbu $f(x) = \frac{x-2}{x^2-1}$ funktsiyaning aniqqlanish sohasini toping.

J: $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; \infty)$

2. k ning qanday butun qiymatlarida $y = \frac{x^2+3x}{x^2+kx+1}$ funktsiyaning aniqqlanish sohasi $(-\infty; 1) \cup (1; \infty)$ bo'ladi?

J: -2

3. Quyidagi funktsiyalardan qaysi biri juft?

A) $f(x) = \frac{5x^3}{(x-3)^2}$

B) $f(x) = \frac{x(x-2) \cdot (x-4)}{x^2-6x+8}$

C) $f(x) = \frac{9x^3}{x^2-25}$

D) $f(x) = x^2 + |x + 1|$

E) $f(x) = \frac{x^4-2x^2}{3x}$

J: C

4. Ushbu $y = \frac{3+4x-x^2}{2}$ funktsiyaning qiymatlari sohasini toping.

J: $(-\infty; 3,5]$

5. $y = \sqrt{9-x^2}$ funktsiyaning qiymatlar sohasini kirsating.

J: $[0; 3]$

6. Quyidagilardan qaysi biri $y = \frac{3}{2-x} - 1$ funktsiyaga teskari funktsiya?

J: $y = 2 - \frac{3}{x+1}$

7. k ning qanday qiymatida $y = kx + 6$ funktsiyaning grafigi $M(0,5;4,5)$ nuqtadan o'tadi?

J: -3

8. a ning qanday qiymatlarida $ax+2y=9$ va $3x-y=-7$ to'g'ri chiziqlar kesishadi?

J: $a \neq -6$

2-guruh

1. Ushbu $f(x) = \frac{x-3}{x^2-4}$ funktsiyaning aniqqlanish sohasini toping.

J: $(-\infty; -2) \cup (-2; 2) \cup (2; \infty)$

2. Funktsiyaning aniqqlanish sohasini toping. $f(x) = \frac{x^2+2}{x^2-1}$

J: $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; \infty)$



3. Қуйидаги функциялардан қайси бири тоқ?

A) $y = \frac{5x^3}{(x-3)^2}$ B) $y = \frac{x(x-4) \cdot (x-2)}{x^2-6x+8}$

$y = \frac{9x^3}{x^2-25}$ D) $y = |x + 1| + x^2$

E) $y = \frac{x^4-2x^2}{3x}$

J: E

4. $y = -6x^2 + 7x - 2$ квадрат функциянинг ноллари йиғиндисини топинг.

J: $-1\frac{1}{6}$

5. Ушбу $y = 4x^2 + 4x + 1$ ва $y = 2x + 1$ функциялар графиклари кесишиш нуқталарининг координаталарининг йиғиндисини топинг.

J: 0,5

6. Ушбу $y = 2x^2 - \frac{1}{2} (x \geq 0)$ функцияга тескари бўлган функцияни аниқланг.

J: $\sqrt{2x+1} \cdot 2^{-1}$

7. Координата ўқлари $\frac{x}{5} + \frac{y}{12} = 1$ тўғри чизикдан қандай узунликдаги кесма ажратади?

J: 13

8. a нинг қандай қийматларида $ax + 2y = 3$ ва $2x - y = -1$ тўғри чизиклар кесишади?

J: $a \neq -4$

3-guruh

1. Функциянинг аниқланиш соҳасини

топинг. $f(x) = \frac{x^2+2}{x^2-1}$

J: $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; \infty)$

2. Ушбу $f(x) = \frac{x-3}{x^2-4}$ функциянинг аниқланиш соҳасини топинг.

J: $(-\infty; -2) \cup (-2; 2) \cup (2; \infty)$

3. Қуйидагиларнинг қайси бири жуфт функция?

A) $y = \frac{(x-8)^2}{3}$ B) $y = 2x|x| + 5$ C)

$y = \frac{x^4+x^2+1}{2}$ D) $y = \frac{7x}{x^2-9}$

E) $y = |x - 3| + 5x^2$

J: C

4. $y = x|x|$ функция учун қайси тасдиқ тўғри?

A) тоқ функция B) жуфт функция
C) камаювчи функция D) жуфт функция ҳам эиас, тоқ функция ҳам эмас.
E) аниқланиш соҳаси мусбат сонлардан иборат.

J: A

5. a нинг қандай қийматларида $y = x^2 - 4x + 12 - a$ параболанинг учи $M(2;4)$ нуқтада ётади?

J: C



6. Қуйидагилардан қайси бири $y = \frac{3}{x+1} - 2$ функцияга тескари функция?

J: $y = \frac{3}{x+2} - 1$

7. Функцияга тескари функцияни топинг. $y = \frac{x-1}{2-3x}$

J: $y = \frac{2x+1}{3x+1}$

8. Координата ўқлари $\frac{x}{8} + \frac{y}{6} = 1$ тўғри чизикдан қандай узунликдаги кесма ажратади?

J: 10

4-guruh

1. Ушбу $f(x) = \frac{x-2}{x^2-1}$ функциянинг аниқланиш соҳасини топинг.

J: $(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; \infty)$

2. Функциянинг аниқланиш соҳасини топинг. $y = \frac{2x-3}{x(x+2)}$

J: $(-\infty; -2) \cup (-2; 0) \cup (0; \infty)$

3. Қуйидаги функцияларнинг қайси бири тоқ?

A) $y = \frac{7x}{x+3}$

$y = |x + 3| - 6x$

E) $y = \frac{x(x-8)}{5x+3}$

J: D

B) $y = \frac{3x^4+x^2}{8}$

D) $y = \frac{2x}{x^2-9}$

4. Ушбу $y = \sqrt{x-x^2}$ функциянинг қийматлар соҳасини топинг.

J: $[0; \frac{1}{2}]$

5. Қуйидагилардан қайси бири $y = \frac{2}{x-1} - 1$ функцияга тескари функция?

J: $y = \frac{2}{x+2} + 1$

6. $y = \frac{6x+2}{x}$ функцияга тескари функцияни аниқланг.

J: $y = \frac{2}{x-6}$

7. a нинг қандай қийматларида $2ax + 3y = 3$ ва $4x + 3y = 7$ тўғри чизиклар кесишиш нуқтасининг абсциссаси манфий бўлади?

J: $a > 2$

8. k нинг қандай қийматида $y = kx - 10$ функциянинг графиги $A(-4; 14)$ нуқтадан ўтади?

J: -6

О'qituvchi:

3-shart. Tezkor test deb nomlanadi bu shartda hamma jamoaga bir vaqning o'zida mantiqiy bosh qotirmali har xil mavzularga oid masalalar taqdim etiladi birinchi ishlagan jamoa javobni aytishi mumkin va har bir to'g'ri javob hakamlar tomonidan baholanib boriladi. Marhamat diqat bilan eshiting savollarni o'qiyman.



Tezkor test.

1. Jasur *ikkiyuzta* yuz va bitta birni qo'shib, qaysi natijani olishi mumkin?

- A) 201 B) 1201 C) 2001 D) 20001
E) 200001

2. Anvar va G'ulom ikkalasi 16-martda tug'ilgan va G'ulom tug'ilganda Anvar 3 yosh edi. G'ulom nechaga to'lganda, uning yoshi Anvarning yoshidan ikki barobar kichik bo'ladi?

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
E) 10

3. Rasmda qanday geometrik shakllar yo'q?

- A) to'g'ri to'rtburchaklar B) uchburchaklar
C) kvadratlar
D) doiralar

E) yuqoridagi hamma shakllar bor.

4. Anvar o'z oyisiga yurak shaklidagi shokolad sovg'a sotib oldi.


Agar shokoladdagi har bir kvadrat shokoladcha 10 g bo'lsa, sovg'a qilingan shokolad necha gramm?

- A) 340 g B) 360 g C) 380 g D) 400 g
E) 420 g

5. Uchta toshbaqa – Andi, Bandi va Kandi – 30 m masofaga yugurish bo'yicha musobaqa o'ynashmoqda. Ular bir paytda musobaqani boshlashdi. Andi marraga kelganda Bandiga marragacha 10 m qolgan edi, Kandi esa Bandidan 4 m oldinda edi. Kandi marraga yetib kelganda Bandidan marragacha qancha masofa qoladi(toshbaqalar o'zgarmas tezlikda harakat qilishmoqda)?

- A) 2 m B) 3 m C) 4 m D) 5 m
E) 6 m

6. Beshta do'st qanday hafta kunligi to'g'risida suhbatlashmoqda.



bugun

Anvar « Kechadan oldingi kun juma edi» dedi.


G'ulom « Ertadan keyingi kun seshanba bo'ladi» dedi.

Karim «Kecha shanba edi» dedi.

Bobur «Ertaga dushanba bo'ladi» dedi.

Toxir «Bugun payshanba» dedi.

Ulardan qaysi biri adashgan?





A) Anvar B) G'ulom C) Karim D) A) 252 B) 248 C) 250
Bobur E) Toxir D) 249


7. To'rt xonali soning birinchi raqami 5 ga teng. Agar bu raqamni soning oxiriga qo'ysak, oldingi sondan 747 ga kam son hosil bo'lsa, bu sonning raqamlar yig'indisini toping.

A) 12 B) 14 C) 16 D) 18
E) 20

8. Raqamlar yig'indisi 4 ga teng bo'lgan nechta uch xonali son bor?

A) 10 B) 9 C) 8 D) 7
E) 6

9. Quyidagi rasmlardan ikkita bir xil bo'yalganini toping.



A) 3 va 6 B) 2 va 6 C) 1 va 3
D) 4 va 6 E) 5 va 2

10. Karim bilan Anvar bitta poyezdda sayrga chiqishdi. Karim poyezdning boshiga nisbatan 117 chi vagonda, Anvar esa poyezdning oxiriga nisbatan 134 chi vagonda ketmoqda. Agar ularning joylashgan vagoni qo'shni bo'lsa, poyezd nechta vagondan iborat?

E) A – D javoblar orasida to'g'risi yo'q.

11. Agar 2000 ta musbat butun sonlarning yig'indisi 2001 ga teng bo'lsa, ular ko'paytmasi nimaga teng bo'ladi?

(A) 1 (B) 2 (C) 2000 (D) 2001
(E) aniqlab bo'lmaydi

12. Ushbu 1991, 2323, 2222, 3131, 2332, 5252 sonlarni teskari tartibda o'qisak ulardan nechitasi kamayadi.

(A) 0 (B) 1 (C) 2 (D) 4
(E) 5

13. x soni shundayki, unga 2 ni qo'shish 3 ga ko'paytirish bilan teng kuchli. x ni 6 ga ko'paytirish, unga qanday soni qo'shish bilan teng kuchli.

(A) 3 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 7

14. To'rtta bolaning har birida bittadan o'zining sevimli jonivori bor: mushuk, kuchuk, baliq, bulbul. Mansurning jonivori mayin junli, Farxodniki to'rt oyoqli, Nodirniki patli, Jasur va Mansur mushukni yomon ko'rishadi. Kimda qaysi jonivor borligini aniqlang?

15. Sonli rebusdagi K, E, N, G, A harflar raqamlarni anglatadi.

N xarfiga qanday raqam mos

$$\begin{array}{r} \times \text{KENGA4} \\ \quad \quad \quad 4 \\ \hline 4\text{KENGA} \end{array}$$



keladi?

- (A) 0 (B) 1 (C) 2 (D) 3
3 (E) 4

O'qituvchi:

4-shart. Bu shartda talabalarga uyga vazifa qilib har bir jamoa o'tilgan mavzular bo'yicha 10 ta savoldan iborat krossvord tuzib kelishlari kerak edi. Endi tuzib kelgan krossvord topshiriqlaringizni bir jamoa boshqa jamoa bilan almashadi va shu krossvodni ishlashlari kerak. Ishlab bo'lingan krossvodni hakamlar hayatiga taqdim qilishlaringiz kerak va hakamlar tuzib kelingan krossvorga hamda o'sha jamoa boshqa jamoani krossvordini to'g'ri va aniq yechganligiga etibor beradilar marhamat shartni boshlashlaringiz mumkin.

Boshlovchi: 5-shart. Navbat 5-shartga. Bu shart sardorlar bellashuvi deb nomlanadi. Sardorlarimizni taklif qilamiz. Bu shartda sizlarga 3ta mantiqiy savol beriladi siz ularga to'g'ri va aniq javob berishlaringiz zarur. Sardorlar haqiqiy sardor ekaningizni isbotlash uchun bor kuch g'ayratlaringizni ishga solasizlar degan umiddaman. Jamoalaringizni bor umidi sizlardan.


Sardorlar bellashuvi topshiriqlari

1. Ivan o'z shajara daraxtiga qaramoqda. Yo'nalish otadan o'g'ilga yo'nalgan bo'lsa, Vanya otasining buvasining akasining o'g'li kim bo'lgan?

Javob: Iogann




2. Tomonlari va burchaklari quyida ko'rsatilganidek faqat bitta uchburchak mavjud. U qaysi biri?



Javob: 4-chizma

3. Rasmdagi doiralarga 1 dan 7 gacha bo'lgan sonlarni bir o'g'ri chiziqda yotgan 3 ta doiradagi sonlar yig'indisi bir-biriga teng bo'ladigan qilib joylashtiring.

Javob: 1,4,7





3,4,5

2,4,6

O'qituvchi:

Mana aziz mehmonlar shuning bilan bilimdonlarga berilgan shartlar va nihoyasiga yetdi. Endi yana bir bor hakamlar hayatiga yuzlansak va ular jamoalarni barcha shartlar bo'yicha olgan ballarini e'lon qilishlarini iltimos qilamiz.

Hakamlar
hayati

O'qituvchi:

Va nihoyat bellashuvimizning eng hayajonli daqiqalari mamnuniyat bilan shuni aytishim mumkinki bugungi bellashuvimizda

“_____” jamoasi g'olib bo'ldi. Tabriklaymiz!!!
Qarsaklaringiz.

O'qituvchi:

Mana aziz mehmonlar bugungi bellashuvimiz ham o'z nihoyasiga yetib bormoqda. G'olib bo'lgan jamoani yana bir bor tabriklaymiz, qolgan jamoalarga ham kelgusi o'qish ishlarida omad va zafarlar tilab qolamiz. Bugungi

bellashuvdan har kim o'ziga kerak bo'lgan bilim ko'nikmalarni oldi degan umiddamiz. Kelgusida yanada ko'proq bilim olishga intilishlaringizga ishonchim komil matematika har hoim hamrohingiz bo'lsin. Tadbirimiz yanada qiziqarli bo'lishi uchun guruh azolari o'zlari tayyorlab kelgan ingliz tilidagi bir qo'shiqini sizlarga taqdim etadilar marhamat. So'zim so'ngida shuni aytishim lozimki bu kechamiz buyuk allomalarimiz va matematiklarimizni bizga qoldirgan meroslarini yanada chuqurroq o'rganishga imkon berdi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A.Gaziyev , I.Israilov, M.Yaxshibayev "Funksiyalar va grafiklar" oliy o`quv yurtlari uchun qo`llanma. Voris nashiryoti. Toshkent 2006

2.Azalarov T, Mansurov X "Matematik analiz" 1t, T.O`qituvchi1986

3.Sa`dullayev A, Mansurov H, Hudayberganov I, Vorisov A "Matematik analiz kursidan misol va masalalar" T: O`qituvchi1986

4.Tolipov A. "Elementar funksiyalar" T: O`qituvchi 1992



MUSIQA - QIZLAR TARBIYASINING MUHIM OMILIDIR.

Halikova Gavharoy

FarDU san'atshunoslik fakulteti
o'qituvchisi

Sadikov Shuxrat

Quvasoy shahar N90 kar bolalar maxsus
maktabi tasviriy san'at o'qituvchisi

Anatatsiya: Maqolada o'zbek
qizlarining estetik didi shakillanishida
musiqaning turgan o'rin va ahamiyati
qizlarning ichki dunyosi va ruhiy
holatlarida musiqaga bo'lgan extiyojlari
bayon etilgan.

Kalit so'zlar: musiqa ,madaniyat,
qizlar,ruhiyat,did,estetika,rivojlanish,jam
iyat, fikr.

UZBEK GIRLS SAID AESTHETICS AND THE PLACE OF MUSIC IN IT

Halikova Gavharoy

*Faculty of Art History, FarSU
teacher*

Anatoly: The article describes the role
and importance of music in the formation
of aesthetic taste of Uzbek girls, their
needs for music in the inner world and
mental state.

Keywords: music, culture, girls, psyche,
taste, aesthetics, development, society,
thought.

Mamlakatimiz har soxada ilg'or va
shiddatHayotimiz bilan taraqqiy
etayotgan bir davrda har soxada bo'lgani
kabi madaniyat soxasida ham jadal ishlar
olib borilmoqda ayniqsa yoshlar qizlarga
ularning estetik didiga alohida etibor
berib kelinmoqda ularni har tomonlama
yetuk qilib hayotga tayyorlash o'zbek
qizi degan sharafli nomga mos qilib
voyaga yetkazishda musiqaning o'rni
beqiyosligi alohida takidlanmoqda.
Sababi yoshligidan musiqaga oshno
bo'lib tarbiya topgan qizlarimiz
o'zlarining estetik didi , dunyoqarashi,
teran fikrlashi bilan ajralib turadilar.

Shiddat bilan jadal rivojlanib borayotgan
bir davrda jamiyatimizdagi
qizlarimizning ichki dunyosi, ruxiy
xolati, soxalardagi faolligi, teran
fikrlashi, atrof muhit bilan muloqoti va
mulohazaliligini shakllantirish biz
pedagoglar qolaversa ota-onalarning
majburiyati, burchimizdir.
Qizlarimizdagi estetik did tarbiyasini



to'la amalga oshirmay turib, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazib bo'lmaydi. Estetik did tarbiyasi jamiyat a'zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go'zallikni to'laqonli his etishga ko'maklashishdir.

Estetik did masalasi shaxs, jamiyat va millat madaniyati uchun katta ahamiyatga ega. Negaki jamiyatda yuksak didli kishilar qancha ko'p bo'lsa uning madaniyat darajasi yuksaladi. San'at doim estetik tarbiyaning asosiy vositasi bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki zodagon oilalar o'z farzandlarini musiqa bilan doimiy shug'ullantirishgan chunki bu aloxida o'ziga xoslik belgisini bildirgan va bunday muhtashamlik uchun ularda mablag' ham yetarli bo'lgan albatta. Musiqa bilan muntazam shug'ullangan, musiqa asboblarning nozik torlarini chertib ijro etilgan asarlardagi mohiyatni his qila olgan zodagon qizlar boshqalardan viqorliligi, dadilligi va mag'rurliligi bilan ajralib turgan.

San'atshunoslik fanlari doktori Dina Konstantinovna Kirnarskaya o'zining "Bolani musiqa o'qitishning 10 ta sababi" nomli maqolasida farzandlarimizni musiqa bilan

shug'ullanishining hayot uchun juda dolzarb faoliyatlarida asosli yordam berishini isbotlar bilan bayon qilgan. Unda yozilishicha bolaning musiqiy qobiliyati past bo'lsa, yomon eshita ham, falsh kuylasa va uyda musiqa asbob muammosi mavjud bo'lsa, bolani musiqa maktablariga olib borishga hech kimning fursati yo'q va boshqa zaruriy fanlardan holi bo'lib musiqaga vaqt ajrata olmayotgan bo'lsa ham, mavjud barcha sabablarni bartaraf qilib farzandlarimizning musiqa bilan shug'ullanishiga arzirli asoslar borki buni hamma zamonaviy ota-onalar bilishlari shart. Rossiya va yevropaning barcha zodagonlari musiqa bilan shug'ullanishgan. Musiqa bilan shug'ullanish iroda va intizomlilikni tarbiyalaydi. Musiqiy asbobda doimiy, muntazam shug'ullanish lozim. Xuddi sport chempionlari kabi, qishin-yozin, har kuni, bayram kunlarida ham. Lekin musiqiy asbob ijrosi paytida bola yelka yoki oyog'ini sindirib olish ehtimoli yo'q. Musiqa bolani lat yemasdan xulq atvorini sifatli tarbiyalash imkonini beradi.

Musiqa mashqlari muomalani va kommunikativlik ko'nikmalarini kengaytiradi. Bola bir yil mobaynida samimiy va nazokatli Mosart bilan, fe'ldor Prokofev bilan, faylasuf va



tajribali Bax va boshqa musiqa olamining davomida asarni to'xtatib, dam olish yoki buyuk shaxslari bilan tanishib oladi. Ijro vaqtida bola kompozitorlar asarlarini yangicha shaklda ifodalab tinglovchilarga ularning xarakterlarini yaratishga, xissiyotlarini tasvirlash tarzi, o'ziga xos tovushlar ohangini yetkazishiga to'g'ri keladi. Musiqa yuraklardan yuraklarga boradi. Psixologlarning aytishlaricha musiqachi erkaklar xis-tuyg'uli, ayollar esa ruhan dadil bo'lishadi. Musiqa bilan shug'ullanganlar ko'rsatmalarni vaqtida bajarishga oson kirishadi. Musiqa maktablarida imtihon vaqtlarini oldinga yoki keyinga qoldirish mumkin emas, ayniqsa konsertni kechiktirib bo'lmaydi. O'zini sahnada artistdek tuta olish maksimal tayyorgarlikni talab etadi. Bunday tajriba bilan bola jiddiy imtihonlarda pand yemaydi, ma'suliyatli maruzalarda o'zini yo'qotib qo'ymaydi. Bolalarda musiqa bilan shug'ullanish butun hayoti mobaynida artistlik ilmi va yuqori bardoshlilik garovidir. Bir vaqtda ko'p ishlarni baravariga bajara olish ko'nikmasini tarbiyalaydi. Turli jarayonlarni nazorat qilish va to'g'ri mo'ljal olishni rivojlantiradi. Notadan o'qib ijro qilayotgan pianinochi bir vaqtda bir necha vazifalarni bajaradi. Yuqoridagi ijrosi esida qoladi, kelgusiga qaraydi va hozirgisini nazorat qiladi. Musiqa bir maromda davom etadi va ijro

ruhini susaytirishga yo'l qo'yilmaydi. Musiqa tezkor fikrlash va hayotning turli yo'nalishlarida faoliyat yuritishga o'rgatadi. Va nihoyat musiqa omadli hayot kechirishning eng yaxshi yo'lidir.

AQSh ning 42-prezidenti Bill Klinton esa saksofonsiz hech qachon prezident bo'la olmasligiga amin bo'lgan. Barcha omadli shaxslardan so'rab ko'ringchi bolaligida musiqa bilan shug'ullanishganmi, hech bo'lmaganda uzoq vaqt bo'lmasa ham shug'ullanishgan.

Xozirgi zamon ba'zi ota-onalari farzandlarini, ayniqsa qizlarini musiqa bilan shug'ullanishlariga qarshilik ko'rsatadilar, o'zbek mintalitetida ko'plab otalar qizlari musiqa bilan shug'ullanishiga afsuski haligacha ruhsat bermaydilar yoki jiddiy e'tibor qaratmaydilar."Bizdan artist chiqmaydi" degan jummalarni hozir ham eshitib qolyabmiz. Vaholangki sport bilan shug'ullangan tana jismonan sog'lom, chiniqqan bo'lgani kabi musiqa bilan shug'ullangan ruh sof, zehn esa o'tkir, sezuvchan bo'ladi.

Dutor sozini ijro qilayotgan o'quvchi qiz yelkalarini tekkiz tutib o'tirishi kerak va bu qomatining tekkiz rivojlanishiga asos bo'ladi. Qolaversa dugonasi ijrosini ham odob bilan tinglay oladi. Milliy



kuylarimizni ijro qilganida unda milliy g'urur va qadriyatlarimizni anglash shakllanadi.

Respublikamizda 2009-2014 yillar mobaynida musiqa va san'at maktablari qayta qurildi va rekonstruksiya qilindi. Musiqa maktablaridagi shart-sharoitlar farzandlarimizda musiqaga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshirdi. Dastur o'z natijasini berdi va musiqa maktablari avvalgidanda kengayib, jonlandi hamda rivojlandi. Bu quvonarli hol albatta, lekin umumta'lim maktablaridagi musiqaga bo'layotgan etibor aytarli emas. Yangi juda tushunarli, chiroyli va zamonaviy, qiziqarli, aniq ma'lumotlar bilan yoritilgan mavzularga boy darsliklar bilan ta'minlanganlar, ammo viloyat umumta'lim maktablarida musiqa cholg'ulari to'liq mavjud emas, musiqa sinflari jixozlanmagan. Bu esa o'quvchilar e'tiborini jalb etib, darsni mazmunli, to'laqonli o'tishiga, o'quvchilar dars mohiyatini aniq tushunishlariga to'siq bo'lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlardan yana biri Yaponiya davlati maktablari dasturida 3 ta majburiy fan mavjud, bular musiqa, tasviriy san'at va yapon tili. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki bizning umumta'lim maktablarida musiqa faniga ajratilgan dars soatlari ham juda kam.

Demak, musiqa qizlarimizda elegantlylik, samimiylik, soflilik, to'g'rilik, teran aql, o'zini munosib tutish san'ati, chiroyli suhbatdosh, g'aroyib fikrlash qobiliyati, tashabbuskorlik va yana ko'plab xayot uchun foydali va zarur hislatlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan

adabiyotlar:

1. P.I.Ivanov Umumiy psixalogiya

2. Internet materiallari.

3. San'atshunoslik fanlari doktori D.K.Kirnarskaya "Bolani musiqaga o'rgatishning 10 sababi" nomli maqolasi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

Andijon viloyati yuridik texnikumi

2-bosqich 101-guruh o'quvchisi

*Dilmurodov Asadbek Dilmurodjon
o'g'li*

Annotatsiya: ushbu maqolada siz O'zbekiston hududidagi gerblar tarixi va gerbshunoslik bilan bog'liq qisqacha ma'lumotlarni o'rganishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: geraldika, gerb, tamg'a, emblema, davlat ramzi, geneologiya, numizmatika, paleografiya, stragistika

Geraldika – (lot. “heraldus” – jarchi, gelord) gerbshunoslik degan ma'nolarni anglatadi. XIX asrning 2 - yarmidan boshlab bu fan sifatida gerblarni o'rganuvchi yordamchi tarix fani hisoblanadi. Dastlab XIII – XIX asrning 1 - yarmidan dvoryan, sex va yer mulkdorlarining gerblarini tuzish bilan gelordlar shug'ullanadi (Geraldika atamasi shundan olingan). XIV asrdan

boshlab gerbchilar ustaxonasi tashkil topgan, unda murakkab va rangli gerblar yaratilgan. Bora-bora uylar, tarixiy yodgorliklar, davlat bayroqlari, pullar va harbiy qurollarga gerb suratlari tushurish odat tusiga kirgan. Geraldika moddiy, madaniy yodgorliklar hamda gerbli va ramzli yozma manbalarni o'rganadi, milliy an'analar, ijtimoiy xususiyatlar, mamalakatlara iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rganishda yordam beradi va boshqalar. Arxeologik qazilmalar O'zbekistonda ham qadimdan muhrlar, davlat, urug' yoki hunarmandchilik uyushmalarining gerb suratlarini tushurish keng tarqalganini ko'rsatadi. Ular ajdodlarimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini, turli madaniyati va san'atini o'rganishga, davlatlar va sulolalar tarixini oydinlashtirishga xizmat qiluvchi manbalardan biridir. Geraldika geneologiya (yun. – “geneologiya” shajara, yordamchi tarix fanlaridan biri), numizmatika (lot. – “numisma”, tangalar haqidagi fan), paleografiya (“paleo” va “grafin” – yozuv belgilarining yaratilishi va ularning rivojlanishini o'rganuvchi tarixiy-filologik fan) va stragistika (yunoncha “sphragis” – muhr, tarix fanining muhrlarini o'rganadigan sohasi) kabi fanlar bilan aloqador. Geraldika ma'lumotlari tarix fanining boshqa sohalarida ham qo'llaniladi.



Davlat gerbi – davlat ramzlaridan biridir. Unga davlatning milliy-siyosiy, iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy va davlat tuzumi, geografik va boshqa belgilari o‘z ifodasini topadi. Gerb davlat bayroqlarida, muhrda, rasmiy bayroqlarida, muhim hujjat, pul va davlat zayomlarida, ba’zi binolarda tasvirlanadi. Davlat gerbining mazmuni konstitutsiya yoki maxsus qonun bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi – O‘zbekiston Respublikasi rasmiy davlat ramzi – Oliy Kengash X sessiyasida 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan. Davlat gerbi davlat mustaqilligining ramzlaridan biridir.

Davlat gerbi – dumaloq ko‘rinishga ega bo‘lib, bu shaklning so‘l tomoni rizq-ro‘zimiz timsoli bug‘doy boshloqlaridan, o‘ng tomoni esa o‘zbekning dong‘ini dunyoga taratgan bebaxo boyligimiz – chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlaridan iborat chambarga o‘ralgan, uzoqdagi tog‘lar va daryolar manzarasida gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida esa O‘zbekiston ozodligining ramzi sifatida sakkizburchak yulduz, uning ichki qismida yarimoy va yulduz ma’nosi mamlakat aholisining ko‘p qismi islom diniga e’tiqod qilishi, markazda – baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning

pastki qismida O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chamber tasma-siga “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

Davlatimiz gerbining muallifi grafikachi-rassom Anvar Mamajonovdir. U so‘nggi yillarda milliy qadriyatlarimizni tiklash, yoshlar orasida keng yoyish borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirdi va milliy bayrog‘imizning yaratilishida ham uning hissasi bor.



O‘zbekiston Respublikasi gerbining muallifi, grafikachi-rassom Anvar Mamajonov

O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbining rangli ko‘rinishida: Humo qushi va daryolar – kumush rangida;



quyosh, boshloqlar, paxta chanoqlari va “O‘zbekiston” yozuvi – oltin rangda; g‘o‘za shoxlari barglari, tog‘lar va vodiya – yashil rangda; chanoqlardagi paxta oq rangda; lenta – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining rangini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak – oltin zarqal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar – oq rangda tasvirlangan.

Davlat gerbi qandayin ahamiyatga ega ekanligini bildik va shu bilan birga ular o‘z tarixiga ega ekanligi bo‘yicha ham ma‘lumotga ega bo‘ldik. Masalan, Rossiya imperiyasi davrida O‘zbekiston va uning hududidagi shaharlar viloyatlarning turli ko‘rinishdagi gerblari bo‘lgan. Quyida ularga to‘xtalib o‘tmoqchiman:



Bu Sirdaryo viloyatining 1878-yil 5-iyulda qabul qilingan gerbi. Unda biz dumaloq shakl emas, lekin

o‘sha davr holatiga mos ravishda va o‘sha hudud aholisining qanday sharoit yoki holatlarda yashaganini ko‘rish mumkin.



Ushbu rasmda Sirdaryo viloyati tarkibida bo‘lgan Toshkent shahrining 1909-yildagi gerbi tasvirlangan. E‘tibor berilsa gerbning atrofida uzumlar qizil lentaga o‘ralgan holda va o‘rtadagi boshqa belgilar.



Bu rasmda esa Yettisuv viloyatining 1878-yil 5-iyulda qabul qilingan gerbi tasvirlangan. Undagi har bir belgilar ham boshqa gerbdagilar kabi ifodalarga egadir. Gerbning o‘rtasida yarimoy tasvirlangani ham xuddi shu kabidir.



1890-yil 31-yanvarda qabul qilingan ushbu gerb Farg‘ona viloyatiga tegishlidir. E‘tiborni tortadigan jihati shundaki, gerb o‘rtasidagi belgining ikki tarafidagi hasharotlar. Qiziq bu nimani anglatgan ekan?



Bu gerb surati Samarqand viloyatiga tegishlidir. Ushbu gerb 1890-yil 31-yanvarda qabul qilingan bo‘lib, unda ham hududning o‘ziga xos



jihatlarni yoritib beruvchi ko'rinishlar, belgilar mavjud.

Bu gerb suratlari biz yashab turgan hududlarda yaqin tarixda mavjud bo'lgan va albatta, hozirgi gerblarimiz kabi muhim ahamiyat kasb etgan. Misol uchun, Toshkent shahri gerbini olsak. Oltin qalqon shaklida ishlangan ushbu gerbda qalqon o'rtasida to'lqinsimon moviy belgi bilan o'ralgan, belbog'ning yuqori va pastida tok barglari tasvirlangan. Gerbning yuqori qismida uch tishli minora o'rnatilgan. Gerdagi belbog' o'lkaning hayot manbai – Sirdaryo daryosi timsoli, tok barglari va novdalari esa o'lkada uzumchilik rivojlanganini ifodalaydi. Bundan ko'rinib turibdiki gerb o'sha hududni qandayligini bir emblema orqali ifodalash desak bo'laveradi. Shu kabi boshqa gerblar ham turli ma'nolarni o'z ichiga oladi. Ulardagi umumiy xususiyatlar shundaki, barchasida qizil tasmaga o'ralgan shox barglari mavjud, barchasining yuqori qismida shoxona toj joylashgan va barchasida deyarli bir xil ranglardan foydalanilgan. Bu jihatlarda o'sha hududlarda nimalar mavjudligi, asosan nimalar bilan mashhurligi qaysidir ma'noda xarakterini ko'rsatib bergan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Gerblar ham vaqt o'tishi bilan davrga qarab, ya'ni o'sha davrdagi hududning holatiga qarab yangilanib turgan. Ko'plab gerblar hozirda mavjud emas, ammo o'zgarishlarga uchragan ba'zi bir gerblar saqlanib qolgan va bugungi kunda ham mavjud, lekin bu haqda ko'pchilik bilmasligi, eshitmagan bo'lishlari mumkin.



1981-yil

1997-yil





O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi.
1992-yil 2-iyul



Qoraqalpog'iston
Respublikasining gerbi. 1992-
yil



Samarqand shahrining gerbi.
1994-yil 15-iyul



Navoiy
shahrining
gerbi. 1996-yil



O'zbekiston
Respublikasi
davlat gerbi ham bugungi kunga
kelgunga qadar turli ko'rinishlarda
bo'lgan. Quyida ularni ko'rishimiz
mumkin:



1925-1937

1937-1947

1937-1942

1952-1991

Davlatimiz gerbida xalqimizning tarixi, buguni va kelajagi o'z aksini topgan. Tamg'amizdagi barcha ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, ezgulik, baxt-saodat, to'kinlik, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini o'zida namoyon etadi. Gerbimiz o'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir inson uchun cheksiz faxr-u iftixor manbai, yoshlarimishning vatanparvarlik, ajdodlarimiz an'analariga sodiq farzandlar etib tarbiyalash yo'lidagi muhim vositadir.

Shahar va viloyat gerblari ham davlatlar gerblari kabi emblema hisoblanar ekan, ya'ni o'sha hudud holati haqida

ma'lumot beruvchi tamg'adir. Shu o'rinda savol tug'iladi. Agar gerb muhim vazifaga ega bo'lsa va hozirda Toshkent shahrining va O'zbekiston hududidagi ba'zi bir viloyatlarning gerbi mavjud bo'lsa, nega ushbu gerblarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan va boshqa viloyat va shaharlarga nazar solsak, nega ularda tarixda ham hozir ham gerblar mavjud emas? Bu borada o'z fikr va mulohazalaringizni bildirasiz degan umiddaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. uz.m.wikipedia.org internet-sayti
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi



ТОШКЕНТ СУВ ОМБОРИНИНГ ТЕХНИК ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШ ВА ИШОНЧЛИЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР ИШЛАБ ЧИҚИШ

Илмий раҳбар: т.ф.д, проф *Бакиев
М.Р.*

Турғунбоев Иброҳим

ГТИФУИ ва X мутахассислиги
магистранти

Аннотация

Мазкур мақолада Тошкент сув омборининг техник ҳолатини яхшилаш ва ишончлилигини ошириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш назарда тутилган.

Калит сўзлар: сегмент, пьезометр, сув чиқазгич, затвор, сув ташлаш иншооти, хизмат кўприги, кўтариш механизми, электр юритмалар.

Кириш.

Республикамиздаги мавжуд сув омборлари ва сел сув омборлари, шунингдек хавфлилик даражаси юқори бўлган объектлар жумласига кирувчи гидротехника иншоотлари техник ҳолатининг ишончлилиги

ҳамда уларнинг беҳатар ишлашини назорат қилиш шунингдек, табиий ва сунъий сув объектларида сувдан оқилона ва самарали фойдаланилиши, шу жумладан, сув хўжалиги объектларида сувни ўлчаш ускуналари билан жиҳозланиши ҳамда сувдан фойдаланиш қоидаларига риоя этилишини назорат қилиш соҳа фаолиятини янада такомиллаштириш талаб этилади.

Тошкент сув омбори Тошкент вилояти Ўртачирчиқ тумани Туябўғиз кўрғонида жойлашган. Сув хажми – 250 млн.м³ тўғон соф тупроқдан ташкил топган, тўғон узунлиги 2815 м, тўғоннинг усти кенглиги 13 м, ўнг ва чап сув чиқарувчи каналлари ва фавқулодда ташлама затворлари жами 11 дона, ўнг сув чиқариш канали ҳамда чап соҳил чиқазгич канали орқали 122 минг га майдонга сув етказиб беради.





1-расм. Тошкент сув омбори

Методология.

Гидротехника иншоотининг хавфсизлик декларацияси мазмунига мувофиқ сув омборини таъмирлаш ва реконструкция қилиш ҳамда техник ҳолатини, ишончилигини ва хавфсизлигини таъминлаш бўйича тадбир режаларини ва аввал берилган кўрсатмаларни бажарилишини ўрганиш жумладан:

- юқори ташкилот томонидан тасдиқланган сув омборини таъмирлаш ва реконструкция қилиш бўйича тадбир режаларини мавжудлиги, улардаги Сув омбори ишончилиги ва хавфсизлиги ишларини таъминлаш учун иш ҳажмларини етарлилиги;

- аввал берилган кўрсатмаларни, тавсияларни, текшириш актларини, тасдиқланган хавфсизлик декларациялари талабларини ва бошқа таклифларини бажарилишини таъминлашни ўз ичига олади.

Гидротехника иншоотларини ишлатишни яхшилаш қуйидаги йўналишларда олиб борилса, ижобий натижалар бериши мумкин:

- бошқарувнинг рационал тузилмасини ишлаб чиқиш ва эксплуатация хизматини ташкил этиш;

- илғор тажрибалар асосида ишлатишни илмий ташкил этиш ва хизматчилар меҳнатини тақдирлаш;

- гидротехника иншоотларини техник бошқаришни автоматлаштирилган тизимини мукамаллаштириш ва ишлаб чиқиш;

- янги, мукамаллашган назорат – ўлчов асбобларини ишлаб чиқиш;

- таъмирлаш – эксплуатация ишларини комплекс механизацияланишини таъминловчи илғор (прогрессив) технология ва механизмларни яратиш;

- гидромелиорация тизими ва ундаги гидротехника иншоотларини ишлатиш учун мелиоратив машиналарнинг тўла комплексини яратиш.

Гидротехник иншоотлардан тўғри фойдаланиш, уларнинг систематик кузатиш мумкин бўлган бузилишларни замонавий тарзда олдини олиш, иншоотларнинг узок вақт ишлашини ва капитал ремонтларга минимал сарф ҳаражатлар кетишига сабаб бўлади.

Натижалар.



Дала кузатувлари натижасида 2020 йил якунига кўра сув омборининг ишлаш режими кўрсаткичлари куйидагиларни ташкил этади:

1. Сув сатхининг белгиси: 389,53 м
2. Сув омборида сув хажми: 155,00 млн.м³
3. Сув омборининг ўнг соҳил каналидан 0,0 м³/с
4. Фавкулотда ташлама: 0,0 м³/с
5. Сув чиқиши: 0,0 м³/с
6. Сув келиши: 27,5 м³/с

Хавф – хатарни белгиловчи факторлар:

- фавкулотда ташлама иншоотини масофавий бошқариш тизимини тиклаш,
- фавкулотда ташлама иншоотидаги затвор кўтаргич троссларини алмаштириш ва мойлаш, 3 та сегмент затворларни занглашга қарши ишлов бериш ва механик ускуналарини (редукторлар) ичидаги мойларни текшириш ва таъмирлаш,
- сув омборида аниқланган лойқани тозалаш,

- авария захира материалларини тўлиқ ҳолатга келтириш.

Хулоса ва тавсиялар.

- фавкулотда ташлама иншоотини масофавий бошқариш тизимидаги носоз кабелни алмаштириш,
- фавкулотда ташлама иншоотидаги затвор кўтаргич троссларини алмаштириш ва мойлаш, 3 та сегмент затворларни занглашга қарши ишлов бериш ва механик ускуналарини (редукторлар) ичидаги мойларни текшириш ва таъмирлаш,
- сув омборида аниқланган лойқани тозалаш мақсадида тегишли ташкилотлар билан боғланиб сув омборини лойқадан тозалаш ишларини лойиҳалаштириш ва амалга ошириш,
- авария захира материалларини сотиб олиш ва тўлиқ ҳолатга келтириш.

Тошкент сув омбори хавфсизлигини таъминлаш бўйича хизматини ташкил этиш, сув омборининг иш режимини ўрганиш, фавкулотда ҳолатларда сув омборидан фойдаланиш тартибини жорий қилиш, эксплуатация қоидалари ва йўриқномаларида фойдаланиш жараёнига тегишли



хавфсизликни нормалари ва
қоидаларини киритиш, ишончилиги
ва хавфсизлигини белгиловчи
тавсиялар ишлаб чиқиш.

Фойдаланилган Адабиётлар рўйхати

1. Бакиев М. Р., Рахматов Н.-
Гидротехника иншоотларидан
фойдаланиш. Тошкент, ФАН.
2019 й..
2. Бакиев М.Р., Турсунов Т.Н.,
Икрамов Н.М. О
Неблагоприятных
гидравлических процессах,
происходящих на крупных
насосных станциях. Ракурсы
инноваций. Сб. научн. и
методич. трудов. СПб, СПбГПУ
3. Бакиев М.Р., Турсунов Т.Н.,
Дурматов Ж. Сув хўжалиги
ташкилотлари эксплуатация
ҳизмати ишини ташкил этиш
буйича кўрсатмалар. ЎзР
Қишлоқ ва сув хўжалиги
вазирлиги, ТИҚХММИ



YOSH BASKEDBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING VOSITA VA USULLAR

Xaydarova Gulchexra Ismoiljonovna

*Namangan davlat universiteti. Jismoniy
madaniyat fakulteti*

Sport faoliyati yo'nalishi 1-bosqich
magistranti

Annotatsiya: Maqolada yosh
basketbolchilarning jismoniy faoliyatini
qanday oshirib borish bosqichlari va
ularda qo'llaniladigan yuklamalar
hajmlari orqali tarbiyalash yo'llari
ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, umumiy jismoniy
tayyorgarlik, maxsus jismoniy
tayyorgarlik, jismoniy qobiliyat, jismoniy
sifat.

Yosh basketbolchilarni jismoniy
tayyorlash sport mashg'ulotlarining eng
muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib,
organizmni har tomonlama rivojlantirish,
sog'liqni mustahkamlash, jismoniy
qobiliyatlarini takomillashtirish va
tayyorgarlikning barcha boshqa turlari
uchun mustahkam funksional baza
yaratishga yo'naltirilgan jarayon sifatida

tushuniladi. Zamonaviy basketbolda
jismoniy tayyorgarlikga yuksak talablar
qo'yiladi. Buni quyidagi omillar bilan
izohlash mumkin:

- Sportdagi yutuqlarning o'sib borishi har
doim sportchidan jismoniy qobiliyatlar
rivojining yangi darajasini talab qiladi;
- Jismoniy tayyorgarlikning yuqori
darajasi mashg'ulot va musobaqa
yuklamalarini oshirishning zaruriy sharti.

Qo'llaniladigan vositalarining ta'sir
ko'rsatish xususiyati va yo'nalishiga
ko'ra yosh basketbolchilarning jismoniy
tayyorgarligini umumiy jismoniy
tayyorgarlik (UJT), yordamchi hamda
maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT)
guruhlariga bo'lib o'rganiladi. Yosh
basketbolchilarning umumiy jismoniy
tayyorgarligi yuksak natijalarga erishish
uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi.
U quyidagi vazifalarni hal etishga
qaratilgan:

- Yosh basketbolchilar organizmining
funktional imkoniyatlarini oshirish;
- Jismoniy sifatlar – kuch, tezkorlik,
chidamlilik, epcillik va egiluvchanlikni
rivojlantirish;
- Yosh basketbolchilar organizmining
jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarini
yo'q qilish.



Yosh basketbolchilarning yordamchi jismoniy tayyorgarligi maxsus jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan funksional asosni yuzaga keltirishga mo'ljallanadi. U maxsus yo'nalishga ega bo'lib, quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- Yosh sportchilarning tanlangan sport turiga xos harakat faoliyatlarida namoyon bo'ladigan funksional imkoniyatlarini rivojlantirish;
- Organizimning yuqori darajadagi maxsus yuklamalarga chidamliligi qobiliyatini takomillashtirish;
- Tiklanish jarayonlarini kechish shiddatining ortirishi. Yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi tanlangan sport turi bo'yicha musobaqa faoliyatining xususiyatlari qo'yadigan talablarga qat'iy rioya qilingan holda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Yosh basketbolchilarni maxsus jismoniy tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etadi:
 - tanlangan sport turi uchun xos bo'lgan jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish;
 - tanlangan sport turi bo'yicha muvaffaqiyatli texnik – taktik takomillashuv uchun zarur bo'lgan

harakat ko'nikmalarini chuqurlashtirgan holda rivojlantirish;

- ixtisoslashtirilgan mashqlarni bajarishda ko'proq qatnashadigan alohida mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish.

Yosh sportchilarning MJT harakat ko'nikmalari tizimidagi eng muhim harakat sifatlarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shuning uchun, maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida musobaqa mashqlari ularning sportchi organizmiga ta'sirini kuchaytiruvchi har turli murakkablashtiruvchi unsurlar bilan birgalikda qo'llaniladi. Jismoniy tayyorgarlikning barcha turlari muayyan o'xshashliklarga ega. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligi sport ixtisosligi bilan chambarchas bog'liq. Mashq jarayonida jismoniy tayyorgarlikning biror turiga yetarlicha baho bermaslik oxir-oqibat sport mahoratining kuchayishiga to'sqinlik qiladi. Yosh basketbolchilarning mashg'ulotlarida UJT va MJT vositalari nisbatiga qo'yiladigan vazifalar, sportchilarning yoshi, malakasi, ularning alohida xususiyatlari, mashg'ulot jarayonining bosqich va davrlari, organizmning ayni paytdagi holatidan kelib chiqib o'zgartiriladi. Sportchining malakasi oshib borar ekan, MJT vositalarining hissasi ortib, UJT



vositalarining hajmi shunga muvofiq tarzda kamayib boradi. Bundan tashqari yosh basketbolchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, yosh sportchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida shug'ullanuvchilar harakatlarni va ular bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, o'z jismoniy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Hozirgi paytda sportchilarning harakat imkoniyatlarini tavsiflash uchun "jismoniy qobiliyatlar" va "jismoniy sifatlar" atamasidan foydalaniladi. Bu tushunchalar ma'lum ma'noda o'xshash bo'lsalar-da, lekin bir xil emas. Jismoniy qobiliyatlar, yosh sportchining u yoki bu mu-shak faoliyati talablariga javob beradigan va uning samarali bajarilishini ta'minlaydigan ruhiy-fiziologik hamda morfologik xususiyatlari majmuasidir. Jismoniy tarbiya va sportda sportchilar qobiliyatlarining sifatiga xos xususiyatlar "kuchli", "tezkor", "chaqqon", "egiluvchan" degan iboralar o'z aksini topgan.

Yosh basketbolchilarni tayyorlashda, avvalambor, o'sayotgan organizmning fiziologik xususiyatlariga va tayyorlash vazifalarining ish xususiyatlariga mos kelishiga asoslanishi kerak. To'g'ri va o'z vaqtida qo'yilgan jismoniy va

funksional tayyorgarlik asoslari asosiy malaka va mahoratlarni

shakllantirish jarayoni bilan birgalikda kelgusida yuqori sport natijalariga erishish uchun yordam beradigan ishni olib borishga imkoniyat tug'diradi. Quyidagi vaziyatlarni hisobga olish zarur:

- 1) yosh o'zgarishi bilan birga, bolaning organizmi ham o'zgaradi. Bu o'zgarishlar nafaqat son jihatdan (bo'y, vazn), balki sifat jihatdan ham egadirlar. Shuning uchun kattalarga qo'yiladigan talablarni, bolaning yoshiga mutanosib ravishda yuzaki tarzda kamaytirib, bolalarga qo'yish mumkin emas;
- 2) bola organizmining rivojlanishi uzluksiz, ammo notekis holda ketadi (kechadi).

Ma'lum bir davrlarda muhim o'zgarishlar bo'lib o'tadi (bo'yning mushak massasining o'sishi, organ va tizimlarining rivojlanishi har xil yoshga qarab bo'lingan davrlarda sur'at jihatdan ham, metabolik jarayonlar xarakteri jihatdan ham turlichadir). Masalan, qizlarning jinsiy yetilishi davri o'g'il bolalarnikiga qaraganda ancha ertadir, qizlar 11-13 yoshda bo'y va vazn jihatidan o'g'il bolalardan o'zib ketishadi, o'g'il bolalarda mushak kuchi



13-14 yoshda, ayniqsa, jadal ravishda o'sadi, qiz bolalarda esa 11-12 yoshda;

3)bolalarning jismoniy sifatlarning va boshqa qobiliyatlarning rivojlanish sur'atlari ma'lum bir davrlarga to'g'ri keladi. Natija ma'lum bir jismoniy sifatlarni va boshqa

qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulayroq shart-sharoitlar yaratiladi. Masalan, sezuvchanlik tezligi 15 yoshgacha rivojlanadi, yuqori tezlikning o'sishi 13-14 yoshlarga, ayniqsa, jadal ravishda bo'lib o'tadi. O'g'il bolalarda yuqoriga sakrash natijalarining eng yuqori o'sishi 9-13 yoshda kuzatiladi, keyinchalik bu jarayon

barqarorlashadi, qizlar esa ba'zan 15 yoshdan keyin vaqtinchalik yomonlashadi harakatning har xil turlarida qizlarning va o'g'il bolalarning ko'rsatkichlari yoshiga

qarab bo'lingan guruhlariga qarab turlicha bo'ladi. Shuning uchun yosh o'sishi natijasida vujudga keladigan shart-sharoitlarni hisobga olish kerak;

4)har bir organizmning yakka tarzda rivojlantirishini yodda tutish zarur. Kalendar,

pasport yoshidan tashqari, jismoniy rivojlanish saviyasini, harakatlantiruvchi imkoniyatlarini, jinsiy yetilish va h.k.

tasniflaydigan biologik yoshni ham hisobga olish tavsiya etiladi. Kalendar yoshi biologik yoshga to'g'ri kelmasligi ham mumkin.

Hozirgi vaqtda jismoniy qobiliyatlarni besh asosiy turga ajratish qabul qilingan: kuch, tezkorlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlari, chidamkorlik va egiluvchanlik. Ularning har biri harakat faoliyatining har xil turlarida xilma-xil shakllarida namoyon bo'ladi. Hozirda jismoniy qobiliyatlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlari ham mavjud:

1. Harakat – jismoniy qobiliyatlarning yetakchi omili.
 2. Qobiliyatlar rivojining harakat faoliyati rejimiga bog'liqligi.
 3. Jismoniy qobiliyatlar rivojlanishining bosqichliligi.
 4. Qobiliyatlar rivojining notekis va geteroxronligi (turli vaqtga mansubligi).
 5. Qobiliyatlar ko'rsatkichlarining qaytariluvchanligi.
 6. Jismoniy qobiliyatlarning ko'chishi.
 7. Harakat malakalari va jismoniy qobiliyatlarning o'zaro aloqasi va birligi.
- Basketbolchilarni jismoniy tayyorgarligida jismoniy tayyorgarlikka



yo'naltirilgan mashqlar bilan bir qator maxsus sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning hissasi tobora ortib boramoqda. Epchillik, tezkorlik ustidagi ishlar davom etmoqda. Kuch va chidamlilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga erishishning yo'llarini tanlashda tezlik-kuch tavsiflaridagi mashqlarga kattaroq o'rin beriladi. Chidamlilik oshirishga qaratilgan mashqlar uyin faoliyatiga o'xshash tavsifga ega bo'lib qoladi. Bunday mashqlarning jadalligi juda tez ortib boradi, lekin ular qisqa muddatli bo'ladi va kuchni tanlab olish uchun yetarli bo'lgan dam olish daqiqalariga ega bo'ladi. Shu maqsadda texnik va taktik harakatlarda barcha mashqlarni qo'llash mumkin, lekin ularni imkon bo'lgan eng katta tezlikda, joydan-joyga tez ko'chish va aks ta'sirlar sharoitida bajarish kerak.

Shu tufayli, yosh basketbolchilarning u yoki bu harakat faoliyatini qay darajada o'zlashtirib olganiga qarab tegishli jismoniy qobiliyatlarni yuzaga chiqarish darajasi ham o'zgaradi. Shuning uchun, jismoniy tarbiya sohasida pedagogik jarayonni olib boruvchi kishi uni faqat ta'lim va tarbiya tamoyillariga emas, jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyillariga muvofiq ravishda qurishi

kerak bo'ladi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, jismoniy mashqlarga o'rgatish tamoyillari basketbolchilarda yagona talablarni o'zida aks etadi: ularda har qanday pedagogik jarayon onglilik, faollik va boshqa tamoyillar asosida qurilishi zarur. Ammo mazkur tamoyillarning aniq ro'yobga chiqarilishi hal etilgan vazifalarga muvofiq bo'lishi shart. Shunday qilib, maksimal yuklamaning haqiqiy korsatkichlarini shug'ullanuvchilarni muayyan jismoniy holatiga nisbatangina aniqlash mumkin. Albatta, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishda maksimal yuklamalarni shug'ullanuvchilarda tegishli tayyorgarlik mavjud bo'lganda, ularning yoshini, alohida xususiyatlarini, shuningdek, yuklamaning ham o'ziga xos jihatlarni e'tiborga olgan, boshqa tamoyillariga rioya qilgan holda qo'llash zarur. Jismoniy yuklamaning kattaligi uning hajmi va shiddati bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra, yuklama ish hajmini aniq taqsimlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farmonov O'.A. "Sport va harakatli o'yinlar o'qitish metodikasi (Basketbol)" 2019-y 187



bet

2. Ibragimov A.K. Вестник
интегративной психологии.
Психологические особенности
мотивации спортсменов. 2019. 3.
Nurullayev A.R. “Jismoniy madaniyat”
O‘quv qo‘llanma. 2018-yil 225-bet.
Qosimov A.SH. Basketbol, Rasulov
O.T., Ismatullayev A.X., – T.: 19
3. Sulstonov R, Umarov K. Baskdbol
nazariyasi va uslubiyoti Toshkent 2017 y



THE MANIFESTATION OF NATIONAL TRADITIONS ON THE INTERNET TEXT

Eshquvvatova Gulmira Norjigitovna-
master student of the faculty of
philology of SamSu Eshquvvatovag
mail.com (+998933487643)

Annotation: In order to influence the listener, the speaker should use not only linguistic means, but also non-linguistic means. According to the American scientist Megrabian's formula, the positive impressions of the first interlocutors are positive for 7% of speech, 38% for paralinguistic factors and 58% for non-verbal actions. This means that nonverbal means have a direct effect on the speech process. Each nation uses its language differently in communication. The language used in Uzbek speech is different from that of other nations, reflecting Uzbek culture.

Key words: *speech, verbal, nonverbal, hand, handkerchief, Kelin salom, Assalomu alaykum, gesture, Uzbek, woman.*

Introduction

Gender analysis of means of language is one of the issues in linguistics in recent years. In particular, So many works have been done in Russian linguistics in terms

of this notion. Each nation uses its language in different ways, depending on its mental imagination. There is a difference in terms of the usage of language in Uzbek speech which reflects uzbek culture and other nation's. At the same time, there are differences in the use of means of language on the speech of women and men. The more we understand the difference between men and women, the less we hear "you don't understand me." However, there are no ready-made frames and templates that can be a key factor in the study of communicative behavior in men and women.

Gesture nonverbal means are also referred to as gest. Gest is derived from the Latin word jereru, jestus, meaning "to do". In English sources, the word is used to mean "control of the body," "human behavior." According to the English scientist A. Kendon, the term refers to the ability of the speaker to behave correctly during his speech, the effective, purposeful use of the body's capabilities in influencing the listener. Gestures are understood by movements of the face, legs, arms, and head.


Main part

The appearance of national customs in the speech of women and girls depends




on the situation. While non-violent means are understood as the way people behave, behave, and even dress, it appears on women speech. All of the above apply to face-to-face communication. In the process of visual communication, stickers play their role on the Internet, there are stickers for every nonverbal situation. Here are some of them:

1. The right or left arm (sometimes both arms) is at the waist, with the head raised - protest, nervousness, readiness to fight. In this case, of course, linguistic means are also used.




[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

2. The scarf is wrapped around the forehead and tied at the back of the head: two arms at the waist - signs of anger, protest, violence, readiness to fight someone;



a) the purpose is to show woman's illness and having terrible headache;



[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

b) in this case, the woman does not want to talk to anyone, she wants to be alone.




[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

Of course, linguistic means are also vital for knowing which of the various




situations are appropriate for the situation. For example, in the first case the volume sound is high but words and phrases with different negative accents are used, in the second and third cases the tone is very low, the sentences are short and in some cases incomprehensible.

3. The scarf is tied around the forehead and tied at the back of the head, the head is slightly bent to one side, one hand at the waist or side, the other hand a fan or something similar, a raso, to move in small steps is to express the monopoly, the violence, the ability of that person to do what he says in the same place and time. Mothers-in-law often look like this in order to protest against their daughters-in-law or to do what they say. In this case, linguistic means are used very effectively. The tone of voice is sometimes loud, sometimes low, speech is slurred, and words of obedience are used.




[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

4. The long sleeves are folded up to the elbows - a sign of readiness to work. At the same time, if both arms are at the waist, it means that you are ready to fight.



[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

5. One of the most peculiarities of Uzbek women is to listen politely to adults with their heads bowed. In this case, if a job or assignment is ordered, it is addressed through linguistic means, such as "Okay," "With my soul," "Okay," "I'll do as you say."




[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

6. Another characteristic of Uzbek women is staring at their children with




full of affection. In this case, if the child is lying in a beshik or swing, his head is slightly tilted to one side, there are emotional states, such as a smile on his face, an expression of satisfaction, speaking through linguistic means, saying aloud with kindness.



[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

7. Uzbek women also use a number of non-verbal means of greeting. In particular, hugging with both hands, kissing on the face, tapping on the shoulders, and in some areas taking the palms between the hands is a positive ottenka of seeing, while seeing with one hand is a positive ottenka. to see at the tip, to touch the faces to the name, to look at the tip of the tongue without giving a hand at all is its reflection.



[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

8. Greetings from brides are especially important in Uzbekistan. Each region has its own "Bride's Greetings" ceremony, in which brides greet each of those around them in accordance with the customs of their region. In doing so, brides do not use any linguistic means. Only the special women standing next to him express who is being greeted through linguistic means.




[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

1. One of the most common non-verbal conversations of Uzbek brides is that every morning after the wedding, they bow to the owners of the house or to the guests several times with a headscarf on their heads. At the heart of this is the etiquette of greeting, which includes linguistic units of communication, such as "Hello!", "Welcome!", "I'm



glad to see you", "Good luck depending on their mood and what they with your steps". want to do.



[<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]

Conclusion

In general, means of non-linguistic communication plays an important role in the speech of Uzbek women. Because girls are taught from an early age to speak less which is related with national mentality. The usage of various gestures, facial expressions, and gestures during communication is the same for everyone. The various gestures and facial expressions used to express positive states such as joy, contentment, contentment, and happiness while some of them used to express negative states such as sadness, dissatisfaction, depression, and unhappiness.

While means of non-linguistic communication are also determined by the appearance of human, this is especially true for women. Because only they can change their appearance

The List of used literature

1. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. DDA. – Toshkent. 2000.
2. Биркенбил В. Язык интонации, мимики, жестов. СПб.: Питер, 1997.
3. [<https://t.me/addstickers/Uzstickdars>]



ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA XODIMLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turdiyev Javoxir Toxir o'g'li

IIV Akademiyasi 323-guruh kursanti

Annotatsiya: Maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida xodimlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, psixologiya ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo'lish va shu asosda qonuniy hatti-harakatlarni amalga oshirish yo'llari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: psixologiya, sezgi, idrok, iroda, muloqot.

Mustaqillik necha asrlar davomida yaratilgan boy ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy merosimizni nafaqat o'rganish, balki uni davr talablari asosida qaytadan idrok etish va milliy manfaatimizga xizmat qildirish vazifasini oldimizga qo'ydi. To'plangan tajribalarimiz va qadriyatlarimiz negizida milliy istiqloq mafkurasining yangicha tamoyillari yaratildi. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdek pirovard maqsadimizdan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi faoliyatimizni ulkan bir vazifaga – xalqimiz ongiga milliy istiqloq g'oyasini

singdirish, ularda uzoq yillar davomida shakllangan va ulug'langan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qayta o'zlashtirish, e'zozlash hamda uning aqidalarini hayotda qo'llashga qaratmoqdamiz.

Ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolarning xavfsizligi, tinchligi, haququqi va erkinliklarini ta'minlashga mas'ul bo'lgan davlat xizmatchisi hisoblanadi. Ana shu mas'uliyat xodimdan birinchi navbatda o'z kasbining bilimdoni, ustasi bo'lishni talab qiladi. O'z kasbining bilimdoni bo'lish uchun nafaqat yuridik fanlarni, balki shaxslarning ruhiy holati va kechinmalarini ham yaxshi bilish kerak bo'ladi. Bu esa har bir Ichki ishlar organlari xodimlaridan psixologiya ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo'lish va shu asosda qonuniy hatti-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyati jamiyatda mavjud bo'lgan barcha kasblardan, birinchidan, davlat tomonidan qat'iy belgilab berilgan qonunlar, buyruqlar, nizom va yo'riqnomalar asosida ish ko'rishi; ikkinchidan, bevosita jinoyatchilar dunyosi bilan ishlashi; uchinchidan, hayotining doimo xavf-xatar ostida bo'lishi; to'rtinchidan, davlat



hokimiyatining vakili sifatida ish ko'rishi bilan ajralib turadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida irodaviy fazilatlarni shakllantirish faoliyat samaradorligini ta'minlovchi psixologik omillardan sanaladi. Ichki ishlar organlari xodimlari o'z kasbiy vazifalarini benuqson bajarishlarini qiyinlashtiradigan, ba'zan xizmat faoliyatlarida maqsadga erishish uchun to'sqinlik qiladigan turli to'siqlarga duchor bo'ladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchiliklar va to'siqlarni yengishga undovchi irodaviy fazilatlarini namoyon qilishlari muhimdir. Irodaviy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mashg'ulotlar jarayoniga qo'yilgan vazifani bajarishga to'sqinlik qiluvchi muayyan elementlar, to'siqlarni kiritish katta yordam beradi.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

- 1) irodani tarbiyalashni nisbatan arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishdan boshlash;
- 2) qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadga erishish uchun amalga oshirilishini tushunish;
- 3) qabul qilingan qaror bajarilishi kerakligi;

4) maqsadga erishish bosqichlarini ko'ra olish juda muhimdir.

Irodani tarbiyalashni arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Dastlab unchalik katta bo'lmagan qiyinchilikni, vaqt o'tishi bilan kattaroq qiyinchiliklarni muntazam ravishda yengib borib, kishi o'zining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida hissiy-irodaviy holatlarning o'rni beqiyosdir. Chunki xodimning murakkab vaziyatlarda qulay ruhiy holatni saqlash qobiliyati faoliyat samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida muloqot, ayniqsa, bevosita muloqot o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki tokar temir bilan, zootexnik hayvonlar bilan ishlasa, huquqni muhofaza qilish organi xodimi shaxslar bilan, aholi bilan, jinoyatchi, guvoh, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi bilan ishlaydi. Ularning har biri o'ziga xos dunyoqarash va muomalaga ega, bu muloqot jarayonida ko'rinadi.

Muloqotda nutq muhim rol o'ynaydi, uning ravonligi, so'zlarning yaxshi va o'z joyida to'g'ri ishlatilishi muvaffaqiyat garovidir. Nutq



eshittirilishi yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki karsoqov kishilar uchun biror-bir mohiyatga ega bo'lgan imo- ishoralar bilan almashtirilishi mumkin. Muloqotda ma'lumot beruvchi va qabul qiluvchi o'rtasida o'zaro hamkorlik yuzaga keladi. Nutq shaxsning tashqi ko'rinishi, kiyinishi, mimikasi, tez yoki sekin gapirishi, ovozi, salmoqlab yoki vazmin gapirishiga bog'liq bo'ladi.

Shaxs ma'lumotni ikkinchi bir shaxsga nutq bilan birga xatti-harakat, mimikalar orqali, shuningdek yozma yoki ko'rgazmali usulda berishi mumkin. Muloqot davomidagi emotsional holat muloqotga kirishayotgan shaxsning xatti-harakatiga salbiy ta'sir qiladi.

Muloqotning uzoq davom etishi ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Har qanday muloqotdan biror-bir maqsad ko'zda tutiladi. Muloqotga kirishgan har bir shaxs uning yakunidan turlicha, ya'ni ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarishi mumkin.

Ichki ishlar organlari xodimlari odamlar bilan muloqot qilishi uchun chuqur bilim va quyidagi ijtimoiy-psixologik fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

– notanish shaxslar bilan tezda muloqotga kirishish, ularga ma'qul bo'lish;

– boshqa shaxslarning gapini eshitish qobiliyatiga ega bo'lish;

– odamlarga psixologik ta'sir ko'rsata bilish;

– muloqot jarayonida psixologik to'siqlarni bartaraf etish va hokazo.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kommunikativ faoliyati maxsus jihatlarga ega bo'lib, u bir qator psixologik xususiyatlarni, birinchidan, ichki muloqotning o'ziga xos tomonlarini, ikkinchidan, uning qiyinligini ko'rsatadi.

Ushbu muloqotning muhim xususiyati uning kasbiy yo'nalganligidir. Zero, xodimlar jinoyat qilgan shaxslarni, guvohlar va jabrlanuvchilarni aniqlash maqsadida boshqa shaxslar bilan muloqotda bo'ladilar. Organ xodimlari haqiqatni ochishga harakat qilsalar, jinoyatchilar, aksincha, jinoyatni yashirishga, yolg'on ma'lumot berishga, jinoiy javobgarlikdan qutilishga intiladilar.

Tergovchi protsessual qonunlar doirasida harakat qiladi, ya'ni jinoyatchi shaxsga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatiga qaramasdan muloqot qilishga majbur.

Muloqot jarayonida obyektning o'ziga xos tomonlari borligini ham hisobga olish lozim. Shuni aytish joizki, ko'p



holatlarda jinoyatchi shaxslar jamiyatdagi axloqsiz, odobsiz va vijdotsiz kishilar bo'ladilar.

Natijada muloqot jarayonida har xil psixologik to'siqlar paydo bo'lib, ko'proq ular sun'iy ravishda vujudga keltiriladi.

Hozirgi kunda jamoada muvaffaqiyatga erishish rahbariyat va xodimlar faoliyatini to'g'ri tashkil etish asosida ma'naviy-axloqiy muhit yaratishni taqozo etmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlari jamoalarida har bir xodim ijtimoiy psixologik muhit yaxshi bo'lishiga mas'ul va majbur sanaladi. Faqat shunday sharoitdagina qo'yilgan muammolar maqsadga muvofiq, topshiriqlar o'z vaqtida bajarilishi va shaxsning shakllanishi me'yorda kechishi ta'minlanadi.

Ammo Ichki ishlar organlari xodimlari jamoalarida ham ba'zi yuqoridagi kabi nizoli holatlar ro'y berib turadi. Nizolarning salbiy oqibatlarini bartaraf hal etish ularni atroflicha o'rganishni talab etadi. Bunga esa jamoani yaratish o'zaro iliq ijtimoiy psixologik muhitni yaratish orqali erishish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish joizki Har qanday kasbiy faoliyat insonga muayyan talablar qo'yadi hamda uning shaxsi va butun turmush tarzida o'ziga xos iz

qoldiradi. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi qanday shaxsiy xislatlarga ega bo'lishi lozimligini aniqlash uchun ushbu faoliyatning o'zini psixologik jihatdan tahlil qilish, uning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, tarkibiy tuzilishini ochib berish zarur. Kasbiy faoliyatning qonuniyatlarini aniqlash uni nafaqat o'rganishga, balki takomillashtirishga ham qaratilgan tashkiliy tadbirlar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik jihatdan tayyorlashdan ko'zlangan maqsad ularda xizmat faoliyatining har qanday murakkab sharoitlarida kasbiy jihatdan to'g'ri, aniq, yuqori ishchanlik bilan harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ichki ishlar organlari xodimlarining shaxsiy, birinchi navbatda, kasbiy jihatdan muhim xislatlariga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu faoliyat xodimlarda hissiy-irodaviy barqarorlikni, stress holatlarini vujudga keltiruvchi omillar ta'siriga qarshi psixologik immunitet shakllantirishni talab etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini takomillashtirishning asosiy



yo'nalishlaridan biri xodimlarni psixologik jihatdan tayyorlashdir.

Psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

–Ichki ishlar organlari xodimlari uchun tipik bo'lgan stress omillar va ularning ta'siriga psixologik chidamliligini oshirish;

– xodimlarda psixologik xislatlarni rivojlantirish, har qanday vazifani operativ xizmat faoliyatining turli murakkab va xavfli sharoitlarida ham muvaffaqiyatli bajarishlariga yordam beruvchi uquv va ko'nikmalarning o'ziga xos jihatlarini shakllantirish.

Psixologik tayyorgarlik xodimlar kasb mahoratining tarkibiy qismidir.

U xodimning shakllangan va rivojlangan psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, operativ xizmat faoliyatining o'ziga xos va muhim psixologik xususiyatlariga javob beradi va uni amalga oshirishning zarur shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlik xodimning kasb mahoratini keskin oshiradi.

Ilmiy tadqiqotlar va mavjud ijobiy tajriba professional ta'lim tizimiga psixologik tayyorgarlikni maqsadga yo'nalgan tarzda oshirib borishning

maxsus vazifalari, shakl va usullarini kiritish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda psixologik tayyorgarlik – ichki ishlar organlari kasb tayyorgarligining muhim tarkibiy qismidir. «Shaxsiy tarkib sifati uning kasbiy mahorati darajasi, axloqiy-ruhiy darajasi, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi».

Ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik tayyorgarligi xodimlarga operativ xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli va samarali bajarish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirish, rivojlantirish va faollashtirish bo'yicha maxsus tashkil etilgan maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Psixologik tayyorgarlik xizmat faoliyatining xususiyatlariga bog'liq. Shunga ko'ra, psixologik tayyorgarlikning mazmuni aniq ifodalangan kasbiy

yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim. Xodimlar psixologik tayyorgarligining mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

□ jinoyatchilikka qarshi kurashga psixologik jihatdan tayyor bo'lish xislatlarini shakllantirish;



- maxsus operativ xizmat faoliyatining turli jihatlariga psixologik yo'nalganlikni organlari xodimlari psixologiyasi. 2017 rivojlantirish;
 - kasbiy jihatdan muhim bo'lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
 - turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish uquv va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;
 - operativ xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirishish ko'nikmalarini ta'minlash;
 - fuqarolar bilan muloqotga kirishning murakkab, nizoli vaziyatlarida ta'sir etishning psixologik-pedagogik usullarini qo'llash mahoratini shakllantirish;
 - operativ xizmat faoliyatining og'ir vaziyatlarida o'zini tuta olish va psixologik barqarorlikni ta'minlash;
 - shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o'zini tutish va boshqarish usullarini o'rgatish;
 - irodaviy faollikni va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish;
- ishdagi ruhiy zo'riqishlarga tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:



MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALAR PSIXOMOTOR RIVOJLANISHINING ÒZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Ikromova Dilafro'z Furqatovna

*Ish joyim Jizzax viloyati Sh.Rashidov
tumani*

11 maktab amaliyotchi psixologi

*Òqish joyim Jizzax Davlat pedagogika
instituti*

*"Maxsuspedagogika defektologiya
(logopediya)"*

yònalishi 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Jismoniy va ruxiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llabquvvatlash ta'lim tarbiya tizimi va mazmuni davr talabi darajasida takomillashtirish ularni kasb-hunarga o'rgatish, sog'lom jamiyatda integrallash masalasiga davlatimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Alohida ehtiyojli bolalari ilk yoshdan ta'limga tayyorlash psixologik-tibbiy pedagogik yordamlarni kompleks yo'naltirilgan holda olib borish masalalariga ko'proq e'tibor berilmoqda. Shundan kelib chiqan holda ush bu maqolada maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar psixomotor

rivojlanishining òziga xos xususiyatlar mavzusida yozdik.

Kalit so'zlar:

Duduqlanish, psixomotor, yosh davrlari, psixologik yordam, pedagogik yordam.

Duduqlanish - nutq buzilishlarining murakkab va ko'p uchraydigan turlaridan biridir. Bu nutq kamchiligida nutq a'zolari muskullarining tortishishi natijasida nutqning sur'at va ohangi buziladi, kommunikativ aloqa vositasi izdan chiqadi. Nutq a'zolari muskullarining ravon ishlay olmasligi, paylarni, muskul tolalarining tortishib qolishi duduqlanishga sabab bo'ladi. Xorijiy va mamlakatimiz olimlarning ta'kidlashicha, dunyo bolalarining 2 % ida tutilib gapirish nuqsoni kuzatiladi. Buyuk rus psixiatri I.A.Sikorskiy duduqlanishni —bolalar kasalligi deb atagan edi, chunki bu kamchilik 2 yosh bilan 5 yosh orasidagi bolalarda nisbatan ko'proq uchraydi. Bu davrda bolada nutq jarayoni juda shiddat bilan shakllanadi. Hozirgi davrda duduqlanish belgilari bir biriga bogliq bo'lgan 2 ta guruhga ya'ni fiziologik va psixik guruhga ajratiladi. Fiziologik belgilarga: nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolarining tortishishi, markaziy nerv sistema va jismoniy salomatlikning bo'shligi, zaifligi, umumiy gavda va nutq



harakatlarining buzilishi kiradi. Psixik belgilarga: nutqda tutilish, his xayajon buzilishi, logofobiyalar, hayajonlanish, vohima, alamzadalik, umumiy zo'riqish, uyquda cho'chib ketish, yuzaki uyqu yuz beradi. Nutq xosil bo'lishida muskul tortishishi duduqlanishning tashqi belgisi hisoblanadi. Aslida muskul tortishishi 3 xil bo'ladi: klonik, tonik va aralash.

Klonik muskul tortishish vaqtida tovush, bo_g_in yoki so'z bir necha marotaba takrorlanadi (a-a-asal, qa-qa-qa-qalam, tosh-tosh-tosh) Tonik muskul tortishish vaqtida esa so'z boshida to'xtalish ro'y beradi va tutilib gapiruvchi bir tovushdan, bo'g'indan va so'zdan 2chi tovushga, bo'g'inga va so'zga o'tolmaydi, uzoq to'xtalib qoladi (...a....sal, q....alam,t....osh).

Uchinchi turi aralash klonotonik yoki tonoklonik muskul tortishishi kuzatiladi. Tortishish nutqning u yoki bu organlari: nafas olish, ovoz paychalari yoki artikulyatsion apparatda ro'y beradi.

Mashg'ulotlar maktabgacha yoshidagi duduqlanuvchi bolalar ta'limining asosiy shakli hisoblanadi. Mashg'ulotlarda bolalar yangi bilim va ko'nikmalarni oladilar, shu bilan birga umumiy va nutqiy hatti-harakat malakalarini o'zlashtiradilar va duduqlanishdan holi mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini egallaydilar. Duduqlanuvchi bolalarda og'zaki ko'rsatmalar va

namoyish yoki namunaning namoyishsiz birgina og'zaki ko'rsatmalarga mos ravishda o'quv faoliyatini bajarish qobiliyati shakllanadi, idrok, xotira, tafakkur, bilishga bo'lgan qiziqishlari rivojlanadi va boshqaruv jarayonlari shakllanadi. Bolalar aniq va umumiy savollarga javob berishga o'rganadilar; logoped, tarbiyachining talabiga ko'ra qisqa va keng javob qaytarishni mashq qiladilar; normal tempda, atrofdagilar uchun tushunarli, yetarlicha baland, aniq, ma'noga mos ravishda javob beradilar. Mashg'ulotlarda ot, sifat va tilning boshqa bo'laklarining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash malakalari mustahkamlanadi. Diqqatning jamlanganligi, fahmlilik, eslash, dialog vaqtida faol ishtirok etish, lozim bo'lganda esa impulsiv bayondan o'zini tiyish kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar mashg'ulotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. O'rtoqlaridan ilgari ketmay va ulardan ortda qolmay ishni bir vaqtda boshlash va yakunlash ko'nikmasi shakllanadi, faoliyatning normal tempi, harakatchanlik, kelishib, ketma-ketlikda ishlash odati, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, faoliyatning ikki turi o'rtasida diqqatni taqsimlay olish, materialni (qog'ozni) ratsional sarflash, qo'llanmalar, qurollardan to'g'ri shaxsiy sifatlarni va umumiy va nutqiy



hatti-harakat malakalarini shakllantirish, shuningdek mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini mustahkamlashga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek nafaqat jamoada, balki yakka tarzda o'ynash ko'nikmasini rivojlantirishga, o'yin qoidalariga mos ravishda o'z istaklarini bo'ysindirish yoki chegaralashga, iroda sifatlarini tarbiyalashga: o'z-o'zini nazorat etish, o'z hatti-harakatlariga javobgarlik, diqqatni jamlash, o'yinda faol bo'lish va bir vaqtning o'zida lozim bo'lsa, o'z hissiyotlari va hoxishlarini tiya bilishga katta e'tibor beriladi.

5. Ziyonet.uz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi|| Ma'ruza matni .T-2001**
- 2. Axmedova Z.M, Ayupova M.YU, Nurkeldiyeva D.A.«Barmoqlar mashqi va logopedik o_yinlar», Toshkent «Yangi asr avlodi» 2007**
- 3. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniyel xrestomatiya —Eksmo-Press||, 2001**
- 4. Volkova L.S., Shaxovskaya S.N. Logopediya, —Vladosl. 2004.**



INDIRA GANDI MA'MURIYATI DAVRIDA HINDISTONNING TASHQI SIYOSATI

SSamDU Tarix fakulteti

Dots.Raxmatullayev M

Magisstrant Komilov Sobit

Javaharla'l Neru chet elga safar qilganda Indira Gandhi ko'pincha otasini birga kuzatib borar edi. U dunyoni ko'rgan sari ozod bo'lgan Sharq mamlakatlari rahbarlari va G'arb davlatlari rahbarlari siyosiy qarashlarini tahlil qila boshlagan. Jumladan, 1955 yili Indira Gandhi otasi bilan Bandung konferensiyasida ishtirok etdi. O'sha vaqtlardayoq Indira Gandhi mamlakatdagi ichki ahvolni va xalqaro maydondagi vaziyatni to'g'ri tushunar va tahlil qila olardi. Bu kabi rasmiy uchrashuvlar xalqaro munosabatlarning nozik tomonlarini to'g'ri tushunishga, tajribali diplomatlar bilan muzokara olib borish san'atini o'rganishga katta yordam berdi. U qisqa vaqt ichida juda ko'p muhim zamonaviy anjumanlarda ishtirok etishga muyassar bo'ldi. Bular Indiraning iste'dodini takomillashtirdi, zukko bo'lib yetishishiga yordam berdi. Indira Gandhi ta'kidlagan edi: "Mendagi afzallik otamning menga bergan ta'limi va tarbiyasi hamda qator ulug' kishilar bilan uchrashuvida bo'ldi... Ammo siyosat sohasida ikki barobar ortiq harakat

qilishga to'g'ri keldi. Chunki men uning qizigina emas, mustaqil shaxs ekanligimni isbotlashim kerak edi²²". Hindiston faqat "Qo'shilmaslik harakati"ning asoschisi bo'libgina qolmay, balki uning g'oyalari – tinch-totuv yashash, tinchlik va taraqqiyotga intilish, yadro halokatining oldini olish uchun kurashni amalga oshirishga katta hissa qo'shib kelgan mamlakatlardan biridir. Uning tinchliksevar tashqi siyosat olib borishi xalqaro maydonda obro' e'tiborning ko'tarilishiga olib keldi. Indira Gandining tashqi siyosati ham ushbu tamoymlarning rivojlanishi uchun xizmat qilgan.

1971 yilgi voqealar Indira Gandining xalqaro maydondagi obro'sini oshirib yubordi. Pokiston tashkil topganidan boshlab mamlakatning g'arbiy va sharqiy tomonidagi panjobliklar va byengallar o'rtasidagi kelishmovchiliklar davom etardi. Milliy Liga boshlig'i shayx Mujibur Rahmon Sharqiy Pokiston milliy resurslardan o'ziga tegishlisiga egalik qila olmayotganligini ro'kach qilib, avtonomiya talab qilardi. 1970 yilda saylovlardan so'ng voqealar keskinlashib ketdi. Milliy Liga saylovda ko'pchilik ovozga ega bo'ldi, lekin natijalari G'arbiy Pokistondagilar tomonidan qabul

²² Салимова Ф., Маҳқамов И. Индира Ганди – Т.: Фан, 1988. – Б.34.



qilinmadi. Ular bengallar tomonidan boshqariladigan hukumatdan bosh tortdilar.

1971 yil boshida Pokistondagi bahsli saylovlar o'sha paytdagi Sharqiy Pokiston – Bangladesh o'z mustaqilligini e'lon qilishiga olib keldi. AQSH va boshqa G'arb davlatlari tomonidan rag'batlantirilayotgan Islomobod mustaqil Bangladesh jumhuriyati tuzilganligini e'lon qilgan sharqiy Bengaliya aholisiga qarshi keng miqyosda jazo operasiasini boshladi. G'arbiy Pokiston o'z qo'shinlarini sharqiy qismga kiritib, Milliy Ligani mag'lubiyatga uchratdi. Pokiston armiyasining panjobli qo'shinlari xalqni talab, o'ldirib, qiyin ahvolga soldilar. Shu tariqa, Pokistonda fuqarolar urushi boshlanadi va Pokistondan Hindistonga odamlar qochib o'ta boshlaydilar. Pokiston harbiylarining zulmi halqaro jamoatchilik tomonidan salbiy munosabat bilan qarshi olindi. 1971 yil dekabriga qadar Hindiston chegarasini 9 774 140 ta qochoq buzib o'tgan²³. Ularni oziq-ovqat, dori-darmon bilan ta'minlash Hindiston iqtisodiyotiga og'irlik qila boshladi. Ushbu vaziyatda Indira Gandhi dastlab o'z mamlakatini bu nizoga aralashuvidan tiyib turdi.

Qochoqlarning iziga tushgan Pokiston harbiy qo'shinlari Hindiston chegaralarini buzishardi. Uning xavfsizligi jiddiy xatar ostida qoldi. Bunday og'ir vaziyatda Indira Gandhi hukumati xalqaro jamoatchilik yordamidan umid qiladi. Lekin ko'p o'tmay, Indira Gandhi G'arbnings hind-pokiston nizosini tartibga solishni istamayotganligini, aksincha uning keskinlashishidan manfaatdor ekanligini ko'rdi. Hindistondan uzoqda bo'lgan mamlakatlarda Hindiston bosh vaziri Indira Gandini ongli praktisizm bilan ajralib turadigan davlat va jamoat arbobi sifatida bilishardi.

1971 yil 3 dekabrda Pokistonning harbiy havo kuchlari Hindistonning sakkizta harbiy aerodromiga hujum qildilar. Kalkuttada safarda bo'lgan Indira Gandhi Dehliga harbiy samolyotda yetib keldi. Zudlik bilan urush e'lon qilindi va hind harbiylari Pokiston va Bengaliyaga qarshi hujumga o'tdilar. Nihoyat, 1971 yil dekabrda Indira Gandhi Bangladeshni ozod qilish uchun mojaroga bevosita aralashdi. Hind qo'shinlari sharqiy Pokistonni bosib oldilar. Buni ko'rgan AQSH va Xitoy o'z ittifoqchilariga yordamga shoshildilar. AQSHning davlat kotibi Genri Kissinjer Hindistonni qo'rqitish uchun o'zining yettinchi Amerika flotini Bengaliya qo'ltig'iga

²³ Синхараджа Т.Д. Индия история страны. – М.: Эскмо, 2010. – С.290.



yubordi. Indira Gandining strategiyasi qo'l keldi. Sovet ittifoqi ikkala davlatni ham o'z rejasini o'zgartirishga majbur qildi. Hind qo'shinlari Sharqiy Pokiston poytaxti Dakkani qo'lga oldilar va 1971 yil 15 dekabr kuni Bengaliyada Pokiston qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Panjob va Kashmirdagi voqealar ham Hindiston g'alabasiga hal bo'ldi. Indira Gandidan urushni oxiriga yetkazish va Pokistonni mag'lubiyatga uchratishni talab qilinsa-da, u urushdan chiqqanligini e'lon qilib o'z qo'shinlarini Pokistondan chiqardi. Bangladesh mustaqil davlat ekanligini tan oldi va millionlab qochoqlar o'z yurtlariga qaytdilar. 1972 yilda 10 million kishi Hindistondan chiqarildi. Bu esa Hindistonning, qolaversa, Indira Gandining xalqaro miqyosdagi yutug'i edi. Pokiston bilan urushdagi g'alabadan so'ng Hindiston Janubiy Osiyoning yetakchi hukmron kuchiga aylandi²⁴.

Hindistonning Pokiston bilan munosabatlari 1972 yilgi Shimla kelishuvidan keyin ham keskinligicha qolmoqda. 1974 yilda Indira Gandining Poxranda yadro qurilmasini portlatishga ruxsat byerishiga nisbatan Pokiston rahbari Zulfiqor Ali Bxutto mintaqadagi Hindiston gegemonligini Pokistonga

qabul qildirishda urinish sifatida qaradi. Biroq, 1976 yil may oyida Indira Gandi va Bxutto diplomatik munosabatlarni normallashtirishga kelishib oldilar. 1978 yilda Pokistonda general Muhammad Ziyonul-Haq hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng, Hindistonning qo'shnisi bilan munosabatlari yana yomonlashdi. Indira Gandi general Ziyoni Panjobdagi xolistoniy jangarilarini qo'llab-quvvatlashda aybladi²⁵. 1984 yilda Indira Gandi Meg'dut operasiasiga ruxsat berganidan keyin harbiy harakatlar boshlandi. Oxir-oqibat, Pokistonga qarshi Syachen mojarosida ham Hindiston g'alaba qozondi.

Hindiston ozodlik urushidan keyin qo'shni Bangladesh (sobiq Sharqiy Pokiston) bilan yaqin aloqalarni saqlab qoldi. Bosh vazir shayx Mujibur Rahmon Indira Gandining Bangladesh mustaqilligiga qo'shgan hissasini tan oldi. Biroq, Mujibur Rahmonning Hindistonni qo'llab-quvvatlovchi siyosati Bangladesh siyosati va armiyasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Chunki Bangladesh Hindistonning ta'siri ostidagi davlatiga aylanib qolishidan qo'rqdi. 1975 yilda Mujibur Rahmonning

²⁴ Kulke H. A History of India. – London: Routledge, 2004. – P.359.

²⁵ Grover V. Events and documents of Indo-Pak relations: Includes chronology of all important events & documents from 1947 to 1998. – New Delhi: Deep and Deep Publications, 1999. – P.100–113.



o'ldirilishi mamlakatni Hindistondan uzoqlashtirishga intilgan islomiy harbiy rejimlarning o'rnatilishiga olib keldi. Indira Gandining Bangladeshdagi anti-islomiy so'l partizan kuchlarini qo'llab-quvvatlaganligi sababli harbiy rejimlar bilan munosabatlari keskinlashdi. Ammo, odatda, Indira Gandhi va Bangladesh tuzumlari o'rtasida yaqinlashish mavjud edi. Lekin, chegara mojarosi va Farakka to'g'oni kabi masalalar ikki tomonlama aloqalarni qo'zg'atuvchi bo'lib qoldi.

2011 yilda Bangladesh hukumati mamlakat mustaqilligiga qo'shgan "ulkan hissasi" uchun Indira Gandiga vafotidan keyin fuqaroligi bo'lmaganlar uchun eng yuqori davlat mukofoti – "Bangladeshning ozodlik sharafi"ni topshirdi.

Shri-Lankaning etnik muammolarini hal qilishda ham Indira Gandhi yondashuvi dastlab qulay edi. Uning Bosh vazir Sirimavo Bandaranaike bilan samimiy munosabatlari davom etgan. Hatto, 1974 yilda Hindiston Bandaranaike sosialistik hukumatini siyosiy falokatdan qutqarish uchun Katchateyevu kichik orolini Shri-Lankaga berdi. Biroq, keyinroq Shri-Lankaning keyingi rahbari J.R. Jeyvardene bilan Indira Gandhi boshchiligidagi hukumati bilan

munosabatlari yomonlasha boshlaydi²⁶. Indira Gandhi boshchiligidagi Hindiston 1980-yillarda Jeyvardenega bosim o'tkazishda "Tamil Ilamning ozodlik yo'lbarlari" tashkiloti jangarilarini qo'llab-quvvatlagan deb da'vo qilingan. Lekin, Indira Gandhi Sinhal to'dalari tomonidan amalga oshirilgan anti-tamil terrori – 1983 yilgi "Qora iyul" voqealariga qaramay Shri-Lankani bosib olish talablarini rad etdi. Indira Gandhi Shri-Lankaning hududiy yaxlitligini qo'llab-quvvatlashini ta'kidlagan holda o'z bayonotida Hindiston "tamil jamoasiga qilingan har qanday adolatsizlikka jim tomoshabin bo'lib tura olmasligini" ta'kidladi²⁷.

Indira Gandhi, haqiqatdan ham, "Siyosat – bu imkon san'atidir" degan nuqtai nazardan kelib chiqib ish tutardi²⁸. U Sovet Ittifoqining yordamiga tayanish maqsadida 1971 yilda sobiq SSSR bilan "Do'stlik va hamkorlik" to'g'risidagi shartnomani imzolandi. Bu esa Hindiston ortida katta va qudratli davlat turishini anglatardi. Bu vaqtda Pokistonni AQSH va Xitoy qo'llab-quvvatlamogda edi.

²⁶ Gupte P. Mother India: a political biography of Indira Gandhi. – New York: Penguin Books, 2012. – P.5.

²⁷ Bandarage A. The separatist conflict in Sri Lanka: terrorism, ethnicity, political economy. – London: Taylor & Francis, 2009. – P.111.

²⁸ Горев А.В. Роса на лотосе Индира Ганди: мечты и свершения. – М.: Политизат, 1987 – С.256.



Indira Gandhi bu borada faqat xalqaro jamoatchilik natijasini kutar edi.

Hindiston Sovet Ittifoqi bilan urush holatida o'zaro yordam berishni va'da qilgan shartnomani imzolagan edi. Pokiston esa mojaro paytida AQSH tomonidan faol qo'llab-quvvatlandi. AQSH Prezidenti Richard Nikson Indira Gandini shaxsan yoqtirmasdi. Masalan, Nikson uni Davlat kotibi Genri Kissinjer bilan shaxsiy muloqotida "jodugar" va "aqli tulki" deb atagan. Indira Gandhi urushdan keyin Sovet Ittifoqi bilan yaqin aloqalarni rivojlantirishi bilan AQSH bilan munosabatlar sovuqlasha bordi. Shuningdek, Sovet Ittifoqi Hindistonning eng yirik savdo sherigi va Indira Gandhi bosh vazirligining aksariyat qismi uchun eng yirik qurol etkazib beruvchiga aylandi. Hindistonning yangi gegemonik pozitsiyasi, "Indira doktrinasi"da bayon qilinganidek, Himolay hududini Hindistonning ta'sir doirasiga o'tkazishga urinishlarga olib keldi. Nepal va Butan bu borada Hindiston bilan hamnafas bo'lib qoldi. 1975 yilda esa Indira Gandhi ko'p yillar davomida hamkorlikni kuchaytirgach, Sikkim shtatini Hindistonga qo'shilishi uchun tashkil etilgan referendum natijalariga ko'ra, Sikkimni Hindiston tarkibiga

kiritdi²⁹. Bu Xitoy tomonidan "jirkanch harakat" sifatida qoralandi.

Indira Gandhi, shuningdek, Hind okeanini tinchlik zonasiga aylantirish masalasini ko'tarib chiqdi. Jumladan, Indira Gandhi 1983 yilda "Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik assosiasiyasi"ni tashkil etishda muhim rol o'ynadi. U Mavrikiyning Chagos arxipelogi suverenitetini tiklash, Hind okeanida AQSHning asosiy harbiy bazasi bo'lib qolgan Diego Garsia orolini qurolsizlantirish talablarini qo'llab chiqdi Indira Gandhi buyuk davlatlarni qurollanish poygasini to'xtatish hamda yadro urushi halokatini oldini olishga chaqirdi. Shu bilan birga, "Qo'shilmaslik harakati"ning rahbari boshqa muhim hal qilinmayotgan muammolarni ko'tarib chiqdi.

Qo'shilmaslik harakatining rahbari sifatida Indira Gandhi bir necha bor jahondagi vaziyatni yaxshilashga qaratilgan harakat va tashabbuslar bilan chiqdi. U qurolsizlanish, tinchlik va adolatlilikka asoslangan yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish tarafdori bo'lgan. "Biz Hind okeani bo'yicha BMT konferensiyasini chaqirishga erishish uchun kuchlarimizni ikki hissa ko'paytirishimiz kerak. Sohildagi

²⁹ Fisher J.F. Himalayan anthropology: the Indo-Tibetan interface. – Berlin: Walter de Gruyter, 1978. – P.225., Malik Y.K. India: the years of Indira Gandhi. – Leiden: BRILL Publishers, 1988. – P.120-121.



davlatlar “Qo‘shilmaslik harakati” va BMT bir necha bor Hind okeani tinchlik zonasi bo‘lishi kerak deb bayon qilishgan³⁰”, – bu borada Indira Gandhi shunday deya ta’kidlagan edi.

Mustaqil Hindiston dastlab Afrikaning turli xil mustaqillik harakatlari homiysi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa-da, uning Millatlar Hamdo‘stligi bilan bo‘lgan samimiy munosabatlari va Buyuk Britaniyaning Sharqiy Afrikadagi siyosatiga bo‘lgan munosabati uning uchinchi dunyoda turli xil mustaqillik harakatlarining ashaddiy tarafdori sifatidagi obro‘sig a zarar etkazdi. Hindlarning Keniya va Jazoirdagi jangarilarning kurashlarini qoralashi Afrikaning mustaqilligini qo‘lga kiritish uchun qurolli kurashni qo‘llab-quvvatlagan Xitoydan keskin farq qilar edi. Suvaysh inqirozidagi Neruning roli ortidan 1962 yilda Xitoy-Hind urushi paytida uni faqat to‘rtta davlat – Efiopiya, Keniya, Nigeriya va Liviya qo‘llab-quvvatladi³¹. Natijada Hindistonning Afrikadagi mustaqillik kurashidan uzoqlashuvi kuzatilgan. Indira Gandhi bosh vazir bo‘lganidan so‘ng, Xitoy-Hind urushi paytida Hindiston tomonida bo‘lgan davlatlar

bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalar kengaytirildi. Indira Gandhi Keniya hukumati bilan Afrika va Hindistonni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muzokaralarini boshladi. Hindiston hukumati, shuningdek, pasayib borayotgan geo-strategik ta‘sirini tiklashga yordam berish uchun o‘zining siyosiy maqsadlari doirasida Afrikada joylashtirilgan hindlarni olib kelish imkoniyatini ko‘rib chiqishni boshladi. Indira Gandhi Afrikada istiqomat qilgan hind xalqini "Hindiston elchilari" deb e‘lon qildi. Osiyo hamjamiyatida hind diplomatiyasiga qo‘shilish uchun qilingan harakatlar, hindlarning siyosiy jihatdan xavfli sharoitda qolishni istamasligi va afrikalik hindlarning 1968 yilgi qonunga ko‘ra Hamdo‘stlik muhojirlari sifatida Buyuk Britaniyaga ko‘chib o‘tishi kabi omillar tufayli hech qanday samara bermadi.. Ugandada afrikalik hind jamoati esa Idi Amin hukumati boshqaruvi ostida quvg‘inlarga duchor bo‘ldi va oxir-oqibat mamlakatdan chiqarib yuborildi.

1970-yillarda tashqi va ichki siyosatdagi muvaffaqiyatlar Indira Gandiga Afrika davlatlari oldida Hindiston obro‘cini tiklashga imkon berdi. Pokiston ustidan g‘alaba va Hindistonning yadro quroliga egaligi Hindistonning taraqqiyot darajasini ko‘rsatdi. Bundan tashqari,

³⁰ Ганди И. Мир, сотрудничество, неприсоединение. – М.: Прогресс, 1985. – С.197-198.

³¹ Ghosh A. India's foreign policy. – London: Pearson, 2009. – P.422-424.



1971 yilda hind-sovet shartnomasi tuzilishi, Qo'shma Shtatlar tomonidan qilingan tahdid va Sharqiy Pokiston inqirozi avjiga chiqqan paytda o'zining yadro qurolli 74-sonli maxsus guruhini Bengal ko'rfaziga yuborish kabi voqealar ham imperialistik obrazda edi. Indira Gandhi Hindistondagi Afrika antiimperialistik manfaatlarni Sovet Ittifoqi manfaatlari bilan bog'ladi. Nerudan farqli o'laroq, u Afrikadagi ozodlik kurashlarini ochiq va ishtiyoq bilan qo'llab-quvvatlagan³². Ayni chog'da, Sovet Ittifoqi bilan tinimsiz mojarolar tufayli Xitoyning Afrikadagi ta'siri pasayib ketadi. Ushbu o'zgarishlar Hindistonning Afrikadagi geo-strategik ta'sirini tiklashga yordam berdi.

Indira Gandhi jahon davlatlarining va o'z mamlakatining tinchliksevar tashqi siyosat tarafdori ekanligini namoyon qilardi. BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida Indira Gandhi qurolsizlanishga doir qator takliflarni kiritdi. Xususan, yadro qurolini ishlatmaslik haqida, sobiq SSSRning kosmik fazoda kuch ishlatilishini ma'n qilish haqidagi taklifini qo'llab-quvvatladi. 38-sessiyada u qurollanishni chegaralash masalasi bo'yicha 50 dan ortiq rezolyusiyani qo'llab-quvvatladi va

umuman olganda uning bosh muallifi ham bo'ldi. Bundan tashqari, qurolsizlanish haftasini o'tkazish taklifini kiritdi. Indira Gandhi 39-sessiyada raketa va sun'iy yo'ldoshlarga qarshi tizimni rivojlantirish rejalariga qat'iy norozilik bildirdi. Bosh vazir o'zining asosiy e'tiborini yadroviy qurolsizlanish va yadro urushi oldini olishga qaratdi.

Hindiston bosh vaziri Indira Gandhi xalqlar tinchligi va barqarorligi uchun harakat qildi. Indira Gandhi "Washington Post" gazetasiga bergan intervyusida shunday deydi: "Biz muayyan sabablarga ko'ra, hech kimning nomidan dunyo ularga tegishli deb bayon qilayotganlar bilan kelisha olmaymiz. Dunyo bizning hammamizga tegishlidir. Men o'ylaymanki, hech qanday mamlakatning boshqa bir davlatni yo'q qilish bayonoti bilan chiqishga huquqi yo'qdir, agar bu uning manfaatlariga javob bersa ham³³".

Indira Gandhi boshqaruvi davrida Hindiston dunyoning ko'pgina mamlakatlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatdi. U nafaqat Hindiston xalqi uchun, balki undagi barcha millatlar totuvligi va birdamligini shakllantirish uchun sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Hindistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi ko'p jixatdan Indira Gandhi

³² Mawdsley E., McCann G. India in Africa: changing geographies of power. – Oxford: Fahamu & Pambazuka, 2011. – P.51–52.

³³ Ганди И. Мир, сотрудничество, неприсоединение. – М.: Прогресс, 1985. – С.67.



nomi bilan chambarchas bog'liq. U o'z mamlakatini siyosiy-iqtisodiy jihatdan mustahkamlash, xalqaro miqyosda obro'sini ko'tarish borasida ko'p ishlarni amalga oshirdi.

Indira Gandhi ko'p millatli mamlakati aholisi o'rtasidagi hamjihatlik, mustaxkam birlik o'rnatishni asosiy maqsad qilib keldi. Hindistonning tashqi siyosati imperalizim va kolonizmga qarshi edi. Indira Gandhi Osiyodagi buyuk mamlakat hukumatiga uzoq yillar rahbarlik qilar ekan, Hindistonning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga, xalqaro masalalardan yanada faolligini ta'minlashga erishdi.

Har bir davlatning xalqaro munosabatlari hukmron doiralarning sinfiy manfaati hamda jamiyatning vaziyati va tuzumi, uning talab va maqsadlarini ifoda etadi. Har qanday mamlakatning tashqi siyosatiga uning ichki ahvoli va taraqqiyoti, geografik mavqei, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlari, chet eldan oladigan yordam manbalari va boshqa omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda sub'ektiv faktorlar, ya'ni hokimiyat tepasida turgan partiyaning yoki davlat rahbarlarining siyosiy va idealogik pozitsiyalari ham muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, jahonda tinchlikni saqlash, urush o'choqlarini bartaraf etish,

qurollanish poygasiga chek qo'yish, insoniyatni yadroviy falokatdan asrab qolish masalalarida aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar hukmron doiralarning manfaati keng xalq ommasining orzu-umidlariga mos va hamohangdir, chunki rivojlanayotgan mamlakatlar faqat tinchlik va osoyishtalik sharoitidagina o'z oldilariga qo'ygan ulkan sosial-iqtisodiy vazifalarini ro'yobga chiqarishlari mumkin. Mamlakatlar tashqi siyosatidagi faolligining kuchayishi, ayniqsa, "Qo'shilmaslik harakati" da o'zining yorqin ifodasini topgan edi.

"Qo'shilmaslik harakati" davlatlaridan biri va "Olti mamlakat guruhi" a'zosi bo'lmish Hindiston qurollanish poygasini to'xtatishga, qurolsizlanishga, yadro urushi xavfini yo'q qilishga, kosmosni harbiylashtirishga yo'l qo'ymaslikka, yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatishga qaratilgan muhim takliflar bilan bir necha bor xalqaro maydonga chiqdi. Hindiston Hind okeanini tinchlik zonasiga aylantirish yo'lidagi kurashga salmoqli hissa qo'shdi. AQSHning Diego Garsiya harbiy oroliga bazasini joylashtirishga qarshi chiqdi. "Qo'shilmaslik harakati" tinchlik davrida va tinchlik sharoitida paydo bo'lgan bo'lib, uning maqsadi urushning oldini olish, uni bartaraf etish uchun aktiv harakat qilish edi. Indira



Gandi: “Qo‘shilmaslik harakati” – bu ro‘y berayotgan voqea va hodisalarga nisbatan befarq qarash emas, balki ular haqida mustaqil fikr yuritish va harakat qilishdir”, – degan edi³⁴.

1980-yillarda AQSH Pokistonni qurollantirib, Amerika imperalizmining butun Osiyo qit‘asidagi bosqinchilik siyosati uchun mustahkam qo‘rg‘on qurmoqchi bo‘ldi. Ma‘lumki, Pokiston Janubi-g‘arbiy Osiyoda strategik jihatdan muhim mavqega ega. Sobiq SSSR, Afg‘oniston, Hindistonga qo‘shni Fors ko‘rfasidagi neft qazib chiqaradigan davlatlarga yaqin turuvchi Pokistonning Hind okeaniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati ham bor edi.

Indira Gandi o‘z faoliyatining markaziga urush va tinchlik muammosini ozod bo‘lgan mamlakatlarning iqtisodiy progressi masalalari bilan bog‘liq holdagi muammolarni qo‘ydi. Ammo ayrim doiralar militaristik kuchlarga sharoit yaratib berayotganligi, masalan, AQSHning G‘arbiy va Janubiy Osiyodagi harbiy strategik rejalarini ro‘yobga chiqarishda asosiy vazifani Pokiston o‘z zimmasiga olganligi keyingi yillarda benihoya kuchayib, buning natijasida mintaqadagi xalqaro

ziddiyatlar nihoyatda kuchayib borayotgan edi.

Bu vaqtda Pokiston “Qo‘shilmaslik harakati”da ishtirok etishiga qaramay, Vashingtonning strategik manfaatlarini ko‘zlamoda edi. “Pokiston harbiylari qo‘lidagi Amerika quroli, eng avvalo, Hindistonga qaratilganligi ayon. Hindiston hukumati Pokistonning militarlashuvi har ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni normallashtirish jarayoniga xalaqit beradi, hududda kuchlar balansini buzishni nazarda tutadi³⁵”, – dyeb ta’kidlaydi Hindiston bosh vaziri Indira Gandi. U ikki davlat o‘rtasida dadillik, ishonch va do‘stlik vaziyatini yaratish kerak, chunki bunday vaziyatda uzoq muddatli va muhim muammolarni hal qilish mumkinligini ta’kidlab: “Biz Pokiston bilan do‘stlik haqidagi shartnoma tuzishdan juda xursand bo‘lamiz³⁶”, – degan edi.

Gанди И. Статьи, речи, интервью. – М.: Наука, 1973. С.33.

Ганди И. Внешняя политика Индии. – М.: Прогресс, 1982. – С.150-151.

Ганди И. Внешняя политика Индии. – М.: Прогресс, 1982. – С.293,303.



5. Fisher J.F. Himalayan anthropology: the Indo-Tibetan interface. – Berlin: Walter de Gruyter, 1978. – P.225., Malik Y.K. India: the years of Indira Gandhi. – Leiden: BRILL Publishers, 1988.

7. Ганди И. Мир, сотрудничество, неприсоединение. – М.: Прогресс, 1985. – С.197-198.

8. Ghosh A. India's foreign policy. – London: Pearson, 2009.

9. Ганди И. Статьи, речи, интервью. – М.: Наука, 1973.

10. Ганди И. Внешняя политика Индии. – М.: Прогресс, 1982.

11. Синхараджа Т.Д. Индия история страны. – М.: Эскмо, 2010.

12. Kulke H. A History of India. – London: Routledge, 2004.

13. Grover V. Events and documents of Indo-Pak relations: Includes chronology of all important events & documents from 1947 to 1998. – New Delhi: Deep and

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Салимова Ф., Маҳкамов И. Индира Ганди – Т.: Фан, 1988.

2. Bandarage A. The separatist conflict in Sri Lanka: terrorism, ethnicity, political economy. – London: Taylor & Francis, 2009.

3. Горев А.В. Роса на лотосе Индира Ганди: мечты и свершения. – М.: Политизат, 1987



JISMONIY TARBIYA VA SPORT YOSHLAR KELAJAGI POYDEVORI SIFATIDA

*Mirjalilova Umrinisobonu Mirmaxmud
qizi*

18/21-guruh 3-bosqich talabasi

*Ilmiy rahbar: Mirzanov Sherzod
Sirliboyevich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va samarali ishlar yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ustuvor siyosat, bolalar sporti, davlat dasturlari, qarorlar, sport psixologiyasi, diyetologiyasi, jismoniy tarbiya.

Sport bu –yoshlik, u shahdu shijoat, barkamollik va yetuklik demakdir.

Shuning uchun ham mamlakatimizda sport ravnaqiga, xalqimizni sportga ommaviy tarzda keng jalb etishga, ayniqsa, kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni har jihatdan yetuk va komil insonlar sifatida ulg'aytirishga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida sportni ommaviylashtirish, xususan,

bolalar sportini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan izchil islohotlar, keng qamrovli sa'y- harakatlar buyuk kelajak barpo etish yo'lidagi shahdam va dadil odimlar ifodasidir. Sohada olib borilayotgan ustuvor siyosat natijasida mamlakatimizning barcha hududlarida minglab sport inshootlari va majmualari, o'yingohlar bunyod etilib, ularda xalqimizning ayniqsa, ertangi kunimizning suyanchi va tayanchi bo'lgan farzandlarimiz sportning barcha turlari bilan shug'ullanishlari uchun beqiyos imkoniyatlar hamda ulkan qulayliklar yaratilmoqda. Ko'rkam va zamonaviy sport majmualaridagi imkoniyatlar, ularning bugungi taraqqiyot asri talablari darajasidagi sport anjomlari bilan jihozlanganligi yoshlarning har jihatdan chiniqib, mahorot bobida toblanishlariga xizmat qilayotgan bo'lsa, istiqloq yillarida kelajak avlodning yetuk kamolini ko'zlab yo'lga qo'yilgan uch bosqichli sport o'yinlari- "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" nafaqat yoshlik, shijoat va sport bayrami sifatida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda, balki yoshlarni yetuklik, komillik va yuksak cho'qqilar sari yetaklab, g'alabalar sari qat'iyat va ishonch bilan odimlashga ruhlantirmoqda.



Berilayotgan e'tiborlar natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi. Va davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Bulardan,

Birinchi tashabbus-yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus-yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus-aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish

bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus-xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 3-noyabrda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan Davlat dasturida belgilangan ushbu vazifalarning ijrosi ta'minlanishi barobarida, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash hamda sportni ommalashtirishga qaratilgan qator masalalar o'z yechimini topadigan bo'ldi.

Qarorga binoan, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Farg'ona filiali, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Sportchilarning texnik-taktik, psixofiziologik holatini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha maxsus ilmiy laboratoriyasi negizida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti tashkil etiladi.

Quyidagilar filialning asosiy vazifalari etib belgilanadi:



- oliy ta'lim sifatiga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiq, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasidagi vazifalarni yuqori darajada bajarishga qodir malakali kadrlar tayyorlash;

- xizmatlar va sog'lomlashtirish tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-texnologik vazifalarini hal etish, ilg'or xorijiy tajribadan foydalangan holda sport sohasiga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilish;

Ilmiy tadqiqotlar instituti zimmasiga esa, quyidagi asosiy vazifalar yuklatilmoqda:

- jismoniy tarbiya va sport sohasining nazariy va ilmiy-metodologik asoslarini yaratish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida fundamental ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

- sport psixologiyasi, diyetologiyasi, reabilitatsiyasi va tibbiyoti bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, o'quv-qo'llanmalar, darsliklarni nashrga tayyorlash va chop etish;

- aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali, ilmiy asoslangan vositalar va uslublarni ishlab chiqish;

- sportchilarni funksional, biokimyoviy, psixodiagnostika, biomexanik ish qobiliyatini diagnostika qilish va korrektsiyalash tizimini yo'lga qo'yish;

- respublikadagi ta'limning barcha turlari (maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim, shuningdek maktabdan tashqari, sport ta'limi) uchun jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha ta'lim standartlari va fan dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, shu jumladan audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar hamda boshqa turdagi ilmiy-metodik materiallar tayyorlashlardan iboratligi belgilandi.

Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 30-oktyabrda imzolangan "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni buning yorqin tasdig'idir. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida tuman (shahar) va mahallalarda jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish infrastrukturasi shakllantiriladi. Xususan, 9146 ta mahallada 18292 ta jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport maydonchasi, 204 ta tuman (shahar)da salomatlik va velosiped yo'laklari bunyod etiladi. Majlisda Senat tomonidan aholi ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish yuzasidan hukumatga parlament



so'rovi yuborilgani qanchalar o'rinli va dolzarb masala bo'lgani alohida ta'kidlandi. Bugungi kunda Respublikada mavjud 51 651 ta sport inshootlarining bir kunlik mashg'ulotlar o'tkazish quvvati 2,1 mln.tani tashkil etadi.Ularning 417 tasi stadion, 10 863 tasi sport zali, 316 tasini suzish havzasi, 182 tasi otchopar va 24 tasi sport manejidan iborat.

Hududlarda joylashgan ochiq sport obyektlari hamda istirohat bog'larida aholining yugurish, yurish, badantarbiya va boshqa sport turlari bilan shug'illanishi uchun 5 447 ta mahallaga 7 905 nafar trener biriktirilgan.

Investitsiya asosida hozirgacha 68 ta sport inshooti foydalanishga topshirish yuzasidan qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur inshootlarning foydalanishga topshirilishi natijasida bir kunda qo'shimcha 13 493 nafar aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Karantin davrida aholi, xususan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan onlayn sport musobaqalarida 326 000 dan ortiq aholi jalb etilgan.Shuningdek, karantin qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda "yashil hududlarda sportning 42 ta turi bo'yicha sport tadbirlari hamda badantarbiya

mashg'ulotlari yo'lga qo'yilgandi.Ta'kidlanganidek,butun dunyo bo'ylab hukm surayotgan COVID-19 koronavirus pandemiyasi inson salomatligini saqlashda chiniqish, immunitet mustahkamligi qanchalar muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor isbotladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugun katta yo'lga chiqqan mamlakatning maqsadlari ham kattadir.Binobarin vatanimiz va davlat rahbarimiz biz yoshlarga shunday ishonch bildirib va shunday shart-sharoitlar yaratib berayotgan ayni paytda biz bu ishonchga erishayotgan va erishadigan ulkan natijalarimiz bilan javob qaytarmog'imiz zarurdir.

1. Abdullayev A., Xonkeldiev Sh.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil.

2. Karimov I. A., Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: Sharq.1997.

3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori kitobida.-T.: 1998.



4. Xo'jayev F. O'zbekistonda jismoniy tarbiya .1997 yil.

5. Sh.M. Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.



YOSHLARNI OLIY TA'LIMGA JALB QILISH VA KASBGA YO'NALTIRISH

G'affarov Faxriddin Qodirovich

*Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod
tumani*

*75-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada yosh avlodning kelgusi hayotda, ishlab chiqarishda, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda o'zlariga munosib o'rinlarni topishlarida ularni zamonaviy kasb-hunarlariga yo'naltirish, va kelajak faoliyatga tayyorlash ishi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, yoshlar, mehnat, Avesto, tajriba, maktab.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan mustaqillik islohotlari iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy, madaniy islohotlar ta'lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilmfan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi farmoni ta'lim

sohasidagi keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga ko'tardi. Ushbu hujjat, ayniqsa, maktab va oliy ta'lim muassasalari hamkorligini rivojlantirish, ular o'rtasidagi integratsiyani yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiya, pedagoglarga bo'lgan hurmat va e'tibor tobora yuksalib bormoqda. Ustoz-murabbiylarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, iste'dodli o'quvchilarni kashf etish, ularni o'zlari qiziqqan hamda orzu qilgan kasbga yo'naltirish ta'lim sohasining muhim vazifasiga aylandi.

Yosh avlodning kelgusi hayotda, ishlab chiqarishda, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda o'zlariga munosib o'rinlarni topishlarida ularga zamonaviy kasb-hunarlar yo'naltirish, ularni kelajak faoliyatga tayyorlash ishi insoniyat jamiyati

paydo bo'lganidan boshlab keksa avlod oldida turgan muqaddas vazifalardan hisoblanib kelgan.

O'tmish avlod o'zining hayotiy tajribalarini yosh avlodga o'rgatish to'g'risida g'amxo'rlik qilib kelgan. Ular o'z tajribalarini turli xil manbalarga bitib qoldirishganlar. Yozuvlar paydo bo'lganidan keyin esa, turli xil asarlar



yaratish orqali o'z tajribalarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirganlar. Masalan, ibtidoiy davr odamlari o'z farzandlarini yetaklab yurib, ovga, dehqonchilikka o'rgatib tajribalarni toshlarga, terilarga, buyumlarga o'tkazish orqali qoldirgan bo'lsalar, keyinroq esa, bu hol turli xil bitiklarda namoyon bo'lgan. Jumladan eramizdan avvalgi V-

IV asrlarda O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo davlatlari hududida yashagan xalqlar sig'ingan zardushtiylar dinining muqaddas kitobi "Avesto"da yirik qoidalar to'plamlari tarzida bayon etilgan. Avestoda keltirilishicha yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim deb hisoblashgan.

Tabiiyki, o'quvchilarda mehnat va kasb-hunarga muhabbat hissi o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Ularda bunday xislat va qiziqishni asta-sekin oilada otanonaning shaxsan namuna ko'rsatishi, keyinchalik maktabda o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan mehnat ta'limi darslari, darsdan tashqari turli tadbirlarda va to'garak mashg'ulotlarida jahon xalqlarining, shu jumladan, Sharq xalqlarining asrlar davomida ardoqlanib kelayotgan mehnatsevarlik an'analari va kasb-hunar to'g'risida kengroq tushuncha berish orqali tarkib toptirish

mumkin. Zero, o'quvchi yoshlarimizga bizning hozirgi hayotimizga yetib kelgunga qadar ajdod-avlodlarimiz o'z tarixida juda ko'p mashqatlarni boshidan kechirganligini, mashaqqatli mehnat qilganligini va hozirgi kunda mehnat qilish uchun kasb-hunar egallash uchun shart-sharoitlar yaratilganligini yetkazish lozim.

Davlat rahbarining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilingan va u «Kasbga yo'naltirish tizimi»ni joriy etishni ham nazarda tutadi. Tizim doirasida 7-sinf o'quvchilari uchun har oyda bir marta «Kasblar olamiga sayohat» mavzusida maxsus kurslar olib borish, 8-sinf o'quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba «Mening kelajakdagi kasbim» mavzusida seminar-treninglar olib borish hamda o'quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblarga yo'naltirish, 9-sinf o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan psixologik-pedagogik diagnostik metodika natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish vazifasi topshirilgan.



Kasbga yo'naltirish – yoshlarni erkin va mustaqil kasb tanlashga ilmiy amaliy jihatdan tayyorlash sistemasidir. U har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ham, davlat manfaatlari yo'lida mehnat resurslarini to'laqonli taqsimlash zarurligini ham hisobga olishi kerak.

Kasbga yo'naltirish tajribasi yoshlar ijtimoiy yetukligini ancha yuksak darajasini ta'minlashi, unda umumiy ish yo'lida faol mehnat qilish qobiliyati va intilishini tarbiyalashni talab etadi.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash jarayonida ularni bilimlar bilan ijtimoiy, unumli mehnatga va ijtimoiy munosabatlarga faol qo'shilishiga intilish bilan qurollashtirish muhimdir.

Bu o'z navbatida umumiy ta'lim maktabidan ixtisoslashish va ishlab chiqarish tajribasi jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan kasbga yo'naltirish shakllarini izlab topishni talab etadi.

Kasbga yo'naltirish kompleks, ko'p jihatli muammo bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik – pedagogik, tibbiy – fiziologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlarning barchasi bir vaqtda, o'zaro bog'liq holda amal qilishi kerak. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy jihati o'quvchining bilimlar, normalar, qadriyatlarining muayyan sistemasini o'zlashtirish jarayonini nazarda tutadi, ular o'quvchiga jamiyatning to'laqonli

a'zosi sifatida ijtimoiy kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash umumiy ta'lim maktabining muhim vazifasidir. Bu tayyorgarlik ikki omilni:

- 1) Jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini;
- 2) Yoshlarning shaxsiy qobiliyatini hisobga olib amalga oshiriladi.

Ikkinchisi, shaxsning kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashi bilan bog'liqdir.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash: ular e'tiborini targ'ib qilayotgan kasblarga jalb etishni, mehnatning ilmiy asoslari bilan chuqur tanishishni yo'lga qo'yishni, ularni faqat zarur malaka va ko'nikmalar egallashnigina emas, shu bilan birga shaxsni, qobiliyatlarni, rivojlantirishni ta'minlovchi faoliyatga jalb etishni ham o'z ichiga oladi.

Kasbga yo'naltirish ishining dastlabki bosqichida targ'ibotchilik ishiga o'quvchilarning o'zini faol jalb etish zarur. Bu, shubhasiz, ularning ishlab chiqarish va undagi kasblar bilan batafsil tanishishlari uchun zamin yaratadi. Maktabda kasblarni targ'ib qilish vositalari sifatida kasb tanlashga bag'ishlangan leksiyalar, suhbatlar, uchrashuvlar, bahslar, kechalar, maktab



radiosi orqali maxsus eshittirishlar uyushtirish, devoriy gazetalar chiqarishdan foydalaniladi.

Kasbga yo'naltirishning maqsadi yosh avlodni ongli kasb tanlashga tayyorlashdir. Buning uchun: o'quvchilarda xulq-atvor va faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga molik ichki (ruhiy) regulyatorini shakllantirish; mehnatning har xil turlariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash; kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashda shaxsiy pozitsiyani faollashtirish, ya'ni o'quvchini ongli kasb tanlashga tayyorlash natijasida uning shaxsiga tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi yondoshuvni amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Djurayev R.X. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarni kasb-hunar tayyorgarligini takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti. Avtoref. dokt.diss. -M.: 2016 T.: Fan 2015. 260 b.
2. Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb- hunarga yo'llash texnologiyasi. - T.: 2014. -141 b.
57. Shodiyev N.Sh. Ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda maktablar bilan ishlash. - T.: UzPITI.2016. -16 b.



KIMYO FANINI O'QITISHDA FANLARARO BOG'LANISH

haqida o'quvchilarga puxta bilim berishdan iborat.

To'laganova Muhabbat Qo'chqorovna
**O'zbekiston Respublikasi IIV Sirdaryo
akademik litseyi kimyo fani
o'qituvchisi**

Kimyo fani tabiiy fanlar tizimiga kirib matematika, fizika, biologiya, geografiya, iqtisod fanlari bilan uzviy bog'liq. Fanlararo munosabatlar muammosi yangi emas, lekin shu bilan birga dolzarb bo'lib qolmoqda. Ular yaxlit tizim sifatida atrofdagi dunyo, tabiat va odamning birligi, shuningdek har qanday tabiiy hodisani va inson faoliyatini tahlil qilishga tizimli yondoshish haqidagi g'oyalarni yaxshiroq shakllantirishga hissa qo'shadi. O'tmishning taniqli o'qituvchilari o'quv jarayonida fanlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish muhimligini ta'kidlaganlar. "O'zaro bog'liqlikdagi barcha narsalar bir xilda o'qitilishi kerak", deb yozgan Y. A. Komenskiy.

Annotatsiya: Maqolada kimyo darslarida boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalarni samarali o'rganish va darsning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun foydalanish zarurligi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: fanlararo aloqalar, dunyoqarash, axborot, kimyoviy tafakkur.

Ilm fan, texnika va sanoat jadal rivojlanayotgan ijtimoiy ekologik holat keskinlashib borayotgan bir paytda maktablarda kimyo fanini talab darajasida yangicha o'qitish zaruriyat hamda zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Kimyo fanidan o'quv dasturining asosiy vazifasi kimyoviy tushunchalar va qonunlar asosida kimyo fanining ahamiyati, zamonaviy texnologiyalaridan foydalanib yangi moddalarni olish va ulardan sanoat, qishloq xo'jaligi, kundalik turmushda, oilada foydalanishi O'zbekistonni ijtimoiy iqtisodiy salohiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi

Kimyo tabiiy fanlar jumlasiga kirgani uchun uni o'rganishga kirishishdan oldin va kimyoni o'rganish jarayonida o'quvchilarning boshqa fanlardan egallagan bilimlariga tayanish juda muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kimyo fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini o'quvchilar ongiga singdirish, ularga o'zlarini ko'proq qiziqtirgan ma'lumotlarni berish orqali o'qitish samaradorligini yanada oshirish mumkin. Kimyo dunyoni tushunishda



va inson faoliyatining turli sohalarida munosabatlarni rivojlantirishda muhim vositadir. Kimyo atrofdagi dunyoning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi, shuningdek ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni hal qilishga imkon beradigan amaliy bilim va ko'nikmalarni beradi. Har qanday mavzu turli xil ob'ektlararo aloqalarning manbai hisoblanadi. O'quvchilarning real dunyo haqida bilimlarining umumiy tizimini shakllantirish, materiya harakatining turli shakllarining o'zaro bog'liqligini aks ettirish, fanlararo aloqalarning asosiy ta'lim vazifalaridan biridir. Integral ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ob'ektlararo aloqalarni majburiy ko'rib chiqishni talab qiladi. Integratsiyalashgan yondashuv kimyo kursining fanlararo aloqalarining ta'lim funktsiyalarini kuchaytiradi, tabiiy hodisalar va jarayonlarning mohiyatini yanada chuqurroq ochishga imkon beradi. Bunday sharoitda kimyo aloqalari tabiiy fanlar bilan ham, gumanitar sikl bilan ham mustahkamlanadi; bilimlarni uzatish ko'nikmalari, ularni qo'llash va har tomonlama tushunish yaxshilanadi.

Aniq va tabiiy fanlar fizika, kimyo, biologiya, astronomiya fanlari matematika fani bilan chuqur va keng bog'liklari bilan qayt etib boriladi. Integrativ manbalarda hamma fanlar rivojlanayotgan ijod mahsuli sifatida hal

qilinishi texnologik integratsiya asosga umumta'lim jarayonida kompyuterlashtirishga o'tish, dars jarayonlarini aktiv bo'lgan usulda o'qitish nazarda tutilgan.

Bunda pedagogik jamoada ijodiy o'sishning o'quvchilarga foydali, o'quvchilar ongiga singdirishning qulay usullarini qo'llash jarayoni tushuniladi. Aniq va tabiiy fanlarda integratsion yondashuvda didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tabiiy aniq fanlarni bog'lash iqtidorli va intiluvchan o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

Masalan, kimyo va geografiya fanlarini o'zaro bog'lash maqsadida quyidagi qiziqarli ma'lumotlarni keltirish mumkin:

1. Kimyoviy elementlar davriy sistemasida shunday elementlar borki, ular qit'alar sharafiga nomlangan. Bunday elementlar-ameritsiy va yevropiylardir.

Glenn Siborg boshchiligidagi amerikalik olimlar yadro reaksiyalari yordamida sintez qilgan 95-elementni Amerika qit'asi sharafiga "ameritsiy" deb nomlashdi. 1896-yilda fransuz kimyogari E. Demorse o'zi kashf etgan 63-elementni grekcha "sigma" harfi bilan belgiladi. 1901-yilda bu element Yevropa qit'asi sharafiga "yevropiy" deb ataldi.



8-sinfda "Dastlabki kimyoviy tushunchalar" mavzusini o'rganayotganda, fizika kursida shakllangan muhim tushunchalar haqida o'quvchilar bilimlaridan foydalanish kerak. Bular: tana, modda, atom, molekula, fizikaviy va kimyoviy hodisalar, ichki energiya, harorat. Fizika kursidan boshlab o'quvchilar qattiq moddalar, suyuqliklar va gazlarning tuzilishi va molekulyar-kinetik nazariyaning qoidalari haqida umumiy ma'lumotni ham bilishadi.

Biologiya fanidan maktab kursida o'tiladigan "Hujayra tuzilishi" bo'limidagi dars mavzulari noorganik va organik moddalar, makro va mikroelementlar va hujayralardagi funktsiyalari haqida ma'lumot talab qiladi. Moddalarning tirik organizmlarga va ekologik tizimlarga fiziologik ta'siri esa tabiat haqidagi umumiy tushunchalarni rivojlantiradi va dunyoning ilmiy manzarasida insonning o'rnini ko'rsatadi.

Yangi axborot texnologiyalarning ajoyib yutuqlaridan biri, bu - kompyuter texnologiyalaridir. Hozirgi kunda jamiyatning ravnaq topishi kompyuter texnikasi bilan bog'liq bo'lib qoldi. Kompyuter insonni mashaqqatli, zerikarli mehnatdan xalos etibgina qolmay, balki mehnat unumdorligi va

sifatini salmoqli oshirmoqda. Shunday qilib, jamiyatda yangi tushuncha - informatsion resurs tushunchasi ham sekin-asta o'rin egallay boshladi. Hayotimizga virtual olam, virtual kutubxona, elektron hujjat, multimedia, elektron tijorat, elektron bilim, virtual maktab, masofaviy o'qitish, elektron pochta, elektron do'kon kabi tushunchalar kirib keldi. Hozirgi kunda masofali o'qitish uslubi, shakllari qo'llanilmoqda. Kimyo fani sohasida kompyuterdan foydalanish — mavzular bayoni tasvirlardagi animatsion harakatlar, tabiatdagi ko'z bilan ko'rish imkoni bo'lmagan kimyoviy jarayonlarni o'ziga xos tarzda namoyish etish juda katta amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, kimyo faniga endigina qadam qo'yayotgan o'quvchilarga didaktik o'yinlarni o'zida mujassam etgan noan'anaviy mashg'ulotlar, texnik vositalar bilan tashkil etilgan dars jarayonining o'ziyoq "ajoyib" tuyuladi. Darslarda o'quv texnik vositalardan foydalanish ayni paytda darslarni samarali, faol tarzda tashkil etishda o'quvchining diqqat-e'tiborini jalb etish kabi kutilgan natijalarni bermoqda.

Kimyo fanlarini kompyuter yordamida o'qitish uslubiga birinchidan, kimyo fanlarini o'qitishda boshqa yangi uslub va vositalari orqali amalga oshirish,



ikkinchidan, kimyo fanlarini umumta'lim talablar sharoitida o'quvchilarning fanlari, masalan, fizika, matematika va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. informatika bilan aloqadorlikda olib Fanlar kesimi asosida olingan bilim va borish, uchinchidan, kompyuterlarning ko'nikmalar nazariy nuqtai nazardan didaktik imkoniyati va ularning ham, amaliy hayotiy vaziyatlarda ham psixologik- pedagogik ta'sirini nazorat o'quv natijalariga erishishda samarali qilish, to'rtinchidan, kompyuterli o'qitish bo'ladi.

komponentlarini qo'llashni kuchaytirishlar kiradi. O'quv jarayonida kompyuterlarning qo'llanilishi, birinchidan, bajarilayotgan kimyoviy laboratoriya ishlari doirasiga yangilarini kiritish; ikkinchidan, kompyuterlarning tezkorligi tufayli qo'yilgan masalalarni yechishning bir necha variantlarini ko'rib chiqish, baholash va ulardan maqbullarini tanlash; uchinchidan, grafik usulda tasvirlanishi mumkin bo'lgan kimyoviy jarayonlar sonini keskin oshirishga yordam beradi

Shunday qilib, fanlararo aloqalar ta'lim mazmunining asosiy elementlarini ajratib olish, tizimni shakllantiruvchi g'oyalar, tushunchalar, ta'lim faoliyatining umumiy ilmiy usullarini rivojlantirishni ta'minlash, bilimlar tizimiga yaxlit qarashni shakllantirish va kasbiy faoliyatda turli fanlardan olingan bilimlarni integratsiyalashgan holda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, ob'ektlararo integratsiya o'qitishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, zamonaviy

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. "Kimyo o'qitish metodikasi". Toshkent, 2013.
2. Xoliqov A., "Pedagogik mahorat" Toshkent, 2016.



ISSIQXONALAR KONSTRUKSIYALARINI TAYYORLASH VA LIMON KO'CHATINI EKISH TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Omonjon No'monovich Sulaymonov

*Farg'ona politexnika universiteti
dotsenti*

Mohiraxon Lutfullayevna Zokirova

1-kurs magistranti

Annotatsiya: mazkur issiqxonada limon yetishtirish istiqbollari, hamda bu jarayonga qadar yerni tayyorlashga ham bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: issiqxona (issiqxona)da, parnik, ko'chat yetishtirish, gumus, limon, iqtisodiy samaradorlik, tuproq vegetatsiya

Issiqxona yoki kichkina issiqxona bo'lmagan mamlakatni tasavvur qilish qiyin. Turli xil issiqxona va ularning tuzilmalari har qanday o'simlik uchun ideal mikroiklimni tanlash imkonini beradi. Birinchidan, biz ularni ichidagi harorat bilan bo'lishamiz.

Issiqxona — noqulay iqlim sharoitida ekinlarga sun'iy muhit (harorat, yorug'lik, namlik va b.) yaratadigan

inshoot. Asosan, mavsumdan tashqari davrlarda mahsulot yetishtirish, issiqxona va ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladi. Issiqxona oynaband yoki polimer plyonka, stekloplast va h. k. bilan o'ralgan bo'ladi. Yog'och yoki temir, po'lat, alyuminiy kabi metall uskunalardan tiklanadi. Issiqxona larning xil-maxil turlari mavjud. Ular foidalanish muddatlari va davomlilikiga qarab — qishki hamda bahorgi; vazifasiga ko'ra — ko'chat o'stiriladigan va sabzavot yetishtiriladigan; sabzavotlarni o'stirish texnologiyasiga qarab — tuproqli va gidropon; ichki jihozlarga qarab — so'kchakli va tuproqli turlarga bo'linadi.

Issiqxona inshootlari asosan nimaga mo'ljallanganligiga qarab ko'chat o'stiriladigan va sabzavot yetishtiriladigan xillarga bo'linadi.

Taxminan 18 ° C atrofida harorat bilan issiqxona turlarini olish kerak bo'lsa, u holda sizning issiq versiyangiz siznikidir. Ushbu dizaynda namlik tartibga solinadi va isitish infraqizil lampalar bilan amalga oshiriladi. Ekzotik o'simliklar uchun yaxshi imkoniyat.

Ichki harorat 13 ° S da saqlanadigan yarim sovuq issiqxona deb ataladi. Bu gullar va sabzavotlar uchun mukammal yechimdir. Qishki issiqxonalar turlaridan



biri, u yerda infraqizil yoritgichlar yordamida osongina qish ovqatlarida o'sishi mumkin.

Issiqxonalar qurilish xususiyatlari jihatidan quyidagi asosiy belgilar bilan bir-biridan farq qiladi:

- *chuqur yer issiqxonalar* – yerga chuqur joylashgan bo'lib, fundamenti va devorlarining bir qismi chuqurda, kotlovanda bo'ladi. Yer ustidagilari esa yuzada joylashgan bo'lib, faqat fundamenti chuqurlashtiriladi. Hozirgi vaqtda faqat yuza issiqxonalar qurilmoqda;

- *tomi yassi, nishabi bir tomonlama, ikki tomonlama, poligonal (ko'p burchakli), yarim sferik yoki soyabon (ark)* shakllarda bo'lishi mumkin;

- *tashqi yopqich oynali va plyonkali* - qorong'ilikda zamburug' o'stiriladigan qo'ziqorinxonalar yorug' o'tkazmaydigan materiallar bilan yopiladi;

- *oyna bilan yopilganda doimiy, romli yoki yig'ma (olib qo'yiladigan)*. Doimiy qilib qurilganda oynalar yog'och yoki metall shproslarning o'yiqlariga mahkamlanadi. Oynali pamik romi yoki maxsus issiqxona romlaridan romli yopqich qilinadi. Plyonkali issiqxonalarda plyonka yopqich romli va shtorli qilib mahkamlanadi. Shtorli

yopqich qilinganda plyonka yoppasiga yopiladi;

- *sinchli issiqxonaning oynali og'ir tomi tayanch ustunlar, stropila va uzala to'sinlardan iborat sinchga* tayanadi.

Hozirgi zamonaviy issiqxonalarda ostki uchlari bilan fundamentga tayanadigan metall fermalar sinch vazifasini o'taydi. Plyonkali issiqxonalar sinchli va sinchsiz bo'lishi mumkin. Sinchsiz tom havotayanchli (doimo havo bilan itarilgan holatda turadi) va vantli bo'ladi (issiqxona ustida ustunlar o'rtasida tortilgan tros vantlarga osiladi);

- *bir joyda foydalanishning ketma-ketligi bo'yicha*. Ana shu belgilarga qarab issiqxonalar doimiy va muvaqqat bo'lishi mumkin. Doimiy (statsionar) issiqxonalar tamomila ishdan chiqqunga qadar bir joyga o'rnatib foydalaniladi. Muvaqqat issiqxonalar bir mavsum mobaynida bir ekindan boshqa ekinga aylantiriladi. Muvaqqat issiqxonalar o'z navbatida (bruslar va temir yo'l bo'yilab) joydan-joyga jiladigan ko'chma va ko'chirib boriladigan (yengil konstruksiyali rom oynali) yoki plyonka yopiladigan romli va shtorli xillarga bo'linadi;

- *bir zvenodan iborat yakka zvenoli va ko'p zvenoli yoki blokli*. Blokli issiqxona bir necha zvenodan iborat bo'lib, tayanch



ustunli tarnovlar vositasida birlashgan bo'ladi. Yirik yakka zvenoli (maydoni 600m² dan oshadigan) ichki tayanchsiz issiqxonalar angarli issiqxonalar deyiladi; jihozlarga kiradi.

- o'simliklarni o'stirish usuli bo'yicha. Ana shu belgilariga qarab issiqxonalar grunt-tuproqlilarga bo'linadi, bunda o'simliklar jo'yaklarda yoki issiqxonaning tekis yer yuzasida o'stiriladi, stellajlarda esa o'simliklar maxsus tog'orasimon moslamalar - stellajlarda bo'ladi. Stellajlar tuproq-grunt bilan yoki shag'al va boshqa xil substrat bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin (gidropon usulida o'stirish). Stellajli issiqxonalarda o'simliklar bir qavatli va ko'p qavatlab joylashtiriladi. Ko'p qavatlab joylashtirishda ko'p qavatli statsionar stellajlar, ba'zan esa jiladigan yonlama va tik konveyerlar o'rnatiladi³⁷.

Issiqxonalar toifasining har birining o'ziga xos afzalligi va kamchiliklari bo'ladi. Binobarin, biror iqlimiy zonada ekin o'stirish inshooti qurish uchun loyiha tanlaganda buni e'tiborga olmoq lozim.

Issiqxonalarning asosiy konstruktiv qismlari: fundament, sinch, yon va ikki ichki devorlari, tomi bo'ladi. Isitish,

³⁷ G'afro A1loqulovich Samatov Jamoliddin Yodgorovich Yodgorov Z.V To'lqinovich, Siddiqov ISSIQXONA XO'JALIKLARINI TASHKIL QILISH VA YURITISH O'quv qo'llanma O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 49-50- bet

ventilyatsiya, suv ta'minoti, elektr bilan ta'minlash sistemalari, karbonat angidrid bilan boyitish va so'kch~klar ichki

Issiqxonalar - ekin o'stiriladigan binolarning eng ratsional turi bo'lib, ularda zamonaviy vositalar yordamida o'simliklar uchun qulay sharoit yaratish mumkin. Issiqxonalarning tuzilishida o'ziga xos tomon bor, ularda yer bilan tom orasi katta bo'ladi. Issiqxonaning parniklardan asosiy farqi shundan iboratki, issiqxonalar asosan mavsumdan shuningdek, parnik esa ochiq dala uchun Hozirgi zamonaviy issiqxona xo'jaliklari sanoat asosida qurilgan va yil bo'yi sabzavot yetishtiriladigan haqiqiy fabrikalarga aylandi.

Limon o'simliklari issiqsevar bo'lganligi bois, u sovuqqa chidamsiz, shu sababli uning mevalarining yetilishi uchun juda ko'p miqdorda foydali issiq harorat yig'indisini talab qiladi. Shuning uchun respublikamizda limon o'simliklarini himoya qilingan joylarda, ya'ni issiqxona va xandaqlarda ekib o'stiriladi (lekin,

³⁸ G'afro A1loqulovich Samatov Jamoliddin Yodgorovich Yodgorov Z.V To'lqinovich, Siddiqov ISSIQXONA XO'JALIKLARINI TASHKIL QILISH VA YURITISH O'quv qo'llanma O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 48- bet



ushbu inshootlarning usti yoz faslida ochib qo'yiladi)³⁹.

Ilmiy-tadqiqotlar va ilg'or xo'jaliklar tajribasi shuni ko'rsatdiki, sug'oriladigan hududda limonning "Meyer" navidan sifatli, mo'l va muntazam hosil olish imkonini bermoqda.

Bu nav bo'yi nisbatan kichikligi va erta hosil bera boshlashi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ko'chati o'tqazilganidan 2 yildan so'ng hosilga kiradi. Mahalliy sharoitga ko'proq moslashgan, biroq sovuqqa chidamli bo'lmaganligi bois issiqxonalarda o'stirilmoqda. Yaxshi parvarish qilinganda har tupidan 400–500 tagacha limon mevasini olish mumkin.

Issiqxonalarda sutkalik o'rtacha harorat 10°S dan yuqori bo'lganida limon novdasi o'sa boshlaydi.

Sutkalik o'rtacha harorat 16–18°S ga yetganida limon qiyg'os g'unchalaydi, 18–22°S da esa gullaydi.

Limon o'z-o'zidan va chetdan changlanadigan o'simlik. Chetdan changlanishi asalarilar yordamida o'tadi, bu tugunchalarining ko'proq hosil

bo'lishiga yordam beradi. O'sish va shakllanish davrida (aprel-may) 20–25°S qulay harorat va havoning nisbiy namligi 70–80% bo'lganida foydali gullashi 22–25% ga yetadi. Havо quruqligi va haroratning keskin oshirish tugunlarning ko'plab to'kilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Limon o'sishi va rivojlanishi uchun tuproq sharoiti muhim ahamiyatga ega. Sizot suvlar yaqin sho'r yerlarda va strukturasi soz tuproqlarda o'sa olmaydi. Zichligi o'rtacha qumoq tuproqli yerlar va suv, havо o'tkazuvchanligi yengil tuproqlarda yaxshi o'sadi.

Issiqxonalar limon ko'chatlarini ekishdan oldin tuproq yaxshilab tekislanib, gektariga 60–80 tn chirigan go'ng, 600 kg superfosfat hamda 150 kg kaliy o'g'itlari solinib, 50–60 sm chuqurlikda yer haydaladi.

Ko'chati 4x3 m sxemada ekiladi. Ko'chatlarni ekish paytida har bir chuqurga 10–15 kg chirigan go'ng, 100–150 g superfosfat va 50 g kaliyli o'g'itlar tuproq bilan aralashtirib solinadi.

Bir yoshli o'simliklarda 3–4 ta birinchi tartib pishgan novdalari va tanasining yo'g'onligi 0,7–0,8 sm bo'lishi kerak. Ikki yoshli ko'chatda ikkinchi tartibdagi novdalar, tanasining yo'g'onligi esa kamida 1 sm bo'lishi lozim. Kuzgi limon

³⁹ "Limoni yetishtirish bo'yicha tavsiyanoma". – O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi va Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vonochilik ilmiy-tadqiqot instituti. T – 2020, 5-bet



ko'chatlari ildiziga yopishgan tuprog'i bilan Qishda issiqxonalarda tuproqqa go'ng va ekiladi. Aks holda o'simlikning bir qismi superfosfat solinib 25–30 sm chuqurlikda nobud bo'ladi.

O'tkazishdan oldin bog' qaychi bilan oxirgi o'sish darajasining uchdan bir qismi, shuningdek ortiqcha novdalari, ildizning singan qismi kesib tashlanadi.

Ko'chat o'tkazilganda ko'chatlarning ildiz bo'g'zi tuproq sathidan 2–3 sm yuqorida bo'lishi kerak. Ko'chat o'tkazilgandan so'ng atrofidagi tuproq zichlanadi va bir chelakdan suv quyiladi. So'ngra har bir qatorning ikkala tomonidan tuplar tanasidan 25–30 sm masofada olingan egatlar bo'ylab sug'oriladi.

Ko'chatlar chuqurligi 15–20 sm li qilib olingan ariqlardan jildiratib tuproq 40–50 sm chuqurligida nam-langunicha sug'oriladi. Tuproq vegetatsiya davomida doimo nam holatda bo'lishi kerak. Uchinchi yilda sug'orish egatlari o'simlik tanasidan 50 sm gacha ko'chirilib, 30–40 sm gacha chuqurlashtiriladi.

Limon ko'chatlari normal o'sishi va yaxshi meva berishi uchun tuproqning optimal namligi 70–85% ni tashkil etishi kerak. Sug'orishlar bo'lib-bo'lib (mavsumda 25-martagacha) o'tkaziladi. Ularning miqdori ob-havo va o'simlik holatiga qarab belgilanadi.

ishlov beriladi. Tuproqqa ishlov berishda o'simlikning 15–35 sm chuqurlikkacha yetgan ildiz sistemasini shikastlamaslik uchun ehtiyotlik bilan ish ko'riladi.

Begona o'tlarni o'tash va ularni issiqxonadan chiqarib tashlash zarur, chunki ular o'simlikni shira va boshqa zararkunandalardan zararlanishi uchun manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Limon tuplari birinchi marta qishda vegetatsiya boshlanguncha, ikkinchi marta gullash oldidan va 3–4-marta tugunlar to'kilgandan so'ng va mevalar o'sishi davrida 20–25 kun oralatib shatmoq bilan sug'oriladi. Shatmoq sigir, qo'y – echkilarning va parranda go'ngini (2:1:1) ariq suvida yaxshilab ezib, sug'orish egatlariga quyiladi. Yozda shatmoq kechqurun va ertalab beriladi.

Yuqori va mo'l hosil olish uchun tuplarning faqat me'yorda oziqlanishi, o'sishi va rivojlanishi bilan kifoyalanib bo'lmaydi. O'sib ketgan va shakllangan novdalarni daraxt yoshiga, munosib ravishda siyraklash, chilpish va butash zarur. Bunda tupning o'sishi va meva berishi yaxshilanadi.

Issiqxonalarda ildiz tizimi yaxshi o'sgan bir yoshli va ikki yoshli ko'chatlar bahorda (mart) yoki kuzda (oktyabr)



o'tkaziladi. Bir yoshli o'simliklarda 3-4 ta birinchi tartib pishgan novdalar va tanasining yo'g'onligi 0,7-0,8 sm bo'lishi kerak. Ikki yoshli ko'chatlarda ikkinchi tartibdagi novdalar pishgan, tanasining yo'g'onligi esa kamida 1 sm bo'lishi kerak. Kuzda limon ko'chati ildiziga yopishgan tuprog'i bilan o'tkaziladi. Aks holda o'simliklarning bir qismi nobud bo'ladi⁴⁰.

O'tkazishdan oldin bog' qaychi yoki o'tkir pichoq yordamida oxirgi o'sish darajasining uchdan bir qismi, shuningdek ortiqcha novdalari, ildizining singan qismi kesib tashlanadi.

Limon ko'chatlari ko'pincha soxta qalqondor, o'simlik bitlari, kanalar bilan zararlanadi. Qalqondorlarga qarshi 0,3% li Fazolon eritmasi 5-6 kun oralatib 2-marta purkaladi. Karate preparatini 0,3% li qilib sepsa ham bo'ladi. Bunda o'simlikning hamma qismini, ayniqsa, barglarini pastki tarafidan ho'llash zarur.

O'simlik g'unchalagan va gullagan davrida purkash mumkin emas. Ishlov ertalab va kechqurun yoki bulutli kunlarda o'tkaziladi.

⁴⁰ "Limoni yetishtirish bo'yicha tavsiyanoma". – O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi va Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vonochilik ilmiy-tadqiqot instituti. T – 2020, 7-8-bet

Qora kuyasimon zamburug'lar barglar yuvilganda ketmaydi. Barglar 1% li bordo suyuqligi eritmasi yoki 0,5% mis, xlor oksidi eritmasi bilan qo'shimcha purkalgandagina xolos etadi.

O'rgimchakkanaga qarshi 0,2% li Keltan yoki 1% li Danitol eritmasini purkash yaxshi samara beradi. Vaqti-vaqti bilan yuvib turish ham foydali.

O'simlik tanasi gommoz yelim oqish bilan kasallanganda, kasallikning ilk bosqichida shikastlangan po'stloq qismi va yog'ochi sog'lom qatlamgacha kesib tashlanadi. Bundan so'ng tozalangan joy 3% li mis kuporosi bilan dizenfeksiya qilinadi va bog' qatroni bilan shuvaladi. Qatron tayyorlash uchun kanifol va asal ari mumiga (2:1) oz miqdorda mol yog'i qo'shib eritiladi.

Gommoz bilan zararlangan va qurigan daraxt tanasi atrofi ildizi bilan qazib olinib yondiriladi, tuprog'i esa 1% li formalin eritmasi bilan dizenfeksiya qilinadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, issiqxona mo'maygina daromad manbai hisoblanadi. Uni to'g'ri tashkil etish, tuproq unumdorligiga yetarlicha e'tibor berish orqali mo'l-ko'l hosil olish mumkin. Limon esa shunday hosil beradigan issiqsevar mevadir.



FOYDALANILGAN

ADABIYOTLAR:

1. “Limoni yetishtirish bo’yicha tavsiyanoma”. – O’zbekiston qishloq xo’jaligi vazirligi, Qishloq xo’jaligi va oziq-ovqat ta’minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi va Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog’dorchilik, uzumchilik va vonochilik ilmiy-tadqiqot instituti. T – 2020.
2. G’afro A lloqulovich Samatov
Jamoliddin Yodgorovich
Yodgorov Z.V To’lqinovich,
Siddiqov ISSIQXONA
XO’JALIKLARINI TASHKIL
QILISH VA YURITISH O’quv
qo’llanma O’zbekiston
faylasuflari milliy jamiyati
nashriyoti.
3. O’zbekiston respublikasi
qishloq xo’jaligi vazirligi sayti:
<https://agro.uz/uz/>



ANTONIN DVORJAK “SLAVYAN RAQSLARI”NING MILLIYLIK ASOSI

*O'zDK «Musika tarixi va tanqidi»
kafedrası*

*3- kurs bakalavr bosqichi talabasi
Mamatmusayeva Go'zal*

Ilmiy rahbar: s.f.n., dotsent

G.A Tursunova

*“Har bir ijodkorning o'z Vatani bo'ladi
va unga qat'iyatli*

*vafo va olovli muhabbat bilan to'lashi
kerak”*

Antonin Dvorjak

Ushbu satrlar atoqli kompozitor Antonin Dvorjak ijodining bosh shoriga aylangan ekan, tom ma'no muallif yaratgan ko'plab asarlarining asosiy poydevoriga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. A. Dvorjak ijodiy faoliyati Jahon musiqa tarixida chex mumtoz kompozitorlik maktabining eng yuqori cho'qqisini belgiladi. Yorqin milliy ruh bilan sug'orilgan, xilma - xil kuy va ritmlarga boy muallifning musiqiy bisoti, o'zining hayotbaxshligi, romantik jo'shqinligi bilan ajralib turadi.

A. Dvorjak milliy Chex musiqasini yaratishda bosh qosh bo'lgan. Bedrij Smetananing davomchisi sifatida uning ijodiy izlanishlarini yakunlagan kompozitor sifatida qayd etiladi. U turli janr va shakllarda asarlar yaratgan bo'lib, ijodiy merosini 10 opera, 10 oratoriya va kantatalar, 9 xor asarlari, ko'plab kamer-vokal asarlar, 9 simfoniya, 6 simfonik poemalar, 7 konsert asarlari (orkestr va har xil asboblardan uchun), uverturalar, rapsodiyalar, serenadalar va Syuitalar, “Slavyan raqslari” tashkil etadi. Vokal simfonik ijodida “Avliyo Lyudmila” oratoriyasi (1886), “Madhiya” kantatasi (1873) alohida o'rin tutadi.

Kompozitorning “Yangi dunyodan” nomli mashhur 9-simfoniyasida (1893) Dvorjak Yevropa simfonizm an'analarini yangicha ko'rinishda - chex va Amerika xalqlarining kuy va usullari bilan boyitdi. Kompozitorning ba'zi asarlarida R.Vagnerning ta'siri ham seziladi. Kompozitor vena klassikasi va romantizm musiqiy tamoyillarini Chexiya xalq musiqasi va ritmlari bilan uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Uning o'ziga xos uslubi dastlab Motsart va Betxoven musiqasida, keyin esa milliy musiqa an'analarida rivoj topdi.

Bu borada biz kompozitor nomini dunyoga tanitgan eng mashhur asarlaridan biri “Slavyan raqslari” ni



tahliliga e'tibor qaratib, mazkur asar misolida kompozitor ijodida milliy va xalqchil an'alarini ahamiyatini yoritish maqsadini o'z oldimizga qo'ydik.

Ma'lumki, "Slavyan raqslari" - A. Dvorjak ijodini eng tanilgan va sara asarlaridandir. Uning yaratilishi xaqida quyidagilar ma'lum: Frits Zimrok Dvorjakka Bramsning "Venger raqslari" misolida milliy fortepiano asarlarini yozishni taklif qiladi. Yangi to'plamning nomi - "slavyan raqslari" - F.Zimrokka tegishlidir. A.Dvorjak taklifni qabul qilib, qisqa vaqt ichida mart oyining o'rtalaridan 7 may 1878- yilgacha Brahms kabi "raqslar" seriyasini yaratdi. Bu to'plam muvaffaqiyotli nashrga chiqarilgandan so'ng, kompozitorga davomini yozish taklifi tushadi. Sakkiz yil o'tgach, ikkinchi daftar (yana sakkizta raqs) yozildi.

"Slavyan raqslari" 16 pyesadan iborat bo'lib, ikkita siklda- (op 46) 1878 yil va (op72) 1886 yillarda nashr etilgan. Dastlab ular 4 qo'lda fortepiano uchun yozilgan, ammo darhol muallif tomonidan orkestrlangan va asosan ushbu versiyada ijro etilgan. Orkestrning tarkibi: 2 fleyta, fleyta-piccolo, 2 goboy, 2 klarnet, 2 fagot, 4 valtorna, 2 trubalar, 3 trombonlar, litavralar, katta baraban,

tarelkalar, triugolnik, torli asboblari; 6-7-8- raqslarda - 1 fleyta.

Dvorjak Bogema, Morava va qo'shni viloyatlardagi xalq raqslarini va xarakterli ritmlarini qayta ishlab ularni mazkur asarlar matniga kiritadi. Birinchi daftar o'z ichiga furiant, dumka, polka, sousedska, skochna, mazurka va polonez raqslarini o'zida jamlagan. Ikkinchi daftarga esa turli xalqlarning raqslari o'rin oldi: Slovakiya odzemek, Ukraina dumkasi, Polsha polonezi, Serbiya kolosi, Chexiya raqslari - starodavniy, skochna, sousedska va shpatsirka. Musiqiy nashrlarda ikkinchi to'plamning raqslarini raqamlash tartibi mustaqil tarzda yoki birinchini raqamini davom ettirish orqali amalga oshiriladi.

Slavyan raqslarining birinchi daftarida - faqat bitta "Ukraina dumkasi" dan tashqari barcha nomerlar Chexiya tabiati va hayotini tasvirlab beradi. Dvorjak Bramsning "Venger raqslari" ni namuna sifatida ishlatadi.

Qishloqda tug'ilib, yoshlikdan folklor bilan ulg'aygani uchun u birinchi navbatda xarakterli ritmga, xalqning kuchini, yaratiladigan obrazlarga alohida e'tibor beradi. Har bir to'plamda raqs uchun namuna bo'lgan variantini topish mumkin bo'lsa-da, Dvorjak aniq bir raqsni (polka, vals va boshqalarni)



belgilashdan bosh tortdi, ko'pincha turli raqslarning xususiyatlari asosida ularni birlashtiradi. Ular kontrast tamoyili bo'yicha ketma ket tuzilgan : tezligi, o'lchami, harakatining tabiati bilan almashtirilib, umumiy motivlar bilan birlashtirilgan bir xil to'plamni hosil qiladi. Biroq, asar yaxlitlikda emas, balki individual raqslarga bo'linib ijro qilinayotganga o'xshab eshitiladi va har biri tinimsiz melodik boyitilgan, yorqin ritmlar, yorqin orkestr tembr bo'yoqlari bilan ajralib turadi.

Birinchi daftar ajoyib furiant bilan bezatilgan - (tarjimada - mag'rur) XVII - XVIII asrlarda paydo bo'lgan mateniki (chalkashlik, tartibsizlik) guruhiga mansub original Chex raqslari ikki va uch hissali ritmda namoyon bo'ladi

№ 1 - quvnoq, mag'rur xarakterda gavdalanadi. Asosiy mavzu tantanali ruhda orkestrda esa tutti ijro qilinib, ijodiy ravishda variatsiyalanadi, ba'zan yumshoq, kuychan, lirik va instrumental rangga ega bo'ladi.

№ 2 - boshqa barcha pyessalardan farqli o'laroq Chexiya raqsi va Ukraina dumkasiga asoslanmagan. To'rt marta, har doim variatsiyalanib, qiz raqslarining aks-sadosi eshitiladigan o'ychan musiqa tovushi takrorlanadi.

№ 3 - Chex milliy ruhi ifodasi hisoblanmish polka, - XIX asrning eng yorqin raqsi. Dvorjak uni XIX asrning boshlarida paydo bo'lgan Chexiya Respublikasida tarqalgan "Shotlandiya raqsi" ekoseziga yaqinlashtiradi. u Chexiyaning milliy ruhiga aylanib Shotish nomini oldi.

№ 4 - sousedska, qo'shnilar raqsi, muvozanatli, kuchli: (menuet tempida) eski menuet bilan bog'liq uch hissali o'lcham, silliq harakatda, mo'tadil yangraydi. Oldingi nomerdan farqli o'laroq, melodik xilma-xillik yo'q: chetki qismlarda mavzular o'zgarib turib, har doim asosiy mavzuga qaytadi. O'rta bo'limning mavzusi xazilanomus xarakter bilan belgilangan.

№ 5 - skochna raqsiga asoslangan bo'lib, 3 - pyesa epizodlaridan birini aks ettiradi. Biroq, ba'zi Chex tadqiqotchilari bu yerda Polsha krakovyakiga, Ukraina gopakiga, Chexiya vrtakiga o'xshash raqslarni topishadi. Ohirgi ikki hissali tez harakatdagi raqs skochnaga yaqin. Boshqa raqslarida bo'lgani kabi, Dvorjak bitta ohang bilan chegaralanmaydi. Undan ikkita yangi, teng darajada jonlantirilgan: lirik va xazilkash tavsifda paydo bo'ladi.

№ 6 - 4 pyesaga parallellik hosil qiladi. Bu yana bir sousedska raqsi bo'lib,



garchi u qisman polsha mazurkasiga o'xshaydi. Dastlabki motiv "menga mazurka qo'ying" nomli xalq raqs qo'shig'iga o'xshaydi. Bu raqsda musiqiy bezaklar ko'pligi qadimgi uslubni bersa, ko'plab stacatalar - xazilkashlik tusini o'zida namoyon qiladi.

№ 7 - yana skochna raqsi bo'lib, 5 va 3 pyesalarga o'tuvchi arka vazifasini bajaradi. Biroq, bu raqs yanada kengroq rivojlangan, ikkita haqiqiy xalq mavzusi simfonik rivojlanishga duch keladi. Ulardan biri - "Holajon qayerga ketyapsiz" quvnoq morav qo'shig'i, goboy va fagotning kanonik imitatsiyalarida g'ururli, navqiron ko'rinishda namoyon bo'ladi. Boshqa bir talaba qo'shig'i "Ey qiz, Men seni sevardim", hozirgi kunga qadar Chexiya Respublikasida mashhur qo'shiqlaridandir.

№ 8 - birinchi furiant kabi pyesa, ammo, yanada keng va juda bayramona talqin etiladi. Bu nafaqat sho'x va quvnoq folklor raqsi, balki qahramonlik, kuch - qudratga to'la, keskin ziddiyatlarga asoslangan raqs - butun to'planning haqiqiy simfonik finali hisoblanadi. Sekin - asta pastoral tovushlarga bo'yalgan Markaziy epizod mahalliy tabiat, Chexiya yaylovlari va

o'rmonlarning tasvirlari bilan aks ettiriladi.

O'n oltita raqsning o'ntasida Chexiya raqslari namoyish etiladi: furiant(I, 1 va 8), sousedska (I, 4 va 6; II, 8), skochna (I, 5 va 7; II, 3), polka (I, 3), shpatsirka (II, 5). Boshqa raqslar orasida: Ukraina dumka (I, 2; II, 4), slovak odzemek (II, 1), Polsha mazurka (II, 2), Polsha polonezi(II, 6), Janubiy slavyan, yoki Serbiya kolo raqsi (II, 7).

Shunday qilib, birinchi daftarda 2 - pyesadan tashqari, barcha raqslar Chexiya musiqasi asosida vujudga kelgan. Ikkinchi daftarning beshta pyesasi slavyan xalqi raqslari va uchta Chexiya raqslari asosida (№ 3, 5, 8) yozilgan.

Shu bilan birga, faqat asosiy folklor namunalari ko'rsatilgan bo'lsada, har bir pyesada turli-xil milliy turdagi elementlar birlashtirilgan. Misol uchun, ikkinchi daftarga murojaat qilsak, 2 - pyesada mazurka vals bilan, 8 - pyesada vals-sousedskaya bilan, 6 - pyesada polonez sousedskaya bilan birlashtirilgan.

Pyesalarning aksariyati murakkab uch qismli shaklda, har safar variatsiyalanib turadi. Ba'zi raqslarda Rondo shakli (I, 5 va II, 7) va faqat bir marta - murakkab ikki qismli shaklni (II, 5) uchratishimiz



mumkin. Har bir daftarning tarkibi kompozitsiya uyg'unligi - pyesalarning tez - sekin tempda taqqoslanishi - ikki hissali raqsdan keyin uch hissali raqsning kelishi bilan ajralib turadi. Pyesalar tonal va tematik aloqalar bilan mustahkamlanadi. Har bir daftarni ochib beruvchi birinchi raqs muhim ahamiyatga ega, uning aks-sadosi ushbu turkumning boshqa qismlarida ham kuzatilishi mumkin. Shunday qilib, uning tarkibiy qismlari xilma-xilligi bilan bir butun Syuitani tashkil etadi.

Birinchi daftar ichidagi 8 - pyesani tahlilini ko'rib chiqamiz. To'planning haqiqiy simfonik finali hisoblanib, keng va juda bayramona xarakterda talqin etiladi. Bu pyesa 2 va 3 hissalarini o'zida birlashtirgan o'tkir sinkopali ritm, tezkor, jo'shqin furiant raqsi bilan boshlanadi. Bu xususiyat raqsning birinchi asosiy mavzusi bilan namoyon bo'ladi. Uning dinamikasi asosan oddiy va yangi tonal rejasi bilan belgilanadi, bu slavyan musiqasining xarakterli ladotonal xususiyatini ifodalovchi o'zgaruvchanlik asnosida yuzaga kelishini belgilash joiz. Bu butun pyesaning tonal rejasida (g-B-G) birinchi qism, o'rta qism doirasida seziladi. Zotan, raqsning asosiy mavzusi g- moll va G- dur bilan taqqoslanib, rang - baranglik ta'sirini yaratadi:



Raqs murakkab uch qismli shaklda yozilgan. Biroq, butun pyesani qamrab oladigan asosiy mavzuning ajoyib, haqiqiy simfonik rivojlantirishi tamoyili tufayli, ohiri va o'rta qismlar ziddiyatlilikdan ko'ra ko'proq birlikda farqlanadi. Garchi o'rta qismda goboy va fleyta asboblarida yangi, yumshoq va kuychan musiqa paydo bo'lsa ham, lekin torli asboblar jo'rnavozligida o'zgaruvchan asosiy mavzu bilan birga keladi:



Raqs katta dinamik koda bilan yakunlanib, unda pyesa boshlanishidagiga qaraganda asosiy mavzu rangli tonlarda namoyon bo'ladi. Kuy sekvensiya tarzida, keyin tonalliklarning bir- xil taqqoslashida kuzatiladi. Natijada, kodada o'rta



qismning mavzusi yana paydo bo'lib, musiqa asta-sekin pastlab boradi. Pyesa asosiy mavzusidagi boshlang'ich motivining to'satdan kirib kelishi va orkestrda yorqin ijro etilishi bilan yakunlanadi. Orkestr va tonal kontrastlar, rivojlanish dinamikasi musiqasini qiziqarli va rangli folklor raqsi sahnasiga aylantiradi.

“Slavyan raqslari”- musiqiy va she'riy mazmun mohiyatining oddiyligi va soddaligi bilan, katta badiiy ahamiyatga ega bo'lishi bilan e'tiborli. Xalq mavzusi, ifodali vositalar, simfonik rivojlanish mahorati yangi janrni nafaqat Chexiya, balki Yevropa simfonizmining bir qismini tasdiqlashga yordam berdi.

Turli - xil milliy ruhdagi raqslarning bunday yaqinlashuvi, slavyan raqs san'atining umumlashtirilgan tasvirlarini yaratishga muvaffaq bo'lgan Dvorjakning noyob ijodiy uslubi yoritilishini ko'ramiz.

Antonin Dvorjak, shubhasiz eng mashhur chex kompozitoridan biri bo'lib qoladi. U barcha buyuk insonlar singari, bajarib bo'lmas ishlarni qilishga muvaffaq bo'ldi. Hayotlik paytidanoq uni butun Yevropada va AQShda qadrlashdi va asarlari Avstraliyada ham mashhur bo'ldi. Dvorjakning qudratli iste'dodi va mehnatsevarligi jahon musiqa

madaniyatiga ko'plab ajoyib milliylik bilan e'tiborni qozongan asarlari yaratilishiga va chex madaniyati Jahonda o'z o'rni va qiyofasini topishda muhim o'rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Б. Левик «Музыкальная литература зарубежных стран». - Москва, 1972.
2. Я. Лушина. Антонин Дворжак. Очерк жизни и творчества. - Музыка, 1961.
3. М. Друскин «История Зарубежной музыки» (выпуск IV).



O'SMIR SHAXSINING RIVOJLANISHIDA AXLOQ ME'YORLARIDAN CHETGA CHIQUISHINING SABABLARI

Rasulova Muhabbat Baxriddin qizi

*Buxoro Davlat Universiteti 1-bosqich
magistranti +998906139465*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri O'smir shaxsining har tomonlama yetuk hamda barkamol avlod qilib tarbiyalashda axloqiy me'yorlarning o'rni va ahamiyati qay darajada ekanligi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar : O'smir, axloq me'yorlari, psixologik xizmat, profilaktika.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan yana axloqshunoslik yangi jamiyatda tobora o'z yuksak mavqeyini egallab bormoqda.

Yosh avlodni tarbiyalash, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish va kamolga yetkazish muammolari doimo hukumat diqqat markazida turadi. Shu o'rinda ulug' bobomiz Fitratning "Bu dunyo kurash maydonidir-Sog'lom tan ,o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir "degan so'zlari juda o'rinlidir.

Axloqiy tarbiyalangan shaxsda barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Axloqiy tushunchalarni turli yosh guruhlarida shakllantirish darajasi turlichadir. Bolalar o'zlashtiryotgan axloqiy his-tuyg'ular, kechinmalar ma'naviy e'tiqodni shakllantirishning muhim sharoitlaridan biridir. Axloqiy his-tuyg'u insonning jamiyatga, odamlarga, o'ziga nisbatan emotsional munosabatini bildiradi. Bu odamlar o'rtasidagi muomala jarayonida vujudga keladi va rivojlanadi.

Chunonchi, axloqiy tafakkurning ilk bor qadimgi Sharqda vujudga kelganligi, Somir (Shumer), Vavilon, qadimgi Misr, qadimgi Turon-Eron, Qadimgi Hindistonda dastlabki axloqiy g'oyalarning paydo bo'lganligi ta'kidlanadi

Xo'sh, endi o'smir shaxsi rivojlanishida axloqiy normalarning o'rni qanday shu haqida fikr yuritsak:

O'smirlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Uni "o'tish davri" ham deb atashadi, chunki rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'smirlik davri 10 (11)-14(15) yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr inson faoliyatining eng murakkab davrlaridan biridir. Mazkur faoliyatning faollashuvi davrida



organizmning barcha organlarining jadal rivojlanishi oqibatida o'smir o'z xulq-atvor tamoyillariga, o'z qarashlariga amal qilishga harakat qiladi, mustaqillikka ehtiyoj tug'iladi, kattalar nasihatlarini tanqid ostiga olinadi, ularga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Odatda, deviatsiyalar o'smirlik davrida yuzaga keladi.

O'smirlik davrida o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi, bu esa o'z, navbatida, ruhiyatning qayta shakllanishiga, tengdoshlari bilan munosabatlarida yangi shakllarning paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirning ijtimoiy maqomi o'zgaradi, unga nisbatan kattalar tomonidan yanada jiddiyroq talablar qo'yila boshlaydi. Aynan o'smirlik davrida ichkilikka ruju qo'yishning ilk bosqichi boshlanishi mumkin

Chunki u o'smir guruhlarida sharoitida namoyon bo'ladi va shuning uchun "jamoaviy ichkilik tobeligi" tavsifga ega bo'ladi. Bu yoshdagi bola katta bo'lishga yoki kattalardek ko'rinishga harakat qiladi. Bu ham ijobiy, ham salbiy ma'noda namoyon bo'lishi mumkin. Balog'atga yetish tendensiyasi agar axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanmasa, ijtimoiy salbiy ma'nodagi chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol

qilish, jinsiy mas'uliyatsizlik, huquqbuzarlik namoyon bo'ladi.

O'smirlik davrida 11 yoshdan boshlab kattalar bolaga avvalgidek ta'sirlarini o'tkaza olmaydilar. Bola uchun tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish katta ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O'smirning ijtimoiy maqomi qancha past bo'lsa, uning guruhga ta'siri shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun bu yoshda ijtimoiy pedagog faoliyatida asosiy urg'u guruh bilan ishlashga qaratiladi. Buni ichkilik bilan bog'liq mavzularda bahs-munozaralar o'tkazish orqali amalga oshirsa bo'ladi. Bu mashg'ulotlar natijasida, guruhning barcha ishtirokchilari amal qiladigan qarashlar shakllanishi lozim. Bahs-munozaradan tashqari, rasmi o'yinlar ham o'tkazish mumkin. Ichkilikbozlik profilaktikasiga qaratilgan bunday o'yinlarda bolaning shaxsiy rivojlanishiga, jamoaviy muomala malakalariga o'rganishiga erishsa bo'ladi. Ijtimoiy pedagog o'smirlar guruhida shakllantirish mumkin bo'lgan asosiy ijtimoiy malakalar bu ichkilikka qarshi dalillarni aniq ilgari surish va tengdoshlari bosimiga qarshi tura olish.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni "tarbiyasi og'ir o'smir" deyiladi. "Tarbiyalash og'ir" deganda,



pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi..

Me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab tabiatga ega bo'lib, turli xil omillar bilan izohlanadi:

1. Biologik omillar bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning borligida o'z ifodasini topadi. Ularga irsiy xususiyatlar, aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi, organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar kiradi

2. Psixologik omillar. Bularga bolada psixopatalogiya yoki xarakterining aksentuatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya, nevrosteniya va bolada g'ayriadekvat reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: u o'zi yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki bu muhitga ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan yetarli darajada mehr his qilmasa, u holda bolaning himoya vositasi vazifasini "begonalashuv" bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar,

atrofdagilar bilan munosabatlarning buzilishi, emotsional sovuqlik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi, turli ruhiy patologiyalarda namoyon bo'luvchi sovuqlik kabilar kiradi .

3. Ijtimoiy-pedagogik omillar maktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'lib, uning asosida bolaning yoshlik chog'ida salbiy tajriba to'plashi bilan bog'liq bo'lgan, uning erta ijtimoiylashuvdan og'ishlarga olib keluvchi yosh, jinsiy va individual xususiyatlar yotadi. Bunday bolalar, avvalambor, maktabda yomon tayyorlanishgan bo'lib, uy vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashadi, maktab baholariga befarqliklarini bildirishadi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ijtimoiy tengsizlik, jamiyatning boylar va kambag'al sinflarga ajralishi, aholi ko'p qismining kambag'allashib ketishi, ishsizlik, inflyasiya, daromad olish usullarining cheklab qo'yilishidan iborat.

5. Axloqiy omillar, bir tomondan, zamonaviy jamiyatning past axloqiy darajasida va qadriyatlarning yo'qolib ketishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, jamiyatda deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishiga befarq qaralishida o'z aksini topadi.

Me'yordan chetga chiqishning oldini olish uchun qanday usullardan



foydalanishimiz kerak. O'smirning hatti- 2.<http://www.bilimdon.uz>
harakatini ijobiy yo'nalishga burib
yuborishimiz kerak .Ularda ma'suliyat, 3.<http://www.ziyonet.uz>
ishonch, g'urur, javobgarlik kabi yuksak 4.<http://www.pedagog.uz>
hislarni shakllantirishimiz kerak. Buning
uchun esa ularga yoshi, kuchi,
qobiliyatini inobatga olib topshiriqlar
berib turishimiz ayni muddaodir. Ularni
o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish
orqali o'qishga bo'lgan salbiy
munosabatini asta-sekin yo'qotib
boriladi.

O'smirlarning bo'sh vaqtini to'g'ri
tashkillashtirish. Ijtimoiy pedagog
o'smirning qiziqishlarini bilishi va uning
bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga
yordam berish lozim. Bu yoshning
psixologik xususiyatlari tufayli bo'sh
vaqtni o'tkazishning jamoaviy shakllarini
rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shuni
inobatga olish lozimki, deviant xulqli
bolalar, asosan, intellektual faoliyat bilan
emas, balki sport bilan shug'ullanishga
qiziqishadi. Shuning uchun ularning
sport bilan shug'ullanishlariga yanada
ko'proq sharoitlar yaratib berish lozim

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.G'oziyev E.G'. "Ontogenez
psixologiyasi; nazariy ekperimental
tahlil". Toshkent "Noshir" 195 b.



KOMIL INSON TARBIYASIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING AHAMIYATI

Umurqulova Sharifa

Sirdaryo viloyati Guliston tumani

*1-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada komil inson tarbiyasida ona tili va adabiyot faning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar va ularning natijalari tahlil qilingan. Qolaversa, maktablarda ona tili va adabiyot fanining muhim ekanligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, komil inson tarbiyasida ona tili va adabiyot faning ahamiyatini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, ma'naviyat, mehnat, ilmiy yangiliklar, o'yinlar, ona tili va adabiyot fanlari, ta'lim tizimi, mehnatsevarlik.*

Ma'lumki, bugungi kunda "Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ilgari surilgan masalalar jadal sur'atda umumta'lim maktablarida muvaffaqiyat

bilan amalga oshirilmoqda. Qonun talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish shu kunning talabi bo'lib qoldi. Bu maqsadni amalga oshirish o'qituvchidan izlanishni, ijodkorlikni, o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi. Hozirgi o'quv jarayonida odatdagi dars usullaridan tashqari yangi texnologiya asosida noan'anaviy darslarni tashkil qilish rivojlanib bormoqda. Maktabni tamomlayotgan har bir o'quvchi ona tili va adabiyot fanidan yaxshi bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Sababi o'quvchilar keyinchalik istalgan sohalarini davom ettirishi mumkin ammo ular, o'sha sohalaridagi jamoa bilan to'g'ri ishlashi va ularning xurmatiga ega bo'lish uchun savodxonligini ko'rsata olishi, shu bilan birga soha mutaxassisini qo'lida ishlash uchun mutaxassisning sinovlaridan o'ta olishi kerak. Mana nima uchun kerak ona tili va adabiyot fani.

Maktablarda o'qitiladigan ona tili predmetining ilmiy asosini va mazmunini, dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. Ona tili o'qitishning to'g'ri tashkil etilishi va samarali bo'lishi til to'g'risidagi lingivistik xulosalarning ilmiy va aniq bo'lishiga bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasini va uning taraqqiyotini tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ona tili o'qitish



metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog'liq holda ish olib boradi. Pedagogika ta'lim - tarbiya prinsplarini belgilab beruvchi fandır. Ona tili darslarida ham ta'lim prinsplari qo'llanadi. Pedagogika fanining didaktika qismi ona tili o'qitish metodikasining nazariy asosi hisoblanadi, Ona tili o'qitish metodikasi didaktikasining hamma prinsplariga tayanadi. O'qituvchi o'z o'quvchilarining psixologik qobiliyatlarini o'rganishi, ona tili materiallarini tushuntirishda ularni hisobga olishi zarur. O'qituvchi o'z faniga nisbatan o'quvchilarda qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb eta olishi, shu materialni esda saqlab qolish yo'llarini qo'llashi lozim. Bu ishlarning barchasi ona tili o'qitish metodikasining psixologiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbek tili o'qitish mazmuni. Ta'lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi. Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada 4 ta muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi.

1. Talabalar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi (til fanlari, tushunchalar, qoidalar va ta'riflar tizimi)

2. Tanlangan ilmiy – nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi

3. Talabalarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy – ijodiy darajada bo'lishi mumkin

4. Talaba va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi ona tili o'qitish mazmuni fonetika, leksikologiya, grammatika, uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish, ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

Maktablarda dars o'tishda doim ham qoida va nazariyalarni tushuntirish o'quvchilar bilimini oshirishda foyda bermaydi. Ularni ilmiy salohiyati bilan birga dunyoqarashini o'stirish ham ona tili va adabiyot fani bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni ularni yaratuvchanlikka ko'proq o'rgatish kerak. Shunda fanning tushuntirilgan jarayoni samarasi oshadi. Ona tili fani faqat grammatik me'yorni o'rgatuvchi fan emas, balki o'quvchining ixtiyoriy mavzudagi, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunishiga, to'g'ri o'qishiga, orfoepik va orfografik me'yorlarga oid ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır.



O'quvchi mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatini rivojlantiradi. Shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlarga oid topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni risoladagiday bajarishga o'rgatish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Bunda matnni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Adabiyot so'z san'atidir. Shu sababli ham ona tilini puxta o'zlashtirmasdan turib, adabiyotning go'zalligini va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va adabiyot darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchilarda so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyatini, turli matnlarda

tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea va hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi, bu bilan o'quvchi voqea, hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ona tili va adabiyot fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog'lagan holda ta'lim berar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'rni bilan bog'lanishli o'quvchilarni mantiqiy, tahliliy mushohadaga chorlovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, o'quvchilarni kreativ fikrlashga, matnni tushunishga, bilimi va dunyoqarashini boyishiga xizmat qiladi. Milliy ma'naviyatni egallash o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 1997-yi, 29-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 1997-yi, 29-avgust.
3. Y. G'ulomov "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent-1998-yil.



O'QUVCHILARNING O'QITUVCHILARGA BO'LGAN MUNOSABATINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sabirov Dilmurad Baxtiyarovich.

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tuman

12-son umumiy o'rta ta'lim

maktabi psixolog

Sattarova Adiba Omanboyevna

.Xorazm viloyati Qo'shko'pir tuman

27-son umumiy o'rta ta'lim

maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Maktabda 2 ta bosh figura o'qituvchi va o'quvchi mavjud bo'lib, butun ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ana shu kishilarning muomala madaniyati darajasiga bog'liq. Biroq, hozirgi maktab, ta'lim-tarbiyani demokratiyalashtirish jarayoni bajarayotgan birdavrda ham, biz avtoritar - byurokratik, imperativ yondashuvni ko'ramiz. Sakkiz yillik maktab direktori "Men o'quvchilar bilan yolg'iz kurash moqdaman, lekin ular bilan hamma kurashishini istayman", deb javraydi, natijada bolalardagi nuqsonlarga emas, balki ularning o'zlariga qarshi kurash

boshlaydi. Masalan, sharmanda qilishga bag'ishlangan lineyka, qasam ichirish, ota-onalar orqali siquvga olish va hokozolar. Natijada ikki bir-biriga qarshi turuvchi o'quvchilar va o'qituvchilar lageri yuzaga keladi. Umumiy maqsadlar emas, balki shaxsiy qiziqishlar uchun kurash avj oladi.

Kalit so'zlar:

O'qituvchi, o'quvchi, umunosabat, ijtimoiy psixologiya

Ba'zi o'qituvchilar borki, ular nihoyatda kuchli bilim, yaxshigina nutqqa ega bo'lishadi, biroq o'quvchilar bilan muomala qila bilishmaydi. Ularda o'qituvchini eshitish sabr-toqat malakasi yetishmaydi.

Maktabda 2 ta bosh **figura - o'qituvchi va o'quvchi** mavjud bo'lib, butun ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ana shu kishilarning muomala madaniyati darajasiga bog'liq. Biroq, hozirgi maktab, ta'lim-tarbiyani demokratiyalashtirish jarayoni bajarayotgan birdavrda ham, biz avtoritar-byurokratik, imperative yondashuvni ko'ramiz.⁴¹

⁴¹Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005 Sultonova G.A. Pedagogika / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.- [45-b]



Sakkiz yillik maktab direktori “Men o’quvchilar bilan yolg’iz kurashmoqda mlekin ular bilan hamma kurashishini istayman”, deb javraydi, natijada bolalarda gi nuqsonlarga emas, balki ularning o’zlariga qarshi kurash boshlaydi. Masalan, sharmanda qilishga bag’ishlangan lineyka, qasam ichirish, ota-onalar orqali siquvga olish va hokozolar. Natijada ikki bir-biriga qarshi turuvchi o’quvchilar va o’qituvchilar lageri yuzaga keladi. Umumiy maqsadlar emas, balki shaxsiy qiziqishlar uchun kurash avj oladi. Hozirgi istiqloq va demokratiya sharoitida ta’lim-tarbiya jarayonini, ongli fikrlay oladigan vatan va shaxsiy manfaatlari oldida mas’uliyat sezadigan fuqaroni tarbiyalash maqsadiga bo’ysunadi.

O’zaro qarama-qarshilik emas, balki hamkorlik, insonparvarlik bilan sug’orilgan munosabatlar – maktabda sermahsul muomala madaniyatini yo’lga qo’yish orqaligina yuqoridagi maqsadga erishish mumkin.

Hamma narsa o’qituvchining o’quvchilar bilan mohirona maqsadga muvofiq munosabatlarni o’rgatishga bog’liq, chunki bunday munosabatlar o’z navbatida

ijodiy muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ko’pchilik **25 % o’qituvchi** o’zining maktabdagi yetakchilik rolini anglamaganligi

uchun hamma aybni o’quvchilarning “tarbiyasizligi”ga to’nkaydi.

Muomala – pedagogic faoliyatning muhim kasbiy quroli bo’lib, olimlar A.A.Kovalev, N.B.Kuzmina, U.A.Kan-Kalik, A.A.Leontyev, A.N.Mudrik, A.U.Sherbakovlar muomalaning o’qituvchi faoliyatida muhim rol o’ynashini isbotlashgan.

Pedagogik muomala - bu o’qituvchining o’quvchilar bilan dars va darsdan tashqari paytdagi qulay psixologik holat yaratish maqsadida olib boradigan kasbiy muloqoti.

Pedagogik muomala ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalarga ega:

shaxsni anglash, axborot almashuv, faoliyatni tashkil etish, rol almashtirish,



hamdardlik, o'z qadrini bilish,
ishtirokchilarni almashtirish, kechinmalar
hosil
qilish, o'zida ishonchni shakllantirish va
hakozo.

Axborotlarning almashinish funksiyasi m
ateriallarning va ma'naviy sifatlarni
almashtirish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni
rivojlantirish, ichki ijoboy o'zgarishlarni
hosil
qilish, hamkorlikda bilishga oid qidiruv
hamda ongli fikrlashga zarur sharoit
yaratadi. .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005 Sultonova G.A. Pedagogika / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
2. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2008
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O'quv metodik qo'llanma TDPU. 2004



РУССКИЙ ОНЛАЙН В ПАНДЕМИЮ: ИСПЫТАНИЕ ИЛИ ШАНС?

*Учитель начальных классов о.о.
школы 12, г.Нукус*

*Отличник народного образования
Республики Каракалпакстан.*

Бабаджанова Алмагуль Казакбаевна.

*Учитель начальных классов о.о.
школы 23, г.Нукус*

*Джаксымуратова Гулсанем
Мустапаевна*

Аннотация:

В статье рассмотрены основные понятия, модели и характерные особенности современного дистанционного обучения. Проводится обоснование актуальности использования дистанционных технологий в обучении. Основной акцент сделан на особенности организации учебного процесса с использованием дистанционных образовательных технологий. Целью авторов являлось рассмотрение расширения функций онлайн-обучения как инструмента образовательного процесса, а также сохранения и повышения мотивации

студентов к обучению в ситуации дистанционного образования

Ключевые слова:

русский язык, пандемия, онлайн-образование, дистанционное обучение.

Дистанционное обучение — это современная реалья, которая является важной частью и дополнением к традиционной форме обучения современного студента и расширяет возможности классического университетского обучения.

Форсмажорные обстоятельства, произошедшие в мире, способствовали ускоренной модернизации формы онлайн-обучения, разработке интеграционного комплекса методик при обучении студентов-иностранцев и, как следствие, появлению термина «онлайн-обучение» (ОУ), под которым следует понимать усовершенствованную форму дистанционного обучения: использование презентаций в среде Power Point, программ тестирования и разработки электронных курсов на различных платформах как единую интеграционную модель. В процессе обучения произошло расширение функций ОУ как инструмента



образовательного процесса, что дало возможность преподавателям принимать во внимание при проведении вебинаров различный уровень знаний обучающихся, ориентируясь на результаты, достигнутые студентами на образовательных платформах Moodle и ZOOM. Таким образом, можно сказать, что наблюдается смена приоритетов при оценке роли онлайн-обучения в образовательном процессе. Онлайн-обучение перестает выполнять вспомогательную функцию и постепенно начинает играть ведущую роль в современной системе образования.

В настоящее время в России происходит стремительное развитие онлайн-обучения, которое базируется на использовании современных технологий. В настоящее время «... в условиях пандемии коронавирусной инфекции COVID-19 онлайн-обучение становится наиболее доступной формой получения образования. Закрытию на карантин подверглись и университеты по всему миру» [1]. Практически все университеты России «перешли на дистанционное обучение с 16 марта 2020 года» [2; 3]. В условиях существования информационного общества, наряду с

традиционными формами обучения все чаще применяют современные способы, которые базируются на таких технологиях, как дистанционное обучение с применением вебинаров, ориентированных на индивидуальные потребности студента и уровень его знаний, что дает возможность сделать образовательный процесс более гибким, универсальным и личностно-ориентированным. С развитием информационных технологий, локальных сетей появились новые возможности обучения, которые позволяют поддерживать образовательный процесс на должном уровне.

Изучение, усовершенствование методов онлайн-обучения является актуальной темой современных методистов и исследователей. Об этом пишут в зарубежной литературе. Например, Luis Miguel Dos Santos [4] обращает внимание на то, что поиск оптимальных и эффективных методик и стратегий обучения является неотъемлемой частью преподавания иностранных языков. В наши дни все большую популярность приобретает онлайн-обучение. Reni Puspitasari Dwi Lestariyana и Handoyo Puji Widodo [5] отмечают, что в наступившую цифровую эпоху современные



студенты имеют огромный опыт активного использования цифровых технологий через такие ресурсы, как Facebook, Instagram, блоги и WhatsApp. Для них онлайн среда является привычной.

Современная ситуация, сложившаяся в высшем образовании, показывает, что проводить занятия с применением новых информационных технологий стало жизненно необходимо.

Отметим, что внедрение в учебный процесс онлайн-обучения вовсе не должно исключать традиционные методы обучения, а только дополнять их. Основная цель онлайн-обучения — это формирование устойчивой мотивации через активное участие студентов и преподавателя в учебном процессе. Обеспечивать качественное улучшение результатов учебной деятельности можно только при разумном объединении накопленных методов, личного опыта и современных технологий.

Преимущества онлайн-обучения наглядны — это возможность дифференцированного и индивидуального обучения для всех студентов (в том числе с ограниченными возможностями здоровья, территориальной доступности обучения в рейтинговых

университетах страны и т. п.); интерактивность; качество тестов; наглядность; оправданность применения аудио, видео; возможность использования данного вида обучения для работы с одаренными студентами; дистанционное участие в олимпиадах, конкурсах, конференциях. К основным инновационным качествам онлайн-обучения относятся:

- 1) обеспечение всех компонентов образовательного процесса: получение информации, практические занятия, аттестация (контроль учебных достижений);
- 2) интерактивность, которая обеспечивает резкое расширение возможностей самостоятельной учебной работы за счет использования активно-деятельностных форм обучения.
- 3) возможность более полноценного обучения вне аудитории. Акцент на полноценность не случаен. Речь идет не о поиске и получении текстовой информации из удаленных источников.

Полноценность в данном случае подразумевает реализацию вне аудитории таких видов учебной деятельности, которые раньше можно



было выполнить только в университете: изучение нового материала на предметной основе, текущий контроль знаний с оценкой и выводами, подготовку к экзаменам, а также многое другое, вплоть до коллективной учебной работы удаленных пользователей.

Для отработки навыка говорения и аудирования авторским коллективом была использована интернет-платформа ZOOM. Данная платформа предоставляет широчайшие возможности в организации видео-урока: — видеть студента (организатор имеет возможность включать видео у слушателя); — разделить группу по подгруппам для отработки диалогов, монологического высказывания; — использовать «виртуальную» доску; — продемонстрировать экран ноутбука преподавателя; — отправлять файлы студентам; — организовывать чаты студентов. На вышеназванной платформе проводятся «аудиторные» занятия, включающие такие методы работы, как опрос, монологическое высказывание, беседа. Во время урока студенты имеют возможность задавать вопросы преподавателю напрямую.

Предложенная методика онлайн-обучения студентов позволяет

обеспечить не только подготовку к сдаче экзамена или центрального тестирования, но и качественное проведение изучаемых предметов в условиях любых сложных ситуаций (например, во время пандемии). Обсуждение (Discussion) После трех месяцев работы авторский коллектив провел анкетирование у обучающихся онлайн студентов. Студентам было предложено ответить на три вопроса: Что Вам нравится в онлайн-обучении? Что Вам не нравится в онлайн-обучении? Ваши предложения и пожелания.

Современность диктует свои правила во всех сферах деятельности. Нам необходимо признать, что дистанционное образование или онлайн-обучение становится реальностью высшей школы. Однако оно потребует переподготовки преподавательского состава, корректировки программ обучения, оснащения университетов современными средствами для дистанционного обучения, подключения IT-специалистов для создания электронных курсов, журналов, ведомостей и идентификации обучающегося. Дистанционное обучение — это современная реальность, без которой образование XXI века немыслимо, но



необходимо отметить, что оно может быть только частью или дополнением к традиционной форме обучения современного студента, но никак не заменять ее на 100%. Несмотря на популярность и всеобщее одобрение этого вида обучения, все студенты сходятся во мнении, что онлайн-обучение не сможет заменить «живого» общения между преподавателем и студентом, создать атмосферу академической среды, заменить коллектив и дружеское общение между студентами; его задача только дополнить и расширить возможности классического университетского обучения.

Литература

1. Отмена массовых мероприятий в Москве, закрытие школ по всему миру и больше 1000 больных в США: новости эпидемии COVID-19 [Электронный ресурс]. URL: <http://www.forbes.ru/tehnologi/394723-otmenamassovyh-meropriyatiy-v-moskve-zakrytie-shkol-po-vsemu-miru-i-bolshe-1000> (дата обращения: 15.07.2020).
2. 2. Студентам грозит дистанционное проживание [Электронный ресурс]. URL: <http://www.kommersant.ru/doc/4292688> (дата обращения: 15.07.2020).
3. 3. Минобрнауки рекомендовало вузам организовать дистанционное обучение. URL: <http://rg.ru/2020/03/15/minobrnauki-rekomendovalo-vuzamorganizovat-distancionnoe-obuchenie.html> (дата обращения: 15.07.2020).
4. 4. Luis Miguel Dos Santos The Discussion of Communicative Language Teaching Approach in Language Classrooms // Journal of Education and e-Learning Research. 2020. Vol. 7. № 2. P. 104—109. ISSN(E) 2410-9991 / ISSN(P) 2518-0169. DOI: 10.20448/journal.509.2020.72.104.109
5. Reni Puspitasari Dwi Lestariyana and Handoyo Puji Widodo. Engaging young learners of English with digital stories: Learning to mean



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

Google Яндекс @ mail

[Электронный ресурс] //
INDONESIAN JOURNAL OF
APPLIED LINGUISTICS. Vol.
2018 № 2, September. P. 489—
495. URL:
[http://ejournal.upi.edu/index.ph
p/IJAL/article/ view/13314.](http://ejournal.upi.edu/index.php/IJAL/article/view/13314)
doi: 10.17509/ijal.v8i2.13314



TEACHING AND LEARNING HIGH SCHOOL STUDENTS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN PROFILE TO ENGLISH- LANGUAGE HISTORICAL DISCOURSE BASED ON THE INTEGRATION OF EDUCATIONAL SUBJECTS "ENGLISH" AND "HISTORY"

*By Zubayda Kuchkarova Xakimovna,
Barnogul Shukurova Urinbaevna*

Annotation: Today, foreign language teaching based on integration with other academic subjects is one of the main vectors of language education development. The idea of integrated foreign language teaching became popular in the second half of the twentieth century due to the needs of international professional communication. The linguistic basis of integrative methods was the development of a functional paradigm in linguistics, when researchers focused on the linguistic variability caused by the communication situation. Since the 70s of the last century, methods of integrated foreign language teaching have been

actively developed and put into practice: language training for special purposes.

Keywords: foreign language teaching, intercultural communication, educational tasks

In Uzbekistan education system, integrative trends in foreign language teaching have a long tradition. Thus, during the Soviet period, there were schools in the General secondary education system with in-depth study of a foreign language, where a number of subjects were studied in a foreign language. In higher education institutions, integrated foreign language teaching was carried out within the framework of specialization in such areas as chemistry, physics, mathematics, etc. During the transition period at the turn of the Soviet period and the modern history of Uzbekistan, this practice has somewhat weakened its position, but now it is being revived. Universities are particularly interested in this area, which is quite justified in the context of intensively developing international professional contacts. However, it should be noted that the idea of integrated foreign language teaching is being actively implemented at the secondary school level.



An elective course based on the integration of these academic subjects can be organically integrated into the educational process at the expense of a component of the educational institution in a number of other elective courses that are mandatory and included in the curriculum. Classes in the elective course with specialized training in the tenth and eleventh grades are held once a week, which is 34 hours per year and 68 hours for two years.

In connection with the challenges of the modern world, it is necessary that young people learn from school, participating in foreign-language intercultural communication, to defend their point of view on key events in our country and the world, on the role of Uzbekistan in world history, acting as a representative of the historically formed civil, ethno-cultural and multi-religious Uzbek community. It is necessary that the knowledge of the history of the native country, obtained at school, be not only an indicator of progress in this subject, but also become an integral part of a person who is aware of their roots, their national and cultural identity. At the same time, it is important to emphasize that young people should learn to defend their point of view not declaratively, but based on historical facts, operating with a

deep knowledge of historical events, analyzing and explaining their relationships, cause-effect, time and other relationships. In other words, it is necessary to teach participation in cross-cultural historical discourse in a foreign language at school (preferably in high school). The solution of this problem can contribute to an integrated study of the English language and history in the framework of the elective course.

The author's elective course "English and history", proposed in this study, and is designed to meet the requirements of sample programs in history and English for General education institutions. The course was developed based on the results of an intelligence experiment, which included a survey of history teachers and students of grades 10-11 of the social and humanitarian profile of the gymnasium.

The proposed elective course "English and history" can significantly contribute to overcoming such shortcomings. It should be emphasized that this course is not a full implementation of the subject-language integrated learning methodology. Its purpose is not limited to the study of history in English; its main purpose is to teach English-language historical discourse. Of course, this course in its essence and content as a



whole pursues an educational goal, but it is not limited to it. Along with the implementation of educational tasks, it contains a greater educational potential.

The content of the course "English language and history of Russia" has two aspects: on the one hand, focused on the goals of an exemplary program in English, based on component of state standard of basic General education, on the other hand, takes into account the requirements of an exemplary program on the history for classes 10 and 11, highlighting the significant milestones of formation and development of the Uzbek state.

According to level B1, the lexical minimum of a school graduate is 1400 units. However, the program of the elective course aimed at developing the skills of high school students to participate in English-language intercultural communication on historical topics, involves expanding the lexical minimum. The lexical material is selected in accordance with the thematic content of the texts on which the speech activity of students is based.

It is important to emphasize that the elective course "English and the history", along with the implementation of educational tasks, is aimed at the


formation of the personality of high school students, their spiritual development, and awareness of their own cultural identity. In addition, the ability of high school students to participate in cross-cultural historical discourse in a foreign language will contribute to their professional growth in the future.

Literatures:

1. Azimov E. G., Shchukin A. N. New dictionary of methodological terms and concepts (theory and practice of language teaching). Moscow: ICARUS, 2009. 448 p.
2. Getmanskaya A.V. Formation of linguistic and cultural competence on the basis of the integrated course "English language and world art culture": an elective course for schools with in-depth study of English and non-linguistic universities: Diss. ... Ph. D. St. Petersburg, 2003. 257 p.



BOSHQARILADIGAN CHORRAHALAR FAZASI O'ZGARISHINING YTH LARGA TA'SIRINI O'RGANISH VA CHORRAHANING O'KAZUVCHANLIGINI



OPTIMALLASHTIRISH

TDTrU "ITT muxandisligi" 2-bosqich magistranti E.B.Islamov

TDTrU "ITT muxandisligi" 1-bosqich magistranti F.B.Amirqulov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida joylashgan Alisher Navoiy shox ko'chasi va Xonobod ko'chalari kesishmasida joylashgan chorrahada o'rnatilgan svetaforlarning fazalari va yonish

davrining o'zgarishini transport oqimi va harakat xavfsizligiga ta'siri yoritiladi. Hamda olingan ma'lumotlar asosida joriy holatni PTV Vissim dasturi yordamida modellashtiriladi va to'plangan ma'lumotlar jadvalda aks ettirilib tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlari: PTV Vissim, transport oqimi, harakat xavfsizligi, svetaforlar fazasi, ekologik zaharli gazlar, YTH, svetafor sikli, LOS.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanib kelmoqda. Bu esa mamlakatimizda transportga bo'lgan extiyojni oshishiga, avtomobillar sonining oshishiga sabab bo'lmoqda shuning bilan, yo'l transport hodisalarining (YTH) keskin oshishiga va natijasida insonlarning jarohatlanishi yoki ularning hayotdan ko'z yumishiga ham olib kelmoqda. Ayniqsa YTH lar natijasida ekologiyaga sezilarli zarar yetkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi IIB Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasining bergan ma'lumotlariga ko'ra o'tgan 2019-2020-yillar maboynida YTHlar natijasida jami 4056 nafar inson hayotdan ko'z yumgan. O'tgan 2019-yilga qaraganda YTH da halok bo'lganlar soni 6.9 % ga kamaygan (1-rasm).



YTHlar bilan bo'liq muammolarni bartaraf etish maqsadida hukumatimiz tomonidan qator qaror va farmoyishlar imzolangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.2017 yil 3127-sonli "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risi"gi qarori qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 20-oktabrdagi 841-son qarori qabul qilingan bo'lib, unga muvofiq O'zbekistonda 2025-yilga kelib YTH sonini ikki barobarga qisqartirish belgilangan. 2030 - yilga kelib, "yo'l harakati xavfsizligini oshirish asosida xavfsiz, arzon, qulay va ekologik barqaror transport tizimlaridan foydalanishni ta'minlash, xususan, jamoat transportidan foydalanishni kengaytirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga alohida e'tibor qaratish" vazifasi turibdi. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida hozirda Respublika miqyosida jamoat transporti xizmati sifatini va jozibadorligini ta'minlash va mavjud infratuzilmalardan oqilona foydalanish,

hamda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan YTHlarini oldini olish maqsadida sezilarli ishlar olib borilmoqda.

30 noyabr 2020 yili O'zbekiston Respublikasi prezidenti ishtirokida selektor yig'ilishi bo'lib o'tdi va yig'ilishda hududlarda jamoat transportini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi. Keltirilgan topshiriqlarni bajarish bo'yicha viloyatlarda ishlar boshlangan. Quyida tadqiq qilinadigan chorraha Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida joylashgan Alisher Navoiy shox ko'chasi va Xonobod ko'chalari kesishmasida joylashgan. Ushbu o'rganilayotgan chorrahada o'rnatilgan svetaforlarning fazalari va yonish davrining o'zgarishini transport oqimi va harakat xavfsizligiga ta'sirini quyida yoritib o'tamiz.




Chorrazadaning joriy holati bo'yicha A.Navoiy shox ko'chasi va Xonabod ko'chalaridan ertalabki tig'iz paytda o'tgan avtomabillar soni.

- svetafor sikli davomiyligi – 40 sek (1-rasm);
- fazalar soni – 2;

1-jadval

Yo'nalishi	Alisher Navoiy shox ko'chasi va Xonabod ko'chalaridan ertalabki tig'iz paytda o'tgan avtomabillar soni			
	Alisher Navoiy shox ko'chasi		Xonabod	
	B	D	A	C
To'g'riga	274	323	671	544
O'ngga	130	509	247	187
Chapga	167	277	166	400
Jami	571	1109	1084	1131



- yo'lining eni – 14 m;
- yo'l tasmalar soni – 2 ta;
- tasmalar eni – 3,5 m.
- kunning ertalabki tig'iz vaqtida olingan ma'lumotlar (1-jadval);


Olingan ma'lumotlar asosida joriy holat PTV Vissim dasturi yordamida modellashtirildi va to'plangan ma'lumotlar jadvalda aks ettirildi:

- Harakat miqdori -3895 ta;



- Chorrahaning o'tkazuvchanlik qobiliyati (LOS¹) – C;

2	Natriy oksidi – NO ₂	1378,854
---	---------------------------------	----------



2-rasm

3	Boshqa organik birikmalar	1642,458
---	---------------------------	----------

1 – LOS – xizmat ko'rsatish sifati (level of service);

Ekologiyaga chiquvchi chiqindi gazlar tahlili

2-jadval


No	Chiqindi gaz turi	Miqdori (gr)
1	Karbonad angidrid – CO ₂	7086,894

O'tkazilgan tadqiqod xulosasiga ko'ra optimal svetafor siklining uzunligi aniqlandi, bu ko'rsatgich 36-39 sek oralig'ida ekanligi ma'lum bo'ldi. Belgilangan chorrahadagi svetaforning sikl uzunligi 40 sek dan 37 sekga kamaytirildi(2-rasm) va svetaforning taqiqlangan chirog'iga qaramasdan o'ngga qayirilishga ruxsat berildi. PTV vissim dasturi orqali o'tkazilgan tajribaga ko'ra kunning tig'iz vaqtida chorraxadan jami 3975 ta avtomabi o'tganligi aniqlandi.



Optimal svetafor sikli diogrammasi

3-rasm.



Amalga oshirilgan simulatsiyon tadqiq yakunida grafiklarda yaqqol ko'rinib turibdiki chorrahadagi fazalar sikli 35-39 sek bo'lganda uning o'tkazuvchanligi oshmoqda. Bu esa o'z navbatida o'rganilgan chorrahada transport vositalarining tirbandlikda uzoq vaqt turib qolishini oldini oladi va shuningdek atrof muhitga transport vositalaridan chiqayotgan ekologik zaharli gazlar miqdorini kamayishiga olib keladi.

Majlisga murojati. 2020 y. 24 yanvar.

2. Treiber M., and Kesting A. (2013). Traffic Flow Dynamics: Data, Models and Simulation, Springer-Verlag, Berlin Heidelberg, ISBN 978-3-642-32460-4.
3. Dusan Teodorovic, Milan Janic, Transportation Engineering: Theory, Practice and Modeling, 2017 Elseiver Inc. 900 pages.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy



MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Ergasheva Shoxista

*Jizzax viloyati Arnasoy tumani 11-
umumta'lim maktabi matematika
fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada matematika fanini o'qitishning bugungi kundagi dolzarb masalalari, dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanishning samaralari haqida fikr-mulohazalar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: matematika, abstrakt fan, matematik tushunchalar, mantiqiy fikrlash, matematik modellashtirish

Ma'lumki, matematika fani - abstrakt fan. Uning mazmuni boshidan oxirigacha inson tasavvurining va mantiqiy tafakkurining mahsulidan iborat. Fanning bunday abstrakt tuzilishi, o'zini-o'zi boyitib borishi, ya'ni yangidan-yangi matematik tushunchalar va ularning xossalari ma'lum xossalardan hosil qilish olish imkoniyati qadimdan insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Hatto matematik masalalarni yechish musobaqalari o'tmishda inson aqlini rivojlantirish

vositasi bo'lgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, matematika fanining eng asosiy vazifasi aynan o'quvchilarni o'ylashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga va mushohada yuritishga o'rgatishdan iborat ekanligi oydinlashadi. Hech qaysi fan matematika fanichalik o'quvchilarni o'ylashga va fikrlashga majbur qila olmaydi. Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o'quvchilar to'g'ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar.

Zamonaviy ta'limda ta'lim oluvchi uchun dars jarayonidan tashqari vaqtlarda ham o'z ustida ishlashlari, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi. Matematika boshqa fanlar (fizika, ximiya, tarix va hokazo) kabi haqiqiy borliqni o'rganadi. Haqiqiy borliqning tuzilishi va undagi qonun qoidalarini tadqiqot qiladi. Haqiqiy borliq haqida turli modellar yasaydi. Agar, tabiiy fanlar o'z tadqiqotlarida tajribalarga asoslanishsa, matematika tajribalarga asoslanmaydi. Matematikadagi nazariyani amaliyot bilan bog'lash bilan bog'liq muammolarni tushunish va tasavvur qilishda tajribaga murojaat qilish mumkin. Biroq tajriba metodi matematikada isbot uchun qabul qilinmaydi. Tabiiy fanlar haqiqiy



borliqning noma'lum bo'lgan xossalarni topish uchun tadqiqot o'tkazsa, matematika moddiy dunyoning qaralayotgan modellarida yangi xossalarni topadi va yangi modellar yaratadi. Bunga borliqdagi hodisalarni yaxlit talqin qilishga imkon beruvchi matematik modellashtirishlar misol bo'ladi. Matematika bu aniq fanlar guruhiga mansub bo'lib, uni o'rganish va tadqiqot qilishning boshqa fanlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan:

- 1) matematika predmetlarining abstraktlangan xossalarini o'rganadi. Matematik ob'ektlar mazmundan ajratilgan holda o'rganiladi, ya'ni ob'ektning ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoq kabi xususiyatlar inobatga olinmaydi. Chunki, matematik ob'ektdagi bu xususiyatlar umumlashtiriladi, abstraktlanadi va uning yordamida matematik nazariya yaratiladi. Aks holda nazariyani yaratib bo'lmaydi.
- 2) matematik xulosalar (natijalar) asosan mantiqiy xulosa chiqarish bilan olinadi. Tajriba metodi bilan olingan natija matematika uchun to'g'ri hisoblanmaydi.
- 3) matematik xulosalar rad qilinmas xulosalardir.
- 4) matematikadagi paydo bo'lgan abstraktsiyalar pag'onasimon rivojlanadi,

ya'ni abstraktsiyadan abstraktsiyaga o'tiladi.

5) matematik natijalar universal xarakterda bo'lib, bu boshqa sohalarga ham tadbiiq etiladi⁴²

Hozirgi kunda maktab ta'lim jarayonida yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va uni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqishga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha ananaviy ta'limda maktab o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalarida ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalarida o'quvchilarni

⁴² Mirzayev Ch., Sodikov U., Baxromov J. Matematika o'qitishning zamonaviy muammolari. "Psixik taraqqiyot va ta'lim muammolari" O'zMU Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasini ilmiy maqolalar davriy to'plami. 2013-yil.



bilimli, yetuk va fanlarni chuqur o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

O'smir yoshidagi, qiziqqon, sal narsadan zerikadigan va qaysi tarafga qiziqtirsangiz o'sha tarafga moyil bo'ladigan o'quvchilar ham yo'q emas, albatta. Ularni ham pedogogik texnologiyalari asosida darsga qiziqтира olsak, o'qishga qiziqishini, bilim olishga moyilligini ortтира olsak va boshqa salbiy narsalarga qiziqishi ortishiga yo'l qo'ymasak o'qituvchi kasb jihatidan oldiga qo'ygan ijobiy maqsadga erishgan bo'ladi. Biz bu bilan hamma darslarni pedogogik texnologiyalar asosida o'tish kerak degan fikrdan yiroqmiz.

Matematikada ham mavzuga qarab bir xil mavzularni texnologiyalar asosida o'tish yuqori natija bersa, bir xil mavzularni an'anaviy tarzda o'tish ijobiy natija beradi.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganidek **“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman** degan so'zlaridan ham bunga yana bir karra misoldir. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot

yo'ldan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish va ular orqali ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev Ch., Sodikov U., Baxromov J. Matematika o'qitishning zamonaviy muammolari. “Psixik taraqqiyot va ta'lim muammolari” O'zMU Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasini ilmiy maqolalar davriy to'plami. 2013-yil.
2. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, (darslik) T.: 2007



CHET TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR SAMARASI

Mingboyeva Dilnoza Ravshanbekovna

*Andijon viloyati Izboskan tumani 16-
maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish bu orqali o'quvchilarda chet tili bilim darajasini oshirish bo'yicha fikr mulohazalar yuritilgan.

O'quvchi o'z ona tilini yaxshi bilsa, qonun-qoidalariga amal qilish malakasiga ega bo'lsa, uning mavjud lingvistik tajribasi boshqa chet tilini o'zlashtirishiga ham zamin bo'ladi. Tilning grammatik tushunchalarini va atamalarini tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Shu tariqa, tillararo o'xshashlik va farq qiluvchi omillarini o'rganib, boshqa tilni oson o'zlashtiradi. Fonetik, leksik, grammatik darajada til hodisalarini solishtirish lingvistika sohasini boyituvchi material beradi. Shu boisdan, tillararo qiyosiy tahlil muhim ahamiyatga molik. Bu chet tilidagi yangi materialni shunchaki o'zlashtirishgina emas, balki unga o'quvchi-talabalarda alohida qiziqish bilan yondashuvni ham ta'minlaydi. Agar o'quvchi bir tilning qoidalari va asosiy tushunchalarini

yaxshi bilsa, boshqa tilni ham o'rgana olishiga ishonch bilan qaraydi. Shaxsning lingvistik bilimlarni egallab borayotganligi go'yo ilmiy yangiliklarni o'z ongida kashf etib borayotgandek, ham qiziqarli, ham yanada ko'proq bilish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Bu borada dars jarayonida o'qituvchi tillar orasidagi farqlar va o'xshashliklarni tushuntirib borishi ham katta ahamiyatli o'rin tutadi, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, elektron resurslardan foydalanib, dars o'tilishi o'quvchi-talabalarga darsni oson o'zlashtirish va tilning leksik hamda grammatik hodisalarini qiyosiy o'rganib, turli mashqlarni bajarishda katta imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, keyingi davrlarda ko'payib borayotgan til o'rganishga oid maxsus saytlar nafaqat murakkab va zerikarli bo'lgan til o'rganish — leksik birliklarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi, balki mazkur resurslar yordamida ko'ngilochar o'yinli mashqlarni zavqlanib bajarish bilan ma'lum ma'noda ma'naviy oziqa, qolaversa, dam olish imkonini yaratishiga ham e'tibor qaratish zarur. Bunday elektron lug'atlarga www.lingualeo.ru va boshqalar misol bo'la oladi. Shu bilan birga, bunday lug'atdagi har bir so'z foydalanuvchiga ko'p bor qayta taqdim etilishi mumkin, bu



esa uni o'zlashtirishda mazkur so'zning to'g'ri yozilishi, tilda so'zlashuvchi xalq vakillari tomonidan leksik talaffuzi xotirada mustahkam joylashib, matnlarni tarjima qilishda qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Ma'lumki, zamonaviy yoshlar o'z davrining madaniyati vakillari bo'lib, ularga ko'proq vizual obrazlar ta'sir ko'rsatadi, boshqacha aytganda, material an'anaviy [usulda emas](#), balki audiovizual vositalar yordamida yanada tezroq va samarali o'zlashtiriladi. Masalan, tilda so'zlashuvchi mamlakat haqidagi mavzu odatda, an'anaviy usulda bir necha rasmlardan iborat matndan foydalanib, o'qitilgan. Ushbu usul doim ham kutilgan natijani bermagan. Zamonaviy ta'lim usullarida esa mazkur muammoni hal etishga o'zining autentikligi, ko'rgazmaliligi va interaktivlik baxsh etuvchi Power Point dasturida tayyorlangan taqdimotlar, filmlar, slaydshou, shuningdek, virtual sayohatlar, internet-saytlar yordam beradi. AKT vositalaridan foydalanib, dars o'tish jarayonida chet tilida videosujet namoyish etish yanada ko'proq samarali bo'ladi. O'quvchilar zavq bilan tomosha qiladilar va topshiriqlarni qiziqib bajaradilar. Natijada filmlarni o'z original tilida ko'rib, tilni o'zlashtirishlari oson bo'ladi. Biroq

filmlarni to'liq tomosha qilish juda ko'p vaqtni olishi, bunga esa darsga ajratilgan vaqt imkoniyati yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli ham Internet-resurslaridan uyda ham foydalanib, tarmoqdan foydali axborotlarni olish, masalan: MOOC (Massive Open On-line Courses)ni tavsiya etish mumkin..

Shuni ham unutmaslik kerakki, Internet haqiqiy til muhitini his etishga yordam beradi va uning yordamida tilni o'rganishga ehtiyoj shakllanadi. Sababi til tashuvchi, ya'ni mazkur tilda so'zlashuvchilar bilan muntazam muloqotda bo'lishga to'g'ri kelishi, turli axborotlardan foydalanish, filmlar tomosha qilish, qo'shiqlarni tushunish istagi paydo bo'lishi mumkin. Bularning barchasi o'quvchi-yoshlarning chet tillarini AKT vositasida o'rganishga qiziqishlarini oshiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, chet tili darslarida AKTdan ijodiy foydalanish nafaqat o'quvchilarda o'qishga qiziqish, fanni o'rganishga motivatsiyasini oshirish va ayrimlar uchun zerikarli bo'lgan leksik-grammatik materialni yanada qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam berishi, shuningdek, chet tilida o'zaro muloqot qilish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishi, bundan tashqari, o'quv jarayonining reproduktiv faoiyatining ulushini qisqartirishi hamda umuman



muhim omil sifatida o'rin tutishi namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, elektron ta'limiy resurslarning ko'pchiligi o'quvchilarning mustaqil bilim egallashiga, malaka orttirishiga, chet tilini yanada chuqurroq o'rganish uchun intilishni rag'batlantiradi. Umumta'lim maktabi yoki oliy ta'lim muassasasini bitirgandan keyin ham o'z bilim doirasini kengaytirishlarida yordamammo beradi. Yuqoridagilarni nazarda tutib, har qanday salohiyatli o'qituvchi chet tili bo'yicha mashg'ulotlarni [tashkil etishi](#), mahorat saboqlari (master classlar) yoki ochiq darslar o'tishda, albatta, AKT vositasida yanada samaraliroq foydalanishini targ'ibot qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, AKT o'quvchitalaba yoshlarni muntazam ravishda bilim va malakalarini oshirishga undovchi muhim omilga aylanadi. Mazkur omil zamon bilan hamqadam, yetuk mutaxassis shaxs sifatida muvaffaqiyatli inson bo'lishni maqsad qilgan har bir inson uchun juda zarurdir. Ingliz tilida gapirishni o'rganish qiyin, hatto ingliz tilini bir necha yillar davomida o'rgangan kishilar ham tilni gapirishga kelganda ancha qiynalishadi. Ingliz tilini kirish imtihonlaridagi testlardan o'tish uchun, yoki gapirishdan boshqa sabablarga ko'ra o'rgangan kishilar til grammatikasini, qoidalarini

yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi mumkin. Ammo bunday o'rganuvchilar uchun ingliz tilida gapirish ko'pincha oson kechmaydi. Ushbu maqolada qanday qilib ingliz tilida ma'lum darajadagi bilimga ega bo'lgan holda tez va ifodali gapirish ko'nikmasini rivojlantirish haqida yozmoqchiman. Fikrimcha, ingliz tili grammatikasidan xabardor bo'lgan, har o'rganuvchilarning ko'pchiligi ushbu sohada o'z ko'nikmalarini imkon qadar rivojlantirishni juda xohlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Miroyubov A.A., Raxmanov I.V., Setlin V.S. Taxriri ostida. O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi.- T O'qituvchi 1974
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi.-T. 1996
3. Tursunov I.Y. Xalq pedagogikasing dolzarb muammolari. – T.: "O'qituvchi", 1990.



BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI FANINI O'RGATISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI

Muhayyoxon Qodirovna Soliyeva,

Muyassarxon Qodirovna Tojiyeva,

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani

*4-maktab boshlang'ich sinf
o'qituvchilari*

Annotasiya: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 4- moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilishni ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi. Nomilliy guruhlarda davlat tilini o'rganishda multimediya vositalaridan foydalanishning yangi yo'nalishlari tavsif etilgan.

Kalit so'zlar: multimediya vositalari, davlat tilini o'rganishda innovation yondashuv, ta'lim, tarbiya, o'quv qo'llanma...

«Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib, kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.»

Shavkat Mirziyoev

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Davlat tili haqida"gi Qonunlari hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida respublikadagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilini ikkinchi til (davlat tili) sifatida o'qitishni yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan. Mazkur davlat ta'lim standarti ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida davlat tilini o'rganish uchun meyoriy hujjat sanaladi. U boshlang'ich va o'rta umumiy ta'lim bosqichlarining har bir sinfida ta'lim oluvchilar, shu jumladan, 4-va 9- sinfni bitiruvchilar o'zbek tilidan egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy, madaniy dunyoqarashning zaruriy meyorini asoslovchi ta'limiy-tarbiyaviy hujjatdir. Ushbu hujjatga asosida O'zbekiston Respublikasida ta'lim rus va qardosh tillarda olib



boriladigan umumta'lim maktablarida o'zbek tili ikkinchi til sifatida o'qitiladi.

Buning uchun ta'lim berishda ana'naviy metodlardan foydalanishning o'zi yetarli emas. Boshlang'ich ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish yo'llaridan biri didaktik vositalardan foydalanish ekanligi amaliyotda tasdiqlangan. Ayniqsa o'zga tilni o'qitishda didaktik vositalarning tutgan o'rni beqiyos. Shuning uchun boshlang'ich ta'limning barcha fanlari qatorida o'zbek tili darslari ham didaktik vositalar yordamida tashkil etiladi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga muntazam ravishda didaktik materiallar tayyorlash majburiyatini yuklaydi. Har bir dars uchun didaktik vositalarni tayyorlashga boshlang'ich sinf o'qituvchisi ko'p vaqtini sariflaydi. Buning oldini olish yo'llaridan biri dars jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishni talab etadi. Ayni vaqtda ta'lim jarayonida axbotot kommunikatsion texnologiyalarining barcha ko'rinishidan keng foydalanilmoqda, tajribalar shuni ko'rsatadiki boshlang'ich ta'lim jarayonifa foydalanilayotgan axborot texnologiyalarining samaradorligi yuqori natija berayotgani multimedia vositalari

hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida o'qituvchilar vaqtdan yutishlari va didaktik vosita tayyorlashga sarif qiladigan vaqtini o'quvchi bilan yoki o'z ustida ishlashga sarflashlari mumkin. Amaliyotda multimedia vositalaridan foydalanish o'zga tilni o'qitish ikki baravar unumli va tilni mukammal o'zlashtirish imkoniyatini yaratib bermoqda. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki multimedia vositalari asosida o'zbek tilini o'rganish 40 % vaqtni tejab, olgan bilimlarni xotirada muddat saqlab qolish imkoniyatini bermoqda. Shu bilan birga multimedia vositasida tasvirlangan materiallarni ko'rish va eshitish orqali o'zbek tilini o'rganish, to'g'ri va aniq talaffuz qilish, bexato yozish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'zbek tili darslarning talaygina qismi nutq o'stirish, nutqiy mavzular ustida ishlash bilan bog'liqdir. O'rganilayotgan grammatik mavzularni multimedia vositasi asosida o'rgatishning afzal tomoni shundaki, bu jarayonda o'quvchilar bevosita ko'rish, eshitish va interaktiv mashqlarni o'qituvchi bilan birgalikda bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchida esa, murakkab grammatik mavzu va qoidalarni qayta-qayta namoish qilish imkoniyati bo'ladi.



Bunday jarayon o'zga tilli boshlang'ch sinf o'quvchisida o'zbek tilini qiyinchiliksiz o'zlashtirish uchun sharoit yaratadi. Shu bilan birgalikda o'quvchilarda kommunikativ suhbatlashish qobiliyati o'sib boradi. O'quvchilarda kommunikativ, ya'ni suhbatga kirisha olishda multimedia vositasidan foydalanishning o'rni beqiyosdir. O'zbek tili ta'limining mazmunida izchillik va uzviylikni ta'minlash, ta'lim turlarida davlat tilini o'qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish, darslarda ilg'or pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash kabi muammolarga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshi hamda psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanmalar va darsliklarning multimedia ilovalari yaratish maqsadida umumiy o'rta maktabning 1-2sinf o'qituvchilari uchun 7 nomda metodik qo'llanma va multimedia ilovalari yaratildi. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinf o'zbek tili darslari uchun tavsiya etilayotgan

multimedia ilovalardan foydalanish quyidagi didaktik funksiyalarni bajaradi:

Ta'lim sifatini oshiradi; - ta'limni ommaviylikini ta'minlaydi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi;

- o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini faollashtiradi va o'zga tilda berilayotgan materiallarni o'zlashtirishning samaradorligini oshiradi;

- o'zbek tili fani bo'yicha asosiy bilimlarni o'zlashtirish;

- o'zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta'minlash;

- o'quvchilarni o'quv materialini ustida mustaqil ish olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi;

- multimedia vositasida berilgan lug'at ishi o'quvchilarda yangi so'zlarni tez va oson o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi;

- multimedia vositalari ovoz, matn, grafika, rasm, animatsiya, video, interaktiv muloqat kabi vositalari ta'limning emosional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish kabi motivlarni faollashtiradi;

Bunday vazifalarni bajarishda ta'limning boshqa metodlari bilan bir qatorda



multimedia vositalaridan foydalanish
yuqori natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot
yo`limizni qatiyat bilan davom ettirib,
yangi bosqichga ko`taramiz.-T.:
O`zbekiston, 2017.
2. Qosimova K. Boshlang`ich sinflarda
ona tili o`qitish metodikasi. -Toshkent,
Noshir, 2009.
3. Umumiy o`rta ta'limning DTS va
o`quv dasturi (boshlang`ich ta'lim).-T:
2017.
4. Hojiyev A, Raxmatullayev Sh. O`zbek
tilining imlo lug`ati, Toshkent,
O`qituvchi, 1995.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek
adabiy tili. - T: O`qituvchi, 2005



ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MUMTOZ ADABIYOT

Tursunova Nigora Yunusovna

Buxoro viloyati, Buxoro tumani

*51-maktab ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidovning mumtoz adabiyotimizga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kitobxon, mumtoz she'riyat, lirika, tarjimon.

XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi o'ziga xosligi va ko'p qirraligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiyotini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g'oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni poetik mushohadaga chorlaydi. Hayot haqiqatini murakkabligi va to'lig'icha, ziddiyatlari bilan boricha namoyon etish, o'tkir ijtimoiy masalalarni dadil ko'tarib chiqish, ma'naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlash shoir ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ma'lumki, Erkin Vohidov ko'p asrlik mumtoz she'riyatimiz an'analarini munosib ravishda davom ettirgan va bunga o'ziga xos tarzda sayqal bera bilgan ijodkorlardan. Shoirning "Yoshlik devoni" tarkibiga kiruvchi ko'plab g'azal shaklidagi she'rlarida mumtoz lirikamizda ahamiyatli bo'lgan jihatlar ifodasi va ayrim holatlarga takomilini ko'rish mumkin.

"Yoshlik devoni" yana shu jihatdan ahamiyatli, undagi g'azallar shakl bobida an'anaviylik va novatorlik xususida keng bahs yuritish, tadqiqotlar olib borish uchun imkon beradi.

She'riyatning an'anaviy mavzularidan sanalgan muhabbat lirikasi mumtoz ash'orlarda ma'shuqaning ta'rifidagi mubolag'aviy ta'rifu tavsifning ustunligi bilan ajralib turgan. Bunda shoirdan noyob zehn va o'zgacha mushohadakorlik talab etilgan. Ya'ni shoir yor ta'rifida hech kimmikiga o'xshamagan biror tashbeh yoki boshqa tasvir vositasidan o'rinli foydalana olishi talab etilgan. Xuddi shunday topqirlik va novatorlik Erkin Vohidov she'rlarida ham ko'plab uchraydi. Xususan, shoirning "Taroq" deb nomlangan she'rda Ma'shuqaning sochiga tegayotgan taroq oshiq tomonidan o'zining kipriklariga o'xshatiladi.



Ul taroq ermas sochingda,

Balki yoshli kiprigim,

Yo'qsa, ne boiski, zulfing

Shuncha ardoqlar taroq.

Ya'ni, avaylanib taralayotgan sochdagi jism taroq emas, balki oshiqning yoshli kipriklari, ya'ni ko'zyosh ko'p to'kkanidan nam bo'lgan kipriklar ham xayolan yorining biror xizmatini qilayotganligidan baxtiyor, ham uni payqamasliklari va bu baxtdan mosuvo qilmasliklari uchun o'ziga diqqatni jalb etmoqchi emas.

E.Vohidov g'azallarida oshiqning dil rozlari, ma'shuqaning ta'rif-tavsifi mumtoz adabiyotdagi yanglig' har qancha mubolag'ador, serbo'yoq bo'lmasin, undagi timsollar bugunning odami ekani anglashilib turadi. Ular zamon zaylini hisobga oladigan, o'y-fikri, tuyg'ulari bugungi odamlarga tushunarli bo'lgan kishilardir. Ma'lumki, mumtoz she'riyatda vaqt tushunchasi ancha nisbiy bo'lgan. Chunki mumtoz shoirlar o'tkinchi, bugunning tashvishlari aks etgan mavzularga qo'l urmaganlar. Shuning uchun ham ularning ijodida o'z davrining belgilari ko'zga tashlanib turmaydi. Shoirning «Fursating» g'azali o'zida davr belgisi, zamondoshlar tabiatini aks ettirishi jihatidan

xarakterlidir. G'azalning birinchi baytidayoq davr ruhi ko'zga yaqqol tashlanib turadi:

—Fursating yetmaydi doim, hech qachon yetgan emas,

Mehnating bitmaydi doim, hech qachon bitgan emas.

Bu misralarda davrning tezkor va shiddatli qarqin (sur'at)i, undan orqada qolmaslik ilinjida halloslab borayotgan chog'dosh tabiati namoyon bo'ladi. Keyingi baytda davr ruhi yanada bo'rttirib ko'rsatiladi:

Chun zamondek bepoyondir ko'ksing ichra orzu,

Fursatu orzuni quvlab hech kishi yetgan emas.

Mumtoz adabiyotimizda badiiy san'atlarning alohida o'rni bor. Ular she'r badiiyatini oshiradi. Shoirning yuksak mahoratini ko'rsatadi. E.Vohidov she'rlarida ham tazod, tashbeh, tajnis atamalari va ular singdirilgan she'rlarni uchratamiz. Tazodning yuksak namunasini “Barcha shodlik senga bo'lsin”, “Dutorim tori ikkidur...” she'rlarida ko'rish mumkin. Mana bu misralar mumtoz she'riyatimiz ruhiga hamohang:

Sen shahanshohlikni olgin,



Menga qullik bo'lsa bas,

Bor jafokorlik senga-yu,

Bor vafodorlik menga.

Erkin Vohidov ijodi haqida gapirganda,
albatta, uning o'ta salohiyatli

tarjimon shoirligini aytish joiz. Uning
sharq mumtoz mutafakkirlari Abu Ali ibn

Sino, Hofiz Sheroziy, Bedil, g'arb
adiblari Shiller, Gyo'te, rus shoirlari
Aleksandr

Blok, A.Tvardovskiy, Mixail Svetlov,
Andrey Malishko va ayniqsa Sergey

Yesenindan, shuningdek Gevorg Emin,
Rasul Hamzatov asarlaridan qilingan

tarjimalari kitobxonlarning sevimli
asarlariga aylangan.

Shoir tarjima uchun ruhi, uslubi, o'z
ruhiyatiga yaqin bo'lgan adiblar
asarlarini tanlaydi. Shuning uchun ham
bu tarjimalar asl nusxadagi bor jozibasi,
o'ziga xosligi bilan o'zbek tilida
jaranglaydi. Bu jihatdan shoirning Sergey
Esenin

she'riyatidan qilgan tarjimalari diqqatga
sazovor. Sergey Yesenin she'rlari ruhi

Erkin Vohidov uslubi bilan juda
hamohang. Misralar misralarga shunday
quyma

holda to'g'ri keladiki, kezi kelganda bu
she'r tarjimami yoki Erkin Vohidovning

o'zinikimi – ajratish mushkul bo'lib
qoladi. Tarjimon nafaqat asl nusxaning
go'zalligini saqlab qoladi, balki o'rni
bilan asl nusxada notekis, qo'polroq
o'rnlarni noziklik bilan sayqallab ham
ketadi.

Umuman, bunday mulohazalarni ko'plab
keltirish mumkinki, shularning o'zi ham
E.Vohidov she'riyati mumtoz
adabiyotimiz an'analarini o'zida
mujassamlashtirganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov E. Ishq savdosi. Saylanma.. –
T.: Sharq, 2000.
2. Boltaboev H. So'z sehri. –T: Sharq,
2016 yil
3. Solijonov Y. Ruhiyatni yoritgan she'r
iyat. // Sharq yulduzi, 2013, №2



BADIIY ADABIYOT YUKSAK MA'NAVIYAT ASOSI

Norova Iroda Shirinboyevna

Buxoro viloyati Buxoro shahar

14- umumiy o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yoshlarimizning sog'lom, har tomonlama chiniqqan, teran fikrli, o'tkir zakovat egasi bo'lib yetishishi uchun badiiy adabiyot mutolasining ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, tafakkur, sog'lom avlod, qadriyat, ma'naviyat.

Adabiyot milliydir, u har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqning tarixiy hayoti hamda ruhiyatidagi xususiyatlar adabiyotning milliyligi mazmunini tashkil etadi va o'ziga xos milliy shaklni yuzaga keltiradi. Milliy shaklning yuzaga kelishida adabiyot tomonidan uzoq davr mobaynida yig'ilgan tajriba va an'analarning ham ahamiyati katta bo'ladi. Shu bois «Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir.

Mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va amaliy natijaga erishishda bir qator ishlar qilinganini alohida ta'kidlash joiz. Hayot muttasil o'zgarish va yangilanishlar zamiriga qurilgan. Shu ma'noda odamlar tafakkuridagi o'zgarishlar hamda hayotiy talab bu sohadagi ishlarni yana qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish lozimligini taqozo etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev-ning 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi va 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitob o'qishni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

«Kitob - beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasini bilan oshno eta oladi», deb yozadi buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy.

Ma'lumki, aholining intellektual va ma'naviy-estetik ehtiyojini qondirish, xususan, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan,



mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar va ma'nan barkamol insonlar qilib tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyosdir.

Bugungi axborot asrining ilg'or texnologiyalarisiz kunlarimizni tasavvur qilolmamasak-da, tengdoshlarimiz orasida kitobga oshno bo'lgan yoshlarning borligi quvonarli holdir. Ko'cha ko'yda, transportlarda qo'llarida kitob tutgan insonlarni ko'rib quvonamiz. Afsuski, ba'zan yoshlar orasida qimmatli vaqtini behuda ishlarga, xususan, haddan tashqari ko'p kompyuter va qo'l telefoni o'yinlarini o'ynash, mazmunsiz filmlarni ko'rishga sarflashlari to'g'ri emas. Buning o'rniga, o'qishdan tashqari o'tadigan vaqtini samarali ishlar uchun rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kunning ma'lum qismlarini foydali kitob mutolaasi uchun ajratish muhim ahamiyatga ega. Chunki, "yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh" yanglig' o'qigan kitobi yillar o'tsa-da hayotda albatta asqotadi.

Ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha sohalari qatori xalq ma'naviyatining ko'zgusi bo'lmish badiiy ijod, xususan, badiiy adabiyot rivoji ham davlatimiz, jamiyatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi.

Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yorqin ko'rsatib turibdi. Hech shubxasiz, ziyolilarning ilg'or qatlami bo'lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyosdir.

XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat

oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, bi hali ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatni ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zlar har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu masalalarni javobini topishda esa badiiy adabiyot insonga chinakam mash'ala vazifasini o'taydi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ilmiy, ma'naviy me'rosi naqadar qimmatli ekanligiga yana bir



bora min bo'lamiz. Ayniqsa, badiiy adabiyot namunalari yoshlarni fikri teran, ma'nan barkamol, komil inson bo'lib voyaga yetishida dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv sharoitida yoshlarni ongini har xil yot g'oyalarga bilan o'z domiga tortuvchi kuchlar talaygina. Bunday yot g'oyalarga qarshi tura olishda esa badiiy adabiyot bizga yaqindan yordam beradi. Badiiy adabiyot mutolaa qilgan inson o'z ahdiga qat'iy, hayotiy pozitsiyaga ega, mustaqil fikrlovchi va ayni chog'da turli buzg'unchi g'oyalarga o'zining tafakkuri bilan javob bera oladi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini olaylik. Asar bosh qahramoni Otabek obrazi orqali yuzuvchi butun boshli bir millatning qadri baland, oz' ahdiga qat'iy oz'bek yigiti qiyofasini ochib beradi. Bu asar orqali ota-onaga hurmat, yorga sadoqat kabi ulug'vor tuyg'ularni qalbimizdan his qilamiz. Badiiy adabiyotni o'qish orqali har birimiz ona vatanga muhabbat, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar mohiyatini chuqur anglaymiz.

Xulosa qilib aytganda, inson hayotida suv va havo qanchalik zarur, non qanchalik aziz bo'lsa, badiiy adabiyot ham hayotda oz' o'rnimizga ega bo'lishimizda, tarbiyamizda ham

shunchalik zarur. Usiz inson o'zligini, istiqbolini aniq taavvur qila olmaydi. Kitob insonni shunga o'rgatadi. Zero, ma'rifatparvar shoir Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa-millat yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini ochirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish" to'g'risida'gi farmoyish 2017-yil 13-yanvar. Lex.uz sayti
2. I. Karimov. "OAV kuni so'zlagan nutqi". "Xalq so'zi" 2016-yil 28-iyun
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T. O'qituvchi. 2016-yil



NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLAR

*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 18-
umumiy o'rta ta'lim maktabining ona
tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Nuraliyev Prim.*

Annotatsiya: Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ayniqsa chet tillarini o'qitish va o'rganishda qo'l keladi, negaki hozirda chet tilini bilishda o'quvchilardan "Umumyevropa ta'lim standartlari" talab qilinmoqda.

"Umumyevropa standartlari" bu tilni to'rt tomonlama ya'ni gapirish, eshitib tushunish, yozish va o'qib tushunish hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun esa o'quvchilar kommunikatsion texnologiyalarga ehtiyoj sezadi.

Kalit so'zlar. Avaxta, bankrot, buxgalter, landshaft, masshtab, rama, val, vafli.

Har bir tilning rivojlanishida boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning ham o'rni beqiyosdir. O'zbek tili so'z hazinasining boyishida nemis tilidan o'zlashgan so'zlar o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar o'zbek tili so'z hazinasiga XX asrning birinchi va ikkinchi yarmidan boshlab kirib kela boshlagan. O'z o'rnida bu jarayonga

birinchi va ikkinchi jahon urushi, hamda o'sha davrning ta'siri juda katta bo'lgan.

O'zbek adabiyotida nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Fikrlarimizni isbotlash uchun quyidagi misollarni keltiramiz: abzats (Absatz), Avaxta (Hauptwache): *Oq poshshoning avaxtasi ham ko'p, Sibiri ham keng. M. Ismoilij, Farg'ona t. o.*, adresant (Adressant-yuboruvchi), adresat (Adressat - oluvchi), anker (Anker - langar), anshlag (Anschlag - afisha, ommaviy e'lon), baletmeyster (Balletmeister - balet ustasi), bankrot (Bankrott), bant (Band - tasma, lenta), bantik (Band - tasma, tugun): *Ularning biri sochiga bantik taqqan qizcha chumchuqqao 'xshab bir oyoqlab hakkalar, boshqasi — atlas ko'ylakcha kiyib olgani esa sanab turardi. O'.* Hoshimov, *Qalbingga quloq sol*, bint (Binge - bog'ich, bog'), bolt (Bolt-mahkamlovchi chiviq temir), bort (Bord yoki Borte - chekka, yon): *To'rabek bortga suyanib o'tirgan eridan alam bilan to'lg'anib qo'ydi. M. Mansurov, Yombi.*, brak (Brack - nuqson), buksir (Bugsierer - tortuvchi kema, arqon): *Paroxodning buksirini eslatuvchi bu agregatlar bir yo'la uchishni ado etardi. Sh. Rashidov, Bo'rondan kuchli.*, buterbrot (Butter - yog' + Brot - non): ...



bufetga qora va qizil ikra surtilgan buterbrod keldi. S. Ahmad, Yulduz., buxanka (Vochenze - oq non): Polvon har yoqqa yugurib, bir buxanka non topa oldi. Oybek, Quyosh qoraymas., buxgalter (Buch – kitob, halter – tutib yuruvchi), dizel (nemis ixtirochi injeneri R. Dizel ismidan, dizel yonilg'isi), galstuk (Halstuch – bo'yin ro'mol): Qodirning ko'ylagi oq, galstugi ko'k ekan. A. Qahhor, Qanotsiz chittak., gastrol (Gast – mehmon + Rolle – rol), grossmeyster (Großmeister – katta usta), komandirovka (Kommandierung – xizmat safari), kofta (Kuft – uy kiyimi), kran (Kran): Jo'rabek kran tepasidagi proyektor yoritib turgan g'isht uyumi oldida to'xtab, papiros tutatdi. S. Ahmad, Xotin., krujka (Kruse), kurort (Kur - davolash + Ort – joy), lager (Lager – qarorgoh): Bu erdagi hayot frontdan minglarcha kilometr uzoqda, mamlakat ichkarisida bo'lgan o'sha lager hayotidan ham osoyishtaroq edi. A. Qahhor, Oltin yulduz., landshaft (Landshaft – manzara), lenta (Linte), Linza (Linse), masshtab (Maß – o'lchov + stab – tayoq), mentalitet (Mentalität), mufta (Muffe – val, tishli g'ildirak), zal (Saal – katta xona), kastyulka (Kasserolle – dastali tova), kafel (Kachel – koshin), kilo (Kilo – kilogramm), klapan (Klappe – to'siq), panel (Panneel), papka (Pappe – karton), pachka (Pack, Packen – bog'lam, o'ram): Do'kondan bir pachka sigareta olib, uydan uncha uzoq bo'lmagan zooparkka yo'l oldi. Mirmuhsin, Umid., plug (Pflock – qoziqcha), probirka (Probieren – tekshirmoq, sinamoq), rama (Rahmen – mexanizmlarni ko'tarib turuvchi asos), reys (Reise – sayohat), rentabel (rentabel – foydali), ritsar (Ritter – otliq, chavandoz), rota (Rotte – jangchilar guruhi): Gvardiyachi kapitan, qo'llarini orqasiga qilganicha, rotaga yaqinlashdi. O.Yoqubov, Izlayman., ryukzak (Rucksack < Rucken – orqa + Sack – xalta), ryumka (Römer – vino ichiladigan yashil shisha idish): Birinchi ryumkani siz uchun ko'taramiz. P. Qodirov, Uch ildiz., slesar (Schlosser < Schloss – qulf, zulfin), stul (Stuhl), taksa (Dachshund – tanasi uzun, oyoqlari kalta ov iti), tansa (Tanz – raqs): U modani, tansani, teatr va sayllarni yaxshi ko'rardi. S. Ahmad, Qadrdon dalalar., taran (Tarant – devorteshar qurol): Iskandar usti yopik, g'ildirakli taranlar yasattirdi. M. Osim, Ajdodlarimiz qissasi., tarelka (Teller – likopcha), torf (Torf – foydali qazilma), truppa (Truppe – qism, bo'linma), turnir (Turnier – ritsarlarning harbiy musobaqasi), tush (Tusche – uzoq vaqt rangini yo'qotmaydigan bo'yoq): SHukur Karimovich Umid diplomini qo'liga olib, tush bilan yozilgan familiyasini o'qidi. Mirmuhsin, Umid., val (Walze –



g'o'la, val), vatin (Watte – momiq paxta), vafli (Waffel – asal), vaxta (Wacht – qo'riqchilik), veksell (Wechsel – almashtirish), ventil (Ventil – klapan, jo'mrak), vint (Gewinde – qirqma, rezba), fartuk (Vortuche – biror narsa oldidagi bir parcha mato): *Boshida mog'or bosgan eski do'ppi, oldida shakar qopdan tikilgan fartuk. M. Ismoiliy, Farg'ona t.o., fauna (Fauna – hayvonot dunyosi), felsher (Feldscher – jarroh, harbiy qism sartaroshi): Xullas, Otajon yigirma olti yoshida feldsher bo'ldi. S.Zunnunova, Go'dak hidi., flyagaduk, shpion (Spion < spahen – (Flasche – shisha idish): Har kuni ertalab, yo'lga chiqishda olinadigan bir flyaga suv salo'tmasdanoq isib qoladi. YOqu bov, Izlayman., tseytnot (Zeit – vaqt + Not – ehtiyoj, shaxmatda vaqt yetishmasligi), sex (Zeche – zavod, fabrika), siferblat (Zifferblatt – qatlam, qavat): Siferblati ham eski, raqamlariga dog'tushgan. O'.Umarbekov, Soat., shablon (Schablone – andoza, namuna), shayba (Scheibe – lappak, gardish disk), shaxta (Schacht – chuqur o'ra, kon), shina (Schiene < scheiden – ajratmoq, bo'lmoq. Rezinali gardish.), shifer (Schiefer): Darvozaxona oldidagi usti shifer bilan yopilgan omonat garajda eski bir «Moskvich» turibdi. S. Ahmad, Ta'zim., shkaf (Schaff – idish javoni): ... devor tagidagi kitoblar solingan shkaf ustida allakimning haykalchasi turardi.*

O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol., shlagbaum (Schlagbaum – to'siq), shlak (Schlacke – bolg'alanganda uchgan metall parchalari), shlang (Schlange – ilon < schlingen – o'ralmoq, chirmalmoq – egiluvchan rezina truba), shlem (Hulle – qoboq, yoping'ich), shlyapa (Schlappe – qalpoq, shapka): Ro'parasida shlyapaning keng soyaboni tagidan Xumorxonning ko'zlari yonib turardi. A.Muxtor, Tug'ilish., shnur (Schnur – chilvir, sim), shpilka (Spill – vertical chig'ir), shpindel (Spindel – urchuq, shpion (Spion < spahen – ayg'oqchilik qilmoq, ayg'oqchi), shponka (Spon – pona, mayda tarasha), O.shprints (Spritze < spritzen – purkamoq, sepmoq), shtab (Stab – harbiy qarorgoh): Kapitan, asirni shtabga eltish haqida buyruq berib jo'nadi. A. Qahxor, Oltin yulduz., shtanga (Stange – uzun tayoq), shtapel (Stapel – paxta tolasi): Maydonda odam qanchalik ko'p bo'lsa ham, oq yo'lli shtapel ko'ylak kiygan Gavharni Mahkam juda uzoqdan ajratdi. P. Qodirov, Uch ildiz., shtat (Staat – tashkilot xodimlarining doimiy, barqaror shaxsiy tarkibi), shtempel (Stempel – muhr, tamg'a), shurup (Schraube – vint), yarmarka (Jahrmarkt – bir vaqtda o'tkaziladigan katta bozor, savdo).

Ushbu mavzuda ko'pgina ustozlarimiz o'z fikrlarini keltirib o'tishgan. Ularning



fikriga qo'shilgan holda, ushbu mavzuni yanada kengroq yoritishga harakat qildim. Xulosa qilib aytishim mumkinki, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi, nemis tiliga qiziquvchilar safini yanada kengaytiradi va ona tilimiz so'z boyligining boyishiga ham katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati.
“O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.
2. E.Murtazayev: “O'zbek badiiy asarlarida nemis tilidan o'zlashgan so'zlar.” Maqola. 2014.



**MAVZU: BIOLOGIYA
DARSLARIDA O'QUVCHILARNI
TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA
DIDAKTIK TALABLAR**

Nuriddinov Hotam Maxmud O'g'li

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani
23-maktab biologiya fani o'qituvchisi*

Kalit so'zlar: didaktik talab, Muammoli vaziyat, dars, dars ishlanma, ko'rgazmalar, DTS.

Annotatsiya; ushbu maqolada biologiya darslarida tabiat bilan tanishtirishda didaktik talablarni ahamiyati va fandagi o'rni yaratilgan. Bundan tashqari dars kanspektini tuzishda didaktik talablardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiya berilgan. Darsning ahamiyatga molik jihatlari ochib berilgan.

Keywords: didactic requirement, Problem situation, lesson, lesson plan, exhibitions, state educational standards.

Abstract; This article discusses the importance of didactic requirements and their place in science in biology lessons. It is also recommended to use didactic

requirements wisely in compiling lesson plans. Significant aspects of the lesson are explained.

Ключевые слова: дидактическое требование, проблемная ситуация, урок, план урока, выставки, государственные образовательные стандарты.

Аннотация: В статье обсуждается важность дидактических требований и их место в естествознании на уроках биологии. Также рекомендуется разумно использовать дидактические требования при составлении планов уроков. Объясняются важные аспекты урока.

Hozirgi vaqtda maktabdagi darslarda

-didaktik talablar

-tarbiyaviy talablar

Gigenik talablarga jiddiy etibor qaratilmoqda. Bu talablar asosida o'tilayotgan darslar davlat talim standartlariga mos bo'lishi shart. O'tilayotgan dars aniq va ijobiy xarakterda bolishi, o'quvchining bilim darajasi imkoniyatini ya'ni yosh



xususiyatini inobatga olish va o'quvchilarni dars davomida o'zini tahlil qilishga e'tibor berishi, gigena vaestetika qoidalariga amaal qilishi, lozim.

Bundan tashqari darsda didaktik talablarni amalga oshirishda quyudagilarga amal qilib, ko'xlangan maqsadga erishiladi.

-mavzu uchun o'qitish metodini to'g'ri tanlash;

-muammoli vaziyatlarda aniq yechim toppish;

-AKT vositalardan unumli foydalanish;

-o'quvchilarga o'z-o'zini analiz sintez qilishni o'rgatish;

-o'quv xonasini zamonaviy talablar asosida jihozlash;

-vaqtdan unumli foydalanish;

-o'quvchilarni reyting tizimi asosida holisona baholash;

-o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytirish, fikrlashini takomillashtirish;

-o'quvchilarni ma'lumotlarni tahlil qilishga va asosiy ma'nosini o'zlashtirishga o'rgatish;

-darsda foydalanilgan turli pedagogic vositalar asosi muammoli vaziyatlarni

tashkil etish va o'quvchilarni vaziyatga didaktik jihatdan moslashishga o'rgatish;

-mavzu asosi bilan kalit so'zlarga alohida e'tibor berish va o'quvchilarga yetkazib berishning eng maqbul yo'lini tanlash;

-fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish;

-o'quvchilar qiziqishini inobatga olish va shu asosida kasbga yo'naltirish;

-o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stiruvchi didaktik ko'rgazmalar orqali ijodkorlikka o'rgatish;

-o'quvchilar xotirasini yaxshilash uchun erkin fikrlashga o'rgatish;

Yuqoridagi kasblar asosida dars ishlanmasi rejalashtirish, o'quvchilar ma'lumotlarni puxta o'zlashtirish va ular ongida mustahkam qolishga asos bo'ladi.

Respublikamiz ta'lim tizimini zamonaviy darajada takomillashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish sifati va samaradorligini oshirish, ularni o'z yurtining sodiq farzandi etib tarbiyalash va mustahkam ta'lim egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'z maruzalarida "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual



va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan, insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb takidlaganlar. Hozirgi maktablarda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim sifatini oshirish, o'quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, xorijiy tajribalarni o'rganish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli biologiya darslarida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini rivojlantirish, pedagogic kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish hamda pedagogik mahoratini shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirish, muammolarini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Barcha ta'lim muassasalari uchun o'quv ishlarining asosiy shakli darsdir.

Dars muqaddas va murakkab jarayondir. Darsning samaradorligi o'qituvchi salohiyati va darsning didaktik talablariga nechog'lik muvofiqligi belgilab beradi.

Didaktik talablardan biri- mavzu mazmunidagi eng muhim ma'lumotlarni

ajratib, urg'u berish asosida tushuncha hosil qilish, bilimlarni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi, ayni paytda o'quvchilar tomonidan uy vazifalarni bajarishda yangilikni vujudga keltiradi. Bujarayon o'quvchining vaqtini tejash, bilimlarni oson o'zlashtirish, tushunmovchiliklarning oldini olish bo'yicha g'amxo'rlik qilish o'quvchilarning diqqat markazida turush lozim. Dars o'tish jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirishga ham alohida e'tibor qaratish shart. Xususan qiziqarli mashqlar tuzush, ko'rgazmali qurollar tayyorlash, mantiqiy o'yinlar tashkil etish va ulardan dars jarayonida foydalangan holda puxta o'zlashtirilgan bilimlarni shakllantirish vaqtida o'quvchilar rag'batlantirilsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Hozirgi kunda biologiya darslarini ko'rgazmali o'qitish shakllari asosida tanlanganligi, mashg'ulotlarni tabiat bilan ug'unlashtirilganligi didaktik talablarga mos ravishda xarakterlanadi. Darsda maqsad qilib qo'yilgan barcha vazifalarni oldindan tartiblashtirilgan reja asosida bo'lsa, darsga qo'yilgan talablarni bajarish oson kechadi. Didaktik talablarga ko'ra o'qituvchi dars rejasini mukammal tuzmogi lozim. Dars rejasini tuzishda darsning asosiy maqsadini, tuzilishini, loyihasini, darsda



qo'llaniladigan metod va usullarni mazmunini tashkil qilish shakllari alohida ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, dasturlashtirilgan, tadqiqiy yondashuv, muammoli darslar, axborot texnologiyalariga tayangan holda darslarni tashkil qilishga erishish darsning didaktik talabini hosil qiluvchi asosiy omildir.

Bugungi davr ga kelib barcha yoshlar axborot texnologiyalaridan mukammal darjada foydalana oladi, shu sababli o'qituvchilar bu borada jahon yoshlaridan qolishmagan holda o' ustuda tinimsiz mehnat qilmog'i lozim deb o'ylayman.

Bunga misol tariqasida bugungi davrda chop etilayotgan biologiyaga oid darsliklarda darslik mavzulari joylashtirilgan QR-kod belgilarini skaner qilish orqali mavzuga oid internet malumotlaridan foydalanish mumkin bo'ldi. Bu esa o'quvchilarni bilim olishin va asda saqlab qolish darajasini yanada oshirib o'rgangan bilimlarini hayotga bemaolol tadbiiq qila oladigan intellektual bilibdon yoshlar bo'lim voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Biologiya darslarini mukammal o'zlashtirish va uni hayotga tadbiiq qila olishi uchun o'quvchilar bilan boradigan dars jarayonida o'qituvchilar ko'rgazmali

va rasmlar bilan koproq ishlashi, bundan tashqari barcha o'qituvchilarda shaxsiy komyuter qurulmasiga ega bolgan holda internet tarmog'iga ulangan holda dars tashkil qilishi maqsadga muofiq bo'lardi.

Bugungi kunga kelib barcha talim maskanlari va davlat idoralari internet tarmog'iga ulanib bo'ldi. Bunday keng miqyosida global tarmoqqa maktablar ulanishi hurmatli Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevni tashabbusi bilan amalga oshdi. Biz o'qituvchilar bu berlgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda dars jarayonini to'g'ri va mazmunli va albatta foydali tarzda tashkil etishimiz lozim.

Bu o'rinda darsni to'g'ri rejalashtirish, uni qismlarga ajratish, dars tipini belgilash, didaktik talab bilan taqazo qilinadigan tuzulishini belgilash ta'lim maqsadlariga erishishning muhim qismi hisoblanadi.

Mavzuni talab darajasida o'qitish uchun o'qituvchi o'quv materialini mazmunini ifodalovchi o'qituvchi kitobiga ega bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

[Google](#) [Яндекс](#) [@mail](#)

diagnostikasi va korreksion ishlari.-

Toshkent, TDPU, 1997.

2.O'zbekiston Respublikasining “ ta'lim

to'g'risida”gi qonuni. Barkamol avlod

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti

poydevori.-T:1997 31-66 b.

3.O'zbekiston Respublikasining

“Kadrlarni tayyorlash Milliy daturi”.

Barkamol avlod O'zbekiston

taraqqiyotining poydevori.-T:1997 31-66

b.

4.Pedagogik texnologiya asoslaril.

J.G'.Yoldoshev,S.A.Usmonov.Toshkent-

2004y

5. Xalq ta'limi jurnali.



ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK IMKONIYATLAR

Izbasarova Gulchehra Ergashevna
Jizzax viloyati, Do'stlik tumani 12 –
umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va
adadiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada ona tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish va uning samaradorligi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, ta'lim, usul, o'yin, "besh daqiqa" o'yini, "so'zlar xazinasini" o'yini.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, uning mazmunini takomillashishiga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, har tamonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashni nazarda tutadi. O'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash malakasi haqida gap ketganda, nafaqat ularda fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish, balki kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, bilim olish yo'llarini egallash va ilm o'rganishga qiziqtirish kabi jihatlar nazarda tutiladi.

Hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri sifatida dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatish va o'qitishdir. Interfaol metodlar shunday metodlarki, u o'quvchi yoshlarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul. Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunday samaraga erishish uchun dars jarayonlarini interfaol metodlar orqali tashkil etish davr talabidir.

Zamonaviy ona tili fanidan ta'lim berish jarayonida turli interfaol o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarni fanga qiziqishlarini orttirish talab etiladi. Ona tilimizning mohiyatini yaxshi anglab yetgan o'quvchi o'zga xorij tillarini o'zlashtirishi oson kechadi. Shu jihatlarni hisobga olib, fanni o'yin mashg'ulotlari



texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ta'limiy o'yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol- javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda testlar, boshqotirma, tez aytish kabi o'yinlar muntazam o'tkazib turilish lozim, bu albatta o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalarni to'planib borishiga asos bo'ladi. Buning uchun o'quvchilar ma'lum bir tayyorgarlik o'tishlari, mustaqil o'qishlari, ommaviy axborot vositalarini kuzatib borishlari taqozo etiladi. Shunga ko'ra, o'quvchilar egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar: tasvirlay olish, tushuntira bilish va oldindan ko'ra olish hamda miyaning chap yarim sharini ham rivojlantirib, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Ma'lumki, didaktik o'yinlar mazmunan axloqiy, aqliy rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiyaviy sifatlarga ega bo'lgan bilimlarni beradi. Bunday usullarni 5 sinf o'quvchilari uchun ona tili darsi misolida ko'rib chiqamiz.

Tilshunoslikning Leksikologiya bo'limi 4 chorakda o'rganiladi. Shu bo'limning «Ma'nodosh so'zlar» mavzusini o'rgatishda bolaning yoshi va psixologiyasini hisobga olib, quyidagi ta'lim metodlarini tavsiya etamiz.

“Besh daqiqa” o'yini

Bu o'yin usulida besh daqiqa mobaynida o'quvchilar bir bo'g'inli so'zlar

(masalan, bosh, qosh, tosh, non, ko'z, so'z va h.k)ni yozishlari kerak bo'ladi. Albatta, o'quvchining yozgan so'zlarida aks etgan so'zlarning miqdori va to'g'ri yozilganligi va topqirligi baholanadi. Mazkur o'yin o'quvchilarda tezkorlik, topqirlik va zukkolik, faollik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish orqali bugungi kun talabi darajasiga javoban dars o'tishni taqozo etar ekan, shu talabdan kelib chiqib, “So'zlar xazinasi” o'yini asosida ma'nodosh so'zlar o'rganish bo'yicha tavsiyamizni taklif etamiz:

“So'zlar xazinasi” o'yini

Bu o'qitish usulida berilgan so'zlarga ma'nodoshlarini topib, joylashtirish talab etiladi. O'quvchilar mashqni quyidagicha bajarishi mumkin:

1. Yuz – bet, oraz, aft, bashara, turq;
2. Dunyo – yurt, o'lka, ochun, dahr;
3. Ahil – totuv, inoq;
4. Hurmat – izzat, ehtirom;



5. Shirin – mazzali, totli, xushta'm, lazzatli;

6. Chiroyli – go'zal, maftunkor.

“Asirga olish usuli”

Ushbu usul shartiga ko'ra, o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. 1 guruh so'z aytadi. Raqib guruh esa uning ma'nodoshlarini topishi kerak bo'ladi. Qaysi o'quvchi xato javob bersa, birinchi guruhning asiri bo'ladi, aniqrog'i guruh a'zosiga aylanadi. G'olib 10 daqiqadan so'ng, ularning “asirlari” soniga qarab aniqlanadi.

Demak, yuqoridagi usullar o'quvchilarning so'z boyligini oshirish hamda o'tilgan mavzuni puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, interfaol ta'lim o'z-o'zidan ta'lim sifatini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili o'quv jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish, fanlararo integratsiyalash o'quvchilarning mavzuni oson o'zlashtirishlariga yordam beradi, dars sifati va pedagogning kasbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quدراتov T. Nutq ma'daniyati asoslari.-Toshkent, 2015-yil

2. Rafiyev A. va boshqalar. Ona tilidan dars turlari.-Toshkent, 2017-yil



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH.

Esonova Muxtasar Barakaboyevna

*Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
XTB tasarrufidagi*

7-sonli o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o' qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarida innovatsion usullardan foydalanish, dars samaradorligining qay darajada oshishi muammoligi ko'rsatilgan. Shuningdek muallif o'quvchining diqqatini jamlashda, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda noan'anaviy metodlardan foydalanish haqida tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, interaktiv metod, qobiliyat, uslub, topqirlik, ijodkorlik, noan'anaviy metodlar.

Respublikamizda ta'lim sifat va samaradorligini bosqichma- bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyati uning pedagogik obro'sini oshirish bilan bog'liqdir. Shunday ekan har tomonlama

barkamol avlodni tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, kasbiy tayyorgarligiga, uning yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda pedagog muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Til va adabiyot fani o'qituvchisining mahorati o'z o'quvchilarini ta'lim jarayoniga faol ravishda jalb qila olish darajasi va ularning mustaqil aqliy va amaliy darslarini to'g'ri tashkil qilishi bilan belgilanadi. Bunda o'quv materiallarini bayon qilish emas, balki o'quvchilarning faol ijodiy ishlashini tashkil qila olish muhimdir.

Ona tili va adabiyot ta'limida o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirishning mazmuni quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni o'zlashtirishda va ularni amalda qo'llashda fikrni mustaqil ravishda ishlatish;
- bilib olish qobiliyatini rivojlantirish ya'ni til qonuniyatlari va ularni yangi



amaliy mashg'ulotlarni bajarishga tadbir qilingan malakalarini o'zlashtirish;

- har tomonlama ruhiy rivojlanish, tegishli irodaviy sifatlarining tashkil topishi, aqliy mehnatga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi ta'lim faoliyati sabablarini anglash va shu orqali o'quv faoliyatini takomillashtirish.

7-sinfda xalq og'zaki ijodining ayrim janrlari namunasi berilgan. Uni o'rganishda epik janrlar hamda she'riy asarlarni tahlillashdagi o'quvchilar tajribasiga tayaniladi. Bu sinf yoshidagi o'spirinlar dunyoqarashi, bilimi, saviyasi va hayotiy tajribalari tasvirlangan epik ko'lamni, o'z xalqiga xos bo'lgan axloqiy-falsafiy qarashlarni idrok eta oladilar. Dars davomida xalq og'zaki ijodi namunalari (alla, yor-yor va kelinsalomlar, qo'shiqlar, baxshilar ijrosidagi dostonlar va hokazo) namoyish etilgan videotasvirlar, ertaklar asosida ishlangan multfilm hamda dostonlar asosida yaratilgan badiiy filmlardan parchalar namoyish etish mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodidagi maqol, topishmoq janrlarini o'rganishda "Ketma-ket" usulidan foydalanish ijobiy samara beradi.

"Ketma-ket" usuli

Ushbu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini

shakllantirish, lug'at boyligini oshirish, sof o'zbek adabiy tilida so'zlashishni o'rgatishdir. Usul o'quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishiga imkoniyat yaratadi va o'quvchilarning nutq malakalarini va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, ekranda ketma-ket ravishda pashsha va filning tasviri chiqib boshlaydi.

Topshiriq: Tasvirdagi pashsha va fildan ibora hosil qiling. ("Pashshadan fil yasamang!")

O'qituvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga harakat qilgan holda, o'xshashlikdan foydalanishga, ob'ektlarni qiyoslash, taqqoslash, va tahlil qilishga undash kerak. "Ketma-ket" usulidan quyidagi maqsadlarda iboralar tuzish, maqollar yozish, gaplar tuzish, matn yaratish hamda lug'at ustida ishlashda foydalanish mumkin.

Til va adabiyot ta'limida zamonaviy talablar qatorida interfaol metodlardan foydalanib o'quvchilardagi ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:



- berilgan matn va mavzularni o'ziga xos xususiyatlarini tez va keng ravishda umumlashtirishi, tahlil qilishi va qiyoslay olishi;
- interfaol usullar orqali fikrlash jarayonini uyg'unligi;
- to'g'ri fikrlashdan teskarisini fikrlashga tez o'ta bilish imkoniyati;
- xotirasining kuchli bo'lishi;

Til va adabiyot darslarida interaktiv usuldan foydalanishda o'qituvchi

o'quvchilar qobiliyati va tafakkurining kuchli yoki kuchsiz tomonlariga tabaqalashgan holda yondashib ijodiy diktantlar, testlar, qiziqarli ma'lumotlar, amaliy topshiriqlardan foydalangan holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuxamedov R.J., YUldashev M.
Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: Nihol.- 2013

3. Ergasheva SH., Ona tili va adabiyot fanini o'qitish metodikasi: o'quv- uslubiy majuma .-Toshkent.TVXTXQTMOHM, 2017.-109 b



Fizika darslarida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar.

Pirnazarova Nargiza Begimqulovna

Navoiy viloyati Karmana tumani 21- maktabning

fizika fani o'qituvchisi

Bugungi kunda fan, madaniyat, axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish eng asosiy masalaga aylanib bormoqda.

Pedagog kutilayotgan natijaga erishish uchun avvalo darsni rejalashtirishi yoki loyihalashtirishi lozim bo'ladi. Darsni loyihalashtirishda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

Pedagogik jarayonni loyihalashda:

1. Pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
2. Natijalarni oldindan ko'ra bilish;
3. Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'rin

tutadi. Loyihalar predmet va uning yo'nalishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Loyihalarda pedagog tomonidan quyidagi faoliyatlar namoyon bo'ladi:

- ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashxisning qo'yilishi yakunlanuvchi tahliliy faoliyat;

- oldindan ko'ra bilish va loyihalash.

Tashxis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning ajralmas uchligi hisoblanadi. Loyihaning maqsadi oldindan qog'ozda taqvim-reja, qisqacha yozma bayon sifatida aks etiriladi.

Strategik, taktik va operativ vazifalarning samarali hal etilishi loyihalash texnologiyasining sifatiga bog'liq. O'quv dasturi yoki o'quvchi shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsadi va sharoitlarga muvofiq holda o'quvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi;



2. O'quvchilarning dastlabki tayyorgarlik o'qituvchining mahoratiga bog'liq, uning darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari; qo'llagan innovatsion texnologiyalariga bog'liq.

3. O'qituvchining kasbiy mahorati, shuningdek, ta'lim muassasasi moddiy-texnik bazasi. Bu o'rinda o'quv ma'lumotlarini loyihalash texnologiyasi muhim o'rin tutadi. Unda:

- o'quvchilarga taqdim etiladigan materiallar;

- o'quvchilarga mustaqil bajarish uchun beriladigan vazifalar;

- o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ma'lumot (bilim) turlari o'z aksini topadi. Agar pedagog faoliyati o'quvchilarning talablarini qondirish, ya'ni yakuniy maqsadlarga qaratilsa, u holda pedagog yaxlit pedagogik jarayonni yoki alohida dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalashda ham qiyinchilikka duch kelmaydi.

Darsni qanday tashkil etish, unda qanday metodlardan va usullardan foydalanish o'qituvchining ixtiyoriy yondashuviga bog'liq, bunda unga aniq qolip berilmaydi. Demak, ko'zlangan maqsadga erishmoqchi bo'lgan pedagog darsni shunday tashkil etsinki, toki o'quvchilar mavzuni qiynalmasdan tushunib olsin, fanga bo'lgan qiziqishi yanada kuchaysin. Bu esa o'z navbatida,

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi.

Fizikani o'qitishning samarali vositasi sifatida kompyuterni ishlatish pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi: shaxsiy kompyuter entsiklopediyalari, interfaol kurslar, turli xil dasturlar, virtual eksperimentlar va laboratoriya ishlari talabalarning fizikani o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Fizikani o'qitish fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun yaxshi zamin hisoblanadi. Fizika darslarida axborot texnologiyalarini qo'llashning asosiy yo'nalishlaridan biri, menimcha, kompyuterda fizik laboratoriya tajribasini o'tkazishdir.

Fizika darslarida namoyish eksperimentisiz buni amalga oshirish



mumkin emas, ammo ofisning moddiy bazasi har doim ham zamonaviy fizika kabinetining talablariga javob bermaydi. Va shuning uchun bu yerda kompyuter tajribasi yordamga keladi. Kompyuter nafaqat talabaning, balki o'qituvchining ham yordamchisiga aylanadi.

Kompyuter modellari yangi materialni tushuntirishda proektor orqali yoki dasturni kompyuter sinfiga o'rnatish orqali talabalarning individual qobiliyatini shakllantirish uchun namoyish qilinishi mumkin. Kompyuter modellari o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilish uchun qulay bo'lgan modelning maqsadini nazariy tavsifi bilan birga keladi.

Talabalar uchun laboratoriya ishlarini bajarishdan oldin, men ishning maqsadi va rivojlanishi haqida ma'lumot berdim, ammo laboratoriya ishiga yozma ko'rsatmalar ham berdim. Talaba ishni bosqichma-bosqich va o'zi ishlashi qulay bo'lgan sur'atda bajarishi uchun. Ko'rsatmalarda modelning nomi va ishning qisqacha mazmuni ko'rsatilgan. Oxir-oqibat, kompyuter modelida ishlash jarayonida bilimlarning assimilyatsiyasini tekshirish uchun test savollariga javob berish taklif qilindi. Kompyuter modellaridan foydalanish

fizika darslarini diversifikatsiya qilish va jonlantirishga imkon beradi. Kompyuter modellari talabalarga modelning boshlang'ich shartlarini o'zgartirishga imkon beradi va bu talabalarning tadqiqot va dizayn faoliyatida modellardan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Modellarning o'zaro ta'siri o'quv jarayoni uchun katta ta'lim imkoniyatlarini ochib beradi, bu talabalarni nafaqat kuzatuvchilar, balki eksperimentlarning faol ishtirokchilariga aylantiradi.

Interfaol virtual laboratoriyalardan foydalanganda, siz o'zgaruvchan parametrlar bilan qayta-qayta sinab ko'rishingiz, natijalarni saqlashingiz va o'zingizning tadqiqotlaringizga qulay vaqtda qaytishingiz mumkin. Bundan tashqari, kompyuter versiyasida siz ancha katta miqdordagi tajribalarni o'tkazishingiz mumkin. Ushbu turdagi tajriba qonun, hodisa, jarayon va hokazolarning kompyuter modeli yordamida amalga oshiriladi.

O'quvchilar uchun makrokosmik va mikroto'lqinli ba'zi hodisalarni tasavvur qilish qiyin, chunki o'rta maktab fizikasi kursida o'rganilgan individual hodisalar real hayotda kuzatilmaydi va bundan tashqari, fizik laboratoriyada eksperimental ravishda takrorlanishi mumkin, masalan, atom va yadro fizikasi



hodisalari va boshqalar. Ko'pgina interfaol modellar boshlang'ich parametrlar va eksperimental sharoitlarning vaqt doirasiga qarab o'zgarishi, shuningdek haqiqiy eksperimentlarda mavjud bo'lmagan vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, fizikada odatiy laboratoriya ishlari ham olib boriladi, shuningdek, o'quv ma'lumotlarini olishning an'anaviy usullari samarasiz yoki imkonsiz bo'lgan hollarda kompyuter ishlatiladi.

Fizika darsida kompyuterni tizimli ravishda qo'llasa, talaba kompyuter bilimlaridan real ob'ektlar va hodisalarni o'rganish uchun foydalanishi mumkin. Kompyuter yangi ma'lumotlarni olishning tanish vositasiga - dars mavzusidagi bilimlarga, shuningdek o'lchash va tadqiq qilish vositasiga aylanmoqda.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish rejalashtirilgan o'quv natijalarining ikkita guruhini ajratishga imkon beradi:

Talabalar uchun: talabalarga kompyuter modellari bilan individual tadqiqotlar olib borish imkoniyati beriladi, ular davomida mustaqil ravishda tajriba o'tkazish, gipotezalarini tezda sinab ko'rish, jismoniy hodisalar va jarayonlar qonuniyatlarini belgilash;

-har bir o'quvchi uchun individual o'quv sur'ati belgilanadi, shu bilan tajribani noaniq vaqtlarda takrorlash mumkin bo'ladi;

-maktab laboratoriyasida bajarib bo'lmaydigan kompyuter laboratoriya ishlarini bajarish uchun haqiqiy imkoniyat mavjud;

-talabalar shaxsiy kompyuterdan o'quv vositasi sifatida maqbul foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladilar;

-talabalar elektron ko'nikmalarni o'rganadilar.

O'qituvchiga kelsak:



-o'qituvchi talabalar bilan ishlash uchun bo'sh vaqtni bo'shatadi (ayniqsa orqada qolganlar);

-o'quv jarayoni natijalarining tezkor individual diagnostikasini o'tkazish mumkin.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish jarayonida kompyuter o'qituvchini almashtirmaydi, bu haqda ba'zan aytiladi va bu ta'limni kompyuterlashtirishga salbiy munosabatda bo'lishga olib keladi, ammo uning yordamchisi hisoblanadi. Xuddi shunday, kompyuter darsligi an'anaviy, an'anaviy darslikning o'rnini bosmaydi, balki uni to'ldiradi.

O'quvchi tomonidan o'quv versiyasida ilmiy bilimlar uslubini tatbiq etish va ilmiy bilimlarga ega bo'lish tuyg'usini shakllantirish uchun kompyuter modelidan foydalanish uchun o'qituvchi kompyuter modelini didaktik qayta ishlashni amalga oshirishi va laboratoriya ishining tavsifi shaklida topshiriq berishi kerak. Ta'kidlash joizki, zamonaviy maktab o'quvchilarining kompyuterlari bilan aloqa qilish qulayligiga qaramasdan, ma'lum bir aloqa to'siqlari mavjud bo'lib, ular faqat akademik

ishlarni bajarish paytida manbani didaktik qayta ishlash orqali bartaraf etiladi.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Quyida amaliyotida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

“Fizik she’rlar” metodi

Bu metodning o'tkazilishidan maqsad o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishini orttirish. Bunda o'qituvchi har bir darsning boshini she'r bilan boshlab o'quvchilarning diqqatini o'ziga qaratishi mumkin.

Fizika kechasida, ko'rsatilgan bir fokus.



*O'tsa hamki qancha vaqt, Yodimdan
o'chmas hanuz.*

*-Ayting, qachon to'p o'qi uchar boshqa
olamga?*

Fizikachi muallim, yoqib spirtli chiroq,

Ushbu savol olimni o'ylantirib qo'yibdi.

*Tezda qaynatdi tuxum, qog'oz kuymadi
biroq.*

*Olim to'pchiga javob etmoq xissin
tuyipti.*

*Barchaning ko'z oldida, suv qaynadi
qog'ozda.*

Izlanibdi necha vaqt, sira xorib tolmabdi.

Havoning qarshiligini u xisobga olmabdi.

Zaldagi hayratlanish, sezilardi ovozda.

Jumboqni xal etmoqqa, kirishibdi, u

*Fokus sirin ayting deb, domlaga berdik
savol.*

jiddiy.

Riyoziyotni qo'llab-javob topibdi oddiy.

*U esa:- Issiqlikni, o'qing!-deb, ko'rdi
malol.*

*Hisob chog'i Pifagor, jumlasini yordam
bermish.*

*Aytinglar o'tda qog'oz, ne sababdan
kuymagan?*

*Olim uzoq izlanib- shunday qarorga
kelmish.*

*Qog'ozdagi tuxum, suv, ne sabab
to'kilmagan?*

*To'p o'qi soniyada sakkiz chaqirim
uchar,*

Bu metoddan musobaqa darslarida ham foydalanish mumkin. Sinf 3guruhga bo'linib, o'zaro bellashishsa ushbu metodni bitta shart sifatida berish mumkin. Har bir guruh fizika faniga oid birorta she'r aytib berishlari kerak bo'ladi, bu esa fanlararo integratsiya demakdir.

Qolar yer atrofida, aylana yo'lin quchar.

*Bo'lsa o'qning tezligi, o'n birdan toki
sakkiz.*

1-guruh:

*O'qning yurar chizig'i, bo'lar aniq
Ellips.*

*Savol bermish bir to'pchi fizikachi
olimga:*

*Mabodo o'q tezligi, bo'lsa gar aniq o'n
bir.*

*O'qning uchar chizig'i albat bo'ladi
Giper.*



O'n birdan ortsa –chiziq, Parabola bo'ladi.

To abad bu to'p o'qi, Yerdan yiroq qoladi.

Bu kun bashar jumboqni har yoqlama hal etgan.

Raketa faqat oymas, Mirrixdan yiroq ketgan.

2-guruh:

Ba'zilar ming –ming sarflab , mo'yna po'stin olishar.

Jamlaguncha mablag'ni rosa xoldan toyishar.

Do'stlar beringiz javob, issiq berarmi , po'stin

Yoki faqat qomatning yashirar kamu-ko'stin?

Shu maqsadda birlashib , o'tkazaylik tajriba .

Fizik qonunni tilga, etib oddiy “tarjima”

Olib ikki parcha muz, asraylik turli holda

Birin o'rab po'stinga, birin ochiq havoda.

Ochiq havodagi muz, tezroq erib ketadi.

Po'stinfagi uzoqroq, erimasdan yotadi.

Termometrni olib, o'rab qo'ysa po'stinga,

Pardek yumshoq mo'yna ham , ta'sir qilmaydi unga.

Ammo kiysak po'stinni , isigandek bo'lamiz.

Har qandayin sovuqdan , qutulgandek bo'lamiz.

Xulosa shu : Po'stinlar –isitmayi zarra ham,

U faqat haroratni , o'tkazadi juda kam.

Shu bois qimmatbaho po'stin kiyish shart emas.

Mo'tadil haroratni asrash yo'lin topsa bas!

"Tushunchalar izohi" metodi.

Ushbu metodda o'quvchilar berilgan tushunchalarni izohlashi kerak bo'ladi.

Bu o'quvchilarning eslab qolish darajasini rivojlantiradi, mavzu yanada mustahkamlanadi. Misol tariqasida 10-sinfda berilgan “Harakatlanayotgan

gazlar va suyuqliklarda bosimning tezlikka bog'liqligidan texnikada foydalanish” mavzusi asosida ko'rib chiqamiz. Bunda jadvalni to'ldirish topshirig'I beriladi. Bu metoddan barcha darslarda foydalanish mumkin.

Dinamik bosim



Magnus effekti	
Torrighelli formulasi	

faqatgina chorak yakunida emas, balki o'qitilgan mavzularni mustahkamlash darslarida foydalanish mumkin.

O'quvchilar yakka tartibda yoki juftlikda ishlashlari mumkin. Test metodi o'quvchining bilimini baholashda samarali usul hisoblanadi. Quyidagi testlardan 7-sinf "**Issiqlik hodisalari haqida Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning fikrlari**" mavzusida foydalanish mumkin:

“Sherigini top” metodi.

Bunda o'quvchilar juftlikda ishlashlari kerak bo'ladi. Birinchi o'quvchi berilgan savol yoki atamani o'qiydi, ikkinchi o'quvchi esa unga javob beradi. Quyida berilgan misolni 6-sinf o'quvchilari uchun mustahkamlash darslarida foydalanish mumkin.

1. Issiqlik manbalari bo'la oladigan qatorni aniqlang

Massa

N

Hajm

Kg/ m³

Zichlik

m²

Kuch

Kg

Yuza

m³

a) quyosh, oy va yulduzlar;

b) ko'mir, neft gaz mis;

d) torf, slanets, oy va o'tin;

e) quyosh, reaktorlar, ko'mir va gaz

2. Malekulani

ng muhim hossalari nimalardan iborat?

“Tezkor test” metodi. Bu metoddan



- a) O'zaro ta'sir
- b) Harakat
- c) O'zaro ta'sir va harakat
- d) Tortitilish



3. Quyoshdan Yerga issiqlik qaysi usulda uzatiladi?


- a) Konventsiya
- b) Issiqlik o'tkazuvchanlik
- c) Bug'lanish
- d) Nurlanish

Bunda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan vakil chiqadi. Ular fanga oid atamalarni ketma-ketlikda aytishadi. Ayta olmay qolgan o'quvchi o'yinni tark etadi. O'yin shu tariqa davom etadi. Bu metodni hamma darsda qo'llash mumkin.

“Moslikni aniqlang” metodi.

4. Qaysi asbob yordamida temperatura o'lchanadi?

- a) Dinomometr;
- b) Menzurka;
- c) Barometr
- d) Termometr



Yuqoriga vertikal otilgan jism tushdi.

Bu harakatga tegishli ko'chish) ning vaqtga bog'liqlik grafiqlarini tahlil qilib, ularni kelishini toping. So'roqlar o

Javob:

Tezlanishning vaqtga bog'lanish grafigi: a

"Atamalar janggi" metodi





Tezlikning vaqtga bog'lanish grafiqi:

b


Ko'chishning vaqtga bog'lanish grafiqi: c

Yo'lning vaqtga bog'lanish grafiqi:

d



2-chizma:



3-chizma:

“Teskari usul” metodi.

Bunda o'quvchilarga chizmalar ko'rsatiladi. Ular shu chizmalar asosida qoida aytishlari kerak bo'ladi. O'quvchilar juftlikda yoki guruh bilan ishlashsa yanada qiziqarli bo'ladi.

1-chizma:



4. 6-sinf. Ona tili darsligi N. Mahmudov, A. Nurmonov A. Sobirov, D. Nabiyeva. «Tasvir» nashriyot uyi Toshkent — 2017

5. 6-sinf. Adabiyot darsligi. I qism (S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev, I qism. Toshkent «Ma'naviyat» 2017

6. K.Hoshimov, S. Nishonova, M. Inomova, R. Hasanov. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi" 1996

Har qanday metod yoki ushbu metodni qo'llash usullari avvalo o'quvchining mavzuni to'liq o'zlashtirishi uchun xizmat qilishi lozim. Bugungi kun pedagogining asosiy vazifasi metodlarni to'g'ri tanlay olishi, kutilgan natijaga qiyinchilik bilan oson usulda erishishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston. 1999.
3. 9-sinf Adabiyot darsligi. Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshev. O'zbekiston NMIU Toshkent 2019.



MODERN APPROACH AND METHODS TO ELT IN ELEMENTARY SCHOOL

*Toshkent shahar Olmazor tumani
xalq ta'lim bo'limi tasarrufidagi
249-sonli umum ta'lim maktabining
ingliz tili fani o'qituvchisi*

*Rahmatullayeva Nilufar Baxtiyarovna
email:rahmatullayevanilufar10@mail.c
om*

Abstract

The aim of this article is dedicated to learn many methods of language teaching, in the article there are a lot of meaningful information about important teaching methods. The information in the article will be used for learning foreign languages.

Abstrakt

Ushbu maqolaning maqsadi-tillarni o'qitishning ko'plab usullarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, maqolada o'qitishning muhim usullari haqida juda ko'p mazmunli ma'lumotlar keltirilgan. Ma'qoladagi ma'lumotlar chet tillarini o'rganish uchun ishlatiladi.

Keywords: foreign language teaching, important teaching methods, grammar translation method, direct method, audio lingual method, the Silent Way method and total physical response.

Kalit so'zlar: chet tillarini o'qitish, o'qitishning muhim usullari, Grammatik tarjima usullari, to'g'ridan-to'g'ri usul, aoudio lingviv usuli, ovossiz usul, va to'liq jismoniy javobgarlik usuli.

During the search for —the best method phase of language teaching, several studies were carried out to settle the question empirically. For example, Swaffar, Arens and Morgan set out to decide which was superior, audio-lingualism or cognitive code learning. The results were inconclusive, and it appeared that, at the level of classroom teaching, few teachers adhered rigidly to one method than other. Instead, they developed a range of practices that reflected their own personal teaching styles. Among other things, it was studies that gradually led people to abandon the search for the —modern method.

For a survey of the history of second or foreign language teaching, Jill Kerper Mora discussed some important teaching methods. Those are: Grammar-Translation Approach, Direct Approach, Audio-lingual Method, Community



Language Learning, The Silent Way, Total Physical Response. According to Richards and Rodgers Grammar Translation Method approaches the language first through detailed analysis of rules, followed by application of this knowledge to the task of translating sentences and texts into and out of target language. According to Prator and Celce-Murcia in Teaching English as a Second Foreign Language the key features of the Grammar Translation Method are as follows:

Classes are taught in the mother tongue, with little active use of the target language. These aims are achieved in the classroom by long and elaborate grammatical explanations and demonstrations in the native language.

2. Much vocabulary is taught in the form of lists of isolated words. A number of studies demonstrate that learning by word lists is an effective way of learning vocabulary. Moreover, Nation states that vocabulary learning requires memory, processing, storing, and using L2 words in productive ways. Baddeley specifies another common argument, which is very strong among teachers that is rehearsal and elaboration are two ways to facilitate recall.

3. Long, elaborate explanations of the intricacies of grammar are given.

4. Grammar provides the rules for putting words together, and instruction often focuses on the form and inflection of words.

5. The habit of reading difficult classical texts is begun early. Pupils translate a reading passage from the target language into their native language. The passage may be excerpted from some work from the target language literature.

Besides that Grammar-Translation Method, the teacher's role is to explain grammar rules and the meaning of words in the learner's native language, organize practice (for example, the recitation of rules and translation), and correct learner's mistakes whereas learner's role is to pay careful attention to the teacher's explanations and corrections, memorize rules and vocabulary lists, and carefully do the practice tasks the teacher sets. Fraser B. found the learners discoverer. They follow teacher instruction.

Direct Method

Richards and Rodgers describe principles of procedures underlying the Direct Method in the following way:



1. Classroom instruction was conducted exclusively in the target language.
2. Only everyday vocabulary and sentences were taught.
3. Oral communication skills were built up in carefully graded progression organized around question-answer exchanges between teachers and pupils in small, intensive classes.
4. Grammar was taught inductively.
5. New teaching points were introduced orally.
6. Concrete vocabulary was taught through demonstrating, objects (e.g. realia or pictures), and pictures; abstract vocabulary was taught by association of ideas.

Audio-lingual Method

According to Gattegno, language should be taught by using —intensive oral drilling of its basic patterns—. The main learning principles of audio-lingual method were introduced:

First of all, foreign language learning is a mechanical process. Memorization and repetition of dialogues or other drill patterns minimize the risk of making a mistake and increase the chances of giving a correct answer that leads to reinforcement of good habits. As it was

mentioned above, drills and pattern practice are typical of the Audio-lingual method.

Second, Foreign language can be learned and taught more effectively if it is presented in spoken form before pupils will see written form. —Aural-oral training is needed to provide the foundation for the development of other language skills.

Third, the meaning of words and phrases of a second language should be learned and taught in a linguistic and cultural context. —Teaching a language thus involves teaching aspects of the cultural system of the people who speak the language. The underlying assumption of this philosophy was that, as Rivers put it, foreign language learning is basically a mechanical process of habit formation.

In practice, this means pupils were presented with language patterns and dialogues, which they had to mimic and memorize. Language practice by and large consisted of repetition of language patterns and drill exercises. Drill types included substitution drills, variation drills, translation drills, and response drills. According to Richards and Rodgers the teacher's role is central and active; it is a teacher-dominated method. The teacher models the target language, controls the direction and place of



learning, and monitors and corrects the learners' performance. In Audio-lingual Method, correct production by learners should always be praised (reinforced) and incorrect production instantly and firmly corrected. So, teacher needs to be active, demonstrating the language, organizing practice, and correcting the learners and learner's role is to listen carefully, imitate, and participate as much as possible in the oral practice of the language.

The Silent Way

The last line of Benjamin Franklin's famous quote about teaching and learning can be said to lie at the heart of Silent Way. The use of the word "silent" is also significant, as Silent Way is based on the premise that the teacher should be as silent as possible in the classroom in order to encourage the learner to produce as much language as possible. To support the principles of Silent Way, he recommends, for example, that the learner needs to —return to the state of mind that characterizes a baby's learning-surrender[¶]. For example, One technique is exemplified from Larsen-Freeman's various techniques from the Silent Way, the teacher sets up an ambiguous situation, puts a language structure into circulation and then is silent. Even in error correction, the

teacher will only supply a verbal answer as a last resort. Richards and Rodgers summarized the theory of learning behind the Silent Way:

1. Learning is facilitated if the learner discovers or creates rather than remembers and repeats what is to be learned.

2. Learning is facilitated by accompanying (mediating) physical objects.

3. Learning is facilitated by problem solving involving the material to be learned.

Gattegno believed that learners should develop independence, autonomy, and responsibility. At the same time, learners in a Silent Way classroom had to cooperate with each other in the process of solving language problems. The teacher—a stimulator but not a hand-holder—was silent much of the time, thus the name of the method. Teachers had to resist their instinct to spell everything out in black and white, to come to the aid of pupils at the slightest downfall; they had to —get out of the way[¶] while pupils worked out solutions. The prominent writer on language teaching, Earl Stevick has described the role of the teacher in Silent Way as "Teach, test, get out of the way". Bruner believes that in



the Silent way, learner is a principal actor rather than a bench-bound listener.

Communicative Language Teaching to enrich learners' pragmatic competence the technique role play fits with principle of Communicative Language teaching. Fraser, Rintell and Walters proffer role-play as a useful means to study. Thus, Wilkins put forward the issue of role-play, which is actually an imitation of the reality and the pupils are required to speak properly in line with the contexts and their "roles". Activities that require frequent interaction among learners or with other interlocutors to exchange information and solve problems.

For example, pair work, group work etc. According to Mora J.K. and his colleagues who investigated differences in the quantity and quality of pupil language in group work versus teacher centered activities the language produced by pupils working in groups is more varied and greater in quantity. Learners take the initiative to express themselves, they are more spontaneous. Asking questions and responding they use more language functions. By dividing the class into groups pupils get more opportunities to talk than in full class organization and each pupil can say something. Prator recommends that teachers working with large classes

should divide them into five groups which is the most effective organization for practicing speaking. Use of authentic (non-pedagogic) texts and communication activities linked to —real-world contexts, often emphasizing links across written and spoken modes and channels. Proponents of authentic materials such as Cathcart and Lee suggest that when we expose our pupils to these types of materials we can be confident that the models of language are not only genuine but also representative of real life language use, particularly in terms of discourse structure. In addition, they point out that the use of these materials brings greater realism and relevance to the ESL / EFL classroom and they can increase learner motivation.

Total Physical Response

Over the years, language teachers have intuitively recognized the value of associating language with physical activity. So while the idea of building a method of language teaching on the principle of psychomotor associations was not new, it was this very idea that James Asher capitalized upon in developing TPR. Asher wished to devise a method that was as stress-free as possible, where learners would not feel overly self-conscious and defensive



So'z ma'nolarining o'zgarishi qizg'in muzokaralarga sabab bo'lgan mavzu bo'lib, juda ko'p tilshunoslarni o'ziga jalb qilgan. So'z ma'nolari muhokama qilinar ekan, so'zning doimiy, o'zgarmas hamda o'zgaruvchan ma'nolari deb nomlangan qarama qarshi tushunchalar yuzaga keladi. Ba'zi ma'nolar doimiyliги, o'zgarmasligi bilan xarakterlansa, ba'zi ma'nolar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi; ular faqat ba'zi kontekstlardagina paydo bo'ladi va bu ma'no lug'atlarda qayd etilmaydi. Bosh hamda hosila ma'nolar nisbatan o'zgarmasligi bilan farqlanadi va shuning uchun ham ular so'zning semantik tarkibini tashkil qilib, lug'atlarda qayd etiladi.

Ko'p ma'nolilik muammosi leksikologiyaning eng ko'p muhokamaga sabab bo'lgan muammolaridan biridir. Ba'zan ko'p ma'noli so'zning hosila ma'nosidan alohida, mustaqil



so'zni farqlashning imkoni bo'lmaydi, ya'ni so'zning hosila ma'nosi bilan bosh ma'no o'rtasidagi semantik aloqa uzilgan va natijada u o'zi hosil bo'lgan so'zga nisbatan omonimga aylangan.

Polisemiya leksikologiyaning alohida kategoriyalaridan biridir. Har bir polisemantik so'z o'ziga xos stilistik xususiyatga ega va uning tarkibidagi leksik ma'nolarni tahlil qilish ko'plab izlanishlar va kuzatishlarni talab qiladi. Ma'lumki, polisemantik so'zlarning ma'nosi yuzaga chiqishi uchun kontekst muhim ahamiyatga ega. Chunki polisemantik so'zlar bir qancha leksik ma'nolarga ega bo'lib, kontekstda esa u faqat bir ma'nosi bilan qatnashadi

heavy

- 1) kuchli; heavy rain (kuchli yomg'ir); heavy wind (kuchli shamol);
- 2) og'ir; heavy industry (og'ir sanoat); heavy artillery (og'ir artilleriya);
- 3) vazni katta; heavy weight (og'ir vazn); heavy table (og'ir stol);

Foydalangan adabiyotlar:

1. The Presidential Decree №1875 of Uzbekistan, on 10 December 2012.
2. Виноградов С.Н. Нечеткость терминологии и ее причины. 2002.
3. Muminov O.M. "Lexicology of the English Language". T- 2006.
4. <http://www.bohemica.com>
5. Abdullayev F. O'zbek tili leksikasining ba'zi bir masalalariga doir til va adabiyot instituti asarlari. – Tosh.: Fan , 1949.
6. Abduazizov A., Sodiqov A., Bashakov N. Umumiy tilshunoslik T., 1979.



TARIX DARSLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

**Shaymardanov Murodulla
Djurayevich**

**Surxondaryo viloyati Denov tumani
23-maktabning tarix fani o'qituvchisi**

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda umuta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishning yangicha usullari, zamonaviy ta'lim tizimining yutuqlari, dars jarayonlarida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarning tub mohiyatini o'rganish zarurligi, tarix fanini o'qitishda qiziqarli metodlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: metodlar, metod, "Bumerang", "Venn diagrammasi", "Sinkveyn".

Mamlakat rivoji va uning taraqqiyoti o'sib kelayotgan barkamol avlodga bog'liq. Zamon tobora texnika va texnologiya bilan bog'liq holda taraqqiy topib borar ekan, yoshlar ta'lim va tarbiyasi ham barobar katta mas'uliyat talab qiladi. Jahon ta'lim texnologiyalari, zamonaviy uslub, internet bilan bog'liq holda ta'lim tizimini isloh qilish davlat mavqeyini yanada yuqori pag'onalariga olib chiqishga undaydi. Internet asrida tinmay izlanish va harakatda bo'lish, albatta, samara bermasdan qolmaydi. Ayniqsa, gap farzandlar ta'lim-tarbiyasi

xususiga borganda. So'nggi yillarga ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor va talab yanada kuchaydi. Respublikamizning chekka xududlaridagi maktablar ham zamonaviy texnologiya asosida jihozlandi. Bu esa, o'quvchilarga ta'lim berishda barcha shart-sharoitlar muhayyo degani. Pedagog hodimlardan talab qilinadigan birgina masala, yaratilgan sharoitlar asosida sifatli bilim berish, izlanish, o'rganish, ijod qilish va ergashtirish hisoblanadi.

Tarix fanini o'qitishda "Sinkveyn", "Bumerang", "FSMU", "Venn diagrammasi", "SWOT", "Blits so'rov", "Aqliy hujum" kabi metodlardan foydalanish mumkin. "Sinkveyn" metodidan o'quvchilarga so'z turkumlari, gap bo'laklari mavzularini o'rgatishda qo'llash mumkin. Bu usul o'quvchilarni topqirlikka, tez va aniq fikrlashga, zukkolikka o'rgatadi. "Bumerang" usulidan mustahkamlash darslarida foydalanish mumkin. Bu usul o'quvchilardan erkin va mustaqil fikrlashni talab qilib qolmasdan, sinfda do'stona munosabatni shakllantiradi. Bir-birining fikrini hurmat qilishga va birdamlikka o'rgatadi. "Venn diagrammasi" usulini esa tarixiy voqealarni, atamalarni o'rgatishda qo'llash mumkin. "Venn diagrammasi" usuli o'quvchilarni sinchkovlikka,



ziyraklikka o'rgatadi. Umuman olganda qaysi usuldan qanday foydalanish o'qituvchidan izlanuvchanlikni, ijodkorlikni talab qiladi. Metod samarali bo'lsa-yu darsda qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilsa, maqsadga erishilmaydi. Shu bois, o'quvchini darsga qiziqtirish va diqqatini jalb qila olish pedagog mahoratiga bog'liq. Dars jarayonida foydalanish uchun samarali metodlardan "Javoblar yomg'iri" mashg'ulotini tavsiya qilaman.

"Javoblar yomg'iri" mashg'uloti

Bu usul o'quvchilarni eslash qobiliyatlarini mustahkamlashga, xotiralarini qo'zg'ashga chaqqonlikka undaydi

O'tkazish tartibi:

- a) O'quvchilar bir nechta guruhlariga bo'lib olinadi
- b) Har bir guruhga ichida yomg'ir tomchilari katakchalari mavjud beriladi
- c) Tomchilar guruhlariga ranglari asosida tarqatiladi va har bir tomchiga mavzuga oid bo'lgan savollar yoziladi

d) 3 daqiqa vaqt belgilanib guruhlardan tomchi kartochkalaridagi savollarga galma galdan javob berish so'raladi.

e) Mashg'ulot yakunida har guruhdan 1 o'quvchi taqdimot uchun chiqib javob bergan tomchi kartochkalarini bulut ostiga joylashtiradi

Guruhlar topshiriqni bajarish sifati va vaqtiga qarab rag'batlantiriladi. "Javoblar yomg'iri" usulidan barcha sinflarda uyga topshiriqlarning so'rab olishda, darslarni mustahkamlashda o'rgatishda ham qo'llansa bo'ladi.

Har bir millatning o'ziga yarasha tarixi, va murakkab bosqichlari bo'ladi. Mana shu bebaho bobo merosimizni asrab-



avaylashda, avlodlarga asl holicha yetkazishda barchamiz birdek harakat qilmog'imiz lozim. Darhaqiqat, har bir pedagog bugungi qilayotgan ishini xuddi birinchi marta qilayotgan kabi qiziqish va intiluvchanlik, talabchalik bilan bajarsa, ishda albatta, natija bo'ladi.

O'qituvchining natijasi esa o'quvchilar bilimi va muvaffaqiyatidadir. Shu sababli, bilimli yoshlarni tarbiyalash, ularni yetuk va barkamol shaxslar qilib yetkizish uchun shijoat bilan mehnat qilaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyayev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom

ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.//Toshkent - 2017, "O'zbekiston"

2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. Toshkent: "O`zbekiston"

3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".

Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent:



Davlat va huquq nazariyasi

UDK:

ORCID:

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБОТНИ ТАЪМИНЛАШ ФУНКЦИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕХАНИЗМИ

Soburov Hasanjon Shavkatjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
magistranti

E-mail: hasanbeksaburov@gmail.com,
+998 33 331 31 92

Annotasiya

Mazkur maqola O'zbekistonda davlat funksiyalarini amalga oshirish va ushbu jarayondagi kamchiliklar va muammolarni tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi ushbu sohadagi kamchilik va muammolarni bartaraf etish, davlat organlarining davlat funksiyalarini amalga oshirish faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat. Tadqiqotni amalga

oshirishda tizimli, qiyosiy-huquqiy, muammoviy-maqсадli, formal-yuridik, mantiqiy yondashuv, amaliyot natijalari va joriy qonunchilikni tahlil etish hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalaniladi. Unda bugungi kunda O'zbekistonda davlatning ichki va tashqi funksiyalarini amalga oshirish borasidagi ko'plab ishlar, chora-tadbirlar tahlil etilgan va davlat funksiyalarini amalga oshirishda ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy tartibotni ta'minlash sohalarini yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish yuzasidan tavsiyalar, takliflar berilgan. Mavzuga oid mavjud adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish asosida davlat funksiyalarini amalga oshirishning hozirgi zamon tendensiyalari kompleks tadqiq etilib, bu borada tegishli ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Shuningdek, yangi O'zbekistondagi davlat funksiyalarining mazmuni, mohiyati, asosiy vazifalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: davlat funksiyalari, davlat mexanizmi, davlat apparati, siyosiy rejim, hokimiyat taqsimoti, huquqiy tartibotni ta'minlash.

Теория государства и права



УДК:

ORCID:

Механизмы реализации
государственных правоохранительных
функций в новом Узбекистане

Собуров Хасанжон Шавкатжон угли

Магистр Ташкентского
государственного

юридического университета

E-mail: hasanbeksaburov@gmail.com,
+998 33 331 31 92

Аннотация

Данная статья посвящена реализации государственных функций в Узбекистане и изучению недостатков и проблем в этом процессе. Целью исследования является устранение недостатков и проблем по трем направлениям, повышение эффективности государственных органов при выполнении государственных функций. В исследовании используется системный, сравнительно-правовой, проблемно-ориентированный,

формально-правовой, логический подход, анализ результатов практики и действующего законодательства, а также другие методы научного познания. Были проанализированы меры и даны рекомендации и предложения для дальнейшего улучшить сферу социального, экономического и правового порядка при выполнении государственных функций, повысить эффективность. На основе изучения и анализа существующей литературы по данной теме, комплексного изучения современных тенденций реализации государственных функций, выдвинуты соответствующие научные выводы по этому поводу. Также анализируются содержание, сущность и основные задачи функций государства в новом Узбекистане.

Ключевые слова: государственные функции, государственный механизм, государственный аппарат, политический режим, разделение властей, поддержание правопорядка.

Theory of state and law

УДК:



ORCID:

Mechanisms of implementation of state law enforcement functions in new Uzbekistan

Soburov Hasanjon Shavkatjon o'g'li

Master of Tashkent State Law University

**E-mail: hasanbeksaburov@gmail.com,
+998 33 331 31 92**

efficiency in ensuring social, economic and legal order in the implementation of state functions. On the basis of the study and analysis of the existing literature on the subject, a comprehensive study of modern trends in the implementation of state functions, the relevant scientific conclusions in this regard. Also, the content, essence, main tasks of the state functions in the new Uzbekistan are analyzed.

Annotation

This article is devoted to the implementation of state functions in Uzbekistan and the study of shortcomings and problems in this process. The purpose of the study is to address the shortcomings and problems in this area, to increase the efficiency of government agencies in the implementation of public functions. The research uses a systematic, comparative-legal, problem-oriented, formal legal, logical approach, analysis of the results of practice and current legislation, as well as other methods of scientific knowledge. It analyzes the work done today in Uzbekistan to implement the internal and external function of the state, and provides recommendations and suggestions for further improvement and

Keywords: state functions, state mechanism, state apparatus, political regime, separation of powers, maintenance of law and order.

Ma'lumki, davlat mexanizmi ancha murakkab tushuncha bo'lib, uni quyidagi yondashuvlar asosida tavsiflash mumkin:

1. Davlat mexanizmi tor va keng ma'nolarda tushuniladi. Tor ma'noda davlat mexanizmi - bu davlat hokimiyatining apparati bo'lsa, keng ma'noda esa u jamiyatning siyosiy tizimidir.

2. Davlat mexanizmi an'anaviy tarzda faqat davlat hokimiyatining apparati sifatida tushuniladi.



3. Davlat mexanizmi – davlat apparati, tashkilotlari va muassasalari hamda davlat korxonalari tizimidan iborat bo‘lib, ular vositasida davlat hokimiyati amalga oshiriladi va jamiyat ustidan davlatning rahbarligi ta‘minlanadi.

Davlat mexanizmi turli tuzilmalardan iborat bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davlat apparati;
- davlat muassasa va tashkilotlari;
- davlat korxonalari.

Davlat organlarining davlat huquqiy tartibotni ta‘minlash funksiyalarini amalga oshirishdagi vazifalarining o‘rni juda muhim, asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki, davlatlar o‘z faoliyatlarini amalga oshirishda o‘zlari tomonidan tashkil etilgan davlat apparati, organlari, tashkilotlari va muassasalariga tayanadi va bu organlarning o‘zaro muvozanatini, kelishgan holda ish olib borishini muvofiqlashtirib boradi. Endi esa davlat organi nima ekanligiga to‘xtalib o‘tamiz.

Davlat mexanizmining dastlabki va eng muhim tarkibiy elementi davlat organidir. Davlat organi – davlat funksiyalarini bajarishda qatnashuvchi va buning uchun tegishli hokimiyat

vakolatlariga ega bo‘lgan davlat mexanizmining bo‘g‘inidir.

Mamlakatimizda demokratik yangilanishlar sharoitida davlat o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilashi hamda funksiyalarini to‘laqonli amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinishi mamlakatimizda islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur hujjat islohotlarni yanada kengaytirishda, sohaning taraqqiy etishida muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

Davlatning funksiyasini amalga oshirishning huquqiy asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mtalari va idoralarning qaror va buyruqlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasidagi huquq tizimining manbai vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadigan qonunlar va boshqa qonunosti hujjatlardir.



Jumladan, 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan O'RQ-257-II-sonli "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan O'RQ-162-II-sonli "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan O'RQ-474-I-sonli "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2019-yil 30-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2018-yil 18-oktabrda yangi tahrirda qabul qilingan O'RQ-502-sonli "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2018-yil 13-aprelda qabul qilingan PQ-3666-sonli "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori, 2018-yil 13-aprelda qabul qilingan PF-5415-sonli "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan O'RQ-407-sonli "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan O'RQ-647-sonli "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan O'RQ-682-sonli "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va boshqa ko'plab qaror va farmonlarning qabul qilinishi ham davlat huquqiy tartibotni ta'minlash funksiyasining huquqiy asosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonining qabul qilinishi 5 ta ustuvor yo'nalishda, jumladan, sud-huquq sohasida ham davlatimizning 2017-2021-yillardagi istiqbolli rejalarini belgilab berdi va bugungi kunda ham ushbu rejalar yillik davlat dasturlari asosida amalga oshirilmoqda. 2021-yil 22-23-aprel kunlari bo'lib o'tayotgan "Tashkent Law Spring" II Xalqaro yuridik forumi yurtimizda bugungi kunda va kelgusida sud-huquq sohasining yanada rivojlanishi va samaradorligini oshishida, davlatning huquqiy tartibotini ta'minlashda, sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlashda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishiga ishonamiz. Davlat tashqi funksiyalarini amalga oshirishda, ya'ni, mamalakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatishda ushbu tashqi funksiyalarni



ham tegishli qonun, qaror, memorandum, uchirayotganligi sababli va bugungi konvensiya va boshqalar orqali amalga kundagi globallashuv, pandemiya oshiradi. Bu borada, ayniqsa, 2018-yil 5-sharoitlarini inobatga olib, davlatning aprelda qabul qilingan O'RQ-471-sonli zamonaviy funksiyalarini amalga "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi oshirishning yagona tizimini joriy etish O'zbekiston Respublikasi qonunining uchun quyidagilarni taklif qilaman: ahamiyati katta hisoblanadi.

Bugungi kunda barcha darajadagi davlat funksiyasini amalga oshirishning organlari va tashkilotlari o'z vazifalarini huquqiy shakllari samaradorligini yanada to'laqonli va vijdonan amalga oshirish uchun har bir davlat organi va oshirmayapti. Bu boradagi muammo va tashkilotlarida, shuningdek, ularning kamchiliklar haligacha mavjud. Masalan, o'rta va quyi bo'g'inarida O'zbekiston mamlakatimizdagi bugungi pandemiya Respublikasida qabul qilinayotgan sharoitida davlat huquqiy tartibotini qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlovchi ayrim o'rta va quyi nazorat qiladigan bo'limlar tashkil bo'g'indagi organlar o'z ishiga qilishni va bu bo'limlar to'g'ridan to'g'ri mas'uliyat bilan qaramayapti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va zimmasiga yuklatilgan vazifalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bajarishda sustkashlikka va oldida hisobdor bo'lishi tizimini joriy loqaydsizlikka yo'l qo'ymoqdalar. Bu qilish; boradagi ishlarining samaradorligini - davlat organlarining faoliyati oshirish maqsadida davlat huquqiy samaradorligini yanada kuchaytirish, tartibotini ta'minlovchi o'rta va quyi ayniqsa, bugungi pandemiya sharoitida bo'g'indagi organlarning rahbarlari va kelib chiqib davlat huquqiy tartibotini har bir xodimining ishini tanqidiy ta'minlovchi organlarning hamda xalq baholab, zimmasiga yuklangan vazifalar hokimiyatchiligini ta'minlashning yuzasidan shaxsiy javobgarligini yanada samaradorligini oshirish va ustida nazoratni amalga oshirining samaradorligini yanada oshirishni taklif qilaman. Davlat funksiyalarini amalga oshirishdagi muammo va kamchiliklar bugungi kunda ham ko'plab



tomonidan manzilli, doimiy ishlash tizimini yo'lga qo'yish, jamiyat a'zolarini tarbiyalash, ularda ta'lim, ommaviy axborot vositalari, madaniyat orqali fuqarolik va vatanparvarlik qadriyatlarni shakllantirish;

Huquqiy davlatning yana bir xususiyati - fuqarolarning davlat vazifalarini hal qilishda, davlat - fuqarolik jamiyati funksiyalarini bajarishda keng ishtirok etishidir. Davlat rivojlanishining har bir bosqichida bir qator funksiyalarni bajaradi, davlatning ijtimoiy va siyosiy-huquqiy mohiyati eng aniq va to'liq namoyon bo'ladigan davlat faoliyatining bunday yo'nalishlarini tanlashdan iborat.

Yuridik adabiyotlarda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini ta'minlash va xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat faoliyati turlicha nomlanadi: qonun va tartibni himoya qilish funksiyasi sifatida, inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, qonun va tartibni ta'minlash funksiyasi va boshqalar. Davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlash siyosiy funksiyaga, butun aholining yoki uning qismining huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga - davlatning ijtimoiy funksiyasiga bog'liq. Inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va qonuniylik va huquqiy tartibotni

ta'minlash bo'yicha davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakli huquqni muhofaza qilish deb nomlangan. Ko'pincha davlatning ushbu funksiyasi huquqni muhofaza qilish deb nomlanadi. Davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasi, birinchi navbatda, huquq ob'ektini qonunchilikda birlashtirishda, tergov faoliyati, huquqni muhofaza qilish organlari tizimini o'rnatishda, ularning vakolatlari va faoliyat uslublarini aniqlashda amalga oshiriladi.

Huquqiy davlatda huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirishning boshqa xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- huquqni muhofaza qilish idoralarining yaqin o'zaro aloqasi, shu jumladan. jamiyatning mavjud siyosiy tizimi doirasida yuzaga keladigan fuqarolik jamiyati institutlari bilan ichki ishlar idoralari: davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasining mazmuni shundan iboratki, huquqiy davlatda ta'minlash shaxsning mavjudligi eng yuqori qadriyat deb hisoblanadi va huquqni muhofaza qilish funksiyasiga katta ahamiyat beriladi;

- qonun ustuvorligi rivojlanishining huquqni muhofaza qilish funksiyasining rivojlanishiga bog'liqligi: huquq va fuqarolik jamiyatining rivojlanish



darajasi huquqni muhofaza qilish funksiyasining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi, bu to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir uni amalga oshirish jarayonida davlat qo'yadigan vazifalarning mohiyati, fuqarolarning, ularning birlashmalari va tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish, fuqarolik jamiyati institutlarini va ular bilan o'zaro faoliyat mexanizmlarini mustahkamlash birinchi darajali vazifa bo'lishi kerak;

- huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirish usullari, bu qonun normasida asosan rag'batlantiruvchi xususiyatiga ega (majburlash usullarini qo'llash kamaytiriladi), avvalo fuqarolar va ichki ishlar idoralari xodimlarining yuqori huquqiy madaniyati tufayli;

- huquqni muhofaza qilish funksiyasini jamiyat tomonidan amalga oshirish samaradorligini baholash: qonun ustuvorligida davlat tomonidan huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajarilishini baholash, shuningdek, davlat nazorati bilan ta'minlanishi kerak.

Davlat organlarining faoliyati fuqarolik jamiyati faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Bu davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi ba'zi aloqa nuqtalari ular shakllanishiga hissa qo'shadilar. Davlat huquqni muhofaza qilish organlari va

fuqarolik jamiyati institutlarining faol o'zaro ta'sirisiz huquqni muhofaza qilish funksiyasini samarali amalga oshirish mumkin emas. Bu munosabatlarning yana bir shartni - o'zaro munosabatlarni kerakli darajada ushlab turishga va huquqni muhofaza qilish dasturlarini amalga oshirishga qodir rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligini anglatadi. Biroq, bu davlatni zaiflashtirish yoki uni muvofiqlikdan chiqarib tashlash hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Huquqni muhofaza qilish funksiyasini qonun ustuvorligi bilan amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- uni amalga oshiradigan subyektlarning keng doirasi;

- huquqni muhofaza qilish organlarining yaqin hamkorligi, shu jumladan, ichki ishlar idoralarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan;

- huquqni qo'llash funksiyasini amalga oshirish samaradorligi bilan qonun ustuvorligini rivojlantirishning shartliligi;

- huquqni muhofaza qilish funksiyalarini amalga oshirish usullari;

- jamiyat tomonidan huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirish samaradorligini baholash.



Xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda so'ngi yillarda konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini yanada oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining o'ylayman.

Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuning loyihasida Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan subyektlar qatoriga:

- inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakili;
- inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy markazi;
- Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil;
- fuqarolar va yuridik shaxslar qonun ularning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzmoqda deb hisoblasa hamda sudda ko'rilishi tugallangan muayyan ishda qo'llanilgan bo'lsa va sudga himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi

shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishga haqli ekanligi to'g'risidagi moddalarning kiritilganligi ham konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini yanada oshirish borasidagi keng ko'lamli islohotlarimizning ijobiy natijasi deb

Davlat huquqiy tartibotni ta'minlash funksiyasining amalga oshirish mexanizmini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni taklif qilaman:

- "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqayotganda aniq qilib ma'muriy organlarni ilovada ko'rsatish lozim;
- "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi kodeksini sodda, ravon, xalq tushunadigan tilda aniq va tiniq qilib ishlab chiqish zarur. Hozirgi holatda hamma xohlaganicha sharxlamoqda. Rasmiy sharx esa haligacha mavjud emas. Shuningdek, qonunlarga havola berish amaliyotidan ham voz kechishimiz zarur. Buning oqibatida ko'plab korrupsion holatlar, qonunchiligimizdagi bo'shliqlar va qonunlarimizni "har kim xohlagan tomonga tortishi" shunda yo'q



bo'ladi. Kodeksni yaxlit, to'liq va mukammal, aniq ishlab chiqishimiz zarur deb hisoblayman;

- ushbu sudlarga vijdonli kadrlarni saralab olishning tizimli mexanizmini yo'lga qo'yish. Tuman va shaharlardagi qisqartirilgan yuridik shtatlar oqibatida oliy yuridik ma'lumotli va nomutaxassislar tegishli magistratura mutaxassisligini tamomlab oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgach ularning ishga joylashishida ko'plab muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shunday bo'limlarni tashkil qilsak, aholini ish bilan ta'minlash borasidagi, ayniqsa, yoshlarni (yuridik texnikumlar bitiruvchilari ham ko'pchilikni tashkil qiladi) ish bilan ta'minlash borasidagi ishlarimizning ham samaradorligi oshadi;

- haligacha chekka-chekka qishloqlarimizdagi ayrim aholimiz konstitutsiyaviy huquqlarini deyarli bilishmaydi. Bu bo'limlarning salohiyatli kadrlari "mahallabay" tarzda "Konstitutsiya va inson: bugun va kelajak" mavzusida har oyda aholimizning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish tadbirlarini amalga oshirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisobayman.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Odilqoriyev X.T., Chinibayev X.J. Davlat hokimiyati: mohiyati, funksiyasi va zamonaviy talqini. Monografiya. – T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. B.43.
2. Хропанюк В.Н. Теория государства и права. –М.: Омега-Л, 2015.
3. Общая теория права и государство // Под ред. Лазарева В.В. – М.: Юристь, 2010.
4. Najimov M.K. Davlat funksiyalari. — Toshkent: TDYuU, 2018.— B.25.
5. Исломов З. Общество. Государство. Право (Вопросы теории). – Т.: Адолат, 2001. –С.229.
6. Малько А.В. Субъективное право и законный интерес / Теория государства и права. –М.: Юристь, 2012.
7. Теория государства и права. Учебник / Ред.: В.М.Корельский, В.Д.Перевалов. 2-е изд.,изм. и доп. – М. : НОРМА-ИНФРА-М, 2002. – С.152-153.
8. Теория государства и права. Учебник / Ред.: В.М.Корельский, В.Д.Перевалов. 2-е изд., изм. и доп. – М.: НОРМА-ИНФРА-М, 2002. –С.153.



9. Davlat va huquq nazariyasi. Mualliflar jamoasi. Darslik / prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009. – B.112.

10. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2007. – B.323.

11. Davlat va huquq nazariyasi. Mualliflar jamoasi. Darslik / prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009. –B.130.

12. Адилходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. – Ташкент: ТГЮИ, 2007. – С. 25.

13. Адилходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. – Ташкент: ТГЮИ, 2007. –130 с.

14. Davlat va huquq nazariyasi. Mualliflar jamoasi. Darslik. / prof. X.T. Odilqoriyev tahriri ostida. - Toshkent: Shark, 2009. - B.112.

15. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. - Toshkent: Adolat, 2007. - B.323.



SPORTCHILARNING MUSOBAQAGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI VA MUSOBAQA OLDI HOLATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Fotima Gaziyeva Ergashevna
Mamadaliyev Azamat Mamasidiq
o'g'li**

**P.f.n.Dotsent O'ZMU Psixologiya
magistratura talabasi**

Annotatsiya

Ushbu maqolada sportchilarning musobaqa oldi psixologik tayyorgarligi va musobaqa oldi holatiga ta'sir etuvchi omillar batafsil yoritilgan. Xususan, maqolada sportchining hissiy-irodaviy sohasi, emotsional baraqarorligi, musobaqa oldi hissiy jarayonlar va o'zgaruvchan individual xususiyatlarga to'xtalib o'tilgan

Kalit so'zlar: Musobaqa, psixologik tayyorgarlik, omil, iroda, emotsiya, karakter, emotsional-tanglik, muhit, sportchi, harakat, ko'nikma, idrok qilish.

Аннотации

В этой статье подробно описаны факторы, которые влияют на психологическую подготовку спортсменов перед гонкой и статус перед гонкой. В частности, в статье

рассматриваются эмоционально-волевое поле спортсмена, эмоциональная устойчивость, предсоревновательные эмоциональные процессы и изменение индивидуальных характеристик.

Ключевые слова: соревнование, психологическая подготовка, фактор, воля, эмоция, характер, эмоциональное напряжение, окружающая среда, спортсмен, движение, умение, восприятие.

Annotation

This article details the factors that affect athletes' pre-race psychological preparation and pre-race status. In particular, the article focuses on the athlete's emotional and volitional sphere, emotional stability, pre-race emotional processes and changing individual characteristics.

Keywords: Competition, psychological preparation, factor, will, emotion, character, emotional tension, environment, athlete, movement, skill, perception.

Respublikamizda sportning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilayotganligi hamda buning har



tomonlama mukammal qonuniy va tashkiliy asoslari yaratilganligi tufayli sport talaba yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi, ularni jismoniy hamda ma'nan barkamol etib tayyorlash borasida asosiy omilga aylanib borayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, yangi ta'lim modeli joriy qilingandan keyin, o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga uzluksiz jalb qila oladigan, umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining uzluksiz «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» ommoviy sport musobaqalariga psixologik jihatdan tayyorlashni takomillashtirish. Xuddi shuningdek, Respublikamiz yoshlarining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va sportga jalb etish orqali, Respublika, Osiyo, Jahon va Olimpiada chempionlarini tayyorlash hamda sog'lom turmush tarzini ta'minlash turli illatlarning oldini olish va jismonan sog'lom millatni shakllantirish maqsadida uch bo'g'inli yagona sport tizimi negizida ommoviy sport harakatining milliy modeli ilmiy asosda tuzildi. Har bir xalq, har bir millat eng avvalo farzandlarini sog'lom qilib tarbiyalash, ularning jismoniy yetuk bo'lishi to'g'risida qayg'uradi. Shuning

uchun ham bizning asosiy maqsadimiz «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada-2004» sport musobaqalariga psixologik jihatdan tayyorlashdan iboratdir. Sport musobaqalarida yaxshi natijalarga erishish uchun sportchi avvalo musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Tayyorgarliklardan asosiysi musobaqa oldi jarayonidagi ruhiy holatidir. Chunki, musobaqa oldi holat sportchining natijasi qanday bo'lishini belgilovchi psixologik holat sanaladi. Sport to'g'risidagi ilmiy, siyosiy adabiyotlarni tahlil qilish va tajribali murabbiylarning ish uslublarini kuzatish hamda sportchilarning musobaqadan oldingi, musobaqa jarayoni va sport musobaqalaridan keyingi psixologik holatini quyidagicha qismlarga ajratib o'rganilgan (to'p bilan bog'liq musobaqalarda).

1. Sportchi musobaqadan oldin ichki his-to'yg'ularini qattiq nazorat qilgan holda diqqatini tashqarida bo'layotgan xodisaga yo'naltirishiva fazoni idrok qilishi.
2. Sport jismoniy mashg'uloti jarayonida kuchli markazlashgan diqqat bilan to'pni nishonga urish holatini o'rganish orientovka refleksini shakllantirish.
3. Sport mashg'uloti jarayonida o'yinchi to'pni jamoadagi o'z jamoadoshiga to'g'ri uzatish bilan bir vaqtning o'zida



raqiblarning o'yin joylarini almashtirib turgan harakatlarini diqqat bilan kuzatib borishi, ularning harakatiga baho berish.

4. Sport musobaqasi jarayonida sportchi kuchli markazlashgan diqqat bilan to'pni nishonga urish holatini o'rganish.

Sportchining musobaqa paytida juda nozik diqqat xususiyatlari ham murakkablashib ketadi. Masalan, gollar 11 bet o'yinini endi o'rganayotgan o'yinchida birinchi navbatda katta hajmdagi tashqi markazlashgan diqqatning yaxshi rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki bu ko'rish turi, o'yinchidan bir vaqtning o'zida to'pni tushiradigan oysimon chuqurchaning uzoq va yaqinligini, shamolning yo'nalishini, qarshiligini, havoning zichligini, sportchi o'zining jismoniy kuchini inobatga olishni talab etadi.

Sportchining musobaqa oldi hayajonlanishini o'rgangan psixolog olim A.S.Puni uning uch xil holatini aniqlab beradi. 1) sport oldidagi jonsaraklik (talvasa) holati, 2) sport oldidagi loqaydlik holati, 3) jangovor tayyorgarlik holati. Xuddi shuningdek, o'quvchilarning jismoniy tarbiyaga bo'lgan munosabati predmet va dars sifatlarida har xildir. Yil davomida ko'pchilik o'quvchilarda jismoniy tarbiyaga predmet sifatida bo'lgan munosabatlari yuqori darajada, dars sifatida esa kichik sinf o'quvchilarning

yuqori sinflarga borgan sari qiziqish kamayib boradi degan tushunchasi beradi. Y.Masharipov «O'quvchilarni jismoniy va axloqiy tarbiyalashda sportning ahamiyati» nomli maqolasida o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, har bir o'quvchining jismoniy rivojlanishi, ijtimoiy muhit, sport faoliyati va musobaqalari ta'siri bilan ta'lim va tarbiya jarayonlarida o'zgarib boradi degan tushunchani beradi. Sportchining musobaqa oldi holatiga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud. Ular jumlasiga, ijtimoiy, psixologik, fiziologik, siyosiy va iqtisodiy omillar kiradi. Ijtimoiy omillarga turmushdagi ijtimoiy muhitdagi ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Muhit bu – bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqea va hodisalar kompleksidir. Bular: tabiiy muhit (geografik, ekologik) ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat) oila muhiti va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Muhitdagi bir qator omillar sportchi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik omillarga sportchining psixik jarayonlaridagi barcha bilishga oid tomonlarini kiritish mumkin. Siyosiy omilga davlat



tomonidan yaratilgan sharoitni qandayligida bo'lsa, iqtisodiy omil esa musobaqa oldi holatidagi va ungacha bo'lgan iqtisodiy ta'minoti nazarda tutiladi. Sportchini musobaqa oldi holatiga ta'sir etuvchi omillar ijobiy ta'sir etishida psixologik tayyorgarlikning ahamiyati katta. Sportchini hayotga yoki biror faoliyat sohasiga tayyorlash hayotning o'zi kabi rang-barang, keng qamrovli, murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, turli usullar, vositalar yordamida amalga oshiriladi. Sport amaliyotida bo'lajak aniq musobaqalarga psixologik jihatdan alohida tayyorgarlik ko'rgan sportchilarning ko'pincha g'alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, sport mutaxassislari va murabbiylar sportchilarni musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ulardan sportchining musobaqaga ruhan tayyorlash bosqichlarini nazariy va amaliy jihatdan puxta bilishlari talab qilinadi. Sport turlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlashni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin: 1) sportchilarga raqibi va bo'lajak musobaqalarning shart-sharoitlari haqida yetarlicha ma'lumotlar berib borish; 2) sport mashg'ulotlari va musobaqalar haqida

olingan ma'lumotlarni tekshirib ko'rish, ishonchlilik darajasini aniqlash, musobaqaning boshlanish vaqti yoki kutilmagan o'zgarishlarning alohida sportchilar yoki jamoaga g'alaba keltirish imkoniyatlarini o'rganish; 3) sportchilarga musobaqada qatnashishdan ko'zlangan maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishlari haqida ko'rsatmalar berish; 4) sportchining musobaqaga ishtirok etish sababi, mohiyati va aniq maqsadini aniqlash, g'alabaga erishishning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish; 5) sportchining bo'lajak musobaqa jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, aqliy sifatlarini o'stirishga e'tibor berish, musobaqaga taktik va texnik jihatdan ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish; 6) sportchini musobaqaga ruhan tayyorlash maqsadida kutilmagan maxsus to'siqlar vujudga keltirish, ularda bu to'siqlar va qiyinchiliklarni yenga oladigan malaka va ko'nikmalar hosil qilish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar uyushtirish; 7) sportchiga musobaqa jarayonida paydo bo'ladigan ichki ruhiy holatni boshqarish uslublaridan foydalanishni o'rgatish; 8) sportchini musobaqa boshlanishida ruhiy ko'tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish hamda musobaqa jarayonida yanada faol harakat qilishga erishishga undash. Ijtimoiy-psixologik, biologik-



fiziologik omillarni qanday tarzda sportchiga ta'sir etishi yuqorida keltirilgan psixologik tayyorgarlikni qanday kechishini asosiy ta'minlovchi aspektlari sanaladi. Sport musobaqalarida hissiyotning roli ko'p jihatdan sportchining ustun bilish tomoni sanaladi. Sportchining musobaqa oldi holatiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bu emotsional tanglikni yuzaga keltiruvchi omillar hisoblanadi. Sportchini asosiy harakatlardan chalg'ituvchi kuchli salbiy his – tuyg'ular bilan bog'liq fikrlardir. Bu fikrlar sportchi ongida yetakchi bo'lib ular asosiy harakatlarni buzilishiga olib keladi. Sportchi musobaqalar davomida quyidagilarni o'z boshidan kechiradi.:

1. O'z raqibining darajasi yuqoriligidan qo'rqish.
2. Hakamlarni noto'g'ri harakatlar to'g'risiga fikrlar.
3. Yutqazib qo'yishdan qo'rqish.
4. Tomoshobinlarning munosabati bilan bog'liq fikrlar. Ruhiiy to'siqlarning mexinizmini bosh miya katta yarim sharlari qobig'ida kuchli salbiy hissiyotlarning paydo bo'lishi tashkil etadi. Ruhiiy to'siqlarni yengish uchun sportchi qilish zarur bo'lgan holat nimadan iborat. Turli xil shart-sharoitlar va holatlarda musobaqa kurashi olib borish tajribasiga ega bo'lish musobaqa davrida e'tiborni chalg'ituvchi fikrlarni ongli ravishda yenga olish, e'tiborni

faqatgina asosiy harakatlarni bajarishga qaratish. Barcha sportchilar bu to'siqlarga duch keladilar. Stress holatlarini vujudga keltiruvchi omillar. Olimlar emotsional tig'izlik-keskinlikni keltirib chiqaruvchi 10 ta muhim omilni ko'rsatib berishadiki, bu sportchida ruhiy tanglikni vujudga keltiradi: 1. Startdagi muvaffaqiyatsizlik. 2. Mashqlar va avvalgi musobaqalarda ko'rsatilgan past natijalar. 3. Trener bilan komandadagi o'rtoqlari yoki oiladagi nizolar. 4. Jismoniy jihatdan o'zini yomon his qilish. 5. Hakamlarning noxolisligi (g'irromligi). 6. Stratning kechiktirilishi. 7. Musobaqa vaqtidagi tanbehlar. 8. Ortiqcha hayajonlanish. 9. Musobaqa oldidan yoki bir necha kun yaxshi uxlamaslik. 10. Musobaqa o'tkaziladigan joyning yomon jihozlanganligi. Hatto, musobaqadan oldin emotsional hayajonlanish dinamikasi ham natijalar qanday bo'lishini belgilovchi omil sanaladi. Psixologiyada, sport psixologiyasida, sport meditsinasida, sport pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida A.T.Puni, O.A.Chernikovalar aniqlagan start oldidan emotsional hayajonlanishning uchta turi umumiy qabul qilingan: jangovar tayyorlik, start oldidan sarosimaga tushish va start payti apatiyasi, keyinchalik ular boshqa mualliflar tomonidan ko'p marta



tasvirlab berilgan va tasdiqlangan. Agar sportchi musobaqalarga yetarli tayyorgarlik ko'rmaganligi ularni ongida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan; gimnastikachi qaysidir kombinatsiyani to'g'ri bajarish ustida shug'ullanmoqda. U razmenka paytida bir qator noaniq harakatlarga yo'l qo'yadi. Natijada sportchini asab faoliyatida ikki dinamik steriotip paydo bo'ladi: a) harakatni texnik jixatdan to'g'ri bajarish b) texnik xatolarni ko'pligi Bu ikki qarama – qarshilik sportchi xotirasida birgalikda kechadi. Musobaqa davrida sportchi u yoki bu qiyin xolatlariga tushganda, u avtomatik ravishda yengil steriotipdan foydalanadi va harakatlarni texnik xolatlar bilan bajaradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki har bir mashq to'g'ri, texnik qoidalarga amal qilgan holda bajarilishi kerak. Musobaqalar va o'quv yig'inlarini rejalashtirishni ham albatta tashkiliy ish deb hisoblash kerak. Bu har qanday sport ishida eng mas'uliyatli jarayondir. Musobaqalarni shunday rejalashtirish kerakki, ular sport mashg'ulotlari o'tkaziladigan muddatlarga albatta mos tushishi, o'z amaliyotiga qarab tadrijiy ravishda o'tkazilsin, shuningdek, eng yirik musobaqalarning qanday sharoitda (iqlim, joyning dengiz sathidan qancha balandligi, vaqt mintaqasi va boshqa) o'tkazilishi ham hisobga olinishi kerak. Sportchilarni musobaqaga ruhan

tayyorlashda ularning musobaqaga ishtirok etish motivlari, ehtiyojlari va maqsadini aniqlash juda muhim. Chunki, motivlar, ehtitojlar va konkret maqsadlar sportchi ruhiyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omildir. Bu omillar sportchining keying faoliyatida muhim aspektlar hisoblanadi. Shunday qilib sportchining musobaqa oldi holatiga ijtimoiy-psixologik, biologik-fiziologik hamda emotsional-irodaviy sohalarga doir omillar ta'sir ko'rsatadi va musobaqa natijasi qanday bo'lishini ta'minlovchi, belgilovchi asosiy psixologik kategoriyalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.X.X.Jabborov, O.R.Avezov, N.Z.Jumaev. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma Durdona n. Buxoro 2014y.216-220 bet
- 2.Masharipov.Y. Sport psixologiyasi.O'zbekiston faylasuflari milliy jamoati n Toshkent 2010.113-115 bet
3. Shabbozova.D.R. Sport psixologiyasi. Ma'ruza matni. Termiz 2008y 33-36 bet
4. www.kitobxon.com 5. www.pedagog.uz 6. www.bilim.uz



**PERSPECTIVES OF MODULE
SYSTEM TRAINING IN
DENTISTRY**

**Ташкентский государственный
стоматологический институт**

**Кафедра госпитальной
ортопедической стоматологии**

**Преимущество модульного
обучение в стоматологии**

**Сафаров М.Т., Азизова Ш.И.,
Меликузиев К.К.**

**Стоматологияда модул таълим
тизимининг афзалликлари**

**Сафаров М.Т., Азизова Ш.И.,
Меликузиев К.К.**

**Safarov M.T., Azizova Sh.I.,
Melikuziyev K.K.**

Аннотация

Проанализированы актуальные методы преподавания, которые необходимо внедрить в систему работы высших учебных заведений. Описаны положительные и отрицательные стороны интерактивных методов обучения. Представлен алгоритм проведения интерактивных форм обучения. Определена роль интерактивного обучения в будущем.

Изох

Маколада актуал дарс бериш анализи утказилиб, Олий укув муассасалари системасида жорий қилиш кераклиги курсатилган. Интерактив таълим методларининг ижобий ва салбий томонлари ёритилган. Таълимнинг интерактив шаклини утказиш алгоритми ифодаланган. Интерактив таълимнинг келажакдаги роли аниқланган.

Annotation

As a result of the research the author makes a conclusion about the need to change the system and teaching style that suggests use of innovative methods to address these issues in a modern higher education. Presented views and benefits of interactive methods as a form of innovative learning. Presented the algorithm for the interactive methods and presented peculiarities of its main part. Described the features of interactive education forms.

Ключевые слова

Модульное обучение, модуль - целевой функциональный узел, коммуникативные умения, самоконтроль, банк информации.

Калит суз



Модул таълим тизими, модул - максадли функционал занжир, мулоқот салоҳияти, уз – узини бошқариш, маълумотлар банки.

Key words

Module system training, communicative skills, selfcontrol, bank of information.

Принципы организации подготовки студента в высшем медицинском заведении включают изучение большого количества теоретических и клинических дисциплин, однако формирование практических навыков уделяется мало внимания. Одним из недостатков традиционного обучения является огромный разрыв между теоретическими знаниями студентов и опытом профессиональной деятельности. Возникла необходимость активных методов обучения. Современная педагогика приблизилась к тому моменту, когда возникла потребность в современных технологиях, которые могут обеспечить развитие личности каждого студента и его активность. В настоящее время считается, что для достижения более высокого качества обучения в высшей медицинской школе можно использовать кредитно-модульную систему. Смысл сочетания «модульное обучение» связан с

международным словом «модуль», основное значение которого – функциональный узел. Идеи модульного обучения активно разрабатывались такими учеными-педагогами, как П.А. Юцявичене, М.А. Чошанов, М.В. Кларин, С.Я. Батышев,

Таким образом, в соответствии с современными представлениями под термином «модульное обучение» понимают технологию обучения студентов, основными средствами которого являются модуль и модульная программа. Цель модульного обучения в создании наиболее благоприятных условий развития личности путем обеспечения гибкости содержания обучения, приспособления к индивидуальным потребностям личности и уровню ее базовой подготовки посредством организации учебно-познавательной деятельности по индивидуальной учебной программе.

От программированного обучения модульное переняло способы управления учебным процессом. Причем модульное обучение позволяет преодолеть фрагментарность программированного путем создания целостной наглядной программы и проблемной подачи



содержания в модуле, позаимствованной из проблемного обучения. Модульное обучение характеризуется адаптивностью, реализация которой отражается в специфических способах организации индивидуально-дифференцированного обучения. Такая проблема, как большой удельный вес самостоятельной работы обучающихся и недостаток делового общения, в модульном обучении удачно компенсируется нетрадиционными формами и методами активного обучения, которые позволяют активизировать познавательную деятельность обучающихся, развивать в них любознательность и формировать коммуникативные навыки.

Модуль - целевой функциональный узел, учебное содержание и технология овладения которым объединены в систему высокого уровня целостности (рис 1).

Рис.1. Схема частей модуля

Модуль включает в себя:

- законченный блок информации;
- целевую программу деятельности ученика;

- рекомендации учителя по её успешной реализации

Цель модуля как структурной единицы рабочей учебной программы изучаемой дисциплины заключается в создании условия для усвоения знаний, умений и навыков, а также для формирования профессиональных личностных качеств, необходимых для будущей работы студентов уже в качестве врачей. В модульной программе предусмотрены задания, выполнение которых требует парной, групповой, коллективной форм организации деятельности, способствующей развитию коммуникативных умений.

Разнообразие учебных элементов, предлагаемых студенту на каждом модульном занятии. Каждый вид учебных элементов призван активизировать определённые мыслительные механизмы память восприятие, мышление и т.д. использование табличных, иллюстративных, видео позволяет построить зрительное представление об объекте или процессе. При модульном обучении наиболее часто применяется текст как носитель учебной информации. Отличительной особенностью модули является строгая дозировка текстового объёма.



Модуль - самостоятельная структурная единица. Начиная работать с новым модулем, нужно проводить входной контроль знаний и умений студента, чтобы иметь информацию об уровне их готовности к работе. При необходимости можно провести соответствующую коррекцию знаний. Важно также осуществление текущего и промежуточного контроля после изучения каждого учебного элемента (самоконтроль, взаимоконтроль, сверка с образцом). Эти виды контроля позволяют выявить пробелы в усвоении знаний и немедленно устранить их. После завершения работы с модулем осуществляется выходной контроль, который должен показать уровень усвоения всего модуля и тоже предполагает соответствующую доработку.

Рис.2. Алгоритм составления модульного занятия

Алгоритм составления модуля (рис. 2):

определение места модульного занятия в теме;

формулировка темы занятия;

определение и формулировка цели занятия (в данном случае эта цель интегрирующая) и конечных результатов обучения;

подбор необходимого фактического материала;

отбор методов и форм преподавания и контроля;

определение способов учебной деятельности студента;

составление модуля данного занятия;

подготовка необходимого количества копий текста урока (разработка модульного урока должна быть у каждого студента).

Принцип адаптивности отражается в таксономии дидактических целей, в проектировании модуля преемственности, в профессионально-прикладной направленности учебных элементов модулей, в вариативности модулей. Этот принцип конкретизируется следующими процедурами:

- спроектировать содержание модуля преемственности соответствующих уровней образования;

- определить область профессионально-прикладных проблем, разрешение которых



возможно в рамках рассматриваемой дисциплины, и отобрать содержание для модулей, направленных на обеспечение профильной дифференциации;

- дифференцировать содержание модулей по объёму в зависимости от специальности и специализации (полный, сокращенный, ознакомительный курсы);
дифференцировать по уровню сложности комплект задач, входящих в модуль.

Теоретический анализ модульного обучения позволил выделить следующие его особенности:

- модульное обучение обеспечивает обязательную проработку каждого компонента дидактической системы и наглядное их представление в модульной программе и модулях;

- модульное обучение предполагает четкую структуризацию содержания обучения, последовательное изложение теоретического материала, обеспечение учебного процесса методическим материалом и системой оценки и контроля усвоения знаний, позволяющей корректировать процесс обучения;

- модульное обучение предусматривает вариативность обучения, адаптацию учебного процесса к индивидуальным возможностям и запросам обучающихся

Модули могут являться основой для самообразования, основой для работы в малых группах. Кроме того, они могут быть использованы руководителями среднего звена для проведения занятий с сотрудниками при подготовке их к новым ролям, должностям или новым обязанностям.

Основные недостатки модульного обучения заключаются в следующее:

1) трудоемкость изготовления модулей и подготовки к проведению занятий;

2) внедрение модульного обучения требует значительной организационной перестройки традиционного учебного процесса:

- подготовки соответствующей учебно-материальной базы;

- изменения планирования работы преподавателей;

- оптимального состава (в количественном отношении)



студенческих групп и потоков с учетом возможностей учебно-материальной базы; разработки необходимого методического обеспечения; организации контрольных проверок знаний;

3) процесс внедрения модульного обучения должен быть обеспечен соответствующей методической литературой, которая централизованно практически не поставляется, поэтому вся методическая работа по обеспечению каждого конкретного модуля целиком и полностью лежит на плечах преподавателя. Однако сочетание традиционного и инновационного подхода к преподаванию позволяет сглаживать многие недостатки педагогического процесса. Таким образом, внедрение модульного обучения в стоматологии решит проблему развития у учащихся навыков самостоятельности, что является немаловажным для врача.

Обобщая анализ модульного обучения, мы можем определить его как основанное на деятельностном подходе и принципе сознательности обучения (осознается программа обучения и собственная траектория учения), характеризующееся замкнутым типом управления

благодаря модульной программе и модулям и являющееся высокотехнологичным.

Литература

1. Голиш Л.В, Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойихалаштириш ва режалаштириш: Укув услубий кўлланма/ Таълимда инновацион технология серияси.- Тошкент, 2010.-149 б.
2. Голиш Л.В., Ходиев Б. Мустакил укув фаолиятини ташкил этиш усул ва воситалари (биринчи боскич талабаларига ёрдам тарикасида): : Ўқув-услубий кўлланма.-Тошкент: ТДИУ, 2010.-97б.
3. Осмоловская И.М. Инновации и педагогическая практика // Народное образование.- 2010.-№6.-С. 182-188.
4. Разработка и внедрение модульной технологии обучения в образовательном процессе по специальностям «Лечебное дело», «Стоматология»: Метод. рекомендации.-М.: Медицина для всех, 2007.-44 с.
5. Токаева А.Б. Современные технологии преподавания / Успехи соврем. естествознания.- 2014. №12/2.-С. 166-166.



6. Хохлов А.Л., Ершова Т.С., Русина Н.А. Новые технологии образовательного процесса в преддверии Государственного образовательного стандарта высшего профессионального образования нового поколения // Пед. науки.-2008.- №2.

7. Борисова Н.В., Гудков Н.А., Бугрин В.П., Кузов В.Б. Использование модульной системы обучения в профессиональной подготовке кадров //Сборник “Персонал” 2010 № 1. с. 24-30



STOMATOLOGIYADA ZAMONAVIY TA'LIM

Xabilov Nig'mon Luqmonovich

professor

Mirhayotov Mirodil Mirvali o'g'li

asistent

Ruzimbetov Hayot Bazorboy o'g'li

Annotatsiya: mazkur maqolada — stomatologiya fanlari ta'lim yo'nalishi va mutahassisliklari umumkasbiy va maxsus fanlarda pedagogik faoliyatga nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'limtarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: stomatologiya, pedagogik ta'lim, ta'limning texnik yoki tashkiliy shakllari, masofaviy ta'lim, masofali o'qitish, pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalar

Stomatologiya fani doimo rivojlanishda bo'lganligi sababli, tasavvurlar yangilanib turadi. Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi reformalar bilan bog'liq muammoning zo'rayishi, zamonaviy o'quv muassasalarida o'quv jarayonining oshiruvchi sifatida

zamonaviy pedagogik ilmda bilim va texnologiyalarni aktallashtirishni talab qilmoqda.

Stomatologiya fani bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta'lim chet el tajribalarini o'rganish uni ilmiy tushunish ilg'or g'oyalardan milliy ta'lim amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga milliy g'oyalar va an'analarda qurilgan ta'lim har doim milliy rivojlanish masalalariga javob berishini esda tutish kerak. Bunday ta'limning texnik yoki tashkiliy shakllari turlicha bo'lishi mumkin ba'zan umuman odatdan tashqari tasavvur qilib bo'lmagan ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Ammo bizning chuqur ishonch hosil qilishimizga oxir-oqibat odamning ta'lim olishi natijasi faqat o'quv faoliyati shakllari shu jumladan masofaviy ta'lim bilan belgilanmaydi balki o'quv jarayoni quriladigan tayanch psixologik - pedagogik mazmunga ham bog'liq bo'ladi. Aynan mana shu mazmunlarini



izlab topish milliy mentalitetga nisbatan masofali ta'lim asoslarini ishlab chiqish boshlang'ich vazifasi hisoblanadi.

Bu narsa turli ramziy amaliyotlar ekranlarida aks ettirilib namoyon bo'ladi. Fikr sezgilari va harakatlarida moddiylashadi. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo'nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lim olish usulidan biri hisoblangan masofali ta'lim mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta'limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o'qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta'limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta'lim tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak.

Chet el ta'lim tizimlarida masofali o'qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o'rganishda ta'lim muassalarida masofali o'qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta'limni didaktik ta'minlash vositalarini tahlil qilishga e'tiborni qaratish zarur. Solishtirish metodi mohiyatini xitoy olimi X. Shu va N. Chjoular to'la ochib beradilar: "Agarda millat vaqt o'qida

o'zining turgan joyini tarixiy yoki "vertikal" solishtirishlar bilan aniqlay olsa shunda u millatlararo yoki "gorizontal" solishtirishlar yordamida dunyodagi o'z o'rni to'g'risida yaxshiroq tasavvurga ega bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda "vertikal" solishtirish ishonch uyg'otadi "gorizontal" esa realist bo'lishga majbur etadi".

Masofali ta'lim - masofada turib o'quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta'lim muhiti yordamida ta'lim xizmatlari to'plamidan iborat. Masofali ta'lim axborot - ta'lim muhiti foydalanuvchilar ta'lim olish ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ma'lumotlar uzatish vositalari axborot resurslari o'zaro aloqalar protokollari apparat - dasturli va tashkiliy-metodik ta'minotlar sistemali - tashkiliy to'plamidan iborat.

Stomatologiya fanini ta'lim jarayonida tinglovchilarni faollashtirish, fan va texnika yangiliklarini o'rgatish va amaliyotga joriy etishga o'rgatish, izlanuvchan yoshlarni tarbiyalash talabi ilgari surilmoqda. Mazkur dastur maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi —Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini



tubdan yaxshilish chora- 20 tadbirlari to'g'risidagi —Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 278-sonli qarorlari, hamda “Ta'lim to'g'risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ga muvofiq pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasi va sifatini oshirish, uning o'quv-metodik va axborot ta'minotini mustahkamlash, shuningdek, respublika talim muassasalarini yuqori malakali tibbiy-pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jean M. Bruch Nathaniel S. Treister/Clinical Oral Medicine and Pathology.2016,USA.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. – T.: 2010.
3. L.V.Golish, B. XodiyevMustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari: O'quvuslubiy qo'llanma – T.: TDIU, 2010.



GEOGRAFIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL QILISH

Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna

*Nukus shahri Ibroyim Yusupov
nomidagi xorijiy tillarni o'qitishga
ixtisoslashtirilgan maktab-internati
geografiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Umumta'lim maktablarida geografiya darslarini tashkil qilishda o'quvchilarni jalb qiluvchi metodlar, texnologiyalarni qo'llash, dars samaradorligini oshirishda pedagogic yondashuvlardan foydalanish to'g'risida fikr yuritilgan.

Respublikamizning mustaqillikka erishish geografiya ta'limida ham keskin o'zgarishlar yasadi. Maktabda geografiya fanini o'qitish mazmuni tubdan o'zgardi va boyidi. Uni chuqur o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qachonki o'quvchi o'zi yashab turgan o'lka geografiyasini mukammal bilsagina, boshqa o'lkalar geografiyasini bilishga qiziqishi ortadi. Bugungi kunda barcha sohalarga innovatsion g'oyalar, fikrlar kirib kelmoqda. Bu jarayon ta'lim sohasini ham chetlab o'tmagan holda, barcha fanlar tizimida yangiliklar, dars o'tishning yangi usullari, yangi pedagogik texnologiyalar orqali darsning sifati, mazmuni va jozibadorligi

o'quvchini ham o'ziga jalb etmoqda. Hozirda mamlakatimizning barcha maktablarida o'z ish faoliyatini olib borayotgan ustoz va murabbiylar zamonaviy o'qitish usullarini bosqichma-bosqich yaratib bormoqdalar, shuningdek, geografiya fanida ham hozirda darslarni tashkil etishda turli xil metodlar yaratilmoqda, lekin shu ham ta'kidlash joizki, geografiya fanini boshqa fanlar bilan taqqoslaganda juda ham ortda ekanligi sezilib turibdi, bunga birgina bizning fanimizga kirib kelayotgan yangi inovatsion metodlar boshqa yetakchi fanlarda ancha oldin ildamlab ketgani bunga yorqin misol bo'la oladi. Geografiya o'qituvchisi 45 daqiqalik dars jarayonida ana'naviy dars metodlaridan foydalanib, shu bilan birga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, turli xil pedagogik o'yinlarni, ya'ni ana'naviy dars metodlari bilan birga yangi dars o'tish usullarini uyg'unlikda dars jarayoniga moslashtira olishi zarur.

O'qituvchilarning ko'p yillik tajriba va kuzatishlaridan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelinganligi ma'lum. Bunday usul o'quvchilarga mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta



imkon bermasligi mumkin. Endilikda fan ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, etibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Pedagogolimlarning ko'p yillar davomida ta'lim tizimida: Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz savollarga javob izlash bilan bir qatorda Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? Degan savoliga ham javob qidirdilar. Bunday fikrni tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganing asosiy sababi quyidagilar.

1 Pedagogik texnologiyalardan foydalanish shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilganligida.

2 Pedagogik texnologiyalar o'quv tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini yaratadi.

3 Pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim tarbiya jarayoning maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undashadi.

"Musbat, manfiy, qiziqarli (MMQ)" metodi o'quvchilarni geografiya darslarida mavzuning mavjud vaziyatini barcha detallarini puxta o'rganish asosida xulosa chiqarishga odatlantirish orqali ongni boyitish, tafakkurni kengaytirishga xizmat qiladi. Geografiya ta'lim jarayonida MMQ metodini qo'llash o'quvchilarning ma'lum voqelik, hodisa yoki jarayonning barcha jihatlariga e'tibor qaratish, ularni salbiy jihatlarini baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga doir ko'nikma, malakalarini rivojlantirishda samarali sanaladi. Bunda asosiy e'tibor mavjud vaziyatning barcha ijobiy jihatlarini inobatga olishga qaratiladi.

O'rganilayotgan vaziyat yuzasidan xulosa chiqarish, qaror qabyl qilish faqat u batafsil o'rganib chiqilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Quyi Amudaryo mavzusi yuzasidan bilimlarni o'zlashtirishda MMQ metodi qo'llanilganda o'quvchining fikrlash samaradorligi bir necha marta oshadi.

Ko'p hollarda bir qarorga kelishni talab



qiladigan vaziyatlarda ham ushbu metodni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kundagi jadal rivojlanib borayotgan fanlar tizimi va kuchli raqobat bo'layotgan bir davrda geografiya fanining o'z o'rnini saqlab qolishi geografiya ustozlari va murabbiylariga bog'liq bo'lib qolganligi, ustozlarimizning yangi dars o'tish usullari, yangi metodik loyihalarni o'rganib, geografiya faniga qo'llay olishi fanimizning eng katta yutuqlaridan birib bo'lib qoladi degan umiddaman, zero o'quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan yangi pedagogik texnologiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim jarayonidagi yangi imkoniyatlar eshigi vazifasini ham o'taydi.

Adabiyotlar:

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuidashev
Ta'lim va tarbiyada innovasion pedagogic tehnalogiyalar. Toshkent 2017y.
2. K Yuldoshev . O'qituvchi kitobo.
Metodik qo'llanma. Toshkent 2000y.



PAST TEMPERATURALI YARIMO'TKAZGICH MODDALARNING FIZIK XOSSALARI

**Farg'ona Jamoat Salomatligi tibbiyot
instituti "Biofizika va axborot
texnologiyalari" kafedrası biofizika
fani o'qituvchisi**

Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li

**Farg'ona Jamoat Salomatligi tibbiyot
instituti "Biotibbiyot Muhandisligi"
yo'nalishi 2-kurs talabasi**

**Mamasiddiqova Shaxrizoda
Muhammadsiddiq qizi**

Annotatsiya: Termoelektrik tok manbalarini olishda, yarim o'tkazgich materiallarni inert gaz bosimi (argon) ostida ochiq tigelda olish texnologiyasi va uning muammolarining dolzarb masalalarini nazariy-amaliy va eksperimental bajarish vazifasi, termoelektrik materiallar Bi-Te-Se asosidagi qotishmalarni eksperimental qurilma yordamida olish texnologiyasi, tok manbalarini yaratishdagi issiqlik energiyasini elektr energiyaga aylantirish uchun hosil qilinayotgan termoo'zgartirgichlarning no'ananaviy uslublari termoelektrik sohasining bugungi kunda energiya inqirozligini oldini olishdek muhim vazifalaridan biri

bo'lib, bu muammolarni hal etishda butun dunyo olimlari ilmiy tadqiqot ishlariga bel bog'laganlar. Albatta bu borada past temperaturali yarimo'tkazgichlarning o'rni beqiyos, shu sababdan past temperaturali yarimo'tkazgichli materiallarning fizik xossalari uzoq va chuqur tekshirishlar ba'zi xulosalarga olib keldi. Hozirgi maqola aynan shu haqda.

Kalit so'zlar: yarimo'tkazgichlar, vismut, tellur, selen, surma, elektrik o'tkazuvchanlik, ampula, kvarts tigel, konteyner, allotropik shakl, nigrat kislotasi, birikmalar, organik shisha, dielektriklar, asbobsozlik, radiotexnika va mikroelektronika, elektr qarshilik, temperatura, vodorod stibin, donor kirishma, kimyoviy xossalari, oksidlanish.

Yarim o'tkazgichlar texnologiyasida ko'p sondagi elementlar ishlatiladi. Ularning ba'zilari faqat legirolovchi kirishmalar bo'lsa, boshqalari bir vaqtda Yarimo'tkazgich birikmalar tarkiblovchilari va elementar (sodda) Yarimo'tkazgichlarda legirolovchi kirishmalar vazifasini o'taydi.

Vismut (Bi) bizning ilmiy tadqiqot ishlarimizda foydalaniladigan asosiy element sanaladi. Vismut tabiatda erkin holda (Bi_2O_3) ham, birikma holda



Bi₂S₃ ham uchraydi. Erkin holdagi vismut zichligi 9.8 g/sm³, suyuqlanish temperaturasi 271.3 °C bo'lgan yaltiroq, mo'rt, qizg'ish oq metallardir. U oson suyuqlanuvchi qotishmalar tarkibiga kiradi.

Vismut havoda odatdagi temperaturada oksidlanmaydi, ammo qattiq qizdirilganda tamoman yonib, vismut (III)-oksidini hosil qiladi. Vismutni erituvchi modda sifatida nigrat kislota ishlatiladi.

Selen (Se) tabiatda asosan oltingugurtning metallar bilan hosil qilgan tabiiy birikmalariga qo'shilgan holda uchraydi. Temir kolchedani ko'chirilganda selen sul'fat kislota zavodlarining changdan tozalash kameralaridan to'planib qoladi. Bu chang selen ajratib olinadigan asosiy manbadir. Selen erkin holda, xuddi oltingugurtga o'xshash, bir nechta allotropik shakl o'zgarishlari hosil qiladi. Ulardan biri kristallik selendir: uning elektr o'tkazuvchanligi nihoyatda kichik, ammo u yoritilganda, elektr o'tkazuvchanligi juda ortib ketadi.

Tellur (Te) Yarimo'tkazgich birikmalarni legirlash uchun ishlatiladigan asosiy donor kirishmalardir. uning kadmiy bilan birikmasi SdTe yarimo'tkazgichdir. Tellurning o'zi elementar

yarimo'tkazgichdir. Tellur ishqorlarda eriydi, unga azot va oltingugurt kislotasi ta'sir etadi, ammo u suyuqlantirilgan tuz kislotasida tez eriydi. Qattiq tellur suv bilan 100° C dan yuqorida ta'sirlashadi, u kukun ko'rinishida (havoda, xona temperaturasida) oksidlanib, TeO₃ oksid hosil qiladi. Bu mustahkam birikmalar Tellurga nisbatan kam uchuvchan. Shuning uchun Tellurni oksidlardan tozalashda 500-600° C da vodorod oqimi bilan tiklash usuli qo'llaniladi.

Suyuq Tellur uncha ta'sirchan emas, shuning uchun suyultirishda grafit va kvarts idishlardan foydalaniladi.

Surma(Sb) Yarimo'tkazgichlar texnologiyasida donor krishma va shuningdek, birikmalar tarkiblovchisi sifatida ishlatiladi.

Surmaning kimyoviy xossalari arseniy (As) nikiga o'xshaydi. U oddiy temperaturalarda suvga va havoga nisbatan barqaror. Havoda qizdirilganda oksidlanib, Sb₂O₃ oksid hosil qiladi. Suyultirilgan kislotalar Sb ga ta'sir qilmaydi, ammo u shox arog'ida va quyuq azot kislotada oson eriydi. Tuz kislotasida surma sekin erib, undan vodorod ajraladi.

Surma bilan vodorod stibin deb atalgan SbH₃ gidrit hosil qiladi. U surma ishtirok etgan yarimo'tkazgich birikmalarga



kislotalar ta'sir etganida ham hosil bo'ladi. Stibin kuchli zaxarli. Surmani grafit idishlarda (konteynerlarda) eritiladi, Chunki u grafit bilan ta'sirlashmaydi. 700° C da vodorod surma oksidini metall sirtidan uzoqlashtiradi.

Yarimo'tkazgichlar texnologiyasida qo'llaniladigan konteyner (idishlar, hajmlar) metallarini ikki guruhga ajratiladi: past temperaturadagi amallarda edirish, yuvish va h. k. larda qo'llaniladigan materiallar birinchi guruhni tashkil qiladi. Ulardan taxlash, tashish va saqlash uchun ham foydalaniladi. Ikkinchi guruh materiallar yuqori temperaturada ishlashi kerak bo'lgan buyumlar issiqlik tugunlari, reaktorlar tanasi, ampulalar, tigellar va qayiqchalar tayyorlashda ishlatiladi (issiqlik tugunlari). Masalan, yarimo'tkazgich asboblari tayyorlashda quyidagi konteyner moddalar-organik shisha (pleksiglas), viniplast, polietilen (etilen polimeri), ftoroplast zarur materiallar bo'lib, bizning ilmiy tadqiqot tajribamizda materiallarni zonaviy eritish usuli bilan olishda zarur bo'lgan kvarts shisha ma'lumoti to'g'risida to'xtalamiz.

Kvarts shisha (kvarts) –suyultirib qotirilgan kremniy (IV) oksidi SiO₂ dir. Tashqi ko'rinishidan oddiy shishadan farq qilmaydi. Yarimo'tkazgichlar

texnologiyasida kvarts shisha qayiqchalar, tigellar va boshqalar uchun asosiy moddalardan biri. Undan yarimo'tkazgich moddalarni tozalash va sintez qilish uchun xizmat qiladigan apparatlarning qismlari tayyorlanadi, kvarts shisha yarimo'tkazgichlarda yedirish va yuvish uchun, shuningdek, yuqori darajada toza kislotalarni saqlaydigan idishlarni tayyorlash uchun ishlatiladi. Kvarts buyumlarning ishchi temperaturasi 1250° C gacha chiday oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. П.А. Тишкин
Экспериментальные методы ядерной физики. ЛГУ. 1970.
2. П.Э. Колпаков Основы ядерной физики. М. 1969.
3. Наумов А.И. Физика атомного Ядра и элементарных частиц. М. 1983.
4. Zaynobiddinov S. Z., Teshaboev A. Qattiq jism fizikasi. Tashkent: Moliya, 2001



5. A.B.Xolikulov, T.M.Muminov,
SH.X.Xushmurodov. Yadro va zarralar
fizikasi. Samarkand, 2001 y.



KOREYA YARIMOROLI DAQADIMGI DAVR ARXELOGIYASI.

asosiysababbu1920-
yillarningboshlaridaXitoyhududidaya'ni
Gansu,

MuhiddinovOg`abekOybeko`g`li.

so'ngraPekinyaqinidagiZhoukoudianman
zilgohlaridaqazishmalarolib

BozorovaMadinaTõraboyqizi.

borilishivabuyerdanilkpaleolitdavrigaoid
odamqoldiqlaritopilshibo`ldi1.

GulistonDavlatUniversiteti.

1-bosqichtalabalari.

Bu topilmalaryapon olimlarda qiziqish

Kalitso`zlar:Gansu,Geumgwanchong,Ge
umryeongchong,Shilla,

uyg`otdiva ulararxeologik

Tongvanjin, Naora Nobuo, Homo
Erektus, Komunmoru, Homo

tadqiqotlarniboshlab yuborishdi.XX
asrning 20-yillaridagiiizlanishlar

neanderthalensis,Kulphori,Chommal,Sok
channi1,Tonsamdon,Chitamni,

dastlab Geumgwanchong,
Geumryeongchong va Shilla maqbaralari

Xamyon-
dong,Chexyon,Dolomen,Nampxadon,On
dol,Tauksando,Sugar.

miqyosida olib borildiva "Jose
Archeologicalwalk"kabijurnalva

Annotatsiya:BumaqoladaKoreyayarimor
olidapaleolitvaneolitdavri

olimlarning kitoblarida
arxeologikma'lumatlarberib
borildi.1933-1934

vabudavrlardavujudgakelganmanzilgohla
rvabudavrlarningo`zigaxos

yilardayaponarxeologlariShimoliyHamgy
onprovinsiyasidagiTaedongan

xususiyatiberibo`tilgan.

daryosiningyuqoriqismidagiTongvanjins
hahridagiolibborganqazishma

KoreyayarimoroliSharqiyOsiyodajoylash
ganbo`libuningtarixijuda

ishlaridavomida uyerdan mamontva
boshqa hayvonlarsuyaklariva

qadmiyhisoblanadi.Buyerdaarxeologlarni
qazishmaishlariolibborishiga

shuningdektoshqurollartopildi2.
ButopilmalarniYaponolimiNaora

1TixanovV.M,KanMaglisИсториякорей
В2т.Т.1:Сдревнейшихвремендо1904г



M:Наталис,20114b
2http://rikonti-
khalsivar.narod.ru/Koreye3Курбановист
ориякореи
Nobuopaleolitdavriategishliekanliginitaki
dladi.AmmoKoreyayapon
mustamlakasiostidaekanligibumanzilgoni.
ovozabo`lishigayo`lqo`ymadi.
Buhaqiqat1960-
yillardaKoreyamustqildavlatlargaaylanga
nidanso`ng
yuzaga chiqdi.Koreya
arxeologiyasiasosan quydagidavrlarga
bo`lib
o`rganiladi:1)Paleolitdavri:10000yiloldin
2)Neolitdavri:6000-1000yil
oldin3)Bronzadavri4)Temirdavri5)Dastla
bkiuchqirollikdavri6)Uch
qirollikdavriningoxirgiyarimi.Bizbularda
ndastlabkiuchtasihaqidaquyida
birnechtama`lumotlarberibo`tamiz.
Koreyaning paleolit davri arxeologiyasini
o`rganish 1960-yillardan
boshlangan.Koreyadagipaleolitdavriquyd
agidavriylashtirishgaega:Ilk
paleolit-miloddanavvalgi700-
120ming,o`rtapaleolit-
miloddanavvalgi120-

50mingvaso`nggipaleolit-
miloddanavvalgi50-
10mingyillarnio`zichiga
oladi.1966-
yildaPxyendanunchalikuzoqbo`lmagan
Komunmoru g`ori
topibo`rganilgandabug`orilkpaleolitgateg
ishliekanligianiqlandi3.Bug`or
700mingyilavvalvujudgakelganbo`libbu
manzilgohdanbirnechaxil
turdagiarxaiktoshqurollarvahayvonsuyakl
aritopilgan4.Bumanzilgohda
yashagnodamlar arxantropolar–
HomoErektuslarbo`lganligiaytilmoqda.
BundantashqariilkpaleolitgaoidSangvond
agiQoraAnvilg`ori,janubda
Jeongok-ri, Yeoncheon-gun, Gonggi-do
manzilgohlari mavjud. O`rta
paleolitgaoidmanzilgoh1963-
yilShimoliyKoreyadagiShimoliyHamgyo
ng
viloyatining Kulporiqishlog`idan yokiSin
tog`idan topilgan eng noyob
topilma bu Homo neanderthalensis
yanio`rta paleolit odamiyoki
paleontropiningquyijag`tishivao`mrovsuy
agihisoblanadi.Yanabudavrga



- oid Chommalg'oriham tegishlibo'lib, bu manzilgohlartopilgan.
g'orham olimlarfikricha, Koreyayarimorolidaneolitdavrimilavv8-
neandertalodamlarmakonibo'lgan.G'orda 5mingyilliklardaboshlangan.Bu
n gominidodam tomonidan davrdatoshgaishlovberishtexnikasiyuqori
hayvon suyagidan tayyorlagan darajadarivojlanganayniqsa
mehnatqurollariva toshga aylangan xanjarvao`roqlarishlabchiqarishtakomilla
hayvonlar va chig'anoqlar qoldiqlari shgan
topilgan topilgan. Arxeologlar
6.Koreyahududidaneolit
tomonidantopibo'rganilganba'zisuyaklard davrinio`rganishKoreyaning
ainsonlarvahayvonlartasviri anneksiyasidanso`ng boshlangan.Yapon
3 V.C.XanKoreyatarixi- olimiToriiRyuzoneolitdavrinio`rganishni
Toshkent:BaktriaPress,2013-6b boshladi.1925-1932yillardabir
4 [http://rikonti-
khalsivar.narod.ru/Koreye3](http://rikonti-khalsivar.narod.ru/Koreye3)(Курбановиc
ториякореи) nechayapon arxeologlari-
FujitaRyosaku,ArimitsuKyoichi,Yokoya
ma
aksettirilgan.20mingyilavvalgisanabilanb ShozaburokabiolimlarasosanSeulvaBusa
aholanganso`nggipaleolit nhududidagiasosiyneolit
davrigaoidSokchanni l manzilgohidaninso yodgorliklarior`rganishdi.Neolitdavriham
nlargategishlisochqoldiqlari birnechta davrlarga bo`lib
topilganbo'lib,olimlarningta'kidlashlarich o`rganiladi.Budavrgaoidmanzilgohlardan
a,bu topilmamongoloid irqiga engmashhuriTongsamdong
tegishliekan5.Shuningdek,mazkurmanzil bo`lib bu 1920-1930-yillarda yapon
gohdano'choq,bo'yoqqoldiqlari, arxeologlari,1963-yilda amerikalik
toshdanyasalganit,ayiqvatoshbaqalartopil arxeologlar,1969-1971-
gan.Hozirgikungakelib yillardaJanubiyKoreyalikarxeologlartom
ShimoliyvaJanubiyKoreyahududida50da onidan
nortiqpaleolitdavrigaoid



- o`rganilgan. 1981-yilda Osanni hududida asosan Sugarining birinchi madaniy qatlami olib borilgan qazishmalar dan, Tonsamdongning ikkinchi qatlami va Tauksando rollariva Sindao viloyatidagi manzilgohlari kiradi.
- natijasida buyerdan Tonsamdongning ikkinchi qatlami va Tauksando rollariva Sindao viloyatidagi manzilgohlari kiradi.
- buyumlar bumanzilgohlardan ham So'ngi neolit davrida O'zbekistonliklar uchun ma'lum vamashhur bo'lgan
- topiladi. 7. Dastlabki davrlar (ya'nitaroqli madaniyatidavri) milavv 4-3 ming yilliklarni o'z ichiga olgan. Budavrdaklar orqali ishtizimi-ondol
- topilgan sopol buyumlari tarkibi daslyudava paydobo'lgan. Bu ishtizim dastlab Shimoliy Koreyadagi Nampxadon
- qum miqdori yuqoribo'lgan. Bu idishni yoritish xafini oldini olgan. Budavrdamyodgorligi dastlab Shimoliy Koreyadan
- anzilgohlari asosan Seul va adamilavv II-Iming yillikdan
- Pusan hududidan topilgan. O'rtaneolit davri (mtortibtomilavv VII-VI asrlargach davom illavv 3000-2000) budavr etgan
- 5 V.C. Xan Koreyatarixi- 8. Budavrningo'zigaxos
- Toshkent: Baktria Press, 2013-6b jihati Koreya hududida uzoq davom
- 6 V.C. Xan Koreyatarixi- etmagan edi. Arxeologlar budavrni
- Toshkent: Baktria Press, 2013-7b o'rganishlaridavrida
- 7 Tixanov V.M., Kan Maglis Истoрия Kopeи qilichlar, pichoqlar, nayza uchi, boltalar, ot-
- B2 T. 1: Cдpeвнейших вpeмeн дo 1904г arava
- M: Натaлис, 2011 buyumlari, idish-tovoqlar, zeb-ziynat
- yuqorida aytgan Tonsamdongning manzilgohini buyumlar topilgan. Bu davr
- ning 2-qatlamida, Pusan atrofidagi arxeologiyasi dadolomenlar (hashamatliqalar) alohida ahamyat kasb
- Sugarning 3-5-qatlamlari, Chitamni va etadi. Bu inshootlari yirik toshlardan qabilani
- kunsamni manzilgohlari ngaslzodalariga atab qurilgan,
- o'rganilganda aynan shu davrga tegishli ekanligi aniqlangan. Budavrga



bu inshootlarniqurish o`sha davrda o`ziga davr, uqoloqhisoblagan Koreyadamavjude xos etnomadniyan`anaga di. Mavjud hukumat bungarozi aylangan. Chexyondaryosiva Xamyon- bo`laol masedivabunarsaovozaqilinmadi. donghududidanko`plabtopilgan. Mustaqillikkaerishganharbir

Arxeologlarjami 30 mingdan ziyod dolo me davlato`z tarixini tiklashga urinishi ham maz nnianiqlashgan. igama`lum Koreyayarimoroli

Xulosa: Koreyayarimoroli XX asr 1- davlatlari ham xuddi manashunday qilishdi yarimidayapon zulmi ostida edi, lekin vao`zlarining tarixlarina qadar tanganing ikkinchi tarafi bor bo`lganidek bu boyvabetak rorekanligini amaldaisbotlash mustamlakachilik davrida di. Foydalangan adabiyotlar.

yapon olimlari Koreyahududidako`plabqa 1) V.C. Xan Koreyatarixi Toshkent 2013 Baktria Press nashiryoti. 2) http://rikonti-khalsivar.narod.ru/Koreye3Kurbanovistoriya_korei zishmaishlarini olib borishdibu

qaizshmalarnatijasi yapon olimlarini hayrat 3) Tixanov V.M, Kan Maglis Istoriya korei В daqoldirarlidarajada edi. 2т. Т.1:С

Chunki ko`pchilik tarixini boshlanishineoli 3) Tixanov V.M, Kan Maglis Istoriya korei В tdebbelgilaydigan hududdan 2т. Т.1:С

paleolit manzilgohi topilishi yanabumanzil drevneyshixvremen do 1904гМ: Наталис, gohlar biremas 50 ziyod bo`lsa 2011

kimni hayrat gasolmaydideysiz. Haqiqatda nbujudakata ilmiy yangilik edi.

Budavrd ayevropa olimlari jahonni gqaysiqi tasida qadimiyanzilgoh

topilsashumintaqaniboribo`rganishgatayy oredi. Lekintarixiyhaqiqat

millatchilikg`ururiga qurbon bo`ldi, chunki Yaponiyadamavjud bo`lmagan

8 V.C. Xan Koreyatarixi- Toshkent: Baktria Press, 2013-7b



TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Jaksilikova Aqsungul Berdixanovna

**Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Chimboy tumani, 17- sinli maktab**

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Barcha fanlar singari tarix fanini o'qitish jarayonida pedagogdan ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiylikini hisobga olish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish, o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish mezonlari talab etiladi. Maqolada tarix darslarini samarali tashkil etishda qo'llaniladigan qiziqarli o'yinlar haqida fikr yuritimiz.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, ta'lim mazmuni, o'qitish uslublari, dars, o'qitish vositalari, innovatsiya, texnologiya, pedagogik texnologiya,

interfaol ta'lim, an'anaviy ta'lim, pedagogik mahorat.

Maktablarda o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Maqolada tarix darslarida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritimiz.

Ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv-uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning komp'yuter va Internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; ta'limning axborot-resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; mazkur yo'nalishlarda ilg'or xorijiy tajribalarni



o'rganish pedagog kadrlarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Innovatsion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda kelajakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi "Rim klubi" ma'ruzasida innovatsion ta'limni an'anaviy, ya'ni "normativ" ta'limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli ta'lim "takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan" bo'lsa, innovatsion ta'lim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Zamonaviy ta'lim, shu jumladan, uning tobora ommalashib borayotgan shakli interfaol o'qitishda mohiyatiga ko'ra suhbatning "o'quvchi-axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi o'quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni harorat toptirish, faollikni

oshirish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi.

Hozirgi zamon zamonaviy ta'limda tarix darslarini samarali tashkil etishda pedagog quyidagi texnologiyalardan foydalanishi mumkin:

- Aqliy hujum strategiyasi; Mazkur texnologiya orqali har bir dars boshida o'tkan darsdagi tarixiy yillar va voqealar haqida savollar berib mavzuni mustahkamlash mumkin.
- "Baliq skileti" grafik organayzeri o'quvchilarga har bir mavzuga oid tarixiy shaxslar nomini yozish va esda saqlashda yordam beradi.
- "Bilaman, bilishni xoxlayman, bilib oldim" (BBB) grafik organayzeri orqali dars yakunida o'tilgan darsda o'quvchilar nimalarni esda saqlaganlari va qanday savollar kelib chiqqani haqida ma'lumot beriladi.
- Bumerang strategiyasi o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so'zlab berish, fikrlarni erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko'p bilimga ega bo'lish, o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilar



ruhiyatiing birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi.

□ “Venn diagrammasi” grafik organayzeri. Misol uchun O'zbekiston tarixi darsligidagi Boburiylar suloolasi haqidagi mavzuga nisbatan o'quvchilarda tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Tarixni o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanining maqsadi bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. O'quv fanining vazifalariga esa:

- Didaktika nazariyasi bilan ta'lim amaliyoti aloqasini ta'minlash;
- o'quvchilarni ta'lim - tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashga o'rgatish orqali ularni zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqa olish va prezentatsiya darslarini yuqori saviyada o'tkaza olishni o'rganish;

- o'quvchilarda tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan nazariy va uslubiy bilimlarni shakllantirish, ko'nikmalarni tarkib toptirish;

- o'quvchilarning pedagogik faoliyatga o'z tayyorgarligini tahlil qilishga o'rgatish, tahliliy – tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha dars ishlanmalarini loyihalash ko'nikmalarini tarkib toptirish;

- tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyatini loyihalash ko'nikmalarini tarkib toptirish; - tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samaradorlik va kafolatlangan natijaga erishishtirish kiradi.

Tarix fanlarini o'qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni maqsad qilib olinadi.

Tarix fani darslarini qiziqarli tashkil etish uchun zarur bo'ladigan turli xil to'plamlardan foydalanish orqali o'qituvchilar bugungi kunda talab etiladigan o'quv jarayoni mezonlariga



erisha oladilar. Qiziqarli o'yinlar dars davomida o'quvchilarni zerikmaslikka, darsni qunt bilan o'qishga va kelgusi darsga tayyorlanishga motivatsiya beradi.

Dars jarayonini bosqichlarga bo'lib o'qitish orqali o'qituvchi dars davomida aniq natijalarga erisha oladi va yangi mavzu bo'yicha belgilangan bilim va ko'nikmalar o'quvchilarga aniq yetkaziladi.

I bosqichda Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

II bosqichda Pedagogik texnologiyalar, masalan: Tezkor-so'rov, savol-javob, aqliy hujum, klaster orqali bilimlarni faollashtiradi. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi.

III bosqichda Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. Mustaqil

ish uchun topshiriq beradi va uning baholash me'zonlarini yetkazadi.

Xulosa qilsak, zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosi bo'lib, o'quvchilarga tarix faniga oid bilim va ko'nikmalarning to'laqonli shakllanish jarayonini amalga oshiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
2. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma /"Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - T.: TDIU, 2009.
3. Djumaniyazova Z. Ta'lim jarayonida innovatsion faoliyatni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. "Ta'lim, fan va innovatsiya", 2015/1-son. 54-57-b.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "YURAK" KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI

**Turaxonova Gulnozaxon Baxodirxon
qizi,**

**Samarqand Davlat chet tillar
institutining lingvistika fakulteti**

magistr bosqichi talabasi.

KALIT SO'ZLAR: mental ma'nolar,
iboralar, frazeologik so'zlar, dunyoning
til tasviri

ANNOTATSIYA:

Dunyo tilidagi til tasvirida Yurak
tushunchasi o'xshashligi va o'ziga xos
xususiyatlari sifati ko'rib chiqiladi va til
birliklari quyidagi leksik-semantik
guruhlarga bo'linadi, masalan, yurakning
qalb, dil

Ko'ngil kabi leksemalarda ifodalanishi,
insonning xulq atvorini ochib berishi
ingliz va o'zbek tillarida ishlatilish
birliklari hisobga olinadi.

KIRISH QISMI:

Hozirgi zamon tilshunosligining yirik
muammolaridan biri til va madaniyat
o'zaro uzviyligini tadqiq etishga
qaratilganligi sababli keyingi yillarda
lingvomadaniyat fani sohasidagi
tadqiqotlar soni ko'paymoqda

(S.A.Askoldov-Alekseev, N.
D.Arutyunova, N.N. Boldo'rev,
S.G.Vorkachev, A.A.Vorobev,
A.Vejbitskaya, E.S.Kubryakova,
D.S.Lixachev, V.A.Maslova,
Z.D.Popova, Yu.S.Stepanov, I.A.Sternin
va boshqalar.). Yurtimiz tilshunos
olimlarining (D.Ashurova, Sh. Safarov,
O 'Yusupov, M .D .D Jusupov,

A .Abduazizov, J.Yoqubov,
G.Mahkamova va boshqalar.)

lingvokulturologiyaning tayanch
tushunchalaridan biri bo'lgan konsept

muammolariga qaratilgan tadqiqotlari
bilan lingvomadaniyatshunoslik sohasiga
ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Ba'zi
olimlarning fikricha,

lingvomadaniyatshunoslik XX asrning
oxirgi choragida, tilshunoslikdagi
antropologik paradigma mahsuli sifatida
paydo bo'ldi. Unga ilk bo'lib XIX asrda
V. fon Gumboldt, o'zining "Inson
tillarining tuzilish farqlari va uning
insoniyatning ma'naviy taraqqiyotiga
ta'siri" nomli kitobida asos solib, til
xarakteri va xalq xarakterining bir-biriga
bog'liqligini ifodalab bergan.

"Turli tillar o'z mohiyatiga, ong va
sezgiga ta'siriga ko'ra haqiqatan ham
dunyoni turlicha his etishdir" va "tilning
o'ziga bo'lgan xosligi



millatning mohiyatiga ta'sir etadi,
shuning uchun ham tilni sinchiklab

o'rganish tarix va falsafa insonning ichki
dunyosi bilan bog'laydigan

hamma narsani o'z ichiga olishi kerak”
(Gumbold:1985,370,377),

degan fikr keng tarqaldi. Bunday
yondashuv o'z o'zidan turli til shakllari
ortida olim borliqni tafakkur qilish va
anglash uslublaridagi farqlarni ko'rdi va
tilda madaniyatning o'ziga xos
xususiyatlari mujassamlanadi degan
xulosaga keldi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va
madaniyat munosabatini aks ettiruvchi
fan yo'nalishidir. Ma'lumki Madaniyat
va til — bu insonning va xalqning
dunyoqarashini aks ettiruvchi ong
shakllari bo'lib o'zaro (dialogda)
mavjuddir. Chunki nutq subyekt va uni
tinglovchi-bu har doim madaniyat
sub'yektlaridir. Ular o'rtasida umumiy
bo'lgan jihat bu normativlikdir.

Lingvokulturologiyaning asosiy
tushunchalari - bu “konsept” va
“lingvokulturema” terminlari bo'lib,
ulardan dastlabkisi ong birligi,
ikkinchisi til birligi hisoblanadi. Bu
tushunchalar o'zida madaniyatning bir
bo'lagini aks ettirishi tufayli ayrim
tilshunoslarning ishlarida sinonim
tushunchalar sifatida qaraladi.

“Lingvokulturema” esa termin sifatida
V.V.Vorobev tomonidan ilk bor ilmiy
muomalaga olib kirildi.

Ushbu tushunchalarning o'zaro farqli
jihatlarni O'zbekiston Q. Yusupov quyidagicha
izohlaydi: “Lingvokulturema — o'z
semantikasida (ma'nosida)
madaniyatning biror bo'lagini aks
ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar,
so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar,
nutq klishe'lari, murakkab sintaktik
butunliklar, matnlar va hokazolar

kiradi. Lingvokulturema mazmun va
ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida
ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini
esa o'sha birliklarning semantikasi
tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema
konseptdan o'zining mazmun va ifoda
planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi”
[Yusupov, 2011:15]. Binobarin,
konseptlar tilda

lingvokulturema ko'rinishida namoyon
bo'lib, muayyan xalq madaniyatining
bir qismini aks ettirib keladi. Konsept "
termini tilshunoslikda eski va shu bilan
birga, yangi termin bo'lib, 1928 yilda
S.A.Askoldov Alekseevning “Konsept i
slovo” nomli maqolasida konseptning
ko'proq so'zga bog'liqligi e'tirof etilgan
bo'lsa-da [Askoldov, 1997], XX asrning
o'rtalariga kelib, “konsept” -
tilshunoslikda termin sifatida qo'llanila



boshladi. Hozirgi kunda tilshunoslikda konsept terminiga kognitiv Tilshunoslik va lingvokulturologik jihatdan yondashiladi. Olimlarning (A.P.Babushkin, N. N. Boldo'rev, V.N. Teliya, I. S. Kubryakova, I.A.Stemin va b.) kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, konsept - bu ong birligi bo'lib, qabul qilingan bilim, erishilgan tajriba, inson hayotidagi faoliyat natijalari, muayyan madaniyatga taalluqli tasavvur va bilimlar majmuasidir. Ushbu tushuncha va bilimlarga tayangan holda hozir o'rganilayotgan tadqiqot ob'yektimiz Yurak konseptining o'zaro ikki qardosh bo'lmagan Ingliz va O'zbek lingvomadaniy hamjamiyatida o'ziga xos o'rin tutishini keltirib o'tmoqchimiz.

Yurakning yorqin va ko'p qirrali tushunchalari frazeologiyada ifodalanadi va ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu belgilar tabiatan mavhum va insonning ichki dunyosi bilan chambarchas bog'liq. Qalb odamning ichki olamini ochib beradi. Zero; INGLIZLARDA yurak haqida shunday oqil fikrlar bor:

“Follow your Heart, Listen to your inner voice, stop caring about what others think”

(Roy.T.Bennet, "The light in the Heart") Bu gapda inson o'z qalbiga quloq

Solib, atrofdagilarni gap-so'zlariga e'tibor bermasligi haqida aytilgan. Darhaqiqat agar biz har kimning maslahat yoki so'zlariga quloq tutib Ish qilaveradigan bo'lsak, biz avvalo o'z menligimizni yuqotib qo'yamiz Va bu bizni o'z maqsadlarimizdan chalg'ishimizga olib keladi. O'zbek tili badiiy matnlarida yurak konseptiga xos mental ma'nolar "Qalb", "Ko'ngil", "Dil" kabi leksemalarda ifodalanadi. Mavlono Rumi hikmatlarida shunday gap keltirilgan:

“Ko'zni yumgil ko'zga aylansin ko'ngil” bu yerda inson qalbi insonni ezgu va to'g'ri yo'lga boshlashiga ahamiyat qaratilgan.

Ko'ngil haqida gap borar ekan uning insonni xarakterlovchi sifatleri ham borligini unutmaylik : "My father has a " heart of lion" because He always

Protects me from strangers and bullies" Otamning yuragi arslonniki kabidir

Chunki u doim meni begona va zo'ravonlardan asraydi. Albatta ota har qanday jamiyatda ulug'lanadi chunki u farzandi uchun jonini berishga tayyor bo'lgan yagona shaxs desak



yanglishmaymiz. Shu o'rinda shaxsni "Oqko'ngil", "Mehribon" "Jasur", "Zolim", "Hasadgo'y", "toshbag'ir" kabi sifatlarga ajratilib qahri qattiq insonlarda ham yurak bor va ular "Toshyurak" deya talqin etiladi. Yaxshi insoniylik fazilatlariga ega bo'lish barchaga ham nasib etavermaydigan tuhfadir. Shu o'rinda Ingliz yozuvchilaridan biri insoniylikning go'zal hulq atvorini ochib bergan jumalarga to'xtalsak: "I'd rather have a heart of gold Than all the Treasure of the world" -Anna Claudia Antunes.

Memoirs of an Amazon. Ingliz va O'zbek tillarida" yurak "tushunchasining hissiy tomoni"ni ishlash jihatlari - o'rganilmoqda.

Insonning- hissiy sohasini o'rganish bilan professional ravishda shug'ullanadigan barcha mutaxassislar uni tashkil etuvchi segmentlarning xiralashganligiga ishora qilmoqdalar, aniq tahlillarga erishish qiyinligi e'tirof etilgan.

"V.V.Vorobyov." ta'kidlaganidek, "tuyg'u", "his-tuyg'u", "ta'sir" atamalariga qat'iy berilgan qiymatlarga ega emas va psixologik bir-biriga yaqin tushunchalardir."his-tuyg'ular" foydalanishda yagona tushuncha va aniq

terminologik farqga ega emas. , "" his qilish ", " ta'sir qilish ". Undagi emotsiologik tilshunoslarning terminologik an'alariga amal qilgan holda olim "hissiyot" atamasini jamoaviy tushuncha sifatida ishlatadi. Muallif, shuningdek, aqliy tajribalarni asosiy (bazaviy, fundamental) va hosilalar, periferiklarga ajratish muammosiga murojaat qiladi. Muallifning fikriga ko'ra, tasnif filogenetik mezonga asoslangan bo'lishi mumkin. Asosiy his-tuyg'ular kelib chiqishi bo'yicha asosiy, ammo tabiatan elementar, ixtisoslashgan emas.

"Tuyg'ular" atamalarini o'rtasida aniq chegaralar belgilanmaganligi sababli, ushbu tadqiqotda ikkala atama ham ishlatilgan. Yurakning asosiy hal qiluvchi ahamiyati u insonning ma'naviy hayotining hissiyotlar, kayfiyat, fikrlar, iroda, diniy e'tiqod markazidir.

Avvalo yurak: Inson organizmining qon aylanishining markaziy organi tizimi, tanani qon bilan ta'minlaydigan ichki organ bo'lib mental ma'noda insonning his-tuyg'ulari, kayfiyati, hissiyotlari, sevgi va rahm-shafqat qobiliyati uchun javobgardir.

Dunyoning ikkala ya'ni INGLIZ VA O'ZBEK lingvistikasida ham "YURAK", avvalambor, his-tuyg'ular va



his-tuyg'ularning ramzi bo'lib, aniqrog'i, bu his-tuyg'ular va his-tuyg'ularning aralashmasidir. Undagi asosiy hissiyotlarga "qo'rquv", "g'azab", "quvonch", "qayg'u", "Havotir", "Hissiyot", "Sevgi" kiradi.

XULOSA

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tilidagi lug'atlarda bir qancha lug'at ta'rifi berilgan, ingliz Tillarida ham yurakning bir qancha ko'chma ma'noda ishlatilishiga guvoh bo'lamiz. Ikkala tilda ham so'zlardan majoziy ma'noda foydalanish, ma'nolarning dinamik rivojlanishi mavjud. O'zbek va ingliz tillarida ko'rib turganingizdek, asosiy ma'nolari bir xil, ammo semantik tarkibiy qismlarida farq bor

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. ASKOLDOV .S.A. "Konsept i Slovo" Antologiya.M, 1997. S-267-279.

II. JALOLIDDIN .RUMIY "Qalb ko'zi" 11-sahifa"

III. V.V,Vorobyov, "Common and specific linguo country studies.

Words and text in Dialogue,Moscow.2000 S-.97

IV. V.V.VOROBYOV
'Linguoculturology. (Theory and Practice): Monograph –M: S-1997. -113



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHAMIZ

Bu illatning yo'qolmasligida barchamizning aybimiz bor!

**Samarqand davlat chet tillari instituti
(ingliz tili) Xorijiy til va adabiyoti**

221- guruh Umbarova Dilrabo

Bir kishining internetda shunday so'zlarini o'qib inson o'ylanib qoladi"Hatto korrupsiyaga qarshi kurashish organlarida ham korrupsiya

Annotatsiya: Jamiyat shakllantirilishidagi bor",ha bu fikr o'ylantirmay qolmaydi. to'siq haqida

Xo'sh biz qachon adolatga erishamiz?Nemis faylasufi "Immanuel Kant aytganidek , "adolat yo'qolgan paytda hayotning qadrini belgilaydigan boshqa hech narsa qolmaydi".

Kalit so'z: Bizning maqsadimiz sof va shaffof jamiyat qurish

Avvalo biz korrupsiya nima ekanligini bilishimiz zarur.Korrupsiya bu nihoyatda ijtimoiy siyosiy vayronkor kuch uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi,ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi,xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo'qoladi.Bugungi kunda uning domiga tushib oyog'i qoqilganlar oz emas har holda.Shuningdek hozirda hamma joylarda bog'chadan tortib to institutgacha mana shu muammo mavjud.Bu ishni bajarayotgan shaxslarga qancha jazo tayinlanmasin barbir natija yo'q.Xo'sh nega shunday? Sababi judayam oddiy : Insonlar hech bir ishni vaqtimzoya ketmasin yoki ishim bitmay qolmasin qabilida yo'l tutganidir .

Bu so'zlarda haqiqat bor shunday barcha insonlar adolatli bo'lishga harakat qila olsalar jamiyatimiz yanada rivoj topardi. Shu o'rinda Yurtboshimizning ham fikrlarini ham keltirib o'tish joiz deb bildim

"Qonun ustuvorligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim takliflarni ilgari surdi
".

Islohotlarimiz samarasi ko'p jihatdan 4 ta muhim omilga ya'ni

- Qonun ustuvorligini ta'minlash
- Korrupsiyaga qarshi qat'iy kurashish
- institutional salohiyatni yuksaltirish



Kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog'liq

Mana shunday fikrlarga asoslangan holda o'z jamiyatimiz rivoji uchun hissa qo'shsak hammamiz uchun yaxshi bo'ladi. Darhaqiqat 2017-yilning 2-fevralida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish" to'risidagi qonunining kuchga kirishi ham biz yoshlarga bu zararli odatga qarshi kurash uchun chpplaydi.

Har qanday qonun buzarlilikga ko'p hollarda o'zimizning befarqligimiz loqaydligimiz sabab bo'lib kelmoqda. Shu o'rinda korrupsiya haqida Quroni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarning mulkini so'ramasdan o'z hokimingizga uzatmangizlar" degan dono so'zlar bor shunday ekan nega yana insonlar qo'rqmasdan o'z yo'llarida davom etishyapti.

Jahonda ham shu muammo mavjud hattoki unga qarshi kurashish yo'llari mavjud bular quydagicha

- Ichki nazorat boshqaruv apparatingizda nazoratni kuchaytiruvchi qurilmadir. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi shundan iboratki xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya etishni naxorat qilishdir. Hozirgi kunga kelib bizning

yurtimizda ham shunga o'xshash qonunlar mavjud bular -Tashqi nazorat bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib aynan ushbu tuzilmalar mustaqilligini oshirish nazarda tutilib aynan ushbu tuzilmalar orqali koruppsiyaga qarshi kurash olib boriladi. Ya'ni sud hokimyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga erishish kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashishda old qatorda turgan davlatlar ham mavjud. Shvetsiya, Singapur, Gonkong Portugaliya kabi mamlakatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki korrupsiyani bartaraf etish omillarimuhim rol o'ynaydi. Shunday ekan bu illatga qarshi kurashishda hamma ogoh bo'lishi bir tanu jon bo'lib kurashishi lozim.

Foydalanilgan adabyotlar

1. 2019-2020 yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturidan "gazeta.uz"
2. O'zbekiston 21-asr bo'sag'asida I.A.Karimov O'zbekiston 2003
3. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari korrupsiyaga qarshi kurashish



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

Google Яндекс @ mail

"<https://antcorruption.uz>"



TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI

Raximova Saboxat Qaxramon qizi

*Namangan davlat universiteti. Jismoniy
madaniyat fakulteti Sport faoliyati
yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Bo'lajak o'qituvchilarda talabalik yillaridanoq darsni qanday uslubda o'tishi haqida tasavvurlar paydo bo'ladi va bir qancha rejalar tuza boshlaydi. Qanday uslubda dars o'tishni har qaysi pedagog individual tanlaydi. Dars o'tish uslubida pedagogning o'z ishiga va o'quvchilarga bo'lgan munosabati aks etadi.

Kalit so'zlar. Ta'lim tarbiya, pedagogik kuzatuv, innovatsiya, psixalogik tavsiyalar, shakl va vositalar.

Kirish. Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-

tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash" ta'lim va tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshirishda eng asosiy vazifalaridan biri deb belgilab qo'yildi.

Bo'lajak o'qituvchilarda talabalik yillaridanoq darsni qanday uslubda o'tishi haqida tasavvurlar paydo bo'ladi va bir qancha rejalar tuza boshlaydi. Qanday uslubda dars o'tishni har qaysi pedagog individual tanlaydi. Dars o'tish uslubida pedagogning o'z ishiga va o'quvchilarga bo'lgan munosabati aks etadi.

O'quvchi o'qitilibgina qolmay, mustaqil o'qish, o'rganish, ishlashga, o'zlashtirishga o'rgatiladi. O'quvchilarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o'z nuqtai nazarini himoya eta olish ko'nikmalari shakllantiriladi. O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, axborot – resurs markazlaridan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi. O'quvchining darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyotlar va manbalardan foydalanib, mustaqil



o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.

Tadqiqot maqsadi: Talim tarbiya samaradorligini oshirishning pedagogik kuzatuvlari asosini olimlarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarida aks etishini tahlil qilish.

Tadqiqod vazifasi: Talim tarbiya samaradorligini oshirishning pedagogik kuzatuvlarinatijalari asosida yangi pedagogik innovatsion yondashuv usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari va tahlili:

O'qituvchi innovatsion faoliyatining umumiy va aloxida jihatlarini K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Ko'zmina, V.A.Slastenin, L.M.Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan N.Azizxo'jayeva, B.Farberman, U.Nishonaliyev, N.Sayidaxmedov, M.Ochilovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Shumpater va N.Kondratevlar «Innovatsiya» tushunchasining ilk va

ulkan nazariyachilari hisoblansalar, K.Angelovskiy, V.A.Slastenin va V.I.Slobadchikovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar, deb tan olinadilar. Jumladan, V.I.Slobadchikov shunday yozadi: «Avvalo, innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi, chunki bunday o'xshatish «Innovatsion faoliyat» termini ma'nosini sayozlashtirib yuboradi. Chunki har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma'lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko'rib chiqish zarur. Bu amaliyotni konkret subyekt nuqtayi nazaridan va amaldagi an'anaga nisbatan jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan har qanday faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin».

Hozirgi kunda psixologiyada boshqarishning, shu jumladan, dars jarayonining tashkil etish va boshqarishning boshlang'ich uslubi ajratiladi. Quyida ushbu uch uslub va ularga xos xususiyatlar keltiriladi:



Avtoritar uslub: mashg'ulotlarning maqsadi o'quvchilarda har doim ham tushunarli bo'lavermaydi; bu faoliyatda o'qituvchi faqat faol o'quvchilarni ism va uslubga moyilligini anglasa, ikkinchisi familiyalarinigina biladi va ularga yaxshi baxo qo'yadi. Uning jurnalida doimiy past oluvchilar deb qaraydigan guruhlari mavjud bo'lib, undan norizo bo'lishlarini qabul qilishga qiynaladi.

Demokratik uslub: mashg'ulotlarning maqsadi o'quvchilarda doim tushunarli bo'ladi: o'qituvchi deyarli hamma o'quvchilarni ismlarini biladi, o'quvchilar bilan muloqotga moslashuvchan, baxolashda ob'ektiv yondoshadi. Unga berilgan baxoni qiziquvchanlik bilan qabul qiladi.

Liberal uslub: ko'pincha mashg'ulot o'quvchilarga tushunarli emas, erkinlik butkul o'quvchilarning o'z ixtiyoriga o'tadi, xulqni nazorat qilish deyarli kuzatilmaydi. Bu holat ba'zi o'quvchilarda o'zini erkin his qilib bilim olish jarayoni qulaylashtirishi mumkin, lekin bazi bir berilgan vazifa va topshiriqlarni amaldagi ijrosi nazoratsiz qoldirilgani sababli ular uzoq vaqt davomida bajarilmay qolishi ham mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan uslublar har bir o'qituvchi faoliyatida u yoki bu darajada nomoyon bo'ladi va ayrim

o'qituvchida bu uslublarga hos belgilar aniq ko'rinsa, ikkinchisida sust ko'zga tashlanadi. Ba'zi o'qituvchi biron o'z uslubida ma'lum bir boshqaruv uslubini aniq anglay olmaydi. Shunga muvofiq ravishda psixologik tavsiyalarga raxbar shaxs sifatida uslubdan o'zini ajrata olishi va uslubdan foydalanishni ixtiyoriy darajaga olib kela olishi maslahat beriladi.

Ta'limda o'qituvchi-pedagoglarga qo'yiladigan boshqaruvning pedagogik sifatlari va omilari mavjud:

1. O'z ishiga muhabbat, o'quvchilar bilan ishashga qiziqish.
2. Yuqori madaniyatli katta audirovanie ishlata olish.
3. O'tiladigan darsga qobiliyat, uni yaxshi bilish, unga qiziqish.
4. Pedagogik takt (go'zallik)ka ega bo'lish.
5. Mehnatga qobiliyati, mehnatsevarlik.
6. O'quvchilar jamoasiga kirishib keta olish qobiliyati.
7. Harakatchan (energiyalik).
8. Mehnatga ijodiy yondashish.
9. Tashkilotchilik qobiliyatlari.



10. Javobgarlini his qilish.
11. Tarbiya bilimlarining butunligi.

Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning ahloqiy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning xammasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi va bir butunlikni xosil qiladi.

Innovatsion faoliyat - pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana muhimroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. Lafasov M. Jahon tarixi. (1918-2008). –T.: Turon-iqbol, 2011.
5. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» /Qo'llanma. -Qarshi: Nasaf, 2000.
6. Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R Tarix fanini kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. – T., TDPU, 2012. - 140 b.
7. Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R Tarix fanidan o'quv qo'llanma. - T.:TDPU, 2012. - 200 b.
8. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Akademik



litsey va kasb-hunar kolejlari uchun darslik. -T.: Sharq, 2002, 2003, 2011.

9.Usmonov Q. O`zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. Akademik litsey va kasb-hunar kolejlari uchun. -T.: O`qituvchi, 2003.

10.Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o`quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo`llanma /"Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - T.: TDIU, 2009.



YER YUZIDA ICHIMLIK SUVI MUAMMOSI

Yunusova Nigora

*Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani
24-umumta'lim maktab*

geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada inson hayotida ichimlik suvi katta ahamiyatga ega ekanligi, undan tog'ri foydalanalish dolzarb masala ekanligi haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: ichimlik suvi, gidrosfera, chuchuk suv zaxiralari, daryolar va ko'llar, yer osti chuchuk suvlari

Yer sharining ko'plab hududlarida toza ichimlik suvi yetishmovchiligi muammosi asosiy muammoga aylanib bormoqda. Ma'lumotlardan qaraganda, chuchuk suv zaxiralari gidrosferadagi umumiy suv hajmining 3,4 foizini tashkil qiladi.

Ichimlik suvi haqida gap ketganda muzliklar ham katta ahamiyatga ega. Ularga real chuchuk suv manbalari sifatida qaralmoqda. Yer ostida ko'plab chuchuk suv zaxiralari mavjud, ammo ular juda chuqurlikda joylashganligi sababli ularni qazib chiqarish imkoniyati cheklangan. Quruqlikning 3% ga yaqin

hududini ko'l va daryolar egallagan. Ular gidrosferaning juda kam qismini yoki umumiy suv hajmining 0,41% ini tashkil qiladi. Agar faqat shu suvlargina ishlatish uchun loyiqligi hisobga olinsa, chuchuk suv yetishmovchiligi ro'y berishi tabiiy hoi ekanligiga shubha qolmaydi. Dunyo aholisining har biriga bir yilda to'g'ri keladigan chuchuk suv miqdori 300-400 metr³ ni tashkil etadi. Hozircha insoniyatning chuchuk suvga bo'lgan talabi asosan daryolar va ko'llar, yer osti chuchuk suvlari, dengiz va yer osti suvlarini chuchuklashtirish hisobiga qondirilmoqda.

Yer yuzida aholi sonini tobora ko'payib borayotganligi insoniyat oldida turgan qator muammolarni insonlarning o'zlari hal etishlarini taqozo qilmoqda. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammosini hal etish uchun qishloq xo'jaligi jadal sur'atda rivojlantirilmoqda. Aholini ish bilan ta'minlash, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko'plab sanoat korxonalari, energetika, texnika-transport, turli ma'muriy va turarjoy binolari va boshqa obyektlar barpo etilmoqdaki, bu hol tabiatning eng noyob ne'matlaridan biri hisoblangan chuchuk suvga bo'lgan talabning yildan-yilga oshib borishiga sabab bo'lmoqda. Agar dunyo miqyosida olib



O'zbekistonda suvdan foydalanish sohalari va ularda ishlatiladigan suv ulushi (3% kommunal xo'jaliklarda, 12% sanoatda va 85% qishloq xo'jaligida).

qaralsa, chuchuk suvdan foydalanish bo'yicha sanoat korxonolari oldingi o'rinda, so'ngra qishloq xo'jaligi turadi. Bu holat O'zbekiston Respublikasida aksincha, chuchuk suvni eng ko'p sarf qiladigan tarmoq qishloq xo'jaligi hisoblanadi

Yer yuzasida tarqalgan chuchuk suv zaxiralari 20 - 25 milliard kishining ehtiyojini qondirish uchun yetarli bo'lsa-da, chuchuk suv yetishmovchiligi dunyoning ko'plab mamlakatlarida kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi aholi sonini tez sur'atlarda o'sib borayotganligi, quruqlikda chuchuk suvlarning bir xilda tarqalmaganligi, sanoat va qishloq xo'jaligining jadal rivojlantirilayotganligidir. Masalan, Markaziy Osiyo respublikalari hududida ham suv resurslari bir xilda taqsimlanmagan

Quruqlikning taxminan 60 foizini arid (cho'lli) va yarim arid (yarim cho'lli) yerlar egallagan. Qurg'oqchilik hukmdor bo'lgan tumanlarda yashovchi aholi oddiy ichimlik suvi yetishmovchiligidan aziyat chekmoqdalar. Bunday kam suvli regionlarga Meksika, Pokiston, Eron,

Aljir, AQSHning o'nlab shtatlari va O'rta Osiyoning arid iqlimli mintaqalari kiradi. Chuchuk suv yetishmovchiligi nam iqlimli gumid mintaqalarda ham sezilmoqda. AQSHning bir qator shtatlarida, Kanada, Janubiy Amerikaning tropik mintaqalarida, Osiyo va Afrikada tabiiy suv yetarli bo'lsa-da, ularga bo'lgan ehtiyoj keskin ortgan. Eng muhim suv manbalarining ifloslanishi bu yerlarda chuchuk suv yetishmovchiligiga olib kelmoqda. AQSH aholisining 1/7 qismi suv yetishmovchiligini boshidan kechirmoqda. Kelajakda Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va G'arbiy Yevropaning boshqa davlatlarida suv yetishmovchiligi sodir bo'lishi mumkin. Bu hol tobora o'sib borayotgan insonlarning suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashning boshqa yo'llarini qidirib topishga majbur qiladi. Shu maqsadda yer osti suvlari har tomonlama o'rganilmoqda va ishlatilmoqda. Aysberg muzlaridan foydalanish loyihalari ishlab chiqilmoqda. Sho'r suvlarni chuchuklashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun ko'plab mamlakatlarda chuchuklashtirish stansiyalari qurilmoqda. Dunyo bo'yicha hozirgi kunda 800 dan ziyod chuchuklashtiruvchi stansiyalar ishlab turibdi. Ulardan har sutkada 1,7 mln.m³ chuchuk suv ishlab chiqilmoqda. Chuchuklashgan suvlarning 90 % i



ichimlik suvlari sifatida sarflanmoqda. Bir vaqtning o'zida chuchuk suv olish yo'llarini qidirish bilan birga, uning yo'qolishi va ifloslanishining oldini olish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Buning uchun tozalash inshootlari va texnologik jarayonlar takomillashtirilmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda aylanma suv ta'minoti amaliyotga keng joriy etilmoqda. Ma'lum miqdorda tozalangan suvlardan texnologik jarayonlarda qayta foydalanilmoqda. Sanoat korxonalarini chuchuk suvga bo'lgan talabini qondirish uchun eng maqbul vo'nalishlar quyidagilardan iborat:

— suvdan foydalanishda undan yana qayta foydalanishni ko'zlab, uning yo'qolishini maksimumga yetkazilishiga erishish;

— sanoat korxonalarida ifloslangan suvlarni qayta tozalab yana korxonada faoliyati uchun qayta ishlatish; boshqacha qilib aytganda, suvni ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlarini berkeylanma suv ta'minotiga o'tkazish;

— katta miqdorda suv bilan ishlashga asoslangan texnologik jarayonlarni tubdan o'zgartirish; masalan, bir tonna sun'iy tola ishlab chiqarish uchun 20-30 tonnagacha, bir tonna sun'iy rezina ishlab chiqarish uchun esa 15 tonnagacha

suv sarf qilinadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Chuchuk suv yetishmovchiligi ko'zga ko'rinib turgan bizning davrimizda bunday texnologik jarayonlarni tubdan o'zgartirish muhim masala hisoblanadi.

Zero suv hayot mabnayidir, uni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga ham yetishini ta'minlash burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "2017-2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 4-may
2. Ismoilov A.Q., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent, Moliya, 2015



SO'ZLARNING KO'CHMA MA'NOSI: METAFORA USULI BILAN MA'NO KO'CHISH TURLARI VA ULARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI QIYOSIY TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA)

**Ilmiy rahbar: O'sarov
Ibrohimjon Kurpashevich, filologiya
fanlari nomzodi, dotsent
Khushmamatova Aminaxon Rustam
qizi, O'zbekiston Davlat Jahon tillari
universiteti**

**Magistratura bo'limi 2-bosqich
talabasi**

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlarning ko'chma ma'nosi, ma'no ko'chish turlari, shuningdek, metafora usuli bilan ma'no ko'chirish turi hamda ingliz va o'zbek tillaridagi iboralar tahliliga bag'ishlanadi. Har bir tilda so'z muhim ahamiyat kasb etgan birlik hisoblanganidek, so'zlarni ko'chma ma'noda o'z o'rnida qo'llash ham kata rol o'ynaydi. Bu maqolada ingliz tilidagi bir qancha "bosh" so'zi bilan bog'liq frazeologizmlarning o'zbek tilidagi mutlaq va qisman ekvivalentlari ma'noviy jihatdan bir-biriga to'g'ri keladigan iboralar bilan birga o'xshash

va farqli taraflari misollar orqali taqqoslab berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, frazema, metafora, idioma, semantik struktura

Nutqimizda eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli metaforadir. Metafora bir predmet nomining boshqa predmet nomiga o'xshashlik asosidako'chishidir. Masalan: ko'chaning boshi birikmasida "bosh" so'zining ma'nosi odam boshining joylashuv o'rniga nisbatan o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Demak, metaforada predmet, belgi, harakatlar o'xshashlik asosida boshqa predmet va harakatga ko'chadi. (Masalan: qozonning qulog'i, varrakning dumi, rubobning qorni, kemaning tumshug'I, egarning qoshi, o'choqning og'zi, tog'ning etagi, qora niyat, sovuq xabar, shirin xotira, achchiq haqiqat va hokazo). Frazeologik iboralar o'z ma'nodoshlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, ma'noni kuchli darajada ifodalaydi hamda ularda obrazlilikni yorqin aks ettiradi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalardir.



Odatda erkin birikmalarni tarjima qilish muammo tug'dirmaydi. Agar erkin birikmalardagi so'zlardan biri ko'chma ma'noda qo'llansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarning bir nechta turi mavjud bo'lib, ularning har-birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Birinchi turdagi so'z birikmasi sifat+ ot turi. Ularning semantik strukturasi bir-biridan katta farq qiladi. Bu birikmada qo'llanilgan otning xususiyatini va sifatini belgilaydi. Agar ingliz tilidagi free educational institution birikmasini olsak, free so'zi institution so'zi bilan aloqasi yo'q, bu degani ba'zi hollarda sifatlar otning xususiyatlari va sifatidan tashqari u bilan bog'liq tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Ingliz tilidagi "Head" - (bosh) komponentli somatik frazeologik birliklarni ifodalaydigan ma'nolariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lib tahlil qilamiz:

1. Sifat baxolovchi xarakteristikaga ega bo'lgan SFBlar:

to have a good head on one's shoulders - yelkasida kallasi bo'lmoq, o'z aqli bilan ish ko'radigan odam;

2. Jismoniy yoki ruhiy holatni ifodalovchi SFBlar:

one' heart sank into one's boots – yuragi orqasiga tortib ketmoq;

3. Xulq -atvorni yoki harakat turini ifodalovchi SFBlar:

to have a finger in every pie – har ishga burnini tiqavermoq;

to show one's teeth – tish qayramoq, tishini g'ijillatmoq- skalit zuby);

4. Bosh komponentli somatik frazeologizmlar ko'pincha inson nga xos aql- idrokni salbiy yoki ijobiy baholashda qo'llaniladi:

a clear head - to have a good head on one's shoulders)- yelkasida kallasi bor bo'lmoq(o'z aql-idrokiga ega bo'lmoq):

a wooden head - zehnsiz, befarosat, aqlsiz:

Well, he's got a bad ear for music, Joshua. When people have wooden heads, you know, it can't be helped. (G. Eliot, 'Adam Bede', ch. V) – Uil Maskerining hech qanday eshitish qobiliyati yo'q. Agar odamning kallasi o'rnida to'nka bo'lsa, hechnarsa qila olmaysan-ku, Joshua

5 Insonning ruhiy holatini ifodalovchi «bosh» komponentli frazeologizmlar:

- to hang/lose one's head - boshini xam qilmoq(egmoq): Dr. Macphail bent down - he was not a man to lose his head in an emergency - and turned the body over. (W. S. Maugham, 'Complete Short



Stories', 'Rain') - Doktor Makfeyl biroz boshini engashtirdi- u og'ir vaziyatlarda o'zingi yo'kotib quyadigan odamlar xilidan emasdi.

- to keep one's head – o'zini (es-hushini) yo'qotib quymaslik:(The situation was serious, but he kept his head. (W. S. Maugham, 'Complete Short Stories', 'The Door of Opportunity') – Vaziyat nihoyatdan murakkab edi, ammo Olbin es-xushini yo'qotib quymadi.

- to bury one's head in the sand – E'tibor bermaslik, qaramaslik, biror narsani ko'rmaslik uchun ko'z yummoq:

I loved even your so very British talent for hiding your head in the sand when you can no longer avoid the ugliness before your eyes. (D. Cusack,

'Heatwave in Berlin', ch. 17) – Men sendagi yaqqol ko'zga tashlanadigan xunuklikka e'tibor bermaslik kabi britanacha qobiliyatingni ham qadirlayman.

a level head – sovuqqon bo'lmoq, bosiq fe'lli, vazmin bo'lmoq: (James Williams belonged among the level heads. (O. Henry, 'The Four Millions',

'Sisters of the Golden Circle') - Djeyms Uilyame bosiq fe'lli kishilar toifasiga kirardi.

6) O'z qadr-qimmatini bilan kimdandir ustunlikni, obro'lilikni ifodalovchi «bosh» komponentli frazeologik birliklar: - to carry one's head high-qaddini g'oz tutmoq, boshini baland ko'tarib yurmoq:

(He had been a just judge. And he had carried his head high. (R. P. Warren, 'All the King's Men', ch. VII) – U haqiqiy adolatparvar sudya edi. U doimo boshini mag'rur ko'tarib yurardi.

- to wash one's head-kimnidir boshini sovunlamoq (jazolamoq).

7) Odamning fikrlash, xotirlash kabi o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi «bosh» komponentli frazeologik birliklar

- to beat/cudgel/rack one's brains over something-nima haqidadir bosh qotirmoq:

She had a bad memory for names, and it irritated her not to be able to think of them, so that she would pause in the middle of some story to rack her brains. (W. S. Maugham, 'Of Human Bondage', ch. 94) – U ismlarni yaxshi xotirlay olmasdi va bu uning g'ashini keltirardi. U tez tez suhbat o'rtasida kimningdir ismini eslayolmay to'xtab qolardi.

Misollardan ko'rinib turibdiki, «bosh» komponentli somatik frazeologizmlar



insonning fikrlash, hayratlanish, nafratlanish, kabi funksiyalarini bajaruvchi asosiy tana a'zosi bo'lmish «bosh»(ko'pincha miya) faoliyatiga bog'lab assotsiatsiya qilinmoqda va bu komponentli frazeologizmlarning inson faoliyatidagi o'rni ta'kidlanmoqda Bunday mohiyatli frazeologizmlar dunyo lning barcha tillarida ko'plab qo'llanishi bilan e'tiborni tortadi.

Bunday frazeologizmlar semantikasi boshdagi muhim element hisoblanuvchi «hair» - «soch» komponentli frazeologizmlarda ham o'z ifodasini topadi.

Bunday komponentli frazeologizmlar odatda:

1. individning his, hayajonini, qo'rquv hissini ifodalashda qo'llaniladi:

one's hair stands on end – sochi tikka bo'lib ketmoq:

Your hair stands on end over something that's absolutely necessary to get the work done as we originally planned- (M. Wilson, 'My Brother, My Enemy', ch.) –dedi polkovnik.

Ish rejadagidek ketishi uchun eng zarur narsani bajarish lozim bo'lganida, ko'rayapsanmi, doimo qo'rquvdan sochlaring tikka bo'lib ketadi.

2. Individning nimadandir nafratini ifodalashda qo'llaniladi:

get one's hair off – jahli chiqmoq, achchiqlanmoq, arazlamoq:

William: "If you don't find them in two and a half seconds I'll break every bone in your body." Frederick: "It's no good losing your hair about it. If we can't find your bouts we can't." (W. S. Maugham, 'Home and Beauty', act II) –

Uilyam:- Agar mening poyafzalim besh daqiqa ichida topilmasa, seni oyoq-qo'llaringni maydalab tashlayman.

Frederik: Nega sochingiz tikka bo'ladi. Axir ular yo'k bo'lsa, qayerdan topaman!

3. Gap soch tolasi haqida ketganida, arzimmas, ahamiyatsiz narsa haqida salbiy munosabat ifodalanadi:

to split hairs – arzimmas narsaga yopishmoq, jahl qilmoq:

I can't split hairs,' he said. (H. R. Haggard, 'Stella Fregelius', ch. XV) – Bunday arzimmas narsalarga xushim yo'q,-dedi polkovnik.

by a hair – qilcha, juda kam,birozgina, arzimmas narsa.

He just missed hitting me by a hair. – u birozgina menga tegib ketdi.



Har bir xalqning til boyligi, jumladan frazeologik birikmalari uning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, turmush tarsi, mentaliteti va xarakterli xususiyatlari aks ettiradi. Hamma uchun bir xil fikrlar turli xalqlar tomonidan turlicha ifodalanadi: o'zbeklar "tuyaning dumi yerga tekkanda", "qizil qor yoqqanda", "xapshanba kuni" deganda inglizlar "when pigs fly" frazeologik birligini qo'llashadi. Ikkala frazeologik iboradagi leksik birliklar birbiriga, ayniqsa "tuya", "qizil qor" hamda "xapshanba" butunlay to'g'ri kelmasada, hech qachon sodir bo'lmaydigan ish-harakat, voqea asosiy fikr hisoblanadi. Frazeologik birikmalar tarkibidagi aksariyat so'zlar esa ikkinchi darajali unsur sifatida qo'llangan. Bu yerdagi asosiy vazifa asliyatdagi frazeologik birikmalar tarjima tilida xuddi shu fikrni ifodalagan va xuddi shunday stilistik ma'noga ega bo'lgan turg'un birikma topish. Misollardan ko'rinib turibdiki, aksariyat hollarda asliyatdagi frazeologik birikmalarning ekvivalentlari yo'q bo'lganda, ayni obraz qo'llanmaganda, obrazni butunlay almashtirish tavsiya etiladi. Tarjima tilida asliyatdagi frazeologik birlikka ma'no stilistik ifodaliligi oxshash turg'un birikma topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Бердиёров Х, Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 232 б.
2. Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фан. номзоди. дис. – Самарқанд, 2001. – 135 б.
3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – 267 с.
4. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. Лит. ред.
5. М.Д. Литвинова. – 4-е изд. – М.: Рус. яз., 1984. – 942 с.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 380 б.
7. Умирова Л. Ҳозирги замон инглиз тилида феъл фразеологик парадигма: филол. фан. номзоди. ... дис. – Самарқанд, 2004. – 130 б.



**NAZARIY VA AMALIY
MASHG'ULOTLARNI YOPISHQOQ
TAXTADAN FOYDALANIB O'TISH
USULLARI**

G'ofurov Akrom

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Servis" kafedrası o'qituvchisi*

Tel. +998915556231

gafurov.akram.62@mail.ru

Tashpulatov Xurshid Shukurovich.,

Samarqand davlat universiteti dotsenti

Tel: +998933589082

xurshiduz@yandex.ru

Yulayiev Marat Fagimovich

*«ELXOLDING» ilmiy-ishlab chiqarish
birlashmasi director o'rinbosari*

Tel. + 366 234 22 72

+ 998 93 720 29 53

Annotatsiya. O'quvchilarning tabiiy fanlarni o'zlashtirishda, qobiliyatini rivojlantirishga va mukammal bilim egallashi uchun qo'llaniladigan usul bo'lib, o'qituvchi tomonidan kimyo fanini o'rgatishda moddalarning ta'sirlanishi, atomlarning fazoda

joylashivi, kimyoviy bog'larning hosil bo'lishi, elektron bulutlarning gibridlanishi, moddalarning eruvchanligi jarayonini ko'rsatib berilishi, o'quvchining amaliy dars jarayonida uslubiy elementlardan foydalanib moddalarning ta'sirlashuvi, elektron bulutlarini gibridlanishi va modalarning strukturalari modellarini yopishqoq taxtada tuza olishi o'quchlarning bilim ko'nikmasini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: yopishqoq, taxta, struktura, elektron, bulut, gibridlanish, erish, formula, element, tekislik, burchak, orbital, magnit.

Methods of conducting theoretical and practical training using sticky boards

Gafurov A., Teacher of "Service" department of Samarkand Institute of Economics and Service

Tashpulatov Kh.Sh., Associate Professor of Samarkand State University

Yulayev M.F., Deputy Director, Elholding Research and Production Enterprise.

Abstract. It is a method used by students to master the natural sciences, to develop their abilities and to acquire advanced



knowledge. The interaction of substances using elements, the hybridization of electron clouds, and the ability to construct models of fashion structures on a sticky board help to increase students' knowledge.

Keywords: sticky, board, structure, electron, cloud, hybridization, melting, formula, element, plane, angle, orbital, magnet.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining 172-bandida «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining yangi tahriri. [1]

O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan yangi tahririning 3-moddasida ta'limga qoyidagicha tarif beradi, "ta'lim — ta'lim oluvchilarga

chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon"[2].

O'quvchilarning tabiiy fanlarni o'zlashtirishda ularning qobiliyatini rivojlantirish yo'li bilan bilim, kerakli bilim ko'nikmalarini hosil qilish, ayniqsa o'quvchilarning tabiiy – ilmiy fanlarni o'zlashtirishini to'g'ri tashkil etishda ular tomonidan o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlarni tushunishida o'qitishning virtual vositalaridan tashqari an'anaviy usublar ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bu usullar ta'limning ko'rgazmalilik va nazariy tafakkurini rivojlantirish prinsipiga amal qilishga yordam beradi.

O'quv jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarda malaka hamda bilim ko'nikmalarini shakllantirish, qobiliyatini rivojlantirish, tafakkuriga zaruriy axborotlar berishga qaratilgan tizimli jarayon, ularning fikrlash qobiliyatining samaradorligini oshirish, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha mantiqiy bog'lanishli qonuniyatlarini ochishga imkoni beradi.



Bu maqolada “Elxolding” ilmiy ishlab - chiqarish korxonasida o‘quv jarayoni uchun yaratilgan magnit taxta hamda uslubiy elementlar yordamida kimyo fanini o‘qitish usullarini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz. Ko‘rgazmali qurol temir plastina, sirtqi qavati laminatlangan kulrang 60×110 cm bo‘lgan osma taxtadan tashkil topgan, elektron bulutlarining tasviri tushirilgan magnitli poliyetilen plastina, lotin harflari bilan belgilangan aylana shakldagi kimyoviy elementlarning alohidagi belgilari va moddalarni qo‘shish (+) belgisi reaksiyani yo‘nalishini ko‘rsatadigan (\rightarrow) belgilar bilan jixozlangan.

1-rasm. Taxtaning umumiy ko‘rinishi.

2-rasm. sp- gibrirlanishda elektron orbitallarning ishtirok etishini.

Yopishqoq taxta yordamida gibrirlanishning tasvirlanishi.

Yopishqoq taxta yordamida elektron qavatlar tuzulishini, s, p, d va f elektron bulutlari shakllarini ko‘rsatish va ularni bir – biri bilan (qo‘shilishi) gibrirlanishi

natijasida hosil bo‘ladigan ta’svirlarni ko‘rsatish mumkin.

sp – gibrirlanishni BeCl_2 , MgBr_2 , CaCl_2 , va C_2H_2 astelin va boshqa misollardan birida ko‘rsatish mumkin. sp-gibrirlanishni Be (Bereliy) atomining valentligi II-ga teng. Be (Bereliy) atomi qo‘zg‘algan holatga o‘tganda, hosil bo‘lgan tashqi elektron qavatidagi bittadan s va p elektron bulutlarini o‘zaro birikishi natijasida sp- gibrirl orbitalar hosil bo‘lishi bilan 180° burchak ostida yotadi.



3-rasm. BeCl_2 molekulasida hosil bo‘lishi.

Be (Bereliy) atomini sp – gibrirl orbital xlor atomini p- elektron bulutlari bilan qo‘shilishi natijasida ikkita σ - sigma bog‘ni hosil qiladi. [3, 4]

4-rasm. BeCl_2 molekulasida tuzilishi.

sp – gibrirl bulutlari 180° burchak ostida yotganligining tasvirlanishi.

sp² -gibrirlanishni BCl_3 , SO_3 , C_2H_4 va boshqa misollardan ko‘rsatish mumkin. B-ning valentligi III-ga teng. 2s orbitalinining ikkita ta va bitta 2p



orbitallarining gibridlanishidan fazoda 120° burchak ostida bir tekislikda yotadigan 3 ta gibrid orbitalini hosil qiladi. Bu orbitallardan hosil bo'lgan molekulalarning fazoviy shakli teng tomonli uchburchak ko'rinishida bo'ladi. B (bor) ning sp-gibrid orbitallari xlorini p-orbitallari bilan qoplanishi natijasida 3 ta oddiy bog'larni hosil qiladi. BCl₃ molekulasining tuzilishi teng tomonli uchburchak shaklida bo'ladi.

5-rasm. sp² –gibridlanishning tasvirlanishi

6-rasm. BCl₃ molekulasining tuzilishi.

sp³ -gibridlanishni metan molekulasining tuzilishi misolida ko'rish mumkin. C (uglerod) atomining qo'zg'algan holatida IVta toq elektronlari bo'lib, ular harakati davomida o'zaro aralashib sp³ -gibrid orbitallarni hosil qiladi. Bu elektron bulutlari fazoda tetrayedrik shaklda bo'lib, ular orasidagi burchak $109^\circ 28'$ ni tashkil etadi.[3-4]

7-rasm. CH₄ -molekulasining tuzilishi.

sp³ -gibrid orbitallari tetrayedrik shakldagi molekulalarni hosil qiladi. Misol uchun uglerodning shunday gibrid orbitallari 4 ta H (Vodorod) atomlari (s-orbitallari) bilan qoplashib 4 ta oddiy bog'ni hosil qiladi.[3, 4]

Kimyoviy bog'lanishlarda sp, sp², sp³ –gibridlanish oddiy -s, -p, -d, -f elektron bulutlari ishtirokida amalga oshadi. Suv mavzusida – suv molekulalarini tashkil etuvchi bog'lar bilan kislorod o'zaro kovalent bog'langan, suv molekulalari o'zaro vodorod bog'lari orqali assotsiatsiyalangan holida bo'ladi.

8-rasm. H₂O va vodorod xlorid molekularining tuzilishi.

Suv va vodorod xloridni tuzilishini tasvirlashi:

9-rasm. Yopishqoq taxtada osh tuzi molekulasining kristall panjarasining tuzilishi ko'rsatilgan

10-rasm. Yopishqoq taxtada suv molekulasining tuzilishi va osh tuzining erishi gidratlanish jarayoni ko'rsatilgan



-s va -p electron bo'lishi orbitallarni qo'shilishi. Cl₂ (Xlor) molekulasini hosil bo'lishi: [3, 4]

11-rasm.

Osh tuzi molekulasini kristall panjarasining gidratlanish jarayonini qo'yidagicha tasvirlash mumkin:

12-rasm. Tuzlar, oksidlar va suvning tuzilishini yopishqoq taxtada qo'yidagicha ifodalash mumkin.

Natriy xlorid, kaliy iyodid, suv, kalsiy bromid, temir(III) oksid, kremniy (II) oksidi mis (II) gidriksidi, alyuminiy xlorid va ortofosfat kislotalari tuzilishlarini tasvirlanishi.

13-rasm. Etil spirti, sirka aldegid va sirka kislotasi tuzilishi

14-rasm. Sirka – etil efirining tuzilishi

Bunday shakllarning tuzilishini o'quvchilarga ko'rsatib, so'ngra ularga murakkab moddalarning struktura shakl tuzilishlarini tuzishga imkoniyat berilsa, bilim oluvchining tasavvurida o'chmas iz qoldiradi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo darslarida "ELXOLDING" ilmiy ishlab chiqarish korxonasi tomonidan yaratilgan yopishqoq taxta va uslubiy elementlar yordamida amaliy darslarni o'tish oshirishga yaxshi samara berishi mumkin. Chunki bu usul o'zining soddaligi va qo'lnilishi osonligi bilan boshqa shu kabi ishlanmalardan ajralib turadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining yangi tahriri.
2. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan Yangi tahriri.
3. А.С. Егоров, К.П.Шацкая, Н.М. Иванченко, В.Д.Дионисьев, В.К.Ермакова, Л.В.Котельницкая, И.Е. Слаченко, Р.В.Шевченко, К.Д. Шлюкер. Пособие – репититор для поступающих изд. «Феникс» 2003г. 768с.
4. Максименко О.О. Химия пособие для поступающих в вузы.



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

[Google](#) [Яндекс](#) [@mail](#)

Издательство КСМО. Москва 2003.
618с.



YOSH REGBICHILARNI TEXNIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.

G'. Aliyeva, NamDU 1-kurs magistranti

Xayrullo To'ychiboyev, Namangan
viloyati Regbi treneri

Annotatsiya. Ushbu maqolada shug'ullanuvchilarning tezkorligi, jismoniy faoliyati, individual va jamoa o'yinining ko'nikmalari hamda har tomonlama rivojlanishida regbi sport turining tutgan o'rni va ahamiyati haqida qisqacha fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: regbi, individual, sport, musobaqa, zarba, muvofiqlashtirilgan qobiliyat, jamoa bo'lib ishlash, malaka, kuch va quvvat, tezlik va chaqqonlik,

umumiy chidamlilik va tezlikka chidamlilik, samarali harakat qilish, jismoniy savodlilik, koordinatsiya qobiliyati, namuna/shablon, model, tamoyil, pozitsiya, jismoniy imkoniyat.

Mamlakatimiz ravnaq topishi, uni iqtisodiy va ijtimoiy tomondan buyuk davlat darajasiga ko'tarilishi yosh avlod, mehnatkash fuqarolarning

nafaqat aql-idroki, bilimi va malakasi, balki ularning salomatligiga, jismoniy barkamolligiga ham bevosita bog'liqdir.

Yurtimiz axolisini jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev hozirgi jadal rivojlanib borayotgan sport soxasiga juda katta e'tibor berdi va bu borada qator qarorlar imzolandi. Jumladan, "jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktyabrdagi PQ-4500-sonli qaroriga binoan ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Regbi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda regbi respublikamizda jadal rivojlanib kelmoqda, O'zbekiston regbi federatsiyasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etilib o'z faoliyatini ko'rsatmoqda, regbi bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida kuchli sakkizlikka kiradi.

Regbi o'yini uchun zarur bo'lgan asosiy jismoniy tayyorgarlik



xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Kuch va quvvat;
- Tezlik va epchillik/chaqqonlik;
- Chidamlilik umumiy chidamlilik

va tezlik chidamliligi (uzuq-yuluq tez yugurish (multi-sprint));

- Umumiy harakatchanlik va tezkorlik (mobilnost).

Asosiy tarkibiy qismlar – kuch va quvvat, tezlik va chaqqonlik, umumiy chidamlilik va tezlikka chidamlilik, samarali harakat qilish va o'yinning texnik ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Keyinchalik ba'zi mualliflar buni «Jismoniy savodlilik» deb atadilar (Butcher and Eaton, 1989).

Biz uchun S&C murabbiylari sifatida maqsad, avvalambor, bolalik va o'smirlik yoshida ushbu jismoniy savodlilikni rivojlantirishdir, shunda yosh o'yinchi keng rivojlangan umumiy harakat ko'nikmalariga ega va o'yin talablariga jismoniy jihatdan tayyor bo'ladi.

Masalan, asosiy harakat qobiliyatlari – bu turli xil harakatchanlik, koordinatsiya qobiliyati va barqarorlikning asosi deb ayta olamiz. Ular

to'p uzatish, to'pni ilish, oyoq bilan zarba, himoyachini chalg'itish,

kurash, turtish-itarish, sakrash kabi regbi o'yinining regbi o'ynash uchun zarur bo'lgan barcha texnik mahoratga ega bo'lgan asosiy ko'nikmalarining tuzilma bloklaridir. O'yinchining uzoq muddatli rivojlanish yo'li 1990-yillarda Kanada Milliy murabbiylar instituti doktori Istvan Balyi faoliyati va ta'siri orqali dastlab taklif qilingan va nafaqat regbi o'yinida, sportning boshqa turlarida ham amalga oshirilgan.

Bugungi kunda Balyi va uning hamkasblari tomonidan taklif qilingan

model yetakchi murabbiylar uchun texnik, taktik va jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirish va o'yinchilarning o'yin talablariga tayyorgarligini yaxshilash dasturlarini ishlab chiqishda asosiy mezonga aylandi (Balyi va hammual., 2005).

Model qat'iy ko'rsatma bo'yicha emas, balki namuna/shablon



sifatida va rivojlanishning barcha bosqichlari va o'yinchiga yo'naltirilgan mumkin (Gallagher va Donnelly, 2003).

yondashuvning muhimligini ta'kidlab, ko'rsatmalar to'plami sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, u bir qator o'ziga xos bosqichlar orqali bolaning, yosh o'yinchining, keyin esa kattalar o'yinchining rivojlanishi to'g'risida tushuncha beradi. Model 10 ta asosiy tamoyillar to'plamiga asoslangan (Balyi va hammual., 2005).

Birinchi muhim tamoyil – bu o'yinchining dastlabki rivojlanishdan to'rtinchi yilgacha uning potensial imkon chegaralarigacha bo'lgan vaqtni baholash.

10 yillik qoida taqdim etilgan muntazam va davomiy mashg'ulotlar

doirasining to'liq rivojlanishi uchun asosdir. Biroq, bu asosiy talab deb hisoblanmasligi kerak.

Ushbu sport turida haqiqiy salohiyatga erishishni istagan va

intiluvchilar uchun qo'llanma deb hisoblasa bo'ladi. Uchinchi tamoyil shundan iboratki, erta ixtisoslashish o'yinchi uchun muammo tug'dirishi mumkin, chunki u asosiy harakat ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim

vaziyatlar e'tibordan qolib ketishi

Regbi o'yini uchun - turli pozitsiyalardan harakatlanishni boshlab, turli tezlik va yo'nalishlarda yugurish, muvozanatni saqlash va

boshqarish uchun to'satdan to'xtash, himoyachini chalg'itish va to'p

ushlagan o'yinchini boshqarish kabi ko'nikmalar katta qiziqish uyg'otadi. Asosiy ko'nikmalarga chap va o'ng oyoqlar bilan to'pga turli xil

zarbalar, to'pni uzatish, to'pni ilib olish, vaziyatga qarab turli xil texnik va

usullardan foydalangan holda to'pni tepish, yiqilib tushish, chayqalish, sakrash va hokazo kiradi.

Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yosh o'yinchilarga

imkoniyatlar taqdim etilishi kerak. Bizning vazifamiz ularni doimiy ravishda

sport o'ynashga undashdir.

Murabbiylar, ota-onalar, o'qituvchilar va



- ma'murlar (yoki shunchaki ta'lim va sport sohasida hamjamiyat a'zosi) sifatida barchamiz bu sohada katta mas'uldirmiz.
- Shunday qilib, agar yosh o'yinchining qobiliyatlari va jismoniy imkoniyatlarini samarali rivojlantirish uchun qabul qilingan imkoniyatlardan muvaffaqiyatli foydalanishni xohlasak, o'yinchining uzoq muddatli rivojlantirishining mohiyatini tushunish uchun murabbiy faoliyatida buni hisobga olish muhimdir.
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.
1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ 394-son Qonuni (2015.04.09). Xalq so'zi. – Toshkent, 2015.5-sentyabr.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida Regbi sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4500-sonli Qarori.
 3. Регби ўйинига тайёргарлик. Рус т., ўзбек кирилл ва латин графикасида. – Т., 2020. б. 96
 4. World Regby техник кўникмалар шаклланишида асосий омиллар. Рус т., ўзбек кирилл ва латин графикасида. – Т., 2020. – б. 44
 5. World Regby куч ва жисмоний тайёргарлик 1 даража. Рус т., ўзбек кирилл ва латин графикасида. – Т., 2020. б.
 6. Абдуллаев А.А. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. – Т., 2019. – б. 320
 7. Саламов Р.С. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. 2-жилд. – Т., 2019. – б. 182.
 8. Гончарова О.В. Болалар жисмоний сифатларини тарбиялаш. – Т., 2019. – б. 204.
 9. Абдурахмонов М. Махмудов А.Т.Жисмоний тарбия ва спорт тиббиёти. – Т., 2018. – б. 84.
 10. Сафарова Д.Д. Ёшга оид физиология. – Т., 2018. – б. 176.
 11. Шарипов А., Жамматов Ж. Малакавий педагогик амалиёти. – Т., 2018. – б. 114.
 12. Саламов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

[Google](#) [Яндекс](#) [@mail](#)

педагогик технологиялар. – Т., 2018. –
б. 160.



YOSH REGBICHILARNI TEXNIK KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.

*G'. Aliyeva, NamDU 1-kurs
magistranti*

*Xayrullo To'ychiboyev, Namangan
viloyati Regbi treneri*

Annotatsiya. Ushbu maqolada shug'ullanuvchilarning tezkorligi, jismoniy faoliyati, individual va jamoa o'yinining ko'nikmalari hamda har tomonlama rivojlanishida regbi sport turining tutgan o'rni va ahamiyati haqida qisqacha fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: regbi, individual, sport, musobaqa, zarba, muvofiqlashtirilgan qobiliyat, jamoa bo'lib ishlash, malaka, kuch va quvvat, tezlik va chaqqonlik, umumiy chidamlilik va tezlikka chidamlilik, samarali harakat qilish, jismoniy savodlilik, koordinatsiya qobiliyati, namuna/shablon, model, tamoyil, pozitsiya, jismoniy imkoniyat.

Mamlakatimiz ravnaq topishi, uni iqtisodiy va ijtimoiy tomondan buyuk davlat darajasiga ko'tarilishi yosh avlodu, mexnatkash fuqarolarning nafaqat aql-idroki, bilimi va malakasi,

balki ularning salomatligiga, jismoniy barkamolligiga ham bevosita bog'liqdir.

Yurtimiz axolisini jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev hozirgi jadal rivojlanib borayotgan sport soxasiga juda katta e'tibor berdi va bu borada qator qarorlar imzolandi. Jumladan, "jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktyabrdagi PQ-4500-sonli qaroriga binoan ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Regbi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda regbi respublikamizda jadal rivojlanib kelmoqda, O'zbekiston regbi federatsiyasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etilib o'z faoliyatini ko'rsatmoqda, regbi bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida kuchli sakkizlikka kiradi.

Regbi o'yini uchun zarur bo'lgan asosiy jismoniy tayyorgarlik



xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Kuch va quvvat;
- Tezlik va epchillik/chaqqonlik;
- Chidamlilik umumiy chidamlilik

va tezlik chidamliligi (uzuq-yuluq tez yugurish (multi-sprint));

- Umumiy harakatchanlik va tezkorlik (mobilnost).

Asosiy tarkibiy qismlar – kuch va quvvat, tezlik va chaqqonlik, umumiy chidamlilik va tezlikka chidamlilik, samarali harakat qilish va o'yinning texnik ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Keyinchalik ba'zi mualliflar buni «Jismoniy savodlilik» deb atadilar (Butcher and Eaton, 1989).

Biz uchun S&C murabbiylari sifatida maqsad, avvalambor, bolalik va o'smirlik yoshida ushbu jismoniy savodlilikni rivojlantirishdir, shunda yosh o'yinchi keng rivojlangan umumiy harakat ko'nikmalariga ega va o'yin talablariga jismoniy jihatdan tayyor bo'ladi.

Masalan, asosiy harakat qobiliyatlari – bu turli xil harakatchanlik, koordinatsiya qobiliyati va barqarorlikning asosi deb ayta olamiz. Ular

to'p uzatish, to'pni ilish, oyoq bilan zarba, himoyachini chalg'itish,

kurash, turtish-itarish, sakrash kabi regbi o'yinining regbi o'ynash uchun zarur bo'lgan barcha texnik mahoratga ega bo'lgan asosiy ko'nikmalarining tuzilma bloklaridir. O'yinchining uzoq muddatli rivojlanish yo'li 1990-yillarda Kanada Milliy murabbiylar instituti doktori Istvan Balyi faoliyati va ta'siri orqali dastlab taklif qilingan va nafaqat regbi o'yinida, sportning boshqa turlarida ham amalga oshirilgan.

Bugungi kunda Balyi va uning hamkasblari tomonidan taklif qilingan

model yetakchi murabbiylar uchun texnik, taktik va jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirish va o'yinchilarning o'yin talablariga tayyorgarligini yaxshilash dasturlarini ishlab chiqishda asosiy mezonga aylandi (Balyi va hammual., 2005).

Model qat'iy ko'rsatma bo'yicha emas, balki namuna/shablon



sifatida va rivojlanishning barcha bosqichlari va o'yinchiga yo'naltirilgan mumkin (Gallagher va Donnelly, 2003).

yondashuvning muhimligini ta'kidlab, ko'rsatmalar to'plami sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, u bir qator o'ziga xos bosqichlar orqali bolaning, yosh o'yinchining, keyin esa kattalar o'yinchining rivojlanishi to'g'risida tushuncha beradi. Model 10 ta asosiy tamoyillar to'plamiga asoslangan (Balyi va hammual., 2005).

Birinchi muhim tamoyil – bu o'yinchining dastlabki rivojlanishdan to'rtinchi yilgacha uning potensial imkon chegaralarigacha bo'lgan vaqtni baholash.

10 yillik qoida taqdim etilgan muntazam va davomiy mashg'ulotlar

doirasining to'liq rivojlanishi uchun asosdir. Biroq, bu asosiy talab deb hisoblanmasligi kerak.

Ushbu sport turida haqiqiy salohiyatga erishishni istagan va

intiluvchilar uchun qo'llanma deb hisoblasa bo'ladi. Uchinchi tamoyil shundan iboratki, erta ixtisoslashish o'yinchi uchun muammo tug'dirishi mumkin, chunki u asosiy harakat ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim

vaziyatlar e'tibordan qolib ketishi

Regbi o'yini uchun - turli pozitsiyalardan harakatlanishni boshlab, turli tezlik va yo'nalishlarda yugurish, muvozanatni saqlash va

boshqarish uchun to'satdan to'xtash, himoyachini chalg'itish va to'p

ushlagan o'yinchini boshqarish kabi ko'nikmalar katta qiziqish uyg'otadi. Asosiy ko'nikmalarga chap va o'ng oyoqlar bilan to'pga turli xil

zarbalar, to'pni uzatish, to'pni ilib olish, vaziyatga qarab turli xil texnik va

usullardan foydalangan holda to'pni tepish, yiqilib tushish, chayqalish, sakrash va hokazo kiradi.

Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yosh o'yinchilarga

imkoniyatlar taqdim etilishi kerak. Bizning vazifamiz ularni doimiy ravishda

sport o'ynashga undashdir.

Murabbiylar, ota-onalar, o'qituvchilar va



- ma'murlar (yoki shunchaki ta'lim va sport sohasida hamjamiyat a'zosi) sifatida barchamiz bu sohada katta mas'uldirmiz.
- Shunday qilib, agar yosh o'yinchining qobiliyatlari va jismoniy imkoniyatlarini samarali rivojlantirish uchun qabul qilingan imkoniyatlardan muvaffaqiyatli foydalanishni xohlasak, o'yinchining uzoq muddatli rivojlanishining mohiyatini tushunish uchun murabbiy faoliyatida buni hisobga olish muhimdir.
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.
1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ 394-son Qonuni (2015.04.09). Xalq so'zi. – Toshkent, 2015.5-sentyabr.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida Regbi sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4500-sonli Qarori.
 3. Регби ўйинига тайёргарлик. Рус т., ўзбек кирилл ва лотин графикасида. – Т., 2020. б. 96
 4. World Regby техник кўникмалар шаклланишида асосий омиллар. Рус т., ўзбек кирилл ва лотин графикасида. – Т., 2020. – б. 44
 5. World Regby куч ва жисмоний тайёргарлик 1 даража. Рус т., ўзбек кирилл ва лотин графикасида. – Т., 2020. б.
 6. Абдуллаев А.А. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. – Т., 2019. – б. 320
 7. Саламов Р.С. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. 2-жилд. – Т., 2019. – б. 182.
 8. Гончарова О.В. Болалар жисмоний сифатларини тарбиялаш. – Т., 2019. – б. 204.
 9. Абдурахмонов М. Махмудов А.Т.Жисмоний тарбия ва спорт тиббиёти. – Т., 2018. – б. 84.
 10. Сафарова Д.Д. Ёшга оид физиология. – Т., 2018. – б. 176.
 11. Шарипов А., Жамматов Ж. Малакавий педагогик амалиёти. – Т., 2018. – б. 114.
 12. Саламов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

[Google](#) [Яндекс](#) [@mail](#)

педагогик технологиялар. – Т., 2018. –
б. 160.



YOSHLAR DUNYOQARASHI VA XULQ-ATVORIGA TA'SIR

ETUVCHI OMILLAR

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani

*11-umumiy o'rta ta'lim maktabi
psixologi*

Jabborova Nafisa Jumanazarovna

Annotasiya. Ushbu maqolada zamon bilan hamnafas yashab kelayotgan yosh kadrlarni tarbiyalashda, oliy ta'limda egallayotgan bilimlarini mustahkamlashda ta'sir etuvchi omillar, ularni amaliyotga tadbiq etish muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mafkura, g'oya, immunitet, taraqqiyot, ta'lim tarbiya, halollik, poklik, oila, mahalla, jamiyat, davlat, tarbiyachi, mutaxassis.

Bugungi mafkuraviy kurashlar, inson ongi va qalbini egallash uchun olib borilmoqda. Bu kurashning zamirida esa, turli yot va vayronkor g'oyalarni amalga oshirish yotadi. Shunday ekan, davlatimiz mustaqilligini, milliy mafkurani mustahkamlashning muhim shartlaridan biri oila tarbiyasidir.

Yoshlar ma'naviyatiga ustozlarning ta'lim-tarbiyasi va o'g'itlari, ota-onalar va bobo buvilarning pand-nasihatlarida, atrof-muhitda bo'lib turgan hodisalar

ta'sir ko'rsatibgina qolmay, ularda bilim, ko'nikmalarni shakllantirib boradi. Kelajak avod tarbiyalanuvchilariga ilk yoshdan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak degan, savollarga asoslangan holda aytish mumkinki oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi, oliy maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya uzviyligi yo'lga qo'yilsagina har bir ilmi toliblar sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Oila - insonni halol va pokiza bolishiga, ilm-fan asoslarini egallashga, tabiatni e'zozlashga da'vat etadigan ma'naviy, diniy, axloqiy qadriyatlariga alohida e'tibor berishga undaydi.

Inson kamoloti shunchalik murakkabki, unga hayotiy tajriba yetarli emas, uning uchun o'rganish, bilim, o'qish nihoyatda zarurdir. K.D.Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «Pedagogik adabiyot orasida»gi risolalarida ota-ona uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o'rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug'orilgan-xalqchilik g'oyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon tarbiyachilik san'atiga ega bo'la oladilar», – deyilgan.[7]

Tarbiya - o'sib kelayotgan avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy



kamolot va dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab, umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu sababli, tarbiya so'zi ko'p vaqtlarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi. Tarbiya-ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi. [8]

Tarbiya turlari nihoyatda ko'p, shulardan biri bu oila tabiyasidir. Shu o'rinda xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan ibratli so'zlari tarbiya insonideal hayotida muhim o'rin tutishidan dalolat beradi. Tarbiya va ta'lim birgalikda uzviylikda olib borilishi lozim. Bunda albatta oilaning o'ziga xos g'oyalar, motivasiyalar va go'yalar bera oladigan kuchi bolishi darkor. Bu g'oyalar ota-ona tomonidan farzandlarga tarbiya orqali singdiriladi. "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir". Shu sababli, ta'lim-tarbiya hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifato'rganilishi zarurligi haqidagi ko'rsatma, va yuksak madaniyat egasi bo'lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Buyuk bobokalonlarmiz Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Imom at-Termiziy, Ibn Sino, Alisher Navoiyning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi buyuk g'oyalari, hikmatlari katta o'rin tutadi.

Inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va odamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr g'oyadir. Unda olamni bilish va amaliy o'zgartirish maqsadlari ularga erishish yo'llari va vositalari mujassam bo'ladi. Falsafa tarixida g'oya turli ma'nolarda qo'llangan. Demokrit atomlarni moddiy bo'lmagan, konkret narsa va hodisalardan tashqarida bo'lgan ideal mohiyatni g'oya deb hisoblagan. G'oya falsafiy tafakkur doirasida xilma-xil ma'nolarda talqin etilgan tushunchalardan biridir. Bugungi kunda falsafiy tafakkur erishgan natijalarga tayanib, g'oyaning mohiyati, gnoseologik maqomi to'g'risida muayyan umumiy xulosalarga kelingan. Ilmiy fakt, muammo, faraz, nazariya kabi voqelikni aks ettirish, ilmiy bilishning o'ziga xos shakli, yangi bilim va paradigma (sistema) sifatida chiqadigan g'oyada voqelik bundan keyin qay yo'nalishda maqsad botiniy tarzda mujassamlashgan bo'ladi va shu tufayli u ulkan yo'naltiruvchilik rolini o'taydi. Ilmiy g'oyalar taraqqiyot omiliga aylanishi



uchun ma'lum shartsharo-it bo'lishi kerak, ya'ni jamiyatning umumiy bilim darajasi yuzaga kelgan yangi bilimni qabul qilishga tayyor bo'lishi hamda uni tekshirib ko'rish, tasdiqlash yoki inkor etish imkoniyati — qurollar, vositalar. moliyaviy resurslarga ega bo'lishi lozim. Aks holda u ma'lum madaniy-ma'rifiy hodisa sifatida qolib ketadi. G'oyaning voqelikka mos kelishi muhimdir .[5]

Ijtimoiy g'oya ilmiy g'oyadan farq qilib, bo'lajak kadrlarni uyushtiruvchanlik xususiyatiga ham ega, shu bilan birga u jamiyat hayotiga bevosita ta'sir o'tkaza oladi. Bunday g'oya ijobiy yoki salbiy rol o'ynashi mumkin. O'zbekistonda mustaqillik davrida milliy istiqloq g'oyasi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu konsepsiya mazmuni bo'lajak mustaqil fikrlaydigan, mustahkam va mukammal bilimga ega intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi azaliy haqiqatdir. Oila zaminida millatimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Oiladagi tartib intizom olgan bolalar o'zlarining bu xislatlarini ijtimoiy hayotga va faoliyatlarida ro'yobga chiqarib, bu orqali jamiyat va davlat ravnag'iga o'z hissalarini qo'shadilar. Oiladagi odob-axloq,

xushmuomalalik, mehnatsevarlik insonning muloqot va munosabatlarida o'ta muhim shaxsning yurish turishi va fe'l-atvorida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa bu his-tuyg'u uni hayoti davomida hamroh bo'ladi.

Bugungi kunda ko'pgina oilalarda ota-onalarning farzandlar tarbiyasiga mas'ulyatsizliklari, boylik ortirish maqsadida xorijiy mamlakatlarga yillab qolib ketishlari, farzandlarining nazoratsiz qolishlariga, tarbiyalanuvchilarning, yot goyalar va mafkuralarning girdobida aralashib, noto'g'ri yo'llarga ketib qolishlariga olib kelmoqda. Jamiyatdagi bu illat gap qaytarishda, xoxlagan gapini, fikrini ochiq-oydin, tortinmay gapiraverishidagina emas, balki ayrim yoshlarni jamoat joylarida kiyinishi, muomala qilishida ham ko'rinadi. Andishasizlik bizga asosan internetda berilayotgan turli xil yolg'on xabarlar, maqolalar, ko'rsatuvlar, kinolar orqali kirib kelmoqda. Afsuski, ayrim oilalar va ota-onalar farzandlaridagi andishasizlikni botirlik, aqllilik, bilimdonlik belgisi deb tushunuvchilar ham yo'q emas. Aqlli, tarbiyali bilimli inson andishasizlik qila olmaydi. Chunki ta'lim-tarbiya ko'rgan yoshlarda uyat, ibo, hayo, vijdon, or-



nomus, hurmat, sadoqat, izzat-ikrom, ehtiyotkorlik kabi axloqiy normalar mavjud. Bu axloq normalarini har bir o'zini barkamol insonman deb da'vo qiladigan inson o'zida to'liq shakllantirishi kerak bo'ladi. Axloqiy normalarmiz davlatimizda qonun-qoidalar, farmon va farmoyishlar bilan jamiyat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etmoqdaki, ta'lim-tarbiya jarayoni islohotlar taraqqiyotda yaqqol ko'zga tashlanib, sohadagi kamchiliklar va boshliq hosil bo'lgan jabhalar nazorat ostiga olinmoqda.

Bugungi yoshlarimiz bilimli, aqlli, ko'p tillarni, komp'yuterni yaxshi biladigan, internetdan yaxshi foydalana oladigan yoshlardir. Lekin afsuski, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarga ko'ra nafaqat yoshlar, balki o'rta yoshlilar orasida ham turli tahdidlarga bardosh bera olmay turli oqimlarga kirib, turli yolg'onlarga ishonadiganlar ham uchramoqdaki, bu demak hali oilalarda, mahalla va jamiyatda befarq loqayt insonlar borligidan, mafkura targ'ibot-tashviqot sohalarida ma'lum kamchiliklarimiz borligidan dalolat beradi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi kemptikli va nozik, kamchiliklar uchrab turgan joylarni isloh qilish maqsadida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

rahnomoliklarida "beshta muhim tashabbus" amaliyotga tatbiq etilmoqdaki, bu islohot sohadagi oqsoqli nuqtalarimizni ma'naviy ozuqlantirishga, yuksak ma'naviyatli, ma'rifali yoshlarimizni musiqa va san'at, sport, internet tarmoqlaridan oqilona foydalana oladigan, yuksak darajada bilimli kitobxonlar bo'lishi bilan birgalikda, hayoli, iboli qizlarmiz bizning ornomusimiz bo'lishi uchun yanada muhimroq bir yo'nalashlar jamlanmasi bo'ldi, biz bu bilan faxrlanishimiz va g'ururlanishimiz darkor, albatta.

Internet, uyali aloqa vositalari orqali ma'naviyatimizga yot g'oyalarni targ'ib qiluvchilar asosan yoshlarning xis-tuyg'ulariga ta'sir qilish yo'li bilan o'z maqsadlariga erishishga harakat qiladilar. Katta yoshdagi, hayot tajribasiga ega bo'lgan ba'zi ota-onalar farzandlarining kiyinishda, muomalada, atrofidagi odamlar bilan bo'lgan munosabatida, orzu va intilishlarida g'arbona xulq-atvordagi salbiy jihatlardan o'rnak olayotganliklariga beparvo bo'lishlari, ba'zan ularni rag'batlantirishlari, yosh avlod tarbiyasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Oramizda ba'zan bilib-bilmay ma'naviyatimizga tajovuz qiluvchilarga yon bosuvchilarning uchrab qolishi beshikdan to qabrgacha ilm izlash



bilan bir qatorda tarbiya olishning zarurligini ham isbotlaydi.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, otionalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab qiladi.[3]

Xulosa qilib aytganda, yuksak intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalash, davlatimizning birinchi darajali vazifasi bo'lib turgan shu kunlarda ularga bilim, ko'nikma, tarbiya, milliy urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini singdirish lozim bo'ladi. Shundagina biz o'z oldimizga qo'ygan vazifamizni bajargan, mustaqil davlatimiz taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. 2017-2021 yillar O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi.
www.lex.uz

2. Hasanboyeva O., "Oila pedagogikasi" T.: Aloqachi, 2016 y, 383 b.

3. Абдуллаев Ш.Д., Сатторов А.Э Ёшлар тарбиясида мактаб ва оила ҳамкорлиги. Ўқув – услубий қўлланма. Тошкент “Мухарир”, 2017.75 бет.

4. Алимардон Т. Миллий таълим: танқид ва таклиф. –Тошкент, Тафаккур журнали, № 4. 2019. –Б. 19



MAKTABLARDA ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Yusupov Abdurahmon

Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi

41- umumta'lim maktabining

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda ona tili va adabiyot fanlarini rivojlantirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda ta'limsohasida o'zgarishlar va xolatlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, maktablarda ona tili va adabiyot fanlarini rivojlantirish yo'llari bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili va adabiyot fanlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, zamonaviy metodologiya, o'quv-metodik majmualar, davlat ta'lim standartlari.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquqtartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va

diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli Qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab



chiqish va amaliyotga joriy etish. “Ona tili va adabiyot fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv moduli malaka oshirish jarayonida fan o‘qituvchilarini sohadagi yangiliklar, o‘quv-me’yoriy hujjatlar, yangi metodik qo‘llanma va tavsiyalar, adabiyotlar bilan tanishtirishga, egallagan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini kelgusida amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltiradi. Shu bois, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining mo‘ljallangay 144 soatli malaka oshirish kursining o‘quv dasturiga Ona tili va adabiyot fanini o‘qitish metodikasi fanni o‘qitishda AKT larni ahamiyati bo‘yicha mavzular kiritilgan. “Ona tili va adabiyot fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv modulining ishchi o‘quv dasturi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, fanni o‘qitishning zamonaviy usul va metodlari bilan tanishtiradi. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining 144 soatga mo‘ljallangay 144 soatli malaka oshirish kursining o‘quv dasturi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, u ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilariga fan metodikasining mazmun va mohiyatini ochib beradi. Amaldagi davlat ta‘lim standartlarining mazmuni:

- ✓ bilim, ko‘nikma va malakalar majmui;
- ✓ tayanch o‘quv reja;
- ✓ o‘quv dasturlari;
- ✓ baholash mezonidan iborat edi.

Yangi, ya‘ni kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standarti tarkibidan:

- ✓ o‘quv fanining maqsad va vazifalari;
- ✓ umumiy o‘rta fanlarini o‘rganishning mazmuni;
- ✓ tayanch va fanga oid kompetensiyalar;
- ✓ umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablari;
- ✓ tayanch o‘quv reja;
- ✓ o‘quv dasturlari joy oldi.

Ta‘kidlash joizki, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nik va malakalarini amalda qo‘llash layoqatini rivojlantirishga qaratilgan kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari loyihasi uch yil davomida respublikamizning 70 ta ta‘lim muassasalarida va Xalq ta‘limi vazirligi



tasarrufidagi 6 ta ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta maktabida tajribasinovdan o'tkazilib, takomillashtirildi. Davlat ta'lim standartlari, shu jumladan, ona tili davlat ta'lim standarti ham ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab beriladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'alar fikrini anglashga va shu fikr maxsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60- 73 betlar.
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005. 3-26 betlar.

3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.

4. Azizxo'jaeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.

5. Aytmatov Ch., Shохонov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. – T.: Sharq, 1998.

6. Активные формы преподавания литературы. Лекции и семинары на уроках в старших классах (составитель: Р.И. Альбеткова). – М.: Просвещение, 1991.



ФАРЗАНДИНГИЗГА ХАҚИҚИЙ ДЎСТ ТАНЛАШДА АДАШМАНГ!

**Ахмедова Инобатхон Хатамовна.
Андижон вилояти Асака туман
ХТБга қарашли 29 – умумтаълим
мактаби психологи**

Аннотация

**Маколада хозирги ўсиб келаётган
ёш авлодни китобхонликка бўлган
қизиқишларини орттиришда ота –
онанинг маъсулияти, ҳамда оилада
фарзанд тарбияси ҳақида фикрлар
юрителиди.**

Аннотация

В статье обсуждается ответственность родителей за повышение интереса подрастающего поколения к чтению, а также за воспитание детей в семье.

Калит сўзлар. “Инсон муаммоси”, “Комил инсон”, “Тадбири манзил”, “Китобхонлик дақиқаси”, Бешта муҳим ташаббус, “Avisenna”.

Ключевые слово. «Человеческая проблема», «Идеальный человек», «Адрес мероприятия», «Минута чтения», «Пять важных инициатив», «Ависенна».

Табиат яратган меваларнинг энг олий маҳсули, нодир мулки – гултожи жонли табиат ҳисобланади. Жонли табиатнинг кўрки султони – хазрати Инсондир. Инсониятнинг униб ўсиши ва улғайиш тарихига кўз ташлаганда уни ҳамisha ана шу яратувчи она табиат бағрида кўрамиз. Дарҳақиқат инсон ўзининг исми, жисми, риску – рўзи ва бутун борлиғи билан табиатга боғлиқ. Дунёнинг гўзаллигини, унинг ранг – баранглигини меҳнат ва ижод, билим ва маданият дунёсини тўла чуқурроқ ҳис қилиш инсон фаолиятининг ҳамма жихатларига жуда яхши таъсир этади. Албатта биргина оилада фарзандларга берилган тўғри тарбия келажагимиз равнақи йулидаги энг эзгу амаллардан ҳисобланади. Хозирги замон рухшунослари одамнинг ривожланишини, унинг характери ва бошқа хусусиятларини ўрганадиган фанларнинг сўнги йиллардаги маълумотларига асосан бўлғуси авлодлар ақл идрокиннинг 40% ига яқини 3 ёшгача бўлган давр ичида, қолган 60% и эса ҳаётининг кейинги йилларига шаклланадиган экан. Рухшуносларнинг фикрича 2-3 ёшли болалар онаси, отаси, бувиси, буваси ва бошқа қариндошларига ўртача 5000 га яқин савол беришини маълум қилдилар.



Зероки “Инсон муаммоси”. “Комил инсон” тушунчалари бугунги кунда пайдо бўлган эмас. Улар инсон тараққиёти билан шаклланиб борган ҳамда “ота –она ва фарзанд”, “Устоз – шоғирд ўртасидаги шарқона назокат”, меҳр ва эҳтиром каби тушунчалар буюк аجدодларимизнинг ижодий, илмий асарларида ўз ифодасини топган. Шу ўринда буюк қомусий олим Абу Али ибн Сино- Ҳар бир одам ақлий, ахлоқий ва жисмоний жихатдан кучли, етук бўлиши лозим. Агарда у бу хислатларга эга бўлмаса, жамиятнинг том маънодаги аъзоси бўлолмайди ва жамиятга фойда ҳам келтирмайди. Шунга кўра ҳар бир инсон бу хислатларни эгаллаган ҳолда камол топиши керак,- деб айтиб ўтган эди.

Қадимги юнон файласуфи Аристотель ўзининг ахлоққа оид асарларида тарбиянинг мақсади инсонни тадрижий ривожлантиришдан иборат деб биледи. Аристотель тарбия муддатини 21 йил:

- Бола туғилгандан 7 ёшгача
- 7 ёшдан 14 ёшгача
- 14 ёшдан 21 ёшгача деб белгилади

Унинг фикрича бола 7 ёшгача оилада тарбияланиши зарур, ҳамда уларнинг ёшига мос ҳолда эртақ ва хикоялар ўқиб бериш орқали нутқини ўстириш. 5 ёшдан бошлаб мактабга тайёрлаш керак деб таъкидлайди.

Абдулла Авлонийнинг фикрича, ахлоқ – бу хулқлар мажмуидир. Хулқ эса, кишида ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Уларнинг шаклланиши учун маълум бир шароит, тарбия керак. Кишилар туғилганда ёмон бўлиб туғилмайдилар, уларни маълум бир шароит ёмон қилади. Тарбия бола туғилган кундан бошланади ва умрининг охирига қадар давом этади.

Қозоқ халқининг буюк фарзанди Абай (Иброҳим) нинг фикрича болаларга билим беришнинг самарали йўли, аввало уларга она тилини ўргатиш, сўнг уларни табиий фанлар билан ошно қилишдир. Шундан кейин чет тилларни ўргатиш лозим.”... чин ният билан ўрганаётган бўлсанг, унда илмга меҳринг худди ўз онангни меҳридай илиқ ва самимий бўлади. Сен илмга чиндан ҳам ихлос қўйсанг, у ҳам сенга меҳр қўяди ва сен уни тезроқ қўлга киритасан. Агар сен унга чала меҳр қўйсанг, ўрганган илминг ҳам чала-чулпа бўлади”, - дейди шоир Абай (Абай. Танланган асарлар. Т., 1961. 184 бет)



Демак юқоридаги фикрларга таянган холда фарзанд тарбияси хозирги даврнинг муҳим, асосий вазибаларидан бири эканлигига шубҳатаъсир қилади, ҳамда оилада меҳнат қолмайди, зероки фарзанд тарбияси хар бир ота онанинг олдида турган маъсулият эканлигини хис қилиш лозим.

Маълумки оила жамиятнинг биринчи ва бирламчи заррасидир. Жамият ана шу кичик зарралардан ташкил топади. Лекин у шунчаки зарра эмас, тирик вужудлар иттифоқидир.

Оила – миллат парвози учун илк учуш майдони хисобланади. Ўзбек оиласи болажонли оила. Бу ҳам бизга суннатдир. Ҳазрат Мухаммад пайғамбаримиз ўз хадиси шарифларида марҳамат қилиб айтибдиларки, ”Мен қиёматда ўз умматларимнинг кўп бўлиши билан севинишни истайман”.

Хар бир ота она фарзандини тарбиялашда энг кўп тарбияни нимага қаратмоғи зарурлигини билишлари керак.

Ибн Сино ўзининг “Тадбири манзил” асарида оила бошлиғи бола тарбиясида амалий ва назарий билимга эга бўлиши керак. Оила бошлиғида бу соҳада етарли тажриба бўлмаса, у оила аъзосига яхши тарбия

бера олмайди, оиладаги ёмон тарбия фақат оиланинг ўзига, балки қўшни оилалардаги тарбияга ҳам салбий тарбиясига эътибор беришни, меҳнат тарбияси ақлий, ахлоқий ва жисмоний тарбиянинг ажралмас қисми эканлигини таъкидлайди.

Маълумки хар бир ота она фарзандини хақиқий дўсти бўлишини хохлайди. Албатта бу дўст эсли –хушли. ақли бўлиши керак.

Фарзанди бу дўст билан бирга зерикмаслиги, фақат буюк орзуларга интилишини истайди. Лекин хозир шундай дўстни топиб бўладими?

Ота - она бунинг учун нималар қилиш керак? Энг аввало бола учун оилада соғлом муҳит яратиш зарур. Соғлом муҳит бу сизнинг фарзандингизга олиб берган қимматбаҳо кийимлар, компьютер, мобиль телефонлар билан таъминланиш дегани эмас, чунки компьютер ва телефонлардаги жанговар ўйинлардан тортиб беҳаё видеолар болани жахлдор, қахри қаттиқ қилиб қўяди, энг ачинарлиси боланинг оғзаки нутқини ривожланишига салбий таъсир қилиб фарзандингизни ташқи оламдан ажратиб қўйиши мумкин.



Хозирги кўпчилик ота оналар шароитни, тирикчиликни бахона қилиб ишда ёки бозорда савдо - сотиқ билан шуғулланиб, фарзандини нима билан шуғулланиши, мактабдаги ўзлаштириши қандай, дўстлари кимлар билмайди. Хаттоки вақти келса устозлар томонидан фарзандларнинг тарбиясидаги салбий жихатларини ота - оналарига айтиб огохлантирилганда, баъзи кўштирноқ ичидаги ота оналар фарзандини химоя қилиб ўқитувчиларга нисбатан қўпол муносабатда булишларини ҳам кузатяпмиз.

Бугунги кунда кўпчилигимиз мактанб: “Ёшларимиз компьютерни яхши билишади, интернет тизимидан хоҳлаган ахборотни бир зумда олишади”, – дея кўп гапирамыз. Аслида-чи, тўғри, ёшларимиз компьютер ривожланган асрда яшашяпти, хорижларда таълим олишяпти. Асосий билимни интернет саҳифаларидан олишга ҳаракат қилишяпти. Интернет саҳифалари нафақат инсоният ақлининг маҳсули, балки илоҳий неъмат бўлган китобнинг ўрнини боса олармикан. Эътибор берадиган бўлсак, болаларимиз тобора китоб ўқимай кўйишяпти. Муҳтарам президентимиз Шавкат Мирзиёев бошчилигида

китобхонликни янада ривожлантириш бўйича олиб борилаётган ишлар бизни янада қувонтираётган бўлсада, бугунги кунда фарзандларимизга китоб ўқишни, китобга меҳр қўйишни ўргатишимиз машаққат бўлмоқда.

Китоб – умр йўлларини ёритувчи сўнмас нур, инсон ҳаётига мазмун бахш этувчи саодат манбаи, унга ҳар қандай вазиятда ҳам ҳамроҳ бўлгувчи содиқ дўст. Инсоннинг маънавий камолотини таъминлашда китобдек қудратга эга восита топилмас. Шу боис азал-азалдан маърифат пешволари, аҳли донишлар бутун инсониятни китоб ўқишга, ундан илму одоб сирларини ўрганишга чорлаб келишган.

Президентимизнинг 2017 йил 13 сентябрдаги “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги қарори ҳамда давлатимиз раҳбари томонидан илгари сурилган бешта муҳим ташаббус ижросини таъминлаш мақсадида жуда кўп мактаб ва ташкилотларда “Маънавият ва маърифат” дарс соатига қўшимча равишда “Китобхонлик дақиқаси” тизими жорий этилмоқда.



Ҳақиқатан ҳам, китоб ўқиган инсон қайси соҳада ишламасин, теран фикрлаш, оқу қорани ажратиш, мураккаб вазиятларда оқилона қарор қабул қилиш кўникмасига эга бўлади.

Китоб – билим булоғи. Бу булоқдан баҳра олмаган инсон жоҳилликка юз тутуди. У ҳар қандай тубанликка қўл уриши, инсонийликни, виждонини арзимаган нарсага сотиб юбориши мумкин. Жамиятда китобхонлик қай даражада кенг оммалашган бўлса, зиёли аҳли шунчалик кўп бўлади, ўз навбатида бу жойда умуминсоний кадриятлар барқарор турмуш тарзига айланади.

Интернет қаршисида соатлаб ўтирадиганлар ғараз ниятли кимсаларнинг домига илиниб, қанчадан-қанча қотилликларга қўл урмоқдалар. Аммо китоб ўқиган инсонунутмаслигимиз керак. Тўй бундай қабихликларга қўл урмаслиги аниқ. Амир Темур бобомиз айтганлиридек: “Китоб барча бунёдкорлик, яратувчилик ва ақл идрокнинг илму-донишнинг асосидир. Ҳаётни ўргатувчи мураббийдир”. Аждодларимиз илм ўрганиш, китоб ўқишга ҳамиша энг муҳим вазифа сифатида қараб келишган. Қуръони каримнинг илк нозил бўлган ояти “Ўқи” амри бўлган. Ота-боболаримиз илм ўрганиш, китоб ёзиш ва ўқиш

борасида бутун тарих давомида бошқаларга ўрнак бўлишган.

Тарихдан бизга маълумки, илгари Яссавий, Бедил, Фузулий, Махтумқули, Машраб ғазалларини ёд билмаслик ор саналган..

Жумладан, Европада “Avisenna” номи билан машҳур бўлган Абу Али ибн Сино ўзи тушунолмаган юнон файласуфи Арасту (Европада Аристотел) нинг фалсафий асарини юртдошларимиз фароблик файласуф Абу Наср Фаробийнинг унга ёзган шарҳини ўқигач тушуна олган. Ибн Сино бу китобни Бухородаги китоб бозоридаги дўконларнинг биридан сотиб олган.

Фарзандларимизни китоб ўқишга ўргатиш билан бирга ўзимиз ота-оналар ҳам китобга ошно бўлишни маросимларга қимматбаҳо кийим-анжомларга катта-катта маблағларни аямай сарфлаймизу, фарзанд тарбияси учун зарур бўлган китобни олишни ҳаёлимизга ҳам келтирмаймиз?!

Баркамол авлодларни ўстириб вояга етказиш, келажакда фаровон турмуш қуришни орзу қилиб интилиб яшаётган ҳар қандай жамият, шу жумладан ўзбек халқининг ҳам азалий орзусидир. Хулоса ўрнида



Абдурахмон Жомий ҳазратларининг
қўйидаги мисраларини ёдга олиш
ўринлидир:

Китобдан яхши дўст йўқ жаҳонда,
Ғамхўринг бўлмай у ғамли замонда.
У билан қол танҳо, ҳеч бермас озор,
Жонингга юз роҳат беради такрор.
Барча ташвишларингизни бир четга
сурингда, фарзандингизга сиз ҳам
хақиқий дўст совға қилинг.

Адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2017 йил 13 сентябрь
куни қабул қилинган ПҚ-3271 сонли
қарори.
2. А.Зуннунов, Б.Тўхлиев,
Х.Маъсудов. Педагогика
тарихи."Шарқ" Тошкент.2002 йил 187
б.
3. Т.Малик. Умидимиз юлдузлари.
"Янги аср авлоди".Тошкент 2016.780 б
4.
А.Иброхимов,Х.Султонов,Н.Жў
раев. Ватан туйғуси."Ўзбекистон"
Тошкент 1996 йил.
5. Абай. Танланган
асарлар.Тошкент.1961.



O'QUVCHI O'QITUVCHI O'RTASIDAGI MUOMALA JARAYONINI YAXSHILASHDA PSIXOLOGIK MASLAHAT

Jo'rayeva Nargiza Hasanovna Buxoro viloyati Gijduvon tuman 24-maktab psixologi

Annotatsiya: O'qituvchilarning faoliyati uchun eng muhim narsa – muomalaning qonuniyatlari, uning rivojlanishi to'g'risidagi psixologik bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni egallashdir.

Mazkur maqolada o'quvchi o'qituvchi o'rtasidagi muomala jarayonini yaxshilashda psixologik maslahat

Kalit so'zlar: o'quvchi, o'qituvchi, muomala, psixologik maslahat.

Muomala-hamkorlik faoliyatning ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi, shaxslararo muloqot rivojlanishining ko'pqirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi ma'lumotlariga qaraganda muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo'ladi:

Kommunikativ (bir tomonlama) axborot uzatish. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo'lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida

muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bo'lmish nutq faoliyatiga bevosita murjaa qiladilar.

Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir). Muomalaning ikkinchi tomoni-muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazish, ta'sirlanishdan (masalan, o'qituvchi va o'quvchilar) iboratdir.

Pertseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish). Muomalaning uchinchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kirishuvchilar (muloqotdoshlar) o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo'ladi, insonni inson tomonidan idrok qilish yuzaga keladi. Masalan, bu jarayonning eng zarur tomoni shuki, unda muloqotga kirishuvchi, ya'ni muloqotdosh (sharik)larning bittasi ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqlli, farosatli, tajribali, yuesak tayyogarlikka ega inson sifatida uni idrok qilish juda muhim ekanligini anglash yoki bir-birlarini oldindan hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, deb taxmin qilish nazarda ruhiy holat vujudga keladi.

Muomalaning har uchala tomonini (jabhasini) birlikda, yaxlit hodisa sifatida olib qarash natijasida u hamkorlik



faoliyatini tashkil qilishning usuli va unda ishtirok etuvchilarning, ya'ni muloqotdoshlarning o'zaro munosabatlari tariqasida namoyon bo'ladi, muayyan tarzda davomiylikka erishadi.

Kasbiy muammoni muvaffaqiyatli ravishda shunday yechish mumkinki, qachonki o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga samarali kirisha olsa, shaxsni shakllantirishning maqsadi va vazifalariga javob beruvchi o'zaro ta'sir, o'zaro tushunuvni yo'lga qo'ya bilsa, faqat mana shundagina pedagogik muomala amalga oshadi, xolos.

Pedagogik muomala – bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish usullarining muayyan tizimini aks ettirishdir.

- hamkorlik ishtirokchilarining o'zaro axborot almashuvi;
- turlicha kommunikativ vositalar yordamida o'qituvchi tomonidan o'quvchi (talaba)lar bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatlarni tashkil qilish;
- muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishni rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajarish kabilar.muomala va shaxslararo munosabatlarda talaba bilan o'qituvchi

o'rtasida turli darajadagi ayrim nizoli holatlar uchrab turadi:

- o'qituvchi bilan o'quvchi (talaba)o'rtasida fikriy yakdillikning yo'qligi,
- foyda, naf to'g'risidagi ijtimoiy muammoda shaxsiy fikriy qarama-qarshilik mavjudligi,
- ayrim ma'naviy to'siqqa ega ekanligi,
- narsa va hodisalarning shaxsiy ma'no kasb etishi,
- ehtiyojlarning nufuzliligi,
- faoliyat, muomala, xulq uyg'unligining buzilishi kabilar.

Shaxs to'g'risidagi dastlabki axborotlar, ma'lumotlar, uning tashqi ko'rinishini baholashga aloqador namoyon sub'ektiv baholashni keltirib chiqaradi. Lekin o'zaro fikr almashish, muloqotga kirishish davomida omillar tobora haqchillashib, ob'ektivlashib boradi.

Pedagogik muomalada teskari aloqa yo'li bevosita ishtirok etadi:

- ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'uloti, diktant, insho boshqa mustaqil ishlar bajarilish jarayoni hamda ularning sifatida,



- qatnashchilarning yuz harakati, mimikasi, nutq intonatsiyasi, imo-ishoralar, qaddi-qomat tutishi,
- o'zini o'zi boshqarish (xulq-atvori, aqliy harakati, jiddiylik) singari axborot beruvchi (o'qituvchi) bilan uni qabul qiluvchi, o'quvchi o'rtasida uzluksiz muloqot amalga oshib turadi. Ana shu aloqa yo'llari orqali teskari munosabat o'rnatiladi, binobarin, o'qituvchi o'z faoliyatining natijasi yuzasidan muayyan ma'lumot olishg muvaffaq bo'ladi.

Muomala madaniyati, muloqot maromi, pedagogik odobiga o'rgatishning treninglari mavjud bo'lib, ularga hamkorlik faoliyati qatnashchilarini o'rgatish mumkn. Treninglar o'z ichiga odatda quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) yurish-turish, javob berish, o'zgalarga e'tibor qilish mashqlari,
- 2) muomala qilish usuli, ko'nikmasi, malakasi va odati yuzasidan mashqlar,
- 3) muomalaning umumiy qonuniyatlarini o'rganish, ya'ni pedagogik muomala tizimini egallash mashqlari,
- 4) pedagogik kommunikatsiya texnologiyasi va instruksiga oid treninglar va boshqalar.

Endi ayrim treninglarning mohiyatini qisqacha sharhlab o'tamiz:

1. Muomalaning umumiy qonuniyatlariga oid treninglar:

- pedagogik odob mohiyati va unga rioya qilish yo'llariga taalluqli treninglar (milliylik, ma'naviyat, stereotiplar, identifikatsiya, refleksiya bo'yicha);
- muayyan rollar, psixodramalar orqali vaziyatning pishxologik manzarasini yaratish o'yinlari;
- ishbilarmonlik o'yinlar, favqulotdagi holatlarda o'zini o'zi boshqarishga doir mashqlar.

2. Pedagogik kommunikatsiya texnologiyasi va instruksiyasini egallashga oid treninglar:

- muomala ko'nikmasini o'zlashtirish bo'yicha (qaddi-qomat tutish, nutq faoliyati, o'zgalarni tushunish va anglash),
- mimika va pantomimika mashqlari,
- audiotrening (magnit tasmami o'zuvchiga asoslanib o'z nuqsonlari bo'yicha korrktsion ishlar o'tkazish),
- videomagnitofon orqali faktik materiallar bo'yicha tuzatish mashqlarini bajarish,
- ko'zga yordamida xatti-harakat, yurish-turish ko'nikmalarini egallash va



shaxsiy nuqsonlarini bartaraf etish,
yo'qotish,

- motivatsion, emotsional, regulyativ, kognitiv jabhalarining namoyon bo'lishiga qarab muomala texnologiyasi va instruktsiyasini maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish,
- pedagogik vaziyatga, holatga oid stsenariylar negizida tuzatish ishlarini olib borish va yangi fazilatlarni shakllantirish mashqlarini o'tkazish kabilar.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, inson shaxsini shakllantirishda o'quv va mehnat faoliyati, xulq-atvor malakalari qanday yuksak ahamiyat kasb etgan bo'lsa, muomala jarayoni ham xuddi shunday mas'uliyatli vazifani bajaradi.

Izlanishlarning ko'rsatishicha, pedagogning o'quvchilarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabati, ularga tiniq, bosiq anda murojaat qilishi o'quvchilarda erkinlikni his qilishda yordam beradi. o'quvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'lish ularda ishonchsizlik kam gap bo'lishga, o'quvchilarni laganbardorlik kabi yomon fazilatlar shakllanishiga olib keladi. O'quvchilar tomondan yaxshi ko'ringan, hurmat qozongan o'qituvchining gapi, begona, yomon ko'ringan o'qituvchining gap-so'zlariga

qaraganda, o'quvchi tomondan umuman boshqacha qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E. G'oziyev. Muomala psixologiyasi. T. 2001
2. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. Namangan. 2005.
3. Psixoanaliz asoslari.«O'zbekiston» nashr. Tuzuvchi M.Otajonov. T.2005.



МАКТАБЛАРДА ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ТИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Шокаримова Сарвара Абдуллаевна

Ховос тумани 4- сонли мактабнинг

*она тили ва адабиёт фани
укитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада мактабларда она тили ва адабиёт фанларини ўқитиш тизмини ривожлантириш йўллари ёртилган. Шунингдек, мамлакатимизда она тили ва адабиёт фанларини ўқитиш тизмини ривожлантириш бўйича қарор ва чора-тадбирлар ёритиб берилган. Бундан ташқари, мактабларда она тили ва адабиёт фанларини ўқитиш тизмини ривожлантириш бўйича хулоса ва таклифлар берилган.

Таянч сўзлар: она тили ва адабиёт, Ўзбек тили, илм-фан, маънавиятини юксалтириш, ўқувчилар билимини ошириш.

Ўзбек тилининг халқимиз ижтимоий ҳаётида ва халқаро миқёсдаги обрў-эътиборини тубдан ошириш, униб-ўсиб келаётган ёшларимизни

ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларга садоқат руҳида тарбиялаш, мамлакатимизда давлат тилини тўлақонли жорий этишни таъминлаш, Ўзбекистондаги миллат ва элатларнинг тилларини сақлаш ва ривожлантириш, давлат тили сифатида ўзбек тилини ўрганиш учун шарт-шароитлар яратиш, ўзбек тили ва тил сиёсатини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари, устувор йўналиш ва вазифаларини ҳамда истиқболдаги босқичларини белгилаш мақсадида, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармониға мувофиқ:

2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси мувофиқ тасдиқлансин ва унда қуйидагилар назарда тутилсин:

- мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий ҳаётининг барча соҳаларида давлат тили имкониятларидан тўлиқ ва тўғри фойдаланишга эришиш;
- таълим ташкилотларида давлат тилини ўқитиш тизимини янада



такомиллаштириш, унинг илм-фан тили сифатидаги нуфузини ошириш;

□ давлат тилининг софлигини сақлаш, уни бойитиб бориш ва аҳолининг нутқ маданиятини ошириш;

□ давлат тилининг замонавий ахборот технологиялари ва коммуникацияларига фаол интеграциялашувини таъминлаш;

□ давлат тилининг халқаро миқёсдаги ўрни ва нуфузини ошириш, бу борада хорижий ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириш;

□ мамлакатимизда истиқомат қиладиган барча миллат ва элатлар тилларини ривожлантириш мақсадида кенг ва тенг имкониятлар ҳамда уларга давлат тилини ўрганиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш;

Дунё тил таълими назариясида прагматик компетенция ахборотлар билан ишлаш, илм-фан, техника янгиликларидан хабардор бўлиш, фойдаланиш, миллий ва умуммаданий, имловий, ишоравий, услубий саводхонлик, нутқий фаоллик ва етуқлик каби таълимий ҳамда лингвистик компетенциялар негизида уларнинг мажмуи сифатида юзага келиши эътироф этилган. Бу ўқувчиларда тинглаш, ўқиш, сўзлаш,

ёзиш, тушуниш, англаш, қўллаш, баҳолаш каби лингвистик ва нутқий прагматик компетенцияларни бадиий матнларнинг фонетик, лексик, морфологик, синтактик, услубий ва семантик таҳлили асосида

шакллантириш ҳамда ривожлантиришга йўналтирилган таълимий технологияларнинг илмий-методик тақомилига асос бўлади.

Жаҳон билан бўйлашаётган Ўзбекистон Республикаси таълим сиёсатининг мазмун-моҳияти ҳам “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиш”ларига қаратилган, жумладан, она тили ва адабиёти фани ўқитувчилари олдида она тилини севадиган, қадрлайдиган, унинг бойлиги, гўзаллиги ва бетакрорлигини ҳис этадиган, лингвистик ва нутқий билим, малака ва кўникмалари ҳамда лаёқатлари етуқ ўқувчиларни тарбиялашдек муҳим вазифа қўйилган. Бу, албатта, бадиий матнлар таҳлили асосида ўқувчиларда ҳаётий эҳтиёжга айланган прагматик компетенцияларни ривожлантириш ва такомиллаштириш масалалари тадқиқи долзарб эканлигини кўрсатади.



Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармонидаги таълим соҳасига оидва кўникмаларни, тил ва нутққа оид бандлар ижросини таъминлашда, 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармонида таъкидланган кўрсатмасини таълим амалиётига татбиқ этишда², шунингдек, мамлакат раҳбари томонидан илгари сурилган “Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича бешта муҳим ташаббус”нинг тўртинчисини ҳаётга жорий Она тили ўқитишнинг мазмуни, интеграцияли таълим орқали ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини ривожлантириш ҳамда матн устида ишлашга доир А.Ғуломов, А.Нурмонов, А.Зуннунов, Қ.Йўлдошев, Б.Тўхлиев, Қ.Ҳусанбоева, М.Мирқосимова, Ш.Юсупова, Н.Улуқов, М.Абдураимова, Т.Зиядова, Р.Сафарова, Э.Қиличев, Б.Йўлдошев, Х.Мухитдинова, В.Қодиров, Х.Қурбоноваларнинг илмий

тадқиқотлари яратилган бўлса-да, бироқ тил таълимида матн таҳлили орқали ўқувчиларда прагматик компетенцияни ривожлантириш асосида уларнинг оғзаки ва ёзма саводхонлик, нотикликка доир малака билан таълимларини бойитиш, ривожлантириш, такомиллаштириш муаммоси кўрилган. Бундан ташқари, мактабларда она тили ва адабиёт фанларини ўқитиш тизимини ривожлантириш бўйича хулоса сифатида айтиш мумкинки хорижий мамлакатлар тажрибаларини ўргани ва Президентимиз томонидан чиқарилаётган қонунларни ижросини кучайтириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1371>
2. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”, 1997-йи, 29-август.
3. Й. Ғуломов “Ўзбек тили ўқитиш методикаси” Тошкент-1998-йил.
4. Баркамол авлод орзуси- Тошкент.: 1999, 205- б. 10. Азизходжаева Н.Ҳ



“Педагогик технология ва педагогик махорат”- Тошкент.: ТДПУ, 2017, 174 бет.

5. Бошланғич таълим Концепцияси, Бошланғич таълим журнали. Тошкент, 2013.



MAKTABLARDA INGLIZ TILI O'QITISH JAROYONINI RIVOJLANTIRISH VA INLIZ TILIGI QIZIQISH O'YG'OTISH YO'LLARI

Atajanova Gulnoza Abdumutalibovna

Andijon shahar 27-umumtalim

maktabi o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda ingliz tili o'qitish jaroyonini rivojlantirish va ingliz tiligi qiziqish o'yg'otish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda ingliz tilini o'qitish xolati ham tahlil qilingan. Qolaversa, maktablarda ingliz tili o'qitish jaroyonini rivojlantirish va ingliz tiligi qiziqish o'yg'otish yo'llari bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, o'qitish metodologiyasi, ijodiy qobiliyatlar, chet tilini o'qitish, Analitik komponentlar, ijodiy fikrlash.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitish jarayonida o'spirinlarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Umumta'lim maktablarining pedagogik jarayonining zamonaviy sharoitida bu

tarixiy, etnik, madaniy va ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan muhim ilmiy muammodir Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya tizimida ingliz tili darslaridan foydalanish tajribasini umumlashtirmasdan mumkin emas. Ingliz tili, uning rivojlanish tarixi, xalq madaniyati va kundalik hayotini o'rganish nafaqat talabalarning ingliz tilini o'rganishga qaratilgan faoliyati, balki chet tilini o'qitishni ta'minlaydigan va maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini aniq hayotiy material bo'yicha rivojlantirish shartlaridan biri sifatida qaralishi kerak. O'smirlarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish ijodiy fikrlashni rivojlantirishga va ayniqsa, shunga o'xshash narsalarga asoslangan komponentlar quydagilar:

- Analitik komponentlar - shunga muvofiq, kontseptual va mantiqiy fikrlash - izchillik, harakatchanlik, selektivlik, assotsiativlik, aql, farqlash qobiliyati va hk.;
- Hissiy komponentlar(hissiy - majoziy fikrlash): tasvirlarning yorqinligi, voqealarni, faktlarni, hodisalarni hissiy baholash va boshqalar.
- Ijodiy komponentlar(vizual-samarali fikrlash): oqilona echimlarni izlash, nostandart (individuallik, o'ziga



xoslikning namoyon bo'lishi, stereotiplardan xalos bo'lish), natijani oldindan bilish qobiliyati, faoliyatdagi eng yaxshi bilim va ko'nikmalarni sintez qilish istagi, mumkin bo'lgan variantlardan eng maqbul echimni tanlash va to'g'ri tanlovni asoslash qobiliyati.

2019 yilning 15 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov va Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori Reychel Aylend ingliz tili o'qitilishini isloh qilishga qaratilgan harakatlar rejasi to'g'risidagi kelishuv xatini imzoladi.

Future English loyihasi Britaniya Kengashining ta'lim tizimida ingliz tilini o'rganish va o'qitishda sifatni ta'minlashga qaratilgan global strategik rejasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, kelgusidagi innovatsiyalarni tatbiq etishga hamda rivojlantirishga turtki bo'ladigan tadqiqot o'tkazishni ko'zda tutadi.

Loyihaning asosiy maqsadi - mehnat bozoriga kirib borayotgan yoki oliy ta'lim olishga intilayotgan maktab bitiruvchilarining ingliz tili darajasi bo'yicha ko'tarilayotgan va qayta-qayta ta'kidlanayotgan muammolarni tadqiq etish hamda ingliz tilini o'qitishdagi milliy siyosat va muhim strategiyalarni

yaratishda qo'l yeyeladigan, xalqaro ma'lumotlar standartlari bilan taqqoslanishi mumkin bo'lgan ishonchli ma'lumotlar tanqisligini bartaraf etishga qaratilgan.

Mazkur loyiha mavjud muammolarni aniq va ishonchli dalillar to'plagan holda sifatli tadqiqot o'tkazish hamda

natijalardan kelib chiqib, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga ko'maklashish orqali hal etishni ko'zda tutgan. Future English loyiha yo'nalishi ingliz tilini o'qitish siyosatini yanada samaraliroq rivojlantirishda foydali bo'luvchi ma'lumot hamda natijalarni global va mintaqaviy darajada taqqoslash imkonini beradi. Vaqt o'tishi bilan ma'lumotlarning yangilanib borishi eng so'nggi tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi hamda milliy taraqqiyotda ingliz tilining roli va ta'sirini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Eng aniq, talabalarning ijodiy faoliyat yo'nalishlari ularning sevimli mashg'ulotlarida namoyon bo'ladi. Ular tabiiy va boshqa metallardan biror narsa yasaydilar, adabiyotni yaxshi ko'radilar, kundaliklar yuritadilar, fotosuratlar oladilar, to'plamlar yig'adilar, tabiat bilan muloqot qiladilar, chet ellik do'stlar bilan yozishmalar olib boradilar, odatiy va



kundalik narsalardan g'ayrioddiy narsalarni qidiradilar va hokazo. Bunday sevimli mashg'ulotlardan bilish faolligini oshirish uchun foydalanish mumkin. chet tili darslarida talabalarning faoliyati. O'qituvchining iltimosiga binoan bolalar darslarga o'zlarining to'plamlaridan chet tilidagi muloqotni jonlantiradigan fotosuratlar, postkartalar, xatlar, buyumlarni olib kelishadi, bu muloqot uning ishtirokchilari uchun yanada mazmunli, yaqin va qiziqarli bo'ladi. O'qituvchining vazifasi maktab o'quvchilarining sevimli mashg'ulotlarini chuqur o'rganish va bilish, ulardan sinfda talabalarning ijodiy ifodasi uchun foydalanishdir.

Hozirgi vaqtda rus maktablarida chet tillarini o'qitish amaliyotida o'quvchilarni tadqiqot faoliyati bilan tanishtiradigan, ularning ijodkorligini, mustaqilligini, mustaqilligini, fikrlashning o'ziga xosligini rivojlantiradigan loyiha usuli keng qo'llanilmoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki, loyiha faoliyati talabalar tomonidan loyihada ishlash jarayonida bilimlarini sezilarli darajada kengaytiradi va chuqurlashtiradi, bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Ingliz tilidan foydalanish qobiliyatini o'zlashtirish uchun ingliz tilida ma'lumot bilan ishlash uchun umumiy ta'lim intellektual ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bu holda bolalarning fikri muammoni qanday hal qilish, qanday oqilona yechimlarni tanlash, tanlangan yo'lning dalillarni qaerdan topish bilan band. Ijodiy topshiriqlarni bajarishda talabalar qo'shimcha adabiyotlardan, ommaviy axborot vositalaridan va Internet imkoniyatlaridan foydalanadilar. Loyihalarda ishlash bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lgan holda, ingliz tilini shu asosida o'qitish juda kata natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 1997-yi, 29-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 1997-yi, 29-avgust.
3. Y. G'ulomov "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent-1998-yil.
4. Barkamol avlod orzusi- Toshkent.: 1999, 205- b. 10. Azizxodjayeva N.H "Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat"- Toshkent.: TDPU, 2017, 174 bet.
5. Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi, Boshlang'ich ta'lim jurnali. Toshkent, 2013.



Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnali



Guvohnoma № 1170 ISSN 2180-2160

[Google](#) [Яндекс](#) [@mail](#)



BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Samarqand viloyati Narpay tumani

*38-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarbiya
fani o'qituvchisi*

Boboqulov Azizjon Ziyadullayevich,

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Saidova Shoira Ismoilovna

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv axborotlarni o'quvchilarga qiziqarli tarzda yetkazib berish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlari: boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, kompetentlik, innovatsiya, zamonaviy ta'lim.

Ta'lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o'taydi.

Faollik esa, o'z navbatida, bolalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi. Bu tamoyillar bir-birini to'ldiradigan hodisalar ularning mohiyatini tashqaridan ichkariga va ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayonlar sifatida tasavvur qilingandagina anglash mumkin. Mustaqillik va faollik o'zaro sabab va natija shaklida bog'langan didaktik hodisalardir. Haqiqiy mustaqillikga erishmagan mamlakatda fuqarolarning faolligi, tashabbuskorligi haqida gapirish mumkin bo'lmaganidek, ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlamasdan turib, ularning faolligiga erishib bo'lmaydi.

Бундан ташқари, Президент раислигида мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари

⁴⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”



муҳокамаси бўйича 2020 йил 30 октябрда бўлиб ўтган видеоселектор йиғилишида мактабларда ўқувчиларни фақат ёдлашга эмас, балки фикрлашга чорлайдиган методика яратиш зарурлиги таъкидланган. Шунингдек, мактабда ўқитиш методикаси ўзгармаса, таълим сифати ҳам, мазмуни ҳам, муҳит ҳам ўзгармаслиги қайд этилган⁵⁰.

Мамлакатимиз инновацион тараққиёт йўлида шиддат билан ривожланиб бораётган бир даврда келажакимиз давомчилари бўлган ёшларни ижодий ғоялари ва ижодкорлигини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг билим, кўникма ва малакаларини давлат таълим стандартлари асосида шакллантириш ҳамда илғор хорижий тажрибалар, халқаро мезон ва талаблар асосида баҳолаш тизимини такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эгадир⁵¹.

Шу ўринда амалдаги баҳолаш тизимига назар ташлайдиган бўлсак, мавжуд тизим ўқувчиларнинг амалий кўникмалари шаклланганлиги, ҳаётга тайёрлиги ёки фикрлашини эмас, балки, ўқувчилар билимини давлат таълим стандартлари

⁵⁰ <https://sof.uz/post/prezident-oquvchilarni-faqat-yodlashga-emas-balki-fikrlashga-chorlaydigan-metodika-yaratish-zarurligini-takidladi>

⁵¹ Ўқувчилар саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотлар дастури «ҚЎЛЛАНМА» Тошкент –2019й.

талабларига мослигин даражасини аниқлашга қаратилган эканлигининг гувоҳи бўламиз⁵².

Шундай экан, фикрлашга чорлайдиган ўқитиш методикасини жорий қилиш йўлида, ўз навбатида фикрлашини баҳолайдиган тизимни яратиш янада долзарб аҳамиятга эга бўлади. Хорижий мамлакатлар тажрибасига назар солар эканмиз, фикрлашни баҳолайдиган тизим сифатида Ўқувчиларнинг саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро PISA тадқиқоти ўзининг қамрови билан дунё мамлакатларини жалб қилиб келмоқда⁵³.

Ўзбекистонда ҳам таълим сифатини баҳолаш ва ривожлантириш тизимини такомиллаштиришда халқаро тадқиқотларда иштирок этиш муҳим аҳамиятга эгадир. Айни пайтда йирик халқаро баҳолаш дастурларидан бири бўлган PISA ҳақида тўхталадиган бўлсак, Ҳукуматнинг тегишли қарорига⁵⁴ мувофиқ, Ўзбекистон Республикасида ушбу тадқиқотни жорий этиш, унинг асосида миллий баҳолаш тизимини

⁵² Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг “Ўқувчилар билимининг Давлат таълим стандартлари талабларига мослиги даражасини аниқлашнинг амалдаги мониторинг механизминини такомиллаштириш тўғрисида” 2011 йил 17 сентябрдаги 213-сон буйруғи.

⁵³ www.oecd.org/pisa

⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 8-декабрь 997-сон Қарори



такомиллаштириш бўйича муҳим қадамлар қўйилганлигини кўриш мумкин.

Қарорга асосан PISA, PIRLS, TIMSS тадқиқотларида қатнашиш бўйича вазифалар белгиланган бўлиб, ушбу вазифаларни тизимли амалга ошириш учун Йўл харитаси ҳам тасдиқланган. Халқаро баҳолаш дастурларини дунёнинг исталган мамлакатада жорий қилиш ҳақида сўз юритилар экан, мазкур жараён билан профессионал ва илмий асосланган ҳолда фаолият юритувчи Миллий марказларнинг мавжуд бўлишига алоҳида урғу берилади. Ўзбекистонда ҳам Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси ҳузурида Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази ташкил этилган⁵⁵.

Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий марказига таълим тизимида ўқиш, математика ва табиий йўналишидаги фанлардан саводхонлик даражасини ривожлантиришнинг инновацион методларини ишлаб чиқиш ҳамда жорий этишга йўналтирилган илмий изланишлар олиб бориш, таълим сифатини баҳолаш соҳасида халқаро алоқаларни ўрнатиш, халқаро лойиҳаларни ишлаб чиқиш,

⁵⁵ www.markaz.tdi.uz – Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий марказининг расмий веб сайти.

амалга ошириш каби вазифалар юклатилди.⁵⁶

PISA (Programme for International Student Assessment) – ўқувчиларнинг саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқот дастури бўлиб, дастурнинг асосий мақсади 15 ёшли ўқувчи ёшларнинг ўқиш, математик ва табиий-илмий саводхонлигини ҳамда ижодий фикрлаш кўникмаларини турли хил тестлар ёрдамида баҳолашдан иборатдир. Ушбу лойиҳалар ўқувчи ёшларнинг ижодий, мантикий ва танқидий фикрлаши, эгаллаган билимларини ҳаётда қўллай олиш лаёқатига баҳо бериш ва кейинчалик бу кўникмаларни шакллантириш бўйича далилларга асосланган тавсиялар беришга хизмат қилади.⁵⁷

Ҳар уч йилда амалга ошириладиган PISA дастури мамлакатларга таълим тизимининг ютуқ ва камчиликлари юзасидан ўз вақтида ахборот бериш, тегишли дастурларнинг таъсирини таҳлил қилиш имкониятини яратиш, таълим сиёсати соҳасида қарорлар қабул қилишни қўллаб-қувватлайди.

⁵⁶ Ўқувчилар саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотлар дастури «Қўлланма» Тошкент –2019й.

⁵⁷ Ўқувчиларни халқаро тадқиқотларга тайёрлашга мўлжалланган 2- сон Ахборотнома. Тошкент-2020й.



PISA халқаро баҳолаш дастури шунингдек, ўқувчилар муносабати ва мотивацияси ҳақида қимматли маълумотлар тўплайди, ўқувчиларда муаммони ҳал қила олиш каби кўникмаларни ҳам баҳолайди. Масалан, глобал аҳамиятга эга масалаларни ҳал этишда ўқувчи-ёшларнинг фикр-мулоҳазалари, улар берган таклиф ва ечимларни баҳолайди.

Ўзбекистон PISA тадқиқотида иштирок этиш орқали қуйидаги мақсадларга эришиши мумкин бўлади:

умумтаълим мактаблари битирувчиларининг таълим олишни давом эттиришга қай даражада тайёрлигини аниқлаш;

мамлакатдаги умумий ўрта таълимни такомиллаштириш йўналишларини аниқлаш;

ўқувчиларнинг таълим соҳасидаги ютуқлари, шунингдек, турли мамлакатларнинг таълим тизимлари ҳақидаги қиёсий маълумотларни олиш.

Халқаро тадқиқотларнинг ўзига хос хусусиятлари шундаки, у ҳеч қайси бир давлатнинг ўқув дастурларига мос бўлишликни назарда тутмайди, аксинча бир хил мезон асосида бутун дунё ўқувчиларининг саводхонликлари баҳоланади. Бу эса, ўз навбатида,

ўқувчилар ва ўқитувчиларнинг ушбу янги тизим ҳақидаги тасаввурларини шакллантириш, тарғибот ва ташвиқот ишларига алоҳида эътибор қаратиш заруриятини келтириб чиқаради.

Ушбу мақсад йўлида умумтаълим мактабларининг ўқитувчиларига методик ёрдам кўрсатиш мақсадида ўқувчиларнинг ўқиш, математик ва табиий-илмий саводхонлигини баҳолаш, ривожлантириш ва мустақил ўрганишни қўллаб-қувватловчи 24 номдаги ўқув-методик қўлланмалар, шу жумладан, 4 номдаги методик қўлланма, 15 номдаги машқ дафтарлари, 2 та топшириқлар тўплами ва умумий характердаги қўлланмалар ишлаб чиқиқиб, мактаблар жамоалари эътиборига етказилди.

Бундан ташқари, PISA савол ва топшириқлари, уларнинг ечимлари ва баҳолаш мезонларидан иборат даврий Ахборотнома нашрининг 1- ва 2-сонлари тайёрланиб, 445 нусхада чоп этилди ва барча таянч мактабларга етказилди.

Таълим инспекцияси, Халқ таълими вазирлиги ва Ўзтелерадиокомпанияси билан ҳамкорликда халқаро тадқиқотларнинг тегишли йўналишлари бўйича 130 номдаги видеомахсулотлар, шу жумладан ўқувчиларнинг ўқиш, математик, табиий-илмий саводхонлик ва креатив фикрлаши ҳамда педагогларнинг



касбий ривожланиши йўналишларида 65 та видеодарс, 14 та махсус кўрсатув ва хориж тажрибасига бағишланган видеороликлар, халқаро тадқиқотлар ҳақида умумий маълумотлар берувчи 26 та видеомахсулотлар, шунингдек, ўтказилган семинар ва вебинарларнинг 25 та видеоёзувлари тайёрланиб, телеканаллар, Таълим инспекцияси ва унинг ҳузуридаги Миллий марказнинг ижтимоий тармоқлардаги саҳифалари орқали эълон қилинди⁵⁸.

Юқоридаги бажарилган ишларни ўқитувчиларнинг профессионал салоҳиятини ривожлантириш йўлидаги тадбирлар сифатида қарайдиган бўлсак, ушбу тадқиқот материалларини бевосита тадқиқот объекти сифатида ўқувчилар ўртасида тажриба-синов тариқасида тест синовлари ўтказиш муҳим аҳамиятга эга.

Тажриба-синов жараёнлари сифатида PISA талаблари асосида ўқувчиларнинг саводхонлигини баҳолаш бўйича 2020 йил 10-16 декабрь кунлари Республиканинг 150 та тасодифий танланган мактабларида ўтказилган Миллий тадқиқотни келтириш мумкин. Ушбу тадқиқотнинг натижаларини таҳлил қилар эканмиз, Республика бўйича барча иштирокчи мактабларнинг умумий ўртача

натижалари 43,3%ни ташкил этди. Ушбу натижани 2019 йилдаги апрель ойида Республикадаги 191 та мактабларда ўтказилган тадқиқот натижалари билан солиштирадиган бўлсак, 34%ни ташкил этган. Ўтган қарийб бир йил мобайнида олиб борилган чора тадбирлар асосида ўқувчиларнинг фикрлаши, реал ҳаётий вазиятлар билан боғлиқ, компетенциясини баҳолашга қаратилган савол ва топшириқлар билан ишлаш кўникмалари бир мунча ривожланганини кузатиш мумкин.

Юқоридakilардан келиб чиқиб, қуйидаги хулосаларни келтириш мумкин. Ўзбекистон Республикасида ўқувчиларнинг таълимдаги ютуқларини баҳолашнинг инновацион тизимини такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга. Ушбу тизимни такомиллаштиришда халқаро баҳолаш дастурларининг тажрибалари муҳим ўрин тутди. Халқаро баҳолаш дастурларини жорий этиш бўйича эса, Ўзбекистонда муҳим қадамлар қўйилган, жумладан дастлабки меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда мактаблар жамоаларини методик қўллаб-қувватлаш ва салоҳиятни ривожлантиришга бағишланган ўқув-услубий мажмуалар яратилган. Танланган мактабларнинг ўқувчиларида эса, ўқувчиларнинг саводхонликларини синовдан ўтказиш бўйича миллий

⁵⁸ Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий марказининг йиллик ҳисобот ҳужжати асосида тайёрланди



тадқиқотлар олиб борилган бўлиб, ўқувчиларда ўқув дастуридан мустақил маълумотлар, фикрлашни ўлчайдиган баҳолаш материаллари билан ишлаш учун зарурий кўникмалар етарлича шаклланмаган.

Шундай бўлсада, ушбу тизимни тўлиқ ҳолда янада такомиллаштириш, меъёрий-ҳуқуқий базани мустаҳкамлаш, мактаблар, ўқитувчилар учун ўқув-услубий кўланмалар, ўқувчилар учун дидактик материаллар, машқ дафтарлари ва бошқаларни ишлаб чиқиш ҳамда босқичма-босқич амалиётга жорий этиб бориш тавсия этилади.

Фойдаланилган манбалар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 8-декабрдаги 997-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг “Ўқувчилар билимининг Давлат таълим стандартлари талабларига мослиги даражасини аниқлашнинг амалдаги мониторинг механизминини такомиллаштириш тўғрисида” 2011 йил 17 сентябрдаги 213-сон буйруғи.
4. Ўқувчилар саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотлар дастури «Кўлланма» Тошкент –2019й.
5. Ўқувчиларни халқаро тадқиқотларга тайёрлашга мўлжалланган 2- сон Ахборотнома. Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази матбаа бўлими, Тошкент-2020й.
6. Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий марказининг йиллик ҳисоботи.
7. www.markaz.tdi.uz – Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга



ошириш миллий марказининг
расмий веб сайти.

8. www.oecd.org/pisa - Иқтисодий
ҳамкорлик ва тараққиёт
ташкilotининг расмий веб сайти.
9. [https://sof.uz/post/prezident-
oquvchilarni-faqat-yodlashga-emas-
balki-fikrlashga-chorlaydigan-
metodika-yaratish-zarurligini-
takidladi](https://sof.uz/post/prezident-oquvchilarni-faqat-yodlashga-emas-balki-fikrlashga-chorlaydigan-metodika-yaratish-zarurligini-takidladi)



АНАЛИЗ ФОНДА ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ И ОБЪЁМА ВЫПОЛНЕННЫХ РАБОТ ЗА 2018-2019ГОД

Шадиева Г.М. – профессор кафедры экономики ТГТУ, д.э.н.

Толипов Х.Н. - магистр Ташкентского государственного транспортного университета

Аннотация: В этой статье рассматриваются анализ заработной платы в условиях изменения объёма приходящиеся на одного человека за два года, показатель производительности труда унитарного предприятия Трест "Куприккурилиш". Даны расчёты факторов влияющих на фонд оплаты труда,

Ключевые слова: ФОТ, чистая выручка от реализации продукции, производительность труда.

Анализ заработной платы на показателях УП трест «Куприккурилиш»

Анализ того, в какой степени работники на предприятиях используют заработную плату, дает возможность избежать непроизводительных расходов, снизить себестоимость.

При анализе проводится сравнение фактически израсходованной заработной платы работников за отчетный период с плановым, фондом оплаты труда предыдущего года, выявляется ее разница и количественно рассчитываются следующие факторы, влияющие на нее:

- 1.Изменение объема изделия.
- 2.Изменение численности персонала (относительное).
- 3.Изменение среднегодовой заработной платы на одного работника.

Для определения влияния изменения объема выпуска продукции на фонд оплаты труда работников необходимо плановый фонд оплаты труда умножить на уровень роста выпуска продукции по сравнению с планом.

Для определения влияния второго фактора необходимо относительную разницу в численности персонала умножить на среднегодовую заработную плату, приходящуюся на одного работника по плану. Для определения влияния изменения среднегодовой заработной платы на одного работника на фонд оплаты труда необходимо умножить плановую разницу этого показателя на фактическую численность работников за отчетный период.



Теперь, используя практические данные унитарного предприятия трест “Куприккурилиш” для анализа факторов, влияющих на фонд оплаты труда, приведем следующую таблицу, (табл.2.1).

1. 2.1-таблица УП Трест “Куприккурилиш” анализ факторов, влияющих на оплату труда сотрудников

увеличением среднесписочной численности работников и среднегодовой заработной платы на одного работника в отчетном году. Как видно из данных, в текущем году на предприятии наблюдается некоторое усиление внимания к финансовому положению сотрудников и улучшение их материального положения.

Показатели	2018 год	2019 год	Разница (+,-)	показатели роста, %
1.Фонд оплаты труда (сум)	423542953	433781784	+10238831	102,42
2.Среднесписочная численность	83	85	+2	102,41
3. Среднегодовая на одного сотрудника зарплата, сум	5102927	5103315	+388	100

Как видно из данных таблицы 2.1. фонд заработной платы работников унитарного предприятия Трест “Куприккурилиш” за исследуемый период увеличился на 10 238 831 тыс. сумов. Абсолютная разница в фонде заработной платы объясняется

Теперь производится расчет по методу цепной подстановки факторов, влияющих на изменение размера фонда оплаты труда работников (табл.2.3).

Из данных таблицы 2.3 видно, что годовой фонд оплаты труда работников на объекте анализа увеличился на 10 238



831 тыс. сумов.. Это изменение произошло под влиянием следующих факторов:

1. В результате увеличения среднесписочной численности работников объем фонда оплаты труда увеличился на 10 205 854 тыс. сумов.
2. **2.3-Таблица Факторы, влияющие на фонд оплаты труда**
3. **расчет**

1. Факторы баланса: +10 238 834 тысяч сум

2. Увеличение размера среднегодовой заработной платы на одного работника стало причиной увеличения фонда оплаты труда на 32 980 тысяч сумов.

Таким образом, влияние всех факторов равно общему изменению результата: $(+10\ 205\ 854) + (+32\ 980) = +10\ 238\ 834$ тыс. руб.

За счет округления чисел в балансе

Порядковый номер	Порядок изменения	Включено в формулу расчета факторы		Конечный результат-Фонд годового вознаграждения сотрудников в	Разница по сравнению с предыдущим (+,-)
		Среднее количество сотрудников в реестре	Средняя годовая зарплата на одного сотрудника		
А	В	1	2	3	4
1	-	83	5 102 927	423 542 941	-
2	1	85	5 102 927	433 748 795	+10 205 854
3	2	85	5 103 315	433 781 775	+32 980

методом цепной подстановок

факторов получилась разница в 3 тысячи сумов (10 238 834-10 238 831).

С производительностью труда неразрывно связана средняя заработная



плата. Рост производительности труда также приводит к увеличению заработной платы. Производительность труда повышается в результате правильной организации работы на предприятии, правильного налаживания системы материального стимулирования. При анализе уровень роста производительности труда сравнивается с уровнем роста средней заработной платы. Более высокий рост производительности труда по сравнению с заработной платой приводит к уменьшению доли заработной платы в себестоимости продукции.

Ученые-экономисты А.В.Вахабов и А.Т. В учебниках Ибрагимовых сказано: «при анализе уровень роста средней заработной платы, приходящийся на каждый процент роста производительности труда, сравнивается с показателями, установленными планом, и определяются причины его изменения»⁵⁹.

Экономическая закономерность заключается также в том, что производительность труда выше, чем рост заработной платы, и это обеспечивается.

⁵⁹ Вахабов А.В., Ибрагимов А.Т.

Молиявий ва бошқарув таҳлили. - Т.:

“Шарқ” нашриёти, 2005. -480 б.

Потому что без увеличения объема выпускаемой продукции невозможно повышение заработной платы. Поэтому при регулировании фонда заработной платы предприятий и ее базы важное значение придается росту объема выпускаемой продукции в сопоставимых ценах.

Анализ уровня производительности труда является одним из важных действий при проведении аудиторской проверки расчетов по оплате труда на предприятии.

Теперь рассмотрим показатель производительности труда унитарного предприятия Трест "Куприккурилиш" в следующей таблице (табл.2.3).

4.

5.

6.

7.

8.

9.

10.2.3.-Таблица анализа среднегодовой производительности на одного работника в УП Трест Куприккурилиш.



Показатели	2018 год	2019 год	Абсолютная разница	Показатель
1. Чистая прибыль от реализации товаров (работ, услуг)	18720347	22995691	4275344	122,84
2. Среднее количество сотрудников в реестре, человека	83	85	+2	102,41
3. Среднегодовая производительность на одного сотрудника, сумов	225546	270537	44991	119,95

Как видно из таблицы 2.3, анализ среднегодовой производительности труда на одного работника унитарного предприятия УП Трест “Куприккурилиш” показывает, что в 2018 году по сравнению с 2019 годом она увеличилась на 44,991 процент, или темп ее роста составил 119,95 процента.

Абсолютный объем чистой выручки от реализации продукции (работ, услуг) за отчетный период по сравнению с предыдущим годом увеличился на 4 275 344 тыс. сумов. Известно, что объем

увеличиваются за счет повышения производительности труда каждого работника. В современных условиях решающим, поскольку возможности увеличения числа обработчиков ограничены.

Следовательно, на объем производства продукции влияют два фактора:

1. Изменение среднесписочной численности работников.
2. Изменение объема среднегодовой выработки, приходящейся на одного работника.

Для расчета влияния первого фактора разницу в численности персонала умножают на среднегодовую производительность труда, приходящуюся на одного работника в предыдущем году. Численность работников унитарного предприятия трест "Куприккурилиш" в 2018 году по сравнению с 2019 годом увеличилась на 2 человека, а среднемесячная заработная плата на одного работника в прошлом году составила 225 546 сумов.

Следовательно, $451\ 092\ \text{тыс. сум} (2 \times 225\ 546 = 451\ 092\ \text{тыс. сум})$ или $10,55\ \text{процента} (451\ 092 \times 100) / 4\ 275\ 344 =$



10,55 %) образовалось за счет увеличения числа рабочих.

Для расчета влияния второго фактора разницу в среднегодовой производительности труда на одного работника умножаем на фактическое количество работников в текущем году: то есть $44\ 991 \times 85 = 3\ 824\ 235$ тысяч сумов. Таким образом, 3824235 тыс. сумов или 89,45 процента от увеличения объема продукции ($3\ 824\ 235 \times 100 / 4\ 275\ 344 = 89,45\%$) формируется за счет повышения производительности труда.

Сумма двух факторов $451\ 092 + 3\ 824\ 235 = 4\ 275\ 327$ тыс. руб. она равна абсолютной разнице объема выпуска продукции по сравнению с предыдущим годом.

В факторном балансе разница в 17 тысяч сумов ($4\ 275\ 344 - 4\ 275\ 327$) получилась за счет округления чисел.

Приведем теперь ссылку на метод расчета коэффициентов показателя производительности труда работников методом цепной подстановки (табл.2.4).

11. 2.4-табл. Расчет методом цепной подстановок

Порядк овый	Порядо к	Факторы, входящие в формулу расчета	Конечным 2. Увеличение среднегодовой нормы выработки на одного работника	Разница по сравнению с
----------------	-------------	-------------------------------------	---	---------------------------

		Среднее количество сотрудников в реестре	Средняя годовая производительность на одного сотрудника
A	B	1	2
1	-	83	225 546
2	1	85	225 546
3	2	85	270 537

Баланс фактора: +4 275 327 тысяч сум.

Из данных таблицы 2.4 видно, что чистая выручка от реализации продукции (работ, услуг) по объекту анализа увеличилась на 4 275 344 тыс. сумов. Это изменение произошло под влиянием следующих факторов:

1. В результате увеличения среднесписочной численности работников объем чистой выручки от реализации продукции (работ, услуг) увеличился на 451 092 тыс. сумов.

уменьшило объем чистой выручки от



реализации продукции (работ, услуг) до 3824235 тысяч сумов.

Таким образом, влияние всех факторов равно общему изменению результата: $(+451\ 092) + (+3\ 824\ 235) = +4\ 275\ 327$ тыс. сум

Разница в 17 тысяч сумов (4 275 327 - 4 275 344) была за счет суммирования чисел.

Следовательно, анализ факторов, влияющих на изменение фонда оплаты труда предприятий, всегда должен находиться в центре внимания руководителя организации и аналитиков.

Список

литературы.

- Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: Учеб.пос.- Изд. 6-е, перераб. и доп. - Минск: Новое знание, 2001. – 704с.

- Любушин Н.П. Теория экономического анализа: Учеб. Пос.- М.: Юристъ, 2002. – 480 с.
- Жуков А.Л. Регулирование и организация оплаты труда: Учеб.пос. –М.: МИК, 2003. -336 с.
- Генкин Б.М. Организация, нормирование и оплата труда на промышленных предприятиях: Учебник. –М.: Normы, 2003. -400 с.
- 5.Ваҳобов А.В., Ибрагимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. - Т.: “Шарқ” нашриёти, 2005. -480 б.
- 6.Ғуломова Ф.Ғ. Бухгалтерия ҳисобини мустақил ўрганиш учун қўлланма. –Т.: “Norma” нашриёти, 2009. -495 б.
- Умарова М., Эшбоев Ў., Ахмаджонов К. Бухгалтерия ҳисоби.- Т.: “Иқтисодчи” нашриёти, 2004. – 155 б.
- Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. - Т., «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» нашриёти, 2010. - 604 б.



ТОВАР БЕЛГИЛАРИНИ ҲАММАГА МАЪЛУМ ТОВАР БЕЛГИСИ СИФАТИДА РЎЙХАТДАН ЎТКАЗИШДАГИ МУАММОЛАР

Фозилова Юлдуз Олимовна

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий
кенгаши

хузуридаги
Судьялар олий мактаби тингловчиси

АННОТАЦИЯ: Мақолада товар белгиларининг ҳаммага маълумлик меъзонлари аниқлаш юзасидан амалиётда юзага келаётган муаммолар кўриб чиқилади. Объектив мезонларнинг йўқлиги ва товар белгисининг ҳаммага маълумлик талабларига мувофиқлигини субъектив баҳолаш зарурати туфайли ҳуқуқни қўлловчи органлар ва товар белгисининг ҳуқуқий ҳимоясини талаб қилувчи шахс учун маълум муаммоларни вужудга келтиради. Ҳаммага маълум товар белгилари сифатида рўйхатга олишни рад этиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Апелляция кенгашининг қарорларини суд тартибида шикоят қилиш масалалари кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: Интеллектуал мулк, товар белгилари, ҳаммага маълум товар белгилари, Апелляция кенгаши, брендлар.

Дунёда товар белгилари сони ортиб бораётган бир шароитда унга эгалик қилувчи шахснинг ҳуқуқларини амалга ошириш ва муҳофаза қилиш асосларини такомиллаштириш масалалари тобора глобал ва долзарб аҳамият касб этиб бормоқда. Келажакда мамлакатимизда интеллектуал мулк объектлари билан боғлиқ бўлган низоларни ҳал этиш масаласи судлар фаолиятидаги долзарб масалалардан бирига айланиши тайин. Чунки, интеллектуал мулк ҳуқуқларининг бузилиши мавзуси бутун дунёда бўлгани каби бизнинг мамлакатимизда ҳам жиддий ижтимоий муаммога айланиб бормоқда

Товар белгиларини ҳаммага маълум деб эътироф этиш учун товар белгисининг расмий жиҳатдан “Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Апелляция кенгашига апелляциялар ва Ўзбекистон Республикасида ҳаммага маълум товар белгилари деб эътироф этиш тўғрисидаги аризаларни бериш ва уларни кўриб чиқиш Қоидалари”га асосан Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Апелляция кенгашининг қарорига асосан рўйхатга олиниши лозим.



Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги (бундан буён матнда Агентлик деб юритилади) товар белгиларини ва товар келиб чиққан жой номларини муҳофаза қилиш соҳасидаги ваколатли давлат органи ҳисобланади ва товар белгилари давлат реестрини ва товар келиб чиққан жой номлари давлат реестрини (бундан буён матнда реестр деб юритилади), шунингдек Ўзбекистон Республикасида ҳаммага маълум товар белгилари рўйхатини (бундан буён матнда Ҳаммага маълум товар белгилари рўйхати деб юритилади) юритади.⁶⁰

Ҳаммага маълум деб эътироф этилган товар белгиси Агентлик томонидан Ҳаммага маълум товар белгилари рўйхатига киритилади⁶¹.

Товар белгисининг ҳаммага маълум товар белгиси сифатида рўйхатга олинishi унга алоҳида тартибдаги ҳуқуқий муҳофазани яратиб беради.

⁶⁰ 2001 йил 30 августда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Товар белгилари, хизмат кўрсатиш белгилари ва товар келиб чиққан жой номлари тўғрисида”ги Қонуни 7-моддаси/
www.lex.uz/

⁶¹ 2001 йил 30 августда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Товар белгилари, хизмат кўрсатиш белгилари ва товар келиб чиққан жой номлари тўғрисида”ги Қонуни 32²-моддаси/
www.lex.uz/

Ҳаммага маълум товар белгисини ҳуқуқий ҳимоя қилиш режимининг характерли хусусиятлари шундаки, биринчи навбатда, бундай товар белгисини ҳуқуқий ҳимоя муҳофазаси муддатсиз эканлиги; иккинчидан, бир хил бўлмаган ва бир хил товар бозорида жойлашмаган товарларга нисбатан бир хил ёки уларга айнан ўхшаш товар белгисидан фойдаланишнинг олдини олишга сабаб бўлади. Шундай қилиб, ҳаммага маълум бўлган товар белгиси сифатида рўйхатга олинishi товар белгисининг ҳуқуқий ҳимоя даражасини оширади, уни ҳимоя қилиш учун кўшимча воситаларни тақдим этади. Бироқ, ҳаммага маълум товар белгиси, ўз навбатида, муайян мезонларга жавоб бериши керак.

Товар белгисининг ҳаммага маълумлик мезонларига жавоб беришини аниқлаш муаммосининг мураккаблиги ва ўзаро боғлиқ товар белгиларини таснифлаш мезонларини таҳлил қилиш долзарб бўлиб ҳисобланади. Ҳаммага маълум товар белгиларини рўйхатга олиш муаммосига нафақат Ўзбекистон, балки Россия Федерациясида ҳам жиддий эътибор берилмоқда.

Ҳаммага маълум товар белгиларини рўйхатга олиш тартиби 2001 йил 30 августда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Товар белгилари,



хизмат кўрсатиш белгилари ва товар келиб чиққан жой номлари тўғрисида”ги Қонуни; Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2019 йил 30 октябрдаги 494-мх-сон буйруғига 1-илова сифатида қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Апелляция кенгашига апелляциялар ва Ўзбекистон Республикасида ҳаммага маълум товар белгилари деб эътироф этиш тўғрисидаги аризаларни бериш ва уларни кўриб чиқиш Қоидалари” билан тартибга солинади.

Россия Федерация қонунчилигига қарайдиган бўлсак, бундай муносабатлар 2006 йил 18 декабрда қабул қилинган Россия Федерацияси фуқаролик кодекси (4-қисми), 2015 йилдаги Россия Федерацияси иқтисодий ривожланиш вазирлигининг Буйруғи билан тасдиқланган "Россия Федерациясининг Давлат хизматлари агентлиги томонидан ҳаммага маълум бўлган товар белгиларини ёки ҳаммага маълум бўлган савдо белгисини Россия Федерациясида ҳаммага маълум товар белгиси сифатида тан олиниши юзасидан Маъмурий регламенти”, Иқтисодий ривожланиш вазирлигининг 2015 йилдаги Буйруғи билан тасдиқланган “Ҳаммага маълум бўлган товар белгилари гувоҳномасида кўрсатилиши лозим бўлган маълумотлар, гувоҳнома шакли тўғрисидаги Рўйхати”, 2001 йилдаги Роспатент буйруғи билан

тасдиқланган “Россия Федерацияси ҳудудида товар белгиларининг ҳаммага маълумлиги юзасидан сўровномалар ўтказиш юзасидан Тавсияномаси”, шунингдек Ҳаммага маълум бўлган товар белгиларини ҳимоя қилиш учун қоидалар бўйича Қўшма тавсиялар (саноат мулкни ҳимоя қилиш учун Париж Иттифоқи Ассамблеяси ва Жаҳон интеллектуал мулк ташкилоти Бош Ассамблеяси томонидан қабул қилинган) билан тартибга солинади⁶².

Ҳаммага маълум товар белгиларини халқаро ҳуқуқий муҳофаза қилиш масаласи илк бор Париж конвенциясига аъзо давлатлар ўртасида 1920 йиллар давомида муҳокама этилган ва тез орада 1925 йилда Гаагада бўлиб ўтган конференцияда Париж конвенциясининг 6-бис-моддасида ўз аксини топган. Ҳаммага маълум товар белгиларини ҳуқуқий муҳофаза қилишнинг иккинчи норматив асоси 1994 йилда қабул қилинган “Интеллектуал мулк ҳуқуқининг савдо жиҳатлари тўғрисидаги келишуви”нинг 16(1) ва (2)-моддаси ҳисобланади. Шунингдек, ҳаммага маълум товар белгиларининг ҳуқуқий ҳимоясини ўзида намоён этган

⁶² Т.А.Викторов/ Регистрация товарного знака в качестве общеизвестного: выявление соответствия товарного знака критериям общеизвестности/ Журнал суда по интеллектуальным правам/2018 йил декабрь/



Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилоти кўрсатмалари (Ҳаммага маълум товар белгиларини ҳимоя қилишнинг БИМТ бирлашган кўрсатмалари шартлари тўғрисида) ҳам ўз аксини топган⁶³.

Ўзбекистон 1991 йил 25 декабрдан Саноат мулкни муҳофаза қилиш бўйича Париж конвенциясининг аъзоси ҳисобланади ҳамда шу асосда ушбу конвенцияга аъзо давлатларда ҳаммага маълум товар белгиси сифатида тан олинади ва ҳуқуқий муҳофаза қилинади.

Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2019 йил 30 октябрдаги 494-мх-сон буйруғига 1-илова сифатида қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Апелляция кенгашига апелляциялар ва Ўзбекистон Республикасида ҳаммага маълум товар белгилари деб эътироф этиш тўғрисидаги аризаларни бериш ва уларни кўриб чиқиш Қоидалари”нинг 7-бандига мувофиқ ариза ва унга илова қилинадиган материаллар товар белгисининг ҳаммага маълум товар белгиси деб эътироф этилганлигини

тасдиқлайдиган аниқ маълумотлардан иборат бўлиши керак. Қуйидаги маълумотларни ўз ичига олган ҳужжатлар шундай материаллар сифатида тақдим этилиши мумкин:

товар белгисидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудида кенг фойдаланилгани ҳақида;

товар белгисидан фойдаланилган ҳолда товарлар реализация қилинган аҳоли пунктларининг рўйхати;

ушбу товарлар реализациясининг ҳажми ҳақида;

ярмарка ва кўرғазмаларда товар белгисидан фойдаланилган маҳсулотлар ва/ёки хизматлар рекламаси ва тақдимотини ҳам ҳисобга олган ҳолда, товар белгисидан фойдаланиш усули ҳақида;

товар истеъмолчиларининг ўртача йиллик сони ҳақида;

товар белгиси машҳур бўлган мамлакатлар ҳақида;

Агентлик белгилаган тавсияномаларни ҳисобга олган ҳолда, ихтисослашган мустақил ташкилот томонидан товар истеъмолчилари орасида ўтказилган сўров натижалари ҳақида.

⁶³ Юридик фанлар ахборотномаси - Вестник юридических наук - Review of Law Sciences 1 (2018) 130-138 Z.BABAKULOV/ “Бренд” атамаси тушунчаси ва уни айрим хорижий давлатлар қонунчилигига кўра ҳуқуқий тартибга солиш масаласи/



Товар белгисидан узоқ вақт давомида, узлуксиз, кенг ва катта ҳажмда фойдаланилганлиги исботи сифатида маҳсулот сифатини назорат қилувчи ташкилотлар, савдо ташкилотлари, истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи ташкилотлар ва жамиятларнинг хулосалари (маълумотномалари), декларациялар, сифат сертификатлари ва шу каби ҳужжатлар тақдим этилиши мумкин.

Аризада товар белгисидан фойдаланиш қайси санадан бошлангани ва ариза берган шахс қайси санадан бошлаб ўз товар белгисини Ўзбекистон Республикасида ҳаммага маълум товар белгиси сифатида эътироф этганлиги кўрсатилиши керак эканлиги белгиланган.⁶⁴

Мазкур талабларни таҳлил қиладиган бўлсак, биринчидан, мазкур қоидаларда товар белгисидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудида кенг фойдаланилгани ҳақида маълумот тақдим этилиши лозимлиги белгиланган. Бироқ, кенг фойдаланганлик ҳудудий жиҳатдан

олинадиган бўлса, нечта ҳудудда фойдаланилганда ёки фоизлар ҳисобида олинадиган бўлса, неча фоиз аҳоли ўртасида фойдаланилганлиги инобатга олиними мавҳум қолган.

Иккинчидан, товар белгисидан фойдаланилган ҳолда товарлар реализация қилинган аҳоли пунктларининг рўйхати кўрсатилиши лозимлиги белгиланган. Бунда ҳам масала сон ёки фоизлар миқдорида бориб тақалади.

Учинчидан, ушбу товарлар реализациясининг ҳажми ҳақида маълумот сўралган. Бироқ ҳаммага маълум бўлган товар белгиси сифатида эътироф этилиши учун қанча миқдордаги товарлар ва неча фоиз миқдорида реализация қилинганлиги юзасидан ойдинлик киритилмаган.

Тўртинчидан, ярмарка ва кўргазмаларда товар белгисидан фойдаланилган маҳсулотлар ва/ёки хизматлар рекламаси ва тақдимотини ҳам ҳисобга олган ҳолда, товар белгисидан фойдаланиш усули ҳақидаги маълумот тақдим этиш белгиланган. Бироқ неча маротаба, қанча давр мобайнида ярмарка ёки кўргазмаларда иштирок этган бўлиши лозимлиги аниқ белгиланмаган;

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2019 йил 30 октябрдаги 494-мх-сон буйруғига 1-илова сифатида қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Апелляция кенгашига апелляциялар ва Ўзбекистон Республикасида ҳаммага маълум товар белгилари деб эътироф этиш тўғрисидаги аризаларни бериш ва уларни кўриб чиқиш Қоидалари”/www.lex.uz/



Бешинчидан, товар истеъмолчиларининг ўртача йиллик сони ҳақида маълумот тақдим этиш белгиланган. Бироқ истеъмолчиларнинг ўртача йиллик неча фоизи истеъмол қилганда ҳаммага маълум бўлган товар белгиси сифатида эътироф этилиши мумкинлиги кўрсатилмаган.

Олтинчидан, товар белгиси машҳур бўлган мамлакатлар ҳақидаги маълумот берилиши белгиланган бўлсада, бунда ҳам масала сонга бориб тақалмоқда.

Еттинчидан, қоидаларда товар белгисидан қанча давр мобайнида фойдаланиб келинганлигини юзасидан талаблар кўрсатилмаган. Мазкур маълумотларни тўплаш учун Апелляция кенгашига мурожаат қилувчи аввал бир неча ташкилотларга мурожаат қилиши лозимлигини, бу эса талабгордан жуда катта муддат талаб этишини келтириб чиқаради.

Саккизинчидан, товар белгисини ҳаммага маълум деб топиш учун сўровнома ўтказилиши мумкинлиги белгиланган. Бироқ нечта ҳудудда бундай сўровномалар амалга оширилиши лозимлиги белгиланмаган.

Шунингдек, ҳаммага маълум бўлган товар белгиси сифатида рўйхатдан ўтказиш рад этилганидан шикоят қилиш жиҳатлари

ҳам ёритиб берилмаган. Шу ўринда ҳаммага маълум бўлган товар белгисини суд тартибида тан олиш амалиётини жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Россия Федерациясининг қонунчилиги (Ҳаммага маълум бўлган товар белгиларини ҳимоя қилиш учун қоидалар бўйича Қўшма тавсиялар)га биноан энг ками олтига ҳудудда, шундан иккитаси Москва ва Санкт-Петербург шаҳарларида мажбурий, қолганини талабгорнинг ўз танлови билан сўровномалар ўтказилиши мумкинлиги белгилаб берилган. Бунда икки ҳудудда сўровномада иштирок этганлар сони беш юз минг кишидан, қолган ҳудудларда эса сўровномада иштирок этганлар сони бир юз йигирма беш кишидан кам бўлмаслиги белгиланган.⁶⁵

Ҳаммага маълум товар белгилари брендлар деб ҳам аталади. Бренд – товар белгисининг сифат жиҳатдан ортирма даражаси бўлиб, ушбу хусусиятдаги товар белгиси кенг истеъмолчилар оммасига маълумлилик жиҳатдан, ҳуқуқий муҳофаза қилиш нуқтаи назаридан алоҳида тушунча ҳисобланади.

⁶⁵ Т.А.Викторов/ Регистрация товарного знака в качестве общеизвестного: выявление соответствия товарного знака критериям общеизвестности/ Журнал суда по интеллектуальным правам/2018 йил декабрь/



Бренд – инглизча “brand-name” сўзининг америкалашган шаклидир. “Бренд” ёки “ҳаммага маълум товар белгиси” (кейинги ўринларда “бренд” сифатида тилга олинади) тушунчаси дастлаб XIX аср ўрталарида айрим Европа давлатларида прецедент ҳуқуқи тизимида кенг қўлланилган. Мазкур тушунчанинг ҳуқуқий асоси илк бор 1925 йил 6 ноябрда Гаагада бўлиб ўтган Саноат мулкани муҳофаза қилиш бўйича Париж конвенциясининг қайта кўриб чиқилиши натижасида белгиланган⁶⁶.

Брендларни ҳаммага маълум эканлигини халқаро миқёсда тан олиш ва унга амал қилиш масаласи 1994 йил 15 апрелда Марокашда қабул қилинган ва ҳозирги кунда дунёнинг 164 та давлати аъзо бўлган Интеллектуал мулк ҳуқуқининг савдо жиҳатлари тўғрисидаги Келишувда ўз аксини топган. Мазкур келишувда унга аъзо давлатларнинг бир товар белгисининг ҳаммага маълум эканлигини белгилаш аъзо давлатларда ўзаро келишув асосида уни реклама қилинганлик ҳажмидан келиб чиққан ҳолда амалга оширилиши белгиланган. Ўзбекистон мазкур келишувнинг бугунги

кунда аъзоси ҳисобланмайди. Шу сабабли ҳам брендларни халқаро миқёсда тан олиш ва уни ҳуқуқий муҳофаза қилишда Интеллектуал мулк ҳуқуқининг савдо жиҳатлари тўғрисидаги келишувга аъзо сифатида кириш жараёнини тезлаштириш ва миллий қонунчиликни тегишли келишувга мослаштириш лозим. Бу эса, ўз навбатида, “ўзбек бренди”нинг халқаро миқёсда оммалашини тезлаштиради ва янада мукамал ҳуқуқий муҳофаза қилинишини кафолатлайди.⁶⁷

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Интеллектуал мулк соҳасида давлат бошқарувини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 8 февралдаги ПҚ-4168-сон қарорида мамлакатимизда интеллектуал мулк эгаларининг ҳуқуқларини суд тартибида ҳимоя қилиш билан боғлиқ ислохотларни янада кучайтириш лозимлиги белгилаб берилган. Хусусан, мазкур қарор билан Ўзбекистон Республикаси Олий суди қошида Патент судини ташкил этиш масаласини ўрганиб чиқиб, асосланган

⁶⁶ Юридик фанлар ахборотномаси - Вестник юридических наук - Review of Law Sciences 1 (2018) 130-138 Z.BABAKULOV/ “Бренд” атамаси тушунчаси ва уни айрим хорижий давлатлар қонунчилигига кўра ҳуқуқий тартибга солиш масаласи/

⁶⁷ Юридик фанлар ахборотномаси - Вестник юридических наук - Review of Law Sciences 1 (2018) 130-138 Z.BABAKULOV/ “Бренд” атамаси тушунчаси ва уни айрим хорижий давлатлар қонунчилигига кўра ҳуқуқий тартибга солиш масаласи/



таклифларни ишлаб чиқиш⁶⁸
топширилганлиги ҳам товар
белгиларининг рўйхатга олиниш
жараёнида амалиётда муаммоларга дуч
келинаётганлигидан дарак беради.

Хулоса қилиб айтганда, ҳаммага маълум
товар белгиларининг оддий товар
белгиларидан фарқли жиҳати шундаки,
мазкур товар белгилари товар
истеъмолчилари томонидан кенг
фойдаланилади. Бу эса ўз навбатида,
мазкур товар белгиларига нисбатан
махсус ҳуқуқий муҳофаза тақдим этиш
заруратини келтириб чиқаради. Ҳаммага
маълум товар белгисига махсус ҳуқуқий
муҳофаза тақдим этишдан асосий мақсад,
ҳуқуқ эгасига сезиларли даражада моддий
зарар этказувчи, унинг ишчанлик
обрўсига путур этказувчи, шунингдек,
истеъмолчида товар ва унинг ишлаб
чиқарувчиси тўғрисида асоссиз ва ёлғон
таассурот келтириб чиқарувчи ноҳалол
рақобат ҳаракатларининг олдини
олишдан иборатдир.

⁶⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг
Қарори “Интеллектуал мулк соҳасида давлат
бошқарувини такомиллаштириш чора-тадбирлари
тўғрисида” 08.02.2019 йил ПҚ-4168-сон



ЮРИДИК ФАКТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ КЛАССИФИКАЦИЯСИ

Мухамматкулова Шахноза Арслановна

*Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий
кенгаши хузуридаги Судьялар олий
мактаби тингловчиси*

телефон: +99897-261-71-11

АННОТАЦИЯ: мақолада юридик фактнинг назарий асослари, моҳияти, классификацияси, хорижий ва маҳаллий олимларнинг бу борада олиб борган тадқиқотлари кўриб чиқилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: юридик факт, юридик ҳодиса, юридик ҳаракат, юридик фактлар классификацияси.

Юридик адабиётларда юридик фактнинг кўплаб тарифлари мавжуд. Юридик фактлар ҳақиқат фактлари деб тушунилади, уларнинг мавжудлиги ёки мавжуд эмаслиги билан фуқаролик ҳуқуқи нормалари ҳуқуқий оқибатларни бирлаштиради, яъни юридик шахслар ўртасида фуқаролик ҳуқуқлари ва мажбуриятларининг (фуқаролик муносабатларини) пайдо бўлиши, ўзгариши ёки бекор қилиниши. Фуқаролик қонунчилигидаги юридик факт ҳаётий ҳолат сифатида қонун билан белгиланиши мумкин.

Юридик факт, бир томондан, воқеликнинг бир бўлаги, воқеа ёки ҳаракат бўлса, иккинчи томондан, у қонун устуворлигида акс этган ҳодисадир. Ижтимоий ҳаёт ҳақиқатларига ҳуқуқий аҳамият берадиган моддий ва ҳуқуқий жиҳатларнинг бирлиги.

Юридик фактлар ҳуқуқ нормасида ёки ҳуқуқ нормасининг гипотезасида баён этилган, ҳуқуқий муносабатнинг юзага келиши, ўзгартириш ёки тугатишнинг зарурий шarti бўлиб хизмат қилувчи, ҳуқуқий муносабат иштирокчисининг субъектив ҳуқуқлари ва юридик жавобгарлигига олиб келган ҳамда давлат мажбурлов чораси билан таъминланган ҳолат ва шароитни ўзида ифода этади.

Юридик фактларни моҳияти, юзага келиш нуқтаи назари ва оқибати жиҳатдан қуйидаги таснифларга бўлиш мақсадга мувофиқ.

Хусусан, юзага келиш оқибати бўйича ҳуқуқни вужудга келтирувчи, ўзгартирувчи ва бекор қилувчи турларга ажратилади. Моҳиятан мазкур бўлинишнинг фарқли ва ўхшаш жиҳатлари мавжуд.

- Ҳуқуқни вужудга келтирувчи фактлар - муайян ҳуқуқий муносабатни юзага келтиради. Яъни фуқаролик-ҳуқуқий битимлар, меҳнат шартномаси, оила ҳуқуқи нормаларига биноан никоҳ қуриш, жиноят-ҳуқуқий муносабатларни келтириб чиқарадиган жиний хатти-ҳаракатлар ва бошқалар ҳисобланади.



- Ҳуқуқни ўзгартирувчи фактлар бу айрим мавжуд ҳуқуқий муносабатни ўзгартиради, бироқ томонлар ўртасидаги дастлабки муносабат сақланиб қолади.

- Ҳуқуқни бекор қилувчи факт деганда ҳуқуқий муносабат иштироучисининг ҳуқуқий муносабати тўхтатилишини назарда тутлади.

Юридик факт субъектив ҳуқуқни амалга ошириш ёки мажбурият бажарилиши натижасида барҳам топиши мумкин, бироқ, ҳуқуқий муносабатлар қайд этилганлардан ташқари, шахснинг вафоти ёки ашёнинг нобуд бўлиши натижасида ҳам тўхташи мумкин.

Шу нуқтаи назардан таъкидлаш лозимки, битта факт бир нечта юридик оқибат келтириб чиқариши мумкин. Хусусан, фуқаронинг ўлими мерос бўйича ҳуқуқий муносабатларнинг келиб чиқишига, меҳнат-ҳуқуқий муносабатларининг тўхтатилишига ва турар-жой билан боғлиқ ҳуқуқий муносабатларнинг ўзгаришига олиб келади.

Бундан ташқари, юридик фактларни ҳодиса ва қилмиш кўринишадаги шакли мавжуд бўлиб, юзага келиши жиҳатидан қуйидаги фарқли жиҳатлари кўзга ташланмоқда.

Ҳодисалар - ҳуқуқий муносабатлар субъектларининг хоҳиш-иродасига боғлиқ эмас. Масалан, zilзила, сув тошқини ва бошқа табиий офатлар. Қилмишлар ёки хатти-ҳаракатлар - бу инсонларнинг юриш-

туриши ва онгли хатти-ҳаракати ифодаси ҳисобланади.

Юридик фактларнинг юридик акт ва юридик қилмиш шаклидаги кўриниши ҳам мавжуд бўлиб, юридик актлар инсонларнинг ҳуқуқий оқибатга йўналтирилган қарори бўлиб, ҳуқуқни қўллаш актлари, ташкилотлар ўртасидаги шартномалар, фуқаролик-ҳуқуқий битимлар, фуқароларнинг аризалари ва бошқа ҳуқуқий оқибатни келтириб чиқарадиган хатти-ҳаракатларни ўз ичига олади.

Юридик қилмишлар инсонларнинг реал ҳаётий муносабатлари мазмунини ташкил қиладиган юриш-туришидир. Юридик қилмишлар кўрсатилган оқибатларга эришиш учун йўналтирилган ёки йўналтирилмаганидан қатъи назар, ҳуқуқий оқибатлар келтириб чиқаради ва қуйидаги икки асосдан иборат бўлади. Ҳуқуққа хилоф хатти-ҳаракатлар - бу жиноятлар ва ҳуқуқ нормаларига қарши қилинган хатти-ҳаракатлар. Ҳаракатсизлик - бу инсонларнинг ташқи ифодага эга бўлмаган пассив юриш-туришидир.

Юридик фактларнинг таснифи ва классификацияси бўйича тадқиқот олиб борган тадқиқотчилар фикрича фактлар тизими ва шакли қуйидагилардан иборат бўлиши лозим.



Масалан, тадқиқотчи Г.Ф. Шершеневич фикрича юридик факт битим, ҳуқуқбузарлик ва ҳодисадан иборат.

Шунингдек, В.И. Синайский тадқиқоти моҳияти бўйича юридик факт рухсат этилган (юридик операциялар ёки ҳа ракатлар), рухсат этилмаган (ҳуқуқбузарликлар) ўз ичига олади.

Ю.С.Гамбаров юридик фактлар юридик ҳаракат ва юридик ҳуқуқбузарликдан иборат бўлиб, иштирокчилар ҳатти-ҳаракати ва хоҳиши ифодаси деб таърифлайди.

Рус олими О.А.Красавчиков таҳлили бўйича юридик фактлар ҳуқуқни шакллантирувчи, ҳуқуқни ўзгартирувчи ва ҳуқуқни чекловчи ҳамда ижобий ва салбий фактларга бўлинади.

Баён этилган тадқиқотлар натижасида мазкур соҳада қатор илмий назария ва мактаблар шаклланди.

Мисол учун, В. А. Белов томонидан юридик фактларнинг моҳиятини очиб берувчи назария ишлаб чиқилди, назария моҳиятига кўра юридик факт асосини шахслар, фактлар ва товарлар ташкил этади.

Бундан ташқари, ушбу назарияда юридик ҳолат, юридик фикция ва юридик презумпцияларни юридик фактлардан ажратиб, алоҳида белгиларни очиб берган.

Тадқиқотчи О.В.Баринов адабиётларда қайд этилган юридик фактларни ҳуқуқни вужудга келтирувчи, ўзгартирувчи ва бекор қилувчи турларга бўлиниши шартли эканлиги, чунки муайян вазиятда битта юридик факт бир вақтнинг ўзида ҳам ҳуқуқни вужудга келтирувчи, ҳам ҳуқуқни ўзгартирувчи ва ҳуқуқни бекор қилувчи факт ролини бажариши таъкидлаган.

Таъкидланган назария ва илмий ёндашувлар моҳиятидан шу нарса кўринадикки, фактлар ижтимоий ва расмий ҳуқуқий, иродавий ёки техник, ҳуқуқ, ҳаракат каби кўринишлари мавжуд.

Юридик фактларнинг умумий ва махсус бўлинишини ҳисобга олган ҳолда: фуқаролик ҳуқуқининг умумий қисмини, юридик фактларнинг институционал навларини аниқлашнинг умумий қоидаларини ўрганиш муҳимдир. Шу муносабат билан битимлар таснифига кўра аниқланган фактлар умумий фуқаролик аҳамиятига эга бўлиши мумкин.

Мажбуриятларнинг юзага келиши ва бажарилиши жиҳатидан ҳам фактлар шартномавий ва шартномавий бўлмаган кўринишда намоён бўлади.

Юридик фактларни маъмурий-ҳуқуқий ва фуқаролик-ҳуқуқий фактларга ҳам таснифлаш мумкин. Маъмурий қарорларга ҳокимият ва бошқарув органларининг қарорлари, норматив актлар, юридик шахсларни рўйхатга олиш, нотариал



харакатлар, суд ижрочиларининг
харакатлари ва бошқалар киради.

Классик фуқаролик ҳуқуқида юридик
фактлар-битимлар, ақлий фаолият
соҳасидаги ҳаракатлар, ҳис-туйғулар,
хусусий юридик шахслар, унитар давлат
корхоналари, масалан, кўчмас мулк техник
инвентаризацияси бюроси, хусусий
нотариуслар томонидан берилган титул
ҳужжатлари ва бошқа ҳужжатлар, уларнинг
фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларига
таъсир этувчи нусхалари киради.

Демак, юридик фактлар ва уларнинг
таснифини ҳисобга олиб, уларни
ўрганишни давом эттириш, уларнинг янги
турлари, модификациялари (масалан,
юридик фактлар гуруҳлари, ҳаққоний
тизимлар ва бошқалар) кўринишини
асослаб бериш ва қўллашга хизмат қилади.

Бу ўз навбатида фуқаро ҳуқуқини
ҳимоясини таъминлашга ва ҳуқуқий
муносабат иштирокчилари тенглигига ва
ҳуқуқ субъектларининг ушбу
муносабатдаги фаолиятини ўзаро
мутаносиб амалга оширишга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Шершеневич Г.Ф. Курс гражданского права. Тула: Автограф, 2001. С. 76.
2. Синайский В.И. Русское гражданское право. М.: Статут, 2002. С. 144

3. Гамбаров Ю.С. Гражданское право. Общая часть. М.: Изд. Зерцало, 2003. С. 646.
4. Красавчиков О.А. Указ. соч. С. 135.
5. Общая теория советского права / Под ред. С.Н. Братуся и И.С. Самощенко. М.: Изд. Юрид. лит-ра, 1966. С. 303-305;
6. Рожкова М.А. Указ. соч. С. 68-86.
7. Зинченко С.А. Юридические факты в механизме правового регулирования. М.: Волтерс Клувер, 2007. С. 25-30.
8. Камышников Д.А. К вопросу о месте актов органов юридического лица в системе юридических фактов. - Проблемы правового положения участников юридических лиц: сборник научных статей / Отв. ред. С.В. Мартышкин. Самара: Универс групп, 2008. С. 118.
9. Алексеев С.С. Общая теория социалистического права Свердловск 1964 с157-171 Алексеев С,С. Проблемы теории права Т1 Свердловск 1972 С 341-370.
10. Баринов О.В. Классификация юридических фактов и их значение в трудовом праве. Вестник ЛГУ(Серия "Экономика, философия, право)1978 №23 Вып 4.С 71
11. Гордон В.М. Основание иска в составе изменения исковых требований. Санкт Петербург 1902-



ПЕДАГОГ ШАХСИ ВА ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ТАЪЛИМДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ЮКСАЛТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Чўлпонова Хадича Тошбаевна-

ТДТрУ катта ўқитувчиси

Аннотация

Психологик баҳолаш шахсининг профессионал қобилият ва малакаларини аниқлашга йўналтирилади. Психологик баҳолаш педагог фаолияти самарадорлигини ошириш ва профессионал малакаларни юксалтиришда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бунда педагог ўз малака ва қобилиятларини ривожланганлик даражаси ҳамда уларни ривожлантириш имконияти ҳақида ўзи қарор қабул қилиб, ўзининг профессионал келажагини лойиҳалаштириши мумкин.

Annotation

Psychological assessment focuses on identifying a person's professional abilities and skills. Psychological assessment is important in improving the effectiveness of pedagogical activities and professional development, in which the educator can decide on the level of development of their skills and abilities and the

opportunity to develop them, and design their own professional future.

Таянч иборалар: Психологик баҳолаш, объектив баҳолаш, субъектив баҳолаш, баҳолаш технологиялари

Basic terms: Psychological assessment, objective assessment, subjective assessment, assessment technologies

Психологик баҳолаш махсус ташкил этилган тадбир сифатида, авваламбор, индивидга хос хусусиятларни, қобилият ва сифатларни аниқлаш ҳамда баҳолаш натижаларидан мақсадли равишда фойдаланишни назарда тутди. Психологик баҳолаш кўпқиррали инсон руҳиятининг конкрет жиҳатларини аниқлаш ва ўлчашдан иборат. Таълим жараёнида психологик баҳолашга эътибор қаратсак, авваламбор, бу тадбир малака мутахассис шахсининг профессионал қобилият ва малакаларини аниқлашга йўналтирилади. Психологик баҳолашнинг технологик жиҳатига эътибор қаратиш эса, педагог шахси ва фаолиятини баҳолашга оид маълумотлардан профессионал малакаларни мақсадли йўналтириш, уларни ривожлантириш ва охир-оқибат уларданишлаб чиқариш манфаатлари йўлида фойдаланиш заруриятидан келиб чиқади.



Психологик баҳолашнинг педагог фаолияти самарадорлигини ошириш ва профессионал малакаларни юксалтириш имкониятини билиш учун, авваламбор, баҳолаш жараёни ва унинг психологик моҳиятини аниқлаш зарур бўлади.

Таълим жараёнида ташкил этилган баҳолаш тадбирини технологик жараён сифатида қабул қиларканмиз, авваламбор, ушбу ҳаракатларнинг мақсадга мувофиқ тарзда ташкил этилган алгоритмик тузилмасини назарда тутамиз. Психологик нуқтаи назардан баҳолаш, таълим жараёни иштирокчиларига хос бўлган қобилият ва хусусиятларни аниқлаш, улардан мақсадли тарзда фойдаланишдир. Таълим тизими олдида турган вазифалардан келиб чиққан ҳолда баҳолаш тадбирлари турлича тус олиши мумкин. кўп ҳолларда психологик баҳолаш маълум хизмат доирасида талаб қилинадиган қобилият ва шахснинг зарур малакаларига йўналган бўлади.

Педагогларни баҳолашда икки асосий ҳолат доимо кўзга ташланади. Биринчи ҳолат бевосита баҳолаш мақсадидан келиб чиқади ва кўпроқ номзодни янги лавозимга лойиқлиги юзасидан маълумот олишга йўналган. Иккинчи ҳолат эса, самарали педагог ҳақидаги норматив моделни яратишга қаратилган бўлиб, маълум жиҳатдан бундай эҳтиёж ҳар бир таълим муассасаси педагоглари истагидан келиб чиқади. Самарали педагогнинг норматив моделини яратишдаги асосий хусусият

шунда намоён бўладики, деярли доимо самарали педагогнинг самарасиздан ажратиб олишнинг қонуний фарқлари изланади. Бундай ёндошувларда икки тоифа педагогнинг фарқини қайдан излаш масаласи турлича намоён бўлади ва эътибор қуйидаги жиҳатларга қаратилади: шахснинг қобилияти, характер белгилари, педагогик ёндошув услуби, мотивация соҳасига хос хусусиятлари, жамоани бошқарув соҳасидаги тажрибаси.

Педагогнинг профессионал компетентлигини баҳолаш технологиясининг хусусияти шундаки, бундай баҳолаш натижаларига кўра педагоглар ўзларидаги профессионал малакаларни англаб борадилар. Натижада, профессионал моделга нисбатан фаол муносабатнинг шаклланиши ҳамда профессионал ва шахсий комиллика оид аниқ режалаштириш тадбирларини амалга ошириш кутилади. Баҳолаш жараёнида педагог ўз малака ва қобилиятларини ривожланганлик даражаси ҳамда уларни ривожлантириш имконияти ҳақида ўзи қарор қабул қилиб ўзининг профессионал келажагини лойиҳалаштириши мумкин.

Педагогнинг профессионал компетенцияларини баҳолаш технологияси ўз тартиби ва қуйидаги босқичларига эга:

- дастлабки босқич – буюртмани аниқлаштириш ва расмийлаштириш, ижрочиларни тайинлаш;



- тайёрловбосқичи – компетенцияларнинг мезон ва стандартларини ишлаб чиқиш;
- тадқиқотбосқичи – мавжуд компетенцияларни баҳолаш, лойиҳадаги асосий амалий тадбирларни амалга ошириш;
- яқунловчи босқич – профессионал компетенцияларни баҳолаш натижаларини ҳисобот тариқасида тайёрлаш ва раҳбариятга тақдим этиш.

Педагог кадрларни психологик жиҳатдан баҳолаш уларнинг профессионализминини юксалтириш нуқтаи назаридан таҳлил қилинар экан, бунда баҳолаш услублари ҳам, натижаларни қайта ишлаш ва уларни талқин этиш ҳам ўзига хос хусусият касб этади. Педагог кадрларни баҳолаш технологиясини уларнинг бошқарув салоҳиятини юксалтириш нуқтаи назаридан таҳлил этарканмиз, ўтамуҳим соҳа сифатида баён этамиз.

Педагог кадрларда бошқарув компетенцияларини яратиш услубияти бугунги психология фанида, хусусан, бошқарув ва меҳнат психологияси соҳаларида яратилган методологик тамойилларга асосланади. Бунда, давлат хизмати ва бошқаруви фаолияти атрофлича таҳлил этилади, соҳа хусусиятлари ва уларга мос талаблар аниқланади ҳамда

самарали фаолият юритувчи раҳбар модели яратилади. Айнан шу модел ва уни тавсифловчи хислатларни аниқлаш мақсадида махсус психодиагностик методларга мурожаат этилади ҳамда раҳбарларни баҳолаш диагностик услублари бататерияси яратилади. Қуйида баҳолаш услублари классификацияси ҳамда уларнинг қўлланиш хусусиятлари устида тўхталиб ўтишни лозим топдик.

Педагог шахсини баҳолаш услублари ҳақида гап кетганда, айрим психодиагностик методлар устида тўхталиб ўтиш лозим бўлади. Замонавий психодиагностикада шахс ҳақида атрофлича маълумот тўплаш имконини берувчи турли хил методлар мавжуд. Лекин бугунги кунда кадрлар билан ишлашда «... психологик тестлар инсон ҳақида маълумот берувчи асосий услублардан бири», деган фикр ўрнашиб қолган. Психологик тестларнинг аҳамияти ва фойдасини камситмаган ҳолда шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, ҳар қандай услуб ўзининг маълум бир камчилик ва амал қилиш доирасига эга. Қуйидаги жадвалда турли хил методлар ёрдамида инсонни баҳолаш ва у ҳақида олинадиган маълумотларнинг ҳаққонийлик ва ишончлилиқ даражаси келтирилган. Кўриниб турганидек, тестлар мазкур қиёсий жадвалда бор йўғи 40 % гача тўғри маълумот бериши аниқланган. Шунинг учун ҳам, психологик тестларни асосий маълумот манбаи деб билиш доим ҳам



хақиқатга тўғри келмайди. Жадвалдан кўриниб турганидек, замонавий гуруҳий баҳолаш тоифасига кирувчи «Ассесмент Марказ», «Экспертли баҳолаш» услублари ишончлилиги юқорилигига кўра ажралиб туради.

Педагогни баҳолаш ҳақида гап кетар экан, баҳолашнинг объективлиги энг муҳим тамойилга айланади ва бундай талабни бажаришда уч асосий вазифага таяниш лозим бўлади.

1. Педагогнинг профессионал ва шахсий хислатларини баҳоловчи мезонларни аниқлаш ва бунинг асосида умумлашган факторларни, яъни компетенцияларни яратиш;

2. Ўрганилиши лозим бўлган компетенцияларнинг миқдорий кўрсаткичларини ифодаловчи услубларни қўллаш.

3. Энг мақбул баҳолаш жараёнини танлаш.

Педагогнинг бошқарув фаолиятига лойиқлигини объективбаҳолаш учун методлар мажмуидан фойдланиш ўринли ва булар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- экспертли баҳолаш услублари;
- диагностик ишчан ўйинлар;
- стандартлашган сўровномалар.

Экспертли баҳолаш ёрдамида педагогга хос бўлган хислатларни саралаш уч хил усулда амалга оширилиши мумкин:

1) хислатвасифатга баҳо бериш (мас., 0 дан 5 гачаёки 0 дан 10 гача);

2) сифатларни намоён бўлишига кўратартиблаш ;

3) сифатларни жуфтга кўрата қослаш.

Баҳолаш соҳаларининг ўзаро тарқоқлиги ва мавжуд услубларнинг спецификаси, аввала мбор, баҳолаш мақсади дан келиб чиқади. Агар раҳбарларни самарали фаолиятига кўрат абақалаш зарурати турғизилса, унда «Натижага йўналган бошқарув» тамойилига асосланган баҳолашда нфойдаланиш мумкин.

Агар раҳбар фаолиятидаги у ёки бу нуқсонлар, ёки муваффақият сабабларини аниқлаш зарурати бўлса, унда кўпроқ умум психологик ёндашув устунлик қилади, экспертли баҳолаш эсараҳбар шахси ҳақида объектив маълумот олиш ва унинг ташкилот миқёсидаги ўрнини аниқлаш жараёнида қўл келиши мумкин.

Клайв Флетчернинг таъкидлашича, педагогни баҳолаш унинг компетенциясини кўтариш ҳисобига персонални ривожлантиришга хизмат қилиши керак. Шунинг учун аттестация,



биринчинавбатда, персонални ривожлантириш воситасидир.

Персонал

аттестациясинингасосий мақсади қуйидагилар:

1. Информацион (компания персоналига зарур маълумотларни етказиш).

2. Лавозим бўйича кўтарилиш учун захира яратиш.

3. Касб таълимига зарурати бўлган ларни аниқлаш (касб таълимида турини ишлаб чиқиш, персонални ўқитиш ва қайта тайёрлаш).

4. Маъмурий (кадрлар юзасидан қарор қабул қилиш учун асос: лавозим да кўтариш, тушириш, алмаштириш, ишдан бўшатиш).

5. Коммуникация алоқаларини яхшилаш (ўзаротушуниш, ўзаро муносабат ва биргаликда олиб бориладиган фаолият, раҳбар ва ходим ўртасидаги муносабатлар).

6. Меҳнати учун рағбатлантириш.

Аттестация биринчидан, раҳбарнинг бошқарув фаолияти ниқай даражада бажаришини баҳолаш ва иккинчидан, раҳбар фаолияти ва шахсига ҳосил бўлган индивидуал жиҳатлар ҳусусида маълумот

тўплаш ва бунинг асосида кадрлар сиёсатини ривожлантириш тадбиридир.

1. Аттестация

натижаларига қидара ҳбарга маълумот беришнинг мотивациясига ижобий таъсир кўрсатади, инсонни яна да самарали фаолият юритишга ундайди.

2.

Педагоглар маалақасини ривожлантиришнинг жалаштириш.

Баҳолаш тадбири орқали раҳбарнинг маълумот ва маалақасига оид чекланишлар аниқланади, шахсий потенциални ўрганилади ҳамда олинган маълумотлар асосида коррекция тадбирлари белгиланади

3. Карьерани режа жалаштириш. Аттестация индивидуал ривожланишнинг режасини ишлаб чиқиш ва карьерани режа жалаштиришнинг яна да сифатли ташиқил этишим қонини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алтухов В.В. Тесты и карьера: тестирование при приёме на работу и в профессиональной жизни, Справочник Карьериста, 2006-2007, вып.4.
2. Анциферова Л.И. О динамическом подходе к психологическому изучению личности // Психологический журнал. - 1981. - Т. 2. - С. 8 - 18.



3. Могилёвкин Е.А. Карьерный рост: диагностика, технологии, тренинг. – СПб.: Речь, 2007. – 336 с.
4. Реан А.А. Психология личности: социализация, поведение, общение. Современное учебно-практическое пособие. М., 2006.
- 5.



ИСХОҚХОН ТЎРА ИБРАТНИНГ АСАРЛАРИДА МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАР

Гулчехра Гаффарова

Чирчиқ давлат педагогика институти
профессор в.б.
gafforovagulchehra3@gmail.com

Мирахмедова Шохид

Чирчиқ давлат педагогика институти,
Ижтимоий фанлар кафедраси
магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада hozirgi davr ёшларнинг маънан етук, тарбияли ҳамда комил инсон сифатида шаклланишида Исхоқхон Ибратнинг ҳаёт йўли адиб замондошлари ва ўша вақти матбуот нашрлари материаллардан лавҳалар, адибнинг ўз таржимаи холига оид маълумотларни ўрганишига, ҳамда тингловчини маънавий-ахлоқий анъаналарнинг янги ахлоқий таълим сифатида ёритиб беришиги сабаб бўлди. Шунингдек, муаллифлар замонавий таълимда тарбия ва маънавият соҳасини ривожлантириш зарурлигини таъкидлашади.

Калит сўзлар: шахс, ташкилотчи, тил, босмаҳона, халқ, ҳукумат, адиб, илмий, ижодий, уйғониш даври.

Gulchehra Gaffarova

Chirchik State Pedagogical Institute Professor
gafforovagulchehra3@gmail.com

Mirahmedova Shohida

Chirchik State Pedagogical Institute, Master of
Social Sciences

ANNOTATION

КИРИШ

Маърифатни ҳаётга сингдириш маориф тизими оркали амалга оширилади. Демак, маърифат - билим ва маданиятнинг кўшма мазмуни бўлиб, маориф эса ана шу мазмунни ёйиш қуроли, воситасидир. Маърифат асосан умумий ва ўрта махсус билим берувчи мактаб ва касб-хунар коллежларида тарқатилади. Маърифат тушунчаси маориф тушунчасидан кенг бўлиб, билим ва маданиятни ёйиш ва юксалтиришнинг ҳамма турлари, шакллари ва соҳаларини ўз ичига олади.

Жамиятда маърифат, яъни билим маърифатпарварлар оркали ёйилади. Маърифатпарвар - маърифат учун курашувчи илм, билим чироғини ёқувчи, маърифат хомийси ва тарафдори демакдир.

Инсониятнинг бир жамиятдан иккинчи жамиятга, бир тарихий даврдан иккинчи



бир тарихий даврга ўтиши маърифатпарварликдан бошланади. Замоннинг энг етук, онгли, фидоий, элим, юртим деб яшовчи, узоқни кўзловчи маънавиятли кишилари маърифатпарварлик билан шуғулланадилар.

Маърифат маънавий қарамлик, қўрқув ва ҳадикни бартараф этади. Инсонга беқиёс илохий қудрат, мислсиз салоҳият бахш этади. Шунинг учун озодлик курашчилари мамлакат, миллат мустақиллигини халқнинг маърифатини уйғотишда деб биладилар ва маърифат учун курашадилар.

Туркистон маърифатчилиги мактаби бой ўтмиш ва улкан меросга эга. Махмудхужа Бехбудий, Мунавваркори Абдурашидхонов, Абдулқодир Шакурӣ, Ашур Зоҳидий, Саидрасул Саидазизий, Исҳоқхок Ибрат ва Аҳмад Донишлар XX аср охирларида фаолият бошлаб, мамлакатни, халқни миллий зулм ва қолоқликдан холос этишнинг ягона йўли маърифатда деб билдилар. Бу фидоий зотлар мустабид тузум ва жаҳолатга, маънавий қуллик ва зулм зўравонликка қарши бор кучлари билан кураш олиб бордилар. Бу маърифатпарвар боболаримиз дунё кезиб, жаҳон халқларининг илму маърифати, маданияти билан танишиб, мустамлака, унинг кишанларини илм чироғи билангина парчаламоқ, озодлик сари бошламоқ мумкин эканлигини чуқур хис этдилар. Шу сабабли ҳам энг аввало юртимизда мактаб маориф ишларини ривожланишида ҳам

назарий ҳам амалий жихатдан азму шижоат намунасини кўрсатдилар.

Шундай буюк зотлардан бири улуғ маърифатпарвар Исҳоқхон Ибрат номи Президентимиз Шавкат Мирзиёев ташаббуси ва алоҳида эътибори туфайли бутун мамлакатимизга танилди. Бунгача Ибрат ҳақида, унинг ижоди ва фаолияти ҳақида тор доира, яъни мутахассис олимларгина билар, айрим кичик илмий тадқиқотлар қилинган бўлса-да, халқимиз маданий тараққиётига кўшган ҳиссаси, улкан хизматларидан кенг омма беҳабар эди.

Президентимиз 2016 йил 2 ноябрь куни Наманган вилояти сайловчилари билан сайловолди учрашувда бир қатор наманганлик тарихий шахслар қаторида Исҳоқхон Ибрат ҳаёти ва фаолияти, унинг маънавий-маърифий ҳаётимизда тутган ўрнига кенг тўхталди. Давлатимиз раҳбари ўша учрашувда алломанинг тарихий аҳамиятга молик ишларини эътироф этиб, йиғилганларга шундай мурожаат қилди: “Тўрақўрғонда Ибрат домла ҳаёти ва фаолиятига бағишланган музей борлиги яхши, албатта. Лекин савол туғилади: шундай улуғ зотнинг халқимиз учун қилган буюк хизматларини бутун мамлакат миқёсида ўқиб ўрганиш, меросини тарғиб қилиш, авлодларга етказиш учун шунинг ўзи етарлими? Менимча, Тўрақўрғонда у кишига атаб замонавий боғ яратиб, ёдгорлик мажмуасини ташкил қилсак, буюк



бобомиз олдидаги қарзимизни узган бўламиз!”

Жадидчилик ҳаракатининг энг ёрқин намоёндаларидан бири бўлган Исҳоқхон Ибрат нафақат тарихчи, шоир, тилшунос, ношир ва ўқитувчи балки ўз даврининг етук диний илмлар уламози, қозиси, энг биринчи навбатда ватан равнақи учун фидойилик билан кураш олиб борган, бутун умр илм излашга интилган тарихий шахсдир.

Эрк идеалини тараннум этишда, маърифатпарварлик ғояларини тарғиб қилишда, ижтимоий муҳитга халқчиллик ва кузатувчанлик билан қарашда, мустамлака зулми туфайли кучайган иллатларни қоралашда Ибрат ўз замондошлари Муқимий, Фурқат ва Завқийларга ҳамфикр, маслакдош эди.

Шунинг учун ҳам Ибрат ижодиди маърифатпарварлик ва ҳажв уйғунлашгани яққол сезилади. Аслида бу икки йўналиш орасида мутлақо зиддият йўқ, аксинча, уларнинг бири бошқасини тўлдириб туради. Аниқроқ айтганда, Ибратдаги бу хусусият ягона эзгу мақсадга икки томонлама ёндошув, холос. Негаки, ёмонликни инкор қилишнинг ўзи эзгуликнинг тасдиғини англатади ёки яхшиликни мадҳ этиш жаҳолатни қоралашдир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ.

Исҳоқхон Жунайдуллаҳўжа ўғли Ибрат маърифатпарвар шоир, забардаст тилшунос, тарихшунос олим, илк ўзбек матбаатчиларидан бўлиб, унинг серқирра илмий-ижодий ва ташкилотчилик фаолияти ўз давридаёқ кенг миқёсда эътироф этилган. Маърифатпарвар шоир, маъорифчи Иброхим Давроннинг куйидаги сўзлари бунинг далили:¹“Исҳоқхон тўра улуми диния ва фанния ва адабияда устози комиллигибилан бутун Фарғона ва дигар жиҳат Озийойи вустода инкор ўлунмас даражада бир мавқеи мумтоза тутмушдир. Исҳоқхон Ибрат улуми динияда мударрисдур, фунуни дунявияда, било шубҳа, архитектор, техник ва механик ва физикия илминда тилифонист, тилиғрофист, ва яна химик десак яна оздур, чунки бу илмларни билур, Исҳоқхон тўра олим ва фозил бир зоти олий бўлуб, бу турфа фазоили инсонияга молик... Баъзи ихтироти ҳам бордур.

“Мазкур ўринда муаллиф Ибратни дин илмида мударрис, дунёвий илмлар ичида эса архитектор, техника физика ва механик илмларидан хабардор яхши телефонист, химик, қатор ихтиролари ҳам бордур дея, Ибратнинг қатор ютуқларини санайди. Истиклол йилларида Ибрат ҳаёти ва ижодини ўрганиш борасида катта ишлар амалга оширилди. 2005 йилда таниқли адабиётшунос олимлар Улуғбек Долимов ҳамда Нурбой Жабборов Исҳоқхон Тўра Ибратнинг “Танланган асарлари” ни нашр



этдилар. Унда адибнинг илгари илм аҳлига маълум бўлмаган асарлари ҳам киритилган.

1 Исҳоқхон тўра Ибн Жунайдуллоҳ хўжа. Мезон уз-замон Тошкент-Токио, 2001

Исҳоқхон Ибрат янгича таълим-тарбия тизимининг афзалликларини исботлашда кўпроқ ўзи эришган ютуқларга, амалий фаолиятга, татбиқ қилган янги усулларга асосланади. Мутафаккирнинг қуйидаги фикрларига эътибор беринг:

¹“Мен ўзим ҳам ўзимга қаршилик ўнта-ўн бешта болаларни эски мактабда ҳеч баҳра топмай, беҳуда юрдуқларина жоним ачиб, Қозон тарафиндан ...бир мулла (Ҳусайн Мақаев) жалб эдуб, мактаб қилиб бердим. Мактабнинг кушодиға уч ой бўлгани йўқ, йигирмадан зиёда кичик болалар, ўн-ўн бешта одамлар “алиф нима?” деган саволина “калтак” деб жавоб берувчилар тамоми саводи чиқуб, ҳар нарсани ёзадурғон бўлдилар. Тўрт бешта етти ва саккаиз саналар Қўқонда юриб, ҳеч нарса билмаган муллабаччалар битамомихи арабий муколамаға қодир бўлиб, ҳар бир китобларни мутолаа этадурғон бўлдилар. Шу сабабдин биз тажриба қилиб, бул ўқутишга (Усули савтияга) тамом ихлос қилдик”. Исҳоқхон Ибрат илғор мактабдор сифатида ўз мактабида ҳафталик дарс жадвалини жорий қилди.

²“Исҳоқхон Ибрат Европа мамлакатларида бўлиб, улардаги маданий ҳаёт ва техника янгиликлари билан танишди, замонавий

фан ютуқларини эгаллаш учун Ғарб тилларини билиши зарур эканлигини яхши англади.. Лекин бу маданий ҳаётдан баҳраманд бўла олмаётган, мустамлака зулми остида азоб чекаётган араб, ҳинд ва бошқа шарқ халқлари ҳаёти уни изтиробга солди. Исҳоқхон ўз Ватанида кўрган мустамлака зулмининг оғир дахшатларини чет мамлакатларида ҳам кўрди, ҳамма мустамлака малакатларида халқ ҳаёти бир — хилда оғир эканлигини тушунди. Мустабидларга нафрат билан қаради. Ибрат бу мамлакатларда наққошлик, кишиларга муҳр, ўйиб бериш, масжид-мадрасалар пештоқларига, қабр тошларига нақш солиб бериш, баъзи китоблардан намуналар кўчириб бериш йўли билан тирикчилик ўтказди.”

— Президентимизга аллома қолдирган улкан маънавий мерос ҳақида иштиёқ билан гапириб бердим, — дейди давлатимиз раҳбарига ҳамроҳлик (гид) қилган Наманган Давлат университети таянч докторанти, ёш олим Сардор Рустамов. — Бинобарин, дунёвий билимларни чуқур ўрганган, етти тилни мукаммал билган серқирра ижодкор, олим ва шоир, педагог Ишоқхон Ибратнинг ҳаёти ва ижоди биз, ёшлар учун чинакам ибрат мактабидир. Президентимиз алломанинг “Олти тилли луғат”, “Хатлар мажмуи”, “Тарихи Фарғона”, “Тарихи маданият”, “Замон тарозуси” сингари 14 та тилшуносликка оид, илмий-тарихий,



бадий хамда маърифий асарлари хақидаги маълумотлар билан танишаркан, домланинг кўплаб китоблари қатағон йиллари ёқиб ва кўмиб юборилгани адабиётимиз учун катта йўқотиш бўлганини афсус билан таъкидладилар. Аждодимизнинг архитектура ва дизайн масалаларидаги ёндашувлари акс этган лойиҳани кузатиб, унинг бу тажрибасини ҳам кенг ёйиш ва ўрганиш зарурлигини уқтирдилар.

1 "Туркистон вилоятининг газети", 1907, 72-сон

2. Танланган асарлар [Матн] И.Ибрат-Т.: "Маънавият", 2020.-86.

НАТИЖАЛАР

Буюк маърифатпарвар аждодимиз Исҳоқхон Тўра Ибрат ижоди ва ҳаёти ҳозирги авлод ёшларига намуна бўлмоғи шарт. Чунки илмсиз авом ҳар ғояга ишонувчан ва турли йўлларга киришга мойил бўлади деган ғоясини ҳеч қачон эсдан чиқармоғимиз лозим. Ҳозирги ўқув ва ўқитув жараёнларини Исҳоқхон Тўра Ибрат ғояларига асосланиб янгича услубга олиб келиш мақсадга мувофиқ деб ўйлайман. Ҳамда ўқув жараёнларида Ибрат таълимотидан фойдаланган ҳолда ўқув дарслик ва ўқув режаларини амалга ошириш механизминини кенгроқ татбиқ этиш лозим. Ўшандагина сифатли билим бериш ва сифатли билим олиш натижасига эришамиз.

МУҲОКАМА

Исҳоқхон Жунайдуллаҳўжа ўғли Ибрат маърифатпарвар шоир, забардаст тилшунос, тарихшунос олим, илк ўзбек матбаатчиларидан бўлиб, 1862 йилда Наманган яқинидаги Тўрақўрғон қишлоғида туғилган. Дастлабки маълумотни эски мактабда, сўнгра онасининг қўлида олади. Кейинроқ Кўқонга бориб мадрасага ўқишга киради. Исҳоқхон Ибрат 1886 йилда мадрасани тугатиб, Тўрақўрғонга қайтиб келади. У ўз фаолиятини педагог сифатида қишлоқда маърифат тарқатиш билан бошлади. Ўша йили эски маҳаллий мактаблардан анча фарқ қилувчи янгича мактаб очади.

Исҳоқхон Ибрат 1887 йилда ҳаж сафарига отланади. Сўнг у Шарқ мамлакатлари бўйлаб саёҳатни давом эттиради. Европанинг Истамбул, София, Афина, Рим каби марказий шаҳарларида бўлди, анча вақт Жидда шаҳрида истиқомат қилади, Бомбей ва Калкуттада яшайди. Исҳоқхон у ерларда кўп ишлатиладиган араб, форс, ҳинд-урду ва инглиз тилларини мукаммал ўрганди. У 1896 йилда ўз ватанига қайтиб келди.

Тўрақўрғонда янги усул мактабини очган (1907), ўз қишлоғида «Матбааи Исҳоқия» номли литография ташкил қилган (1908). Исҳоқхон Ибрат янги мактаблар очиш, ўқитувчилар тайёрлаш, аёлларни илм-маърифатли қилиш ишларида фаол қатнашган. Ўз шеърлари («Тарихи чопхона», «Маданият ҳақида маснавий»,



«Газета хусусида», «Қалам»)да маҳаллий ва чор амалдорлари кирдикорларини фош этган («Илми Ибрат», шеърӣ тўплам, 1909).

1901 йилда араб, форс, ҳинд, турк, ўзбек ва рус сўзларидан таркиб топган «Луғати ситта-алсина» («Олти тилли луғат») асарини босмадан чиқаради. Мазкур луғат жадид мактабларида шарқ ва рус тилларини ўрганишда бирдан бир қўлланма сифатида фойдаланиб келинди.

Исҳоқхон Ибрат 1912 йилда ёзувлар тарихига бағишланган, асариде лотин, юнон, хитой, қинд, араб, Кирилл ёзувининг келиб чиқиши, ривожланиш тарихи ҳақида маълумот берилган «Жомеъ ул-хутут» («Ёзувлар мажмуаси») асарини яратди ва ўз матбааси «Матбаайи исҳоқия»да босмадан чиқарди.

Ибрат чин қалбдан ўз халқининг илми, маърифатли бўлишини истади. Кейинги 20-йил ичида 14 та илмий-тарихий, лингвистик асар ёзди. 30 йиллик поэтик ижодининг мажмуи бўлмиш «Девони Ибрат» шеърлар тўпамини тузди. Тарихшуносликка оид «Тарихи Фарғона», «Тарихи маданият» ва «Мезон уз-замон» илмий асарларини яратди.

Исҳоқхон Ибрат «Туркистон вилояти газети», «Садои Туркистон», «Садои Фарғона» газ. ларига ёзган мақолаларида фан, маърифат ва маданиятни тарғиб этган.

Ибратнинг сўнгги йиллардаги ҳаёти анча таҳликали ўтди. 1935 йилдан у ҳамма лавозимлардан олиб ташланди. 1937 йилнинг апрел ойида 75 ёшли кекса шоир ва маърифатпарварни ҳибсга оладилар. Ибрат Андижон турмасида вафот этади.

Исҳоқхон тўра Ибрат “Олти тилли луғат”ига форс, араб, ўзбек, ҳинд ва русча сўзларни жойлаштирган бўлса, “Хатлар мажмуаси”да қадимий финикия, яхудий, сурёний, юнон, славян, санскрит, лотин, арман, грузин ва яна бошқа бир қатор ёзувлар ҳақида қимматли маълумотлар беради ва илмий хулосалар чиқаради.

“Луғати ситта ал-сина” – 53 бет, “Жомеъ ул-хутут” эса – 132 саҳифа ҳажмида китобат қилинган. Ибрат тил ўрганувчиларга қулай бўлиши учун луғат китобини икки қисмга ажратади.

Ибратнинг ўша пайтда “Туркистон вилоятининг газети”да босилган “Эски мактаблар хусусида” (1907), “Наманганда маҳаллий лавозимларга ўтказилган сайловлар хусусида” (1910 йил 21 март), “Фарғона вилоятидаги кўҳна шаҳар – Ахсикент тарихи” (1913 йил 23 июнь), “Тўрақўрғондан мактуб” (1914 йил 2 март), “Тошкент сафаридаги маълумотларим” (1914 йил апрель) каби мақолалари «зиёу-сом» сайтига жойлаштирилганки, уларнинг ҳар бири биттадан тарих. Чунончи, “Открытие Коканд–Наманганской железной дороги” (“Туркистон вилоятининг



газети”даги қатъий қоидага кўра, сарлавҳалар русча ёзилган) “Қўқон–Наманган темир йўлининг очилиши” мақоласи ҳам бағоят қимматли тарихий манба эканлиги билан аҳамиятли: “Ушбу 7 июлда Наманган оташ ароба йўли битиб, они очилганлигиға шукрона байрами бўлубдур... ўшал аснода фотографлар ва ҳам алоҳида чақирилган кинимотограф ўшал ерда ҳозир бўлуб, тасвирларини олиб турибдур. Ул поез Чуст истансиясиға расми юришда юруб бориб, андин кейин Сирдарёға кўп харажатлар билан бино қилган ёғоч кўфрикдин ўтуб, ...Наманганға келгандин кейин истансаға ниҳоятда кўп адади ниҳоятда кўб – 25000-30000га етибдур”. Мақола газетанинг 1912 йил 15 июль сонидида чоп этилган. Демак, Наманган темир йўли 1912 йил 7 июлда ишга туширилганки, бунинг манбаси жуда ишончли ва у журналист Ибрат қаламига мансубдир. Баъзи манбаларда Наманган темир йўли ишга туширилган сана – 1906 йил деб янглиш кўрсатилган, у ҳолда Ибрат 1907 йилнинг кузида литографик машинани поездда Оренбургдан Қўқонгача олиб келгач, бу ёғига дастгоҳни от-арава ва туяларга ортиб машаққат чекмасди.

Исҳоқхон Ибрат ўзининг тугалланмай қолган асари – “Замон тарозуси”да ўша пайтдаги салбий ўзгаришларнинг халқ руҳиятига таъсири ва миллатни емираётган иллатлар хусусида куюниб ёзади. Асарни

тўққиз мезонга бўлиб, уларда бир-биридан муҳим масалаларга тўхталади.

Масалан, адиб иккинчи мезонда одамларни гуруҳбозликка берилмасдан, бирлашиб яшашга чақиради. Бу тўғрида марҳум ва машҳур шоиримиз Муҳаммад Юсуф ҳам: “Ўзбекни ўлдирар маҳаллийчилик”, дея назмий таассуф билдирганди. Табиийки, миллатнинг гули бўлган ўткир қалам соҳиблари бу каби нуқсонларга бефарқ бўлишмаган.

Судхўрлик ҳам жамият ривожига ғов бўладики, бу тўғрида учинчи мезонда гап боради. Ибратнинг замондоши Садриддин Айний (1878–1954)нинг “Судхўрнинг ўлими” асари ҳам айни шу масалага бағишланганки, ўша пайтда халқ бу иллатдан нечоғли зада бўлганини англаш қийин эмас.

Олтинчи мезон бидъатнинг зарари ҳақида. Бидъатга берилган бандага бойлик буюрмайди. Чунки, бидъат дабдабозлик ва исрофгарчиликнинг отасидир. Ибрат бундай беҳуда сарф-харажатлардан наф йўқлигини қуйидагича талқин қилади: “Ва ҳам жамъияти никоҳ тўйида булар қиладурғон исрофлари бир киши ўғлини тааллуқ қилдурмоқ бўлганда, фотиҳа тўй деган бир катта тўй бўладур... Ҳоли булки, шул фотиҳага беш юз сарф бўлса, никоҳ тўй куни албатта икки минг сарф бўлур. Бу сарфларни(нг) ўғлига ва қизига бирон тийин нафъи йўқ, ўртадаги кишилар ейдур,



ичадур, киядур. ...Сиф-сидирға балоси қалмоқдан қолган одат. Мана бу балолар устимизда оғир бир юкдур. Буни кўтаруб, мақсадга етиш бисёр қийиндур”.

Буни қарангки, маросимларни камчиқим қилиб ўтказиш бугун давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Бу асар ана шу жиҳатлари билан айна замонда ҳам ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ...

Ибратнинг уйида махфий ғаладон бўлиб, 1937 йил 14 март тунидаги тинтувда унинг сири очилмаган ва Исҳоқхон тўра қаламига мансуб бир қатор битиклар, жумладан, “Тарихи Фарғона” асарининг қўлёзмаси ҳам НКВД чангалига тушмаган. Ибрат қизи Зарифахонга тайинлаган эканки:

– Ўша қоғозларни атлас кўйлагингдай асрагин...

Бу гапни бизга Ибратнинг набираси Жамилахон Низомова (Зарифахоннинг қизи) айтиб берди. Зарифахон арабий ёзувдаги “Фарғона тарихи”ни аввал лотин, кейин кирилл ёзувига кўчирган.

“Тарихи Фарғона” асари аввалида “Аммо баъд, бу бандаи Худо ва уммати Мустафо алкан ул-лисони, нотавон, аъно Қози Исҳоқхон соқини қалъаи Хон, аъно Тўрақўрғон мин музофоти Фарғона ва аз иклими Туркистон, бу тариқа аён ва бу тарзда баён қилур...” жумласини ўқиймизки, демак, Ибрат бу асарни қозилик даврида (у 27 йил Тўрақўрғон қозиси

бўлган) ёзган. Бу тарихий асарда асосан ўзбек давлатчилиги ривожининг оқсаган босқичи, яъни хонликларнинг таназзулга юз тутиши, рус босқинчилиги кулфатлари кенг тасвирланади.

Хозирда Наманган вилояти Тўрақўрғон туманидаги 14-ўрта мактаб ва Тошкентдаги бир кўчага Исҳоқхон Ибрат номи берилган.

ХУЛОСА

Бугунги кунда маънавий ва руҳан соғлом ёшларни тарбиялаш масаласи республикамиз тараққиётида сиёсатимизнинг устувор йўналишларидан бирига кўтарилган бир пайтда тараққиётимиз манфаатлари фуқароларимиздан, айниқса ёшлардан юксак даражадаги маънавий соғломлик ва маърифий етукликни хислатларини шакллантиришни талаб этмоқда. Биринчи Президентимиз И.Каримов таъкидлаганидек: “...ҳар қандай тажовуз ва террорчилик хуружларининг олдини олиш, уларнинг мафкуравий заминийўқотиш ва аввало, ёшларимизнинг қалби ва онги, соғлом тафаккури учун курашни тақозо этмоқда”. Дарҳақиқат, Юртбошимизнинг ушбу фикрлари жамиятимизда айниқса, ёшларни яна бир бор сезгир, огоҳ ва хушёр бўлишга чорлабгина қолмай, уларни маънан соғлом, теран фикрловчи, етук илмий салоҳиятга эга инсонлар сифатида камол топишга ундайди.



Албатта ёшларимизнинг қалби ва онги, соғлом тафаккури учун курашмоқлик бугунги ижтимоий ҳаётимизнинг асосига айланмоқда. Бу борада жамиятимизда кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. Муҳими миллий ғоя асосида ёшларни тарбиялаш тизими шакллантирилди. Шунинг билан бир қаторда ёшлар тарбиясида жамиятнинг ҳар бир аъзоси ўз маъсулиятини оширишга зарурат ҳам бор. Чунки, ёшларнинг қалби, онги тафаккури соғлом ғоялар асосида шаклланиши учун ҳар бир шахс масъулдир. Ёшларнинг бўш вақтларини қандай ўтказаетганлиги ҳар бир ота-она, маҳалла аҳли, ўқитувчи педагогнинг эътиборида бўлиши зарурлигини барчамиз яхши тушунамиз. Бугунги кунда “ёшларнинг бўш вақти, душманнинг иш вақти”-деган шиор илгари сурилмоқда. Бунинг учун, айниқса маҳалла фуқароларининг диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия бўйича маслаҳатчилари имкониятларидан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Аксарият ёшларнинг тарбияси оиладан, қолаверса, у туғилиб ўсган маҳалладан бошланади. Шундай экан, мазкур масалаларга ниҳоятда жиддий ва эътибор билан ёндошишни бугунги адолатли сиёсат барчадан талаб қилаётганлиги табиий.

Умуман олганда, Исҳоқхон Ибрат музейи билан танишув асносида Президентимиз вилоят зиёлилари, нурунийлар ва алломанинг авлодлари

билан ҳам самимий мулоқот қурдилар. “Мен Ибрат домла ҳақида кўп ўқияпман, — дедилар Юртбошимиз. — Унинг эл-юртимиз тараққиёти йўлидаги фидокорона хизматлари нафақат ўз даврида, балки бугунги кунда ҳам барчамиз учун ҳақиқий ибрат намунаси бўлиб қолмоқда. Шундай буюк аждоди борлиги билан наманганликлар ҳар қанча фахрланса арзийди ва ёшларимиз ҳам шунга муносиб бўлишлари керак!”

Бугун Ибрат домланинг орзулари ушалди. Унинг тарихий аҳамиятга молик ишлари инобатга олиниб, хотирасини абадийлаштириш юзасидан улкан мажмуа барпо этилди. Зеро, фидойи инсонлар ёди ҳамиша барҳаёт.

Адабиётлар

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017-йил 7-8 июл кунлари Наманган вилоятига ташрифи давомида сўзлаган нутқидан
2. Ибрат. Танланган асарлар.-Т.Маънавият 2005 й
3. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти-Т.Маънавият 2004 й
4. Қосимов Б Миллий уйғониш-Т.Маънавият 2002 й



5. Қаҳҳоржон Йўлчиев “Исҳоқхон Тўра Ибрат” ўқув методик қўлланма 2018 йил

Асарлари

6. Ибрат, И. Жоме ул-хутут /Исҳоқхон тўра Ибрат.-Наманган: “Исҳоқия” босмахонаси, 1912.-120б.-1 нусха.

7. Долимов, У. Исҳоқхон Ибрат / Улуғбек Долимов.- Тошкент: Шарқ, 1994.-144б.
(Истиклол фидойилари).

8. Ибрат. Сиддикий Ажзий. Сўфизода: танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 1999.-232 б.

9. Исҳоқхон, Ибрат тўра. Танланган асарлар / Исҳоқхон тўра Ибрат .-Тошкент: Маънавият, 2005.-129 б.

10. Исҳоқхон Ибрат яратган боғ: рисолалар, мақолалар, хотиралар, Ибрат асарларидан намуналар/ тузувчи ва бош мақола муаллифи Лутфулло Мағҳмуд.- Наманган: Наманган, 2018.-262 б.



MUNDARIJA:

1	TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MA'NAVIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Qundizaliyeva Safiya Xolmirza qizi</i>	1
2	АБМК НИНГ ПК-1520 ДА ЖОЙЛАШГАН УЧЛИК СУВ ТАКСИМЛАШ ИНШООТИДАН ФОЙАЛАНИШНИ ЯХШИЛАШ БУЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР ИШЛАБ ЧИКИШ <i>Oripov Imomnazar O'ktamovich, Ergashev Xurshid Erkin O'g'li</i>	4
3	ТЎДАКЎЛ СУВ ОМБОРИНИ ЮҚОРИ БЪЕФЛАРИДА МУАЛЛАҚ ОҚИЗИҚЛАРНИНГ ЧЎКИШИ ВА ЎЗАН ТУБИ ОҚИЗИҚЛАРИНИНГ ТЎПЛАНИШИГА ҚАРШИ ЧОРА ТАДБИРЛАР. <i>Oripov Imomnazar Uktamovich</i>	7
4	ТЎДАКЎЛ СУВ ОМБОРИНИНГ ЭКСПЛУАТАЦИЯСИНИ ЯХШИЛАШ МАҚСАДИДА ЧОРА-ТАДБИРЛАР ИШЛАБ ЧИКИШ <i>Oripov Imomnazar Uktamovich Ergashev X.Э</i>	12
5	О'ЗБЕКISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI <i>Zilola Madaminova</i>	16
6	MODDALARNING AGREGAT HOLATLARI	24
7	OILADA PEDAGOGIK MULOQOT <i>Abaeva Intizor</i>	31
8	YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH – MASOFAVIY O'QITISH TIZIMIDAGI ASOSIY MUAMMO <i>Abduraimov Sherali, Abdullayeva Shabona</i>	34
9	“SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATI” <i>Nazirov Akmal Xurramovich</i>	37
10	ALISHER NAVOIY IJODIDA TARBIYA MASALASI TARG'IBI <i>Ibragimova Marg'uba</i>	46
11	OILAVIY MUAMMOLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI VA ULARNI ECHISH USULLARI <i>Allanazarova Nurjamal Ziuaddin qızı</i>	50
12	BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI <i>Abduraxmonova Noila Nasim qizi</i>	55



Artikova Nozima Muxitdin qizi

13	BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA TELEDASTUR VOSITALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI <i>S.B.Ashirova</i>	60
14	RANG TASVIR XUSUSIYATLARI <i>Avezova Latofat Djumanazarovna</i>	66
15	UMAVIYLAR XALIFALIGIGA BARHAM BERGAN SARKARDA <i>Azamat Fayzullayev</i>	73
16	SAHRODAGI LUVR <i>Bektursinova Gulmira</i>	81
17	INSON KAPITALINING YOSHLAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNINI <i>Bobur Ubaydullayev</i>	84
18	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH <i>Jumabayeva Nazira Davlatiyarovna</i>	91
19	BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI <i>Nilufar Ma'murova Ismonjonovna</i>	95
20	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Qudratova Gulchehra Toxirovna</i>	98
21	DEONTOLOGIK MADANIYAT MOHIYATI, PEDAGOGIK AHAMIYATI <i>Boyjigitova Saodat</i>	102
22	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV <i>Artikova Muhayyo Botiraliyevna Boynazarova Maftunaxon Mannonjon qizi</i>	107
23	BUYUK PYOTRNING HARBIY ISLOHOTLARI <i>B. To'raqulov Magistrant: N. Nurmatov</i>	112
24	CHO'L PON SHE'RIYATI – MILLIY UYG'ONISH DAVRI MAHSULI <i>Arapova Dilnoza</i>	119
25	BOSHLANG'ICH SINFLAR SINFDAN TASHQARI O'QITISH DARSLARIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH - MUSTAQIL FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA <i>Dadabolayeva Oqilaxon Saydaliyevna Kasimova Dildoraxon Boriboyevna</i>	123
26	OILADA FARZAND TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR <i>Danabayeva Kamila</i>	129



27	YAPON ADABIYOTIDA XVII ASR SHAHAR ADABIYOTINING VUJUDGA KELISH TAMOIYILLARI. <i>Egamova Kamola Akmal qizi</i>	134
28	“ANIQ INTEGRAL YORDAMIDA YUZA VA HAJMLARNI HISOBLASH. AYLANMA JISM HAJMI.” O’. <i>Karimova. U.Eshmetova</i>	140
29	O‘ZBEKISTON EKOLOGIYASI, MUAMMOLARI VA EKOLOGIK VAZIYATNI YAXSHILASH YO‘LLARI <i>Eshmurodov Oybek Jumaqulovich</i>	148
30	FUNKSIYALAR, ULARNING ANIQLANISH VA QIYMATLAR SOHALARI, FUNKSIYANING JUFT-TOQLIGI, TESKARI FUNKSIYA MAVZULARIGA OID MISOLLAR YECHISH <i>Kurambojeva Gulbahor</i>	151
31	MUSIQA - QIZLAR TARBIYASINING MUHIM OMILIDIR. <i>Halikova Gavharoy Sadikov Shuxrat</i>	160
32	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI <i>Dilmurodov Asadbek Dilmurodjon o‘g‘li</i>	164
33	ТОШКЕНТ СУВ ОМБОРИНИНГ ТЕХНИК ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШ ВА ИШОНЧЛИЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР ИШЛАБ ЧИҚИШ <i>Бакиев М.Р. Турғунбоев Иброҳим</i>	170
34	YOSH BASKEDBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING VOSITA VA USULLAR <i>Xaydarova Gulchexra Ismoiljonovna</i>	174
35	THE MANIFESTATION OF NATIONAL TRADITIONS ON THE INTERNET TEXT <i>Eshquvvatova Gulmira Norjigitovna</i>	180
36	ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA XODIMLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Turdiyev Javoxir Toxir o'g'li</i>	185
37	MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALAR PSIXOMOTOR RIVOJLANISHINING ÒZIGA XOS XUSUSIYATLAR <i>Ikromova Dilafro'z Furqatovna</i>	191
38	INDIRA GANDI MA'MURIYATI DAVRIDA HINDISTONNING TASHQI SIYOSATI <i>Raxmatullayev M Komilov Sobit</i>	194
39	JISMONIY TARBIYA VA SPORT YOSHLAR KELAJAGI POYDEVORI SIFATIDA <i>Mirjalilova Umrinisobonu Mirmaxmud qizi Mirzanov Sherzod Sirliboyevich</i>	204



40	YOSHLARNI OLIY TA'LIMGA JALB QILISH VA KASBGA YO'NALTIRISH <i>G'affarov Faxriddin Qodirovich</i>	209
41	KIMYO FANINI O'QITISHDA FANLARARO BOG'LANISH <i>To'laganova Muhabbat Qo'chqorovna</i>	213
42	ISSIQXONALAR KONSTRUKSIYALARINI TAYYORLASH VA LIMON KO'CHATINI EKISH TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Omonjon No'monovich Sulaymonov Mohiraxon Lutfullayevna Zokirova</i>	217
43	ANTONIN DVORJAK "SLAVYAN RAQSLARI"NING MILLIYLIK ASOSI <i>Mamatmusayeva Go'zal G.A Tursunova</i>	224
44	O'SMIR SHAXSINING RIVOJLANISHIDA AXLOQ ME'YORLARIDAN CHETGA CHIQUISHINING SABABLARI <i>Rasulova Muhabbat Baxriddin qizi</i>	230
45	KOMIL INSON TARBIYASIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING AHAMIYATI <i>Umurqulova Sharifa</i>	234
46	O'QUVCHILARNING O'QITUVCHILARGA BO'LGAN MUNOSABATINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Sabirov Dilmurad Baxtiyarovich.</i>	238
47	РУССКИЙ ОНЛАЙН В ПАНДЕМИЮ: ИСПЫТАНИЕ ИЛИ ШАНС? <i>Бабаджанова Алмагуль Казакбаевна Джаксымуратова Гулсанем Мустапаевна</i>	241
48	TEACHING AND LEARNING HIGH SCHOOL STUDENTS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN PROFILE TO ENGLISH-LANGUAGE HISTORICAL DISCOURSE BASED ON THE INTEGRATION OF EDUCATIONAL SUBJECTS "ENGLISH" AND "HISTORY" <i>Zubayda Kuchkarova Hakimovna, Barnogul Shukurova Urinbaevna</i>	247
49	BOSHQARILADIGAN CHORRAHALAR FAZASI O'ZGARISHINING YTH LARGA TA'SIRINI O'RGANISH VA CHORRAHANING O'KAZUVCHANLIGINI OPTIMALLASHTIRISH <i>E.B.Islamov F.B.Amirqulov</i>	250
50	MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI <i>Ergasheva Shoxista</i>	255
51	CHET TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR SAMARASI <i>Mingboyeva Dilnoza Ravshanbekovna</i>	258



52	BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI FANINI O'RGATISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHLTLARI <i>Muhayyoxon Qodirovna Soliyeva, Muyassarxon Qodirovna Tojiyeva</i>	261
53	ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MUMTOZ ADABIYOT <i>Tursunova Nigora Yunusovna</i>	265
54	BADIIY ADABIYOT YUKSAK MA'NAVIYAT ASOSI <i>Norova Iroda Shirinboyevna</i>	268
55	NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLAR <i>Nuraliyev Prim</i>	270
56	BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA DIDAKTIK TALABLAR <i>Nuriddinov Hotam Maxmud O'g'li</i>	274
57	ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK IMKONIYATLAR <i>Izbasarova Gulchehra Ergashevna</i>	278
58	ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH. <i>Esonova Muxtasar Barakaboyevna</i>	282
59	Fizika darslarida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar. <i>Pirnazarova Nargiza Begimqulovna</i>	285
60	MODERN APPROACH AND METHODS TO ELT IN ELEMENTARY SCHOOL <i>Rahmatullayeva Nilufar Baxtiyarovna</i>	296
61	"WAYS OF TEACHING ENGLISH AT SCHOOL" <i>Rajabova Farangiza Nazar qizi</i>	302
62	TA LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH. <i>Rajabova Munisxon Rajab qizi.</i>	306
63	BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR MOTIVLARINING XUSUSIYATLARI <i>Rasulova Zohida Sindarovna – GulDU, Norboyeva Sayyora Muratovna – GulDU</i>	314
64	СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА <i>Хайдарова Феруза</i>	318
65	САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ АЙРИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ <i>Дониёр Рузमतов</i>	321
66	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA POLISEMANTIK SO'ZLAR <i>Samatova Shaxzoda Ruzimurod qizi, Ilmiy rahbar: Qo'ldoshev Akrom</i>	325



67	TARIX DARSLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH <i>Shaymardanov Murodulla Djurayevich</i>	329
68	ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХУҚУҚИЙ ТАРТИБОТНИ ТАЪМИНЛАШ ФУНКЦИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕХАНИЗМИ <i>Soburov Hasanjon Shavkatjon o'g'li</i>	332
69	Mechanisms of implementation of state law enforcement functions in new Uzbekistan <i>Soburov Hasanjon Shavkatjon o'g'li</i>	334
70	SPORTCHILARNING MUSOBAQAGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI VA MUSOBAQA OLDI HOLATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR <i>Fotima Gaziyeva Ergashevna , Mamadaliyev Azamat Mamasidiq o'g'li</i>	343
71	PERSPECTIVES OF MODULE SYSTEM TRAINING IN DENTISTRY <i>Safarov M.T., Azizova Sh.I., Melikuziyev K.K.</i>	349
72	STOMATOLOGIYADA ZAMONAVIY TA'LIM <i>Xabilov Nig'mon Luqmonovich , professor Mirhayotov Mirodil Mirvali o'g'li , asistent Ruzimbetov Hayot Bazorboy o'g'li</i>	356
73	GEOGRAFIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL QILISH <i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna</i>	359
74	PAST TEMPERATURALI YARIMO'TKAZGICH MODDALARNING FIZIK XOSSALARI <i>Usmonov Saidjon Abdusubxon o'g'li , Mamasiddiqova Shaxrizoda Muhammadsiddiq qizi</i>	362
75	KOREYA YARIMOROLI DAQADIMGI DAVR ARXELOGIYASI. <i>Muhiddinov Og`abek Oybeko`g'li. Bozorova Madina Tõraboyqizi</i>	365
76	TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV <i>Jaksilikova Aqsungul Berdixanovna</i>	370
77	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "YURAK" KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI <i>Turaxonova Gulnozaxon Baxodirxon qizi</i>	374
78	KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHAMIZ <i>Umbarova Dilrabo</i>	379
79	TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	382



80	YER YUZIDA ICHIMLIK SUVI MUAMMOSI <i>Yunusova Nigora</i>	387
81	SO'ZLARNING KO'CHMA MA'NOSI: METAFORA USULI BILAN MA'NO KO'CHISH TURLARI VA ULARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI QIYOSIY TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA) <i>O'sarov Ibrohimjon Kurpashevich, Aminakhon Rustam qizi</i>	390
82	NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI YOPISHQOQ TAXTADAN FOYDALANIB O'TISH USULLARI <i>G'ofurov Akrom</i>	395
83	YOSH REGBICHILARNI TEXNIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. <i>G'. Aliyeva, Xayrullo To'ychiboyev</i>	400
84	YOSHLAR DUNYOQARASHI VA XULQ-ATVORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR <i>Jabborova Nafisa Jumanazarovna</i>	410
85	MAKTABLARDA ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Yusupov Abdurahmon</i>	415
86	ФАРЗАНДИНГИЗГА ХАҚИҚИЙ ДЎСТ ТАНЛАШДА АДАШМАНГ! <i>Ахмедова Инобатхон Хатамовна</i>	418
87	O'QUVCHI O'QITUVCHI O'RTASIDAGI MUOMALA JARAYONINI YAXSHILASHDA PSIXOLOGIK MASLAHAT <i>Jo'rayeva Nargiza Hasanovna</i>	424
88	MAKTABLARDA ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI O'QITISH TIZMINI RIVOJLANTIRISH <i>Shokarimova Sarvara Abdullaevna</i>	428
89	MAKTABLARDA INGLIZ TILI O'QITISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH VA INGLIZ TILIGI QIZIQISH O'YG'OTISH YO'LLARI <i>Atajanova Gulnoza Abdumutalibovna</i>	432
90	BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH <i>Boboqulov Azizjon Ziyadullayevich, Saidova Shoirra Ismoilovna</i>	436
91	OILALARDA ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLIISH YO'LLARI <i>Matyaqubova Minavar Komilovna</i>	440
92	ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АБАЯ <i>Клара Байбуриевна Фазилова</i>	443



93	БИР ХУЖАЙРАЛИ СУВ ЎТЛАРИДАН ЧОРВА МОЛЛАРНИ ОЗИҚЛАНТИРИШДА ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ <i>Хайрулло Турсунов Шарофиддинович, Ҳакимов Ўткир Давлатович.</i>	449
94	НАРУШЕНИЯ ЗВУКОПРОИЗНОШЕНИЕ У ДЕТЕЙ. <i>Мавлянова Ирода Дилмурод кизи</i>	455
95	BASQARIW ORGANLARI HUQIQIY STATUSI. <i>Jumanov Azamat , Voltaev Tolqin</i>	458
96	Ёш волейболчиларда ҳаракат тезлигини пульсометрик қиймати аниқланган машқлар асосида ошириш афзаллиги <i>Абдулхаева Зулфия Ахмад кизи , Одилова Феруза Валижон кизи.</i>	461
97	ҲАРБИЙЛАР ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИДА ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ <i>Абзамжонов Ш.Д.</i>	467
98	ЗОМИН СУВ ОМБОРИНИНГ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР ИШЛАБ ЧИҚИШ <i>Қурамамов Сардоржон Хабибулло ўғли , З.Ирисбоев</i>	471
99	МАСТЕР И МАРГАРИТА <i>Дильмуродова Умида Анвар кизи , Ахмедова Парвина Маноновна</i>	474
100	"ЎҚУВЧИ ВА ЎҚИТУВЧИ ОРАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. МУАММО ВА ЕЧИМЛАР" <i>Мусинбаева Мийргул Кабуловна</i>	480
101	ПАМЯТЬ - ВЕЧНА, ЧЕСТЬ – СВЯЩЕННА <i>Куйжанова Ойдиной Равшановна</i>	487
102	ПРОБЛЕМА ИННОВАЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ <i>Фарух Аббасов,</i>	490
103	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РЕЧЕВЫХ УПРАЖНЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ УСТНОЙ РУССКОЙ РЕЧИ <i>Махкамова Ш. Т.</i>	496
104	ПРИМЕНЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В СТОМАТОЛОГИИ. <i>Сафаров М.Т., Муродова М.К.</i>	505
105	СУБРОГАЦИЯ ТУШУНЧАСИ ВА ИҚТИСОДИЙ СУДЛАРДА СУБРОГАЦИЯ ДАЪВОЛАРИНИ ҲАЛ ЭТИШ АМАЛИЁТИ <i>Фазлиддин Ёдгоров Бехзод Абдурахимов</i>	510



106	АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ҲАДИС ИЛМИДАГИ МЕРОСИ. <i>Сулаймонова Анорхол</i>	516
107	РАСШИРЕНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА (ИЗ ОПЫТА РАБОТЫ) <i>Сусанна Феридовна Укибаева</i>	521
108	"УСПЕХ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЖЕКА ЛОНДОНА"МАРТИН ИДОН" <i>Olimova Diana Jamol qizi , Axmedova Parvina Manonavn</i>	528
109	БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЭКОЛОГИК ОНГНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХОРИЖИЙ МАНБАЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ <i>Халилова Фароғат Каримжоновна, Обидов Дилшодбек Хабибуллаевич</i>	534
110	ИЛМ ОЛАМИНИНГ МАФТУНКОР ЮЛДУЗИ <i>Султонсаидова Саодат</i>	538
111	ВЛИЯНИЕ ПОЛИМЕРНОГО ПРОИЗВОДНОГО МОЛОЧНОЙ КИСЛОТЫ НА ВСХОЖЕСТЬ СЕМЯН И ВЕГЕТАТИВНЫЙ РОСТ САЖЕНЦЕВ ПШЕНИЦЫ <i>Хазраткулова Севара Мусиновна</i>	546
112	ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ДАСТУРЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎҚУВ ЮТУҚЛАРИНИ БАҲОЛАШНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА <i>Файзиева Дилафруз Қахрамоновна, Исмоилов Абдували Абдумаликович</i>	556
113	АНАЛИЗ ФОНДА ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ И ОБЪЁМА ВЫПОЛНЕННЫХ РАБОТ ЗА 2018-2019ГОД <i>Шадиева Г.М, Толипов Х.Н.</i>	563
114	ТОВАР БЕЛГИЛАРИНИ ҲАММАГА МАЪЛУМ ТОВАР БЕЛГИСИ СИФАТИДА РЎЙХАТДАН ЎТКАЗИШДАГИ МУАММОЛАР <i>Фозилова Юлдуз Олимовна</i>	570
115	ЮРИДИК ФАКТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ КЛАССИФИКАЦИЯСИ <i>Мухамматкулова Шахноза Арслановна</i>	578
116	ПЕДАГОГ ШАХСИ ВА ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ТАЪЛИМДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ЮКСАЛТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА <i>Чўлпонова Хадича Тошбаевна</i>	582



117 ИСХОҚХОН ТЎРА ИБРАТНИНГ АСАРЛАРИДА МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАР

588

Гулчехра Фаффарова , Мирахмедова Шохид
